O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“GLOBALLASHUV DAVRIDA TURKIY TILLAR INTEGRATSIYASI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari TO‘PLAMI

I KITOB



Navoiy shahri,
24.05.2024

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYANING TASHKILIY QO‘MITASI

B.B.SOBIROV	**Navoiy davlat pedagogika instituti rektori, texnika fanlari doktori, professor**
NECATI DEMIR	**Institut fur die Welt der Turken (Germaniya) direktori; Anqara G‘azi Universiteti professori**
A’ZOLAR:	
D.Narziqulova	**Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, pedagogika fanlari doktori(DSc), professor**
X. QURBONOV	**Navoiy davlat pedagogika instituti yoshlar bilan ishlash bo‘yicha prorektori, tarix fanlari nomzodi,dotsent**
G‘. YODGOROV	**Navoiy davlat pedagogika institute o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori, informatika fanlari nomzodi, dotsent**
D. HAMROYEVA	**Institut fur die Welt der Turken (Germaniya) O‘rta Osiyo-O‘zbekiston bo‘limi mas’uli**
A. ALLABERDIYEV	**Navoiy davlat pedagogika institute O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani, f.f.f.d., dotsent**
A. XOLMURODOV	**Navoiy davlat pedagogika institute O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori**
N. SADINOVA	**Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.**
F.RAXIMOV	**Navoiy davlat pedagogika instituti ATM TB bo‘limi boshlig‘i** **TEL: 0(436)225-19-23** **E-mail: navgospi_inbox.ru Web-sayt: www.nspi.uz**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYANING TAHRIR HAY'ATI
Mas'ul muharrir N.U. SADINOVA

1-Sho'ba

N.SADINOVA	**Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.**
R.SHAROPOVA	**Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.**
N.RAXMONOV	**Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.**

2-Sho'ba

A.XOLMURODOV	**Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori, f.f.d.**
Z.AHMEDOVA	**Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.**
D.NUSRATULLAYEVA	**Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o 'qituvchisi, f.f.f.d.**

3-Sho'ba

V.CHO'LIYEVA	**Navoiy davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, f.f.d. (DSc)**
SH. ASHUROV	**Navoiy davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti**

4-Sho'ba

F.YULDOSHEV	**Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.d. (DSc)**
H.SUYUNOV	**Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, p.f.n.**
M. AXMEDOVA	**Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi**

Ассалому алайкум, халқаро конференция иштирокчилари, хонимлар ва жаноблар!

Бугунги халқаро илмий-амалий конференцияда Сиз азизларни кўриб турганимдан хурсандман.

Хуш келибсизлар!

Бугунги глобаллашув даврида туркий тилли давлатларнинг яқинлашуви нафақат иқтисодий-сиёсий, балки маънавий-руҳоний жиҳатдан ҳам аҳамиятлидир. Азаз-азалдан улар бир дин, бир маслак бўлиб, бир ариқдан сув ичиб яшаб келган. Маданий-маърифий қарашлари, тили ва адабиётидаги муштарак жиҳатлар ҳануз сақланиб қолмоқда.

Муҳтарам Президентимиз Шавкат Мирзиёев бугунги глобаллашув жараёнида Инсониятни маънавий таназзуллардан асраб қоладиган ягона куч адабиёт экани, миллий меросини асраб қолиш ва тарғиб этиш заруратини таъкидлайди: “Адабиёт халқнинг юраги, элнинг маънавиятини кўрсатади. Бугунги мураккаб замонда одамлар қалбига йўл топиш, уларни эзгу мақсадларга илҳомлантиришда адабиётнинг таъсирчан кучидан фойдаланиш керак. Аждодлар меросини ўрганиш, буюк маданиятимизга муносиб буюк адабиёт яратиш учун ҳамма шароитларни яратамиз”.

Ҳар бир халқнинг ўзига хос шаклланиш жараёни мавжуд. Туркий қавмларнинг ҳам бир неча миллат сифатида шаклланиши шундай хусусиятга эга. Бугун дунё тамаддунига бешик бўлган Шарқ ўзининг бой ўтмиши, яшаб ўтган улуғ сиймолари билан ҳақли равишда фахрланади. Жумладан, дунё цивилизациясининг бошланиши қадим – шумер давлатчилиги эканлиги, улар томонидан яратилган “Билгамиш” достони эса жаҳон ёзма адабиётининг илк намунаси эканлиги бугун илм аҳлига яхши маълум. Туркий тиллий халқлар тили ва адабиёти Маҳмуд Қошғарий, Юсуф Хос Ҳожиб, Аҳмад Яссавий, Юнус Эмро, Алишер Навоийдан тортиб Абдулла Қодирий, Азиз Несин, Рашод Нури Гунтекин ва бошқа кўплаб ижодкорлар асарларида ўз ифодасини топган.

Жаҳон ва туркий халқлар адабиёти – инсоният маданиятининг муштарак бир бўлаги. Шарқ цивилизацияси – тараққиётнинг маънавий асосларидан бири– инсонни улуғлаш, унинг камолотини ички ва ташқи дунёсини уйғунликда қарашдан иборатдир.

Ҳар бир миллат тили ва адабиёти дунё бадиий тафаккурининг ажралмас қисмини ташкил қилади. Жаҳон халқларининг қизиқиши ва ўқиши бадиий адабиёт аҳамиятини белгиловчи асосий мезонлардан ҳисобланади. У ёки бу халқнинг жаҳонда танилиши, энг аввало, ўша халқ маданияти, санъати ва адабиётининг қандай миқёсда тарқалиши ва тан олинишига боғлиқдир. Бирон бир халқ маънавиятига хос қадриятларнинг бошқа халқлар

томонидан тан олиниши, табиийки, ана шу халқ тарихига нисбатан чуқур ҳурмат ифодасидир. Бундай эътироф халқнинг ғурур ва ифтихори, миллий ўзлигини юксалтиришга хизмат қилади.

Жаҳон халқларининг маънавий-маданий йўналишда ҳамжиҳатликка интилиши, бир-бирларининг адабиёти ва санъатини ўрганишга қизиқиши аллақачон табиий жараёнга айланган. Шарқнинг ижтимоий-сиёсий, маданий-маърифий ҳаётини етарли даражада билиш эҳтиёжи, тилшунослик ва адабиётшунослик илми тараққиётидаги асосий омиллардан бири бўлган.

Кейинги йилларда илмий-адабий тафаккур кундан-кунга янгиланмоқда, ўзбек тили ва адабиётининг халқимиз, жамиятимизнинг маънавий ривожида, замонавий илм-фан тараққиётида тутган ўрни ва роли билан боғлиқ долзарб мавзуларда муҳим илмий тадқиқотлар амалга оширилмоқда. Бугунги ташкил этилган халқаро миқёсдаги илмий-амалий конференция ҳам ана шу хайрли ишларнинг давоми.

Конференция ишига муваффақият тилайман.

Эътиборингиз учун раҳмат!

Баҳодир СОБИРОВ,

техника фанлари доктори, профессор

Навоий давлат педагогика институти ректори

BIRINCHI SHO‘BA
TURKIY TILLAR INTEGRATSIYASI: FONETIKA, LEKSIKOLOGIYA, GRAMMATIKA

ONA TILI VA DAVLAT TILI

Yorqinjon Odilov,
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti bo‘limi mudiri,
filologiya fanlari doktori, professor

Davlat suvereniteti, mamlakat mavjudligining o‘z shartlari borligini yaxshi bilamiz. Hududiy yaxlitlik, chegaralar daxlsizligi, konstitutsiya, bayroq, gerb, madhiya va til – davlatchilikning shunday zaruriy shartlari. O‘zini mustaqil bilgan el mamlakati nomini davlat tilida ataydi. O‘zbekiston – o‘zbek tiliga davlat maqomini berib mustaqil bo‘lgan, istiqlolga til mustaqilligi bilan erishgan mamlakat. Ammo dunyodagi hamma xalqlarning o‘z tiliga davlat maqomi berolmagani, faqat ikki yuzga yaqin tilda bunday rutba borligi anglansa, “davlat tili” degan tushunchaning salmog‘i qay darajadaligi ma’lum bo‘ladi.

O‘zini bilgan, o‘zligini anglagan ellarda ona tili butun millatning oriyat ramziga aylanib bo‘lgan. Rasul Hamzatovning “Mening Dog‘istonim” asarida avar onalari uchun eng yomon gap – “Yaratgan bolalaringni ona tilida gapirishdan benasib qilsin” degan gapni eshitish, eng qayg‘uli holat – farzandining ona tilini unutganidan xabar topish deb aytiladi. Masalaga shu jihatdan qaralsa, kundalik turmushda “ha, ona tilida gapirmasa, nima qilibdi” tarzida qo‘l siltab qo‘ya qolinadigan holatning fojialigini tasavvur qilavering. Ilk bor “nanna” (non), “imma” (suv) deb so‘zlatgan, “bu ona”, “bu yurt” deb olamni tanitgan narsa – shaxsiyatimizni shakllantirgan til. Ona tilining shu xizmati bilan fikr almashamiz, munosabat bildiramiz. Bunday xizmatni ich-ichdan tuyish uchun avarlardek ming yillik dostonlarni eshitib ulg‘aymoq lozim. Shunday muhitda o‘sgan bola uchun ona tili ruhiy quvvatga aylanadi, ona tilida quvnab, ona tilida xafa bo‘la oladi. Kuzatishlar milliy o‘zlikning zaxa yeyayotgani ko‘rsatayotir.

Biz gapni bejiz ona tiliga burmadik, chunki ona tiliga munosabat to‘g‘rilanmay turib, o‘zbek tili chinakamiga davlat tiliga aylanolmaydi. Negaki davlat tili sifatida qo‘llaydiganlar – o‘zbek tili egalari. O‘zbek tili egalari o‘z tilini onani tanigandek tanigan, unga onaga ko‘rsatilganidek munosabatda bo‘lgan, qisqasi, nega “ona tili” deyilishining ma’nisiga yetgan palladan milliy tilga munosabat o‘zgaradi, muomalada boshqa til afzal ko‘rilmaydigan bo‘ladi. Vaqtlar o‘tib, shunday ijtimoiy-lisoniy sezgir shaxsiyatli avlod bu tilni davlat tili sifatida moneliksiz ishlatib ketaveradi. Hozirgi bolalarning chorak asrdan keyin o‘zbek tilidan davlat tili o‘laroq foydalanadigan, o‘zbek tilini rasmiy qo‘llaydigan faol qatlamga aylanishini unutmaslik lozim.

Ona tiliga munosabatni ijobiy tomonga o‘zgartirishda kishi shaxsiyati muhim rol o‘ynaydi, chunki inson umr bo‘yi shaxsiyatini shakllantirgan ijtimoiy odoblar, ijtimoiy qoidalar doirasida harakat qiladi. Shu ma’noda ona tiliga munosabatda shaxs ulg‘aygan jamiyat hal qiluvchi kuchga ega. Agar shaxsiyat milliy zaminda, milliy o‘lchovlarda shakllansa, ona tili bunday odamning eng zo‘r odamlik belgisiga aylanadi, o‘z tilni qo‘yib, o‘zga tilga yuzlanishga ayni belgi izn bermaydi. Shaxs boshqa tilga bilimini oshirish yoki boshqa shu kabi jarayonlardagi vositalardan biri sifatida qarashga odatlanadi. Ona tilining millatining qiyofasi ekani, bu qiyofani yo‘qotib qo‘ymaslik lozimligini anglab oladi.

Shaxs tildan foydalanishda ijtimoiy qoidalarga amal qilishga majbur bo‘ladi, mavjud ijtimoiy muhit shaxsda tilga normal munosabat ko‘rsatish majburiyatini yuklaydi, ijtimoiy-lisoniy tartiblarga muvofiq harakat qilsa, ijtimoiy e’tirozlarga uchramaydi, bu talablardan chetga chiqqudek yoxud zid harakat qilgudek bo‘lsa, ijtimoiy fikr uni tartibga chaqiradi. Masalan, yaqin kunlarda Jizzax shahridagi o‘quv markazi o‘z faoliyatini ijtimoiy-lisoniy me’yorlarga nomuvofiq targ‘ib qilgani uchun jamiyat a’zolarining e’tiroziga uchradi. Demak, til va ijtimoiy tartibot shu darajada bir-biriga bog‘liq ekanki, biriga qilingan ta’sir ikkinchisini chetlab o‘tmaydi. Shu ma’noda

B.Uorfning quyidagi fikriga qo‘shilish mumkin: Bizning tilga jips bog‘liq fikriy dunyomiz – tafakkurimiz madaniy ideal va qoidalarimizga nafaqat aloqador, balki u ongosti xatti-harakatlarimizni ta’siriga torta oladi, ularga muayyan asosiy xususiyatlarni baxsh etadi [Uorf 1960,219].

Ona tiliga munosabatni yaxshilash birdan bo‘ladigan ish emas, masalan, bir buyruq yoki qaror bilan ko‘pchilikni tiliga ehtiromli qilish imkonsiz. Bunda jamoatchilik ta’siridan foydalansa bo‘ladi, chunki bizda azaldan jamoa fikri hamisha tosh bosib kelgan. Abu Mansur al-Moturidiy shaxsning tanlash va iroda erkinligi jamoaviy iroda oldida ustuvor emas, jamoaviy iroda shaxsdan yuqori turadi, umumiylikda xususiylikka ko‘ra haqlik hissasi ko‘proq, deydi [Ubaydullaeva va boshqalar 2002,38]. Shu bois ona tili masalasida jamoatchilik fikrini jamoatchilik ta’siriga aylantirish vaqti yetdi.

Ona tilidan davlat tiliga o‘tishda milliy til ta’limini sifat jihatdan yaxshilash talab etiladi. Ona tili ta’limi bilan shug‘ullanadigan mutaxassislar shu mas’uliyatni anglab, ta’lim oluvchilarga ona tilining etnomadaniy mohiyati, shaxsiyatni shakllantirish, olamni o‘zbekcha idrok qilishdek vazifalarini singdirib borishlari lozim. Ularga bugun “ona tili” deb o‘rganilayotgan tildan ertaga davlat tili sifatida o‘zlari foydalanishi; davlat tili esa jamiyatni birlashtirib, kishilarni bir jamiyat qilib tutib turishi; milliy til yo‘qolsa, millat yo‘qolishi; davlat tili boy berilsa, jamiyat tarqab ketishi haqidagi fikrlar yetkazib turilishi zarur.

Ona tiliga munosabatni bu tarz o‘zgartirishda milliy adabiyot va etnik tarix fanlari ham yordamga kelishi joiz, bu fanlar o‘quvchini o‘zbeklikka, o‘zbekchilikka daxldor shaxs qilib tarbiyalab qo‘yadi. Masalan, o‘quvchi milliy adabiyotni o‘qish jarayonida ilgari ko‘rmagan-eshitmagan so‘zlar bilan tanishadi, fikr ifodalash, munosabat bildirishning yangi yo‘llarini o‘zlashtiradi va bu uning lisoniy sezgilarini tarbiyalaydi. Badiiy asar yurt tavsifisiz bo‘lmaydi, o‘quvchi bunday lavhalar bilan tanisharkan, tasavvur dunyosi kengayish bilan birga yurtga daxldorlik hissi paydo bo‘la boshlaydi. Milliy til shu tarz bolaning asosiy ma’lumot olish vositasiga aylanadi.

O‘quvchining milliy adabiyot shakllantirgan tasavvurlarini tarix darslari mustahkamlaydi. U etnik tarixni bilib borish asnosida millati qanday shakllangani, qanday tarixiy yo‘lni bosib o‘tgani, tarixning turli davrlarida xalqi boshiga tushgan yaxshi-yomon kunlarni, uning oqibatlarini tushunib yetadi va tegishli xulosalarni chiqaradi. Bizga tarixdan chiqarilgan ana shu xulosalar muhim. Aslida fanni o‘rganishdan maqsad ham undan hayotda foydalana olishdir. Tarix saboqlari siz-u bizni o‘zbek qilib shakllantirib qo‘yadi. Buni yurtda kechayotgan o‘zgarishlarga befarq bo‘lmayotganingizdan, ijtimoiy voqea-hodisalarni ko‘rgan-eshitganingizda, ko‘nglingizdan “o‘zbekchilikka to‘g‘ri kelmaydi”, “o‘zbek bunday qilmaydi”ga o‘xshagan o‘y o‘tishidan bilsangiz bo‘ladi. Sira kuzatganmisiz, yoshi kattalar shunday gaplarni ko‘p ishlatadi, ular har nega o‘zbekchilikdan kelib chiqib baho bergani sabab shunday deydilar.

O‘zbek bolasining o‘zbek bo‘lib shakllanmasligi juda zararli, zehniyatning g‘ayrio‘zbekligi odam bolasini har ko‘yga soladi, hatto milliy masalalarda befarq bo‘lib qoladi. Akademik Naim Karimov zehniyat o‘zgarib ketishining oqibatini shunday tushuntirgan edi: “Kafka yo Joys yoki Isigoro sehrlab oldimi, bas, endi siz “O‘tgan kunlar”ni o‘qib, bir olam zavq oladigan odamdan boshqa bir kishiga aylana boshlagan bo‘lasiz. Agar shu jarayon davom etaversa, sizning tafakkuringiz, dunyoqarashingiz, milliy qiyofangiz va mohiyatingiz tubdan o‘zgaradi” [Karimov 2022] .

Yodingizda bo‘lsa, bundan to‘rt yil avval ijtimoiy tarmoqlarda bir guruh ziyolilarning rus tiliga rasmiy maqom berish bo‘yicha “tashabbusi” keskin bahsga sabab bo‘lgandi. “Tashabbuskorlar” o‘z harakatlarini Timur Po‘latov, Raim Farhodiy, Sabit Madaliev, Suhbat Aflotuniy, Bax Ahmedov singari adiblarning bugun ham rus tilida asarlar yozayotgani, rus tilining ifoda imkoniyatlari kengligi bilan dalillab, rus tiliga rasmiy maqom berish bilan o‘sha madaniyatdan oziqlanish mumkinligini iddao qililgandi. – Xo‘sh, o‘sha ijodkorlar ingliz tilida yozganda ingliz tiliga rasmiy maqom olib berish kerak bo‘larmidi?! Rus madaniyatidan o‘zbek tilida xabardor bo‘lish mumkinmasmi?! Bu kabi ritorik so‘roqlarni yana davom ettirish mumkin, ammo bir javob ularni birlashtiradi: tafakkurimiz o‘zbekcha bo‘lsin, shaxsiyatimiz o‘zbekcha

shakllansin. O‘tgan gaplarni eslashdan maqsad esa o‘zbek fani va san’atining “nonini yeb katta bo‘lgan”larning zehniyatiga chiroq tutmoq, tafakkurning g‘ayrimilliylashuvi odamni qay ko‘chalarga sudrashidan ogoh etmoqdir. O‘zini bilgan xalqning davlat tili bitta bo‘ladi.

Til masalasida ijtimoiy sezgirlik kerakligini boshqa voqea bilan tushuntirib ketsak. Uch-to‘rt yil avval diplomat juvonning O‘zbekistonda davlat tilida ish yuritishni ta’minlamaganlik uchun mansabdor shaxslarga javobgarlikni belgilovchi qonun loyihasi yuzasidan bildirgan munosabati ijtimoiy tarmoqlar muhokamasiga tushgan edi. Rasmiy vakil davlat tilida ish yuritishni ta’minlamaganlik uchun mansabdor shaxslarga javobgarlik belgilashni nazarda tutuvchi qonun loyihasini qo‘llab-quvvatlovchilar kamligini iddao qilgandi. Uning vaziyatni bu tarz soxtalashtirishdan ko‘zlagan muddaosi-ku aniq, ammo bundaylar shuni yaxshi bilsinlarki, bu yurtda qabul qilinayotgan yuridik hujjat ming bitta chig‘iriqdan o‘tadi, qonunchilar ko‘p millatli xalqimizning milliy-madaniy o‘ziga xosligiga sira daxl qilmaydi.

Loyiha “regulation.gov.uz”da e’lon qilinganda ilg‘or fikrli insonlar uni qo‘llab-quvvatlagandilar, chunki kodeksga kiritilishi mumkin bo‘lgan o‘zgarish “Davlat tili haqida”gi qonunni ishlatuvchi huquqiy dastak bo‘lib, u davlat tilida ish yuritmaslik holatlariga, “Davlat tili haqida”gi qonun talablariga bepisand munosabatga bahaddi imkon barham berar edi.

O‘sha hujjat loyihasidagi diqqat qaratganimiz o‘rin – davlat tilida ish yuritilishini ta’minlamagan tashkilot rahbariga ma’muriy javobgarlikning belgilanishi o‘zbek tilining davlat tili sifatida amaliyotga keng joriy etilishini, “Davlat tili haqida”gi qonunning hayotiyligini ta’minlashga yo‘naltirilgandi. U o‘zini “o‘zbekistonlikman” deb yurganlarni qonunlarimizni hurmat qilish va rioya etishga o‘rgatar edi.

Xalqimizda “Boshiga tushgan har nega odamning o‘zi ham sababchi” degan gap bor. Mazkur naql til bilan bog‘liq tashvishlarimizga ham taalluqli. Demak, o‘zbek tilini chinakamiga davlat tiliga aylantira olmayotganimizning sababini o‘zimizdan – shu tilning egalaridan izlashimiz kerak. Bizningcha, qabul qilinganiga 35 yil to‘layotgan “Davlat tili haqida”gi qonun to‘la kuch bilan ishlab ketolmayotgani, ish-faoliyatimizga keng tatbiq etilmayotganining bir sababi yuqorida aytilganidek huquqiy dastaksizlik – davlat tilida ish yuritilmaganda chora ko‘rishdagi yechimsizlik, Z.Isomiddinov ta’biricha, “tishsiz-tirnoqsizlik” bo‘lsa, bosh sababi ona tiliga bo‘lgan bepisand munosabatdir. Davlat tili talablarini bajarish haqidagi gaplar shuning uchun ta’sirsizlashmoqda. Buni bugungi poytaxtning yot tildagi peshlavhali lisoniy manzarasidan bilsa bo‘ladi, g‘alat lavha va chuchmal reklamalar esa lisoniy didning g‘ariblashayotganidan darak beradi. Ishonmaysizmi, unda ulovga mining-da, ko‘cha kezing.

Albatta, besh qo‘l barobar bo‘lmaganidek, milliy-madaniy qadriyatlarga mos *Bek, Xonatlas, Shosh, Adras, Sayyod* singari peshlavhalar, *Uzumbank, Anorbank, olcha.uz* singari xususiy brend nomlari bor va nontopar mulkini bunday ataganlarning himmatiga balli. Yana boshqa muhim jihati shuki, bu tadbirkorlar aslida o‘zbek tilini davlat tilida ishlatayotgan, o‘zbek tilidan davlat tili sifatida foydalanayotganlardir. Afsuski, bundaylarning kamligi ona tilimizga munosabatimiz qandayligini ko‘rsatadi.

Tilshunoslikda “inson til orqali dunyoni biladi”, “til insonning tafakkur tarzini belgilaydi” [Gumboldt 1985, 324-386] degan nazariya bor. Buni inson olam va odamni ona tilida taniydi, olam ajoyibotlarini ona tili yetovida kashf qiladi, deb ham tushuntirish mumkin. Bunday til rasmiy munosabat, ish yurituv doirasiga kirib borar ekan, endi u davlat tiliga aylanadi. Masalan, biron-bir mulozim milliy manfaatlar yuzasidan ish yuritishda davlat tilidan davlatchiligining sharti shunday bo‘lgani uchun foydalanadi.

XX asr boshida olti tilli lug‘at tuzgan Is’hoqxon Ibratning quyidagi pandi bugun har qachongidan dolzarb: “Bizning yoshlar, albatta, boshqa tilni bilish uchun sa’y-harakat qilsinlar, lekin avval o‘z ona tilini ko‘zlariga to‘tiyo qilib, ehtirom ko‘rsatsinlar. Zero, o‘z tiliga sadoqat – bu vataniy ishdir”. Zero, har qanday g‘ururi baland el alla tinglagan tilini ardoqlaydi, ochiq-oshkor yoki pinhoniy xurujlardan qo‘riydi, ona tili sha’nini o‘z shavkati deb biladi.

TURKIY TILLARDA AREAL LINGVISTIKANING INNOVATSION MARKAZI MUAMMOSI MASALASI

NIGORA MURODOVA QULIYEVNA,
NavDPI, filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Bugungi areal lingvistikaning oldida ma'lum bir hodisaning vujudga kelish markazini, uning yo‘nalishlarga tarqalishini va bu hodisaning turli mintaqalardagi o‘ziga xosligini (innovatsiyalarini) belgilash vazifalari tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir. Innovatsiyalarning paydo bo‘lish sabablari, rivojlanish tarixi, kengayish yo‘nalishini o‘rganish va arxaizmlarning saqlanish sohalarini aniqlashda areal tilshunoslikda markaz, periferiya, diffuziya(tebranish) zonalarini o‘rganilayotgan arealda aniqlash muhim bo‘lib hisoblanadi.

Kalit so‘zlar. areal lingvistika, markaz, periferiya, diffuziya(tebranish) zonalari.

Аннотация. Перед современной ареальной лингвистикой стоят задачи определения центра возникновения того или иного явления, его распространения по направлениям и і(нововведений) специфики этого явления в различных регионах. При изучении причин возникновения нововведений, истории развития, направления расширения и выявлении областей сохранения архаизмов важным в ареальной лингвистике считается выявление центральной, периферийной, диффузионной(колебательной) зон в изучаемом ареале.

Ключевые слова. ареальная Лингвистика, центральная, периферийная, диффузионная(колебательная) зоны.

Annotation. Modern areal linguistics is faced with the task of determining the center of occurrence of a phenomenon, its spread in directions and i (innovations) of the specifics of this phenomenon in different regions. When studying the causes of innovations, the history of development, the direction of expansion and the identification of areas of preservation of archaisms, it is important in areal linguistics to identify the central, peripheral, diffusive (oscillatory) zones in the studied area.

Keywords. areal Linguistics, central, peripheral, diffusive (vibrational) zones.

Areal tilshunoslik muammolari bilan shug‘ullanuvchi sohaning afzalligi shundaki, u turli hududlarda ko‘plab qayd etilgan hodisalar holatlari sababli ular haqida to‘liqroq ma'lumotga ega bo‘lish imkoniyatiga ega. Areal tishunoslikning bir qator usullari ma'lum bir hodisaning yangilanish markazlarini aniqlash, ba'zilarini zaiflashib borishini o‘rganishda qiyosiy grammatika ustida ishlaydi. N.S.Sharafutdinova ta'kidlaganidek, areal tilshunoslikda arxaizmlar va innovatsiyalarni aniqlashning yangi usuli arxaizmlarni ochib beruvchi hududiy rivojlanish usullari tekshirishni talab qilishiga asoslanadi, bu qiyosiy-tarixiy, filologik va tipologik tadqiqot usullaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Innovatsiya izoglossalarning tarqalish markazini bildiradi.

Turkiy tillardan, jumladan, o‘zbek tilida umumturkiy «a»ning «o»ga o‘tishi eng keng tarqalgan.Tilshunoslikda«a»ning «o»ga o‘tishida quyidagi holatlar ko‘rsatiladi. Lab-lab «v» va chuqur til orqa «q» dan oldin kelgan «a» doimiy «o»ga o‘tadi. Masalan: sana-sanoq, qayra-qayroq, tirna-tirnoq; -v qo‘shimchasi «a» unlisi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda «a» «o»ga o‘tadi: so‘ra-so‘rov, sayla-saylov; «a» ning «o»ga o‘tishi «g‘» dan oldin ham uchraydi; yarog‘, O‘zbek adabiy tilida «o» bilan talaffuz etiladigan so‘zlar qarluq-uyg‘ur shevalarining o‘zida «a»li variantga, shevadagi «o»li so‘zlar adabiy tilda «a»li shaklda kelishi mumkin: adabiy tilda bola – shevada bala yoki qora – qaro, olma –alma, anor – onor va b.sh.k. Shevalarda oka, kotta adabiy tilda aka, katta kabilarda «a»ning «o»ga o‘tish sabablari turkiyshunoslikda haligacha muammodir. Bir qism tadqiqotchilar «o»lanishni eroniy tillar ta'siri deb baholashsa (chunonchi, Ye.Polivanov, A.K.Borovkov), ko‘pchilik turkiyshunoslar, jumladan, A.K.Borovkovning o‘zi ham, «o»lanish yuqorida ko‘rib o‘tilganidek, akkomadatsiya – lablangan va chuqur til orqa undoshlarning ta'siri ostida shakllangan, degan taxminni oldinga suradilar. Turkiy arealogiyada, jumladan, N.Z.Gadjieva, N.A.Baskakov tadqiqotlarida «o»lanish markazi hozirgi o‘zbek tili lisoniy areali sanalsa-da, birinchidan, «o»lanish – «a»ning «o»ga o‘tishi – o‘zbek shevalarining o‘zida yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek bir xil emas. Ikkinchidan, bu hodisa o‘zbek tili bilan yondosh bo‘lgan qirg‘iz, turkman, qozoq, qoraqalpoq tillarining shevalarida ham, o‘zbek tili bilan hech qachon bevosita

aloqada bo‘lmagan ozarbayjon tili, xususan, Boku shevasida, G‘arbiy Sibir totor shevalarida, Shimoliy Kavkazdagi karachay, bolqar va qo‘miq tillarida, totor tilida, boshqird tilida bundan tashqari paradik ravishda chuvash shevalarida ham uchraydi. Shuning uchun akademik A.N.Kononov ««o»lashish faqat o‘zbeklargagina xos emas va ularning hammasi ham «o»lamaydi. Bundan tashqari barcha turkiy «o»lovchilarda «o»lash bir xil emas»,-degan fikrni oldinga surgan. V.V.Reshetov o‘zining «Uzbekskiy yazık» kitobida o‘zbek tili shevalarida 3-4 xil «o» tovushi borligini tavsiflagan. Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra , o‘zbeklarda «o»lanish ham bir xil emas. Shuningdek, turkiy tillarda, jumladan, totor, qo‘miq, qarachay va boshqa tillardagi «o» ham bir-biriga o‘xshash emas. Turkiy tillarda «a» qaysi holatlarda «o» lanadi va qaysi holatlarda «o» lanmasligini belgilovchi birorta qat’iy qonuniyat bilan izohlanmaydi. «O» tovushi mavjud bo‘lgan tillarda «o» bilan talaffuz etiladigan so‘z ikkinchi bir turkiy tilda «a» shaklida uchraydi. Turkiy areal lingvistikaning hozirgi holatida «o»lanish markazi o‘zbekzabon areal deb hisoblanishiga qaramay ,«o»lanish hodisasi o‘zbekzabon markazdan Sibir, Paloje, Shimoliy Kavkaz va Zakavkazega tarqalgan, deb arealogiya nuqtai nazaridan xulosa chiqarish umuman mumkin emas. Sababi tarixiy manbalardan ma’lum bo‘lishicha,o‘zbekzabon arealdan bu mintaqalarga migratsiya ham, kuchli ta’sir ham hech qachon bo‘lmagan. Akademik A.N.Kononov ta’kidlashicha, qadimgi turkiy xalqlarning katta bir qismida «a»ning «o»ga o‘tish hodisasi qat’iy qonuniyat bo‘lgan. Tarixiy yozma yodgorliklarda qayd etilgandan ancha oldin bu qabila (bo‘linma) parchalanib turli toifalarga bo‘linib ketgan. Ularning kattaroq qismi hozirgi o‘zbek xalqi tarixiy asosiga, ba’zilari ozmi-ko‘pmi boshqa turkiy xalqlarning tarixiy asosidagi tarkibiga kirgan. Shu sababli «o»lanish siporadik (uzuq yuluq) shaklda xilma-xil sheva va tillarda uchraydi. Hozircha turkiyshunoslikda «o»lanish hodisasiqaysi fokus zonadan («o»lanishni tarqalish markazidan) qaysi yo‘nalishlarga yo‘nalganligi muammoli bo‘lib qolmoqda. Chunki «o»lanishning sinxronik markazi, keng tarqalgan mintaqasi o‘zbekzabon areal tarixiy markaz vazifasini hech qachon bajarmagani ma’lum. Shuni aytish mumkinki, okkomadativ «o» (ya’ni lab va chuqur til orqa undoshlari ta’siri ostida «a»ning lablanishi) turkiy tillarda mustaqil ravishda har bir tilda alohida-alohida ko‘rinishda shakllangan va rivojlangan bo‘lishi mumkin. Buni turkiy sheva va tillarda «o»ning bir xil emasligi, ehtimol shu bilan – «o» tovushining tillarda har bir til uchun o‘ziga xos qonuniyat asosida rivojlanganligi bilan izohlash mumkindir .

«O»ning kelib chiqish manbai sifatida qadimgi turkiy birlamchi cho‘ziq «a» manba bo‘lgan bo‘lishi mumkin degan taxminlar ham mavjuddir. Haqiqatan ham «o»lanish keng tarqalgan o‘zbek tilida «o», eksprimental fonetistlar Ahmadjon Mahmud, Sora Otamirzaeva tadqiqotlariga ko‘ra, barcha bo‘g‘inlarda cho‘ziq talaffuz qilinadi. Cho‘ziqlikning kamayishi jihatidan o‘zbek tili unlilari quyidagi darajalanish qatorini tashkil etadi: o→o‘→e→a→u→i.

Bundan tashqari arab va eron tillaridagi cho‘ziq «a» o‘zbek tilida muntazam ravishda «o»ga o‘tadi: Allah-Olloh, kitab-kitob, katib-kotib. Lekin arabcha qisqa «a»ni ham o‘zbek tilida «o»ga o‘tish holatlari oz emas: Allah-Olloh, avqat-ovqot, alov-olov-olav. Ammo bu o‘rinda aytish mumkinki,agar «o»lanishning manbai qadimgi turkiy birlamchi «a» bo‘lganda, bu «a» «o»lanish xususiyatiga xos bo‘lgan til va shevalarning barchasida «o»ga o‘tishi lozim edi. Lekin tahlillar bunday emasligini ko‘rsatadi. Jumladan: a:d, a:y kabi qadimgi birlamchi cho‘ziq «a»li so‘zlar doimiy «o»lovchi til va shevalarda «o»ga o‘tmaydi. XI asrdayoq Mahmud Koshg‘ariy bu hodisani qayd etgan edi. U ikki alif bilan berilgan az, al, at kabi so‘zlarni qattiq va qisqa talaffuz qilish ma’qul deb alohida ta’kidlagan, hamda shu o‘rinda tovushlarning talaffuziga alohida e’tibor berganligi ahamiyatlidir

Turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tilida «o»lanish hodisasi qo‘shni eroniy til ta’sirida yuzaga kelgan, degan talqinlar ham mavjud. Gap shundaki, «o»lanishni boshqa bir tilning ta’siri deb baholash asosli emas. Chunki, eroniy tillar ichida tojik tilining o‘zi «o»lovchidir. Bu hodisa eronshunoslikda xuddi turkiyshunoslikda bo‘lgani kabi o‘zbek tilining ta’siri deb izohlashadi. Lekin eron tillaridagi cho‘ziq «a»ni o‘zbek tilida «o»ning boshqa unlilardan ko‘ra sal cho‘ziqligi asosida, arab va fors tillaridagi cho‘ziq «a»ning muntazam ravishda «o» bilan berish o‘zbek tilida «o»lanishning keng tarqalishiga mos bo‘lgan bo‘lishi mumkin degan qarashlar ham mavjud. Lekin bu o‘zbeklarda «o»lanish eroniy va arab tilining ta’siri deb aytishga asos bo‘la olmaydi.

Shu sababli «o»lanish turkiy tilshunoslikning ham tarixiy fonetikasi uchun, ham areal yo‘nalishining chigal muammolaridan bir bo‘lib kelmoqda.

Areal tishunoslikning bir qator usullari ma’lum bir hodisaning yangilanish markazlarini aniqlash, ba’zilarini zaiflashib borishini o‘rganishda qiyosiy grammatika ustida ishlaydi. N.S.Sharafutdinova ta’kidlaganidek, areal tilshunoslikda arxaizmlar va innovatsiyalarni aniqlashning yangi usuli arxaizmlarni ochib beruvchi hududiy rivojlanish usullari tekshirishni talab qilishiga asoslanadi, bu qiyosiy-tarixiy, filologik va tipologik tadqiqot usullaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Ma’lumki, innovatsiya izoglossalarning tarqalish markazini bildiradi. Bunday muammolardan biri singarmonizm hodisasidir. Singarmonizm – so‘zning o‘zagidagi unli va undoshlarga qo‘shimchalardagi unli undosh fonemalarning kontakt va distant usulida moslashishi, uyg‘unlashishi.

Singarmonizm fonetik hodisalarning mohiyatan progrossiv distant assimilyatsiya turiga turkiy tillarning tabiatan fonetik hodisasidir. H.Nematov ta’kidlaganlaridek, turkiy tillarda singarmonizmning unlilar garmoniyasi va undoshlar garmoniyasi kabi ikki asosiy turi ajratilib, undoshlar garmoniyasi o‘z davri til oldi undoshlar garmoniyasi va til orqa undoshlar garmoniyasiga, unlilar garmoniyasi esa palatal-velyar hamda labial garmoniyalarga bo‘ysunadi. Turkiy lisoniy olamda tovushlar garmoniyasining yuqorida sanalgan turlarining tarqalishi bir xil emas. Singarmonizmning ta’sir kuchi bo‘yicha asosiy turkiy tillarda singarmonizm ta’sirining pasayib borishiga ko‘ra quyidagi darajalanishni ko‘rsatish mumkin: yoqut tili → qirg‘iz tili → xakas tili → oltoy tili → qozoq tili → totor tili → turkman tili → turk tili → ozarbayjon tili → uyg‘ur tili → o‘zbek tili. Demak, bundan ko‘rinib turibdiki, zanjir boshida yoqut tili tursa, uning so‘ngida o‘zbek tili turadi. Yoqut tilida juda ko‘p morfologik qo‘shimchalar: ko‘plik qo‘shimchasi (16 singarmonistik variantda) uchraydi. Masalan: -lar ko‘plik qo‘shimchasining -lar/-ler, -nor/-nər (d’onnor (odamlar)), tar/ter (kыrgыttar (qizlar)), -tor/-tər (xotuttor (hurmatli ayol)), -lor/lər (borolor (bo‘rilar) kabi variantlari mavjuddir. Qirg‘iz tilida unlilar va undoshlar garmoniyasining yuqorida sanalgan har beshala turini ko‘rish mumkin. Shunga muvofiq ravishda qirg‘iz tilida -lar ko‘plik qo‘shimchasi 12 singarmonistik ko‘rinishga ega (-lar/-ler, -dar/-der, -tar/-ter, -lor/-lər, -dor/-dər, -tor/-tər). Tushum kelishi qo‘shimchasi mazkur tilda 12 (ni/-nы, -nү/-nu, -di/-dы, -dү /-du, -ti/-tы, -tү/-tu) va chiqish kelishigi qo‘shimchasi 8 (-dan/-tan, -den/-ten, -don/-ton, -dən/-tən); fe’l yasovchi –la qo‘shimchachasi 12 (-la/-le, -da/-de, -ta/-te, -lo/-lə, -lu/-lү) singarmonistik variantga ega. Zanjirning oxirida turgan o‘zbek tili qo‘shimchalarda singarmonistik variantlar jarangli undosh bilan boshlanuvchi qo‘shimchalarda ikkitadan (yoddi/yotti), g-g‘ bilan boshlanuvchi qo‘shimchalarda 3 tadan oqqa, elakka, yerga; chiqqan, ekkan, tergan) oshmaydi.(H.Ne’matov).

Singarmonizm hodisasi turkiy tillarda eng qadimgi fonetik hodisalardan biri sifatida qaraladi. Agar uzoq yozuv an’anasiga ega bo‘lmagan yoqut, qirg‘iz, xakas, qozoq kabi tillarda singarmonizm kuchli rivojlanganligini va uzoq yozuvli uyg‘ur, o‘zbek, turk, ozarbayjon kabi tillarda bu hodisa ancha kam tarqalganligini hisobga olsak, singarmonizm turkiy tillar uchun nisbatan keyingi hodisa sifatida qaralishi mumkin. Uzluksiz yozuv an’anasiga ega bo‘lgan tillarda jonli tildan ko‘ra yozma adabiy til uyg‘ur, o‘zbek kabi tillarda singarmonizm rivojlanishiga to‘sqinlik qilgan. Uzluksiz yozma adabiy til an’anasiga ega bo‘lmagan yoqut, qirg‘iz kabi tillarida esa jonli so‘zlashuv tili erkin rivojlanib singarmonizmni rivojlanish holatiga olib kelgan deb taxmin qilish mumkin.

Turkiy tillarda singarmonizmning hozirgi holatiga ko‘ra yoqut, xakas, oltoy tillari mintaqasida singarmonizmning markaziy hududi qirg‘iz tili o‘lkasini (u markazdan migratsiya asosida hosil bo‘lgan) bir orol sifatida ko‘rish mumkin bo‘lardi. Lekin Yenisey, Oltoy va G‘arbiy Mo‘g‘uliston mintaqalarida joylashgan qadimgi turkiy yozuvlar XII - XIII asrlar uchun bu mintaqani singarmonizmning tarqalish areali markazi ekanligini inkor etadi. Zeroki, qadimgi turkiy yodgorliklarda bir muncha ustivor garmoniya unlilarning tanglay (palatal-velyal – qattiq va yumshoq tovushlar) garmoniyasidir. Lab garmoniyasi esa qadimgi turkiy tilda juda kam rivojlangan. Shu bois ham singarmonizm bo‘yicha sinxronik arealogik tadqiqotlar juda ko‘p hollarda qiyosiy-tarixiy (kompralingvistik) tadqiqotlar xulosasi bilan zid keladi.

Qiyosiy-tarixiy tadqiqotlar tukriy tillarda labial garmoniya, xususan, qo‘shimchalardagi keng «a», «e» unlilarning singarmonizm ta’sirida lablangan «u», «o‘» singarmonistik variantlariga ega bo‘lishi va kenglik-torlik garmoniyasi hamda undoshlarning garmoniyasi nisbatan keyingi hodisa ekanligi haqida xulosa chikarishni talab qiladi. Buning yorqin dalillaridan biri qirg‘iz tilining o‘sh shevalarida ko‘rinadi. Qirg‘iz tilining qator shevalarida kenglik-torlik garmoniyasi umuman yo‘q. Shuning uchun lablangan keng «o‘» qo‘shimchalarda mutlaqo uchramaydi va hamisha tor «u»ga almashinadi. Qirg‘iz tilining qator shevalarida tor unlili qo‘shimchalarning ham singarmonistik variantlarda kelishi keyingi yopik bo‘g‘inda kelishi uchraydi. Chunonchi: ko‘zum, ko‘zung, ko‘zi.

Turkiy tillarning qiyosiy tarixini o‘rganish tanglay garmoniyasi turkiy tillar uchun qadimgi xususiyat ekanligini ko‘rsatib turgan bo‘lsa-da, tanglay garmoniyaning undoshlar asosida voqelanishi, ya’ni tilda qattiq va yumshoq undoshlar fonologik ahamiyatli bo‘lib, unlilar undoshlarning qattiqlik va yumshoqligiga moslashganmi yoki aksinchami turkiyshunoslik aniq javob bera olmaydi. Qadimgi turkiy til, xususan, qadimgi turkiy yozuv va unda qattiqlik-yumshoqlik bilan o‘ndan ortiq undoshning grafik farqlanishi; qadimgi turkiy yozuvda, ko‘p hollarda, unlilarning yozilmasligi; qadimgi turkiy tillarda barqarorlik va ustivorlikka undoshlar ega bo‘lganligi; unlilar undoshlarga moslashishi; turkiy toifalararo keng, tor, lablangan, lablanmagan unlilarning keng iste’molda bo‘lish darajasiga ko‘ra ixtisoslashish (ya’ni bir toifa tilda keng unlilar ikkinchisida tor unlilar, birida lablangan unlilar, ikkinchisida lablanmagan unlilar) keng qo‘llanilganidan dalolat beradi.O‘zbek tilida g‘-g, q-k qattiq va yumshoq undoshlari orasida fonologik farqning saqlanganligi bu tilda undoshlardagi qattiqlik va yumshoqlik fonologik farqining to‘liq yo‘qolishiga monelik qilgan. Natijada, unlilarda qattiqlik va yumshoqlik farqlanishining fonologik farq darajasiga ko‘tarilishiga, tanglay garmoniyasining shakllanib keng rivojlanishiga to‘sqinlik qilgan. Turkiy tillarning qadimgi davrlardan hozirgi davrlargacha bo‘lgan taraqqiyoti turkiy tillarda dastlab qattiq va yumshoq undoshlar orasidagi fonologik farq asosida so‘z shakllarida undoshlarning tanglay garmoniyasi mavjud bo‘lib, unlining old yoki orqa qator bo‘lishi yondosh undosh tabiati bilan belgilanganligi; keyinchalik esa qator bo‘yicha farqlanish undoshlardan unlilarga o‘tganligi turkiy tillarda fonologik farqqa ega bo‘lgan 4 juft (a/ə, ы/i, u/ү, o/ө) unli fonologik sistemaning shakllanishi undoshlardagi qattiq-yumshoqlik fonologik farqning yo‘qolishiga olib kelgan. O‘zbek tilida, ehtimol, eroniy va semik tillar ta’siridan g‘-g, q-k undoshlarida fonologik farqning saqlanishi bu hodisaning yakunlanishi va o‘zbek tilida singarmonizm rivojlanishiga monelik qilgan bo‘lishi mumkin.

O‘zbek tili va boshqa turkiy tillar o‘rtasidagi o‘xshashlik va noo‘xshashliklar ularning lug‘at tarkibida ham ko‘rinadi. O‘zbek tili lug‘at tarkibiga kiruvchi so‘zlar boshqa turkiy tillar lug‘at fondiga kiruvchi eng muhim hayotiy tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar bilan o‘xshashdir. Ammo ba’zi so‘zlar ayrim turkiy tillarning o‘z fonetik xususiyatlariga ko‘ra boshqacharoq talaffuz qilinishi mumkin. Bunday fonetik hodisalardan qat’iy nazar o‘zbek va boshqa turkiy tillar lug‘at tarkibida umumiy o‘xshashlik saqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Аширбоев С. Ареал лингвистика. Тошкент, 2023. -147б.

2. Благова Г.Ф. О несходствах типологичecки подобных ареалов (-иш- как показател множественности в среднеазиатских туpских говорах) //Ареалные исследованиуа в уазыкознании и этнографии. – Ленинград, 1977. – С. 83–91

3. Боровков А.К. К характеристике узбекских «умлаутных» или «уйгуризованных» говоров // Белек С.Е. Малову. – Фрунзе, 1946. – С. 29–30.

4. Бородина М.А. Понуатие маргиналного ареала в лингвистичecком континууме // Ареал’ные исследованиуа в уазыкознании и этнографии. – Ленинград, 1977. – С. 108–118.

5. Гаджиева Н.З. Проблемы туpкской ареалной лингвистики: Среднеазиатский ареал. – Москва, 1975. – 303 с.

6. Джураев А.Б. Ареалнауа лингвистика: сущност и структура // Советскауа туpкологиуа. 1988. № 6. – С. 21–27.

TURKISH SYNONYMS OF KARAKALPAK IDIOMS MADE WITH THE NAME OF "ALLA, QUDAY, TÁŃIR"

Nuray GÜNEŞ
PhD candidate, Turkish Language,
Institute of Turkic Studies Marmara University
e.mail: gunes.nry@gmail.com

Idioms are one of the most important indicators that reflect the "language-world view" relation of a society. In the article, the Turkish synonyms of the idioms created with the names of "Alla, Quday, Táńir" (God) in the Karakalpak language are shown and classified semantically.

Key words: Idioms, Turkish language, Karakalpak language

Фразеологизмы являются одним из важнейших показателей, отражающих соотношение «язык-мировоззрение» в обществе. В статье показаны и семантически классифицированы тюркские эквиваленты идиом, созданных с именами "Алла, Кудай, Танир" (Бог) в каракалпакском языке.

Ключевые слова: Фразеологизм, турецкий язык, каракалпакский язык.

Language is a means of communication that is in constant change and development depending on time, geography and social factors, allowing the transfer of emotions, thoughts, wishes, information and generalized expressions.

Idioms (colloquial expression/ set phrase), which are one of the stereotyped elements (frozen expressions/fixed expressions) in the language, are expressions that generally contain metaphorical meanings and serve to convey various emotional states. The transfer of various emotional states such as sadness, ambition, hatred, fear, courage, shame, satisfaction, happiness, surprise, trust, disgust and jealousy to the interlocutor in the communication environment has paved the way for a collective formation. This transfer was formed as a result of the historical, social and cultural accumulation of societies that continues until today. Therefore, idioms are one of the most important indicators that reflect the "language-world view" relation of a society.

In the article, the Turkish equivalents of the Karakalpak idioms created in the name of "Allah, Quday, Táńir" (God) will be examined. Karakalpak language is among the Kipchak group, and Turkish is among the Oghuz group Turkic languages. Accordingly, a number of phonetic, morphological, syntactic and lexical integrative and differentiating elements stand out in both languages.

An attempt was made to identify idioms based on the Turkish idioms, see M. Aydın's *Improved and Annotated Dictionary of Idioms* (1992), Ö. Asım Aksoy's *Proverbs and Idioms Dictionary* (1998), *Proverbs and Idioms in Regional Dialects* prepared by M. Kaçalin (2019), *Turkish Language Association*'s electronic *Proverbs and Idioms Dictionary* (https:// sozluk.gov.tr); for Karakalpak idioms, *Dictionary of short phrases of the Karakalpak language* (1985) by J. Eşbayev, Q. Pahratdinov, Q. Bekniyazov's *Idioms in Karakalpak language* (2012), *Dictionary of Idioms of the Karakalpak language* (2018), G. Aynazarova's *Dictionary of Equivalent Two-Component Idioms in Karakalpak Language* (2023). Both language materials obtained from this scan were examined comparatively by semantically classifying them.

1. Definition of the name of "Allah, Quday, Táńir" (God) and words corresponding to the name of God

Turks preserved the belief in "Gök Tanrı" until they recognized the religion of Islam. However, some communities among them have recognized and partially accepted foreign religions and beliefs such as "Buddhism, Manichaeism, Christianity and Judaism" in certain periods of history. For the first time in their history, Turks began to abandon all their religions and beliefs and embrace Islam en masse, starting from the 10th century. Since the Turks saw the meaning and nature of the concept of "Allah" in their new religion in the concept of "Tanrı" in their old beliefs, they did not abandon this concept and continued to use it in the Islamic period [Koca S., 1996.- S. 276].

Turks have made various names related to the name of God, depending on the religion they adopt. Definitions about God in Karakalpak and Turkish dictionaries are as follows. The word "Alla" is explained in the *Explanatory Dictionary of the Karakalpak Language*, it is defined as "God, who created 18 thousand worlds and the apocalypse, is the powerful, and also the power that ensures the continuation of the creation of the world." [2023.-I., S. 110], *Quday* (< Per. Ḫudā) "The mighty power thought to mean the creator of the world, Alla, Jaratqan" [2023. -V., S. 26.]. Also, in Karakalpak language, "Jasağan iye" means "Quday, Alla" [2023. IV., S. 373.]. "Allah" (< Ar. Allāh) is defined in the *Contemporary Turkish Dictionary* "According to the heavenly religions, the only supreme being who creates and manages the universe and everything in the universe; Çalap, Tanrı, Yaradan, Oğan, Cenabıallah, Cenabıhak, Hak, Halik, Hu, Hüda, İlah, Mevla, Rab", "Tanrı" (< OT. Tengri) means "Each of the superhuman beings believed to exist in polytheism, God".

As can be understood from these definitions, it is possible to see semantically identical words in the concept of God. While a more general explanation is given about the image of "Alla, Quday, Táńir" (God) in the *Turkish Dictionary*, in the *Karakalpak Dictionary*, a definition is made within the framework of the phrases in the Quran and fewer words are included to meet the name of God.

2. **Idioms within the concept of "Quday, Allah, Táńir" (God) in Karakalpak and Turkish dictionaries and their classification**

Various criteria have been considered in the classification of idioms in the language system. In multifarious books on Karakalpak idioms, studies that assume prayers of wishes or curses to be in the category of idioms have been found [see. Aynazarova G., 2023]. Any kind of topic can be a source of expression for the idiom. The subject of prayers and curses is only good and bad wishes. Since this special subject can be included in the unlimited subjects of idioms, prayers and curses that have idiomatic features and qualities in their expressions also become idioms. On the other hand, prayers and curses that are not figurative and do not have an attractive expression cannot be considered as idioms [Aksoy Ö. A., 1993.- P.24.]. Therefore, depending on this view, some idioms in Karakalpak are not included in this article. For example; "Isińdi Alla ońlasın, Áwliyeler qollasın, Kóp bersin, bereket bersin, esesin Alla zhetkersin, Quday qulım desin, aytqanım kelsin". These words are goodwill, prayer tag words or speech etiquettes (Rus. речевой этикет) spoken in a necessary and appropriate communication environment. The expression "Qudayga mińkátle shúkir, Qudayğa shúkir" in Karakalpak language is a speech etiquette in Turkish, meaning "Allah'a (bin, çok) şükür" and "a word used to thank God for a good situation that has happened". That is to say, in the literature, some expressions are used as idioms and some as speech etiquettes. Accordingly, Karakalpak prayer speech etiquette are not included in the article, but Turkish speech etiquettes that correspond to Karakalpak idioms are stated. Taking these issues into consideration, a total of 56 idioms related to God in Karakalpak were identified and the Turkish synonyms of these idioms were given.

2.1. **Synonymous idioms created with the name of "Quday" "Alla" and "Táńir" (God) in Karakalpak and Turkish Languages.**

Kkp. Quday jarılqadı; Quday (~ Alla ~ Táńir) jarılqasın; Allatala jol berse, áwliyeler qol berse; Quday ońqardı (~ ońğarsın); Alla yar bolsın. **Tur.** Evvel Allah; yolun açık olsun. (Speech etiquettes: Allah iyilik versin!; Allah kolaylık versin!; Allah yardım etsin!) A word of good wish meaning "May Alla (God) help you, may God make it easy". It is used as a word of gratitude, good wishes and prayer.

Kkp. Quday (~ Alla) berdi. **Tur**. Mevlasını bulmak. God answered our prayers and granted our requests. A saying about making wishes come true.

Kkp. Quday berse; Quday sıylasın. **Tur**. Allah vere de; felek yâr olursa. It is a word said when something is requested from God, in cases where wishes have not yet come true.

Kkp. Qudayı berdi; Quday berip qaldı. **Tur**. Devlet kuşu; talihi yaver gitmek; el benden sebep Allah'tan. It is used for people who are happy and prosperous. Giving something desired by God.

Kkp. Quday (~ Alla) biledi; Quday bilsin; bir Quday biledi. **Tur**. Allah bilir. It's unclear, no one knows. It is used to mean that no one knows the future and the events that will happen except God, only God knows. In the sense of "It seems to me"; it's a word used to mean it's not clear.
Kkp. Qudayğa jazdı. **Tur**. Bir değil, beş değil Hak'a yarar iş değil; günaha girmek; günah işlemek. A crime is doing bad things one after another without thinking that they are a sin. Doing something that can be considered a sin by religion. To be a sinner; to receive reproach.
Kkp. Qudaydıń bendesi (~ kulı). **Tur.** Allah'ın kulu. Human, someone, person.
Kkp. Qudaydıń jazğanı. **Tur**. Allah'ın emri; alın yazısı. Luck, fate, destiny.
Kkp. Qudaydıń qutlı kúni. **Tur**. Allah'ın (~ Her Allah'ın ~ Tanrı'nın) günü. Every day, every day of God. A word used to indicate that any work is done regularly, every day, and that the work continues.
Kkp. Qudaydıń salğanın kórip. **Tur**. Belasını bulmak. To fall into a deserved bad situation. Seeing the trouble caused by God.
Kkp. Qudaydı ortağa saldı; Quda bir, wáde bir. **Tur.** Allah bir (~ Söz bir), söz bir (~ Allah bir); Allah (~ hakkı) için; kitaba el basmak; ant içmek; büyük yemin etmek; yemin vermek. A promise that shows that a promise cannot be broken. Take an oath to do or not to do something by using a sacred thing as a witness.
Kkp. Quday aydadı; Quday aydap keledi. **Tur**. Zıp diye çıkmak. It is used in sudden and unexpected situations. Someone suddenly comes in and out of a person's life when necessary. Although they both have the same meaning, "Quday aydadı" "to appear suddenly in an unexpected place, it was a spontaneous event" is used to describe events in the past, and "Quday aydap" "from an unexpected place" is used in the recent past.
Kkp. Quday qálese; Quday qossa. **Tur**. Speech etiquettes: Allah isterse, Allah nasip ederse A word used to mean "If God wills". The state of life that God deems appropriate for each person.
Kkp. Quday qurtqanday. **Tur**. Bir damla; bir avuç; el ucuyla vermek; analık eliyle vermek. Very little, a little; small items. It is used to express that what is given to someone is small, not by God but by people.
Kkp. Quday (~ Alla) saqladı; Quday saqlasın; Quday kórsetpesin **Tur**. Allah bağışlasın; Allah esirgesin; üstüme iyilik sağlık. (Speech etiquettes: Tanrı korusun!; Allah göstermesin!). It is an expression used to mean "May God not compare me with a bad situation!", "May God not put me in a worse situation". It means "May God protect and spare his beloved and his child from evil, accident, trouble. May God protect me, may God spare me."
Kkp. Quday urğan; Quday urdı; Quday ursın; Quday ğarğağan. **Tur**. Allah'ın belası; Allah'ın icrine uğramak; cezasını bulmak. The punishment of an evil and unjust person by God; to be reprimanded by someone; a negative change in a person's character.
Kkp. Quday haqqı. **Tur**. Kul taksimi. Equal distribution in any matter; truth, honesty, equality.
Kkp. Qudayın umıttı. **Tur**. Ardını unutmak; defterden silmek. Forgetting everyone and everything in situations where social status changes.
Kkp. Quday basqa salmaw. **Tur**. (Speech etiquettes: Allah dert vermesin!) May God protect us from evil and may nothing bad happen to us.
Kkp. Basına Quday saldı. **Tur**. Allah'ın divanından sürülmek. God's punishment of a person or people with something bad.
Kkp. Bizden qaytpasa, Qudaydan qaytar; Qudaydan qaytsın. **Tur**. (Speech etiquettes: Allah görür). If the good deed is not rewarded, the good deed is rewarded by God. God sees and knows the good deeds done.
Kkp. Özi şer, özi quday. **Tur**. Bilgiçlik satmak (~ taslamak). To appear knowledgeable even though one does not know, to act knowledgeable. It is used for people who know everything and are self-sufficient.
Kkp. Alla-Quday (~ Quday-Quday ~ Alla-Alla) menen otırıw. **Tur**. İşi Allah'a kalmak; kıbleden geldi kışımız; Allah'a kaldı işimiz; dört yanı deniz kesilmek; yer demir gök bakır; başı dara düşmek; Germuad'dan esti yelimiz, Allah'a kaldı halimiz. Being helpless in a situation where no

one can help. Being in a situation where there is no hope of help from anyone under difficult circumstances. There is no hope of getting help from anywhere.
Kkp. Quday berse taslamadım, Quday bermese qaqsamadım. **Tur**. Eyvallah demek. Being thankful for your situation; to consent, to accept.
Kkp. Quday ırza, men ırza. **Tur**. Razı olmak (~ gelmek). To find suitable, to like, to adopt, to want, to accept.
Kkp. Quday joq, payǵambar joq. **Tur**. Allah'tan korkmaz, cennetten çıkmaz; Allah'tan korkmaz. Ungodly, hurtful, ruthless, ruthless.
Kkp. Quday saldı, men kóndim. **Tur**. Kadere boyun eğmek. What was desired was more than achieved. Accepting one's fate and fortune.
Azərbaycan və özbək xalqlarının adət-ənənələri, etnokulturoloji xüsusiyyətlərində müəyyən fərqlər olsa da, onların tarixi kökləri, mədəniyyətləri arasında ortaq əlaqə vardır. Hər iki xalqın dili eyni bir kökə əsaslanır. Onların fərqli tarixi inkişaf yolu keçmələrinə baxmayaraq kökü ümumitürk dilidir. Özbək dili qarluq dil qrupuna aid olub Azərbaycan dili ilə eyni qrupa daxil deyildir. Lakin hər iki xalqın bir-birini başa düşməsi, ünsiyyət saxlaması sahəsində böyük maneələr yox dərəcəsindədir. Dünyada özbək dilində 44 milyon insan danışır, bu baxımdan özbək dili türk dilindən sonra ikinci dil sayılır. Özbək dilinin lüğət fondunda türk, ərəb, fars və rus dilindən, eləcə də bir çox başqa dünya dillərindən keçən sözlər çoxdur.

Müxtəlif vaxtlarda özbək dilinin orfoqrafik, izahlı lüğətləri nəşr olunmuşdur. Lakin bunların arasında seçilən məhz AMEA Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutunun "Azərbaycan-Türkmənistan-Özbəkistan ədəbi əlaqələr" şöbəsində Azərbaycanın Özbəkistandakı Səfirliyinin nəzdində Heydər Əliyev adına Mədəniyyət Mərkəzinin layihəsi əsasında hazırlanmış "Azərbaycanca – özbəkcə, özbəkcə – azərbaycanca lüğəti"dir. Azərbaycan və özbək dillərinin lüğət tərkibində intensiv işlənən, işlənmə tezliyi ilə fərqlənən sözlər və ifadələr bu lüğətin sözlüyünün əsas bazasını təşkil edir.

"Azərbaycanca – özbəkcə, özbəkcə – azərbaycanca lüğəti" inə "Ön söz" yazan Samir Abbasov onu da vurğulayır ki, Azərbaycan və özbək xalqlarının tarixləri, mədəniyyətləri ortaq bir kökə malik olduğu kimi, bu iki xalqın dili də eyni kökə əsaslanır. Fərqli tarixi inkişaf yolu keçmələrinə baxmayaraq bu iki dilin kökü, özəyi, anası ümumtürk dilidir. Azərbaycan və özbək dilləri türk dilləri ailəsinin oğuz və karluq dil qruplarına aiddir [1,6].

1927-ci ilə qədər özbək dilinin əlifbası ərəb qrafikası əsasında olub. 1927-1938-ci illərdə onlar latın əlifbasından istifadə etmişlər.1939-cu ildən isə özbək dilinin yazısında rus qrafikası əsasında yaradılmış əlifbadan istifadə olunur. Hazırda müasir özbək ədəbi dilində külli miqdarda bədii-elmi və ictimai-siyasi ədəbiyyat nəşr olunur.

Azərbaycan dilində bir çox sözlər vardır ki, bu sözlərə özbək dilində də rast gəlinir. Xalq arasında işlək olan və müasir dövrdə öz aktuallığını qoruyan bu sözlər, eyni qaydada özbək dilində də özünü göstərir. Belə sözlərin əksəriyyəti başqa dillərdən alınma sözlərdir: *analiz, akt, amal, limon, balkon, balet, teatr, bakteriya, neft, aprel, dekabr, mart, may, iyul, iyun, muzey, gitara, bayram, fil, amal, arpa, din, banan, burun, it, irq, bu, bir, birlik, biz.*

Azərbaycan və özbək dillərini bir-birinə yaxınlaşdıran ən mühüm cəhətlərdən biri hər iki dildə ərəb və fars alınmaların çox olması hesab oluna bilər.

Özbək dilində sözlərin bir çoxunda sözün ortası və əvvəlində Azərbaycan dili üçün səciyyəvi olmayan hərf əvəzlənmələri özünü göstərir. Lakin, bu əvəzlənmələr məna dəyişikliyinə səbəb olmur. Əvəzlənmələr, əsasən, ə-a, ə-o, a-o, o-u, ö-u, i-a, i-ı, ş-sh, x-h, q-g, q-k, ç-ch şəklində müşahidə olunur: *salam-salom, yaş -yosh, saat-soat, bulud-bulut, vaxt-vaqt, bu gün-bugun, dəqiqə-daqiqa, dəfn-dafn, dəhliz-dahliz, əgər-agar (əgar), dövlət-davlat, dərs-dars, kitab-kitob, faiz-foiz, meymun-maymun, molla-mulla, ilan-ilon, nöqtə-nuqtə, insan-inson, cinar-chinor, ipək-ipak, bayraq-bayroq, balta-bolta, balıq-baliq, balo-bəla, musiqi-musiqa, araq-aroq, arı-ari, ayıq-ayiq, ədəd-adad, leqal-legal, lazım-lozım və s.*

Bu əvəzlənmə şəxs və yer adlarında da özünü göstərir: Aqşin-Oqshin, Aydın-Oydin, Aysel-Oysal, Ədilə-Adila, Əlibaba-Alibobo, Eldəniz-Eldengiz, Elxan-Elxon, Firəngiz-Firangiz, Qüdsi-Qudsi, Mahirə-Mohira, Murad-Murod, Nabat-Nabot, Gəray-Geray, Gündüz-Kunduz, Gülzar-Gulzor, Qənirə-Qanira, Habil-Hobil, Hicran-Hijron, Hüseyn-Husayn, Həcər-Hojar, İsmayıl-İsmoil, İsrafil-İsrofil, İlahə-İloha, Kərəm-Karam, Könül-Kongil, Kamilə-Komila, Kamran-Komron, Lalə-Lola, Musa-Muso, Mürsəl-Mursal, Müslim-Muslim, Nadir-Nodir, Oruc-Oruj, Ömər-Umar, Ömür-Umr, Polad-Polat, Paşa-Poshosho, Xanım-Xonim, Xurşud-Xurshid, Xosrov-Xusrav, Şərif-Sharif, Şamil-Shomil, Ramazan-Ramazon, Vilayət-Viloyat, Vəfadar-Vafodor, Vüqar-Viqor, Yadulla-Yodulla, Yeganə-Yagona, Zamiq-Zomiq, Züleyxa-Zulayxo vs. sadalamaq mümkündür [1.493].

Azərbaycan dilində işlənən şəxs adlarının eyni ilə özbək dilində də işləndiyinin şahidi oluruq. Bu adlar heç bir dəyişikliyə məruz qalmadan olduğu kimi xalq arasında istifadə olunur: *a (Atilla, Ayan, Asim, Asif, Abdulla, Abdal), e (Emin, Elman, Emil, Elmira, Esmira, Ellada, Elmar), s (Sona, Sevil, Sara), x (Xasay, Xudu), f (Fuad, Fariz, Flora), v (Vasif), i (İdris), z (Zaur), r (Roza,Rauf, Raqif), u (Uğur), d (Damla), n (Nurlan), y (Yunus), m (Mansur), j (Jasmin)* hərflərində özünü göstərir.

Bu məqalədə özbək və Azərbaycan dillərinin oxşar və fərqli xüsusiyyətləri təhlil olunmuşdur. Gələcəkdə bu istiqamətdə daha geniş və bütün dil səviyyələrini əhatə edən tədqiqatlar aparılması faydalı olardı.

Ədəbiyyat

1. Abbasov S. "Azərbaycanca – özbəkcə, özbəkcə - azərbaycanca lüğəti". Bakı, "Savad", 2019, s.506
2. https://az.wiktionary.org/wiki/Kateqoriya:%C4%B0sim_(%C3%96zb%C9%99k_dili)
3. https://kayzen.az/blog/linqvistika/24185/t%C3%BCrk-dill%C9%99ri-ail%C9%99si.html

XX ƏSRİN 30-CU İLLƏRİNDƏ AZƏRBAYCANDA NƏŞR OLUNAN TERMİNOLOJİ LÜĞƏTLƏR

TERMINOLOGICAL DICTIONARIES PUBLISHED IN AZERBAIJAN IN THE 30S OF THE 20TH CENTURY

Aytən Hüseynova-Qəhrəmanlı
AMEA İ.Nəsimi adına Dilçilik İnstitutu
elmi işçi

Annotasiya Məqalədə XX əsrin 30-cu illərində Azərbaycanda nəşr olunan terminoloji lüğətlər təhlil olunur. Bu dövrdə Azərbaycanda elm və texnikanın müxtəlif sahələri üzrə terminologiya inkişaf etməyə başlamışdır. 30-cu illərdə nəşr olunan lüğətlər əsasən əkinçilik, kənd təsərrüfatı, fəlsəfə, riyaziyyat, idman, eləcə də tibbin müxtəlif sahələrini əhatə edirdi. Bu sahələrin inkişafı terminoloji lüğətlərin də artmasına, inkişafına təkan verdi. Bu terminoloji lüğətlərdə bəzi nöqsanlar müşahidə edilsə də, sonrakı mərhələlərdə həmin sahələrlə bağlı terminlərin inkişafı üçün əsas təməl kimi mühüm əhəmiyyətə malikdir.

Açar sözləri: Azərbaycan dili, XX əsrin 30-cu illəri, terminoloji lüğətlər, terminlər, ikidilli lüğətlər.

Annotation Terminological dictionaries published in Azerbaijan in the 30s of the twentieth century are analyzed in the article. During this period, the terminology of various fields of science and technology began to develop in Azerbaijan. Dictionaries published in the 1930s mainly covered various fields of farming, agriculture, philosophy, mathematics, sports and medicine. The development of these areas also encouraged the growth and development of terminological dictionaries. Although some shortcomings, are observed in these terminological dictionaries, they are significant as a basic foundation for the development of terms related to these fields at a later stage.

Keywords: *Azerbaijani language, 30s of XX century, terminological dictionaries, terms, bilingual dictionaries.*

XX əsrin 30-cu illərində mütəxəssislər tərəfindən müxtəlif sahələrə aid ikidilli terminoloji lüğətlər tərtib edilmişdir ki, bu lüğətlər də Azərbaycan dilində terminologiyanın formalaşmasına, inkişafına da təsirsiz ötüşməmişdir.

Bu dövrdə nəşr olunan lüğətlər müxtəlif terminoloji sahələri: tarix, fəlsəfə, tibb, geodeziya, geologiya, histologiya, zoologiya, kimya və s. əhatə edirdi. Məqalədə 30-cu illərdə nəşr olunan bir neçə terminoloji lüğətlər təhlilə cəlb edilmişdir ki, bunlardan biri də 1931-ci ildə İ.Mədədovun tərtibatçılığı ilə nəşr olunan ikidilli "*Pambıq və aqrometeoroloji terminləri*" lüğətidir. Burada kənd təsərrüfatına aid bir çox terminlər öz əksini tapmışdır. Məsələn, *ветры морские – dəniz küləkləri, высотомер – yüksəkölçən, засоренное волокно – zibilli lif, однорядная хлопковая сеялка – bircərgəli pambıq səpən, полив затоплением – basdırma ilə suvarma* və s.

Terminoloji lüğətdə Avropa dillərinə məxsus terminlər də kifayət qədər işlənmişdir. Məsələn, *pirqeliometr, ombroqraf, linter-maşın, izotermalar, hommoz, hipsotermometr, anemoqraf, ştapel, Boford şkalası, tundra, fotoperiodizm, radiasiya* və s.

Lüğətdə bəzi terminlərin qarşılığı iki və ya üç sözlə verilmişdir. Məsələn, *сырец – mahlıc, xam pambıq, ciyitli pambıq; линтерованный – linterlənmiş, tükü təmizlənmiş; годовой ход – sənəlik dəyişirilmə, illik gediş; главхлопком – baş pambıq komitəsi, baş pamkom, qlavxlopkom; çor, pambıq gənəsi* və s.

Kİtabın girişində yazılışında səhvə yol verilmiş terminlərin düzgün yazılışı ayrıca qeyd edilmişdir. Məsələn, *sirriplar – sirriuslar, şimar parıltısı – şimşək parıltısı* və s.

Lüğətin sonunda isə bir bölmədə gözdən qaçırılmış terminlər verilmişdir. Məsələn, *питание – bəslənmə, qida; созревание – yetişmə, испаритель плавучий – üzən buğlandırıcı* və s. [Mədədov 1931].

1931-ci ildə Cəmo bəy Cəbrayılbəylinin tərtibatçılığı ilə "*Bitkilər fiziolojisi terminləri*" lüğəti nəşr olunmuşdur. Lüğətdə terminlər əlifba sırası ilə öncə rus, qarşılığında isə azərbaycanca verilmişdir. Məsələn, *внеродный – cinsdən xaric, вечнозеленые – həmişə yaşıllar, вращательное движение – dolanma hərəkət, корневая поросль – kök pərçəmi, деревенение – oduncaklanma* və s.

Lüğətdə milli terminlərlə yanaşı, Avropa mənbəli terminlərə də yer verilmişdir. Məsələn, *hiponastiya, zoospor, qlükoz, hibrid, invertin, dissimilyasiya, kollodyum, ksantofil, kosmopolit, lipoid, mikrospor, metamorfoza, nikotin, periderm, parafiz, pirenoid, regenerasiya* və s.

Kitabda bəzi terminlərin qarşılığı iki sözlə ifadə olunmuşdur. Məsələn, *оогамия – ooqamiya, həqiqi qovuşma, диоморфиз – diomorfiz (iki şəkillilik), камбий – kambiy (ana qat), ксерофиты – kserofitlər (quraq sevənlər), сомат. клетки – somatik hüceyrələr, bədəni hüceyrələr* və s.

Burada bəzi terminlərin aydın olması üçün qısa izahı da verilmişdir. Məsələn, *зимаза – zimaza, spirt əmələ gətirən qıjqırma fermenti*, *лейцин – Leytsin (bitki azotlu maddə), маквисы – Makvislər (keçilməz həmişəcavan qolluqlar), тирозин – tirozin (bitki azotlu maddə)* və s. [Cəbrayılbəyli 1931].

1931-ci ildə Əsgərbəyli, Qasımovun tərtibatçılığı ilə "*Torpaqşünaslıq terminləri*" lüğəti nəşr olunmuşdur. Lüğətdə terminlər rusca verilmiş, qarşılığında isə azərbaycanca tərcüməsi verilmişdir.

Məsələn, *вскипание – qaynama, грань – vəch, котловина – böyük çuxur, осолодения – şorun azalması, структура листовая – yarpaqvari struktur* və s.

Burada Avropa dillərinə məxsus terminlər də öz əksini tapmışdır. Məsələn, *elektrolit, mikrorelyef, merqel, hidrozol, denudasiya, kation, humus, kolloid, adsorbsiya, aspirator, biosfer, litosfer, geomorfoloji, mineral, ortzand, hidrometrik rejim* və s.

Lüğətin sonunda terminlərin yazılışında yol verilmiş səhvlərin düzgün forması göstərilmişdir. Məsələn, *yağış qurdu* (yanlış) – *yağış qurdu soxulcan (doğru), yaşıltrak (yanlış) – yaşılımtıl (doğru), xırda qozvari struktur (yanlış) – fındıqvari struktur (doğru)* və s. [Əsgərbəyli, Qasımov1931].

Bu dövrdə nəşr olunan növbəti lüğət "*Ümumi əkinçilik terminləri*" lüğətidir. 1931-ci ildə Ə.Əliyevin tərtibatçılığı ilə ikidilli (rus-Azərbaycan) *вода грунтовая – yeraltı su, заморозок – şaxtacıq, конопля – şatanə, запахать – şumlayıb örtmək, topaqlamaq, крупнозернистый – iri danəli* və s. lüğət çap olunmuşdur.

Lüğətdə milli terminlərlə yanaşı beynəlxalq terminlər də verilmişdir. Məsələn, *anaerobioz, aerob, plantasiya, oranjerey, substrat, saprofit, superfosfat, fotosintez, sement, ekstirpator, efermerlər, bioloji proses, nitrifikasiya, mikroflora, torf* və s.

Lüğətdə bəzi terminlər bir neçə sözlə ifadə olunmuşdur. Məsələn, *сорго – sorqo; hind darısı, клубнеплоды – yumrulular; yumru köklülər, выгон – otlaq; yaylım, зональность – zonluluq; mintəkəlilik, растения прядильные – əyirmə bitkiləri; bitki lifləri* və s.

Burada türk dilinə aid sözlərə də təsadüf etmək olar. Məsələn, *kokuyan surmə, küsküt, bənimsəmək* və s. [Əliyev 1931].

1931-ci ildə N.Qayıbovun tərtibatçılığı ilə texniki sahəyə aid ikidilli "*Riyaziyyat terminləri*" lüğəti nəşr olunmuşdur. Bu lüğətdə də terminlər digər lüğətlərdəki kimi əlifba sırası ilə düzülmüş, rusca verilən terminlərin azərbaycanca qarşılığı göstərilmişdir. Məsələn, *абсолютная кривизна – mütləq əyrilik, бесконечность – sonsuzluq, боковая поверхность – yan səth, внутреннее соприкасание – daxilən toxunma, главная хорда – baş vətər, двойное касание – ikiqat toxunma, дробь относительная – nisbi kəsr* və s.

Kitabda diqqət çəkən nüanslardan biri də bəzi terminlərin qarşılığının düzgün verilməməsidir. Məsələn, *закон инверсии – tərsinə çevirmə qanunu, единица мнимая – mövhum vahid, косой инвариант – çəp invariant* və s.

Bəzi terminlərin qarşılığında ərəb sözlərə üstünlük verilmişdir. Məsələn, *геометрия пространственная – mücəssəm həndəsə, действие обратное – məqus, десятичный – əşari, зона – mintəkə, инволюция результирующая – muhəssələ involusiya, интеграл кратный – muqərrər inteqral, минус – naqis, неравный – musavi olmayan, равновеликость – müadil* və s.

Lüğətdə bəzi terminlərin qarşılığı bir neçə sözlə verilmişdir. Məsələn, *колебание – rəqs, ihtizaz, titrəmə; энвелопна – envelopp, qurşaq; арифметика – hesab elmi, arifmetika; дефект – nöqsan, qüsur, əksiklik; знаменатель – məxrəc, ortaq vuruq; коническое сечение фокусное – fokus, fokol konus kəsiyi* və s.

Burada beynəlxalq terminlər olduğu kimi verilmişdir. Məsələn, *trapezoedr, faktorial, sissoid, silindroid, ekssentrik, ellipsoid, aksonometriya, Nyuton binomu, vektor, veksel, hektar, geodeziya, hiposikloid, holomorf funksiya, deviasiya, diametral* və s.

Lüğətdə türk sözlərinə də rast gəlmək olar. Məsələn, *dışarı çizilmiş fiqur*. [Qayıbov 1931].

1932-ci ildə S.Vasilyev və M.İsmayılovun tərtibatçılığı ilə ikidilli "*Fəlsəfə terminləri*" lüğəti nəşr olunmuşdur. Burada bir çox fəlsəfi terminlər öz əksini tapmışdır. Məsələn, *божество – ilahiyyət, вселенная – kainat, возрождение – təcəddüd, intibah вечность – əbədilik, индивидуальность – fərdiyət, иконоборчество – ikon ilə mübarizəçilik* və s.

Terminoloji lüğətdə Avropa dillərinə məxsus terminlər çoxluq təşkil edir. Məsələn, *intensiv, immanent, ipostaz, konspirasiya, klerikalizm, limitasiya, mimetizm, neovitalizm, obskurant, ontologizm, panvivizm, potensiya, platonizm, postulat, rasional, spiritualizm* və s.

Burada bəzi terminlər həm mənbə dildə olduğu kimi, həm də dilimizin öz sözləri ilə verilmişdir. Məsələn, *теология – teologiya, ilahiyyət; тенденсиоз – tendensioz, meylli; теодицея*

– Teodiseya, ədaləti-ilahiyə bəhsi; фантазер – fantazor, xulyaçı; цивилизатор – sivilizator, mədəniyyətpərvər; эгоизм – eqoizm, xudbinlik və s. [Vasilyev, İzmailov 1932].

Bu dövrdə tibb sahəsi ilə bağlı terminoloji lüğətlərin əsası qoyulmağa başladı. XX əsrin 30-cu illərində nəşr olunan tibb terminoloji lüğətlərin tərtibi prinsiplərini araşdıran A.Hüseynova-Qəhrəmanlı digər sahələrdə olduğu kimi tibb terminologiyası sahəsində də əsaslı dəyişiklərin baş verdiyini göstərərək yazır: "Azərbaycan dilinin inkişaf dövründə olması üzündən müəliflər öz bildiyi və istədiyi termini işlədir, nəticədə dildə böyük bir anarxiya əmələ gəlirdi. Tibb üzrə terminoloji lüğətlərin tərtibi bu anarxiyanın qarşısını bir qədər almağa və Azərbaycan dilində tibb elminin inkişaf və tərəqqisinə təkan verdi" [Hüseynova-Qəhrəmanlı 2022: 98].

1932-ci ildə İ.İsmayılzadənin tərtibatçılığı ilə üçdilli "*Dəri və zöhrəvi xəstəliklər terminləri*" (latınca-rusca-türkcə) lüğəti nəşr olunmuşdur. Lüğətdə beynəlxalq səciyyəli latın terminləri olduğu kimi verilmişdir. Məsələn, *acnistis- aknit, blastomycosis – blastomikoz, dermatitis – dermatit, ecthyma – ektima, desquamatio – deskvamasiya, erythrasma – eritrasma, erytrocyanosis symmetrica – simmetrik eritrosyanoz, gumma – gumma, keloid – qeloid, lichen – lixen, kryptorchismus – kriptorxizm, pellagra – pellaqra, parapsoriasis – parapsoryaz, pityriasis – pitiryaz, porokeratosis – poroqeratoz* və s.

Lüğətdə əsas terminlərdən sonra törəmə sözlər verilmişdir. Məsələn, *qızıl yel – tuncvari qızıl yel, xronik qızıl yel, hüdudlu qızıl yel, qızarmış qızıl yel, qanqrenli qızıl yel, idiopatiq qızıl yel, parıltılı qızıl yel, fleqmonlu qızıl yel, irinlik qızıl yel, yara qızıl yel, döycə qızıl yel, zolaqlı qızıl yel* və s.

Kitab izahlı lüğət olmasa da bəzi beynəlxalq terminlərin qarşısında klinik mənası da verilmişdir. Məsələn, *mikrosporiya* – xırda sporlu göbələk xəstəliyi, *uretroskop* – sidik kanalına işıqla baxma aləti, *toksidermiya* – dəri zəhərlənməsi, *psoryaz* – pullu dəmirov, *miksodema* – selikli özema, *intertriqo* – yanaşık dərilərin bir-birinə sürtülməsindən əmələ gələn dermatit, *epispadiya* – erkək sidik kanalının üst tərəfdən yarılması, *ixtiyoz* – balıq pullu şəkilli xəstəlik və s. [İsmayılzadə 1932].

1935-ci ildə G.Qurbanovun "*Rusca-türkcə stomatologiya terminləri*" lüğəti nəşr olunmuşdur. Lüğət ikidilli rusca-türkcə olsa da, latınca terminlər də verilmişdir. Lüğətin yarı hissəsində isə Azərbaycanca stomatologiya terminləri verilmişdir. Sözlərin qarşısında rəqəmlər rusca terminlərin sıra nömrələrini göstərir.

Lüğətdə beynəlxalq terminlər olduğu kimi verilmişdir. Məsələn, *amalqam, biqel, artikulyator, vulkanizator, vulkanit, dentin-sement, qoferdam, qraplaq, matris, osteoperiostit, sekvestr, sekvestrasiya, separator, ştift, ştixel, ştopfer, seluloid* və s. Bəzi terminlər qısa izahlarla verilmişdir. Məsələn, *экзостоз* – exzostor, kök ucundan törəyən qavarcıqlar; *agnathia* – aqnatiya (anadangəlmə çənəsizlik); *adenoma* – adenoma (vəz şişi); *анестезия* – anesteziya (keyləmə, key etmə); *анатоформ* – anatoform (süni diş); *биндрат* – bindrat (yanmış məftil); *гайморит* – haymorit (Haymor boşluğunun iltihabı); *periodontitis* – periodont (diş kökü pərdəsinin iltihabı); *гематогенный остеомиэлит* - hematogen osteomielit (qan yolu ilə törəyən ilik iltihabı).

Bəzi terminlər həm olduğu kimi verilmiş, həm də qarşılığı verilmişdir. Məsələn, *остеомиэлит - osteomielit, ilik; санация - sanasiya, sağlamlaşdırma; фрактура - fraktur, sınma; бор – bor, diş burqacı ; шабер – şaber, əsrin; кламмер - qlamer, qarmaq* [Qurbanov 1935].

1939-cu ildə dosent S.Əliyevin tərtibatçılığı ilə orta məktəb proqramı həcmində "*Rusca-azərbaycanca fizkultura terminləri*" lüğəti nəşr olunmuşdur. Məsələn, *бег на длинные дистанции – uzaq distansiyaya yüyürmə; бросание – atlanma, tullanma; махом подем – yellənərək qalxma; мат борцовский – güləşmə döşəyi* və s.

Lüğətdə bəzi nöqsanlara da rast gəlinir. Belə ki, bəzi terminlər rus dilində olduğu kimi tərcümə olunmadan verilmişdir. Məsələn, *всклопка – vsqlopka; бег – beq; спортсмен – sportsmen; спорт – sport; физическая культура – fizkultura* və s.

Terminoloji lüğətdə idman sahəsi ilə bağlı beynəlxalq terminlər çoxluq təşkil edir. Məsələn, *ofsayt, start, piramida, reyqa, sanminimum, spirometriya, sprinter, futbol, forvard, havbeq, finiş, flanq, xronometr, autsayd, beysbol, vaterpolo, handbol, korner* və s. [Əliyev 1939].

Təhlil edilən lüğətlər terminoloji sahələr üzrə ilk cəhdlər olduğundan təbii ki, bəzi nöqsanlardan xali deyildir. Lakin bu terminoloji lüğətlərin tərtibi Azərbaycan terminologiyasının inkişafı üçün xüsusi əhəmiyyətə malikdir.

Ədəbiyyat

1. Cəbrayılbəyli C. Bitkilər fiziolojisi terminləri. Bakı, 1931.
2. Əliyev Ə. Ümumi əkinçilik terminləri. Bakı, 1931.
3. Əliyev S. Rusca-azərbaycanca fizkultura terminləri. Bakı, 1939.
4. Əsgərbəyli, Qasımov. Torpaqşünaslıq terminləri. Bakı, 1931.
5. Hüseynova-Qəhrəmanlı A. 1930-cu illərdə tibb terminoloji lüğətlərinin tərtibi prinsipləri. Terminologiya məsələləri №1. Bakı, 2022. s.98-101.
6. İsmayılzadə İ. Dəri və zöhrəvi xəstəliklər terminləri. Latınca-rusca-türkcə. Bakı, 1932.
7. Qayıbov N. Riyaziyyat terminləri. Bakı, 1931.
8. Qurbanov G. Stomatologiya terminləri. IV kitab. Bakı, 1935.
9. Mədədov İ. Pambıq və aqrometeoroloji terminləri. Bakı, 1931.
10. Vasilyev S., İsmayılov M. Fəlsəfə terminləri. Bakı, 1932.

O‘ZBEK TILI - ENG QADIMGI TURKIY TILLARDAN BIRI

Nurmanov Furqat Ismailovich,
Navoiy davlat pedagogika instituti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti
E-mail: nurmonov.f@gmail.com

Annotatsiya. maqolada turkiy tillarning fonetik, leksik, grammatik jihatdan o‘zaro mushtarak hamda farqli tomonlari, o‘zbek tilining fonetik jihatdan boshqa turkiy tillardan farqli va o‘xshash jihatlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: turkiy tillar, fonetika, singormonizm, unli va undosh tovushlar, unlilar cho‘ziq unlilar, urg‘u, geminatsiya, tovush o‘zgarishlari.

УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК - ОДИН ИЗ ДРЕВНЕЙШИХ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ

Аннотация: в статье проанализированы фонетические, лексические, грамматические различия тюркских языков, фонетические различия и сходства узбекского языка с другими тюркскими языками.

Ключевые слова: тюркские языки, фонетика, сингормонизм, гласные и согласные звуки, долгие гласные, акцент, геминация, звуковые изменения.

UZBEK LANGUAGE - ONE OF THE OLDEST TURKIC LANGUAGES

Abstract: The article analyzes the phonetic, lexical, grammatical differences of Turkic languages, phonetic differences and similarities of the Uzbek language with other Turkic languages.

Keywords: Turkic languages, phonetics, singormonism, vowels and consonants, long vowels, accent, gemination, sound changes.

Kirish (Introduction). Turkiy tillar dunyo tillari tizimida alohida o‘ringa ega bo‘lgan, tarixi eramizdan oldingi III minginchi yillarga borib tutashadigan, hozirgi va qadimgi turkiy xalqlar hamda elatlarning tillaridir.

Ilmiy manbalarda keltirilishicha, turkiy xalqlarning ildizlari miloddan oldin Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan mahalliy tub qabila va urug‘lar — qarluqlar, o‘g‘uzlar, qipchoqlarga borib taqaladi. Har bir turkiy xalq va uning tilining shakllanishida bu urug‘larning biri asos bo‘lgan.[2]

Turkiy tillar oilasi dunyo tillari orasida eng qadimgi tillardan biri sanaladi. Bu oilaga o‘zbek, ozarbayjon, turk, turkman, tatar, boshqird, qirg‘iz, qoraqalpoq, uyg‘ur, qozoq va boshqa turkiy tillar kiradi.

O‘zbek tili o‘zbek xalqining milliy adabiy tili bo‘lib, u bir-biridan fonetik, morfologik va leksik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan qarluq-chigil-uyg‘ur, qipchoq va o‘g‘uz lahjalari hamda ko‘plab katta-kichik shevalardan iborat. Demak, o‘zbek tili boshqa turkiy tillar, chunonchi, turk, ozarbayjon, qirg‘iz va qozoq tillari bilan bevosita qardoshdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Tarixiy yozma yodgorliklar: O‘rxun-Enasoy tosh bitiklari, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul-haqoyiq” kabi o‘lmas asarlar o‘zbek xalqining ham dastlabki yozma yodgorliklari hisoblanadi. Bu manbalarda turkiy til fonetik tizimiga oid muhim jihatlarni uchratamiz. Jumladan, old qator keng *a* old qator to‘liqsiz keng *e*, old qator o‘rta keng *e* hamda old qator tor *i* tovushlari tarixiy dialektal hodisa tarzida rivojlangan: *er* (Toŋ, 25) — kishi, botir; *yegirmi* (KT, II) — yigirma; *edgu* (KT, kch, 3) —- ezgu kabi so‘zlarning birinchi bo‘g‘inida old qator keng *e* unlisi qo‘llangan, *yir* (Toŋ, 60) — *yer, ti* (KT kt, 7) -de kabi turkшy so‘zlarda old qator tor *i* tovushi tarixiy dialektal hodisa tarzida old qator to‘liqsiz *e* unliga aylangan: *i>e* kabi: yir (Toŋ, 60)>yer (MK, III, 156) er, ti (KT, kch. 7), de (hh, 261) de.[3]

Turkiy tillarni o‘rganish uzoq davrlarga borib taqaladi. Turkiy tillarning o‘ziga xos lingvistik xususiyati, faqat shu tilning o‘ziga xos jihatlari xalifalik davrlari (Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy va boshq.)da, Qoraxoniylar davri (Mahmud Koshg‘ariy, Mahmud Zamxshariy va boshq.)da, Temuriylar davri (Alisher Navoiy, Zahiridin Muhammad Bobur)da, xonliklar davri (Abulg‘oziy Bahodirxon)da, sho‘rolar davri(Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat)da, mustaqillik yillaridagi ilmiy adabiyotlarda teran tavsiflangan.

Turkiy tillar haqidagi dastlabki mukammal nazariya Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida o‘z ifodasini topgan. Alloma bu asari bilan eski turkiy tilni amaliy ravishda o‘rganishni boshlab berdi, turkiy tillar fonetik qonuniyatlari ilk marta tavsiflandi. Asar nafaqat turkiy adabiy til haqida muhim ma’lumot bazasi, balki o‘sha davrda yashagan turkiy xalqning ijtimoiy hayot tarzi, adabiy til va shevalarning talaffuz xususiyatlari haqida ham atroflicha ma’lumot beradi.

Hozirgi shakllangan o‘zbek xalqi va uning tili uzoq o‘tmishda ro‘y bergan murakkab jarayonlarning hosilasidir. O‘zbek xalqi etnik jihatdan juda ham murakkab turkiy xalqlardan biridir. Uning shakllanishida to‘qson ikki turkiy va turkiy bo‘lmagan urug‘larning ishtirok etgani tarixiy, ilmiy va adabiy asarlarda ko‘rsatib o‘tilgan.[4]

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Har bir til oilasining boshqa til oilalaridan ajratib turuvchi xususiyatlari mavjud. Turkiy tillar oilasi uchun xos bo‘lgan singarmonizm, so‘z boshida undoshlarning ketma-ket kela olmasligi, bir bo‘g‘inda undoshlarning qator kelmasligi, gap bo‘laklarining joylashish tartibi kabi xususiyatlar bu tillarni boshqa til oilalaridan farqlab turadi.

Turkiy tillarda singarmonizmning ikki xil: a) palatal; b) labial kabi shakllari mavjud. Masalan:

Qoraqalpoq tilida – balalarымызdan;
Ozarbayjon tilida – gardashlarымызdan;

[2] Абдураҳмонов Ғ. Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши ҳақида. –Т.: 1999. – Б. 24.
[3] Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. ‘zbek tilining tarixiy grammatikasi, T.: 0‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. 43-b.
[4] Аҳмедов Б. Ўзбек улуси. –Т.: 1992. -Б. 121.

Qirg‘iz tilida – moldolordan.
Turk tilida - kulu (qo‘li);
Turkman tilida – düïölörö (tuyalarga), o‘g‘lonloro (o‘g‘illarga).

Turkiy tillar tarixiga oid asosiy fonetik hodisalardan biri - singarmonizm hodisasi keyingi davr ilmiy tadqiqotlarida, asosan, unlilarga xos ekanligi haqidagi qarash ustuvorlik qiladi. Turkiy tillar tarixida bu hodisa undosh tovushlarda ham yuz berganligini kuzatish mumkin. Masalan, burun tovushi sonor *ŋ* undoshi singarmonizm qonuniga ko‘ra, so‘zlarning qalin yoki ingichka talaffuziga muvofiq, til orqa qator hamda til oldi qator xususiyatga ega bo‘lgan. *meŋiz, keŋrü,, kəŋül, beriŋ, ishläŋ, səzläŋiz* kabi misollarda ingichka talaffuzli mustaqil fonema hisoblangan.

Chor Rossiyasi istilosi turkiy tillarning tovush tizimi, alifbosi, imlosi, so‘z boyligi, gap qurilishi va boshqa sohalarining o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Bu tillarning bir-biri bilan bog‘lab turuvchi umumiy xususiyatlariga e’tibor susayib, bir-biridan ajratib turadigan tomonlariga urg‘u berildi.

Til tarixiga oid ko‘pchilik tadqiqotlarda, darslik, o‘quv qo‘llanmalarda turkiy tillar fonetikasiga xos ham singormonizm hodisasi o‘zbek tilida XX asr boshlarigacha bo‘lganligi qayd etiladi. Bu hodisaning yo‘qolishi o‘zbek adabiy tili unlilar miqdorining 9 tadan 6 taga tushirilishiga ham sabab bo‘ldi.

Turkiy tillar o‘zaro fonetik, leksik, grammatik jihatdan juda yaqin tillardir. Ular til xususiyatlariga ko‘ra ko‘p jihatdan o‘zaro o‘xshash, ammo ayrim farqli jihatlarni ham kuzatish mumkin.

Turkiy tillar oilasi uchun xos bo‘lgan fonetik xususiyatlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Turkiy tillarda, chunonchi, o‘zbek tilida ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarning miqdori juda oz. Bir bo‘g‘inli (*o‘q, ot, oy* kabi) va ikki bo‘g‘inli (*bo‘ri, yetti, tulki* kabi) so‘zlarning miqdori esa ko‘p.

2. O‘zbek tilida va boshqa turkiy tillarda so‘zlar, asosan, uch tovushli bo‘ladi: *kun, til, bel, kel* kabi.

3. Turkiy (o‘zbekcha) so‘zlarning oxirgi bo‘g‘inida (*pastki, ostki, ustki* kabi ayrim ko‘makchilarni hisobga olmaganda) undoshlar yondosh kelmaydi.

4. Turkiy tillarda, chunonchi, o‘zbek tilida so‘z boshida undoshlar ketma-ket kela olmaydi.

O‘zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lsa-da, boshqa turkiy tillardan o‘ziga xos quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

1. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida singarmonizm qonuniyati amal qilmaydi, aksariyat turkiy tillar, chunonchi, turk, ozarbayjon, tatar, qozoq, qirg‘iz tillarida esa bu qonuniyat amal qiladi.

2. O‘zbek adabiy tilida unlilar miqdori oltita (*a, ə, o, o‘, u, i)* qilib belgilangan bo‘lsa, ozarbayjan adabiy tilida 9 ta, qirg‘iz va uyg‘ur adabiy tilida esa sakkizta unli (a, *ə, o, ө, u, ү, i, ы*), gagauz tili fonetikasida 18ta unli fonema beriladi: *a, ı, o, u, e, i, o:, u:, a:, aa, ıı, oo, uu, ee, ii, o:o:,u:u:, a:a:.*[5]

3. O‘zbek va turkman tillarida so‘z boshida keladigan *y* tovushi qipchoq guruhidagi turkiy tillarda *dj* va *j* tovushi bilan ifodalanadi: *yo‘l – jo‘l, yigit - jigit, yo‘q –jo‘q* kabi.

4. O‘zbek adabiy tilida *ch, sh* undosh tovushli ayrim so‘zla*r* qoraqalpoq va qozoq tillarida *sh, s* undoshlari bilan ifodalanadi: *kuch — kush, tish — tis* kabi.

[5] Dadaboyev X.,Xolmanova Z. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi, Toshkent, 2015.24-b.

5. O‘zbek tilida *k, t* tovushlari bilan boshlanadigan so‘zlar o‘g‘uz guruhidagi turkiy tillar, chunonchi, turk, ozarbayjon, turkman tillarida *g, d* tovushlari bilan beriladi: *ko‘z — go‘z, til – dil* kabi.

6. O‘zbek adabiy tilida *g‘* undosh tovushi bilan tugagan so‘zlar tatar, boshqird, qirg‘iz, qozoq, qoraqalpoq tillarida *v* va *u* undoshlari bilan ifodalanadi: *tog‘ – tav – tau, bog‘ – bav – bau* kabi.

7. Urg‘u, asosan, so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi.

Turkiy tillar undosh tovushlar miqdori jihatidan, deyarli, farqlanmavdi.
Undoshlar tizimida umumiy jihatlar bilan birga farqli xususivatlar ham mavjud. Masalan, turkiy tillarda undoshlar so‘z tarkibida qo‘llanish o‘rni nuqtayi nazaridan o‘zaro farqlanadi.

Turkiy tillarda undoshlar tizimidagi umumiy jihatlar quyidagicha:

- sof turkiy so‘zlar sonor tovush bilan boshlanmaydi (bunday so‘zlar uchrasa, ular boshqa tildan o‘zlashgan yoki keyingi fonetik taraqqiyot natijasida yuzaga kelgan bo‘ladi);
- sonorlar ko‘proq so‘zning oxirgi qismida uchraydi. Sonor bo‘lmagan undoshlar esa so‘zning boshida ham, oxirida ham keladi. Bu hodisa turkiy tillar tarixining eng qadimgi davrlarida kuchli bo‘lgan;
- turkiy bobo til va undan keyingi davrlarda jarangli undoshlar so‘z boshida juda kam qo‘llangan. Umuman, turkiy tillar taraqqiyotida so‘z boshida jarangli undoshlarning kelishi kam kuzatiladi;
-turkiy bobo til davrida r, 1, m, n, b, d, s kabi undoshlar so‘z boshida kelmagan. A.Sherbak tiklagan bir bo‘g‘inli turkiy bobo til o‘zaklari ichida *na* (nima) o‘zagidan boshqa sonor yoki jarangli undosh bilan boshlangan o‘zak uchramaydi *(y* bilan boshlangan o‘zaklar bundan mustasno). Hozirgi turkiy tillarda jarangli undoshlar bilan boshlanadigan o‘zaklar fonetik o‘zgarishlar orqali hosil bo‘lgan ikkilamchi hodisadir.[6]

Turkiy tillarning ayrimlari (turkman, turk, ozarbayjon)da so‘z boshida undoshlarning jaranglilashuvi keng tarqalgan: *kel,ko‘r, tog‘, tosh (*o‘zbek tilida*)- gal, gur, dag, das* (ozarbayjon tili)da.

Turkiy tillar fonetikasida kuzatiladigan hodisalardan yana biri undoshlar geminatsiyasidir: *yetti* “yetdi”; *shaharri* “shaharni” (o‘zb.); *atti* “otni” (qoz.) kabi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Turkiy tillar fonetikasida unlilar unlilar cho‘ziqligi, tovush almashinishi, tovush tushish va almashinishi kabi hodisalar o‘zbek tili fonetik tizimi uchun ham xosdir.

Til taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq, yani jamiyatdagi har qanday o‘garish, yangilik, avvalo, uning lug‘aviy qatlamida o‘z aksini topadi. Aytish mumkinki, tub turkiy so‘zlar turkiy tillarning o‘z materiali, o‘z ona mulkidir. Bu so‘zlar turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lgan barcha tillarda uchraydi. Bu hol turkiy tillar leksikasida bu tillar uchun qadimdan mushtarak bo‘lgan umumiy leksik fondni yuzaga keltirgan. Turkiy tillar lug‘at tarkibidagi mana shu mushtarak leksika turkologiyada umumturkiy so‘zlar deb yuritilmoqda.[7]

So‘z ma’nosi uning tarkibini tashkil etgan tovushlar yig‘indisi hamda so‘zlovchining nutq vaziyatidagi holati bilan bog‘liq. Nutq vaziyati urg‘u yordamida ifodalanadi. Turkiy tillarda urg‘uning o‘rni va ahamiyati singarmonizm hodisasi bilan bog‘liq.

Demak, turkiy tillar o‘zaro fonetik, leksik, grammatik jihatdan o‘zaro juda yaqin tillar sanalsa-da, ularning har birti o‘ziga xos ayrim jihatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Unli tovushlarning “ingichka”, “yo‘g‘on”ligi, so‘z tarkibida yuz beradigan fonetik o‘zgarishlar va ularning turlari, so‘z boshida yoki oxirida undoshlarning qator kelishi, singarmonizm kabi fonetik hodisalar davr tarqqiyoti, tillarning rivojlanishi va boshqa turli sabablarga ko‘ra turkey tillarda turlicha holatda saqlanib qolgan. Ayrimlari (mas. singormonizm hodisasi) o‘zbek adabiy tilida

[6] Dadaboyev X., Xolmanova Z. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi, - Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2015.31- b.
[7] Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. -Т.: Фан, 1985. –Б. 83-97.

saqlanib qolmagan. Shunday bo‘sa-da, turkiy til oilasiga kiruvchi tillarning o‘zaro bir necha jihatlari bilan umumiy o‘xshashlikka egaligi muloqotda ularning o‘zaro bir-birlarini to‘g‘ri tushunishlariga yordam beradi.

QARDOSH TILLAR IJTIMOIY TILLAR TERMINLARI XUSUSIDA

Dilmanov Ilya Worakbaevich,
Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI dotsenti, f.f.n.
93-712-64-64. ilyusha.dilmanov@mail.ru

Annotatsiya: Bugungi globallashuv davrida qardosh tillardagi terminlarning mushtarak va farqli jihatlarini chuqur o‘rganish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir. Zero, o‘zbek qardosh turkiy tillar ijtimoiy – siyosiy terminologiyasi tilimizni qiyoslanayotgan tillarda o‘zaro farq qiluvchi birikma terminlar muhim o‘rinni egallaydi deb bilamiz va bu masalaning ahamiyati hech qachon e’tiborimizdan chetda qolmasligi zarur.

Kalit so‘zlar: ikki komponentli birikma, ijtimoiy – siyosiy tushuncha, ekvivalent, terminologik tizimlar.

Аннотация: Сегодня в эпоху глобализации необходимо уделить приоритетное внимание вопросу углубленного изучения сходных и отличительных черт терминов на родственных языках. Поэтому мы считаем, в родственных тюркских языках, где сопоставляется общественно – политическая терминология, составные термины занимают важное место, и важность этого вопроса никогда не должна упускаться из виду.

Ключевые слова: двухкомпонентное соединение, социально – политическое понятие, эквивалент, терминологические системы.

Annotation: In the current era of globalization, it is natural to give priority attention to the in-depth study of the common and distinctive features of terminology in related languages. Indeed, we believe that the socio-political terminology of the Uzbek related Turkic languages occupies an important place in the combinations of terms that differ in the languages being compared, and the importance of this issue should never be overlooked.

Key words: two-component combination, socio-political concept, equivalent, terminological systems.

Ma’lumki, o‘zbek va qardosh turkiy tillar ijtimoiy – siyosiy terminologik tizimlarida, asosan, mustaqil ma’noli ikki so‘zdan iborat birikma terminlar alohida o‘rinni egallaydi. SHu bilan birga, qiyoslanayotgan tillar ijtimoiy – siyosiy terminologiyasida uch va undan ortiq komponentli birikma terminlar ham tez – tez uchrab turadi. Masalan: a) tinchlikni saqlash siyosati – paraxat shiliqti zorlash siyasati, xududiy – iqtisodiy ittifoq – aymazliq ekonomiqaliq intipaqliq.
b) umumiy majburiy o‘rta ta’lim – g‘alaba minnetli orta bilim, o‘zini – o‘zi boshqarish organlari – o‘zin o‘
zi basqaruv uyimlari;
v) Mehnat sharoitini yaxshilash bo‘yicha talablar – miynat jaqdayin jazilsaq boyinsha talaplar, majburiy kuchga ega bo‘lgan farmon – minnetli kushka iye bolg‘an parman.

Biroq o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq va turkman tillarida ham u yoki bu ijtimoiy – siyosiy tushunchani ifodalash maqsadida, ko‘pincha, ikki komponentli birikma terminlardan foydalanilayotganligi ma’lum bo‘ldi. SHunga ko‘ra, ishimizda asosiy e’tibor ikki komponentli birikma terminlar o‘rtasidagi farqli jihatlarni aniqlab chiqish lozim, deb topildi.

Qardosh tillar tillardagi bunday terminlarning farqli jihatlari haqida gap ketar ekan, quyidagi holatlar ko‘zga yaqqol tashlanishi ta’kidlab o‘tish lozim. (O‘rni bilan boshqa manbalarga ham murojaat etildi).

Bu masalani ko‘rib chiqishdan oldin shuni ta’kidlab o‘tamizki, yuqorida ko‘rsatilgan sabablarga ko‘ra, ayrim hollarda o‘zbek tilidagi ikki komponentli birikma terminlarga qoraqalpoq

va qozoq tilida ikki ba’zan uch komponentli birikma terminlar ekvivalent bo‘lib kelar ekan. Quyida keltirilgan misollar shundan dalolat beradi:

O‘zbek tilida		**Qoraqalpoq tilida**		**Qozoq tilida**
Muxtor vakil		Tolıq xuqıqlı uakil		Өkiletti uəkil
Muvoziy tarkiblar		Bir qatar dizilisler		Parallel jүyeler
Umuminsoniy prinsiplar		Ulıo‘ma adamgershilik prinsipleri		Әmbebap adamgershilik prinsipter
Oliy qadriyat		Eng joqarı baylıq		Ұlы qұndылыqtar
Dalatlararo tuzilmalar		Mamleketlik aralıq dizimler		Memleketaralыq qұrылымdar
Ijtimoiy mavqe		Jamiyetlik ornı ayırmashılıgı		Әleumettik status
Meros huquqi		Miyras etio‘ xuqıqı		Mұragerlik qұqыg‘ы
Umummilliy boylik		Ulıwma milliy baylıq		Ұlttыq baylыq
Parlamentlararo aloqalar		Parlamentler aralıq baylanıs		Parlamentaralыq baylanыstar
CHet davlatlar		Sыrt el mamleketleri		SHet elder
Davlatlararo shartnoma		Mamleketler aralıq shartnama		Memleketaralыq kelisim

Yuqorida o‘zbek, qoraqalpoq va qozoq tillari ijtimoiy – siyosiy terminologiyasida ham mushtarak, bir – biridan shaklan farq qiluvchi bir asosli terminlar borligiga ishonch hosil qildik. Ayni shu holatlar birikma terminlarda ham o‘z ifodasini topishi tabiiyligini o‘qtirib o‘tmoqchimiz. Dalillar tahlilidan birikma terminlardagi farqli xususiyatlarini qo‘yidagicha guruhlashtirish mumkinligi ayon bo‘ldi:

a) tarkibidagi lisoniy materiali jihatidan har xil bo‘lgan terminlar;

b) tarkibidagi leksik birliklarning yasalishi jihatidan har xil bo‘lgan terminlar. Bularning har qaysisi o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lganligi uchun alohida – alohida ko‘rib chiqiladi.

O‘zbek tilidagi birikma terminlarning ayrim shunday turlari borki, ularga qoraqalpoq tilida har ikkala komponentli ham shaklan bir – biridan keskin farq qiluvchi leksik birliklar to‘g‘ri keladi. Qiyos qilaylik: ularga qoraqalpoq va turkman tillarida har ikkala komponentli ham shaklan bir – biridan keskin farq qiluvchi leksik birliklar to‘g‘ri keladi. Qiyos qilaylik:

O‘zbek tilida	**Qoraqalpoq tilida**	**Türkmen dilinde**
Mansabdor shaxs	ameldar adam	Resmi jogapkär adam
Idora organlari	Basxarıw uyımları	Dolandyryş edaralary
Davlat organlari	Mamleketlik uyımlar	Döwlet edaralary
Davlat ramzi	Mamleketlik tanba	Döwlet nyşany
Ijtimoiy hayot	Jamiyetlik turmıs	Sosial durmuş
Xayriya faoliyatlari	xayырqomlıq jumıslar	Haýyr-sahawat işleri
Qonun loyihasi	Nızam joybarı	Kanunyň taslamasy
Vazirlar mahkamasi	Ministrler Kabineti	Ministrler Kabineti
Bosh vazir	Premer ministr	Premýer-ministr
Mutloq vakolat	Ayırıqsha wakillik	Doly ygtyýar wekil

2. O‘zbek tilidagi birikma terminning birinchi komponentiga qoraqalpoq tilida shaklan boshqa, ikkinchi komponentiga esa mushtarak (fonetik yoki morfologik farqli) o‘zak – negizidan iborat leksik birlik to‘g‘ri keladi. Bunday birliklar jumlasiga qo‘yidagilarni misol qilib keltirish mumkin.

O‘zbek tilida birikma terminning ikkinchi komponenti qorqalpoq tilida o‘zgacha leksik birlik bilan, birinchi komponenti esa mushtarak leksik birlik bilan ifodalanadi. Masalan:

O‘zbek tilida	**Qoraqalpoq tilida**	**Türkmen dilinde**
Hokimiyat idoralari	Xakimiyat uyımları	Häkimiýet guramalary
Kuch ishlatmaslik	Kush qollanbao‘	Güýç işletmezlik

Milliy totuvlik	Milliy kelisim	Milli hoş niýetlik
Xalq muxokamasi	Xalıq dodalanıwı	Köpçülikleýin çekişme
Aralashmaslik qoidalari	Aralaspaw prinsipleri	Päsgel bermezlik düzgünleri
Mehnat ta'tili	Miynet otpuskası	Zähmet dynç alyş
Bozor munosabatlari	Bazar qatnasıqları	Bazar gatnaşyklary
Deputatlik faoliyati	Deputatlıq jumısı	Deputatlaryň işi

4. Ma'lumki, turkiy tillarda, jumladan, o'zbek, qozoq va qoraqalpoq tillarida ikki mustaqil leksik birlik bir – biriga xilma – xil usullar bilan bog'lanib kelib, u yoki bu tushunchani ifodalaydi. Har ikkala tilning ijtimoiy – siyosiy terminlarida shu nuqtai nazardan qaralganda ham ancha – muncha farqlar mavjud ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunday farqlarni qo'yidagicha guruhlashtirish mumkin:

1) O'zbek tilida belgisiz qaratqich + qaralmish andazasi asosida yasalgan birikma termin qoraqalpoq tilida nisbiy sifat + qaralmish andazasida ifodalanadi (qaratqichning o'zak – negizi mushtarak yoxud farqli o'zak – negizlardan iborat bo'lishi mumkin:

O'zbek tilida		**Qoraqalpoq tilida**		**Qozoq tilida**
Jamoat birlashmalari		Jamiyetlik birlespeler		Qog'amdıq birlestikter
Kasaba uyushmalari		Kasiplik awqamları		Kəsipodaqtar
Davlat qo'mitasi		Mamleketlik komitet		Memlekettik komitet
Xayriya faoliyatlari		qayırqomlıq jumısları		Qayırımdılıq sharaları
Davlat hakami		Mamleketelik arbitraj		Memlekettik sudya
Davlat organlari		Mamleketelik uyımlar		Memlekettik organdar

2.O'zbek tilida aniqlovchi komponentli nisbiy sifat + ot tipida yuzaga keltirilgan birikmalariga qoraqalpoq tilida belgisiz qaratqich + qaralmish, boshqa aytganda, ot + ot tipidagi birkmalar to'g'ri keladi (birikmaning u yoki bu komponentlari har xil bo'lishi ham mumkin):

O'zbek tilida	**Qoraqalpoq tilida**	**Türkmen dilinde**
Huquqiy davlat	Xuqıqıy mamleket	Kanuny döwlet
Mulkiy huquq	Menshik xuqıqı	Emläk hukugy
Huquqiy normalar	Xuqıqıy normalar	Hukuk kadalary
Mulkiy munosabatlar	Mulk qatnasıqları	Emläk gatnaşyklary
Muxolifatchi guruh	Qarsı topar	Oppozisiýa topary

O'zbek, qoraqalpoq va turkman tillarida birikma terminlarning aniqlovchi komponentlari nisbiy sifatlardan iborat, ularning yasovchi elementlari esa xilma – xil ko'rinishda bo'ladi (ularning ham o'zak – negizlari farqli yoxud mushtarak bo'lishi mumkin).

Quyidagi misollar shulardan dalolat beradi:

O'zbek tilida	**Qoraqalpoq tilida**	**Türkmen dilinde**
Qonuniy manfaatlar	Nızamlı mapler	Kanuny hyzmatdaşlygy
Asosiy huquq	Tiykarg'ı xuqıq	Esasy hukuk
Konstitutsiyaviy tuzum	Konstitutsiyalıq xuqıq	Konstitusiýa ulgamy
G'ayriqonuniy xatti– harakatlar	Nızamsız qareketler	Bikanun hereketler
Doimiy deputatlik	Turaqlı deputatlıq	Hemişelik deputat

O'zbek tilida birikma terminlarning aniqlovchi komponenti so'z yasovchi qo'shimchasi va rod (jins) belgilari olib tashlangan ruscha – baynalminal leksik birliklardan iborat bo'ladi;

Qoraqalpoq va qozoq tillarida esa ayni shu koʻrinishdagi oʻzak – negizlarga yana qoraqalpoqcha va qozoqcha soʻz yasovchi elementlar qoʻshiladi. Fikrimizni dalillash uchun misollar keltiramiz:

Oʻzbek tilida		**Qoraqalpoq tilida**		**Qozoq tilida**
Demokratik huquq		Demokratiyalıq xuqıq		Demokratiyalыq qұqыq
Normativ hujjat		Normativlik akt		Normativtik qұjat
YUridik shaxs		Yuridikalıq tarep		Zaңdı tұlgʻa
Kooperativ uy – joy		Kooperativlik uy – jay		Kooperativtik uy – jer
Strategik dastur		Strategiyalıq dastur		Strategiyalыq bagʻdarlama
Kooperativ tashkilot		Kooperativlik sholkem		Kooperativti ұyым

Xulosa qilib aytganda, lisoniy materiallar tahlilidan shu narsa ayon boʻldiki, oʻzbek qardosh turkiy tillar ijtimoiy – siyosiy terminologiyasida shu sohaga oid tushunchalarni ifodalashda bir – biridan farq qiladigan oʻnlab terminlar ishlatilar ekan. Ularning bir (nisbatan oz) qismi tub holidadir; ikkala tilda ham xilma – xil nomushtarak yasama terminlar koʻpligi bilan ajralib turadi; qiyoslanayotgan tillarda oʻzaro farq qiluvchi birikma terminlar muhim oʻrinni egallaydi.

LEKSEMALARNING MA’NO VA MAVZU GURUHLARI

Sharopova Ra’no Jaxonovna, dotsent
Navoiy davlat pedagogika instituti
rrr.sharaf.74@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada semantik maydon, semantik guruh va mavzuiy guruh tushunchalari, ularning oʻzaro munosabatlar, oʻxshash va farqli jihatlar haqida soʻz boradi.

Аннотация. В статье говорится о понятиях семантическое поле, семантическая группа и тематическая группа, их взаимоотношениях, сходстве и различиях.

Annotatsion. The article talks about the concepts of semantic field, semantic group and thematic group, their relationships, similarities and differences.

Kalit soʻzlar: Semasiologiya, semantik maydon, leksik-semantik guruh, mavzuiy guruh, yadro, markaz, yaqin va uzoq periferiya

Ключевые слова: Семасиология, семантическое поле, лексико-семантическая группа, тематическая группа, ядро, центр, ближняя и дальняя периферия.

Keywords: Semasiology, semantic field, lexical-semantic group, thematic group, core, center, near and far periphery

Filologiya yoʻnalishida oʻqitiladigan “Semasiologiya” kursida leksik semantikaga oid bilimlarni chuqur oʻrgatish muhim oʻrin tutadi. Til va matn bilan ishlaydigan boʻlajak mutaxassislar har bir birlikka xos semantik xususiyatlar haqida tasavvurga ega boʻlishi lozim. Biroq, bu boʻlimni oʻqitish jarayonida ayrim qiyinchiliklar ham mavjud. Bu talabalarning mazkur kursda turli semantik atama va tushunchalarni oʻzlashtirishi uchun lisoniy materiallar beradigan, ma’no bilan bogʻliq hodisalar tahliliga moʻljallangan ilmiy-metodik manbalarning yetarli emasligida namoyon boʻladi. Shuningdek, lingvistik adabiyotlarda ayrim semantik hodisalar talqinida fikrlar xilma-xilligi, turli yondashuvlar talabalarga fanni oʻzlashtirishda qiyinchilik tugʻdiradi. Shunday masalalardan biri leksemalarning ma’no va mavzu guruhlari sanaladi. Mazkur maqolada semantik maydon, semantik guruh va mavzu guruhi tushunchalari oʻrtasidagi umumiylik va farqli jihatlar haqida soʻz yuritamiz.

Ma’lumki, tilning lugʻat tarkibi bir-biridan ajralgan alohida birliklarning tartibsiz yigʻindisi boʻlmay, balki u soʻzlarning ma’no umumiyligi asosida birlashuvchi bir qancha mazmuniy maydonlarga boʻlinadi. Har bir til oʻz taraqqiyotining ma’lum bosqichida shu tilga xos boʻlgan soʻzlarning ma’noviy guruhlariga ega. Til birliklarining mazmuniga koʻra eng katta lingvistik guruhlanishi semantik maydon boʻlib, u til birliklarining onomasiologik va semantik birlashuvini ifodalaydi. Semantik maydon odatda turli turkumdagi soʻzlarni birlashtiradi. Turli turkumga

mansub bo‘lsa-da so‘zlarning barcha a’zolari bir umumiy belgi – integral semaga ega bo‘lishi kerak. Masalan, “yosh” integral semali semantik maydon chaqaloq, bola, qiz, yigit, o‘spirin, erkak, ayol, xotin, juvon, chol, kampir; jo‘ja, buzoq, uloq, bo‘taloq, toy, qo‘zichoq, kuchukcha kabi otlarni, tug‘ilmoq, o‘smoq, ulg‘aymoq, voyaga yetmoq, balog‘atga yetmoq, yetilmoq, yosharmoq, keksaymoq, qarimoq, qartaymoq, kabi fe’llarni; yosh, keksa, qari kabi sifatlarni o‘ziga birlashtiradi. Mazkur semantik maydon ichida funksional farqlovchi belgi (differensial sema)lariga ko‘ra leksemalarning quyidagi birlashuvlarini ajratish mumkin:

1) “yosh belgisiga ko‘ra shaxs nomlari”: chaqaloq, go‘dak, bola, qiz, yigit, o‘spirin, erkak, ayol, xotin, juvon, chol, kampir va h.;

2) “hayvon bolalari”: jo‘ja, buzoq, uloq, bo‘taloq, toy, qo‘zichoq,qulun va h.;

3) “yoshga xos biologik holat”: tug‘ilmoq, o‘smoq, ulg‘aymoq, voyaga yetmoq, balog‘atga yetmoq, yetilmoq, yosharmoq, keksaymoq, qarimoq, qartaymoq va h.;

4) “shaxsning yoshiga xos”: yosh, keksa, qari va h.

Semantik maydondagi so‘zlarning bunday bo‘linishi nafaqat “otlik”, “fe’llik”, “sifatlik” kategorial belgilari bo‘yicha lisoniy, semantik farqlanishini, balki har bir guruhning nolisoniy voqelik bilan o‘zaro bog‘lanishini ko‘rsatadi. Shuningdek, mazkur differensial belgilar faqat ko‘rsatilgan guruh so‘zlariga xos bo‘lib, bu belgilar har bir guruh birliklari uchun bir vaqtning o‘zida integral belgi ham sanaladi.

Semantik maydonlar leksik-semantik guruhlardan tashkil topgan. So‘zlarning leksik-semantik guruh(LSG)lari o‘z ichiga ikki yoki undan ortiq so‘zlarni ularning leksik ma’nolari bo‘yicha birlashtiradi. Ya’ni, LSG ma’lum bir umumiy belgi asosida bir guruhga birlashuvchi leksemalar guruhidir. So‘zlarni leksik-semantik guruhlarga birlashtirish ularning ma’nolarini qarama-qarshi qo‘yib, muayyan o‘xshashligi yoki farqini aniqlash asosida amalga oshiriladi. Bu o‘xshashlik va farq so‘zlarning leksik ma’nolarini tashkil qiladigan ma’no komponentlarining (semalarning) xususiyatlariga asoslanadi. Masalan, R.Rasulov “holat” arxisemasiga ko‘ra birlashuvchi fe’llarni davomli holat fe’llari, harakat natijasi bo‘lgan holat fe’llari, ijro holati fe’llari, harakatning holati fe’llari, malaka holati fe’llari, obrazli holat fe’llari, biologik holat fe’llari, fiziologik holat fe’llari, psixik holat fe’llari kabi 9 ta leksik-semantik guruhga bo‘lgan. LSGlarda “holat” arxisema, “davomli”, “harakat natijasi”, “ijro”, “harakat”, “malaka”, “obrazli”, “biologik”, “fiziologik” va “psixik” kabi semantik komponentlar integral sema sanaladi.

So‘zlarning leksik-semantik guruhlarini leksik birliklarning mavzuiy guruhlaridan farqlanadi. Tabiat va jamiyat narsa-hodisalarining turli guruhlarini bildiruvchi so‘zlar bir umumiy mavzusiga ko‘ra guruhlanadi, ular ma’lum voqelik guruhi nomi sifatida birlashadi. Masalan, poliz ekinlarini ifodalovchi so‘zlar, sabzavot nomlari, chorvachilik atamalari, baliqchilikka oid so‘zlar yoki ovchilik bilan bog‘liq so‘zlar kabi. Bunday so‘z guruhlari leksik-semantik aloqalarga asoslanmagan, predmet va hodisalarning o‘zini tasnif etish bo‘lib, leksemalarning mavzuiy guruhlari deb ataladi.

Obyektiv voqelik nomlarini ikki xususiyat bo‘yicha guruhlash mumkin:

1) voqelik va ularning xossalari tabiiy holda, tabiatning o‘z tartibiga asoslangan holda mavjud bo‘lib, ular inson qo‘li yoki uning ongi bilan yaratilmagan, ya’ni odamlarning irodasi, ongi va tilidan tashqarida mavjud. Bu tabiiy obyektlar nomlari tasnifi tabiatning o‘zi bo‘linishi bilan belgilanadi.

2) voqeliklar obyektiv mavjud bo‘lib, ammo sun’iy ravishda insonning ijtimoiy, mehnat va intellektual faoliyati natijasidir. Bular insonning turli maqomlarini bildiruvchi nomlar, inson mehnati vositalari va natijalari, aholi punktlari, yo‘llar va boshqalarning atamalaridir. Real olamning tabiiy va sun’iy obyektlari, shu jumladan intellektual sohadagi inson harakatlari moddiy va ideal dunyoning alohida qismlari nomlarini aniqlash uchun asos bo‘ladigan ekstralingvistik xususiyatlarga ega [Хашимов Р., 2015. – С. 210]. Yuqoridagi ekstralingvistik xususiyatlar asosida ajratilgan so‘zlar birlashuvlarini mavzuiy guruh sifatida ajratib ko‘rsatish mumkin. Mavzu sohasi ma’lum bir fan sohasiga tegishliligi bilan ajralib turadi.

Lug‘atning mavzuiy guruhiga semantik bog‘lanish asosida emas, balki voqelikning o‘zini tasniflash asosida birlashtirilgan turli turkum leksemalari kiradi. F.P.Filinning qayd etishicha,

mavzuiy guruh ichida bir leksemaning boshqasiga almashtirilishi guruhdagi barcha leksik ma’nolarning o‘zgarishiga yoki yo‘qolishiga olib kelmaydi. Bu esa mazkur guruh (MG)dagi leksemalar o‘rtasida semantik bog‘lanish mavjud emasligidan dalolat beradi [Filin F.P., 1982. – C. 229-239]. Ko‘rinadiki, mavzuiy tasnif ekstralingvistik omillar asosida bitta mavzu ostida birlashtirilgan turli turkumlarga mansub leksemalar yig‘indisi. Y.N.Karaulov fikricha, mavzuiy maydonga mansub mavzuiy qatorlar mebel, idish-tovoq, kiyim-kechak nomlari, qarindoshlik atamalari, qushlar, hayvonlar, o‘simliklar nomlari kabi umumiy semantik mavzu orqali bog‘langan lug‘at tarkibidagi konkret so‘zlarning birlashuvidir [Karaulov Y.N., 1972. – C. 57–68]. O.B.Pilayevaning qayd etishicha, mavzuiy tasniflash semantikasida denotativ ma’no ustunlik qiladigangan otlarga xos.

Mavzu maydoni semantik maydonning bir qismidan o‘rin olib, ular o‘zaro quyidagi farqli belgilarni namoyon etadi. Semantik maydon yadro, markaz, yaqin va uzoq periferiya kabi o‘zaro bog‘langan qismlarga ega bo‘lsa, mavzuiy guruhlar voqelikning nisbatan mustaqil, avtonom obyektlarini bildiruvchi birliklardan iborat. SM va LSGda yadro, yaqin va uzoq periferiyani ajratish mumkin. Mavzuiy guruhlarda esa bu qismlar ajratib ko‘rsatilmaydi.

Semantik maydonda til birliklari yoki ularning guruhlari o‘rtasidagi iyerarxik munosabatlar til birliklarining maydon yadrosiga yaqinligi/uzoqligi bilan belgilansa, mavzuiy guruhlarda esa gipero-giponimik munosabatlar ustuvorlik qiladi. Semantik maydonlar yoki mavzuiy guruhlar ichida bir xil semalarga ega bo‘lgan so‘zlarning lug‘aviy ma’noviy guruhlarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin. Ayni shu xususiyat LSGni SM va MG dan ajratib turadi.

Bir mavzuiy guruh doirasida birmuncha mayda, biroq o‘zaro mustahkam bog‘liq so‘zlarning LSGlari mavjud. Mavzuiy guruh ichida kichikroq, ammo bir-biriga yaqinroq bog‘langan leksik-semantik so‘z guruhlari mavjud. Faqat empirik qiyoslash MG va LSGga ajratish masalasini hal qilmaydi. Masalan, o‘z tarkibiga ko‘ra bo‘linmaydigan yoki deyarli bo‘linmaydigan MGlarni e’tiborga olsak, holat murakkablik kasb yetadi. MG va LSGni chegaralash qiyinligi birinchi navbatda, tilning o‘ziga xos hodisasi sifatida leksika va nolisoniy voqelikni ajratish qiyinligi bilan belgilanadi. So‘z guruhlarining bu turlari o‘rtasidagi farq shundaki, LSG til ma’no taraqqiyotining qonun va qonuniyatlari mahsuli bo‘lsa, so‘zlarning MGlarning esa muayyan tilda mavjudligi yoki mavjud emasligi, tarkibi tilni yaratuvchi – til egalarining muayyan sohadagi bilim darajasiga, voqelik hodisalarini tasniflay olish qobiliyatiga bog‘liq.

Tilda mavzuiy va leksik-semantik guruhlarning qo‘llanilishi xususiyatlarini tahlil qilib, F.P. Filin bu tushunchalarning umumiy va farqli tomonlarini aniqlaydi: umumiy tomoni shundaki, bu guruhlarga kiruvchi so‘zlarning ma’nosi obyektiv voqelik haqidagi bilimlarni aks ettiradi, farqi shundaki, leksemalarning LSGlari tilning leksik-semantik qonuniyatlari mahsulidir, leksemalarning MGlarining tarkibi esa faqat ma’lum bir xalqning bilim darajasiga, voqelik hodisalarini tasniflash qobiliyatiga bog‘liq.

Demak, leksik-semantik guruhlar ma’lum bir birlashtiruvchi sema asosida bir guruhga birlashuvchi leksemalar guruhi bo‘lsa, LMG leksemalarning predmet va hodisalarning o‘zaro aloqalariga ko‘ra tasniflashga asoslangan guruhlaridir.

Adabiyotlar:

1. Хашимов Р. Семантическое поле слов и его элементы. Филологические науки. Вопросы теории и практики, № 4 (46) 2015, часть 2

2. Филин Ф. П. О лексико-семантических группах слов // Очерки по теории языкознания. М.: Наука, 1982.

3. Караулов Ю.Н. Структура лексико-семантического поля// Филологические науки. – 1972.— № 1. С. 57–68.

4. Пылаева О. Б. Лакунарность лексико-семантического поля «Природа»: На материале русского и эвенкийского языков: автореф. дис. … канд. фил. наук.–Благовещенск,2002.–16с.

BOLA OLAMINING LISONIY MANZARASI (JAN PIAJE QARASHLARI MISOLIDA)

Nasiba Jumayevna YARASHOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti, f.f.d. (DSc)

Annotatsiya. Jahon tilshunosligining zamonaviy asarlarida bolalar nutqini o‘rganishga kompleks yondashuv taqdim etilgan. So‘nggi tadqiqotlar bolalar nutqini rivojlantirishning psixologik, sotsiologik va pragmatik omillarini hisobga oladi, bolalar til dunyosining morfologik va sintaktik tuzilishini tahlil qiladi, matnlarning bola nutq qobiliyatini shakllantirishdagi roli dalillar asosida isbotlab berildi.

Kalit so‘zlar: psixologik, sotsiologik, pragmatik, fonetik va prosodik tuzilish modeli, fonologik, leksikon, sintaksis, semantik.

Аннотация. В современных трудах мирового языкознания представлен комплексный подход к изучению детской речи. В последних исследованиях учитываются психологические, социологические и прагматические факторы речевого развития детей, анализируется морфологическое и синтаксическое строение детского языкового мира, научно доказана роль текстов в формировании речевых способностей ребенка.

Ключевые слова: психологическая, социологическая, прагматическая, фонетическая и просодическая модель структуры, Фонологическая, лексическая, синтаксическая, семантическая.

Annotation. Modern works of world linguistics present a comprehensive approach to the study of children's speech. Recent studies take into account the psychological, sociological and pragmatic factors of children's speech development, analyze the morphological and syntactic structure of the children's language world, and scientifically prove the role of texts in the formation of a child's speech abilities.

Keywords: psychological, sociological, pragmatic, phonetic and prosodic model of structure, Phonological, lexical, syntactic, semantic.

Bolalarning rivojlanish natijalarini yaxshiroq o‘zgartirish uchun yetarlicha erta nutq, til va o‘qish buzilishining belgilarini aniqlash ushbu maxsus masaladagi tadqiqotlarning yakuniy maqsadi hisoblanadi. Ushbu tadqiqotlar rivojlanishning salbiy natijalariga potensial o‘zgaruvchan yo‘llarni tushunishga zamonaviy yondashuvlarni misol qilib keltirish mumkin.

Hayotining dastlabki o‘n sakkiz oyi davomida ona tilini tinglash genetik jihatdan inson tilini egallashga moyil bo‘lgan bolaga ushbu uch jihatni kattalar tomonidan uzatilgan so‘zlardan, bolalar adabiyoti namunalaridan bajarishga imkon beradi:

- tilning fonetik va prosodik tuzilish modelini chiqarish;
- so‘zlarning mavjudligini tovush-ma’no bog‘lanishining o‘zboshimchaligi bilan kashf etish;
- o‘z tiliga va atrofiga mos oila hamda madaniy ishlab chiqarish usullarini aniqlash[8].

Kattalar chaqaloqqa murojaat qilganda, u tabiiy ravishda fonologik, leksikon, sintaksis va semantik repertuar jihatidan juda soddalashtirilgan ma’lum bir nutq uslubini qabul qiladi. Bolaga murojaat qilingan ushbu til preverbal aloqa paytida muloqotga uyg‘onish va birgalikda e’tiborni jalb qilishda muhim elementni tashkil etadi. Darhaqiqat, chaqaloq bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan kattalar muhim artikulyatsiya harakatlarini amalga oshiradilar va ona tilini egallash jarayonida ular va bola o‘rtasidagi ko‘nikmalar oralig‘ini kamaytirish uchun ko‘plab savollar va islohotlarni ishlab chiqaradilar. Shuning uchun ota-onalar va ularning farzandlari o‘rtasida nutq signalidagi muhim lingvistik birliklar haqida ma’lumot beradigan va farzandlari tilni egallashning qiyinroq bosqichiga o‘tishga tayyor bo‘lgunga qadar davom etadigan oynali o‘yin yaratiladi.

Xususan, shvetsariyalik psixolog Jan Piaje diqqat e’tiborini go‘dak ongida tafakkur tarzi imkoniyatlarining qay tarzda namoyon bo‘lishiga qaratadi. Olim yosh bolaning nutqi egosentrik bo‘lib, kommunikativ funksiyalarni bajarmasligini aytadi: “Bu nutq egosentrikdir, chunki bola faqat

[8] Bénédicte de Boysson-Bardies. Comment la parole vient à l'enfant. Dans Revue française de psychanalyse 2007/5 (Vol. 71). – P. 1474.

o‘zi haqida gapiradi... Bola xuddi baland ovozda o‘ylayotgandek o‘ziga o‘zi gapiradi. U hech kimga murojaat qilmaydi”[9]. J.Piaje bolada tafakkur va tilning rivojlanishi uzluksiz ravishda emas, balki bosqichma-bosqich amalga oshishini qayd qiladi. J.Piaje bolaning rivojlanishi ikki bosqichda amalga oshishini ta’kidlaydi va intellektni birinchi planga chiqaradi:

1) sensomotor mantiq;

2) konseptual mantiq.

Tilning rivojlanishi umumiy intellekt o‘zgarishlarini boshqaradi va intellektual rivojlanish tildan ta’sirlanadi. Birinchi *sensomotor mantiq* bosqichida bolada harakatlar mantig‘ini tushunishga yordam beradigan *sensomotor intellekt* rivojlanadi. Ikkinchi bosqichda harakatlar mantig‘idan *konseptual mantiqqa* o‘tiladi. U bola hayotining ikkinchi yilida yuz beradi. Mazkur bosqichda bola tilni semiotik vosita sifatida o‘zlashtiradi. U kattalarning imo-ishoralarini takrorlaydi va unda ramzlar funksiyasi rivojlanadi. Bolaning dastlabki so‘zlari haqiqiy ramzlar emas. Chunki bu ramzlar ko‘rilgan narsalar va hodisalar bilan bog‘liq bo‘ladi. Bolalar atroflarida mavjud bo‘lmagan narsalar haqida gapirishni boshlaganda haqiqiy, asosiy ramzlarni qo‘llay boshlaydilar[10].

J.Piajening fikricha, bola ongi dastavval toza, sof bo‘ladi. U jamiyatga kirib borishi bilan bolaning ongida ham ijtimoiylashuv yuz beradi. Bolaning intellekti uni o‘rab turgan muhit bilan munosabatiga ko‘ra shakllanib boradi. Munosabat qaysi til orqali amalga oshirilsa, bola tafakkuri shu tilda o‘sadi, biroq til o‘z holicha bu o‘sishni belgilab berolmaydi[11].

J.Piaje fikrlarini birlashtirib qaraydigan bo‘lsak, til rivojlanishini tashqi olamdagi narsalarning mental ramzlashishi bilan amalga oshishi ma’lum bo‘ladi. Til bir tomondan fikrlash uchun xomashyo tayyorlar ekan, ikkinchi tomondan fikrlay olish qobiliyatiga parallel ravishda faoliyat ko‘rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, til bolaning mavhum fikrlash qobiliyatiga tashqi olamdan ramzlashtirilgan ma’nolarni biriktirishga yordam beradi. Ya’ni til va tafakkur bir-biri bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, ular o‘zaro aloqadadir. Shu bois bola tilni yetarli darajada tushunadi va uning tushunchaviy fikrlash qobiliyati ortgan sari tili ham rivojlanadi.

Xullas, jahon tilshunosligida bola olamining lisoniy manzarasini o‘rganish tarixi yuz yildan ortiq. Ushbu davrda bilim sohasining tadqiqot usullari va nazariy yo‘nalishlari bir necha bor o‘zgardi. Bola olamining lisoniy manzarasini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish bugungi kungacha yo‘qolmaydi, bu bizning mamlakatimizda ham, jahon tilshunosligida ham uni tahlil qilishga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Olimlarning e’tiborini bola olamining lisoniy manzarasi jalb qilmoqdaki, bolalar mexanizmlarini o‘zlashtirishning umumiy strategiyasini o‘rganish bolalar nutqiy innovatsiyalari paydo bo‘lishining sabablarini bilish imkoniyatini vujudga keltirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bénédicte de Boysson-Bardies. Comment la parole vient à L’enfant. Dans Revue française de psychanalyse 2007/5 (Vol. 71). – P. 1474.
2. Hanning Ch. Zur Syntax der gesprochenen und geschriebenen Sprache bei Kindern in der Grundschule. –Regensburg: Scriptor Verlag, 1974. – P. 17.
3. Moskowitz B.A. The acquisition of phonology these de doctorant non publ. University of California. – Berkeley, 1971. – P. 75.
4. Пиаже Ж. Речь и мышление ребёнка. – Москва, 1994. – С. 17.
5. Пиаже Ж. Схемы действия и усвоение языка // Семиотика. – Москва, 1983. – С. 133–136.
6. Wagner K.R. Die Sprechsprache des Kindes. – Pädagogischer Verlag Schwann, 1974. – 37 p.

[9] Пиаже Ж. Речь и мышление ребёнка. – Москва, 1994. – С. 17.

[10] Пиаже Ж. Схемы действия и усвоение языка // Семиотика. – Москва, 1983. – С. 133–136.

[11] Пиаже Ж. Речь и мышление ребёнка. – Москва, -Л., 1932. – С. 18.

PUBLITSISTIK JANRDAGI MAQOLLARGA KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK YONDASHUV

Коммуникативно-прагматический подход к пословицам в публицистическом жанре.

Communicative-pragmatic approach to proverbs in journalistic genre

Turdaliyeva Dilfuza Salohiddinovna,
QDPI doktoranti,PhD,
dturdaliyeva79@mail.com,91-115-37-60

Annotatsiya Ushbu maqolada matbuot nashrlarida qo‘llanilgan xalq maqollariga kommunikativ-pragmatik yondashilgan jihatlar o‘rin olgan. Publitsistik matnda qo‘llangan 150 ta maqoldan 79 tasining an’anaviy/aynan qo‘llanishi, 71 tasi okkazional yoki transformatsiya bilan qo‘llanish hissasiga to‘g‘ri kelishi bayon etilgan.Kundalik hayotda keng tarqalgan xalq maqollarining matbuot nashrlaridagi pragmatik salohiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: publitsistik matn, pragmatik maqsad, variatsiya, semantik transformatsiya, bo‘yoqdorlik, emotsionallik.

Аннотация В данной статье представлен коммуникативно-прагматический подход к народным пословицам, используемым в публикациях прессы.Из 150 пословиц, используемых в публицистических текстах,79 используются традиционно,71—эпизодически или трансформировано. Выделен прагматический потенциал популярных пословиц в повседневной жизни в публикациях прессы.

Ключевые слова: публицистический текст, прагматическая цель, вариация, смысловая трансформация, окраска, эмоциональность.

Annotation In this article, the communicative-pragmatic approach to folk proverbs used in press publications is presented. Out of 150 proverbs used in journalistic texts, 79 are traditionally used, 71 are occasional or transformed. The pragmatic potential of popular proverbs in daily life in press publications is highlighted.

Key words: journalistic text, pragmatic purpose, variation, semantic transformation, coloring, emotionality.

Matbuotda o‘zbek xalq maqol va idiomalarining qo‘llanilishini kuzatish shuni ko‘rsatadiki, mazkur birliklar kundalik hayotda keng tarqalgan bo‘lib, bu ularning an’anaviy va ko‘p ishlatiladigan birliklar ekanligini tasdiqlaydi. Qator maqolalarda o‘zbek xalq maqollarining pragmatik salohiyati kundalik hayotda qo‘llanayotganligi ko‘rsatilgan.

Ayrim maqolalarda muallif paremiyaning ommabopligiga tayanadigan ota-onalar farzandlarini tarbiyalashda ko‘pincha maqol haqiqatlariga tayanishlarini ko‘rsatadi. Masalan:

Qarshi shahar IIO FMB 2-sonli IIB HPB XQMB katta inspektori N.Xujanova shaharning “Istiqlol” MFY raisi R.Baxronov va boshqa mas’ul mutasaddi idoralar vakillari ishtirokida Qarshi tumanida yashovchi fuqaro X.H.ning qizi A.A.ni turmush o‘rtog‘i M.B. o‘ldirish bilan qo‘rqitib, tuhmat qilganligi to‘g‘risida ichki ishlar organlariga murojaat qilgan. Mazkur murojaat yuzasidan shu mahallada yashovchi M.B., va uning ota-onasi bilan suhbat o‘tkazilib, oilada yuzaga kelgan kelishmovchilikni muhokama qilishdi.

Muhokama davomida M.B. bir necha yillardan buyon chet davlatda ishlashi, 2020 yil dekabr oyida yurtiga qaytib, A.A. bilan tanishib, yanvar oyida turmush qurishganligi, biroq o‘rtada kelishmovchilik va nizo yuzaga kelganligi sababli birga yashamayotganliklarini ma’lum qildi. Yoshlarga **oila - muqaddas qo‘rg‘on, uning poydevori qanchalik mustahkam bo‘lsa, hayoti shunchalik farovon bo‘lishi,** qadimdan ota-bobolarimiz “Yetti o‘lchab, bir kes”ish lozimligini bekorga aytishmagan. Bu naqlni hozirgi kunda yetmish marta o‘lchab kesish kerak, deb o‘zgartirsa ham mubolag‘a bo‘lmasligi tushuntirildi.

Yakunda tomonlarga masalaga faqat qonuniy yo‘l bilan yondoshish lozimligi tushuntirildi. Shuningdek, kelgusida yuzaga kelgan har qanday nizo va kelishmovchiliklarni tinch yo‘l bilan

hal etish, nojo‘ya yoki g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etmaslik to‘g‘risida yoshlar rasman ogohlantirilib murabbiylar biriktirildi[12].

Mazkur kontekstda ushbu maqol iqtisodiy masala emas, balki ijtimoiy masala tahlilida qo‘llangan. Bunda ham “bir qarorga kelishdan oldin ehtiyotkorlik bilan xulosa chiqarishga da’vat” ma’nosi ifodalangan. Maqol sintaktik jihatdan gapning bir bo‘lagi vazifasini bajarib kelgan hamda qo‘shma gap tarzidagi maqol kesimi harakat nomi shaklini olgan: Yetti o‘lchab, bir kes”ish lozimligini... tarzida berilgan.

Publitsistik janrdagi maqollarga kommunikativ-pragmatik yondashuvda quyidagilar e’tiborga molik:

-birinchidan, tilda inson omilini hisobga olish; O‘zbek matbuoti nutqida o‘zbek xalq maqol va matallarining amal qilish jarayonini kuzatish shuni ko‘rsatdiki, ma’lum pragmatik maqsadlarga erishish uchun nashr muallifi tomonidan nafaqat maqollarni odatiy va me’yoriy shaklda ishlatilgan, balki ulardan ijodiy foydalanilgan. Natijada, muallif-publisist ijodkor sifatida qaraladi.

-ikkinchidan, matbuot nutqi doirasidagi muloqotning ikkinchi jihati – auditoriyani hisobga olish muhim. Kuzatishlarimiz ko‘rsatadiki, o‘zbek davriy nashrlarida maqol va maqollardan foydalanish nashriyotning o‘quvchiga ta’sir qilish bo‘yicha o‘ziga xos vazifa tashiydi, asosiy pragmatik funksiya esa maqollarini qo‘llash orqali amalga oshiriladi.

Shubhasiz, maqol va matallar til birligi sifatida amaliy-pragmatik yukka ega. Ularning pretsedent bayonoti sifatidagi xususiyati maqolga xos bo‘lgan pragmatizm belgisidir. Shunga qaramay, maqollarni faktik materiallar tahliliga bag‘ishlangan materiallarda an’anaviy qo‘llash holatlarining nisbati juda kichik. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy shakllarda qo‘llaniladigan o‘zbek maqollari ular haqida muallifning izohisiz qo‘llanish bo‘lishi mumkin:

Birinchidan, muallif o‘z fikrini asoslash maqsadida nufuzli umumiy fikrga havola sifatida.Ikkinchidan, muallif ularning xulosasi vositasida o‘z pozitsiyasini ko‘rsatadi.

Maqollarning bevosita verbal muhitini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, matnda maqollarni qo‘llashda mualliflar quyidagi lingvistik vositalarga murojaat qilishadi.

1. Kirish so‘z/birikmalar.
2. Maqol so‘zining sinonimi bo‘lgan terminlar.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek xalq maqollarining publitsistik matnlarda qo‘llanishi me’yoriy/an’anaviy qo‘llanish bilan birga okkazional qo‘llanishi jihatidan ham ko‘p uchraydi. Publitsistik matnda qo‘llangan 150 ta maqoldan 79 tasi an’anaviy/aynan qo‘llanish, 71 tasi okkazional yoki transformatsiya bilan qo‘llanish hissasiga to‘g‘ri keladi.

Materiallar tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek xalq maqollarining variatsiyasi va okkazional qo‘llanishi, matbuot nutqida maqolning yangi variantini yaratish lisoniy qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi. Bu to‘plangan materiallar asosida zamonaviy o‘zbek davriy nashrlarida maqollarni o‘zgartirish usullarining xilma-xilligini aniqlash, tavsiflash va tasniflash imkonini berdi.

Maqollarni o‘zbek davriy nashrlari matnida *okkazional semantik modifikatsiya* qilish keng tarqalgan. Masalan, maqolning mantiqiy mazmun-mundarijasida ma’lum bir tushunchaning hajmini kengaytirish yoki toraytirish shunga misol bo‘ladi. Shuningdek, maqol va matallarda bir yoki bir necha tarkibiy qismlar konnotativ mazmunining o‘zgarishi, shuningdek, metaforik ma’noning sezilarli o‘zgarishi (bir vaqtning o‘zida maqollarning ko‘chma va to‘g‘ri ma’nosini yangilash, o‘z ma’noning birinchi o‘ringa chiqishi, ma’noni butunlay qayta ko‘rib chiqish) ham shular jumlasidan. Maqol va matallarning leksik-grammatik tuzilishiga ta’sir qilmaydigan *semantik transformatsiya*, ya’ni semantik-stilistik transformatsiyalar maqol orqali qo‘shimcha semantik konnotatsiyaga erishish, maqolning konnotativ mazmunini o‘zgartirish yoki yaratish kabi usullar bilan amalga oshganligiga guvoh bo‘ldik.

Yig‘ilgan material doirasida maqol tarkibiy qismini (yoki qismlarini) almashtirish texnikasi keng qo‘llanilganini ko‘rishimiz mumkin. Ma’lum pragmatik vaziyatda maqol transformatsiyasidan foydalanish, o‘zgartirishdan foydalanish maqollarning semantik moslashuvchanligini oshiradi,

[12] https://qviib.uz/uz/news/oila-ustuniga-darz-ketmasin

nutqqa bo‘yoqdorlik kiritgani uchun o‘quvchi e’tiborini jalb qiladi, publitsistga tasvirlash, ifoda va emotsionallikka erishishga yordam beradi va muallif shaxsi uslubini yaratishga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.https://qviib.uz/uz/news/oila-ustuniga-darz-ketmasin.
2.Константинова А.А. Коммуникативно-прагматический потенциал пословиц и поговорок в современной англо-американской прессе: автореф. диссер. канд. филол. наук. – Москва, 2007.
3.Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. – Тошкент:
Энциклопедия, 1990.

SINTAKSISDA VALENT TAHLIL

Shukurjon Akramov, Qo‘qon DPI dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya Mazkur maqolada gap bo‘laklarining nazariy tahlil etishga e’tibor qaratiladi va gapdagi bo‘laklar masalasi [WPm] valentligi doirasidagi mavqeiga ko‘ra belgilanishi borasida fikr yuritiladi. Ayniqsa so‘z kengaytiruvchisi mavqeida keluvchi birliklarning gapda mustaqil mavqega ega emasligi, ular asosiy markaz bilan o‘zi birikib kelgan so‘z orqali bog‘lashuv hosil qilishi misollar orqal izohlanadi.

Kalit so‘zlar: gap markazi, determinantlar, valentlik, funksional to‘ldiruvchi, nofunksional to‘ldiruvchi, so‘z kengaytiruvchisi, gap kengaytiruvchisi.

Аннотация В этой статье основное внимание уделяется теоретическому анализу частей речи и обсуждается, как вопрос о частях речи определяется в соответствии с их положением в валентности [WPm]. В частности, тот факт, что единицы в позиции словорасширителя не имеют самостоятельного положения в предложении, объясняется на примерах тем, что они образуют связь с основным центром через слово, к которому он присоединяется.

Ключевая слова. Распространение предложения, валентность, распространение слова, статус дополнения, статуса обстоятельства, распространение предложения, determinanti.

Annotation This article focuses on the theoretical analysis of parts of speech and discusses how the question of parts of speech is defined according to their position in the valency [WPm]. In particular, the fact that units in the expander position do not have an independent position in the sentence is explained by examples by the fact that they form a connection with the main center through the word to which it is attached.

Keyword. Sentence propagation, valence, word distribution, supplement status, circumstance status, highlighting of minor members of the sentence.

Tilshunoslikda sintaksisning nisbatan turg‘un, o‘ta sekin o‘zgaruvchan sath ekanligi haqida fikrlar mavjud. Bu fikrlar tarixiy, qiyosiy va qiyosiy-tarixiy tilshunoslik asoschilari K.Brugman, G.Paul kabilar tomonidan XIX asr boshlarida ilgari surilgan bo‘lsa-da, hozir ham bunday qarashlarni "Tilshunoslikka kirish", "Umumiy tilshunoslik", "Tilshunoslik tarixi" kabi darsliklarda aksioma tarzida uchratish mumkin. Haqiqatan ham, sintaksis va sintaktik qurilish o‘zining turg‘unligi bilan alohida ajralib turadi. Til lug‘at boyligining o‘zgarishini har yil, har oy davomida, fonetik tizim o‘zgarishlarini 20-30 yilda payqay olsak, sintaktik sath o‘zgarishini nafaqat bir inson umri davomida, balki bir necha avlodlar umri mobaynida ham payqash qiyin. Sintaktik sathning barqarorligi tilshunoslik fanining sintaktik hodisalar, jumladan, gap qurilishi yoki gap bo‘laklarining ajratilish omili va asoslariga ham ta’sir ko‘rsatib, hatto ilmiy talqinlarning ham barqaror bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Shu bois tilshunoslik tarixiga nazar tashlasak, gap qurilishi talqinida ham, ma’lum ustuvorlik, talqinlardagi umumiy turg‘unlikni sezish qiyin emas. Shu o‘rinda alohida ta’kidlash lozimki, o‘zbek tili sintaktik talqini asrimiz boshlarida shakllangan Ayub G‘ulomov grammatikasidan hali-hanuz voz kecha olingani yo‘q va bunga yana ancha yillar kerak

bo‘lishi mumkin. Shu sababli ham hozirgacha gap bo‘laklari tahlilida ularni so‘roq berish yoki ma’nosi predmet yo o‘rinni ko‘rsatib kelishi orqali aniqlash odatiy hol sifatida talqin etilmoqda. Jumladan, tilshunos J.Omonturdiev ta’biri bilan aytganda, *Bulbul gulga qo‘ndi* jumlasida gulga so‘zi predmetlik ma’no ustunligiga ko‘ra – to‘ldiruvchi, *Bulbul gulzorga qo‘ndi* jumlasidagi gulzor esa o‘rin-joy ma’noviy ustunligi evaziga – hol deyiladi. Xuddi shunga o‘xshash *Kitob shkafda turibdi. Men divanda o‘tiribman. Xat qalamda yozilgan. Karim mashinada keldi* singari o‘nlab sodda gaplar paradigmalarini uchratish mumkinki, bulardagi gap bo‘laklari tahlili yuqoridagi predmetlik va o‘rin ma’nosi bilan aniqlik kiritilishiga ojizlik qiladi. Chunki bu jumlalarda keltirilgan shkafda, divanda, mashinada kabi so‘zlar aynan gap tarkibida predmet sifatida ma’noviy kengayganmi yoki o‘rin ma’nosidami, buni aniqlash qiyinchiligi paydo bo‘lishi, tabiiy. Ya’ni shkafda, divanda so‘zlari qaerda so‘rog‘ini oladimi yo nimada so‘rog‘ini olgani to‘g‘riroqmi, qalamda, mashinada so‘zlariga esa nimada deyish kerakmi yoki qanday? Bu masalani hal etishda bir paytlar rus tilshunosligida A.N.Kononov “obstoyatelьstvenniy-dopolnenie” (“hol-to‘ldiruvchi”) atamasini kiritish bilan hal etilishini ham ta’kidlagan edi. Biroq bu rus tilshunosligida ham mazkur atama ommalashmadi, shuningdek o‘zbek tilshunosligida ham. Bunday muammoli vaziyatni hal etishda sitem tilshunoslik nazariyasining ayrim g‘oyalari muhim ahamiyatga ega bo‘lishini ta’kidlash joiz deb hisoblaymiz. Aslida buni hal etishning ayrim kurtaklari Fitratning tilshunoslikka oid nazariy qarashlarida shu bilan birga an’anaviy tilshunosligimizdagi ega sostavi(eganing aniqlovchisi) gap bo‘lagini shakllanishida bir oz bo‘lsa-da ko‘zga tashlanadi. Lekin bu nazariyalar to‘la shakllanmaydi va rivojlantirilmay qolgan edi. Bu nazariya bo‘yicha qaraladigan bo‘lsa, gap bo‘laklari yagona markazga tayanib kengayish imkoniyatini hosil qiluvchi butunlik sifatida e’tirof etiladi. Gapning markazi kesim bo‘lib, an’anaviy ega va boshqa gap bo‘laklari markazga qaysidir tomondan bog‘lanib, uni ma’noviy kengayishiga xizmat qiluvchi kengaytiruvchi bo‘laklarga aylanib qoladi. Buni Tenьer grammatikasidagi bir cho‘qqili nazariya – [WPm] qurilish qolipidagi kengayuvchi yadro sifatida tasavvur etish mumkin. An’anaviy to‘ldiruvchi haqida gap borganda, uni sistem-nazariy aspektda tadqiq qilinadigan bo‘lsa, u gap qurilishida qanday mavqe egallashini quyidagi talqinlar orqali izohlasa bo‘ladi.

O‘zbek tilshunosligida to‘ldiruvchiga berilgan ikki ta’rifni qiyoslaylik: 1.Gapdagi kesimga boshqaruv yo‘li bilan birikib kelgan bo‘lak to‘ldiruvchi deyiladi.

2.Kesimning obyekt valentligini to‘ldirib keluvchi kelishikli va ko‘makchili morfologik shakllar orqali yuzaga chiqadigan sintaktik shakl to‘ldiruvchi sanaladi.

Bu ta’riflarning birinchisi 1952 yilda nashr etilgan o‘rta maktab darsligidan olingan bo‘lsa, ikkinchisi 1995 yil nashr qilingan "O‘zbek tilining nazariy grammatikasi" qo‘llanmasidan olingan. Har ikki ta’rifda ham to‘ldiruvchining gapdagi bosh bo‘laklardan biri hisoblangan kesimga nisbatan belgilanganligi ko‘rinib turibdi. Bunday ta’riflarda "kesimning to‘ldiruvchisi" bilan "gapning to‘ldiruvchisi" tushunchalari sinonimlar sifatida qaralishi lozim. Darhaqiqat, to‘ldiruvchi va hollar o‘zbek tilshunosligida gapning kesimiga asoslanib aniqlab kelingan. Hatto kesimga bevosita bog‘lanib funktsionallik, bilvosita bog‘lanib esa nofunktsionallik kasb etgan to‘ldiruvchilarning aniqlanishi ham kesimga asoslanuvchi ta’limotning samarasidir. Ushbu sintaktik tushunchalarning shakllanishini taqozo etgan holatning mohiyati shundaki, *"Men kitobni o‘qib chiqqach, ustozim mendan kitobni qaytarib oldi"* gapida har ikkala kitobni so‘z shakli funktsional to‘ldiruvchi sifatida qaralishi mumkin. Chunki bunday qarash bo‘yicha k i t o b n i so‘z shakli payt ergash gap kesimi deb talqin etiluvchi o‘qib chiqqach hamda bosh gap kesimi sifatida qaraluvchi q a y t a r i b o l d i so‘z shakliga tobelanib kelgan. Ammo aslida hozir "Kitobni o‘qib chiqqach, ustozimga kitobni qaytarib berdim" gapida k i t o b ni so‘z shakl faqat ikkinchi holatdagina to‘ldiruvchi deb tan olinmoqda, birinchi holatda esa "Kitobni o‘qib chiqqach" ravishdosh o‘rami(oboroti) deb baholanganligi sababli undagi "k i t o b n i" so‘z shaklini to‘ldiruvchi deyish mumkin emas. Fanimizda dastlab bunday o‘ramlarda gap bo‘laklari umuman ajratilmas edi. Keyinchalik esa ularni nofunksional to‘ldiruvchi, nofunksional hol kabi atamalar bilan ajratish boshlandi. Jumladan, nazariy grammatika mualliflari shunday yozadilar: *“Kesim vaziyatida kelolmagan morfologik shakl bilan sintagmatik munosabatda bo‘lib, u bilan birgalikda bir sintaktik vaziyatni egallovchi tushum va vosita kelishiklaridagi hamda ko‘makchi bilan birga*

kelgan morfologik shakl bog‘liq (nofunktsional) to‘ldiruvchi sanaladi”. To‘ldiruvchi yoki hollarni funksional yohud nofunksional deb baholash ularning gap qurilishidagi o‘rnini to‘liq ochib bera olmasligi mumkin. Chunki "k i t o b n i o‘ q i m o q" so‘z birikmasi to‘ldiruvchili fe’l so‘z birikmasi hisoblanadi. Lekin shu so‘z birikmasi tarkibidagi "k i t o b n i" so‘z shakli, so‘z birikmasi (aniqrog‘i, uning hokim so‘zi) gapda kesim vazifasida kelsa, bir xil birikmadagi hokim so‘z boshqa gap bo‘lagi vazifasida kelsa boshqacha baholanadi. Vaholanki, K i to b n i o‘qigach q a y t a r i b b ye r d i m," gapi tarkibida ham yana "k i t o b n i o‘ q i m o q" so‘z birikmasining o‘zi voqelanmoqda. Sintaksisdagi so‘z birikmalari yoki ikkinchi darajali bo‘laklar talqinlaridan bunday ziddiyatlarning kelib chiqish manbai, kirish qismda eslatilganidek, an’naviy rus tili grammatikasida ilgari surilgan nuqtai nazardir. Umuman, to‘ldiruvchi va hollarni gapning kesimiga ko‘ra aniqlashning deyarli yuz yildan beri davom etib kelayotgani hech kimga sir emas.

Lisoniy birliklarning kengayish imkoniyatlari deyilganda, shu birliklar ichki imkoniy(mazmun va vazifa rejasida) qobiliyatlarning nutqda muayyan tarzda namoyon bo‘lib, boshqa lisoniy birliklar bilan xususiy aloqalarga kirisha olishi tushuniladi. Bunday kengayish natijasida lisoniy birlikda mujassamlangan imkoniyat nutqda oydinlashadi, konkretlashadi. Shuning uchun lisoniy birliklarning kengayish imkoniyati lisoniy hodisa bo‘lib, bu birlikning imkoniyatlari ham so‘zlovchi xotirasidan o‘rin oladi. Bu imkoniyatlarning voqelanishlari sof nutqiy yoki xususiy ko‘rinish kasb etadi. Bu nazariy qarashlarga tayangan holda yuqorida keltirilgan misolimizdagi shkafda, divanda so‘zlarini to‘ldiruvchi emas, ushbu so‘zlarga hokimlik mavqeida kelayotgan fe’lning(ya’ni so‘zning) kengaytiruvchisi deb tahlil etilishi dastlabki keltirilgan chalkashliklarga barham beradi. Kitob shkafda turibdi jumlasidagi turibdi gap markazi, shkafda so‘zi turmoq so‘zi bilan so‘z birikmasi hosil qilish imkoniyatiga ega bo‘lgani bois shu so‘z(atov birlik)ning kengaytiruvchisi sanaladi. Jumladagi *kitob* so‘zi esa *turmoq* leksemasi bilan birikib so‘z birikmasi hosil qila olmaydi. U “turibdi” ixcham gap shaklini olgan holatdagina u bilan birikish imkoniga ega bo‘ladi. SHu sababli berilgan jumladagi an’anaviy ega sanalgan *kitob* so‘zi kesim gap sifatida shakllangandan so‘ng u bilan bog‘lanish imkoniga ega bo‘lgani bois gap kengaytiruvchisi mavqeidagi bo‘lak deb yuritilishi maqsadga muvofiqdir. Xuddi shunday holatda bir vaqtlar “gapning uchinchi darajali bo‘laklari” sifatida talqin qilingan kirish so‘z va undalmalar ham sintaktik tahlildan chetda qolmay, gapning kengaytiruvchi bo‘laklari sifatida sintaktik kengayuvchi va kengaytiruvchi bo‘laklar safidan o‘rin oladi.

Umuman olganda, o‘zbek tilshunosligining sintaktik sathini dastlabki Fitratning “Nahv” nazariyasidagi bosh va to‘ldirg‘ich so‘zlar sifatidagi qarashlari asosida bir cho‘qqili nazariya aspektida talqin etish katta samaralar beradi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Borovkov A.K. Ma’rufov 3. va boshqalar. O‘zbek tili grammatikasi. II qism. Sintaksis. Yetti yillik o‘rta maktablarning 6-7 sinflari uchun darslik.- T., O‘zpeddavnashr, - 1952,
2.Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi (Sintaksis). - T, O‘qituvchi, - 1995, - 232 b,
3.Omonturdiev J. Gap bo‘laklari tipologiyasi.-T.; O‘qituvchi, - 1989. - 210 b.
4.Sayfullaev A. R. Gapning uchinchi darajali bo‘laklari//Sovet maktabi, - 1967. - № 1. - B. 34-36,119
5.Akramov SH. O‘zbek tilining gap qurilishida to‘ldiruvchi va hol[WPm] valentlik aspektida. NDA.Toshkent.1997 yil
6.Fitrat. O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba, NAXV. 2-kitob, to‘rtinchi bosma. - Samarqand-Toshkent, O‘zdavnashr, - 1930. - 39 6.

OLAMNING LISONIY MANZARASI VA UNGA XOS XUSUSIYATLAR

Islamova Dinara f.f.f.d. (PhD), dotsent
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
E-mail: dinaraislamova777@gmail.com

Annotatsiya Olamning lisoniy manzarasi zamonaviy tilshunoslikning fundamental tushuncha va masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada ham olamning lisoniy manzarasi, uning o‘ziga xos xususiyatlari va u bilan bog‘liq tadqiqotlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: olamning lisoniy manzarasi, til jamoasi, til egasi, jamiyat.

Аннотация Языковая картина мира считается одним из фундаментальных понятий и вопросов современной лингвистики. В этой статье также будет проанализирована языковая картина Вселенной, ее особенности и связанные с ней исследования.

Ключевые слова: языковая картина Вселенной, языковой коллектив, носитель языка, общество

Annotation The linguistic landscape of the universe is considered one of the fundamental concepts and issues of modern linguistics. This article will also analyze the linguistic landscape of the universe, its peculiarities and related research.

Keywords: linguistic landscape of the universe, language community, language owner, society

Olamning lisoniy manzarasi zamonaviy tilshunoslikning fundamental tushuncha va masalalaridan biridir. Ushbu mavzu bo‘yicha yirik tadqiqotlar olib borgan Martin Xaydeggerning so‘zlari bilan aytganda, til haqidagi fanlar hozirgi kunda “olamning lisoniy manzarasi davri»ni boshdan kechirmoqda[6], ya’ni bu tushuncha va ilmiy yondashuv usuli etnolingvistikadan tortib, so‘z turkumlari nazariyasigacha, shevashunoslikdan leksikologiyagacha bo‘lgan fanlar majmuida qulay va keng qamrovli tadqiqot usuli sifatida keng o‘rin egallab bormoqda.

Har qanday tabiiy tilga xos bo‘lgan o‘ziga xos olamning lisoniy manzarasi bor ekanligi barcha tarafidan qabul qilingan haqiqatdir. Olamning lisoniy manzarasi termini hamda bu lingvo-filosofik fenomenning asosiy parametrlari haqidagi tasavvurlar fanga Leon Vaysberger tomonidan kiritilgan va mazkur olim tomonidan uning asosiy xususiyatlari quyidagicha ta’riflanadi:

Olamning lisoniy manzarasi ma’lum til jamoasining madaniyati va mentalitetini belgilab beradigan ma’naviy dunyosi, tili va uning amal qilishini shartlovchi shart-sharoitlar; Olamning lisoniy manzarasi etnos va tilning tarixiy taraqqiyotining natijasi, shu bilan birga uning kelgusi o‘ziga xos taraqqiyotining sababidir;

Olamning lisoniy manzarasi aniq tuzilishga ega va lisoniy nuqtai nazardan u ko‘p sathlidir. U shu tilga xos bo‘lgan tovushlar va tovush birikmalarining, shu til egalarining artikulyatsion apparat (nutq apparati)ga ega bo‘lishining, nutqning o‘ziga xos tuzilishini, lug‘at tarkibini, so‘z yasash usullarining, so‘z birikmasi va gap qoliplarining mavjud bo‘lishini taqozo qiladi;

Olamning lisoniy manzarasi zamon (vaqt)ga nisbatan o‘zgaruvchandir;

Olamning lisoniy manzarasi til jamoasining o‘ziga xos bir tipdagi ongida mavjud bo‘ladi va kelgusi avlodlarga lisoniy vositalarga muhrlangan axloq qoidalari, turmush tarzi, dunyoqarash bilan uzatiladi, ma’lum bir tilning lisoniy manzarasi shu til egalari uchun o‘zini o‘rab turgan olam haqida tasavvurning shakllantirishga “oraliq olam” sifatida yordam beradigan yaratuvchi vositadir. Ma’lum til jamoasining olamning lisoniy manzarasi – umum madaniy merosdir[2, 7-18].

Qayd etish lozimki, bizning dunyoni anglashimiz va qabul qilishimiz har doim Olamning lisoniy manzarasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Chunki har bir til o‘ziga xos milliy tizimga ega bo‘lib, u ushbu til egalarining dunyoqarashini aks ettiradi va ularning olamning lisoniy manzarasini tashkil etadi. Til orqali uzatiluvchi va ikkilamchi tasavvur va taassurotlar prizmasi orqali aks etadigan metafora, o‘xshatish, simvollar tizimi – bular konkret milliy olamning lisoniy manzarasining universalligi va o‘ziga xosligini belgilab beradi. Inson omilining universalligi va milliy o‘ziga xoslik – turli tillar olamning lisoniy manzaralarini bir-biridan farqlashda asosiy o‘rin tutadigan faktorlardir.

Ma’lumki, olamning lisoniy manzarasi o‘rganilgan dastlabki davrlardayoq olimlar masalaning ushbu tarafiga e’tibor qaratgan edilar. Jumladan, OLMning talqini dastlab V. fon Gumboldt asarlarida uchraydi. Olim tilni obyektiv borliq va tafakkur o‘rtasidagi «oraliq olam» deb ta’riflaydi va u har bir til milliy tafakkurni aks ettiradi, deb ko‘rsatadi. Bu «oraliq olam» lisoniy faoliyatning statik (turg‘un) natijasi va u o‘z navbatida insonning dunyoni bilishi, olgan bilim va tasavvurlari natijasida o‘z tafakkurida, ongida va lisoniy faoliyatida yangi lisoniy va tafakkuriy

hodisalarni yaratish jarayoni mahsuli bo‘lib, asosiy birliklari tushuncha, so‘z, obrazdir. Olam manzarasi esa harakatdagi va dinamik mohiyat bo‘lib, u borliqqa lisoniy aralashuv natijasida shakllanadi, uning asosiy birligi nutqdir, nutq orqali olamning tasviri qatori insonning kognitiv faoliyati bilan bog‘liq badiiyat va san’at asarlari yaratiladiki, ular aslida olamning umumiy manzarasini shakllantiradigan va uni shakllanishiga hissa qo‘shadigan olam manzarasidir.

Amerikalik mashhur etnolingvist Edvard Sepir o‘shangacha hali yaxshi farqlanmagan dunyo manzarasi va dunyoning lisoniy manzarasi tushunchalariga aniqlik kiritib, farqlab berdi. “Inson tashqi dunyoda amalda tilning ko‘magisiz ham tirikchilik qilaverishi va til faqat tafakkur hamda aloqa-aralashuvning o‘ziga xos muammolarini hal qiladigan tasodifiy vosita degan qarashlar illyuziyadan boshqa narsa emas. Amalda esa “real dunyo” g‘ayrishuuriy ravishda u yoki bu ijtimoiy guruhning lisoniy odatlariga asoslanib quriladi, … til tajribani nazariy jihatdan bo‘linuvchi unsurlarga ajratish xususiyatiga hamda potensial ma’nolarni real ma’nolarga aylantirish quvvatiga ega. Bu esa inson zotiga shaxsiy tajribaning chegarasidan chiqish va o‘zini o‘rab turgan dunyoning umum tomonidan qabul qilingan tasavvurini o‘zlashtirishga imkon beradi”[5, 261]. Til jamoasining ma’naviy ehtiyojlarini qondirish ehtiyoji tufayli eng qadimgi zamonlarda vujudga kelgan san’at va adabiyotning ham eng asosiy unsuri til bo‘lgani uchun u eng qadimgi davrlardanoq OLMning tarkibiy qismi bo‘lib keldi.

Prof. N.Mahmudovning “Tilning so‘z xazinasi va olamning lisoniy manzarasi” maqolasida ta’kidlanganidek, “...olamning lisoniy manzarasini inson ongida majud olam manzarasining til vositalari orqali shunchaki aks ettirilishi natijasi deb talqin qilish tilday bemisl qudratni jo‘nlantirishdan boshqa narsa emas”, deya OLM haqida konkret va realistik bir yondashuvni namoyon etgan olim “til olam manzarasi bilan bog‘liq ikki jarayonda bevosita ishtirok etadi, birinchidan, inson shuuridagi olam manzarasining eng teran qatlami bo‘lmish olamning lisoniy manzarasi aynan til bag‘rida shakllanadi; ikkinchidan, tilning o‘zi olam manzaralarining boshqa turlarini ifodalaydi va namoyon (eksplikatsiya) qiladi; shu tariqa alohida individlar qo‘lga kiritilgan tajribaviy bilimlar faqat til yordamida jamoa (xalq) tajribasiga, jamoa (xalq) mulkiga aylanadi”[3, 22], deb ko‘rsatadi.

Aytish lozimki, prof. N.Mahmudov ushbu tadqiqoti bilan o‘zbek tilshunosligida OLM, uning asosiy parametrlari va komponentlari, uni yaratishning samarali yo‘llari xususida qimmatli ma’lumotlar bayon qilib va tilshunosligimizning oldida turgan vazifalarni aniqlab berdi.

Tadqiqotlarda olamning ilmiy manzarasining 4 funksiyasi ajratib ko‘rsatiladi:1) ilmiy bilimlarni tizimlashtirish va ularni murakkab butunliklarga umumlashtirish; 2) ilmiy bilish strategiyasini aniqlaydigan tadqiqot dasturlari rolini bajarish; 3) ilmiy bilimlarning obyektivlashtirilishini ta’minlash va uni tadqiqot obyektiga yo‘naltirish; 4) ilmiy bilimlarni madaniyat bilan uyg‘unlashtirish.

Tadqiqotchi J.Eltazarov tillar va ularning egalari o‘rtasida juda qalin va intensiv aloqalar mavjud, til aloqa vositasi bo‘lgani tufayli u hayot bilan, til jamoasining turmushi, dunyoni tasavvur qilishi bilan bog‘liqdir, deb ko‘rsatadi. Olimning fikricha, har bir konkret tabiiy-ijtimoiy va lisoniy vaziyatda inson dunyoni o‘z sezgi organlari orqali qabul qilishi va anglashi, shuningdek, uning ilmiy-ijodiy kognitiv faoliyati ham olam haqida tasavvurlar tizimini shakllantiradi. Zero, tevarak olamdan olingan bilimlarga tayangan holda kreativ tafakkur yordamida yangi tasavvurlarga asos bo‘ladigan ilmiy, badiiy bilimlarni shakllantirish mumkin.

Konkret til egasi dunyo haqidagi tasavvurlarni o‘z ongi «elagidan o‘tkazgach», ularni umumlashtirish, badiiylashtirish, simvollashtirish orqali tasavvurlar tizimini ma’lum g‘oya, fikr, obrazlar silsilasiga tizib, til jamoasining boshqa a’zolariga yetkazadi. Boshqacha aytganda, dunyodagi moddiy va nomoddiy narsalar inson ongiga abstraksiyalash usullari yordamida dunyoning badiiy manzarasi haqida tasavvur beruvchi motivatsion belgilar tizimi sifatida eksplikatsiya qilinadi. Tadqiqotchi o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda va OLMning o‘zbek tilining olamni aks ettirish usuli va imkoniyatlarini milliy mentalitet bilan aloqador holda tilimizdagi OLM komponentlarini quyidagi kabi ta’riflaydi:

I. Predmetlar:

1. Yaratgan Tangri; inson, uning moddiy va ma’naviy dunyosi.

2. Jonli va jonsiz tabiat; narsalar, buyumlar, fazo.
3. Jamiyat va ijtimoiy munosabatlar.
4. Tovushlar. Obrazlar.
5. Til. Fanlar .
6. Vaqt. Axborot (informatsiya).
7. Madaniyat. San'at.

II. Belgilar:

1. Rang. Tus. Ko‘rinish.
2. Shakl. O‘lcham (hajm).
3. Maza-ta'm. Hid. Daraja.
4. Miqdor. Tartib. Nisbatlar.
5. Holat. Marom. Tarz.

III. Harakat. Jarayon. Hodisalar.

IV. Munosabat. Sababiyat. Natija. Aloqa[8, 101-104].

Ko‘rinib turibdiki, insonning badiiy ijod kabi kreativ va kognitiv faoliyati OLMning I banddagi 1, 3, 5, 7-qismlar va III band bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqadordir. Demak, olamning lisoniy manzarasi muammosi bevosita badiiy asarda ifoda etiladigan «olamning badiiy tasviri» masalasi bilan bevosita bog‘liqdir. Binobarin, olamning badiiy manzarasi boshqa manzara turlaridan farqli ravishda markazida tilni uning sohibi bo‘lgan inson bilan uzviylikda olib tasvirlaydi, adabiyotning doimiy va azaliy qahramoni inson bo‘lganidek, adabiyotning «moddiy» tarafi – lisoniy vositalar yordamida shakllantirilgan nasriy, nazmiy yoki dramatik badiiy matn, kognitiv nuqtai nazarga ko‘ra, matn – tafakkurdagi tuzilmaning tilga transformatsiyasi bo‘lib, butundan qismga qarab harakatlanuvchi yaxlit tuzilmaning verbal ko‘rinishi ekanligi aniqlangan[7,12-13]. Umuman, tilning amal qilinish shakllaridan biri bo‘lgan badiiy nutqning olamning in'ikosi sifatida shakllanishi F.de Sossyur tomonidan o‘z vaqtida ilgari surilgan «nutqiy faoliyat» tushunchasi bilan bog‘liq.

Olamning lisoniy manzarasi bilan badiiy til orqali ifoda etilgan dunyoning badiiy tasviri ayni bir narsa emas. Boshqird olimasi S.B.Ayupova qayd etganidek, «til yordamida ifodalangan dunyoning badiiy manzarasi hamma vaqt ham u yoki bu millatga xos "dunyoning lisoniy manzarasi» bilan mos kelavermaydi. Buning bir qancha sabablari bor: birinchidan, adib tarafidan real voqelikni badiiy tafakkur qilish natijasida olamning subyektiv badiiy lisoniy manzarasi va estetizm shakllanadi, ikkinchidan, badiiy lisoniy manzara voqelikni obrazli ifodalash natijasidir, uchinchidan, olamning lisoniy va badiiy lisoniy manzaralari lisoniy inventarning hajmi jihatidan ham farq qiladi"[1, 43-53]. Badiiy lisoniy tasvir bilan olamning lisoniy manzarasi o‘rtasidagi umumiylik va tafovutlarni esa, hozirgi zamon fanidagi ko‘p taraflama innovatsion yondashuvlar yordamida tadqiq etish mumkin. Olamning badiiy va lisoniy manzarasi – dunyoni va insonni tizimli bilishning maxsus usullari bo‘lib, u tilshunoslik va adabiyotshunoslikning inson bilan aloqador umumiy bazisida voqelanadi. Badiiy asarning maqsadi, g‘oyasi, uning voqealar, obrazlar tizimi esa badiiy matn orqali ifodalanadi. Badiiy matn til birliklari, uning ifoda-tasvir vositalari, estetik kuchi va ta'siri vositasida shakllantiriladi. Chunonchi, til badiiy asarning asosiy quroli sanaladi. Bu – shubhasiz va isbot talab qilmaydigan aksioma ekanligi allaqachon har bir ijodkor va olimga ma'lum. Chunki ijodkorning laboratoriyasida fakt, voqelik, tushuncha, tasavvur, mushohada, romantik va real fikrlar hamda bisotidagi so‘z va qalam bor, xolos. Ijodkorning quroli bo‘lgan til va til birliklari hamda badiiy-tasviriy vositalar orkali namoyon bo‘ladi va qog‘ozga tushiriladi. Shuning uchun ham badiiy asarda til asosiy o‘rinni egallaydi.

Badiiy asar tili fikrni badiiy ifodalash normasining amaldagi bir ko‘rinishi, namunasi hisoblanib, nutqni adabiy til normasi asosiga qurish bo‘yicha qoida o‘rnatuvchi va manba bo‘lib xizmat qiluvchi eng muhim materialdir. Badiiy asar tili milliy adabiy til rivojlanishi jarayonida umumxalq tiliga ijodiy yondashish, o‘rganish, o‘zlashtirish asosida yuzaga kelishi bilan adabiy ifoda doirasida yangi qirralarni ocha boradi. Milliy badiiy til tarixi umumxalq tili boyliklarini ijodiy o‘rganish, adabiy qayta ishlash tarixi ham sanaladi. Xalq tomonidan yaratilgan tipik, xayotiy, barqaror, takrorlanmas va xarakterli bo‘lgan so‘zlarning barchasi umumxalq tili tarkibini tashkil

etganidek, ijod sohiblari tomonidan tozalanib, qayta ishlanib, jilo berilib ma’lum qo‘llanish qonun-qoida va o‘lchovlariga buysundirilgan til birliklari va vositalari adabiy til tarkibiga kiradi. Yozuvchi ijodida qayta ishlangan, qo‘llanishning tegishli normasi (me’yor va o‘lchovi)ni olgan, milliy til madaniyatining yuksak fazilatlarini o‘zida namoyon etgan badiiy ijod tili o‘z navbatida umumxalq tilidagi vositalar va me’yorlar taraqqiyotiga ham ijodiy va ijobiy ta’sir etadi. Badiiy asar umumxalq tilidagi nodir, nafis, ta’sirchan tomonlarni o‘zida qamrashi, ta’sir kuchiga kuch, estetik zavq berishi bilan umumxalq tilining go‘zalligi va badiiyligi, tabiiyligi va milliy xarakterini aniq ravshan aks ettiradi[4, 11].

Har bir ijodkor o‘z navbatida so‘z yaratuvchi ham sanaladi. Garchi u umumxalq tili boyliklaridan foydalansa-da, o‘rni bilan yangi so‘zlar topadi, mavjud so‘zlarga libos kiygizadi, butun jilosini ko‘rsatadi, inson tabiati va ongiga ma’naviy ozuqa beruvchi yangi ma’no kasb etuvchi so‘zlarni ishlatadi. Badiiy asardagi har bir so‘z o‘quvchiga estetik zavq beradi. Chunki, haqiqiy ijodkor uchun har bir so‘zni o‘z o‘rnida ishlatish, uning ma’no salohiyatini to‘la namoyon qilish, shu jumladan o‘z va ko‘chma, asl va transpozitiv vazifalarda qo‘llash, til unsurini asar g‘oyasi, qahramon xarakteriga uyg‘unlashtirish – ijodkorning mahoratini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аюпова С. Б. Категории пространства и времени в языковой художественной картине мира (на материале прозы И. С. Тургенева) // Филологические науки. 2011. -№ 1. - С. 43-53.
2. Даниленко В.П. Языковая картина мира в теории Л. Вайсгербера. Филология и человек. 2009. - № 1. – Б. 7-18;
3. Маҳмудов Н.Тилнинг сўз хазинаси ва оламнинг лисоний манзараси // Сўз санъати. – Т., 2018. –№ 1. – Б. 22.
4. Қурбонов Т. Бадиий асар тили ва услуби масалалари. Ихтисослик (танланма) фанидан маърузалар матни. - Самарқанд, 2006. – Б. 11.
5. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М., 1993. – С. 261, 226.
6. Содержание понятия языковая картина мира в лингвистике - КОАПИЯ статьи - Каталог статей - КОАПИЯ. koapiya.do.am - https://koapiya.do.am/publ/1-1-0-6 (April, 2020)
7. Худайберганова Д. С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фанлари. д-ри. дисс. автореф. – Тошкент, 2015. -Б.12-13.
8. Элтазаров Ж.Д. Сўз туркумлари парадигмасидаги ўзаро алоқа ва кўчиш ҳоллари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006. - Б.101-104.

TURIZM TERMINLARINING AFFIKSATSIYA USULIDA YASALISHI

Elyor BOYMANOV, NavDPI
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm terminlarning affiksatsiya uslulida yasalishiga doir nazariy ma’lumotlar o‘z ifodasini topgan. Shuningdek, turli so‘z yasovchi affikslar vositasida turizm terminlarning yasalishi yuzasidan tahlillar keltirilgan hamda misollar bilan dalillangan.

Kalit so‘zlar: affiks, sodda turizm terminlari, so‘z yasalishi, affiksatsiya usuli, termin yasash.

Abstract: In this article, theoretical information on the formation of tourism terms in the affixation method is expressed. Also, analysis of the formation of tourism terms by means of various word-forming affixes is given and evidenced with examples.

Key words: affix, simple tourism terms, word formation, affixation method, term formation.

Аннотация: В данной статье изложены теоретические сведения по образованию туристических терминов аффиксационным методом. Также дан анализ образования туристических терминов посредством различных словообразовательных аффиксов и подтвержден примерами.

Ключевые слова: аффикс, простые туристические термины, словообразование, способ аффиксации, терминообразование.

Terminologiyada ham terminlar tuzilishiga koʻra sodda, qoʻshma, juft, soʻz birikmasi va qisqartma shakllarida uchrashi kuzatiladi. Leksikografiyada lugʻat tarkibining boyishida oʻz va oʻzlashma qatlam soʻzlarining ta'siri aniq koʻrinib turadi. Turizm terminologiyasida oʻz qatlam soʻzlari koʻpchilikni tashkil etadi. Ular avvaldan tilda mavjud boʻlgan yoki ma'lum usulda soʻz yasash orqali yuzaga kelgan soʻz/terminlardir. Soʻz yasash usuli orqali hosil boʻlgan turizm terminlarga *joylashtirish, bandlash, moʻljallash, bojxona, buyurtma, mehmonxona, qoʻriqxona, qabulxona, sayrgoh, sihatgoh, yoʻllanma yoʻlovchi, yodgorlik, yotoqxona, ziyoratgoh, sayrchi, ziyoratchi, safarchi* kabi sohada faol iste'molda boʻlgan leksemalarni kiritish mumkin.

Professor M.Abdiyevning fikricha, "Oʻzbek tilida shaxs nomlarining yasalishida suffiksatsiya usuli eng mahsuldor usul sanaladi" [1., 43]. Ammo bu fikrni turizm terminologiyasiga tatbiq eta olmaymiz. Chunki turizm terminologiyasida affiksatsiya usulida soʻz/termin yasalishi nofaol. Buni tadqiq etilayotgan ish jarayonida kuzatish mumkin. *Sayrchi, sayohatchi, ekskursiyachi, yoʻlovchi, ziyoratchi, safarchi* kabi sohaga oid soʻz/terminlar asosida fikrimizni dalillash mumkin.

Termin yasalishida har bir tilning ichki imkoniyatlari va morfologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ba'zi affikslar sermahsul hisoblanadi. Jamiyatning uzluksiz taraqqiyoti davomida mehnat jarayonida ishtirok etuvchilar, turli-tuman kasb egalari paydo boʻladi, yangi tushunchalar dunyoga keladi. Bu ekstralingvistik dalillar ona tilimizda faoliyati, mehnat qilish jarayoniga aloqador shaxslarni ifodalovchi, predmetlarni nomlovchi minglab leksemalarning yuzaga kelishiga olib keladi. Buning isboti sifatida birgina turizm sohasini olib koʻraylik.

Sodda turizm terminlari tarkibida soʻz yasovchi va shakl yasovchi affikslarning bor-yoʻqligiga qaramay, yagona bir asosdan yoki yasalmadan paydo boʻlgan, birgina lugʻaviy ma'noli qism boʻlgan leksema hisoblanadi. Masalan, *sayohat, haj, vokzal, poyezd, ziyorat, yoʻllanma, safar, karvon, mehmon*.

Oʻz navbatida, sodda turizm terminlari ikki qismga ajratiladi:

1. Sodda tub turizm terminlari – faqat bir asosdan hosil boʻlgan terminlar: *mehmon, mezbon, gid, sayyoh, sayr, otel, flotel, kemping, rotel, motel, nomer, yoʻl, poyezd, vokzal, chipta, vaucher, muzey, karavot, ofes, kafe, restoran, barmen, haj, safar, karvon* kabilar.

2. Sodda yasama turizm terminlari – tub terminlarga yangi ma'no ifodalovchi soʻz yasovchi affiks qoʻshilib hosil qilinadi: *ziyoratgoh, ziyoratchi, yoʻllanma, yoʻlovchi, ekskursiyachi, sayohatchi, sayrchi, sayrgoh, safarchi, iste'molchi, tushum, kirim, chiqim, buyurtma, joylashtirish, bandlash, sihatgoh, yodgorlik, tunovchi, oshpaz, somsapaz, baholash, sogʻlomlashtirish, davolash, moliyalashtirish, moʻljallash.*

Tilda yangi ma'no ifodalovchi soʻzlarning yuzaga kelishida soʻz yasalishi hodisasi muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi soʻzlarning juda koʻp miqdori turlicha soʻz yasash usullari bilan yaratiladi. Turizm sohasida qoʻllanuvchi terminlarni ham yuqoridagi tub va yasama leksemalar kabi ikki guruhga ajratdik. Shunday ekan, turizm terminlari soʻz yasash usullari asosida yasalgan terminlar hisobiga ham boyib boradi. Professor A.Gʻ.Gʻulomov oʻzining oʻzbek tili grammatikasiga doir izlanishlaridan bir ilmiy ishida shunday yozadi: "Soʻz yasalishi tilshunoslik fanining ayrim bir boʻlimi, mustaqil lingvistik soha, tarmoq boʻlib, u soʻzlarning yasalishini, yangi soʻz hosil qilinishining qonun-qoidalarini, modellarini, vositalarini, shu bilan bogʻliq holda, soʻzlarning strukturasini tekshiradi. Demak, bu sohaning obyekti soʻzdir. Tilshunoslikning bu boʻlimida yangi soʻzlarning qanday paydo boʻlganligi tekshiriladi. Tekshirishning bu ikki tomoni oʻzaro bogʻliq hodisalardan yangi soʻz mavjud modeliga qarab, shu asosda hosil qilinadi. Soʻz yasashning turli yoʻllari bilan hosil qilingan soʻzlarni oʻz ichiga olishi ham uning asosiy xarakterini ochib beradi: bu asos tilning leksik, fonetik va grammatik vositalaridir" [2., 7-8]. Turizm terminologiyasida ham soʻz yasalishining turli usullarida lugʻat tarkibining boyishi kuzatiladi. Mavjud soʻz orqali soha uchun ishlatiladigan soʻz va terminlar yasashga asos vazifasini bajaradi.

Termin yasalishidagi ichki imkoniyatlar deganda, har bir tilning mavjud ifoda vositalaridan va materiallaridan toʻliq foydalanish nazarda tutiladi. Bu jarayon koʻpincha ichki yoki lingvistik omillar deb ham atalishi mumkin [3., 38]. Turizm sohasida ichki imkoniyatlar asosida soʻz va terminlarni hosil qilish faollashmoqda.

O‘zbek tilining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib yaratilgan turizm sohasida faol qo‘llaniladigan atamalarga misol sifatida *bayram, bojxona, buyurtma, mablag‘, marosim, mozor, taklif, qaL’a, qo‘riqxona, qabulxona* kabi atamalarni keltirish mumkin. Har bir tilning atama yasalishidagi ichki imkoniyatlari va morfologik xususiyatlaridan kelib chiqib, ayrim affikslar unumli deb hisoblanadi. Ingliz va rus tillaridan farqli o‘laroq, o‘zbek tilida aynan turistik atamalarni yaratish uchun dominant qo‘shimchalar mavjud emas.

Professor H.Dadaboyev affiksatsiya usulida so‘z yasashda *-chi* affiksining imkoniyatlari haqida quyidagilarni ta’kidlaydi: “Ilmiy-texnikaviy inqilob davrida, globallashuv, internet va kompyuterlashtirish asrida *-chi* affiksli modelining so‘z yasash imkoniyatlari va doirasi bir necha barobar oshib ketdi. Ushbu modelning so‘z yasashdagi vazifasi o‘zbek tilining terminologik so‘z yasalish me’yorlarida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. *-chi* bilan yasalgan otlarning ma’noviy o‘ziga xosliklari u qo‘shilayotgan o‘zakka hamda uning o‘ziga tegishli bo‘lgan xususiyatlar ta’sirida shakllanadi. *-chi* affiksli ot-terminlar semantik strukturasiga ko‘ra bir qancha guruhlarga bo‘linadi. 1. Biror-bir kasb-hunar, mutaxassislik bilan shug‘ullanuvchi subyekt nomini ifodalovchi terminlar: *traktorchi, sportchi, vositachi, neftchi, kabelchi, elektrchi, ekskavatorchi, hisobchi, soliqchi, uchuvchi, to‘quvchi* va sh.k...” [4., 64]. Darhaqiqat, -chi affiksi turli sohalarda so‘z yasovchi faol qo‘shimcha bo‘lib, turizm terminologiyasini boyitishda ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Terminologiyaga oid tadqiqotlardan shuni aniqlash mumkinki, *-chi* affiksi ma’lum soha terminologiyasining lug‘at tarkibini boyitish bilan bir qatorda, hosil bo‘lgan yasalmaning matn tarkibida faol ekanligi bilan ajralib turadi.

Professor M.Abdiyev affiksatsiya usulida so‘z yasalishiga doir shunday fikrlarni bildiradi: “Adabiy tilda faol ravishda leksemalar yasovchi u yoki bu affiks ba’zi terminologik sistemalarda ham faolligi bilan mushtaraklik hosil qiladi. Masalan, -chi mahsuldor affiks bo‘lib, uning yordamida ko‘plab leksemalar yasalgan terminologik sistemalarni o‘rganishga bag‘ishlangan ishlar o‘rganib chiqilganda mazkur affiks ayrim terminologik sohalarda ham adabiy tildagi kabi faolligini saqlab turadi” [5., 122]. Fikrlardan shuni anglash mumkinki, -chi affiksining faollik darajasi barcha terminologik soha uchun xizmat qiladi, xususan, turizm terminologiyasida ham o‘z o‘rniga ega.

Tilshunoslikda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda olimlar -chi affiksi haqida turli ilmiy fikrlarni ilgari suradi. Tilshunos S.Ibrohimovning qayd etishicha, *-chi* affiksi “… ishlab chiqarish ahllari nutqida juda ko‘p ishlatiluvchi suffiksdir…” [6., 179]

Darhaqiqat, *-chi* affiksi adabiy tilda kasb-kor egalarini ifodalash uchun xizmat qiladi. -chi affiksi leksikografiyada, xususan, turizm terminlari tarkibida ham ko‘pgina so‘zlarni yasashga xizmat qiladi. Ba’zan ma’lum soha bilan shug‘ullanuvchi ma’nosini ham ifodalaydi. “-chi affiksi … asosdan anglashilgan ish-harakat, faoliyatda qatnashuvchi shaxs oti… yasaydi” [7., 219].

O‘zbek tili terminologiyasi sohasida ilmiy kuzatishlar olib borgan tilshunos R.Sharopova ham “Ijtimoiy-siyosiy terminlarning semantik-struktur xususiyatlari va leksikografik talqini” tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy ishida affiksatsiya usuli orqali termin hosil qilishga doir quyidagi fikrlarni keltiradi: “Affiksatsiya usuli orqali termin yasalishi ancha faol: -chi, -lik, -chilik, -dor, -parast, -noma, -xona, -ma, -v/-uv, -lashtir(ish), -iy/-viy, no- kabi affiks va affiksoidlar soha terminlarining faol yasovchilaridir. Mazkur affikslardan -chi va -lik affikslari eng unumdor bo‘lib, -lik va -chi affikslari bilan bir necha ma’noli terminlar yasalishi mumkinligi kuzatildi” [8., 15].

Turizm terminologiyasida ham affiksatsiya usulida termin yasalishi kuzatiladi. Quyidagi affikslar orqali soha terminlarini yasash mumkin: *la, -lash -im, (-um), -vchi, -ma, -chi.*

Turizm terminologik tizimida *-chi* mahsuldor so‘z yasovchi affiks bo‘lib, bu affiks yordamida yasalgan terminlarga quyidagilarni keltirish mumkin: *sayrchi, ekskursiyachi, sayohatchi, ziyoratchi, safarchi, iste’molchi, tunovchi, yo‘lovchi, buyurtmachi, yo‘lchi, elchi* kabi. So‘z yasalishining mahsuldor usuli bo‘lgan affiksatsiya usulida yana ko‘plab turizm sohasiga oid leksemalar mavjud. Ular o‘zbek tilining turizm terminologiyasi lug‘at tarkibini boyitib bormoqda.

Affiksatsiya usulida so‘z hosil qilish turli davrlarda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Jumladan, -ma affiksi ishtirokida uzoq o‘tmishda ham u yoki bu ma’noni ifodalovchi maxsus terminlar yasalib kelingan. Fikrimizni Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asaridan olingan quyidagi misol bilan dalillaymiz: “b:chma (b:chma jong‘ichqa – o‘rilgan beda, o‘rilgan

yo‘ng‘ichqa); tutma – sandiq; turma – turp; tizma – ishtonbog‘, to‘rvaning bog‘i va umuman har narsani yig‘ib bog‘lash uchun maxsus ipdan qilingan bog‘ich; tugma – ko‘ylak, chopon, qalpoqlar bog‘ichi, tugmasi va boshqalar” [9., 405-407].

Alisher Navoiy asarlarida *-ma* affiksiga doir quyidagi misollarni keltiramiz: “Chotma fors-tojikcha so‘z bo‘lib, daraxt shoxlarini yerga ko‘mib, uchlarini bir-biriga chatib, bog‘lab qilingan kapa (chayla), ovchilar kapasi.

Ov aro bir kun oziqib begumon,

Bo‘ldi birov chotmasiga mehmon. (“Hayrat ul-abror” dan”) [10., 683].

Demak, ushbu so‘z/termin *chatmoq* (chotmoq) fe’liga *-ma* ot yasovchi affiksini qo‘shish orqali hosil qilingan.

Aytish mumkinki, *-ma* affiksi, o‘zbek tilining turli-tuman terminologik sistemalarida faol ravishda terminlarni yasab kelmoqda. Bunday holatni texnika, tibbiyot, dorishunoslik, kulinariya, kiyim-kechak, gilamchilik, do‘ppido‘zlik, ilm-fan, iqtisodiyot, pedagogika kabi yuzlab soha terminlarini tadqiq etishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari yaqqol tasdiqlay oladi.

Turizm terminologiyasida *-ma* affiksi orqali yasalgan terminlarni uchratish mumkin: Masalan: *buyurtma, yo‘llanma, aylanma* kabi terminlar bunga misol bo‘ladi.

Buyurtma. Bir narsa yasab, tayyorlab, ishlab berish haqidagi topshiriq, talab. Buyurtma bermoq. Buyurtmalar qabul qilmoq. Ofitsiantka buyurtma olgani keldi. P. Qodirov, “Uch ildiz” [11., 391].

Yo‘llanma. Biror joyga (ishga, o‘qishga, davolanish va shu kabilarga) yuboriluvchi kishiga beriladigan rasmiy guvohnoma, hujjat. Mahalliy komitetda bahavo joylar uchun yo‘llanmalar bor. O.Mo‘minov, “Xiyobondagi uch uchrashuv” [12., 280].

3) *-paz* affiksi haqida tilshunos J.Muxtorov shunday deydi: “Paz so‘zi (tojikcha “puxtan” “pishirmoq”so‘zidan olingan) otlarga qo‘shilib, pishiruvchi, tayyorlovchi ma’nosidagi qo‘shma so‘zlar yasaydi”. O‘zbek tilida *paz* so‘zi mustaqil ishlatilmasligini inobatga olsak, uning yasovchi element ekanligi o‘z-o‘zidan ayon bo‘ladi. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida *-paz* qo‘shimchasi, asosan, oziq-ovqat nomlariga qo‘shiladi va ularni pishiruvchii, tayyorlovchi shaxs otlarini yasaydi degan ma’lumotlar keltirilgan. Turizm terminologiyasida gastronomiya turizmida, ya’ni ovqatlanish xizmatida ko‘p qo‘llanadigan *oshpaz, somsapaz* leksemalari ham shu qo‘shimcha asosida yuzaga kelgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bu so‘zlarga quyidagicha izoh keltirilgan: “Oshpaz (f-t – ovqat, osh pishiruvchi) Ovqat tayyorlash, pishirish bilan shug‘ullanuvchi shaxs. Shavla juda totli tuyuldi – oshpazni maqtadilar. Oybek, “Quyosh qoraymas” [13., 174].

Turizmda qo‘llanuvchi bu kabi affikslarning terminlarni hosil qilishini ko‘p o‘rinlarda kuzatish mumkin: – la, -lash: *baholash, prognozlash, mo‘ljallash, bandlash, davolash;* – im (um): *kirim, chiqim, tushum;* – vchi (-ovchi): *tunovchi, yo‘lovchi*.

Ba’zi qo‘shma terminlarni yoki so‘z yasovchi qo‘shimchasi bo‘lgan o‘zbek tilidagi yasama terminlarni faqat turizm sohasida qo‘llanadi deb bo‘lmaydi. Vaholanki, turizm terminologiyasida shunday terminlar mavjudki, ular ijtimoiy hayotning turli sohalarida qo‘llanilishi mumkin. Masalan, *bojxona* termini iqtisodiyot sohasida, *qo‘riqxona* termini ekologiya terminologiyasida, *yodgorlik, ziyoratgoh* kabi terminlar tarix fani terminologiyasida ham mavjud. Aytish mumkinki, bir xil shakldagi terminlar bir nechta sohaning lug‘at tarkibini boyitishga xizmat qilishi bilan birga o‘sha soha vakillari tomonidan faol qo‘llanadi.

Umuman olganda, turizm terminologiyasida ham boshqa sohalar singari affiksatsiya usulida terminlarning yasalishi oz miqdorda bo‘lsa-da kuzatiladi va bu jarayon soha leksikasining boyishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдиев М. Касб-корни ифодаловчи шахс номларининг ясалиш асослари. – Тошкент: Тафаккур, 2015.
2. Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент, 1975, 1-том.
3. Кадирбекова Д. Термин юзага келишининг лисоний ва нолисоний омиллари // Til va adabiyot ta’limi.
– Toshkent, 2015. –№3.

4. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019.
5. Абдиев М. Касб-корни ифодаловчи шахс номларининг ясалиш асослари. – Тошкент: Тафаккур, 2015.
6. Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лексикаси. – Тошкент: Фан, 1959.
7. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
8. Шаропова Р. Ижтимоий-сиёсий терминларнинг семантик-структур хусусиятлари ва лексикографик талқини: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Қарши, 2019.
9. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғатит турк. С. Муталлибов таҳрири остида. – Тошкент, 1961-1963.
10. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: Шамсиев П., Иброҳимов С.– Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006, I жилд.
12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006, II жилд.
13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007, III жилд.

ALLITERATSIYA LINGVOPOETIK VOSITA SIFATIDA

Yuldashev Jo‘rabek Uralovich
(NavDPI O‘zbek tilshunosligi
kafedrasi katta o‘qituvchisi, f.f.f.d(PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada alliteratsiyaning she’riy matnda muhim fonopoetik usul sifatida nutqning intonatsion ifodaviyligi va ohangdorligini kuchaytirish kabi muhim vazifalarni bajarishi haqida fikr bildirilgan.

Аннотация. В данной статье высказывается мнение о выполнении аллитерации как важном фонопоэтическом приеме в поэтическом тексте, таком как усиление интонационной выразительности и мелодичности речи.

Annotation. In this article, an opinion is expressed about the performance of alliteration as an important phonopoetic method in the poetic text, such as strengthening the intonation expressiveness and melodiousness of the speech.

Kalit so‘zlar: alliteratsiya, she’riy matn, poetik individuallik, ohangdosh tovush, poetik talqin, tovushlar uyg‘unligi.

Ключевые слова: аллитерация, поэтический текст, поэтическая индивидуальность, гармоническое звучание, поэтическая интерпретация, гармония звуков.

Key words: alliteration, poetik text, poetic individuality, harmonic sound, poetic interpretation, harmony of sounds.

Badiiy matnda muayyan poetik maqsad nazarda tutilib, tilning barcha sathlaridagi birliklar takrorlanishi mumkin. Xususan, she’riyatda takror eng ko‘p qo‘llanadigan poetik vositalardan biridir va u o‘z zimmasiga emotsional bo‘yoq, alohida ohang, joziba berish vazifasini oladi. Takrorning bir ko‘rinishi bo‘lgan alliteratsiya she’riy matnda muhim vosita hisoblanadi. Alliteratsiya fonopoetik usul sifatida badiiy nutqning intonatsion ifodaviyligini va ohangdorligini kuchaytiradi.

M.Yo‘ldoshev alliteratsiya haqidagi mulohazalarini bayon qilar ekan, “badiiy tafakkur ifodasi, bu ifodaning ta’sir quvvatini kuchaytirishda undoshlar asosida yuzaga keladigan alliteratsiyaning favqulodda o‘rni juda qadim zamonlardayoq anglab yetilganini ham alohida qayd etish lozim” ekanligini ta’kidlaydi.[1.165]

O‘zbek tilshunosligida alliteratsiyaning she’riyatdagi o‘rni haqidagi fikrlar ayrim ishlarda ham o‘z aksini topgan. Jumladan, A.Shofqorovning “Mirtemir she’riyatida takrorning ma’noviy-uslubiy xususiyatlari” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasining “Mirtemir she’riyatida fonetik takrorlar” nomli I bobida hamda S.Umirovaning “O‘zbek she’riyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik” mavzusidagi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining “Poetik matnda takror usulini qo‘llashning prosodik va kompozitsion tamoyillari” nomli II bobida fikr bildirilgan. Shoirlar til birliklarining nafaqat mazmunan, balki tovush mosligini ta’minlash uchun ham intilishadi va bu yo‘lda bir yoki bir-biriga o‘xshash tovushlar, bo‘g‘inlarida ohangdosh tovushlar uchraydigan so‘zlarni maxsus qo‘llashadi.

Otashin shoir Usmon Nosir ijodida ham alliteratsiyaning go‘zal namunalarini ko‘rishimiz mumkin. Shoir “Qon” she’rida shunday yozadi:

Bizni yorug‘ yo‘llardan
*Q*aytarolmaysan.
*Q*on to‘kuv-la
*Q*o‘rqitolmaysan,
*Q*on to‘kuv-la
Kurashni
To‘xtatolmaysan...

Vertikal alliteratsiyaning ajoyib namunasi bo‘lgan ushbu parchada shoir o‘quvchining nafaqat diqqatini jalb qilishni, balki asar mazmunini tovushlar uyg‘unligi orqali ham ta’kidlamoqchi bo‘lganini ko‘ramiz. Ya’ni Usmon Nosirning ushbu asari asrimizning boshlaridagi fuqarolar urushi davom etayotgan davrni aks ettirib, begunoh birodarining qoni to‘kilgan dehqon tilidan aytilayotgan nafratni “*q*” tovushining takrori orqali beradi va o‘quvchida kuchli emotsionallikni qo‘zg‘atadi. Ijodkor voqea-hodisalarning nazarda tutilgan muhim tomoniga o‘quvchi diqqatini tortish uchun yoki ma’lum narsalarni sanab ko‘rsatish, uni bo‘rttirib tasvirlash niyatida ham she’riy asarlarda ayrim tovushlarni takrorlaydi. Masalan:

*Q*o‘yarmidik, jindak
Bosib o‘tsin u,
*Q*o‘yarmidik vayron
*Q*ilsin Moskvani.
*Q*o‘yarmidik, bizning
*Q*onni to‘ksin u,
*Q*o‘yarmidik omon
*Q*ora – mast yovni! (“Men ham boraman”)

Bu she’r parchasida Vatan uchun yovga qarshi turgan lirik qahramon so‘zlarida qat’iyat, mardlik bor. Talaffuzda havo oqimining portlab chiqishi natijasida hosil bo‘ladigan “*q*” tovushining ma’nosida keskinlik va qat’iyat ifodasi ham aks etganday bo‘ladi.

Shoir she’rlarida “*q”* tovushini nafaqat vertikal, balki gorizontal alliteratsiya holatida ham keltirib, talaffuzdagi uyg‘unlik va jozibani ta’minlovchi fonetik vosita sifatida foydalanadi:

Bunda tar*q*o*q*, *q*o‘r*q*o*q* *q*ishlo*q*lar,
Bir kollektiv *q*ilib bemalol,
Batrak, kambag‘al va o‘rta hol,
Ro‘zg‘orlarni yana bosh*q*atdan
Yangi usul bilan *q*uradir. (“Quyosh bilan suhbat”)

V.Mayakovskiy “She’r qanday yoziladi” maqolasida “Men o‘zim uchun muhim bo‘lgan so‘zning yanada ajralib turishi, uning bir ramkada saqlanishi uchun alliteratsiyaga murojaat qilaman”.[2.48] deb yozgan edi. Usmon Nosir mazkur she’rida ham “*k*” undoshining alliterativ qo‘llanilishi o‘ziga xos jo‘shqinlik, she’r mazmuniga mos ko‘tarinkilik, kuchli hayajonni ifodalamoqda:

Liri*k*a!
Liri*k*am,
O‘yna *k*o‘l*k*alan,

*K*o‘l*k*alan yura*k*ning
Po*k*iza nayi!
Sen uchun,
Sen uchun,
Buyu*k* o‘l*k*adan
Safarbar etilib
*K*eldim atayi. (“Lirika”)

Matn ma’nosini kuchaytirishga xizmat qilish alliteratsiyaning asosiy vazifasi bo‘lsa, ifodaning ta’sirchanligini oshirish navbatdagi vazifasidir.[2.49] Shoirning “Salom, kunduz” she’ridan olingan quyida keltirilgan she’riy parchada “*s*” undoshi boshqa undoshlarga qaraganda ko‘p takrorlangan va, asosan, “*a*”, qisman “*e*” unlilari bilan *sa-sa-sa-se* shaklida qaytarilgan:

Oq tanli parining
Momiq qo‘llari
Anor **s**uvin to‘kdi
*S*amo bo‘yidan:
*S*alom kunduz, **s**alom,
*S*alom parig‘um,
*S*ening toza nuring
Ko‘zimga *s*inggan,

Tovushlarning takrorlanishi, umuman, takror yordamida lirik qahramon ichki dunyosi ochib berilishiga, obrazlarning poetik talqiniga yo‘l ochiladi. Usmon Nosirning “Norbo‘ta” dostonidan olingan quyidagi parchada sonor tovushlar uyg‘unligi vositasida doston qahramonining el-yurt, vatan oldidagi burchi, ichgan qasamiga sadoqati ajoyib ifodalangan va o‘quvchi ongida tez muhrlanadi:

Unutsa*m* *m*en,
Ota*m*-ona*m*ni,
Unutsa*m* *m*en,
Hatto u*m*ri*m*ni,
Unut*m*as *m*en
Shonli posti*m*ni!

M.Hakimov va V.Jabborovlarning “Poetik nutqda tovushlarning xoslanishiga doir” nomli maqolasida *r, n, l, m* undoshlari va *o* unlisini haqli ravishda poetik tovushlar deb hisoblash mumkin”[3.77] Darhaqiqat, o‘zbek tilidagi matnlarda sonor tovushdagi ovoz yon undosh tovushga ham ma’lum miqdorda ta’sir qiladi va shu so‘zning poetiklashishi, uning jozibadorligi,musiqiyligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Quyidagi parchada aynan sonorlar alliteratsiyasini ko‘rishimiz mumkin:

Bag‘*r*i*ng* cha*m*a*n* ochga*n*:
Qada*ml*a*r* yetga*n*
Yo*ng*a*n* yu*l*duz*l*ari*ng*,
Ochi*l*ga*n* chehra*ng*,
Bitga*n* a*l*am*l*ari*ng*,
G‘a*ml*ari*ng* ketga*n*
So‘lga*n* yuz*l*ari*ng*ga
Kirga*n* qizi*l*ra*ng*. (“Senikimi shu bo‘y”)

Alliteratsiya ahamiyat berilishi lozim bo‘lgan so‘zlarga kishi diqqatini tortadi, uni o‘ziga xos shaklda talaffuz qilishga undaydi. Bu usulda yaratilgan she’rlarning so‘z shakli ularni esda tez va uzoq saqlanib qolish imkonini beradi.[4.16] Hosil bilan dunyo

Rekordin berdi. (“Men ham boraman”)

1) *k* undoshining takrori:

*K*asofati ruhimni quvay
*K*o‘z yoshim-la peshonamdagi

*K*o‘k otashin izlarin yuvay.
Qo‘y, bu dunyo tinch va voqifsiz (“Demon”)

2) *h* undoshi takrorlanadi:

Kun o‘tkazish – qanday og‘ir ish!
*H*am achinish, ham achinmaslik
*H*ar narsani anglash va sezish,
*H*ech narsani ko‘zga ilmaslik,
*H*ammasidan tahqir-la bezish! (“Demon”)

Umuman, Usmon Nosir o‘z she’riyatida alliteratsiyadan unumli foydalanib, turli shakllarni yuzaga keltirgan va ularning har biriga poetik vazifa yuklay olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Юлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент:O‘zbekiston, 2019. – Б. 165
2. Умирова С. Ўзбек шеъриятида лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик:Филол.фан.бўйича фалсафа д-ри(PhD)….дисс. – Самарқанд, 2019..

3. Ҳакимов М., Жабборов В. Поэтик нутқда товушларнинг хосланишига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2006. – №4. – Б.77-84.

4. Яхшиева Г. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар:Филол.фан.номз ... дисс.автореф. – Тошкент, 1997

NAVOIY G‘AZALLARIDAGI KO‘P MA’NOLI SO‘ZLAR TAHLILI

G‘ulomova Nargiza Sa’dullayevna
Navoiy innovatsiyalar universiteti
gulomovamoi@mail.ru ***+998-91-254-50-10***

Annotatsiya: Zamonaviy lingvodidaktik va leksikografik texnologiyalarning ta’lim samaradorligini oshirishidagi o‘rni beqiyosligi bois jahon miqyosida til korpuslarining yatratilishiga jiddiy e’tibor berilmoqda. Navoiy lirik merosini bugungi kitobxonga o‘qishli bo‘lishi uchun grammatik teglash va leksik jihatdan tahlil qilish lozim. Maqolada Navoiy g‘azallarida qo‘llagan ko‘p ma’noli so‘zlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: nazm, shakldosh so‘zlar, izohtalab so‘zlar, tasavvuf, leksema, majoziy ma’no.

Аннотация: В связи с непревзойденной ролью современных лингводидактических и лексикографических технологий в повышении эффективности образования серьезное внимание уделяется деструкции языковых корпусов во всем мире. Лирическое наследие Навои должно быть грамматически и лексически проанализировано, чтобы быть читаемым сегодняшним читателем. В статье проанализированы многозначные слова, которые Навои использовал в своих газелях.

Ключевые слова: назм, образные слова, пояснительные слова, суффизм, лексема, переносный смысл.

Abstract: Classical literature samples should be grammatically tagged and lexically analyzed in order to make them understandable and readable for today's readers. The article analyzes the multiple words used by Navoi in his ghazals. The fact that the poet expressed the unique possibilities of the Turkish language by using ambiguous words is illustrated by the analysis of ghazal verses.

Key words: poem, similar words, explanatory words, mysticism, lexeme, metaphor.

Milliy merosimizni zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimida keng qo‘llanishiga erishish, buning uchun ajdodlarimiz asarlarini yoshlar o‘rtasida targ‘ib etish, mumtoz adabiyot namunalarini o‘qishli va tushunarli tarzda taqdim etuvchi filologik korpuslarni yaratish dolzarb masala

hisoblanadi. Alisher Navoiy ijodini o‘rganishning ta’limiy ahamiyatini oshirish va mumtoz adabiyot materiallari asosida o‘quvchilar nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, g‘azallarda bugungi davr tilida tushunilish qiyin bo‘lgan leksik birliklar ma’nolari izohiga doir ma’lumotlar bazasini shakllantirish, foydalanuvchilarning ma’naviy va mental tafakkurini kengaytirish, tarixga oid bilimlarini oshirish, g‘azallardagi tazod, talmeh, irsoli masal, tashbih she’riy san’atlatini ham tahlil qilish muhim.

Qadimiy sharq va g‘arb olimlari yaratgan asarlarda, asosan so‘z shaklini o‘zgartirish uchun xizmat qiladigan vositalarni (turli qo‘shimchalar, affikslarni) va gap tuzish tartib-qoidalarini tadqiq qilganlar. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslik sohasida qiyosiy-tarixiy metodning vujudga kelishi natijasida tillardagi ko‘pgina grammatik xususiyatlarni kengroq o‘rganish mumkin bo‘ldi. Hozirda grammatika tushunchasi keng ma’noga ega bo‘lib, u tildagi barcha grammatik vositalarni, so‘z turkumlari, so‘zni kichik ma’nodor bo‘laklarga bo‘lish va so‘z yasovchi hamda so‘z o‘zgartiruvchi turli qo‘shimchalar, affikslar va so‘z tartibini, gapning maqsadga ko‘ra turlarini o‘rganmoqda

So‘z dahosiga daho so‘zchi sifatida adoqsiz ehtirom va benihoya inja sezgi bilan munosabatda bo‘lgan, ulkan ijodiy, ham badiiy, ham ilmiy, ham tarixiy – merosi bilan bashariyatning tafakkur xazinasini favqulodda beqiyos darajada boyitgan ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiydir [Abjalova M., G‘ulomova N., 2022. – S. 6.].

Navoiy turkiy tildagi har bir so‘zning lisoniy ahamiyati va gapdagi o‘rni beqiyosligi xususida o‘z munosabatini asarlari, shu jumladan g‘azallarida ham asoslagan. Uning boy va serqirra ijodiy merosini har tomonlama chuqur o‘rganish asnosida turkiy til rivojiga qo‘shgan ulkan hissasini alohida e’tirof etish joiz [Abdiyev N., 1999. – S.15.].

Najmiddin Komilov: “Ko‘z komil inson timsolidir. Komil inson – bir ideal, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi Mutlaq ruhga tutash, fayz-u karomatdan serob, siyrat-u surati saranjom, qalbi ezgu tuyg‘ga limmo-lim pokiza zot” [Komilov N., 2009. – S.81.] – deydi. XI asrning filolog olimi Mahmud Koshg‘ariyning turkiy ensiklopediya ko‘rinishidagi “Devoni lug‘atit turk” asarida *“ko‘z”* leksemasi. “yoqimli ko‘z”, “xumor ko‘z”, “mastona ko‘z” kabi birikmalar ko‘rinishida ifodalanganligi ma’lum. [Mahmud Koshg‘ariy., 1963. – S.91.]. “Navodir ush-shabob” devonidagi g‘azallarda 593 marta: *ko‘z, ko‘zi sayyod, shirin ko‘z, ko‘z tutmoq, pariy ko‘z, kofir ko‘z, usruk ko‘z, xunxor ko‘z, xunrez ko‘z, ayyor ko‘z, minnatdor ko‘z, bedor ko‘z, bemor ko‘z, afgor ko‘z, giryon ko‘z, diydor ko‘z, shahlo ko‘z, kofir ko‘z, koruxsor ko‘z, nargis ko‘z, zaxmin ko‘z, shikastin ko‘z* birikmalarining har birida “ko‘z” so‘zi o‘zining turli nozik ma’no qirralarini namoyon etib, bir necha xil leksik xususiyatlarni ifodalagan. Jumladan, E.Fozilov tahriri ostida nashrdan chiqarilgan 4 jildli “Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”ning 2-jildi 145-148-sahifalarida **“ko‘z”** leksemasining quyidagi ma’nolarida kelishi baytlar orqali tahlil qilib berilgan: [Fozilov E., 1983. – S.145-148.].



P. Shamsiyev va S.Ibrohimovlarning “Alisher Navoiy asarlari tili” izohli lug‘atida esa **ko‘z ilmak** – manzur qilmoq, yoqtirmoq; **ko‘zda asramoq** – juda ham ehtiyot qilmoq, avaylab saqlamoq; **ko‘zdan solmo**q – ko‘zdan uzoqlatmoq, nazar tashlamoq; **ko‘z durri** – (majoziy ma’noda) ko‘z yoshi; **ko‘z yopmoq** – 1) ko‘z yummoq, umid uzmoq; **ko‘z yorumoq** – bahralanmoq, shodlanmoq; **ko‘z mardumi** – ko‘z qorachig‘i; **ko‘z oldurmoq** – ko‘ngil bermoq, oshiq bo‘lmoq; **ko‘z tutmoq** – qaramoq, ko‘rmoq, kutmoq; **ko‘z uyi** – ko‘z kosasi; **ko‘z ustida** – birovga muloyimlik ko‘rsatib aytiladi, “bajonu dil, jonimiz bilan bajaramiz” degan ma’nolarda; **ko‘z qorortmoq** – ko‘z olaytmoq, birovning narsasiga (moliga) xiyonat qilish fikriga kelmoq; **ko‘z qaro qilmoq** – tikilmoq, muntazir bo‘lmoq; **ko‘z savodi** – ko‘z qorachig‘i kabi ma’nolarni ifodalab kelishi ko‘rsatiladi.[Шамсиев П., Иброҳимов С., 1972. – S.325.].

Quyida “Navodir ush-shabob” devonida “ko‘z” leksemasi ishtirok etgan baytlar badiiy tahlil qilingan:

Hajrida tah-tah ko‘ngul qon bog‘lag‘andindur nishon,

Nomai shavqumki tim-tim tomdi **ko‘zdin qon** anga. (9-g‘azal)

Bayt tahlilini izohtalab so‘zlar semantikasini ochish bilan boshlasak, hajr – *ayriliq*, tah-tah – *qavatma-qavat*, nishon – *belgi*, shavq – *kuchli xohish*. “Ayriliq azobida ko‘nglim qat-qat qon bo‘lganligini kuchli iztirob bilan yozayotgan nomamdagi qonli ko‘zyoshim bildirmoqda”. Hijron azoblarini boshidan o‘tkazayotgan lirik qahramonning ruhiy holati mazkur baytda yuqori darajada ifoda etilgan. Oshiqning yori ayrilig‘ida chekayotgan azoblari shu darajadaki, ko‘ngilning g‘unchadek qon bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda va qonli ko‘z yoshlarida namoyon bo‘lmoqda. Baytda oshiq holatini yanada kuchaytirish uchun xizmat qilayotgan *tah-tah* hamda *tim-tim* takroriy so‘zlari mukarrar, ko‘zdan qon kelishi esa mubolag‘a she’riy san’atini yuzaga keltirgan.

Nargis ul ko‘zdek emas, ey bog‘bon, boqib ko‘z och,

Ne uchunkim, ul pariy qiymoch erur, bu bir taloch. (96-g‘azal)

Baytda qo‘llanilgan nargis – *bo‘tako‘z gul*, ma’shuqa ko‘zlariga qiyoslangan holda, lirik qahramon tasvirlayotgan ma’shuqa ko‘zlari undan ziyoda qo‘yilgan. Shoir aynan shu gulning ma’shuqa ko‘zichalik bo‘lolmasligini ta’kidlagan va bog‘bonga boqish da’vatini qilgan. Keyingi misradagi qiymoq – *qiyiq ko‘zli*, taloch so‘zining ma’nosi esa *g‘ilay* ekanligini bilgan holda ajoyib o‘xshatishni tahlilga tortamiz: “ne uchunki, bu pariy qiyiq ko‘zlig-u, nargis guli bir g‘ilay”. Baytda yorning butun go‘zalligi birgina ko‘z orqali yuzaga chiqqan va ko‘z ilohiy go‘zallik jamlangan maskan sifatida ifoda etilgan. Baytda shoir ma’shuqa ko‘zi chiroyini nargisdan ham a’lo ekanligini aytish uchun bog‘bonga murojaat shaklidan foydalangan va bu nidoni yuzaga chiqargan.;pv

Gah shah o‘lsin, gar gadokim, solmangiz yuziga ko‘z,

Yodini balkim ko‘ngulga har taraf yovutmangiz.

Mazkur baytda g‘azalxonga tushunarsiz so‘zlar deyarli uchramaydi. Faqatgina yovutmoq so‘zi biror tushunarsizroq bo‘lib, bu so‘z yaqinlashtirmoq, uchratmoq ma’nolarini anglatadi. Birinchi misrada lirik qahramon shohga ham, gadoga ham yor yuziga ko‘z solmaslikni buyuradi. Keyingi baytda esa yor yodini ko‘ngilga yaqinlashtirmaslik so‘ralmoqda. Baytning umumiy tahlili quyidagicha: “Shoh bo‘lsangiz ham, gado bo‘lsangiz ham yor yuziga boqmang, uni eslashni ko‘nglingizga ham keltirmang”. Ma’shuqasi jamolini o‘zgalardan qizg‘anish holati baytda o‘z ifodasini topgan. Go‘zal yor yuziga boqish tugul, buni xayoldan ham o‘tkazmaslik oshiq tomonidan qat’iy ta’kidlanib o‘tilgan. Baytda zid ma’nolilik hodisani ro‘yobga chiqargan *shoh* va *gado* so‘zlari tazod she’riy san’atini yuzaga keltirgan.

Bo‘lmas qora ko‘z eldin tutmoq kishi vafo ko‘z,

Sendin netib vafo ko‘z tutqaymen, ey qaro ko‘z.

Mazkur baytni tahlil qilishdan oldin biz ko‘z tutmoq iborasining kutmoq ma’nosida kelayotganligini izohlash lozim. Birinchi misrada lirik qahramon qora ko‘zli el haqida gapirib, dan vafo kutmasligini ma’lum qiladi. Keyingi misraga kelib esa yorni o‘sha qora ko‘zli eldan ekanligini e’tirof etib, qora ko‘zli yoridan qanday qilib vafo kutayotganligiga hayron qoladi: “Ey qora ko‘zli yor, men sendan qanday vafo kutay, axir qora ko‘z elida vafo bo‘lmaydi-ku!” Baytda qora ko‘zli go‘zallarning vafosiz, jafo ko‘rgizuvchi ekanligiga ishora mavjud. Buni qarangki, lirik qahramon

ta’riflayotgan ma’shuqa ham qora ko‘zli va vafo ahlidan bo‘lmasligiga hech shubha yo‘q. Baytda to‘g‘ridan to‘g‘ri yorga “*ey qora ko‘z*” deya murojaat qilinadi va bu **nido** san’atini yuzaga keltirgan.

Gar quyosh orazig‘a sa’bdurur ko‘z solmoq,
Ul quyosh orazidin mushkil erur ko‘z olmoq.

Mazkur baytdagi sa’b va oraz so‘zlari biroz tushunarsiz so‘zlar bo‘lib, sa’b so‘zi *qiyin* ma’nosini, oraz so‘zi esa *yuz* ma’nosini anglatib kelmoqda. Baytda yor yuzining yorqinligi, jozibadorligi, nurliligi sababli quyoshga qiyos etilgan. Endi misralar tahliliga o‘tsak: “Garchi quyosh chehrasiga qaramoq qiyin bo‘lsa ham, bu quyoshning ya’ni yorning chehrasidan ko‘z olish mushkul ish. Quyosh doimo charaqlab, o‘z nurlari bilan barchani xushnud etadi. Lirik qahramon shu kabi xususiyatlarga tayangan holda yor yuzini Quyoshga qiyoslaydi, biroq ng birdan bir farqini aytib o‘tishni ham joiz deb biladi, bu aytganimizdek, quyoshga uzoq muddat tikilib turomasligimiz, go‘zal ma’shuqdan ko‘z uzolmaslikdir. Hazrat Navoiy g‘azalyotida ishq mavzusi asosiy o‘rinni egallaydi va bu mavzu, musulmon sharqi she’riyatida ham yetakchi o‘rinda bo‘lib, Alisher Navoiy unga ijodining deyarli barcha bosqichlarida murojaat qilgan [Yusupova D. 2013. – S.44.].

Men o‘ldum noladin, noz uyqusidin yor ochmas ko‘z,
Ne sud andinki, hijron shomi bo‘lg‘ay **ko‘zlarim** sergak. (323-g‘azal)

Berilgan misradagi sud so‘zi tushunilishi qiyin so‘zlardan biri bo‘lib, bu so‘z *foyda* degan ma’noni bildiradi. Birinchi misrada shoir noladan o‘lsa ham yorning noz uyqudan ko‘z ochmaganligini bayon qiladi. Keyingi misrada esa hijron shomida ko‘zlarning sergaklanishi haqida gap boradi: “Nolalar meni o‘ldirmoqda, yor hech uyg‘onmaydi, undan ne foydaki, ayriliq tunida ko‘zlarim doim uyg‘oq”. Lirik qahramonning ayriliq azobida tortayotgan sitamlari ko‘zlariga uyqu keltirmaydi, yori esa bdan bexabar, balki xabardor bo‘lsa ham, nazarga ilmasdan noz uyquda orom olmoqda.

G‘am etti tiyra meni jomi may evur soqiy
Ki, ko‘zlarimni yorutsun bu barqi raxshoning.

Baytdagi tushunarsiz so‘zlar izohi bilan tanishib chiqamiz, tiyra – *qayg‘uli*, jom – *qadah*, evurmoq – *aylantirmoq*, barq – *nur*, raxshon – *jilvalanuvchi*. G‘am meni qayg‘uli holga soldi, ey soqiy, sen menga qadah tutgilki, men undan bahra olay. Soqiy so‘zi ham bu yerda ramziy ma’noga ega, ya’ni mutlaq fayziyot, ma’rifat bulog‘i demak [Komilov N. 2009. – S.155.]. Baytda qo‘llanilgan may atamasi timsol hisoblanib, ilohiy ishqning qudratini ko‘rsatishga qaratilgan. Hayot tashvishlari, azoblaridan g‘amli ahvolda qolgan lirik qahramon dardlari davosini faqat Allohdangina kutmoqda, uning qorong‘i hayotiga nur kiritadigan, ko‘nglini rohatlantira oladigan yagona chora Yaratganning marhamatidir. O‘zbek mumtoz adabiy tilining homiysi bolgan buyuk Alisher Navoiy turkiy tilda go‘zal nutq tuzishning bayroqdori sifatida o‘zining butun ijodi bilan o‘zbek tili boyliklarini namoyon etdi [Muhiddinova X., Xudayberganova D., Umirov I., Jiyanova N., Yusupov T. 2006. – S.196.].

Navoiy misralarda bir so‘zdan o‘nlab ma’nolarni paydo qilgan, turkiy tilda mavjud so‘zlarning omonimlik xususiyatlarini, shuningdek hamin qadar boy va jarangdor ekanligini har bir nafasida dalillashga harakat qildi va buning uddasidan chiqa oldi, desak, aslo mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Fikrimizni dalillash maqsadida “**sur**” so‘zning bir qancha semantik ma’nolarini baytlar tahlili misolida ko‘rib chiqamiz.

Milliy tilimizning barcha imkoniyatlariga Alisher Navoiy asarlarida guvoh bo‘lish mumkin, ammo mutafakkir yashagan davr tilshunosligi bilan hozirgi zamonaviy tilshunosligimizda fonetik, leksik, grammatik, semantik jihatdan farqlar mavjudligi bois Navoiy tilini izohli lug‘atlar yordamisiz tushunishimiz ancha mashaqqatli hisoblanadi [Abjalova M., G‘ulomova N. 2023. – S.187.]. “Sun’iy intelekt” asrida Alisher Navoiy mualliflik korpusining yaratilishi bu masalaning innovatsio yechimi bo‘la oladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abjalova M., Gulomova N. Author’s Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey – pp. 182-187. Impakt Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK 55850. 2022.9919546.

2. Abjalova M., Gulomova N. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD. // Procedia of Theoretical and Applied Sciences. Vol. 4 (2023). 28.02.2023. – pp. 111-115. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD | Procedia of Theoretical and Applied Sciences.
3. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Моварауннаҳр – Ўзбекистон. 2009 –. Б. 130.
4. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1963. – Б. 91.
5. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. / Фозилов Э. таҳрири остида. – 2-жилд. – Тошкент: Фан, 1983-1985. – Б. 145-148.
6. Шамсиев П., Иброҳимов С. Алишер Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1972. – В. 325.
7. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. – Toshkent: Академнашр, 2013. – Б. 44.
8. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Моварауннаҳр – Ўзбекистон. 2009 – Б. 155.
9. Muhiddinova X., Xudayberganova D., Umirov I., Jiyanova N., Yusupov T. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006. – B. 196.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳофиз Хоразмий. Девон. II китоб. – Тошкент, 1981.
2. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999.
3. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 6-том. Фавойид ул-кибар. – Тошкент: Фан, 1988.
4. Бобораҳим Машраб. Меҳрибоним қайдасан. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1990. – Б. 294.
5. Комил Хоразмий. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1975. – Б. 200.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR SHE’RIYATIDA MA’NODOSH SO‘ZLARNING LEKSIK TABIATI

Sayidova Gulrux Yoqubovna
Buxoro davlat universiteti
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Annotatsiya *Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur nazmiy asarlaridagi ma’nodosh so‘zlarning leksik-semantik xususiyati tadqiq qilingan. Z.M. Bobur badiiy asar ta’sirchanligini va badiiyligini oshirishda sinonimlardan keng foydalangan. Bobur she’riyati tilida turkiy (o‘zbekcha)-turkiy (o‘zbekcha), arabiy-arabiy, forsiy-forsiy, turkiy- forsiy-arabiy, turkiy-forsiy, turkiy-arabiy, forsiy-arabiy sinonimlar mavjudligi aniqlandi.*

Tayanch tushunchalar: *ma’nodosh so‘z, leksik-semantik, umumturkiy, arabiy, forsiy, atash vazifasi, semema, sinonim;*

Аннотация *В данной статье изучаются лексико-семантические характеристики синонимов в поэтических произведениях Захириддина Мухаммада Бабура. З.М. Бабур широко использовал синонимы для усиления воздействия и художественности произведения искусства. Установлено, что в языке поэзии Бабура имеются тюркские (узбекские)-турецкие (узбекские), арабо-арабские, персидско-персидские, турецко-персидско-арабские, турецко-персидские, турецко-арабские, персидско-арабские синонимы.*

Основные понятия: *слово-синоним, лексико-семантическое, общетюркское, арабское, персидское, функция аташ, семема, синоним;*

Abctrakt. *The lexical-semantic structure of the related words is lexical-semantic. Synonymous words were widely used in order to increase the artistic activity and artistry of Zahiriddin Muhammad Babur. The existence of Turkish (Uzbek), Turkish (Uzbek), Arabic-Arabic, Persian-Arabic, Persian-Arabic, Persian-Arabic, Persian-Arabic, Persian-Arabic, Persian-Arabic synonyms has been revealed in Babur's poetry.*

Basic Concepts: *synonyms, lexical-semantic, Büyüktürk, Arabic, Farsi, ataş function, sememav synonyms;*

Ayonki, o‘zbek tili nutq vositalariga boy, sinonimik imkoniyatlari behad keng tillardan biridir. Bobur zukko, iste’dodli ijodkor sifatida o‘zbek tilining ana shu tabiatini, o‘ziga xos eng nozik xususiyat va qirralarini teran anglagan. U takrordan qochish, uslubning ravon, chiroyli, ta’sirbaxsh, diqqatni o‘ziga jalb etadigan darajada bo‘lishi, ifoda rangsizligi va qashshoqligidan qutulish uchun ma’nodosh so‘zlarga murojaat qilgan, lug‘aviy sinonimiya qatoridan badiiy tasvir hamda ruhiga aynan mos keladiganini tanlab, eng maqbulini o‘z o‘rnida qo‘llashga uringan. Adib ijodida sinonimlar badiiy fikrni lo‘nda, ta’sirchan, jozibali ifodalash va asosiy maqsadni amalga oshirish uchun muhim til vositalaridan biri bo‘lib xizmat qilgan. Uning mana bu satrlarga e’tibor qilaylik:

Ma’lumki, *yuz, bet, aft, chehra, oraz,jamol* kabi so‘zlar atash va vazifa semalariga ko‘ra bitta sinonimik qatorda birlashadi. Ularning ifoda semalari esa turli xil. SHoir har bir ma’nodosh so‘zning o‘ziga xos ma’no qirrasini e’tiborga olib, ularni o‘z o‘rnida qo‘llashga uringan.

Jamoling vasfini, ey oy, necha eldin eshitgaymen,
Ne kun bo‘lg‘ay**,** visolingg‘a meni dilxasta etgaymen!
Tarahhum ***yuzidin*** yuzungni ko‘rmakka buyurg‘aysen,
Xush ulkim, ***orazingni*** ko‘rgamen, so‘zung eshitgaymen!

she’rida atash va vazifa semalari aynan bir xil bo‘lgan, ifoda belgilari turlicha bo‘lgan *yuz, oraz, jamol* kabi ma’nodoshlar g‘azalda ifodalanayotgan maqsad, g‘oya, fikrga uyg‘un holatda qo‘llangan. Ishqiy mavzuda yozilgan ushbu g‘azalda yorning yuzi tasviri darajalanish xususiyatli va ma’no nozikliklari bilan farqlanuvchi mazkur ma’nodosh so‘zlar vositasida yorqin va ta’sirchan ifodalangan. Ayonki, arabcha *oraz* lug‘aviy birligi mumtoz asarlar tilida ko‘p uchraydi va u, asosan, mahbubaga nisbatan qo‘llanilgan. Tahlilga tortilgan g‘azaldagi *jamol* so‘zini *yuz* va *oraz* tushunchalariga nisbiy sinonim sifatida belgilash mumkin. Arabcha *jamol* so‘zining asl lug‘aviy ma’nosi “chiroyli yuz, go‘zal chehra” (O‘TIL, I, 272-b) bo‘lib, shoir uni yorning yuziga nisbatan ijobiy munosabatini ifodalash uchun qo‘llagan. SHoir she’rlari tilida nazarda tutilgan ma’nodosh so‘zlar qatorida forscha tojikcha *chehra* so‘zi ham mavjud:

Gahi sahro ***uzori*** lola shaklidin erur gulgun,
Gahi sahni chaman gul ***chehrasidin*** arg‘uvoniydur.

YUqorida aytib o‘tilganidek, yor ta’rifi xususida shoir o‘z fikrini bayon etganida uning yuziga nisbatan, asosan, *oraz*, *jamol* so‘zlarini qo‘llagan. ishq dardida azoblangan oshiq yuzini ifodalashda esa shoir *chehra* so‘zidan foydalanishni ma’qul ko‘rgan. Buning o‘ziga xos sababi bor. *Oraz* va *jamol* so‘zlarida faqat ijobiy baho va munosabat ifoda semasi mavjud bo‘lsa, *chehra* so‘zida esa ham ijobiy, ham salbiy ifoda semasi joy olgan. Misol o‘rnida quyidagilarni chog‘ishtiring:

Hazon yaprog‘i yanglig‘ gul yuzung hajrida sarg‘ardim,
Qo‘rub rahm aylagil, ey lola ruh, bu ***chehrai zardim***.

Bu ***chehrai zardimdin*** uyolsang, netgay?
Rahmat nazarini manga solsang, netgay?

SHoir mahbuba qiyofasini tasvirlashda esa *hud, moh malak*, *mahvash*, *pari*, *hur* kabi o‘zaro ma’nodosh so‘zlardan foydalangan:

Ne lutf edi, dey, ***huri parizod*** etting,
Go‘yoki buzuq Ka’bani obod etting!

Ushbu baytda ifodalangan forsiy *pari* (juda go‘zal), arabiy *hur* (juda chiroyli) kabi o‘zaro ma’nodosh so‘zlar fikrimizga dalil bo‘la oladi. Mazkur bayt ishqiy mavzuda bo‘lib, hajrdan qiynalgan oshiq holati o‘xshatish vositasida yorqin, aniq va ta’sirli ifodalangan: «Baytdagi izohtalab so‘zlar quyidagilar: *hur - ozod, erkin; mustaqil; erksevar; asil, toza* ma’nolarini anglatadi. Islom an’anasi va Qur’onga ko‘ra, taqvodorlar bilan birgalikda jannatda yashaydigan, jismoniy va ma’naviy kamchiliklardan xoli bo‘lgan nihoyatda go‘zal qiz(lar). K*o‘chma* ma’noda juda chiroyli, go‘zal, nozanin qiz ma’nolarini bildiradi. *Pari* forscha so‘z bo‘lib, *«go‘zal ayol», «yaxshilik qiluvchi ruh»* ma’nolarini anglatadi. *Pari* – SHarq xalqlari folklorida keng tarqalgan, juda go‘zal qiz qiyofasidagi, nurdan yaratilgan, kishilarni insu jinsdan saqlaydigan afsonaviy obraz, go‘zallik ramzi

[NAL, 222]. Koʻchma maʼnoda esa «juda goʻzal», «xushroʻy ayol», «nozanin» maʼnolarini bildiradi. Shu bilan birga parilar afsun kuchiga ega deb tasavvur qilinadi, yor maʼnosida qoʻllanganda ham ayni shu semasini saqlab qoladi. Pari soʻziga –zod qoʻshimchasi qoʻshilishi natijasida «pariga oʻxshash», «farishtadek muloyim», «suluv» kabi maʼnolarini anglatadi. Z.M. Bobur oshiq lirik qahramonning holatini tasvirlashda *bechora, nochor, xasta, dardmand, bemor* kabi oʻzaro maʼnodosh soʻzlardan keng foydalangan. Masalan:

Mendin oʻzga ***xastalarg'a*** laʼlidin darmon berur,
Men berurmen jonu ul umr oʻzgalarga jon berur.
Oshiqi men, ul qilur agʻyorgʻa maxbubluq,
Dardmandi men, vale ul oʻzgaga darmon berur.

Mazkur baytda keltirilgan forsiy *xasta* va *dardman* soʻzining koʻchma maʼnosi oʻzaro maʼnodoshdir. Baytdagi forsiy *xasta* oʻz maʼnosida emas, balki koʻchma maʼnosida qoʻllanilgan. Mazkur soʻzning bosh maʼnosi "*biror kasallikka chalingan, kasal, kasalmand"* (OʻTIL, II, 318-b.) boʻlib u shuningdek, "*qiynalgan, azoblangan, dardli, qaygʻuli, gʻamgin*" (OʻTIL, II, 318-b.) koʻchma maʼnoni ham ifodalaydi. Dardman-ogʻriqli, kasal; gʻamgin| Kasallanib turuvchi, kasallik asoratlari boʻlgan; kasalmand inson maʼnosini bildiradi. SHoir lirik qahramonning ishq yoʻlida chekkan azob-uqubatlari, qaygʻu-hasratlarini tasvirlar ekan, forsiy *dardman* soʻzini *xasta* soʻzining koʻchma maʼnosiga matniy maʼnodosh sifatida qoʻllaydi.

Necha ***devona*** koʻnglumni qilursen nafy, ey oqil,
Agarchi ***telbadur***, bori seningdek xudpisand ermas.

Devona soʻzi forscha soʻz boʻlib, "Oʻzbek tilining izohli lugʻati" uning bir necha maʼnolari izohlangan:1.*Aqldan ozgan, esi past; telba, savdoyi*; 2. diniy jihatdan. *Allohning vasliga etishish umidida zikru samoga berilib, bu dunyo ishlaridan voz kechgan sufiy, darveshsifat odam*. 3. koʻchma maʼnoda *biror maqsad, harakatga tamoman berilib, es-hushidan ajralgan inson* 4. *Xayr-sadaqa bilan kun koʻruvchi; gado, tilanchi* [OʻTIL, 156]. *Telba* soʻzi esa sifat soʻz turkumiga mansub boʻlib, "Oʻzbek tilining izohli lugʻati"da uchta manosi izohlangan: 1.*Aqldan ozgan, devona, jinni;* 2. *Biror narsaga, kimsaga ortiq darajada berilgan; savdoyi, shaydoyi;* 3. *Telbaga xos, telbalikni aks ettiruvchi; manosiz* [OʻTIL, 119] Ushbu misrada gʻayriodatiy, normal odamga xos boʻlmagan xarakatlar qilmok, noodatiy xolatlarda boʻlmoq manolarda kelgan.

Shoir sheʼriyatida ifodadagi ekspressivlik, taʼsirchanlikni yanada oshirish maqsadida qoʻllanilgan maʼnodosh soʻzlar ham talaygina. Ular: *jafo-azob-uqubat* (arabiy-arabiy-arabiy); *javr-azob-aziyat-zulm* (arabiy-arabiy-arabiy-arabiy); *afgʻon-nola-faryod-figʻon* (forsiy-forsiy-forsiy forsiy); *xor, zor*(forsiy-forsiy) va boshqalardir. Misol:

Shoir sheʼriyatida takrordan qochish maqsadida qoʻllanilgan maʼnodosh soʻzlar talaygina uchraydi. Chunonchi, *zanjiru band* (forsiy-forsiy), *javr-jafo* (arabiy-arabiy), *yurak-koʻngil* (umumturkiy-umumturkiy), *quyosh, xurshid, kun* (umumturkiy-forsiy-umumturkiy*), xat-noma* (arabiy-forsiy), *shod, hurram* (forsiy-arabiy*)* va boshqalar shular jumlasidandir.

Forsiy *dard* soʻzi oʻz lugʻaviy maʼnosida «ogʻriq, kasallik»ni ifodalaydi. U tilda koʻchma, yaʼni *"ruhiy azob, gʻam-gʻussa, alam-hasrat"* [OʻTIL, 210] maʼnolarda ham keng qoʻllaniladi. Z.M. Bobur sheʼriyati tilida ham shu holatni kuzatish mumkin:

Gʻamu dardu alam bila toʻldum,
Oxirul-amr noumid oʻldum.

Dard soʻzi baytda koʻchma maʼnoda arabiy *gʻam* va *alam* soʻzlariga maʼnodosh boʻlib kelgan. Sheʼr mazmuniga eʼtibor qaratsak, lirik qahramon
bevafo mahbubasiga qarata shunday xitob qilayotganligini anglash mumkin: Baytda lirik qahramonning ishq yoʻlida chekayotgan ruhiy azoblari nazarda tutilgan maʼnodosh soʻzlar vositasida aniq tasvirlangan. Mazkur maʼnodosh soʻzlar shoirning boshqa gʻazallarida ham yuqoridagidek takror-takror qoʻllanilgan. Fikrimizning dalili sifatida shoirning quyidagi baytini keltirib oʻtamiz:

Andin berikim, qasdim uchun turdi firoq,
Yuz ***dardu alamu gʻamni*** manga etkurdi firoq.

Anglashiladiki, mazkur ma’nodosh so‘zlar bir misrada takror qo‘llanilgan, faqat o‘rni o‘zgargan, xolos. Shoir ayrim g‘azallarida *alam* ma’nodosh so‘zini arabiy *hasrat* va *firoq* so‘zi bilan kelganligi yoki almashtirgan o‘rinlarni ko‘rishimiz mumkin.

Z.M. Bobur she’rlarida qo‘llanilgan ma’nodosh so‘zlarning quyidagi genetik turlari mavjud:

1. Turkiy-forsiy-arabiy so‘zlardan iborat ma’nodosh so‘zlar: *kishi-mardum- odam, tangri-xudo-haq, so‘z -kalom, ko‘ngil-dil* va h.k.

2. Turkiy-forsiy so‘zlardan iborat ma’nodosh so‘zlar: *ko‘z-chashm, qosh-abru, to‘g‘ri-rost, yomon-bad, yorug‘-ravshan, yo‘l-roh, yomon-bad, un-ovoz* va boshqalar.

3. Turkiy-arabiy so‘zlardan iborat ma’nodosh so‘zlar: *bola-tifl, boshqa-g‘ayr, ko‘mak-madad* va h.k.

4. Forsiy-arabiy so‘zlardan iborat ma’nodosh so‘zlar: *amnu farog‘at, ziyon-zarar, nishon-alomat, ravshan-ayon, baxt-saodat, gumon-shubha, darmon-davo, jahon-olam, pushaymon-taassuf* va boshqalar.

Z.M. Bobur she’riyatida turkiy-turkiy, arabiy-arabiy, forsiy-forsiy ma’nodosh so‘zlar ham mavjud. Chunonchi, turkiy-turkiy sinonimlarga *al- qo‘l, boshqa-o‘zga, boqmoq-ko‘z solmoq, yaqin-yovuq*; forsiy-forsiy sinonimlarga *jahon-charx, xor-zor, bedod-jafo, toza-pokiza, tan-badan, go‘sha-kunj;* arabiy-arabiy sinonimlarga *nomus-or, nur-ziyo, soyir-g‘ayri, faqir- miskin, ruxsat-ijozat, sabab-vajh* kabilarni aytib o‘tish mumkin.

Shoir badiiy asarlarida sinonimik qatorni hosil qiluvchi so‘zlarning asosiy qismini ot va sifatlar bilan ifodalanadi:

Z.M. Bobur nazmiy asarlarida ot so‘z turkumi bilan ifodalangan sinonimlar, asosan, mavhum tushunchalar, shaxs nomini ifodalab keluvchi so‘zlar, osmon jismlari, narsa nomlarini ifodalab keluvchi sinonim so‘zlar bilan kelgan juda ko‘p baytlarni ko‘rishimiz mumkin. Chunonchi :

Xushturur visoli yor, anda bo‘lmasa dayyor,
Bo‘lsa vasl beag‘yor ***davlatu saodat*** tut!

SHoir she’riyatida mavhum tushunchani ifodalab keluvchi ma’nodosh so‘zlar talaygina uchraydi. Chunonchi***:*** *pandu nasihat, toqatu sabr, jangu jadal, ranju riyozat, firoqu g‘urbat* va boshqalar*;*

Z.M. Bobur ijodida shaxs nomini ifodalab keluvchi manodosh so‘zlar, asosan, yorni yoki oshiqni ifodalab kelganligini ko‘rimiz mumkin. Masalan, *devona-telba, xasta-dardman, hur-pari-malak-moh-mahvash* va boshqalar.

Shoir she’riyatida osmon jismlarini ifodalab keluvchi ma’nodosh so‘zlarga *oy-hilol, quyosh-kun–xurshid-qamar, ko‘k-samo* kabi so‘zlar kelganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan:

Xurshid yuzung birla bu kun, ey maxi tobon,
Da’vo gar etar bo‘lg‘usi ***kun***, so‘ngra pushaymon.

Ko‘k dusmada ul oy qoshi go‘yo xayoldur,
E ***oy*** boshida ko‘kta ko‘rungan ***hnloldur***.

Z.M. Bobur xalqning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga bevosita yaqin va o‘zaro aloqador bo‘lgan ma’nodosh narsa-buyum otlarini she’riy baytlarida go‘zal tarzda ishlatgan. Bunga doir misolni quyida keltirib o‘tamiz:

Bo‘lubmen bir parining anbarin sochig‘a vobasta,
Meni telbaga emdi hojati ***zanjiru band*** ermas.

Baytni tavsif qiladigan bo‘lsak, oshiq sevgidan telba bo‘lganligi, hatto go‘zal paridek yorning anbar (xushbo‘y) sochlariga zanjiru band bo‘lganligini aytmoqda, ya’ni unga asir bo‘lgan. Ushbu baytda kelgan *zanjuru band* ma’nodosh so‘zlari o‘z ma’nosida emas, balki ko‘chma ma’noda kelgan. Tahlillar shuni ko‘rsattiki, shoir ijodida narsa-buyum otlariga *durru gavhar, xat-noma, gul-chechak* kabi so‘zlar sinonim bo‘lib kelgan.

Qosh yoshimni xajrida, she’rimni vasfida ko‘rung —
Kim, bu yanglig‘ ***durru gavhar*** qaysi bahru kon berur?

Z.M. Bobur she’riyatida sifat so‘z turkumi bilan ifodalangan sinonimlar, asosan, *belgi-xususiyatni, hajm-o‘lchovni* ifodalab keluvchi sinonim so‘zlar bilan kelgan baytlarni ko‘rishimiz mumkin. Chunonchi :

Yangi oy yor yuzi birla ko‘rub el ***shodu xurramlar,***
Manga yuzu qoshingdin ayru bayram oyida g‘amlar.
Egma qaddnm ayb qilma qoshi yolar ishqida,
Yangi ondek xam bo‘lur, gar xud falak toqi durur.

Xulosa sifatida shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zbek tilining barcha imkoniyatlaridan samarali foydalanib, milliy adabiyotimizni, xususan, she’riyatimizni yangi, o‘ziga xos badiiy ruh, mazmun bilan boyitdi, bir so‘z bilan aytganda, uni yuksaklikka olib chiqdi. SHoir badiiy asar ta’sirchanligini va badiiyligini oshirishda sinonimlardan keng foydalangan. Bobur she’riyati tilida turkiy (o‘zbekcha)-turkiy (o‘zbekcha), arabiy-arabiy, forsiy-forsiy, turkiy- forsiy-arabiy, turkiy-forsiy, turkiy-arabiy, forsiy-arabiy sinonimlar mavjud. Bundan tashqari shoir sinonim so‘zlardan o‘ziga xos, san’atkorona tarzda foydalangan va shular asosida umri boqiy, badiiy-estetik qiymati yuksak asarlar yaratishga erishgan. Chinakam xalqona til vositalari, chunonchi, sinonimlar shoir uchun akatta imkoniyatlar manbai bo‘lib xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fitrat. Adabiyot qoidalari. Tanlangan asarlar. V jildlik. -Toshkent: Ma’naviyat, 2006. -IV jild. –B. 11-88.
2. Abdurauf Fitrat. Tilimiz / CHin sevish. -T.: Adabiyot va san’at, 1996. –B. 237-242.
3. Abdurahmonov G‘. O‘zbek xalqi va tilining shakllanishi haqida. -T.: 1999. –B. 7-10.
4. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. -T.: Fan, 2000. -16-tom.
5. Ahmedov B. O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari. -T.: O‘qituvchi, 1991.
6. Bafoyev B. Navoiy asarlarida sinonimlar // O‘zbek tili va adabiyoti. –
Toshkent: 1980. -№ 6.
7. Ne’matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. T.: Fan,1995;
8. Olimov M. «Boburnoma»da qo‘llangan sinonimlar lug‘ati. -Toshkent: Fan, 2004.
9. Rahmatullaev SH. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. -Toshkent: Universitet, 2000.
10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. V jildli. / A.Madvaliyev tahriri ostida. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006- 2008.
11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikki tomli. / Z.M. Ma’rufov tahriri ostida. –Moskva: Rus tili, 1981.
12. Hojiev A. O‘zbek tili sinonilarining izohli lug‘ati. -T.: O‘qituvchi, 1974.
13. Z.M. Bobur. Devon //Toshkent: Fan, 1994, -144 b

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR SHE’RIYATIDA SHAKLDOSH SO‘ZLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATI

Sayidova Gulrux Yoqubovna
Buxoro davlat universiteti
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Annotatsiya. *Maqolada jahon badiiy tafakkuri taraqqiyotida alohida o‘ringa ega Zahiriddin Muhammad Bobur nazmiy asarlaridagi omonim so‘zlarning leksik-semantik xususiyati tadqiq qilingan. Z.M. Bobur badiiy asar ta’sirchanligini va badiiyligini oshirishda omonimlardan keng foydalanganligi, shoir o‘z she’rlari tilini yaratishda ulardan o‘ta mohirlik bilan foydalanganligi aniqlandi. Tajnis san’atini voqealantiruvchi lug‘aviy omonimlar shoir nazmida muhim ahamiyatga ekanligi, shu nuqtayi nazardan shoir poeziyasida bu san’atning tajnisi tomm, tajnisi zoyid, tajnisi muzori’, tajnisi aks, tajnisi xatti, tajnisi murakkab kabi turlari qo‘llanilgan.*

Tayanch tushunchalar: *omonim, tajnis san’ati, leksik-semantik, tajnisi tomm, tajnisi zoyid, tajnisi muzori’, tajnisi aks, tajnisi xatti, tajnisi murakkab, mumosil tajnis;*

Абстрактный. *В статье рассматриваются лексико-семантические особенности омонимов в поэтических произведениях Захириддина Мухаммада Бабура, занимающих особое место в развитии мирового художественного мышления. З.М. Установлено, что Бабур широко использовал омонимы для повышения эффектности и художественности произведения, а поэт весьма умело использовал их для создания языка своих стихов. В поэзии поэта важное значение имеют лексические омонимы, создающие искусство таджниса, с этой точки зрения в поэзии используются виды таджнис томм, таджнис зайид, таджнис музори', тайнис акс, таджнис хата, комплекс таджнис. поэзия поэта.*

Основные понятия: *омоним, искусство тайниса, лексико-семантика, тайнис томм, тайнис зойид, тайнис музори', тайнис акс, поведение тайниса, комплекс тайниса, мумосил тайнис;*

Abstrakt. *The article examines the lexical-semantic features of homonyms in the poetic works of Zahiriddin Muhammad Babur, who have a special place in the development of world artistic thinking. Z.M. It was found that Babur widely used homonyms to increase the effectiveness and artistry of the work of art, and the poet used them very skillfully to create the language of his poems. The lexical homonyms that create the art of tajnis are important in the poetry of the poet, from this point of view, such types of tajnis tomm, tajnis zayid, tajnis muzori', tajnis aks, tajnis khawat, and tajnis complex are used in the poet's poetry.*

Basic concepts: *homonym, art of tajnis, lexical-semantic, tajnis tomm, tajnis zoyid, tajnis muzori', tajnis aks, tajnis behavior, tajnis complex, mumosil tajnis;*

Tildagi barcha so‘zlarning yig‘indisiga, so‘z jamg‘armasiga vokabulyar deyiladi. Har bir tilning vokabulyaridan munosib o‘rin tutgan so‘zlar doimiy ravishda bir–birlari bilan paradigmatik (o‘xshashlik) va sintagmatik (qo‘shnichilik) munosabatlarda bo‘lib turadi. Shunga ko‘ra ularni bir necha guruhga bo‘lib yuborish mumkin. So‘zlar aytilishi, yozilishi va ma’nosi jihatidan turlicha guruhlarga birlashishi qonuniy sanaladi. Shulardan biri omonimiya (shakldoshlik) hodisasidir [14, 1975].

Aytilishi va yozilishi jihatidan bir xil, ammo ma’nosiga ko‘ra bir-biridan keskin farqlanib turadigan so‘zlarga omonimlar deyiladi. Bu so‘z grekcha homos-bir xil, onuma—nom so‘zlaridan olingan. So‘zlardagi shakldoshlik hodisasiga omonimiya deyiladi. Omonimlarda tubandagi ikki jihat uni boshqa shakldoshlik hodisalaridan keskin farqlab turadi. 1.Akustik – artikulyatsion tomondan omonim so‘zlar bir xil xossaga ega bo‘ladi, ya’ni o‘xshash talaffuz qilinadi va eshitiladi. Masalan: qirq (son) - qirq (harakat), uch (coat)—uch (harakat), ot (nom) —ot (hayvon) —ot (uloqtir) kabi. 2. Grafik jihatdan ham ular bir xil tizimga ega kul (ot) —kul (harakat), yon (tomon)—yon (yonmoq) fe’lining buyruq–istak mayli) va hokazo. Bunday omonimlarga haqiqiy yoki to‘liq omonimlar deyiladi. Lug‘aviy omonimiya lug‘aviy birliklarning ifoda planida o‘zaro bir–biriga teng kelishi sanaladi. Ifoda plani teng leksemalar esa omoleksemalar atamasi bilan yuritiladi: o‘t (olov)—o‘t (maysa), tut (daraxt) —tut (ushla), quloq (organizm)—quloq (mushtumzo‘r) kabi.Shuningdek, grammatik omonimlar ham farqlanadi. Masalan –chi (so‘z yasovchi qo‘shimcha), –chi (yuklama), –ma (ot yasovchi qo‘shimcha), –ma (shakl yasovchi qo‘shimcha). Leksik omonimiya hodisasini keltirib chiqaruvchi sabablar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin [14, 1975].

1. Ko‘p ma’noli so‘zning ayrim ma’nolari o‘rtasidagi aloqadorlik yo‘qolib, ular shakldosh so‘zlarga aylanib qolishi mumkin. Masalan: dam, tepki, suzmoq kabi.

2. Boshqa tillardan kirgan so‘zlar o‘zbek tilidagi so‘zga o‘xshash bo‘lib qolishi kuzatiladi. Masalan: bog‘ (o‘zbekcha: tugilgan narsa, to‘plash)—bog‘ (tojikcha: mevali daraxtlar o‘sgan joy), chor (tojikcha -o‘zbekcha: to‘rt) — chor (tsar) Rossiyasi kabi.

3. Substantivatsiya (otlashish), ad’ektivatsiya (sifatlashish) va adverbializatsiya (ravishlashish) hodisalari, ya’ni konversiya yordamida ham omonimlar hosil qilinadi. Chaqmoq, quymoq, yigirma, qirq; shayton, tulki, qo‘y, erta, kech kabi.

Omonimlar haqida E.V.Sevortyan fe'l-ot tipli o‘zaklar deb fikr bildirsa qirg‘iz olimasi B.O.Oruzbayeva bir o‘zakli omonimlarni turkiy tillardagi qadimiy so‘z yasash usullaridan biri deya ta'kidlaydi boshqa bir qator olimlar esa ominimlarni bir so‘z turkumiga xos so‘zning boshqa turkumga o‘tishi natijasi, ya'ni konversiya deb ataydilar. Asosan, ruscha-baynalmilal so‘zlar o‘zlarining aytilishi va yozilishiga ko‘ra o‘zbekcha so‘zlarga nisbatan omograflar bo‘lishi mumkin. Omograflar va omofonlar bilan birgalikda omoformalar, ya'ni grammatik shakliga ko‘ra bir–biriga to‘g‘ri keluvchi, lekin ma'nosi farqlanuvchi Grammatik omonimlar —omoformalar ham mavjud, Olma (meva) - olma (harakat), qarg‘a (qush)-qarg‘a (dag‘al so‘z, so‘kish) bung misol bo‘la oladi. Umuman olganda omofon, omograf, omoformaga to‘liq bo‘lmagan omonimlar deb qarash kuchli [6, 1995].

Ayonki, Sharq nazmida, chunonchi, o‘zbek she'riyatida omonimlar muhim ahamiyat kasb etgan. Shaklan bir xil, biroq boshqa-boshqa ma'nolarni ifodalovchi omonimlar she'riyatda nozik so‘z o‘yinlarini ishlatish, so‘zlarning ohangdoshligini oshirish, qofiyalarni tugal voqelantirishga keng imkon beradi. Ular muayyan fikr, lavha yoki timsolni ta'sirchan ifodalashning muhim vositalaridan biri sanaladi. Omonimlarning ana shu xususiyatlarini teran anglagan Z.M. Bobur o‘z she'rlari tilini yaratishda ulardan o‘ta mohirlik bilan foydalangan. Masalan, shoirning quyidagi baytiga e'tibor qarataylik:

Tiya olmon yig‘ini ko‘rgach ***ul yoshni***, vale, ul ham
Ko‘zum yoshini ko‘rgach, asray olmas o‘zni kulgudin.

Shoir mazkur baytida omonimik xususiyatli so‘zlardan mohirlik bilan foydalangan. Baytning ikki misrasida omonim so‘zlarning kelishi uning ta'sirchanligini, shubhasiz, oshirgan. Birinchi misradagi *yosh* so‘zi *"inson hayotidagi bosqich, davr, umr"* [O‘TIL, 264] ma'nosi bilan bir qatorda, shoir nazdida mahbuba, yorni nazarda tutmoqda [O‘TIL, , 264] Ikkinchi misradagi *yosh* so‘zi esa *"qattiq og‘riq, qayg‘u yoki kuchli sevinch-shodlik va shu kabilarnatijasida ko‘z bezlaridan ajralib chiqadigan tiniq suyuqlik"* [O‘TIL, I, 264] ma'nosini ifodalaydi.

She'r mohiyatiga chuqurroq va teranroq yondashsak, oshiq suyukli yorini ko‘rgach ko‘z yoshlarini tiya olmaydi. Yor oshiqning bu holatini ko‘rib kulgudan o‘zini tiya olmaydi. Biz bilamizki, mumtoz adabiyotda, asosan, yorni ko‘klarga ko‘tarish, oshiqni esa ishqda azoblangan, telba, g‘arib, bechoradek tasvirlash an'ana tusiga kirgan edi. Shu o‘rinda ta'kidlash kerakki, ushbu misralarda bir vaqtning o‘zida ham tajnis san'ati, ham tazod san'ati yuzaga kelgan. Ya'ni yorning kulish holatiga zid tarzda oshiqning yig‘lashi tasvirlangan.

Alohida ta'kidlash joizki, buni yuqorida ham aytib o‘tgan edik, o‘zbek tili shakldosh so‘zlarga nihoyatda boy. Jumladan, umumturkiy qatlamga oid *oy* so‘zi shunday lug‘aviy birliklar jumlasiga kiradi. U qadimgi turkiy lug‘atlarda *aj* shaklida ifodalangan bo‘lib, asosan, uchta ma'noga egaligi aytilgan: *aj* I Quyoshdan nur olib, yog‘du sochuvchi samoviy jism; *aj* II Astronomik yilning o‘n ikkidan biriga – Oyning Quyosh atrofidan bir marta aylanib chiqish muddatiga teng vaqt, o‘lchov birligi yoki kunlik davr; *aj* III Xizmatkor.1 Qadimgi turkiy til leksikasida qo‘llangan *oy* so‘zining uchinchi ma'nosi (*xizmatkor*) eski o‘zbek adabiy tilining dastlabki taraqqiyot bosqichlarida iste'moldan chiqqan. Alisher Navoiy badiiy asarlarida *oy* so‘zining uchinchi ma'noda qo‘llanishi kuzatilmaydi. Anglashiladiki, u arxaiklashgan, uning o‘rniga qatlam nuqtai nazardan arabcha va forscha bo‘lgan *xizmatkor* so‘zi faol qo‘llanilgan. «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da ham *oy* so‘zining, asosan, ikkita 1. Samoviy jins; 2. Vaqt, o‘lchov birligi ma'no ifodalashi qayd etilgan. Xuddi shu holat Bobur she'riyatida ham kuzatiladi. Masalan, uning

Ul yuzi quyoshki, bordur ***oydin*** afzun,
Husn ichra ul ***oy*** ollida xurshid zabun.
To bir kun ul ***oydin*** navozish topqay,
Ko‘k doira bo‘ldi-yu, jalojil ***oyu*** kun.

baytidagi birinchi misrasida qo‘llangan *oy* so‘zi samoviy jism ma'nosini, ikkinchi va uchunchi misrada qo‘llangan *oy* so‘zi esa majoziy yor ma'nosida, to‘rtinchi misrada qo‘llangan oy so‘z`zi vaqt, o‘lchov birligi ma'nosini ifodalaydi.

O‘zbek tili tarixining barcha taraqqiyot bosqichlarida faol iste’molda bo‘lgan *ko‘k* omonim so‘zidan ham Z.M. Bobur keng foydalangan. Mazkur so‘z qadimgi turkiy tilda quyidagi ma’no-tushunchalarni bildirgan:1 *kök* I Osmon koinot; *kök* II 1. Ovqatga solinadigan ba’zi ildizli ko‘katlar; 2. Asos, negiz, tayanch; *kök* III Erk, erkin, ozod, mustaqil; *kök* IV Egar plankasi yoki egar taxtachasi; *kök* V Chok, baxya, ko‘k, tikilgan joy; chok chizig‘i, chok chiziq; *kök* VI Ko‘k rang; *kök* VII Ko‘zning rangdor pardasi (ko‘k ko‘z); *kök* VIII Qush nomi; *kök IX* Erkak mushuk nomi; *kök* X Biror shaxsning xizmati uchun beriladigan nom; unvon. Alisher Navoiy badiiy asarlarida esa mazkur shakldagi so‘z vositasida quyidagi ma’nolar ifodalangan: *ko‘k* I 1. Osmon, ko‘k; 2. Ko‘k rang; *ko‘k* II 1. Tovushlar mosligi, ohang, soz; 2. Muzikada ohang, kuy.1 «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da esa *ko‘k* so‘zi ifodalagan ma’nolar quyidagicha izohlangan: *ko‘k* 1. Tiniq osmon rangidagi; moviy, zangori; *ko‘k* 2. Er ustida gumbaz shaklida ko‘rinib turadigan havo qatlami; osmon; *ko‘k* 3. O‘sayotgan o‘t-o‘simlik, o‘t-o‘lan; maysa, ko‘kat; *ko‘k* 4. Kashnich, janbil, ukrop kabi ovqatga qo‘shib eyiladigan rezavor o‘simliklar, ko‘kat.2 Z.M. Bobur she’riyati tilida esa *ko‘k* omonimi quyidagi ma’nolarda qo‘llangan:

ko‘k I – osmon:

Necha etkurgaysen el boshini ***ko‘kka*** mehr ila,
Necha meni javrdin er birla yakson qilg‘asen?

ko‘k II – ko‘k rang:

Mehrkim***, ko‘kka*** qilur ohang tong,
Ollida bo‘lsa, emas berang tong.

Bundan tashqari Bobur ijodida *chang* so‘zidan faol foydalangan. *CHang* so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ifodalagan ma’nolar quyidagicha izohlangan: I. *chang*- mayda zarra, kukun holidagi tuproq yoki boshqa moddalar; gard, to‘zon: II. *chang*- qutisimon trapetsiya yoki yoy shaklidagi, sim torlar tortilgan, tirnama yoki qo‘sh cho‘p bilan urib chalinadigan jarangdor cholg‘u asbobi: III. *Chang* - panja, tirnoq; changal; barmoqlar bukilgan kaft [O‘TIL, 347]. SHoir she’riyati tilida esa *chang* omonimi quyidagi ma’nolarda qo‘llangan:

chang I– panja, changal (chang solmoq)

Telba ko‘nglumkim, sening ***changingdadu***r, yod aylagil,
Bir navozish birla ko‘nglumni mening shod aylagil!

chang II– *sim torlariga qo‘sh cho‘p bilan urib chalinadigan musiqa asbobi*

Ishrat ichra har qachonkim, ***chang olsang*** ilginga,
Furqatingda qolgon egri qomatim yod aylagil.

chang III– *mayda zarra tuproq*

Soz aylab bir nishotangez ***chang***, ey dilrabo,
Benavo ko‘nglumni g‘am ***changidin*** ozod aylagil.

Badiiy adabiyotda omonim so‘zlardan foydalanish alohida janr — tuyuq janrining vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Shakldosh so‘zlar aytilishi va eshitilishi bir xil, ammo ma’nolarining boshqa-boshqa bo‘lganligi tufayli jumlalar ichida aniqlanadi va uning xilma-xilligini ta’minlashga xizmat qiladi. [7, 85-86] Ayonki, tuyuq o‘zbek va ayrim boshqa turkiy xalqlar mumtoz adabiyotidagi tajnisli qofiya asosida, aruzning ramali musaddasi maqsur vaznida yaratiladigan to‘rt misradan iborat she’riy janrdir. U dastlab xalq og‘zaki ijodida yuzaga kelgan bo‘lib, keyinchalik yozma adabiyot vakillari tomonidan tajnis san’ati vositasida mumtoz adabiyotga o‘tgan. [7, 85-86] Tajnis (yoki jinos) she’r baytida ma’no jihatidan har xil, ammo shakli bir xil yoki shaklan bir-biriga yaqin ikki so‘zni keltirib, ular vositasida muayyan fikr, lavha yoki timsolni ta’sirchan ifodalash san’atidir. [7, 85-86]

Adabiyotshunoslarning ta’kidlashicha, tajnis poeziyamizning badiiyligini ta’minlovchi asosiy san’atlardan biri hisoblanadi. U tilimizning rivojlanishi qonuniyatlari bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanib keldi. SHuni ham aytib o‘tish kerakki, tajnis qo‘llash shoirning poetik mahoratiga, o‘z tilining imkoniyatlarini ilg‘ab olishga va qolaversa, poetik maqsadga bog‘liqdir. [11, 98] Tajnis san’atini voqealantiruvchi lug‘aviy omonimlarning badiiy adabiyotda, ayniqsa,

nazmdagi ahamiyati kattadir. Ular badiiy adabiyotda uslubiy xususiyat kasb etib, kitobxonning diqqatini jalb etishda muhim o‘rin tutadi. Ayonki, tajnis so‘zning ichki, tashqi shakli bilan aloqador san’atlardan biridir.[12, 62] O‘zbek mumtoz poeziyasida bu san’atning quyidagi turlari qo‘llanilgan: tajnisi tomm, tajnisi murakkab, tajnisi zoyid, tajnisi muzori’, tajnisi xatti. [11, 98] Tajnis san’atining bu turlarini Z.M. Bobur poetik asarlarida ham kuzatish mumkin. Ularni tahlil qilishga harakat qilamiz.

Tajnisi tomm. Ikki so‘z ham unli, ham undoshlar jihatidan (arab yozuvida esa nuqtalari va harakatlari jihatidan ham) bir-biriga to‘la mos bo‘lib tushsa, bu xil tajnislarni *tajnisi tomm, ya’ni to‘liq tajnis* deb yuritiladi. [12, 62] Masalan

Ol yuzi ko‘z yoshimni qon qildi,
Ko‘rgach-o‘q deb edimki, ***ol*** qilur.

Ushbu she’riy baytda kelgan *ol* so‘zi “Navoiy asarlari izohli lug‘ati”da quyidagi ma’nolarda ifodalangan: I. *ol*-qizil, to‘q qizil: II. *ol*-hiyla, aldash; III. *ol*- oila, xonadon, zurriyot, sulola; IV. *ol*-olmoq, bahralanmoq [NATIL, 346]. Ushbu baytning birinchi misrasida kelgan *ol* so‘zi mahbubaning yuzining rangi qizil, to‘q qizil ma’nosida kelgan bo‘lsa, ikkinchi misradagi *ol* so‘zi hiyla, aldash ma’nosini ifodalagan. Biz keyingi baytimizda bir vaqtning o‘zida ikkita tajnisning tajnisi tom ko‘rinishi kelganligini tahlillarda ko‘rishimiz mumkin:

Ne tong***, yuz*** nigor o‘lsa qon ***yosh*** bila —
Ki, ul ***yuzi*** gul ***yosh*** nigorim qani?

Misralarda *yuz* va *yosh* so‘zlari omonimik qatorni hosil qilgan bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *yuz* I - boshning burun, og‘iz joylashgan old qismi, aft; II. *yuz-o*o‘nta o‘nlikka teng miqdor [O‘TIL, 246]. Ushbu baytning birinchi misrasida *yuz* so‘zi *son miqtor* ma’nosida, ikkinchi misrada esa *yorning yuzi* ma’nosida kelgan. Keyingi omonim so‘zimiz *yosh* so‘zi bo‘lib**,** “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *yosh I* - qayg‘u yoki sevinch ta’sirida ko‘z bezlaridan ajralib chiqadigan tiniq suyuqlik [O‘TIL, 167]. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu ot ya:sh tarzida talaffuz qilingan [O‘TIL, 162], keyinroq a: unlisining cho‘ziqlik belgisi yo‘qolgan; o‘zbek tilida a unlisi â unlisiga almashgan: ya:sh >yash >yât . Bu so‘z asli nam ma’nosini anglatgan: köz yashï (ko‘zning nami’) —> yash (ko‘zdan ajralib chiqadigan suyuqlik); *yosh II* - yaqinda vujudga kelgan, hali ko‘p yashamagan [O‘TIL, 167]. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu sifat ya:sh tarzida talaffuz qilingan [O‘TIL, 162),, keyinroq a: unlisining cho‘ziqlik belgisi yo‘qolgan (o‘zbek tilida a unlisi â unlisiga almashgan: ya:sh >yash >yâsh; *yosh III* - bir yilga teng umr[O‘TIL, 167]. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu ot ya:sh tarzida talaffuz qilingan[O‘TIL, 162].

Ushbu baytning birinchi misrasida *yosh* so‘zi qayg‘u yoki sevinch ta’sirida ko‘z bezlaridan ajralib chiqadigan tiniq suyuqlik ma’nosida, ikkinchi misradaa esa *yosh*-hali ko‘p yashamagan inson ma’nosida kelgan.

Ne tong, qotinda agar bo‘lsa la’lu dur toshu tufroq —
Ki, ma’dani ***karamu*** judu bahri lutfu saxodur.

Agarchi dahr alamidin to‘kuldi seli sirishkim,
Valek shah ***karamidin*** umidim asru to‘lodur.

Birinchi misradagi *karam* so‘zi arabiy bo‘lib, “yaxshilik, saxiylik qiluvchi kishi” [O‘TIL, 368] ma’nosida, keyingi misradagi *karam* esa arabcha o‘zlashma so‘z bo‘lib, “rahm-shavqat, muruvvat qilmoq, siylamoq” (O‘TIL, I, 368-b.) ma’nosida istifoda etilgan.

Jong‘a soldi da’f g‘urbat ***norini,***
Ko‘z yoshim bo‘ldi mo‘g‘ulning ***norini.***
Bu aroda men degandek bo‘lmasa,
Ko‘zlay Issig‘ko‘lu andin ***norini***.

Ushbu she’riy baytda kelgan *nor* so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagi ma’nolari izohlangan: *Nor* I- bir o‘rkachli erkak tuya; *nor* II- (forsiy) tamg‘a, belgi; badandagi tug‘ma qizg‘ish dog‘; *nor* III – (forsiy) anor daraxti va mevasi; *nor* IV – olov, yong‘in; do‘zax (ktb) o‘t,

olov. [O‘TIL, 56]. Baytimizning birinchi misrasidagi *nor* so‘zi o‘t, olov ma’nosida, ikkinchi misradagi anor daraxti va mevasi ma’nosida, so‘nggi misradagi nor so‘zi esa bir o‘rkachli erkak tuya ma’nosida kelgan. Nazarda tutilgan uchala so‘z ham bir so‘z turkumiga, ya’ni ot so‘z turkumiga xos. Shakldosh ikkita yoki uchta so‘z bir xil so‘z turkumiga mansub bo‘lsa, **mumosil tajnis**ni hosil qiladi. [12, 62] Bu kabi tajnislar Z.M. Bobur she’riyatida ko‘p uchraydi. To‘liq shakldosh so‘zlar ikki xil so‘z turkumiga mansub bo‘lsa, ***mustavfiy tajnisni*** yuzaga keltiradi. Bu kabi tajnislardan Bobur go‘zal tarzda foydalangan. Masalan:

Gar ***chin*** desangiz, ko‘zi oning ohui ***Chindur,***
Xattini, xato qilmasangiz, mushki Xitodur.

baytidagi birinchi misrada kelgan chin so‘zi haqiqiy, rost [O‘TIL, 368] ma’nosida qo‘llanilgan, sifat so‘z turkumiga xos. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu so‘z asli chĭn tarzida talaffuz qilingan [O‘TIL, 326]; keyinchalik ĭ unlisining qattiqlik belgisi yo‘qolgan: chĭn >chin. Ushbu so‘z eski Turkchaga Xitoychadan olingan. Keyingi o‘rinda kelgan CHin so‘zi Xitoyning Sharq mamlakatlarida qabul qilingan va o‘zbek tilida ham uchraydigan joy nomi ma’nosida qo‘llanilgan, ya’ni o‘rin-joy oti hisoblanadi.

YArar bu xasta ko‘ngul dardig‘a o‘qin ***yarasi,***
Magarki har yarasi yorning davoedur.

Mazkur baytda dastlabki *yara* so‘zi - yaroqli bo‘l; Biron ishni bajarishga loyiq bo‘lmoq, ishlatishga xizmat qila olmoq [O‘TIL, 24] ma’nosida kelgan. Bu fe’lni tub deb ham, yasama deb ham qarash mavjud. YAsama deb qarovchilar fikricha, bu fe’l qadimgi turkiy tilda mavjud bo‘lgan deb taxmin qilinuvchi ya- asosiga biroz ma’nosini ifodalovchi -ra qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan [O‘TIL, III, 138]: ya- + ra=yara- (yaq-fe’li ham shu asosdan hosil qilingan deyiladi); o‘zbek tilida a unlilari ä unlilariga almashgan: yara->yärä. Keyingi o‘rinda kelgan yara so‘zi esa tanada hosil bo‘ladigan jarohat, chiqiq [O‘TIL, 24] ma’nosida kelgan. Yara tibbiy nuqtayi nazardan teri yoki shilliq pardaning, shuningdek, teri osti to‘qimalarining turli sabablarga ko‘ra nobud bo‘lgan qismi ko‘chib, uning o‘rnida hosil bo‘ladigan nuqson. Bu ot qadimgi turkiy tilda ham bo‘laklarga ajrat ma’nosini anglatib, ya:r-tarzida talaffuz qilingan fe’ldan -a qo‘shimchasi bilan yasalgan keyinchalik a: unlisining cho‘ziqlik belgisi yo‘qolgan o‘zbek tilida a unlilari ä unlilariga almashgan: ya:r- + a = ya:ra >yara >yärä. Bu ot asli biror zarba natijasida ajralish’ni bildirgan, boshqa ma’nolari shu ma’nodan o‘sib chiqqan.

Tajnisi zoyid. Bunda tajnislanuvchi so‘zlarning yo oldida, yo o‘rtasida, yo oxirida biror harf orttirilgan bo‘ladi. [12, 62] SHunga qarab, jinosning bu turi o‘z navbatida uchga bo‘linadi: **1) oldidan harf orttirilgan tajnis**. Masalan:

Ko‘nglumni chu ul pari ***olibtur,***
Devona bo‘lurg‘a ne ***qolibtur?!***

Mazkur baytda *olibtur* va *qolibtur* so‘zlari tajnisi zoyidni hosil etgan. *Qolibtur* so‘zi boshidagi *q* harfi (yoki tovushi) tushirilsa, birinchi baytda qo‘llangan *olibtur* so‘ziga to‘la shakldosh bo‘ladi.

Mendin tobug‘ida bo‘yla ***arz et,***
Bu xidmatni o‘zungga ***farz et:***

Ushbu baytda kelgan omonimik qatorni hosil qilgan *arz va farz* so‘zlari f undoshi bilan farqlanadi. Tajnisning mazkur turi Z.M.Bobur she’riyatida ko‘p uchraydi.

Yolg‘on so‘z ila ***itob*** etarsen,
Yuz qahr bila ***xitob*** etarsen

Mazkur baytda *itob* va *xitob* so‘zlari tajnisi zoyidni hosil etgan. *Xitob* so‘zi boshidagi *X* harfi (yoki tovushi) tushirilsa, birinchi baytda qo‘llangan *itob* so‘ziga to‘la shakldosh bo‘ladi.

Garchi zohirda ***to‘g‘ridektur*** nafs,
Jisming uyida ***o‘g‘ridektur*** nafs.
Tund raxshingai minib ***eldurubon***,
Elga o‘zni tanitib — ***bildurubon.***

2) o‘rtadan harf orttirilgan tajnis. Bunda so‘zlardan birida ikkinchisiga nisbatan ortiqcha harf so‘z o‘rtasida keladi. Masalan:

Necha davron g‘ussasi bo‘lg‘ay mening jonimg‘a ***xos***,
Koshki o‘lsam, dog‘i bu g‘ussadin bo‘lsam ***xalos!***

Tajnisi muzori’. Tajnisning bu turi qo‘llanganda shaklan yaqin bo‘lgan ikki so‘z boshi, o‘rtasi yoki oxiridagi bir, ba’zan ikki harf bir-biridan farqlanib, qolgan qismi mos bo‘ladi. [12, 62] Masalan:

Eldek etib ul quyosh ***qoshig‘a,***
Quyun kibi evrulub ***boshig‘a.***

baytidagi *qoshiga va boshiga* so‘zlari faqat birinchi harflarga ko‘ra farqlanadi.

Chun yo‘q qoshinga etarga ***haddim***,
Qoshing g‘amidan egildi ***qaddim***.

Ushbu baytdagi *haddim va qaddim* so‘zlari ham birinchi harflariga ko‘ra farqlanadi.

Zulfung girihig‘a ***bastadurmen***,
Ko‘zung havasida ***xastadurmen***.

baytidagi *bastadurmen va xastadurmen* so‘zlari qofiyadosh bo‘lib, faqat “b” va “x” harflariga ko‘ra noo‘xshashdir. Tajnisi muzori’ san’ati qo‘llanilgan bu kabi baytlar nazarda tutilgan Z.M. Bobur ijodia juda ko‘plab uchraydi. So‘zlardagi bir harfning so‘z o‘rtasida farqlanishi ham tajnisi muzori’ san’atini yuzaga keltiradi. Masalan

Yuz muncha ***xayollar*** qilurmen,
Yoding bila ***hollar*** qilurmen.

baytidagi *xayol va xol* so‘zlari so‘z o‘rtasidagi “a” va “y” harflari bilan farqlanadi. YOki shoirning yana bir baytida xuddi shunday hodisani kuzatish mumkin:

Mehrkim, ko‘kka qilur ohang ***tong***,
Ollida bo‘lsa, emas berang ***tong***.
Xoliyu ikki labidek bo‘lmag‘ay,
Hindu ar keltursa shakkar tang ***-tang.***

baytidagi *tong* va tang so‘zlari so‘z o‘rtasidagi “o” va “o” harflari bilan farqlanadi. SHaklan yaqin bo‘lgan mazkur so‘zlar tajnisi muzori’ni voqealantirgan.

Tajnisi xatti: “Yozuv tajnisi” ma’nosini ifodalovchi bu san’at arab yozuvidagi so‘zlarning nuqtalardan tashqari to‘la mosligiga asoslanadi, ya’ni ikki so‘z arab yozuvida yozilganida nuqtalari jihatidagina farqlanadi. [12, 62] Masalan:

Oytgil ul husn mulki xonig‘a,
Demayin xon, balki jonlar jonig‘a:

Mazkur baytdagi qofiyadosh *xoniga* va *joniga* so‘zlari bir-biridan birinchi harflar ostidagi nuqtalar soni bilan farqlanadi. Yoki shoirning yana bir baytida xuddi shunday hodisani kuzatish mumkin:

Ichgucha jomi ajal ko‘nglumda ul soqi(y)durur,
To‘lg‘ucha paymonam ul soqi(y) bila boqi(y)durur.

Baytdagi *soqiydur va boqiydur* so‘zlari bir-biridan birinchi harflar ostidagi nuqtalar soni bilan farqlanadi.

Tajnisi murakkab - shakldosh so‘zlarning biri yaxlit bir so‘zdan, ikkinchisi ikki so‘zdan iborat bo‘lishi orqali vujudga keladigan tajnis. [12, 62] Biz Z.M. Bobur ijodida omonim so‘zlarni tahlili natijasida shuni ko‘rdikki, bunday turdagi tajnislar shoirning tuyuqlarida kelgan. Masalan :

Meni behol aylagan ***yor oydurur*** —
Kim, oning vasli menga ***yoroydurur.***
Gar visoli bo‘lmasa, ketar erim
Yo Xuroson, yo Xitoy, ***yo Roydurur***

Ushbu tuyuq ishqiy mavzuda yozilgan bo‘lib, shakldosh ***yor oydurur- yoroydurur- yo Roydurur*** so‘zlarii uch misrada uch ma’noda kelgan. Birinchi misrada oshiq dilrabo yorning go‘zalligini oyga qiyoslamoqda, ikkinchi misrada esa uning vasli unga nasib qilishiga umid qilmoqdab gar yorning vasli unga nasib qilmasa yo Xuroson, yo Xitoy, yo Royga ketishini takidlamoqda. Yoki shoirning yana bir baytida xuddi shunday hodisani kuzatish mumkin:

Kel, qilay jonni nisoring, ***o yorim***,
Naqdi jonni bormu sendin ***oyorim?!***

Bo‘sa bersang gar tamom og‘zing bila,
Kunji og‘zingdin oloyin ***oyorim***.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Omonimlar she’riyatda nozik so‘z o‘yinlarini ishlatish, so‘zlarning ohangdoshligini oshirish, qofiyalarni tugal voqelantirishga keng imkon beradi. Ular muayyan fikr, lavha yoki timsolni ta’sirchan ifodalashning muhim vositalaridan biri sanaladi. Omonimlarning ana shu xususiyatlarini teran anglagan Z.M. Bobur o‘z she’rlari tilini yaratishda ulardan o‘ta mohirlik bilan foydalandi. Tajnis san’atini voqealantiruvchi lug‘aviy omonimlar shoir nazmida muhim ahamiyatga ega. Tajnis so‘zning ichki, tashqi shakli bilan aloqador san’atlardan biridir. Z.M. Bobur poeziyasida bu san’atning tajnisi tomm,
tajnisi zoyid, tajnisi muzori’, tajnisi aks, tajnisi xatti, tajnisi murakkab kabi turlari qo‘llanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati: To‘rt tomlik. Toshkent: Fan, T.I. 1983, – 656 b.; T. II. 1983, –643 b.; T.III. 1984, –623 b.; T.IV.1985, – 636 b.
2. Aliqulov T., Ravshanov M. Lug‘atlarda omonimlarning berilishi // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent: 1990. -№ 2. –B. 51-54.
3. Z.M. Bobur. Devon //- Toshkent: Fan, 1994, -144 b
4. Mahkamova D. Ikki tilli lug‘atlarda omonimlarni ajratish masalasi// O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent: 1980. -№ 4. –B. 67-69.
5. Mirtojiev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. –T.: Fan, 2010. -288 b.
6. . Ne’matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1995.
7. Sarimsoqov B. Tajnis // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent: 1971. – –B. 85-86.
8. Sodiqov T. O‘zbek shevalarida omonimlar // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent: 1984. -№ 6. –B. 13-16.
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. V jildli. // A.Madvaliev tahriri ostida. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006- 2008.
10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikki tomli. // Z.M.Ma’rufov tahriri ostida. –Moskva: Rus tili, 1981.
11. Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. -T.: SHarq, 1998. –B. 72.
12. Ishoqov Y. So‘z san’ati so‘zligi. -T.: Zarqalam, 2006. –B. 62
13. Ishoqov Y. Navoiy poetikasi. -T.: Fan, 1983. –B. 107.
14. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: O‘qituvchi, 1975.

ELEKTRON SHAKLDA ISH YURITISH EHTIYOJINING TERMINOLOGIYAGA TA’SIRI

Sadinova Nafisa Usmanovma
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent, NavDPI, O‘zbekiston.

Annotatsiya: Maqolada keyingi yillarda o‘zbek tilining ish yuritish sohasida bo‘layotgan o‘zgarishlar va elektron hujjat aylanishi haqida so‘z yuritilib, bu sohada qo‘llanayotgan ayrim birliklar izohlab berilgan.

Annotation: The article discusses the changes that have taken place in the field of office work of the Uzbek language in recent years and the electronic document circulation, and explains some of the units used in this area.

Kalit so‘zlar: ish yuritish, hujjat, terminologiya, elektron shakl, til birliklari, hujjat aylanishi, elektron hujjat.

Keywords:administration, document, terminology, electronic form, language units, document circulation, electronic document.

Keyingi yillarda hujjatchilik, davlat boshqaruvini o‘zbek tilida yuritish masalasiga jiddiy e’tibor berila boshlandi. Ona tilimiz qadrini tiklash yo‘lidagi muhim hodisa bo‘lgan “Davlat tili haqida”gi qonunning qabul qilinishi va o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi ilm-fan, ta’lim-tarbiya, madaniyat va san’atning barcha sohalarini respublika davlat tilida rivojlantirish va idora, tashkilot, korxonalarning davlat tilida ish yuritishi uchun zarur bo‘lgan barcha shart-sharoitlarni yaratib berishni taqozo etdi. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha 2017 – 2021-yillarga mo‘ljallangan “Harakatlar strategiyasi”da “... ta’lim tizimini takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish”[13] alohida ta’kidlangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlarida, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 10-sentabrdagi 311-sonli “Davlat tili haqida”gi qonunni amalga oshirish davlat dasturiga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarorida hamda ushbu faoliyatga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish davlat tilida ish yuritish masalasiga alohida e’tibor bilan yondashishni taqozo qiladi.

Yurtimizda bugungi kunda ro‘y berayotgan hodisalar davlat tilida ish yuritishning elektron shaklini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojning kuchayganligini ko‘rsatmoqda. Elektron hujjat aylanishi xalqimizning bugungi turmush tarzi uchun juda qulay bo‘lib, undan foydalanish bugungi kundagi ko‘pgina muammolarni(jumladan, navbat kutish, aholining zich to‘planishi, avtotransport vositalaridan foydalanishdagi noqulayliklar) hal etishga yordam beradi. Elektron hujjat aylanishi haqidagi qonun[i] qabul qilingan bo‘lib, unda elektron hujjat aylanishi sohasidagi davlat siyosati elektron hujjat aylanishi keng qo‘llanishini ta’minlashga, elektron hujjat aylanishi ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, elektron

[13]O‘zbekiston RespublikasiPrezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // Xalq so‘zi, 2017-yil, 8-fevral. -№ 28 (6722)

hujjatdan foydalanish standartlari, normalari va qoidalarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Davlat boshqaruvida elektron hujjat aylanishi faollashishi bilan ish yuritish sohasida bir qator yangi til birliklar kirib kelishi kuzatiladi: *elektron hujjat(e-hujjat), elektron xat, elektron imzo, elektron kommunal, elektron hujjat yuritish, elektron hujjat aylanishi, elektron hujjatni jo'natuvchi, elektron hujjatni saqlash muddati, elektron hujjatni qabul qilib oluvchi, elektron hujjatning asl nusxasi, elektron hujjatning majburiy rekvizitlari, elektron hukumat, elektron davlat xizmati* kabi. Bu esa o'z navbatida, birliklar ma'nosi izohlanishini talab qiladi. Quyida shu sohada yuritilayotgan birliklar ma'nolari va elektron hujjat aylanishi uchun bilishimiz shart bo'lgan o'rinlarga to'xtalib o'tdik.

Elektron imzo - yuridik yoki jismoniy shaxslarning davlat xizmatlaridan ortiqcha ma'lumotlarsiz foydalanish huquqini beruvchi shaxsiy kalit; *elektron kommunal* - kommunal xizmatlardan foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatuvchi kommunal xo'jalik va uy-joy fondi portali; *elektron hujjat yuritish*-hujjatlarning elektron shaklidan foydalanish; *elektron hujjat aylanishi* - elektron hujjatlarni axborot tizimi orqali jo'natish va qabul qilib olish jarayonlari yig'indisi; *elektron hujjat aylanishining ishtirokchilari -e*lektron hujjatni jo'natuvchi va elektron hujjatni qabul qilib oluvchi; *elektron hujjatning axborot vositachisi* - elektron hujjat aylanishi bilan bog'liq xizmatlarni shartnoma asosida ko'rsatuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs; *elektron hukumat* -davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatini, shuningdek, idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi; *elektron davlat xizmati* - axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilgan holda ko'rsatiladigan davlat xizmati.

Ta'kidlash kerakki, elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan boshqa rekvizitlarga ega bo'lgan axborot elektron hujjat sifatida qayd etiladi. Qog'oz hujjatlarning majburiy rekvizitlari (zaruriy qismlari) bo'lgani kabi elektron hujjat ham majburiy rekvizitlarga ega bo'lib, ular quyidagilardir:

- elektron raqamli imzo;
- elektron hujjatni jo'natuvchining yuridik shaxsning nomi yoki elektron hujjatni jo'natuvchining jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otaismi;
- elektron hujjatni jo'natuvchining pochta va elektron manzili;
- hujjat yaratilgan sana.

Shuningdek, qonunga ko'ra, elektron hujjat qog'ozdagi hujjatga tenglashtiriladi va u bilan bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi. Elektron hujjatning bir xil har qaysi nusxasi, basharti u belgilangan tartibda haqiqiy deb tasdiqlangan bo'lsa, asl nusxadir. Shuningdek, elektron hujjatning qog'oz nusxasi bo'lishi mumkin va bu nusxa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlanadi va saqlanadi. Elektron hujjatni saqlash muddati, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, shunga o'xshash maqsadga mo'ljallangan qog'oz hujjat uchun belgilangan muddatdan kam bo'lmasligi kerak.[ii]

Umuman, ish yuritishni elektron shaklda olib borish bugungi kunda xalqimiz uchun juda dolzarb bo‘lib uni rivojlantirish esa davr talabidir.

METAFORALARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Muqumova Surayyo Qayumovna
Navoiy davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Har bir lingvomadaniyatda shu xalqning mentalitetini, uning o‘ziga xos milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi metaforalari mavjud bo‘ladi. Bunday metaforalar vositasida so‘zlovchi mansub bo‘lgan xalqning milliy-ma’naviy xususiyatlari, ijtimoiy turmush tarzi va dunyoqarashi, e’tiqodi, an’analari va urf-odatlari bilan bog‘liq jihatlar ham aks etadi. Maqolada o‘zbek tilida qo‘llanuvchi ayrim hayvon, o‘simlik nomlari vositasida hosil qilingan metaforalarning milliy-madaniy xususiyatlari talqin qilingan.

Abstract: Every language and culture has metaphors that reflect the mentality of a given people, its unique national and cultural characteristics. With the help of such metaphors, aspects related to national and spiritual characteristics, social way of life and worldview, beliefs, traditions and customs of the people to which the speaker belongs are also reflected. The article interprets the national and cultural features of metaphors created through the names of some animals and plants used in the Uzbek language.

Аннотация: В каждом языке и культуре имеются метафоры, отражающие менталитет данного народа, его уникальные национально-культурные особенности. С помощью таких метафор отражаются также аспекты, связанные с национальными и духовными особенностями, социальным образом жизни и мировоззрением, верованиями, традициями и обычаями народа, к которому принадлежит говорящий. В статье интерпретируются национально-культурные особенности метафор, созданных через названия некоторых животных и растений, используемых в узбекском языке.

Kalit so‘zlar: metaforalar, lingvokulturema, **fitonimlar, zoonimlar, milliy-madaniy jihatlar, stilistik xususiyatlari.**

Key words: metaphors, linguoculture, phytonyms, zoonyms, national-cultural aspects, stylistic features.

Ключевые слова: метафоры, лингвокультура, фитонимы, зоонимы, национально-культурные аспекты, стилистические особенности.

Lingvokulturologiya tilni madaniyatning fenomeni, madaniyatni tashuvchisi sifatida o‘rganadi. Bunday madaniyatni tildan foydalanuvchi inson yaratadi. [Usmanova Sh. 2019. – S.26.] Lingvomadaniyatshunoslik ma’lum bir til egasi bo‘lgan xalqning madaniyati hamda tilining o‘zaro aloqasi va ta’sirini bir butunlikda o‘rganadigan soha. Metaforalar lingvokulturema sifatida mazkur sohaning tahlil obyekti bo‘la oladigan faol til birliklaridandir.

Metaforaning shakllanishi to‘g‘ridan to‘g‘ri insonning fikrlash doirasi, tafakkuri qamrovi bilan bog‘liq. Inson tabiat va jamiyatda bo‘layotgan har bir o‘zgarishlar, voqea-hodisalarga, narsalar va shaxslar haqidagi tasavvurlarini tinimsiz

ravishda boyitib boradi, ular haqidagi fikr va tasavvurlarini ma’lum bir obrazlar sifatida ongida muhrlaydi. Metaforalar tilda tejamkorlik qonuniyati asosida yuzaga keladi. Biror predmet nomini o‘xshashlik asosida shaxs yoki boshqa predmetlarga nisbatan qo‘llanadi. Ayrim hayvon, o‘simlik, predmet nomlari insonga yoki aksincha predmetga nisbatan qo‘llanib, insonning yoki predmetninig turli xislat-xususiytalarini tasvisrlashda qo‘llanadi. Bu ifodalanayotgan fikrning emotsionalligini oshiradi. [Usmanova Sh. 2019. – S.111.]

Ma’lum biri xalqning geografik o‘rni, iqlimi, tabiatidan kelib chiqib o‘simlik dunyosi, hayvonot dunyosi bilan bog‘liq va ularga bo‘lgan munosabat bilan bog‘liq xilma-xil qarashlar mavjud. Bu o‘ziga xoslik tilda aks etadi. Lingvokulturologiyani aynan ana shu o‘ziga xoslik qiziqtiradi. O‘**zbek tilida l**ingvokulturologik ahamiyatga ega metaforalar sifatida o‘simlik va hayvonot daunyosiga aloqador, ya’ni fitonimalar va zoonim metaforalar ko‘p uchraydi.

Turkiy xalqlar adabiyotida yuzga nisbatan *anor (chiroyli qizil yuzga nisbatan), arg‘uvon (yuzning qizil rahngiga nisbatan)* ko‘zning *shakliga* nisbatan *bodom qovoq;* soch*ga* nisbatan *sumbul (sumbul soch)* metaforalari qo‘llanadi. Bu kabi fitomorf metaforalarni ko‘plab misollar keltirish mumkin.

***Arg‘uvon* (forsiy so‘z) 1) yog‘och o‘ymakorligida ishlatiladigan, bahorda ochiladigan qirmizi gulli bir daraxt. 2) shu daraxtning guliga o‘xshash, qirmizi rang. *Arg‘uvon yuz, arg‘uvon shafaq* kabi birikuvlarda metaforik ma’noda badiiy uslubda qo‘llanadi.**

***Za’far* 1)aynan *za’faron* – sariq gulli o‘simlik. 2) sariq rangni ifodalash uchun ko‘chma ma’noda qo‘llanadi: Singib yosh kuydirgan za’far yonog‘imga Sekin xabar berdi menga o‘zidan. (Zulfiya) *Za’far* xazon qush kabi uchar Va rutubat — kech kuz chalgan soz. (X. Davron) Bezak va rasmlar qizil, za’far va boshqa anvoyi xil bo‘yoqlarda ishlanib, ko‘plariga tilla hal yugurtirilgan. (“Fan va turmush”)**

O‘zbek tilida *pag‘a* so‘zi bor. Bu so‘z O‘TILda eskirgan so‘z sifatida qayd etilgan. Bosh ma’noda: charxda ip yigirish uchun taxtakachda piltalab yumaloqlab qo‘yilgan, chigiti olingan paxta. Ko‘chma ma’noda yumshoq tarqaluvchan narsalarning parchasi, uyumi yoki to‘dasiga nisbatan qo‘llandi: bulut pag‘asi, tutun pag‘alari bo‘lagiga nisbatan qo‘llanadi: *Osmonda pag‘a bulutlar suzib yuribdi.* [O‘TIL.3. – S. 244.]

*H*ayvonot olamiga doir jonzotlar o‘ziga xos xususiyatlari bilan ko‘chma ma‘nolarda qo‘llanadi. Masalan: *sher, tulki, quyon, sirtlon, ilon, ho‘kiz, qo‘y, echki, lochin, kalxat, qarg‘a, bulbul, qaldirg‘och* vb. **Turli xalqlarning turmushi, yashash tarzida turli xil hayvonlarning ahamiyati katta. Ba’zi hayvonlar nomlari ramz sifatida qo‘llanadi. Hayvonlarning yer yuzida tarqalishi, yashash tarzi ham, iqlim bilan, territoriya /geografiya bilan bog‘liq. Hindistonda sigir, xitoy, yaponlarda ilon muqaddas sanaladi va bu hayvonlarga nisbatan qo‘llanadigan metaforalar shu xalqlar uchun ijobiy ma’no tashiydi. Bizda esa insonga nisbatan *sigir, ilon* metaforalari salbiy ma’no tashiydi.** Jumladan,

Tilimizda *sher, tulki, quyon, sirtlon, ilon, ho‘kiz, qo‘y, echki, lochin, kalxat, qarg‘a, bulbul, qaldirg‘och* vb. hayvonot olamiga doir jonzotlar o‘ziga xos xususiyatlari bilan ko‘chma ma‘nolarda qo‘llanadi.

O‘zbek tilida ayyor so‘zningi sinonimi bor– *tullak*. Bu so‘z bosh ma’noda “bulturgi, qari (ikki, uch yillik), tullagan, tullab chiqqan (parandalar haqida)” [O‘TIL.4.– S. 186.] Sh.Rahmatullayevning “Etimologik lug‘at”ida (turkiy so‘zlar) “qari bedana” ma’nosida qo‘llanishi qayd etilgan. Metaforik ma’noda ayyor, makkor, firibgar odamga nisbatan qo‘llanadi va kuchli salbiy konnotatsiya ifodalandi.

***Shunqor*–lochinsimonlar oilasiga kiruvchi kuchli yirtqich qush. Ko‘chma ma’noda mard, jasur, botir shaxslarga nisbatan qo‘llanadi: Ikki shunqor talashsa, bir qarg‘aga yem bo‘lur. (Maqol). Bu qushlarning xususiyatidan kelib chiqqan holda turli ma’nolar yuklanadi. Lochin kuchli yirtqich ovchi qush. Uning shunday xususiyati borki, ovga o‘rgatilgan lochinlar o‘ljasini egasining oldiga olib keladi. Shuning uchun mard, jasur shaxsga nisbatan ko‘chma ma’noda qo‘llanadi.**

Polapon “parrandalarning hali pat yoki qanot chiqarmagan, yoki endigina chiqara boshlagan bolasi” Qushning polapon bolasi himoyaga juda muhtoj. Ularga ona yoki ota qush og‘ziga yemish tutsagina, oziqlanadi va yashab keta oladi. Mazkur misolda *polapon* so‘zida, erkalash ma‘nosi bilan birga “hali tajribasiz, himoyaga muhtoj” kabi ma‘nolar ham bor. Ular ham hali har tomonlama himoyaga, ota-ona ko‘magiga muhtoj.

–Shaftoli yeysanmi? – U qo‘lidagi kattakon zarg‘aldoq shaftolini uzatdi. **(O‘.H.)** Zarg‘aldoq bosh ma’noda–chumchuqsimonlar turkumiga kiruvchi, qanotlari qoramtir, o‘zi sariq sayroqi qush. O‘zbek tilida uning shu rangiga nisbiy qiyos asosida ba’zida shu ko‘risnish, xildagi tusga moyil rang-tus o‘rnida qo‘llanadi: *zarg‘aldoq rang gul, zarg‘aldoq shaftoli* kabi.[O‘TIL.2.140-b.]

Til va adabiyot fanlari biri ikkinchisini to‘ldirib turuvchi fanlardir. O‘z navbatida til va adabiyot fanlari o‘zaro bir-birini to‘ldirib turuvchi fanlar, lekin bular ham boshqa fanlar bilan integratsiyalanadi. Jumladan, fitonim metaforalar yoki **zoonim metaforalarning semantik xusuiyatlarini anglash uchun botanika/bilogiya, zoologiya fanlaridan ma’lum darajadai bilimlar kerak bo‘ladi.**

Lingvokulturologiyaning obyekti sifatida tahlil qilinadigan metaforalar faqat shu tilgagina xos bo‘lib, xalqning milliy –madaniy boyligi sanaladi:

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmanova Sh. Lingvokuturologiya. –T. 2019.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 3-jild. O‘zME.-T.: 2007.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-jild. O‘zME.-T.: 2007.

TEXNIKA TERMINLARINING IZOHLI LUG‘ATLARDAGI ETIMOLOGIYASIGA DOIR

Navoiy ***davlat pedagogika instituti***
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
Axmedova Maftuna Faxriddinovna

Annotatsiya. Texnika sohasiga oid terminlarning izohli lug‘atlarda berilishi, terminologik birliklarni tizimli ochib berish, ularning etimologiyasi bilan bog‘liq bir qator izohli ma’lumotlar, o‘z qatlam va o‘zlashgan qatlam, so‘z va so‘z birikmasi, birikma terminlar.

Kalit so‘zlar. Texnika, termin, lug‘at, izohli lug‘at, etimologiya, o‘z qatlam, o‘zlashgan qatlam.

Аннотация. Приведение в толковых словарях терминов, относящихся к области техники, систематическое раскрытие терминологических единиц, ряда пояснительных сведений, связанных с их этимологией, собственным пластом и усвоенным пластом, словом и словосочетанием, терминами словообразовательной формы.

Ключевые слова. Техника, термин, словарь, толковый словарь, этимология, собственный слой, освоенный слой.

Annotation. The assignment of terms related to the field of technology in explanatory dictionaries, systematic disclosure of terminological units, a number of explanatory information related to their etymology, its own layer and the acquired layer, word and vocabulary, word compound-shaped terms.

Keywords. Technique, term, dictionary, Explanatory Dictionary, etymology, own layer, mastered layer.

Bugungi kunga kelib, o‘zbek tilshunosligi va terminologoyasining tadqiqot yo‘nalishlari tarmoqlari ancha kengayib bormoqda. Xususan, texnika sohalari va yo‘nalishlariga bag‘ishlangan izohli lug‘atlarning bir muncha ko‘paygani so‘zimizga isbot bo‘la oladi. Bunday izohli lug‘atlarning bir yoki bir nechta tillarda to‘la ma’nolari bilan keng va atroflicha yoritilgan holda nashr qilinayotganligi esa, ayniqsa, quvonarli hol. Bu kabi izohli lug‘atlarning bugungi kundagi maxsus texnika va texnologiya sohalari izlanuvchilarining ilmiy taraqqiyoti rivoji uchun ham ahamiyati beqiyos. Aytish mumkinki, bugungi kunda texnika va kimyoviy texnologiya sohasi yurtimizda barcha sohalarni qamrab olgan. Shunday ekan, tabiiyki, bu yo‘nalish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar, innovatsion yangiliklar, kashfiyotlar kunda va kunora jamiyat uchun, uning yaxshi hayot kechirishi uchun xizmat qilayotgani, yurtimizda sanoat korxonalarining ko‘payib borayotganligi soha rivojining natijasi deyish mumkin.

Ma’lumki, har bir fanning taraqqiyoti doirasida undagi shu sohaga xos bo‘lgan lug‘at tarkibi, ya’ni terminlari ko‘payib boraveradi. Ilm-fan sohasi uchun terminlarning xalqaro miqyosda deyarli bir xil nomlanishda berilishi, bu fan istiqbolining dunyoning turli nuqtalarida yanada rivojlanib, takomillashib borayotganidan darak beradi. Biz, shu yo‘nalishda ilmiy tadqiqot doirasida texnika terminlarining kimyo fani yuzasidan faqatgina shu fanga xos bo‘lgan terminlarning 3 tildagi o‘zbekcha, ruscha va inglizcha tillarda berilgan izohli lug‘atini o‘rgandik.

Tilshunoslikda til taraqqiyotini jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq tarzda o‘rganish bugungi kunning o‘ta muhim masalalaridan biri bo‘lib kelmoqda. So‘nggi yillarda terminologiya sohasida qator izlanishlar olib borilib, soha rivojiga bir qadar yangiliklar kirib kelmoqda. Ayniqsa, ma’lum bir yo‘nalish yoki sohaga oid terminlarning tahlili, ularning tuzilishi, etimologiyasi bilan bog‘liq ilmiy tahlil va izlanishlar jadallik bilan rivojlanmoqda. Buning natijasida, sohaga oid terminlarni tartibga solish, ularning izohli lug‘atlarda berilishini takomillashtirish ehtiyoji ham ortib

bormoqda. Texnika sohasiga oid terminlarning lug‘atlarda berilishi, terminologik birliklarni tizimli ochib berish, ularning etimologiyasi bilan bog‘liq bir qator izohli ma’lumotlar sohaga oid bo‘lgan izohli lug‘atlarda ancha keng yoritib berilgan.

Har qanday tilning terminologik tizimini, shuningdek, tilning umumiy boyligini ko‘rsatib beruvchi izohli lug‘atlar har qanday tilshunoslik uchun bu boradagi eng yirik ilmiy tadqiqotlardan sanaladi. Aynan shu sohada bu masalada salmoqli yutuqlar qo‘lga kiritilgan.

Tilning leksik qatlamlari ikkiga bo‘linadi: 1) o‘z qatlam; 2) o‘zlashgan qatlam. Biz tilning leksik tarkibini aniqlashda albatta, tilshunoslikning etimologiya bo‘limiga murojaat qilamiz. So‘zlarni etimologik jihatdan tahlil qilishdan maqsad tilning leksik sathidagi muayyan so‘zning qachon, qaysi davrda, qaysi til orqali, qanday so‘z yasalish qolipi bo‘yicha, qaysi til materiali asosida, qanday shaklda va qanday ma’no bilan o‘zlashganligini aniqlashdan iboratdir.[14]

Fanga doir bo‘lgan izohli lug‘atlarning lug‘at tarkibiga kiritilgan so‘zlar va so‘z birikmalarining asosiy qismi o‘zlashgan qatlamga xos. Bunday terminlarning yozuv grafikasi, uchta tildagi talaffuz transkripsiyasi deyarli bir-biriga yaqin, o‘xshash.

Masalan, izohli lug‘atda keltirilgan Geliy terminini olaylik.

Geliy (o‘zbek tilida), *Helium* (ingliz tilida), *Гелий* (rus tilida) ifodalanganini ko‘rish mumkin. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” 1-jildida bu terminga so‘zning nima ma’no anglatishiga va qaysi sohaga oid termin ekanligi haqidagi ma’lumotlar keltirilgan bo‘lsa, Kimyoviy terminlarning izohli lug‘atida bu elementning qachon tashkil topganligi, qayerda uchrashi mumkin ekanligi, havoda uning necha foiz hajmi borligini, quyoshda, yulduzlar atmosferasida uchrashi mumkinligi, bugungi kunda sanoat miqyosida qaysi sohalarda ishlatilishi haqidagi barcha ma’lumotlar atroflicha uch tilda keng yoritilgan.

Geliy – *(Helium, yunoncha helos – Quyosh demakdir)* He davriy sistemaning I davr VIII guruh asosiy guruhcha elementi bo‘lib, tartib raqami 2, atom massasi 4,0026. Oddiy sharoitda geliy bir atomli gaz, kimyoviy inert, rangsiz va hidsiz bo‘ladi. Havoda hajm jihatidan 0,0005% ni tashkil etadi. Geliy Quyosh va yulduzlar atmosferasida uchraydi. Geliy 1868-yilda fransuz Jansen va ingliz Loniyer tomonidan bir vaqtda kashf etilgan. Ammo, 1895-yilda, U. Ramzay tarkibida uran bo‘lgan Klevent mineralidan ajralgan gazlar tarkibida geliy borligini topdi va u element sifatida tan olindi. Geliy atomi yadro va uning atrofida aylanuvchi ikki elektrondan iborat. He yadrosi juda barqaror bo‘lgani uchun yadro reaksiyalarida ishlatiladi. Gazsimon geliy o‘ta sovuqlikni tashkil kriostatlarda hosil qilishda, oziq-ovqat mahsulotlarini konservalashda va atom energetikasida ishlatiladi[15].

Helium, yunoncha ***helos – Quyosh*** ma’nosini anglatgani, sanoatda ham shu so‘z bilan qo‘llanilgani bois barcha tillarning texnika terminlarida shu holda uchraydi va o‘zlashadi. ***Germaniy, geptan, gers, gidroliz, kristall, metall, bazalt, beton*** kabi terminlar o‘zlashma qatlam so‘zlari va ular shu holicha har bir til lug‘at tarkibidan o‘rin oladi.

Izohli lug‘atda so‘zlardan tashqari so‘z birikmasi tarzida uchraydigan o‘zlashma so‘zlarni ham uchratish mumkin. Bunday o‘zlashma qatlamga mansub so‘z birikmalari shaklida kelgan terminlarning ikki xil shakli uchraydi. Bunda o‘zlashgan qatlam so‘z birikma shaklli terminlarning har ikkala qismi o‘zlashgan holatda bo‘lishi yoki o‘zlashma so‘z terminga o‘z til lug‘at tarkibining qo‘shilishi natijasida hosil qilingan birikma terminlarning izohlanganini ko‘rishimiz mumkin. Masalan,

[14] Saidov O‘.O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida ish yuritishga oid terminlarning berilishi : Filol.fan. bo‘yicha fals. dokt. .... diss. – Qarshi, 2023. – B. 28

Kimyoga oid terminlarning o‘zbekcha, ruscha va inglizcha izohli lug‘ati. –T.: “Muharrir” nashriyoti, 2020. –B.165.

[15]

1)har ikkala qismi o‘zlashma qatlam so‘zlari bo‘lgan birikma terminlar:

Abraziv materiallar, absolut temperatura, aldol kondensatsiya, algin kislota, atom energiyasi, atom yadrosi, atom radiusi, adipin kislotasi, vodorod elektrodi kabilar.

2) ***bir qismi o‘zlashma qatlam va bir qismi o‘z qatlam doirasida hosil bo‘lgan birikma terminlar***:

Avogadro qonuni, alyuminiy birikmalari, atom hajmi, vodorod bog‘lanish, vodorod ko‘rsatkichi, geterogen muvozanat kabi.

Har ikkala usulda hosil qilingan o‘zlashma qatlam so‘z birikma shaklli terminlarning etimologiyasi, izohli lug‘atlar bilan birgalikda kimyoviy elementlarning paydo bo‘lishi, kelib chiqishi, tarixi, tabiatda tarqalishi, fizikaviy va kimyoviy xossalari, tabiatdan qanday tarzda olinishi, ishlatilishi kabi ma’lumotlar kimyoviy elementlar haqidagi kitoblarda ham keng yoritilgan.

Birinchi usulda hosil qilingan terminlar ya’ni *abraziv materiallar, absolut temperatura, aldol kondensatsiya, algin kislota, atom energiyasi, atom yadrosi, atom radiusi, adipin kislotasi, vodorod elektrodi* kabi birima terminlar o‘zi alohida qo‘llanganda ham mustaqil ma’noni ifodalaydi va o‘zi bilan qo‘shilib kelgan so‘zlar orqali yangi ma’nodagi termin yoki birikmali terminlarni hosil qila oladi.

2-xil usul bilan hosil bo‘lgan birikma terminlarning faqat bir qismigina texnika termini bo‘la oladi. Ular *alyuminiy birikmalari, atom hajmi, vodorod bog‘lanish, vodorod ko‘rsatkichi, geterogen muvozanat* kabi birikmali terminlar alohida qo‘llanganda 2-qismni hosil qiluvchi konstruksiyalar o‘zbek tilining o‘z qatlam tarkibini hosil qiluvchi so‘zlar hisoblanadi. Lekin bunday so‘zlar o‘zi bilan birga qo‘shilib kelgan yangi so‘zlar orqali yangi termin hosil qilish xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zlardir va ular o‘zbek tilshunosligida alohida bo‘lim sifatida o‘rganiladi.

Lotin tilidan o‘zlashgan terminlar:*abraziv materiallar, absorbsiya, absorbsion spektroskopiya, adgeziya, adsorbentlar, adsorbsiya, azot, akseptor, indikator, korroziya;*

Yunon tilidan : *aktiniy, amilaza, amfoterlik, analiz, angidrid, astat, atom, auksinlar, vodorod, gerbitsid, kataliz, keramika, koks, kristall, metallurgiya*

Fransuz tilidan: *galliy, gudron,*

Ingliz tilidan: *konvertor, kreking,*

Nemis tilidan: *volfram, kobalt,*

Ko‘rinib turibdiki, ko‘pgina texnikaga oid terminlarning kelib chiqishi ya’ni etimologiyasi qadim yunon, lotin tillariga kamroq qismi fransuz, ingliz, nemis tillariga mansubligi va terminlarning yasalish xususiyati o‘zi anglatgan ma’nosi bilan asos qilib olinganini tahlil jarayonida ko‘rdik. Bundan tashqari, Sohaga oid bo‘lgan izohli lug‘atlarning aksariyat qismida berilgan texnikaga oid terminlarning asosiy qismi baynalmilal o‘zlashma so‘zlardan va birikma terminlardan tashkil topgan bo‘lsa ham, har ikkala qismi o‘zlashma ya’ni boshqa til lug‘atiga xos bo‘lgan texnika terminlari juda ko‘pchilikni tashkil etishini ko‘rdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tili leksikologiyasi. O‘zbekiston.“Fan” 1981-yil.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-jild.Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, Davlat ilmiy nashriyoti. 2006-yil.
3. Saidov O‘.O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida ish yuritishga oid terminlarning berilishi : Filol.fan. bo‘yicha fals. dokt. .... diss. – Qarshi, 2023.
4. Kimyoga oid terminlarning o‘zbekcha, ruscha va inglizcha izohli lug‘ati.1-qism. –T.: “Muharrir” nashriyoti, 2020. –B.335.

5. Kimyoviy elementlar. Q.S.Sanaqulov, B.F.Muhiddinov, A.S.Hasanov - T.: “Muharrir” nashriyoti, 2019. –B.412.

JAHON TILSHUNOSLIGIDA DISKURS SOHASINING O‘RGANILISHI

Nurimova Diyora Qurbon qizi
PROFI university Navoiy filiali o‘qituvchisi
Tel:(93)461-42-62
E-mail:diyoranurimova887@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada diskurs istilohi, uning mazmun ko‘lami haqida so‘z boradi. Shuningdek, diskursiv tahlil hamda matn va diskurs munosabatiga oid nazariy fikrlar, ularning xulosasi bayon etilgan. Dirkursning tuzilishi, o‘zbek va dunyo tilshunosligida o‘rganilishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: diskurs, diskursiv tahlil, matn, pragmatika, lingvistika.

Abstract: This article talks about the term discourse and its scope of content. Also, discursive analysis and theoretical ideas related to the relationship between text and discourse, and their conclusions are presented. The structure of the discourse, its study in Uzbek and world linguistics are covered.

Key words:discourse, dircursive analysis, text, pragnatics, linguistics.

Yurtimizda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida yangiliklar, islohotlar hamda innovatsiyalar amalga oshirilmoqda. Bu o‘zgarishlar bevosita ona tilimiz rivojiga, tilshunoslik sohasidagi tadqiqotlar ko‘payishiga, lingvistik yo‘nalishlarning kengayishiga imkoniyat bermoqda. Darhaqiqat, lingvistika bugungi kunda statik lingvistika, dinamik lingvistika, diaxron lingvistika, sinxron lingvistika, intralingvistika, ekstralingvistika, pralingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, matematik lingvistika, kompyuter lingvistikasi, kognitiv lingvistika, pragmalingvistika, lingvokulturologiya singari ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda. Tilshunoslikning bu kabi yo‘nalishlari bevosita o‘z tadqiq obyektlari bilan bir-biridan farq qiladi. Ana shunday tilda o‘rganiladigan birliklardan biri diskursdir.

Diskurs istilohi o‘tkan asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikka kirib keldi. Diskursga har qanday og‘zaki yoki yozma ko‘rinishdagi matnni emas, balki psixologik, ijtimoiy-madaniy, sotsiopragmatik omillar bilan uzviy bog‘langan insonlarning o‘zaro ta’siri va ularning kognitiv jarayonlarida ishtirok etadigan birlik sifatida qaraladi. U bir mavzu yoki masala bahsidan yoki fikrlar yig‘indisidan iborat bo‘lgan muloqot shakli hamdir. U o‘z ichiga turli xil nazariy fikrlarni, ilmiy qarashlar hamda tushunchalarni qamraydi. Pragmatik jihatdan esa bu istiloh 8 xil ma’noda qo‘llaniladi:

1)so‘z muqobili;

2)frazalardan o‘lchovi bo‘yicha ortadigan birlik;

3)nutq vaziyati hisobga olingan holda fikrning adresatga ta’siri;

4)suhbat;

5)nutqda so‘zlovchi pozitsiyasi;

6)lisoniy birliklardan foydalanish;

7)fikrning ijtimoiy yoki mafkuraviy cheklangan turi;

8)matn hosil bo‘lish shartlarini tadqiq etishga mo‘ljallangan nazariy qurilmalar.[Haydarova N., 2021.-11-son]

Shu o‘rinda diskursiv tahlil tarixiga nazar solish lozim. Nutqni ilmiy tahlil qilish tilshunoslikda ikki xil yo‘sinda olib borildi. Birinchisi, har xil tillarda yaratilgan og‘zaki matnlarni yozib olish va tahlil qilishga asoslangan etnolingvistik tadqiqotlar an’anasi. Ushbu an'ananing eng taniqli vakillari qatoriga Frants Boas asos solgan Amerika etnolingvistika maktabi kiradi. Ikkinchisi, bu Vilem Matsius tomonidan tashkil etilgan chex tilshunoslik maktabi bo‘lib, mavzu va matnni kommunikativ tashkil etish kabi tushunchalarga qiziqishni kuchaytirdi.

Diskurs atamasi birinchi marta 1952-yilda Zellig Xarris tomonidan qo‘llanilgan. Biroq nutqni diskursiv tahlil qilish asosan 1970-yillarga to‘g‘ri keladi. Ayni paytda Evropa matnshunoslik maktabining mashhur vakillari (T. Van Deyk, V. Dressler, J. Petofi va boshqalar) va diskursiv tadqiqotlarni an'anaviy lingvistik mavzular bilan bog‘laydigan fundamental Amerika tilshunoslari (V. Labov, J. Grimes, R. Longueykre, T. Givon, V. Chafe) o‘z ilmiy izlanishlarini olib bordilar.1980-1990 yillarga kelib, umumlashtiruvchi asarlar, ma’lumotnomalar va darsliklar paydo bo‘ldi. Masalan, “*Nutqni tahlil qilish”* (J. Braun, J. Yul, 1983), “*Ijtimoiy harakatlarning tuzilmalari: Uydagi muloqotni tahlil qilish bo‘yicha tadqiqotlar*” (muharrirlar - J. Atkinson va J. Heritage, 1984), “*Diskursiv tadqiqotlar”* (J.Renkema,1993), ikki jildli asar “*Diskurs tadqiqotlari: fanlararo kirish”* (T. Van Deyk tomonidan tahrirlangan, 1997).

Adabiy aspektdagi diskurs masalasi fransuz olimlari M. Fuko, S. Todorov, Y. Kristeva, R. Bart asarlarida, shuningdek, rus tilshunoslari M. M. Baxtin, Y.M Lotman, V. I. Tyup tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan, S. N. Broytman, I. P. Smirnov, I. V. Samarukov, Y. Rudnev, P.V. Kovalev (Abdunazarova, 2021,15-bet), xususan, nutq nazariyasi, diskurs tahlil masalalari biroz o‘rganilgan.

Diskursiv tahlil bo‘yicha qilingan izlanishlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

-Tilshunoslikning ko‘p paradigmali metodologiyasi (N.F. Aliferenko, L.G.Babenko, N.N. Bolderev, S.A. Burlak, V.Z. Demyankov, Z.E. Komarova, E.S.Kubryakova, L.G. Luzina, S.A.Starostin, Dj. Bakster, N.Xomskiy);

-muallif nutqi tahli, nutqning spontan turlarigan oid diskursiv tadqiqotlar (E.V.Budayev, V.I.Karasik, V.V.Krasnix, E.S.Kubryakova, M.L.Makarov, M.Yu.Muxin, E.F. Serebrennikova, I.A.Sternin, Yu.C.Stepanov, L.V.TSurikova, T.van Deyk, P.Beyker, Ya. Blommert, R.de Borgan, R. Vodak, R.Vuffitt, N. Gilbert, Dj. P.Dji va boshqalar;

-Matn va diskurs bog‘liqligi (Yu.M.Lotman, A.Abu-Akel, T.van Deyk, D.Grosh, Dj. P.Dji, E.Oks, K. Sidner, B.Strodt-Lopes, M.Xallidey) - tamoyillarini ishlab chiqish, vazifalarini aniqlash uchun nutqni muhim makroelementlarga bo‘lishga oid izlanishlar;

-Sport kommentariyalaridagi dialoglar tahlili va pragmatik xususiyatlariga oid tadqiqotlar (G.A.Zolotova, B.Yu. Norman, E.N.Remchukova, N.N.Shpilnaya, R.Vuffitt, R.Gardner, G.Djefferson, G.Zaks, Ya.Zenkovski, R.Karter, S.Levinson, P. Linell, M.Makkarti, D.Matsarella, L.Mondada, D.J.Ostin, E. Sheglov);

-nutq uslublari va diskurs kategoriyalariga oid teoriyalar (M.M.Baxtin, M.N.Volodina, V.V.Dementiev, O.C.Issers, M.V.Konsunskaya, A.V.Semenova, T.E.Yanko).[M.O. Калиниченко., 2023, 11-12 с]

Bundan ko‘rinadiki, diskurs sohasi jahon tilshunosligida keng qamrovli tahlil qilingan. Uning pragmatik hamda sotsiopragmatik xususiyatlari, tuzilishi hamda turlari o‘rganilgan va bir-birini takrorlamaydigan nazariy va ilmiy xuslosalarga kelingan. V.V.Krasnix diskurs haqida shunday fikr yuritadi: “diskurs voqelikka chiqqan, lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yuzaga keladigan nutqiy faoliyatdir”. [Красных В.В.,2003. - 113] Bevosita bu jarayon kommunikantlarning ongli nutq faoliyati asosida yuzaga chiqadi.

Tilshunoslar “matn” va “diskurs” tushunchalarini izohlashda fikrlar xilma-xilligiga duch kelishadi. Jonstone esa matnga natija, diskursga jarayon sifatida qaraydi. Uning fikriga koʻra matn til birligi, diskurs esa pragmatik birlik.[Johnstone B. 2008. - 6- b.]

“Matn va uning ogʻzaki mazmuniga kelsak, ular diskursning yaratilgan va qayta ishlangan ajralmas qismi”, deb yozadi Kibrik.[Кибрик А.А., 2003. - 4] Diskursiv jarayon bevosita kommunikantlarning individual dunyoqarashlari, nutqiy faoliyatlari ketma-ketligi asosida yuzaga chiqadi. Shuningdek Xurmatullin diskurs hamda matnga qoʻshimcha farqqa quyidagicha ta’rif beradi: “matn – sitatik, diskurs -dinamik”. [Хурматуллин А.К., 2009. 31-36 с.] Bu orqali tilshunos matn turgʻun, oʻzgarmas boʻlishini, diskurs esa jarayonda, ya’ni voqelikka ega boʻlishini nazarda tutgan.

Diskurs – qadimiy tushuncha boʻlishiga qaramay bugungi kunda eng keng oʻrganiladigan tadqiqot obyekti. Qadimda u diniy falsafada, bugungi kunda esa an’anaviy falsafada alohida oʻringa ega. XX asr boshlarida diskurs asosan falsafiy jihatdan tadqiq etilgan, keyinchlik esa soʻz va gaplar, ular ostida ifodalanayotgan ma’no tadqiqi tomon burildi. Diskursiv amaliyot matn va nutqda namoyon boʻldi, filologiya hamda tilshunoslikda mavjud metodlar bilan oʻrganila boshlandi.

Odatda diskurs ijtimoiy bilimlar bilan bogʻliqdir. XX-XXI asrlarda jahonda bu soha falsafiy-metodologik jihatdan chuqur oʻrganildi. Bunda xatlar, jonli nutq hamda labaratorial tekshiruvlar material sifatida olindi. Oʻz- oʻzidan nutqning ifodaviyligi va ta’sirchanligini oshirish maqsadida soʻz va iboralarning koʻchma ma’noda qoʻllanilishi (troplar), metafora hamda metonomiyalar diskurs analizning muhim qismi sanalishi aniqlandi. Diskurs-analiz - til va nutq amaliyoti, nutqni ifodalash hamda matn strukturasiga oid tadqiqotlar jamlangan tushunchalar yigʻindisi.

Diskurs-analizning dastlabki bosqichi matn bilan aniqlanadigan diskurs. Bu yoʻnalishdagi izlanishlar bevosita adabiy tahlil hamda adabiy tanqid doirasida oʻrganilgan. Bu qarash R. Bart hamda R. Rorti bilan bogʻlanadi. Bu xususida R.Rorti oʻzining “Falsafada lingvistik burilish” asarida yozgan. [Rorty R. 1992] Diskursiv tahlilga oid dastlabki qarashlar bevosita F. de Sossyurning til va nutq zidlanishiga bogʻliq. Shu bois ham 1950-1970- yillardagi aksariyat tadqiqotlar badiiy va adabiy matnlar diskursini oʻrganish bilan chegaralandi. Nutqni umumiy hamda toʻliq tahlil etish esa ritorikaning obyekti sifatida qoldi. Oʻtgan asrning 70-yillarida vaziyat tubdan oʻzgardi: birinchidan, F. de Sossyurning til va nutq farqiga doir munosabati, ikkinchidan, matn tahliliga oid turli qarashlarning lingvistika hamda ritorikada paydo boʻlishi turki boʻldi.

Hozirgi kunda diskursiv tahlilga oid asosiy ishlar til va nutq bogʻliqligi doirasida amalga oshirilmoqda. Shu oʻrinda til nutqni yuzaga keltiradigan sistema deb baholashimiz mumkin. Nutqning psixologik tadqiqotlari XX asrga aloqador deb qaraladi. L.S.Vgotskiy, M.C.Bernshteyn Rossiyada, Dj.Bruner, R.U.Braun, Dj.Miller, N.Xomskiy Amerikada, J.Piaje Shevetsariyada nutqning inson hayotidagi roli, bola nutqining rivojlanish bosqichlari, bola nutqining muhim xususiyatlari xususida ilmiy izlanishlar olib borgan.

Oʻzbek tilshunosligida diskurs konseptiga oid tadqiqotlar mavjud. Xususan, “Diskursiv tahlilda polipredikativ birliklar” L.R. Raupova oʻz ilmiy ishida qoʻshma gaplar qurilishida dialogik diskurs va uning ahamiyatiga alohida toʻxtaladi. [L.R. Raupova,2022] Diskurs boʻyicha maxsus tadqiqotlar, shuningdek, Sh. Safarov tomonidan amalga oshirilgan. A.Pardayev, O.Ablakulova singari tadqiqotchilar ishlarida ham diskurs va sotsiopragmatikaga oid qarashlarni koʻrish mumkin. ammo shoirlar ijod namunalari lirik dirkursiga oid izlanishlar deyarli uchramaydi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, jahon tilshunosligida diskursiv tahlilga oid keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan. Bugungi kunda ham oʻrganilish darajasi tushmagan izlanish mavzularidan biridir. Buni oʻzbek tilshunosligida bu sohaga oid olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda koʻrishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Haydarova Nodirabegim Ahtamjon qizi. Badiiy diskursda inson fiziologiyasi bilan bogʻliq til birliklarining lingvomadaniy tahlili. Ilm sarchashmalari Urganch davlat universitetining ilmiy-nazariy, metodik jurnali. 2021-yil, 11-son.

2.М.О. Калиниченко. Дискурсивные стратегии спортивного комментирования: когезия и когерентность. Дисс. 2023, 11-12 с.
3.Красных В.В. «Свой» среди «чужих»: миф или реальность? / Красных. – М.: «Гзонис»2003. - 113
4.Johnstone B. Discourse analysis (2 nd) / B. Johnstone. – Malden, MA : Blackwell Pub, 2008. 6-b.
5.Кибрик А.А. Анализ дискурса в когнитивной перспективе : дис. … д-ра филол. Наук : 10.02.19 / Кибрик Андрей Александрович. – М. : Институт языкознания РАН, 2003. - 4
6.Хурматуллин А.К. Понятие дискурса в современной лингвистике / А. К. Хурматуллин// Ученые записки Казанского гос. Ун-та, - 2009. 31-36 с.
7.Rorty R. The linguistic turn: Essays in philosophical Method. Chicago. 1992).
8.L.R. Raupova Diskursiv tahlilda polipredikativ birliklar. “Manisa” nashriyoti -2022.

IKKINCHI SHO‘BA
TURKIY XALQLAR ADABIYOTIDAGI MUSHTARAKLIK VA O‘ZIGA XOSLIK

MILLATNING BUYUK FIDOYISI

Abduhamid Xolmurodov,
Navoiy davlat pedagogika instituti professori

Annotatsiya: Maqolada jadid ma’rifatparvarlarining ozodlik yo‘lida olib borgan kurashlari yoritilgan. Jadid adabiyotining yirik vakili Munavvar Qori Abdurashidxonovning Turkistondagi mustamlakachilik siyosatini fosh qilib, ma’rifatparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qilishda astoydil kurash olib borganligi asosli tahlil etilgan. Uning ijtimoiy va ijodiy faoliyatiga oid muhim ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: publitsistika, jadidchilik, teatr, madaniyat, ma’rifat, ijtimoiylik, milliy mafkura, badiiy ijod, individuallik.

Аннотация: В статье описывается борьба современных просветителей за свободу. Крупнейший представитель джадидской литературы Мунаввар Кори Абдурашидханов разоблачал колониальную политику в Туркестане, усердно боролся за распространение идей просвещения. Представлены важные сведения о его общественной и творческой деятельности.

Ключевые слова: публицистика, модернизм, театр, культура, просветительство, социальность, национальная идеология, художественное творчество, индивидуальность

Annotation: The article describes the struggle of modern enlighteners for freedom. The great representative of Jadid literature, Munavvar Qori Abdurashidkhanov, exposed the colonial policy in Turkestan and fought diligently to promote the ideas of enlightenment. Important information about his social and creative activities is presented..

Key words: publicism, modernism, theater, culture, enlightenment, sociality, national ideology, artistic creativity, individuality.

XX asr boshlarida jadid ma’rifatparvarlarining mustaqillikka erishish yo‘lida olib borgan kurashlari tariximizning eng yorqin sahifalarini tashkil etadi. Istibdod iskanjasida azob chekayotgan xalkni uyg‘otish, ma’rifat ziyosi bilan milliy g‘ururni nurlantirish, o‘zlikni anglashga da’vat etishda jadid ma’rifatchilari chinakam qahramonlik, el-yurt, millat sha’ni uchun fidoyilik ko‘rsatdilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy, So‘fizoda, Tavallo, Fitrat, Cho‘lpon, Munavvarqori singari jadidchilar qiyin va murakkab sharoitda Turkistonning ozod bo‘lishini, mustamlakachilik kishanlarini parchalab, mustaqil taraqqiyot yo‘lini barpo etishni orzu qildilar va qizg‘in ma’rifatparvarlik faoliyatini olib bordilar. Ana shular safida Munavvarqori Abdurashidxonovning ham alohida o‘rni bor.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Toshkent shahri saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi “Toshkent – barchamiz uchun onadek ulug‘ va mo‘tabardir” mavzusidagi nutqida shunday degan edi:

“O‘tgan asr boshlarida butun Turkiston o‘lkasini qamrab olgan jadidchilik harakatining markazi ham aynan Toshkent shahri edi. Bu harakatning ko‘zga ko‘ringan namoyandalari Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Tavallo, Ubaydulla Xo‘jayev, G‘ozi Yunus, G‘ulom Zafariy, Xurshid kabi ziyolilar o‘zlarining ezgu g‘oyalari, ma’rifiy asarlari bilan tariximizda o‘chmas iz qoldirdilar”.

Munavvarqori Abdurashidxonov 1878-yilda Toshkentda Shayxantohur (Shayx Xovandi Tahur) dahasining Darxon mahallasida tug‘iladi. Ota-onasi ziyoli kishilar bo‘lishgan. Oilada uch o‘g‘il bo‘lib, Munavvarqori eng kichigi bo‘lgan. Akalari A’zamxon va Muslimxonlar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishgan. Ammo hayotlari doimo tahlikada o‘tgan, qamoq azoblarini chekishgan. Munavvarqori ham ota-onasi, akalari yo‘lidan bordi, xalqni ilmli, ma’rifatli qilish uchun jon kuydirdi. Chunki u bolalik chog‘laridan erksizlik fojealarini ko‘rib ulg‘aydi, mustamlakachilarning zulm va zo‘ravonliklari millatni o‘zligidan ayirishga qaratilganligini his etdi.

Dukchi Eshon boshchiligida xalq qo‘zg‘oloni bo‘lganida u 14 yoshda edi. Qo‘zg‘olon qanday bostirilgani, qo‘zg‘olonchilar qanday shafqatsiz jazolanganliklarini ko‘rdi va bu qonli voqea qalbida o‘chmas bo‘lib muhrlanib qoldi. Shuning uchun u o‘zining butun ongli hayotini xalqi va millatining ozodligi, ma’rifatli bo‘lishi uchun bag‘ishladi. O‘zi maktablar ochdi, ularga darsliklar yozdi. U yaratgan darsliklar yangiligi, o‘qitishda osonligi tufayli tez shuhrat qozondi, ulardan rus-tuzem maktablarida ham foydalanishga ruxsat berildi. Rus mustamlakachilari Turkiston aholisining ma’rifatli bo‘lishiga tish-tirnog‘i bilan qarshilik ko‘rsatardi. N.Ostroumov, V.Nalivkin, S.Grameniskiy, P.Aznachaev singari nozirlar maktab darsliklari va kitoblarni sinchiklab nazoratdan o‘tkazishar va o‘zlari shubhalangan fikrlar va g‘oyalarni ulardan olib tashlardilar. Shunday bo‘lsa-da, Munavvarqori “Adibi avval”, “Adibus-soniy” darsliklarini yaratdi va ulardan o‘sha yillardagi usuli jadid maktablari va rus-tuzem maktablarida foydalanildi. Shundan keyin u ma’rifatparvarlik faoliyatini avj oldirib, rus-tuzem maktablarini yangi milliy maktablarga aylantirish tashabbusi bilan ham chiqadi. N.Ostroumov uni “Milliy maktablar asoschisi”, deb ta’riflaydi va “Mahalliy aholi uni Toshkentning Eski shahar qismidagi maktablarning haqiqiy direktori deb hisoblaydi”, deb yozadi xotiralarida.

Munavvarqorining hikoyalari, badiiy-publitsistik maqolalari xalq, millat, Vatan taqdiri uchun fidoyi insonning jasoratli bo‘lganini, kelajakka zo‘r umidlar bilan boqib, shu kelajakni barpo etishga o‘z hissasini qo‘shishga iqtidorini ayamay safarbar eta olganini ko‘ramiz. 1915-yil 6-fevraldagi “Sadoyi Turkiston” gazetasida bosilgan “Hamiyat” hikoyasida chin vatanparvar, haqiqiy ziyoli kishining fidoyiligi aks etgan. Hikoya qilinishicha, bir necha ziyoli yo‘lda ketayotganlarida bir ko‘zi ojiz bola hassa bilan zo‘rg‘a kelayotganiga duch kelishadi. Qish fasli, sovuq, yo‘llar loy, balchiq bo‘lib ketganidan sog‘ odamning ham yurishi qiyin. Ko‘zi ojiz bola ularga korni ochligini, unga yordam berishlarini so‘raydi. Afandi bolani o‘ki, mardikorlik qil, deb jerkib tashlaydi. Bola ko‘zi ko‘rmasligi, o‘qiy olmasligidan shikoyat qiladi. Ammo A.afandining muzlagan yuragi erimaydi, so‘zida qat’iy turib oladi va unga yordam bermasligini bildiradi. Shunda hikoyani so‘zlovchi (muallif) Afandiga so‘zlaganlari noto‘g‘ri ekanligini, ziyoli odam bunday fikr yuritmasligini, hamiyatli bo‘lishi lozimligini aytadi.

Ammo u o‘z fikrida turib oladi. N. va Y. afandilar esa bu fikrga qo‘shilishadi va bolaga yordam berish zarurligini ta’kidlashadi. Shunda hikoya qiluvchi A.afandiga yuzlanib shunday deydi:

“–.. Ziyoli Millat, Vatan nima edig‘ini bilur va ziyoli millat uchun jonini, molini fido etar va millatning taraqqiysi uchun doimo harakat etar. Vaqti kelganda, millat uchun o‘zini halokat vartasina tashlamakg‘a muhayyo bo‘lur. Sizning bilmag‘ingiz lozimdirki, bizning millatimizga sado va so‘z birlan ziyoli nomini olg‘on insonlar lozim emas. Balki, xizmati, harakati, yordami va himmati birlan ziyoli nomini olg‘on insonlar lozimdir. Yo‘q esa, “Millat”, “Vatan”, “Madaniyat” – shunga o‘xshash so‘zlarni bilmak bilan inson ziyoli bo‘lmaydir”[16].

Keltirilgan parchada haqiqiy ziyoli qanday bo‘lishi kerak, degan savolga Munavvarqorining munosabati aniq va yorqin ifodalangan.

“Devpechak” hikoyasida mehnatsevarlik ulug‘lanadi. Oddiy bir voqea asosida mehnatsevarlikning ahamiyati, uning zamirida yaratuvchilik, bunyodkorlik yotishi uqtiriladi. Bolalarni juda yosh chog‘idan mehnatga o‘rgatish, ularning qalbida o‘zi bajargan ishdan qoniqish hissini tuyishga o‘rgatish kattalarning burchi, vazifasi ekanligi ta’kidlanadi. Hikoyada bir ota sakkiz yashar o‘g‘lini bog‘ga olib kiradi. Bog‘dagi bir o‘rik daraxtiga bola qiziqib qoladi, uning mevalaridan terib yeydi. Otasi bu daraxtni o‘g‘li tug‘ilgan yili ekkanini, endi unga o‘zi qarashi, parvarish qilishi zarurligini aytadi. Daraxtning ostidan bir devpechak degan o‘t o‘sib chiqayotganini ko‘rgan bola otasidan buning nima ekanligini so‘raydi. Ota bu o‘t daraxtning rivojlanishiga xalal berishini, uni ko‘rgan zahoti yulib tashlash lozimligini uqtiradi. Bola o‘tni yulib tashlaydi, keyin ota-bola bog‘dan chiqishadi. Bola o‘yin bilan bo‘lib, darrov o‘rikni unutadi. Bir necha kundan keyin u yodiga tushib, bog‘ga kirsa, daraxtni devpechak o‘rab olgan, mevalarining sarg‘ayishiga sabab bo‘lgandi. Bu bolaga saboq bo‘ladi.

[16] Мунаввар қори Абдурашидхонов, Танланган асарлар. Тошкент, “Маънавият”, 2003, Б.71.

Hajman kichik hikoyalarda katta g‘oyalar, ulkan orzu-umidlar ifodalanishi, pand-nasihat, muhim hayotiy xulosalar berilishi Munavvar Qorininig yozuvchi sifatida ulkan iste’dod egasi ekanligidan dalolat beradi. Badiiy-publitsistik maqolalarida bu iste’dodning yana yangi qirralari namoyon bo‘ladi. Millat uchun kuyinish, o‘tli dard, ma’rifatga, madaniyatga da’vat uning nutq va maqolalarida qalblarni larzaga soladigan darajada o‘z ifodasini topgan. “Taraqqiy” gazetasining 1906-yil 14-iyundagi sonida bosilgan “Bizni jaholat jahli murakkab” maqolasi ayni shu fikrimizni isbotlaydi. Mana uning millat ma’rifatli bo‘lishi uchun qilgan jonkuyarligi:

“Ey qardoshlar, voy millatdoshlar!!! Ko‘zimiz g‘aflat uyqusidin ochib, atrofimizga nazar solmog‘imiz lozimdir. Har millat o‘z saodat hol va istiqbolini muhofazatig‘a birinchi vosita ilm o‘lmakig‘a qanoat hosil qilib, ilm va maorifga ortik darajada qo‘shish qilgan bu zamonda bizlar bu g‘aflat va jaholatimizda davom etsak, istiqbolimiz nihoyatda xavflik o‘lub hamma olamg‘a masxara va kulgu o‘lmog‘imizda hech shubha yo‘qdir. Balki, bu jaholat zulmatida saodati uxraviyadin xam mahrum qolmoq xavflidir. Bu jaholat natijasidurki, o‘zimiz yerlik musulmonlardan o‘ldig‘imiz holda musofir rus va yahudiylar eshigida mardikor va xizmatchi o‘lduk. Bu jaholat xohishidurki, millat foydasi uchun jonni kurbon qilmoqqa loyiq arslon kabi yigitlarimiz butun millatni yodlaridan chikarib, iste’dod va gayratlarini choyxona va pivoxonalarga sarf etmakdadurlar”.

“Turon” teatrining ochilish marosimida so‘zlangan nutq jangovar publitsistikaninig eng yorqin namunasi, desak xato bo‘lmaydi. Bu nutq “Turkiston viloyatining gazeti”da 1914-yil 2-mart kuni e’lon qilingan. Millat uchun chinakam fidoyi inson M.Abdurashidxonov o‘z nutqida teatr ochilishini tabriklash bilan birga dilida to‘planib qolgan tuyg‘ularini, fikr-mulohazalarini nutqida ochiq bayon etadi. Teatrning xalq ma’naviyatini yuksaltirishda, dunyoqarashini kengaytirishdagi ahamiyatiga alohida urg‘u beradi. Tatarlar va kavkaz haqlari teatr tufayli taraqqiyotda ancha ilgarilab ketganliklarini Mirza Fatali Oxundov taqdiri misolida dalillab ko‘rsatadi. Oxundov xotirasiga bag‘ishlangan tantana hech bir musulmon mamlakatida bo‘lmaganligini, bunga Ozarbayjonning buyuk dramaturgining millatparvarligi bois bo‘lganligini ta’kidlaydi. Ammo Turkiston o‘lkasida teatrga shu paytgacha masxarabozlik, shunchaki bir ko‘ngil ermagi sifatidagi qarashlar hukmronligini tanqid qiladi. Boylarni teatrlarga yordam berishga, teatr fidoyilarini rag‘batlantirishga da’vat etadi. Teatr tarbiya vositasi sifatida maktablar bajarayotgan ishdan ham katta, mas’uliyatli ishni bajarishini ta’kidlaydi.

Munavvarqorining jurnalistik faoliyatini shartli ravishda uch qismga bo‘lish mumkin. Asr boshlaridan 1917-yil oktyabrigacha bo‘lgan davrda u ma’rifatchilik faoliyati bilan qizg‘in shug‘ullandi. Bu davrda o‘zi maktablar ochdi, darsliklar, qo‘llanmalar yaratdi. 1906-yilda Ismoil Obidiy tashkil etgan “Taraqqiy” gazetasi chiqishida tashabbuskor bo‘ldi. O‘sha yili o‘zi ham “Xurshid” gazetasiga asos soldi. Maktablar uchun yaratgan “Adibus-soniy” darsligi, geografiya fanini o‘qitishga bag‘ishlangan “Yer yuzi” risolasi uning mohir pedagog, chuqur bilimga ega ma’rifatchi bo‘lganligini tasdiqlaydi.

Rossiyadagi siyosiy o‘zgarishlar, bolsheviklarning hokimiyatni egallashlari Turkistonni ozod mamlakat sifatida ko‘rishni istagan jadidchilarning siyosiy va ijtimoiy faoliyatlariga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu davrda Munavvarqori siyosiy pozitsiyani o‘zgartirishni, bolsheviklar siyosatidan mamlakat manfaatlari uchun ko‘proq foydalanish lozimligini, avj olib ketgan shovinistik siyosatni yumshatishga harakat qilish zarurligini jadidlar orasida birinchi bo‘lib anglab yetdi va butun kuch-g‘ayratini ezgu orzu-niyatlarini ro‘yobga chiqarishga safarbar etdi. Butun 20-yillar davomida uning matbuotda e’lon qilingan maqolalarida joriy etilayotgan yangiliklarning yaxshi va yomon jihatlarini qo‘rqmasdan ko‘rsatib berishga harakat qildi. Hatto jadidlarning siyosiy qarashlari va maslaklarida 1917-yilning oktyabridan keyin jiddiy o‘zgarishlar yuz berganligini, ularning sabablarini, bundan buyon milliy ozodlikka erishish orzusiga qanday erishish mumkinligini qo‘rqmasdan bayon etdi. “Nashri maorif” uyushmasining ahamiyati” maqolasi 1923-yilning 4-martida “Turkiston” gazetasida bosilgan. Unda “Turkistonning hayoti, Turkistonning najoti yolg‘iz maorifga va madaniyatning taraqqiysi esa butun xalqning “Nashri maorif” uyushmalari atrofiga to‘planmog‘iga bog‘liqdir. Shundagina biz madaniy millatlar qatoriga kira olamiz, shundagina

madaniyat dunyosida o‘z huquqimizni ola olamiz”[17], deydi. Albatta, o‘sha paytda bunday jur’atli gaplar shovinistik kayfiyatdagi hukumatga yoqmasdi. “Qoralash yaxshi emas” nutqi (Toshkent okrug maoriya xodimlari qurultoyi, 1927-yil)da jadidlarning mustamlakachilar bilan kurashish maqsadi bo‘lgani, ammo bolsheviklar hukmronlik qila boshlagach, ularning yo‘lini jadidlar ham quvvatlashganlarini aytadi.

1930-yilning 30-mayida qamoqda paytida turib Sharqiy bo‘lim vakili Agidullinga yozgan arizasida ham ma’rifatchilik faoliyatida millat qayg‘usida yonganligini, ayni paytda bolsheviklar siyosatini ma’qullashini aytib, uning siyosiy faoliyatiga adolat bilan baho berishni so‘raydi. Xalqini, millatini sevgan fidoyi inson hali Vatan ravnaqi uchun xizmati zarurligini his etib, ig‘vo va bo‘htondan iborat “ayb”larni bo‘yniga olishga majbur bo‘ladi. “Endi ixtiyorim sizning qo‘lingizda, o‘ldirsangiz, mana boshim, agarda o‘z himoyachangizg‘a olib ishlataman, desangiz, qolg‘on umrimni firqaning va sho‘rolarning siyosat manfaatigagina sarf etib, eski gunohlarimni o‘z qo‘lim bilan tozalamoqqa tayyorman”, deydi. Ammo bu tavba-tazarrular e’tiborga olinmaydi.

Munavvarqorining milliy uyg‘onish davrining buyuk kishisi bo‘lganligini bir shogirdining 1934-yil yanvar oyidagi “Yosh” jurnalida bosilgan maqolasidagi e’tirofdan yaxshi anglash mumkin.

“Tarixni shaxslar yaratadi, Tarix tarjimai hollardan, ayniqsa, atoqli kishilarning tarjimai hollaridan iboratdir, deydilar. Menimcha, biz ham Turkiston tarixining o‘tgan asr so‘ngidan boshlangan uyg‘onish davrini boshlab Munavvarqori yaratdi va Turkiston tarixining jadidchilar davri boshdan oxirigacha Munavvarqorining tarjimayi holidan iboratdir, desak yanglishmaymiz”[18].

Millatning buyuk fidoyisi avlodlarga qoldirgan ilmiy-adabiy merosi, ijtimoiy-siyosiy faoliyatidagi jasorati bilan xalqimiz qalbida abadiy yashab qoladi.

KAMAL ABDULLANIN “SİRLƏRİN SƏRGÜZƏŞTİ” POSTMODERN ROMANININ JANR XÜSUSİYYƏTLƏRİ, PROBLEMATİKASI, XRONOTOPU, OBRAZLARI VƏ BƏDİİ DİLİ

Salidə Şəmməd qızı ŞƏRİFOVA
filologiya elmləri doktoru,
AMEA-nın professoru, Rusiya Təbiət Elmləri Akademiyasının həqiqi üzvü
Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyası
Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutu
+99 450 755 15 57
ssharifova@rambler.ru

XÜLASƏ: Kamal Abdullanın “Sirlərin sərgüzəşti” romanı əvvəlki roman ənənəsindən uzaqlaşan postmodern roman nümunəsidir.

Kamal Abdullanın “Sirlərin sərgüzəti” romanında müxtəlif əsərlərin elementlərinin kombinə edilməsi özünü büruzə verir. Romanda pastiş müəllifin özünün qələmə aldığı əvvəlki əsərlərindən kombinə etməsində özünü göstərir. Kamal Abdulla “Sirlərin sərgüzəşti” romanında postmodernizm üslubunda yazılmış “Şah İsmayıl, yaxud hamı səni sevənlər burdadır...” pyesi və “Sehirbazlar dərəsi” roman-pritçasından Hacı Mir Həsən ağa Səyyahla bağlı epizodlardan yararlanmışdır.

Açar sözlər: Azərbaycan ədəbiyyatı, Kamal Abdulla, Sirlərin sərgüzəşti, postmodern roman, janr, pastiş

Жанровые особенности, проблематика, хронотоп, образы и художественный язык постмодернистского романа Камала Абдуллы «Приключение тайн»

[17] Мунаввар Қори Абдурашидхонов. Танланган асарлар. Тошкент, “Маънавият”, 2003. Б.177.
[18] Бегали Қосимов.Миллий уйғониш, Жасорат, Маърифат, Фидойилик, Тошкент, “Маънавият”, 2002 й. Б.234-235.

АННОТАЦИЯ: Художественное произведение Камала Абдуллы «Приключение тайн» представляет собой образец постмодернистского романа, отходящего от традиций предшествующей романистики.

Роману Камала Абдуллы «Приключение тайн» характерно комбинирование жанровых особенностей различных типов произведений. В романе проявляет себя пастиш, отсылающего читателя к двум более ранним произведениям автора. В «Приключении тайн» Камаль Абдулла использовал эпизоды из постмодернистской пьесы «Шах Исмаил, или Любящие тебя все здесь...» и романа-притчи «Долина кудесников», связанные с Хаджи Мир Хасаном ага Сайя.

Ключевые слова: Азербайджанская литература, Камал Абдулла, «Приключение тайн», постмодернистский роман, жанр, пастиш

Genre features, problematics, chronotope, images and artistic language of Kamal Abdulla's "The Adventure of Secrets" postmodern novel

ABSTRACT: Kamal Abdulla's novel "The Adventure of Secrets" is an example of a postmodern novel that departs from the previous novel tradition.

In Kamal Abdulla's novel "The Adventure of Secrets", the combination of elements of various works is evident. In the novel, pastiche manifests itself in the author's combination of his previous works. In his novel, Kamal Abdulla used the sections about Hacı Mir Hasan Ağa Sayyah from the epic play "Shah Ismail or, the all who love you are here…" and the novel-tale "Valley of the sorcerers" written in postmodernism style.

Keywords: Azerbaijani literature, Kamal Abdulla, The Adventure of Secrets, postmodern novel, genre, pastiche

Giriş

Kamal Abdullanın "Sirlərin sərgüzəşti" romanı əvvəlki roman ənənəsindən uzaqlaşan postmodern roman nümunəsidir. Roman postmodernizmə xas olan pastiş, dekonstruksiya, təhtəlşüur, mistifikasiya və digər üslubları özündə əks etdirmişdir. "Sirlərin sərgüzəşti" romanında postmodern romanlarda olduğu kimi obrazlar arasında müəllifin olması, mətn daxilində digər bədii əsərdən nümunənin verilməsi, bədii yaradıcılıq haqqında fikirlər mübahisəsi, janr qarışıqlığı, müxtəlif süjet xətlərinin bir-birinə qarışmasını da müşahidə edirik. Kamal Abdullanın "Sirlərin sərgüzəşti" romanının bədii təşkili zamanı dialoqizmin və səslərin polifoniyasının özəlliklərinə, hipertekstuallığa və intertekstuallığa, müxtəlif şablon və üslubların bədii kodların parodik - ironik imitasiyasından istifadəsi özünü göstərir. Həmçinin, əsərdə bədii zamanın xaotikliyinə, bədii məkanda real və qeyri-reallığın qarışmasına, mənəvi dəyərlərin dekonstruksiyasına rast gəlmək mümkündür.

Romanın janr xüsusiyyətləri

Kamal Abdullanın "Sirlərin sərgüzəşti" romanında müxtəlif əsərlərin elementlərinin kombinə edilməsi özünü büruzə vermişdir. Belə ki, romanda pastiş müəllifin özünün qələmə aldığı əvvəlki əsərlərindən kombinə etməsində özünü göstərmişdir. Kamal Abdulla "Sirlərin sərgüzəşti" romanında postmodernizm üslubunda yazılmış "Şah İsmayıl, yaxud hamı səni sevənlər burdadır..." pyesi və "Sehirbazlar dərəsi" roman-pritçasından Hacı Mir Həsən ağa Səyyahla bağlı epizodlardan yararlanmışdır.

"Şah İsmayıl, yaxud hamı səni sevənlər burdadır..." pyesindən olan Hacı Mir Həsən ağa Səyyahın "Sirlərin sərgüzəşti" əsərində professor, professorun qızı, professorun aspirantları obrazlarının kombinə edilməsi kimi özünü göstərir.

Kamal Abdullanın "Sirlərin sərgüzəşti" romanında pastiş əlamətləri əsərin postmodern süjet xəttində özünü göstərə bilmişdir. Müəllifin əvvəl qələmə aldığı əsərlərdəki obrazlara, məkanlara bu əsərdə rast gəlinməsini müşahidə edirik. Müəllifin digər əsərinin adı ilə eyni olan əsərin adına oxşar dərənin bu əsərdə rast gəlinməsi faktı müəllif tərəfindən işlədilən ədəbi üslubdur. Kamal Abdulla dərəni bir kollektiv obraz kimi canlandırır. "Sirlərin sərgüzəşti", həm də əsərin adında özünü əks etdirən "Sehrbazlar dərəsi" əsərlərində olduğu kimi. Hər iki əsərdə müəllif bir çox insanların bu

dərəyə can atmasını təsvir edir. Yazıçının nicat, ümid yeri kimi təqdim etdiyi Sehrbazlar dərəsinə "Sehrbazlar dərəsi" və "Sirlərin sərgüzəşti" əsərlərində rastlaşırıq. "Sirlərin sərgüzəşti" romanında müəllif dərəni belə təqdim etmişdir: "Dərədə yaşayanlar var idi. Bunlar sehirbaz idilər. Onlar dərə boyu ora-bura səpələnmiş mağaralarda (hücrələrdə) yaşayırdılar. Dərənin adı ətrafa elə belə də yayılmışdı: Sehrbazlar dərəsi. Şəhər əhli və hətta uzaq-uzaq şəhərlərdən caduya-pitiyə, sehrə ehtiyacı olanlar bu dərəyə gələr, orada hər hansı sehribazla razılaşıb dərdini söylər, çarəsini gözlərdi." (Abdulla, 2019, s. 123) Hətta eyni obrazların romanlarda da əksini tapmasını müşahidə edirik. Hüsnükərim obrazına həm "Sirlərin sərgüzəşti", həm də "Sehrbazlar dərəsi" romanında rast gəlinir. "Sehrbazlar dərəsi" romanında "Deyirdilər dərviş Hüsnükərəm gözdənkönüldən bu cür itəndən sonra gedib sehrbaz olubmuş, Sehrbazlar dərəsində gəzib-dolaşırmış." (Abdulla, 2006, s. 30) "Sirlərin sərgüzəşti" romanında isə Novruzəlinin Hüsnükərəmlə tanış olması xatırlanır:"...şəhər bazarında Sehirbazlar dərəsində yaşayan dərviş Hüsnükərəm adlı bir sehirbazla tanış olmuşdu." (Abdulla, 2019, s. 129)

Kamal Abdullanın qələmə aldığı əsərlərdə utopik ölkənin, Çərxi-fələk adlanan məkanın da utopik olması özünü göstərir. Müəllifin utopik ölkə təsviri həm "Sehrbazlar dərəsi" romanında, həm də "Sirlərin sərgüzəşti" əsərində rast gəlinir. Müəllif əsərində utopik dövlətin mənzərəsini məhz Sehrbazlar dərəsinin simasında verməyə cəhd edir. Onun bu təsvirində utopik dövlətin modeli təqdim edir: "Sehrbazlar hər gün iki-iki, üç-üç dərənin dibi ilə gəzişib, bir-birilə söhbət edərdilər. Oxuduqları kitab və risalələri təhlildən keçirərdilər. Müştəri gəldiyində hər sehirbaz qazandığı pul-paranı dərədə yaşayanların ümumi güzəranı üçün xərclərdi, heç kim şəxsən özünə mənfəət gözləməzdi." (Abdulla, 2019, s. 123) Kamal Abdullanın dünyəvi ehtirasların heçliyini, bütövlükdə natamam cəmiyyətin və insanın mənasızlığı problemini əks etdirən "Sehrbazlar dərəsi" romanında da utopik cəmiyyətin olması amilinin əksi dərə vasitəsilə təqdim edilir: "... birisinin gətirdiyi qazancdan hamıya pay düşərdi. Geri dönən sehrbaz qazandığını o biri sehrbazlarla bölüşməsə idi, olmazdı, yemə-içmələri bunların bir idi, dərdsərləri bir idi, gəzib-dolaşmaları, bir-biri ilə danışıb-demələri, susub-durmaları bir idi." (Abdulla, 2006, s. 15)

Kamal Abdullanın həm "Sirlərin sərgüzəşti", həm də "Sehrbazlar dərəsi" romanlarında Çərxi-fələk ölkəsinin xatırlanması məqamı da diqqətdən yayınmır. Diqqətdən yayınmayan məqam isə hər iki əsərdə Çərxi-fələk ölkəsinin təsviri zamanı oxşar cəhətlərin eyniyyət təşkil etməsidir. Müəllif "Sehirbazlar dərəsi" romanında Çərxi fələk ölkəsini belə təqdim edir: "Çərxi-fələk ölkəsindən çıxıb başqa bir məmləkətə getmək isə heç mümkün deyil. Kim bunu etməyə çalışıbsa alınmayıb, gedib-gedib yenə dövrə vurub hərəkətə başladığı nöqtəyə gəlib çıxıbdır. Ta əyyami-qədimdən bu günədək bunu etmək, yəni qulluğuna ərz edim, Çərxi-fələk adlı məmləkətdən çıxmaq və başqa ölkələrə səfər etmək bu vaxtacan ancaq bir adama qismət olubdur." (Abdulla, 2006, s. 15) "Sirlərin sərgüzəşti" romanında Çərxi-fələk ölkəsinin sehirbazların məskəni olmasının şahidi oluruq: "Sən Çərxi-fələk ölkəsinə elə-belə gedəmməsən. Əvvəlcə əməli-saleh birisi olmalısan. Əməli-saleh olmasan o şəhərə aparan yolu tapa bilməyəcəksən." (Abdulla, 2019, s. 131)

Kamal Abdullanın həm "Sirlərin sərgüzəşti", həm də "Sehrbazlar dərəsi" romanlarında diqqəti cəlb edən amillərdən biri də təkcənəlik vaxtının təsvir edilməsidir. Təkcənəlik vaxtı deyilən zaman bölgüsü göründüyü kimi Kamal Abdullanın bir çox əsərlərində özünü göstərməkdədir. Ədibin sufi fəlsəfi ənənəsinin müəllif ideyasına tabeliyini əks etdirən "Sehrbazlar dərəsi" roman-pritçasında təkcənəlik vaxtının təsviri ilə "Sirlərin sərgüzəşti" romanındakı təkcənəlik vaxtları arasında oxşarlıq da özünü büruzə verir: "Bəlkə ancaq gün ərzində hər bir sehrbaz bir, ya iki saatlığa xəlvətə çəkilib qayalıqların ya da addabudda amma böyük bir ağac boyda bitən kolkosların arxasında yalnız özü-özü ilə təkcə qalardı. Bu vaxtın adına təkcənəlik vaxtı deyilərdi. Bu vaxt onlar üçün müqəddəs vaxt idi, heç bir başqa sehrbaz bu vaxtın içinə girməyə cürət etməzdi, yasaq idi nədi, qadağa idi bu vaxt. Bu vaxt ərzində sehrbaz nə edərdi, nə etməzdi ancaq özü bilərdi. Özü-özü ilə danışardı, amma bu dili bir kimsə bilməzdi, özü-özünə suallar verərdi, özü də bu sualları cavablardı." (Abdulla, 2006, s. 59) Müəllifin "Sirlərin sərgüzəşti" romanında da təkcənəlik vaxtının təsviri məhz "Sehrbazlar dərəsi" romanındakı təkcənəlik vaxtını xatırladır: "Sehrbazların bir yerdə gün keçirmələrindən əlavə, həm də bir-birindən ayrıca, tək-tənha keçirdikləri vaxtın adına "təkcənəlik vaxtı" deyilirdi. Təkcənəlik vaxtı bir qəribə zaman kəsiyi idi. "Təkcənəlik vaxtı" hamı

sehrbazlar bir-birindən gizlənər və ayrı-ayrılıqda hərəsi bir tərəfə çəkilib huşa gedər, sanki bu yerlərdən quş kimi aralanıb tamam başqa məkanlara uçardılar. Bu vaxtın içinə girənlər özlərini, ətrafındakıları unutmuş bir halətə gələrdilər, heç nəyə diqqət edə bilməzdilər. Məhz bu vaxt onlar gedib uzaq-uzaq ölkələri gəzir və öz sehrləri üçün güc yığırdılar. Sonra da bu gücü lazım olan istiqamətə yönəldirdilər". (Abdulla, 2019, s. 124)

"Sirlərin sərgüzəşti" romanında "Kitabi Dədə Qorqud" dastanına toxunulması maraq doğurur. Kamal Abdulla qələmə aldığı romanda həm folklor qaynaqlarına, əsasən də, VII-XI əsrlərə aid ədəbi abidə olan «Kitabi Dədə Qorqud» dastanına müraciət etməklə tarixi yaddaşa müraciət etmiş, həm də dövrünün ən mühüm, vacib məsələlərini də əks etdirmişdir. Bu baxımdan, müəllifin qələmə aldığı roman yox olmuş keçmişin tarixini əks etdirən əsər kimi deyil, estetik qiyməti olan bədii əsər kimi də qavranılır: "Get-gedə Həsən müəllimin təkcə marağı yox, həm də təəccübü artırdı. Qarşısındakı kağızların dərinliyindən üzə çıxıb canlanan yazıları oxuduqca qoca professorun beyninə qəribə fikirlər, suallar girirdi:

"Necə olub ki, o, "Kitabi-Dədə-Qorqud" dastanını dərindən bilən (bəlkə də pis bilməyən) Kamal Abdulla adlı bir alim dostu ilə Dastanı dəfələrlə müzakirə edib, amma bu incə məqama diqqət yetirməmişdi?! Dostu Kamal müəllim də bu barədə ona heç bir söz deməmişdi?! Yəqin heç o özü də bunu bilmirdi." (Abdulla, 2019, s. 74) Müəllif oxucusuna bu sualı yönlətməklə, onu intizarda saxlamağı da bacarır. Oxucu Həsən müəllimin nə axtarmasını, Kamal Abdullanın nəyi bilməməsi sualını artıq özünə verir. Müəllif verdiyi sualı bir müəllif kimi cavablandırır: "Necə olub ki, dastan haqqında dəyərli yazılar yazan başqa alimlər də Beyrək və Banıçiçək münasibətlərindəki bu vacib məqama fikir verməyiblər?! Həqiqətən də, bu iki gəncin yarışmasında əsl qalib hansı olmuşdu?!" (Abdulla, 2019, s. 75) Əsərdə maraqlı məqamlardan biri də müəllifin, yəni Kamal Abdullanın epizodik şəkildə də olsa təsvir edilməsidir.

Müəllifin əsərdə dekonstruksiyaya müraciət etməsini də müşahidə edirik. Dekonstruksiya varlığın xaotik (nizamsız) elementlərdən ibarət mozaika kimi əks etdirilməsinin alətidir. Dekonstruksiyadan istifadə etdikdə bədii mətnin quruluşunun aparıcı prinsipi nonseleksiya olur. Müəllif qeyd edir ki, "dastanın hər iki qədim mətni və bu mətnlər arasında hazırlanan bütün nəşrlər deyirdi ki, bu yarışların qalibi Beyrəkdir." (Abdulla, 2019, s. 75) Müəllif "hər iki mətn" dedikdə, "Kitabi-Dədə Qorqud" (*"Kitab-i Dədəm Qorqud əla lisan-i taife-i Oğuzan")* dastanının bir müqəddimə və on iki boydan ibarət olan Drezden nüsxəsi və bir müqəddimə və altı boydan ibarət Vatikan nüsxələrini nəzərdə tutur. Əsərdə Hacı Mir Həsən ağa Səyyah tərəfindən deyilənləri qələmə alan Həsən müəllimin dedikləri, Beyrək və Banuçiçək arasındakı sevgi xətti dekonstruksiyaya uğramasa da, onların bir-biriləri ilə tanışlığı zamanı sınaqdan keçmələri vaxtı baş verən hadisələr dekonstruksiyaya uğramışdır. Dastandan fərqli olaraq, romanda Banuçiçək Beyrəyi məğlub etmişdir.

Romanın problematikası

Əsərin problematikası bir çox mövzuları əhatə edir. Əsərdə müəllifin əsas mövzuyla yanaşı yardımçı mövzulara da müraciət etməsi diqqətdən yayınmır. Müəllif səciyyəvi olan, özünün dərk etdiyi kimi təqdim etdiyi həyat hadisələrini həm tarixi, real, həm də irreal məqamda olan hadisələrin təsvirində, həmçinin də müasir dövrün sosial problemlərin əks etdirilməsində göstərir. Məsələn, Həsən müəllimin qızı Həlimə və Şahinlə olan ailə münasibəti, aralarındakı gərgin münasibət, Şahinin bir yerdə işlədiyi tibb bacısı Esmeralda ilə Həliməyə xəyanəti və s. epizodların təsviri müasir dövrün sosial problemləri kimi əksini tapır. Müəllif əsərdə bir şəxsin keçirdiyi iztirab və ağrıları da əsərin problematikasında açıqlamağa nail olur: "...Belə necə yaşamaq olar?! Necə dözmək olar?! Yada salmaq əziyyətdirsə, xatırlamamaq axı əsl məşəqqətdi..." (Abdulla, 2019, s. 81)

Əsərin problematikasında qəbirstanlıqlara yaxın yerlərdə yaşayış məskənlərinin salınması faktına toxunulmuşdur. Müəllif onu da xüsusi qabartmağa nail ola bilmişdir ki, qəbirstanlıq yanında yaşayış məskəninin salınması torpağı uğrunda canını vermiş insanlara olan ehtiramdır. Onların yaddaşlarda yaşaması, unudulmamasıdır. Hamının torpağı uğrunda canını verməyə hazır olmağa səsləyişdir: "Qəbristanlıqlara yaxın yerlərdə yaşayış yerləri salınırdı. Bu yaşyış yerləri bir az tez, bir az gec kəndlərə çevrilirdi.

Kəndlərdən bəziləri böyüyüb şəhər olurdu. Şəhərlər daha sonra ölkələr, dövlətlər yaradırdı. Şəhərlərdən bəziləri ölkələrin paytaxtı olurdu." (Abdulla, 2019, s. 8) Kamal Abdulla bununla da soy-nəsil yaddaşına bağlılığa işarə edə bilir.

Əsərdə Dədə Qorqud dastanındakı qəhrəmanların bir-biriləri ilə hansı dildə ünsiyyət qurması dil problemi məsələsinin qabardılması amili kimi anlaşılmalıdır. Qantural və Selcan Xatunun hansı dildə danışıb, bir-birilərini anlamaları bir problem kimi təsvir edilir. Müəllif dil problemini vurğulamaqla oxucunun diqqətini həssas məsələyə yönəltməyə cəhd edir. Əsərdə Selcan Xatun kafir qızı kimi təqdim edilir: "...Qanturalı Sarı donlu Selcan Xatunla hansı dildə danışırdı?! Selcan Xatun axı kafir qızı idi – Trabzon təkurunun qızı. Bəs Beyrək Bayburd bəyi (o da kafir idi) ilə, onun qızı ilə hansı dildə danışırdı. Bayburd bəyi Dəli Qacarla hansı dildə danışırdı?! Və nəhayət, Dədə Qorqud Təpəgözlə hansı dildə danışırdı?!" (Abdulla, 2019, s. 112) Müəllif əsərdə oxucusuna ritorik suallarla müraciət edir.

Kamal Abdulla əsərində həyat hadisələrini bir-biri ilə əlaqələndirmək baxımından, təbiət təsvirlərinə yer ayırır. Müəllif peyzajdan məharətlə istifadə etməsi ilə də diqqəti cəlb edir. Yazıçı qələmə aldığı əsərdə təsvir etdiyi məkanın gözəlliyini və obrazını incəliklə təqdim edir: "Oğuz elinin əsas su mənbəyi Selləmə çayı idi. Bu çay suyu, balığı bol bir çay idi. Mənşəyini Qaf dağlarından alıb gəlirdi və Oğuz düzəngahına çatana qədər aramsız və səbirsiz, dəli bir həvəslə axırdı. Fəqət düzəngaha çatdıqdan sonra çay kəməndə düşüb məğlub olmuş kimi sakitləşir, arif bir insan kimi təmkin göstərirdi." (Abdulla, 2019, s. 98)

Müəllif peyzajın təsviri zamanı təsvir etdiyi təbiət mənzərəsini oxucusunun gözündə canlandırır. Kamal Abdulla Görükməz təpənin təsviri zamanı bütün detalları kiçik nyüanslarına qədər vurğulamağa qadir olur: "Məmləkət şəhərlərindən birinin yaxınlığında (bəlkə də girəcəyində) xalq arasında adına Oğuz düzəngahı deyilən bir düzəngah vardı. Bu düzəngaha burulan yolun sağ tərəfində (şəhərə doğru gedərkən) bir təpə vardı. Bu təpənin varlığı və yoxluğu tam bir müəmma idi. Deyilənlərə görə, o, bəzən ona baxan adama görünür, bəzən də görünmürdü. Bunun üçün də adı Görükməz təpə idi." (Abdulla, 2019, s. 122) Görükməz təpənin adı "Sehrbazlar dərəsi" romanında tez-tez istifadə olunur. Müəllif məhz "Sehrbazlar dərəsi" romanında 30 dəfədən çox Görükməz Təpənin adını istifadə edir. Görükməz Təpəsi ilə Sehrbazlar dərəsi arasında əlaqə olmasına işarə də edir: "Görükməz Təpənin yaşıl ətəyindən başlayıb gedəcək", o dərənin adı Sehrbazlar dərəsi idi." (Abdulla, 2006, s. 14) "Sirlərin sərgüzəşti" romanında da Görükməz Təpənin xatırlanması məqamı maraq doğurur.

(CƏMŞİD ƏMİROV VƏ KEMEL TOKAYEVİN YARADICILIĞI ƏSASINDA)

Seyidnisə Lətifli Bəxtiyar
Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutu
Türk xalqları ədəbiyyatı şöbəsi, elmi işçi
050-653-08-38
seyidnise.letifli@mail.ru

Annotasiya Dünyada baş verən cinayət proseslərinin artması ədəbiyyatda cinayət mövzularının yaranmasına zəmin yaratmışdır. Müharibə sosial-ictimai hadisə olmaqla yanaşı, eyni zamanda mənəvi-psixoloji tərəfləri olan məhfumdur. Hər iki ədibin cəbhə sıralarında fəaliyyəti onların bədii yaradıcılığına da təsir etmişdir.

Açar sözlər: Müharibə, detektiv, ədəbiyyat

XX əsrin 50-ci illərində Kemel Tokayev və Cəmşid Əmirov mənsub olduqları ölkədə detektiv nəsrin əsasını qoymuş və hər iki sənətkar yaratmış olduğu bədii nümunələrlə ədəbiyyatda dərin iz buraxmışdır. Cəmşid Əmirov "Sahil əməliyyatı" povestini 1958-ci ildə çap etdirməklə ədəbiyyatımızda detektiv nəsrə cığır açmış, Qazax ədəbiyyatında isə detektiv nəsrin əsası görkəmli ədib Kemel Tokayevin XX ərin 50-ci illərində qələmə aldığı "Daşqın" povesti ilə qoyulmuşdur. Ədiblər əsərlərində obrazların davranışı və danışıq tərzi ilə həyat həqiqətini, onların xarakterlərini məharətlə göstərir, onları düşündürən məsələləri cəsarətlə ortaya qoyur, onlar problemə baxış və konsepsiyalarını obrazlar vasitəsilə cəmiyyətə çatdırmışlar.

Hər iki ədibin cəbhə sıralarında fəaliyyəti onların bədii yaradıcılığına da təsir etmişdir. Kemel Tokayev 1942-ci ilin sentyabrından 1943-cü ilin fevralına kimi Stalinqrad cəbhəsinin 226-cı atıcı diviziyasında atıcı, sonra bölük komandiri kimi Stalinqrad şəhərini düşməndən müdafiə edib. 1943-cü ilin iyulundan 1943-cü ilin sentyabrına qədər Cənub Cəbhəsində, sonra 7-ci Mühafizə Tank Alayının tərkibində Stalinqradın, Belorusiyanın və Ukraynanın azad edilməsində, 1943-cü ilin noyabrından 1944-cü ilin fevralınadək 1-ci Ukrayna cəbhəsində, 1944-cü il avqustun 12-dən müharibənin sonuna kimi 2-ci Belarus cəbhəsində döyüşmüş və müxtəlif hərbi əməliyyatlarda iştirak etmişdir [Жунусова А., - 2021. s.66]. Cəmşid Əmirov İkinci Dünya müharibəsi zamanı ön cəbhədə Sovet Ordusu tərkibində zabit kimi Almaniya, Polşa, Çexoslovakiya, Avstriya və Çində olmuşdur. "Vətən müharibəsı" ordeni, "Döyüşdə fərqlənməyə görə", "Berlinin alınmasına görə", "Almaniya üzərində qələbəyə görə" və s. medallarla təltif olunmuşdur.

Cəsus detektivi II Dünya müharibəsindən əvvəl və Soyuq müharibə dövründə faşizmə və kommunizmə qarşı inkişaf etmişdir. Soyuq müharibə dövründə də inkişafını davam etdirmiş və beynəlxalq cinayət təşkilatları, qlobal terror şəbəkələrinin yaranması ilə yenidən vüsət almışdır. Cəsus detektivi mövzusunda qələmə alınmış bədii əsərlərin əsas mövzusu II Dünya müharibəsi və Soyuq müharibə hadisələri olmuş və tarixi dövr bədii formada yenidən canlandırılmışdır.

Kemel Tokayev müharibənin dəhşətlərini təsvir edən müxtəlif əsərlər yazmış və müharibə reallığını dəyişdirmişdir. K.Tokayevin detektiv janrında yazdığı hekayələr təfəkkür cəldliyi, situasiyanın gözəl təsviri, sözlərin gözəl ahəngdarlığı ilə seçilir. K.Tokayev müharibənin dəhşətlərini təsvir edən müxtəlif əsərlər yazır, müharibə reallığını başqa rakursdan göstərməyə çalışırdı. Yazıçının yazılarında əsas özəlliyi ondan ibarətdir ki, o, müharibə reallığını təhrifsiz məharətlə təsvir edə bilirdi.Yazıçının yazılarında əsas xüsusiyyət müharibənin reallığı əyilmədən məharətlə təsvir edə bilməsidir. O, bu əsərlərində müharibənin qəddar obrazını yaratmışdır. Onun nəsr əsərlərində əsas ideoloji fon müharibənin ədalətsizliyidir. Yazıçının müharibə mövzusunda yazdığı əsərlər onun əsl cəbhəçi olduğunu göstərir. O, Böyük Vətən Müharibəsi illərində əsgərlərin qəhrəmanlıqlarını sədaqətlə təsvir etmişdir [Шакиев М., - 2023. s.50]. "Əsgər döyüşə getdi" romanında amansız müharibə dövrü aydın təsvir edilmiş, hər bir detal verilmişdir. Kemel Tokayevin 1983-cü ildə qazax dilində nəşr olunan "Əsgər döyüşə getdi" romanı 2 hissədən

ibarətdir: “Əsgər döyüşə getdi” və “Yuvasını sındıran quş” [Аяпова Г., - 2020. s.5]. Əsərin dəyəri ondadır ki, onu təkcə döyüşdə həlak olan hərbçi yox, cəbhənin qəlbindən çıxmış bir insan yazmışdır. Yazıçı romanında 1943-cü ilin yayında baş verən hadisələri belə təsvir edir: “Bizim Mühafizə Tank Alayı Cənub Cəbhəsindən qayıtdı. Bir çox yoldaşlar geri qayıtmadı. Döyüş meydanında həlak olub. O günləri düşünəndə fikirləşirsən ki, cəhənnəm odundan necə xilas oldun, sağ qaldın. Ətrafınızdakılar ölürdü, amma siz sağ qaldınız. Heç mümkün görünmür. Amma həqiqət budur” [Токаев К., Солдат алысқа кетті. - 1983, s.48]. “Əsgər müharibəyə getdi” əsəri müharibə zamanı sovet əsgərlərinin qəhrəmanlığı halları təsvir edilmişdir. Bədii əsər səviyyəsində yazılmış bu əsər bioqrafik əsəri xatırladır. O, təkid edir ki, sovet əsgərləri arasında müxtəlif şəxsiyyətlər, ziddiyyətli talelər var, təkcə qanlı müharibə və iki qarşıdurma qüvvəsinin toqquşması deyil, həm də saysız-hesabsız və müxtəlif taleləri tapdalayan qüdrətli bir qüvvə var. Müharibə kimi tarixi və siyasi qaranlığın sadə insana, xalqa təqdim olunması müxtəlif obrazlar və personajlar vasitəsilə çatdırılmışdır. Öz növbəsində bu hekayə cəbhədə və ondan sonrakı həyatı təsvir edən ən yaxşı əsər kimi qiymətləndirilmiş, ədəbiyyata böyük töhfə olmuşdur. Sakit bir günün qədrini bilmək üçün o qaranlıq illəri verilənlərlə, ədəbi dillə təsvir olunan əsərlərdən oxuyub anlaya bilərik. “Əsgər döyüşə getdi” romanı müharibənin bəşəriyyət üçün böyük bir fəlakət olduğunu, insan həyatının qorunmaq üçün çox zəif olduğunu, insan həyatının daim təhlükə altında olduğunu, zorakılığın amansızlığını və ədalətsizliyini göstərir. Əsərdə mürəkkəb psixoloji situasiyaların müfəssəl təsviri onu göstərir ki, bu proseslər müharibədə deyil, həm də dinc həyatımızda görünməz formada cərəyan edir.

Cəmşid Əmirov Böyük Vətən müharibəsində iştirak etmiş və şahid olduğu hadisələri “Sahil əməliyyatı” povestində əks etdirmişdir. Asayişin keşiyində duran polis işçilərinin həyatından bəhs edən bu əsərdə onların cinayətkarlarla mübarizəsi, qorxmazlığı, peşələrinə olan ciddiyyəti və məsuliyyəti bədii boyalarla əks olunmuşdur. Müəllif əsərdə yaratdığı obrazları bütün səciyyəvi xüsusiyyətləri ilə canlandırmışdır. Əsər vahid süjet xətti əsasında qurulmuşdur. Povestdə cərəyan edən proseslər konkret məqsəd daşımış, real və tipik şəraiti göstərmişdir. “Sahil əməliyyatı” povesti bədii dilinin axıcılığı, üslubunun yetkinliyi, obrazların çoxşaxəliliyi ilə seçilir. Hadisələr vahid problem ətrafında cərəyan edir. Əsərin mövzusu aktual olub, əhatə dairəsinin genişliyi, bədii cəhətdən zənginliyi, obrazların orijinallığı və mətn strukturu ilə seçilir. Sovet xalqlarının öz müqəddəratları uğrunda mübarizə aparması, zülmə, ədalətsizliyə nifrəti, Vətənin azadlığı və müstəqilliyi uğrunda birgə mübarizəsi ilə yanaşı bu müharibədə qələbənin əldə edilməsində Sovet ittifaqının təhlükəsizlik orqanlarının, əks-kəşfiyyatçıların rolu böyükdür. Povestdə vətənin mühafizəsi uğrunda xarici kəşfiyyat casuslarına qarşı məharətlə mübarizə aparan Dövlət Təhlükəsizlik orqanı işçilərinin əzmkarlığı xüsusi qeyd olunmuşdur. “Sahil əməliyyatı” povestində 1944-1956-cı illərdə Bakı, Varşava və Berlində olan Böyük Vətən müharibəsi ilə bağlı hadisələr qələmə alınmışdır [Əmirov C., Sahil əməliyyatı - 2017. s.50]. Povestdə cərəyan edən hadisələr müharibə və müharibədən sonrakı dövrü əhatə edir. Povestdə cərəyan edən proseslər konkret məqsəd daşımış, real və tipik şəraiti göstərmişdir.

Yazıçı 1968-ci ildə qələmə aldığı “Tək əldən də səs çıxar” povestində müharibə dövründə xalqının igid oğul və qızlarının cəsurluğunu ön plana çıxarmışdır [Əmirov C., Şəhər yatarkən. - 1982. s.35]. Onlar Vətənin azadlığı və müstəqilliyi uğrunda böyük kiçik demədən mübarizə aparırlar. Düşmənin məkrli planlarını ortaya çıxarmaq üçün onları izləyərək məxfi məlumatları əldə edirlər. Müəllifin əsərinin adından da göründüyü vətənin müdafiəsi üçün atılan hər bir addım önəmlidir. Bir yumruq olaraq birləşib düşmənə mübarizə aparmaq lazımdır. 1969-cu ildə bitirdiyi “Vətəndən uzaqlarda” adlı romanı Azərbaycan kəşfiyyatının yaranmasının 50 illik yubileyinə həsr olunmuşdur. Əsərin mövzusu Azərbaycan neftçilərinin Ukraynada faşist işğalçılarına qarşı mübarizəsindən bəhs edir.

O, 1969-cu ildə “Mənim əsl məhəbbətim” adlı romanını bitirmişdir və nasir bu əsəri yaradıcılığının şah əsəri hesab etmişdir. Əsərdə iki süjet xətti özünü göstərir. Birinci süjet xətti Ervin Ekkertin alman cəsusu kimi Sovet Azərbaycanına göndərilməsi və fəaliyyəti təsvir olunmuş, ikinci süjet xəttində isə onun ailəsi ilə ziddiyyətləri, əsl kimliyinin ortaya çıxması və poliş işçiləri tərəfindən saxlanılması təsvir olunmuşdur. Sovet dövründə yaranan detektiv nəsrin əsas xüsusiyyəti

tərbiyəvi-mənəvi ideoloji funksiyaya malik olması idi. Yazıçı romanda Ervin Ekkert obrazına qarşı onun qardaşı olan Elçin Elgünəş obrazını yaratmışdır. Elçin obrazı vətəninə layiqli xidmət edən edən vətəndaşdır. Qardaşının alman casusu olması və planları barədə çekistlərə məlumat verir. Bu dövrdə yaranan detektiv nümunələrdə əsas qəhrəmanlar polis və təhlükəsizlik işçiləridir. Çekist Sovet detektivinin birinci dərəcəli modeli idi.

Hər iki ədibin özünəməxsus dünyagörüşü, üslubu vardır, yaradıcılıqları arasında müəyyən oxşar və fərqli cəhətlər olmasına baxmayaraq, onları birləşdirən cəhətlər əsərlərinin vahid ideoloji mövzuya, müharibə mövzusunda yazmış olduğu əsərlərə baxış, cinayət və onunla mübarizə üsulunun həlli yollarının araşdırılmasına həsr olunmasıdır.

Ədəbiyyat siyahısı

1. Аяпова, Гульзира Борамбаевна. “Development Of The Detective Genre In Kazakh Literature (based on the prose of Kemel Tokayev).” Актуальные научные исследования в современном мире 1-5 (2020): 55-58.
2. Əmirov C. Sahil əməliyyatı. Bakı, 2017, 307 s.
3. Əmirov C. Şəhər yatarkən. Bakı: Yazıçı, 1982, 197s.
4. Шакиев, Мадияр. “Кемел Тоқаев: Қаламгерлік-Тұлғалық Жолының Тарихы”. Вестник “Исторические и социально-политические науки” 1.76 (2023).
5. Солдат алысқа кетті. Роман. А., «Жазушы», 1983
6. Жунусова А.К. Кемел Тоқаев – детектив жанрының атасы // Қазақ тілі мен әдебиеті. №10, 2021. – 66-71 бб.

“MILLATGA XIZMAT ILM VA OQCHA ILA BO‘LUR”

Tohir Xo‘jayev,

Navoiy DPI O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mumtoz shoirlarimizning ilm haqidagi mulohazalariga e’tibor qaratildi. Xalq maqollari, hadislar, Imom Buxoriyning “Al –jomi’ as sahih”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq”, jadidlar, ayniqsa, Behbudiyning asarlarida bu boradagi fikrlar qamrab olindi. Ularga munosabat bildirildi va tahlil qilindi.*

Kalit so‘zlar: *ilm, bilim, fan, Imom Buxoriy, Yusuf Xos Hojib, “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiy, “Hibat ul-haqoyiq”, jadidlar, Behbudiy.*

Abstract: *This article focuses on the opinions of our classical poets about science. Folk proverbs, hadiths, Imam Bukhari's "Al-jami' as sahih", Yusuf Khos Hajibys "Kutadgu bilig", Ahmed Yugnaki's "Hibat ul-haqayq", jadids, especially the works of Behbudi, covered the ideas in this regard. They were treated and analyzed.*

Key words: *knowledge, knowledge, science, Imam Bukhari, Yusuf Khos Hajib, "Qutadgu bilig", Ahmad Yugnaki, "Hibat ul-haqaiq", Jadidlar, Behbudi.*

Hamma davrlarda yoki ma’lum vaqtlarda tilimizda, xalq orasida ko‘p ishlatiladigan so‘zlar bo‘ladi. Vatan, ona, til, ishq, ilm, bilim, hunar kabilar barcha davrning eng faol va hammaga tushunarli so‘zlardir. Keyingi yillar va ayni paytda ilm-fan, bilim so‘zini takror-takror eshitayapmiz. Bu – tabiiy. Vatan ravnaqi, millat kelajagi ilmga bog‘liqligi yanada oydinlashib bormoqda. Ilmga

munosabat,uning ahamiyati, zaruriyati millat ziyolilarining doimiy e'tiboridagi tushunchalardan biri. Xalqimiz ilmsevar, uning qadrini,mohiyatini yaxshi anglaydi. Xalq ogʻzaki ijodi asarlari, ayniqsa, maqol, ertaklarni eslab koʻraylik. Maqollardagi "Baxt belgisi –bilim", "Bilagi zoʻr birni yiqar, Bilimi zoʻr –mingni", "Ilm –aql bulogʻi", "Ilm baxt keltirar, Bilim taxt keltirar", "Ilm –tubsiz quduq", "Ilm olish –nina bilan quduq qazish", "Ilmli odam –ilikli suyak", "Ilmsiz bir yashar, Ilmli ming yashar" [Oʻzbek xalq maqollari. 2005.-S. 137-140] va hokazo. Xalqimiz orasida eng mashhuri " Ilm igna bilan quduq qazishdir", "Ilm igna bilan quduq qazishdek mashaqqatli". Bu fikrlar haqiqiy olim, haqiqiy ilm va ilm egalari uchun aytilganini e'tiborga olish lozim.

Ilm, bilim diniy boʻlsin, dunyoviy baribir ilm-da. Bu mavzuning eng koʻp ifodasini hadislarda kuzatamiz. Imom Buxoriyning "Al-jomi' as sahih" asarlarini oʻqigan kitobxon buning tasdigʻini topadi. 1-kitobning "Ilm kitobi" qismida ellik toʻrt (1-54-boblar) bobida shu mavzu xususida fikr yuritilgan. Toʻgʻri, unda diniy ilm (Islom)ga e'tibor qaratilgan. Mohiyatan har qanday ilmni ham nazarda tutish mumkin. "Kimki ilm olgan boʻlsa, paygʻambar alayhissalomdan toʻliq meros olibdir". [Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis.Al-jomi' as sahih. ririyati,1991.32-bet]

Hadislardagi ilm bilan bogʻliq muhim fikrlar quyidagilar: "Kimki ilm istab qadam qoʻysa, Olloh taolo unga jannat yoʻlini oson qilgʻaydir", "Ilmga ilm olmoq yoʻli birlan erishilgʻaydir", "Yo rabbiy, ilmimni ziyoda qilgʻaysen".Ba'zi hadislarda quyidagi mazmunlar singdirilgan: Ilm olib,oʻrganib, odamlarga oʻrgatadi. Ammo oʻzi amal qilmaydi. Bu –fosiq kishilar. Fosiq soʻzining diniy sharhi ancha keng. "Navoiy asarlari lugʻati"da esa quyidagicha: "Fosiq a.Yomon ishlar qiluvchi, yomon yoʻlga yuruvchi, buzuq, fisq ishlar bilan shugʻullanuvchi". [Navoiy asarlari lugʻati.,1972. –S.641]. Ilm sir saqlanmaydi; ilmni berkitganni Olloh taolo qoralaydi; Uyalgan kishi ilm ololmaydi; Uyalgan va mutakabbir kishi ilm ololmaydi kabilar.

Ilm, fan haqida gapirganda Yusuf Xos Hojibning "Qutadgʻu bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarlarini eslamaslikning imkoni yoʻq. Bu tushunchalar X-X11 asrlar adabiyoti namunalarining ham eng muhim mavzularidan ekanligini koʻrsatadi.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadgʻu bilig" asari X1 asr qomusi. Davr, ijtimoiy, siyosiy hayot, til, odob-axloq, davlatni boshqarish, insoniy muomala va munosabatlar, turli toifa kishilari, kasb va hunar egalari va boshqalar haqidagi mukammal doston. Unda eng koʻp tilga olingan masalalardan biri ilm, bilimdir. Dostonning bir oʻrnida 14 bayt, boshqa bir joyda 63 baytda bilim va unga yaqin tushunchalar xususida fikr yuritilgan. "Bilim kimda boʻlsa, buyuklik unda". [Yusuf Xos Hojib. Qutadgʻu bilig". 2015. –S. 28]. Asarda bilim va ilm haqidagi baytlarda asosan quyidagi mulohazalar bayon qilingan: "Bilimsiz xor"; "Bilimlining murodi hosil"; "Bilimlini buyuk bil"; "Baxt,iqbol kaliti bilim erur"; "Kimyodur bilim";"Bilimliga bilim tugal kiyim,osh"; "Bilim yaqin jigar-qarindosh"; "Bilim iforli havo"; "Bilim –nur"; "Bilimni buyuk bil"; "Bilimdur burunduk" va hokazo. Bularning izohi shart emas. Hammaga tushunarli. Maqsad ilmga intilish, bilimning inson hayotidagi ahamiyatini koʻrsatish.

Adib Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarida ham ana shularga yaqin mulohazalar koʻzga tashlanadi. Asarda alohida bir bob ilm, bilim haqida. Adibning bu boradagi fikrlari quyidagicha: "Bilik birla bilinur saodat yoʻli"; "Baholiq dinor ul biliklik kishi"; "Biliklik tishi (ayol) – er, johil er –tishi"; "Soʻngakka yiliktak eranga bilik"; "Biliklik er oʻlti –oti oʻlmagu" (ilmli kishi oʻlsa ham,nomi mangu qoladi); "Biliklik biringa biliksiz mingin" (ilmlining biri ilmsizning mingiga teng); "Biliklik kishi bilur ish oʻzin"; "Biliklik keraklik soʻzin soʻzlayur"; "Biliklik soʻzi pand-nasihat, adab".[Ahmad Yugnakiy. Hibat ul-haqoyiq// Navoiyning nigohi tushgan. 1986. –S.13-14].

Navoiy asarlarida ilm, bilim haqida nihoyatda koʻp mulohazalar bildirilgan. (Buning oʻzi alohida maqola)

Ilm, til, ma'rifat, millat taqdiri, Vatan ravnaqi kabi eng muhim masalalar jadidlar faoliyatining ham asosiy maqsadi edi. Bugun jadidlarga e'tibor hukumat darajasiga koʻtarildi. "Jadid" gazetasi chop etila boshlandi. Jadidlarning xalqimiz ma'rifati yoʻlidagi jonbozliklari, fikrlari, qoldirgan merosi hammamizga ibrat. Shoir Iqbol Mirzoning "Jadidlar" nomli she'ri ular haqidagi tasavvurimizni yanada kengaytiradi. Xuddi mening yuragimdagi gaplar topib aytilgandek:

“Olimlar juda ko‘p, Bitta Fitrat yo‘q”, “Muallimlar serob, Avloniylar yo‘q”, “Qani yurt deb o‘zini unutganlar”, “Ular g‘isht quygan, Biz tosh otamiz”, “Maishat, to‘y, hasham bosh maqsadimiz hamon”.

Ular maktab qurgan, biz uy quramiz.
Ular g‘oya surgan, biz o‘y suramiz.
Yoppa tomoshabin bo‘lib turamiz,
Jadidlar yetishmayapti,jadidlar… [Iqbol Mirzo. Jadidlar. “Jadid” gazetasi. 1-son. 1-yanvar, 2024].

Ma’lumki, milliy uyg‘onish,jadid ijodkorlarining asosiy e’tibori millatni uyg‘otishga, uni ma’rifatli, ilmli qilishga qaratilgan edi. Bunda barcha targ‘ibot vositalaridan foydalanildi. Matbuot, gazeta, jurnal, teatr, drama, sahna va boshqalar.

Bu boradagi mulohazalarni Mahmudxo‘ja Behbudiy ijodi asosida ko‘rib chiqsak. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Yoshlarga murojaat”, “Ehtiyoji millat” maqolalaridagi mana bu fikrlar bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Aksincha, zaruriyat ekanligini oydinlashtiradi. Uning asarlarida “ilm”,”millat” , “ilmi zamoniy”, “o‘qimoq”, “maktab”, “maorif”, “til”, “ta’lim”, “ulum”, “funun”, “ulamo”, “olim” kabi sozlar tez-tez ko‘zga tashlanadi. Bular adib asarlarining asosiy mohiyatini ochib beradigan kalit so‘zlardir. “Yoshlarga murojaat”da shunday yozadi: “Millatga xizmat ilm va oqcha ila bo‘lur”. “To‘yga isrof qilinaturg‘on oqchalarni o‘qumoq yo‘lig‘a sarf qilsangiz!”.[Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar.1999. –S.169]. “Ehtiyoji millat” maqolsida ham mana bunday fikrlar bor: “ Zamona ilmi va fanidan bebahra millat Behbudiyning farzandlarni o‘qishga, maktab, ilmga jalb qilish haqidagi eng asosiy mulohazalari “Padarkush” dramasida o‘z ifodasini topgan. Birinchi o‘zbek dramasi deb tan olingan bu asarda Domulla timsolida Behbudiy o‘z qarashlarini bayon etadi. Adabiyotshunos B.Qosimovning fikricha, drama 1911- yil yozilgan. 1913-yilda nashr etiladi. Asarning ikkinchi nomi “O‘qimagan bolaning holi” deb ataladi. Shuning o‘zi ham gap nimadaligini anglatadi. Boylik, ilm va ilmsizlik muqoyasa qilinadi. Ertasini o‘ylamaydigan, o‘z boyligiga g‘ururlanib, domulla, ziyolilarning pand-nasihatini eshitishga ham toqati yo‘q, farzandi Toshmurodni ilmsiz, tarbiyasiz o‘sishiga sabab Boy va ilm, tarbiyaning ahamiyatini kuyib-pishib tushuntirishga uringan Domulla suhbatlari jarayonida Behbudiy mulohazalari oydinlashadi. U boyga qarata “ O‘qumoq qarz va ilm sababi izzati dunyo va sharofati oxiratdur” [Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. 1999.-S. 40], “ agarda o‘g‘lingizni o‘qutsangiz, daftaringizni yozar, namozingizni va musulmonchiligini yaxshi bilur va ham sizga savob bo‘lur” (41-bet), “ savodi yo‘q odam hech nimaga yaramaydur” (41-bet), “ o‘qumoq barcha musulmonga, erkak va yo xotin bo‘lsun, farz edi” (42-bet) deya uqtiradi. Ilmsiz va tarbiyasiz Toshmurod va uning maishatparast do‘stlari sabab boy o‘ldiriladi. Dramaning uchinchi pardasida yana Domulla obrazi ko‘zga tashlanadi. Dod-faryod solib, o‘g‘lini qarg‘ayotgan Boyvuchcha (boyning xotini, Toshmurodning onasi)ga quyidagi fikrlarni aytadi: “Bu badbaxtlik va musibatga sabab jaholat va nodonlikdir, bema’nilik va tarbiyasizlikdir. Uyingizni nodonlik buzdi. O‘g‘lingizni beilmlik Sibirga yuboradi”. (48-bet)

Behbudiyning bir qancha maqolalarida ham ilm va ilmsizlik haqida fikrlar bildiriladi. “Zo‘raki boy” maqolasida Turkistonda tijorat, ziroat, do‘kondorlik ishlarida sinish, ishi yurishmaslikning birinchi sababini ilmsizlik deb biladi.(163-165-betlar)

“Yoshlarga murojaat” maqolasida yoshlarga murojaat qilib, hukumat ishlari, tijorat, san’atxona, zamon ishlarida zamonaviy ilmlarni egallash zarurligini uqtiradi. Islomiy, diniy ilmlar bilan birga zamonaviy ilmlarni ham o‘rganishga chaqiradi. “Din va millatg‘a xizmat ilm va oqcha ila bo‘lur.Mulkingizni sotsangiz-da o‘g‘lingizni zamoncha o‘qumog‘iga sa’y qilsangiz. To‘yga isrof qilinaturgon oqchalarni o‘qumoq yo‘lig‘a sarf qilsangiz” (169-bet).

Behbudiy “Muhtaram yoshlarg‘a murojaat” maqolasida ham ilm, maktab, ularda dars beradigan muallimlar zaruruiyatiga e’tibor qaratadi. “Muhtaram birodarlar! Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondurki, makotib (maktablar) –taraqqiyning boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning darvozasidir” (176-bet).

“Ehtiyoji millat” maqolasida diniy va zamonaviy ilm,Yevropa, Rossiya odatlari, maktab,korxona, madrasa islohi haqida gapiradi. Behbudiyning mana bu fikrlari xuddi bugunning

gapi, murojaatdek: “ Boshqa millatlarning boylari faqir va yetimlarini o‘qumog‘i uchun vaqf “ istipendiya” (stipendiya)lar ta’yin qilur” (201-bet).

Umuman, Behbudiyning bu boradagi fikrlarini ko‘plab keltirish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbek xalq maqollari. Toshkent: “SHarq”,2005.
2. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis.Al-jomi’ as sahih. Toshkent: Qomus-bosh tahririyati,1991.
3. Navoiy asarlari lug‘ati.Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti,1972.
4. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig”. Toshkent: “Akademnashr”,2015.
5. Ahmad Yugnakiy. Hibat ul-haqoyiq// Navoiyning nigohi tushgan. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti,1986.
6. Iqbol Mirzo. Jadidlar. “Jadid” gazetasi. 1-son. 1-yanvar,2024.
7. Mahmudxo ‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar.Toshkent: “Ma’naviyat”,1999.

O‘ZBEK VA JAHON BOLALAR ADABIYOTIDA FANTAZIYA JANRINING O‘RNI

Xolibekova Omongul Kenjaboyevna f.f.f.d.(PhD)
Navoiy davlat pedagogika instituti,
Ingliz tili amaliy kursi kafedrasi katta o‘qituvchisi
Email: khalibekova8484@mail.ru tel: 972833883

ANNOTATSIYA. *Ushbu maqolada o‘zbek va jahon bolalar adabiyotida* fantaziya janrining *o‘rni va ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Adabiyot bu insonni aqliy va ruhiy rivojlantiruvchi vositadir. O‘zbek bolalar adabiyoti jahon bolalar adabiyotining ilg‘or an’analari ta’sirida rivojlanganligi misollar orqali izohlanadi.*

Kalit so‘zlar*: adabiyot, bolalar adabiyoti, chet el adabiyoti, sharq adabiyoti, vosita, she’riyat, ertak.*

Mavzuning dolzarbligi. Inson fantaziyasi uning tarixi singari qadimiydir. Biroq, fantaziya qilish qobiliyati inson bilan birga tug‘iladi, deb qarash noto‘g‘ri. Chunki, tafakkur singari u turli sabablar: obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar, imkoniyatlar va ehtiyojlar, lekin eng asosiysi ijtimoiy-kommunikativ sabablar ta’siri ostida paydo bo‘lgan. Jamiyatning ibtidoiy rivojlanish davrida inson fantaziyasi sodda va oddiy bo‘lgan. U darajada boy ham bo‘lmagan. Ijtimoiy ong evolyutsiyasi, bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaning boshqasi bilan almashuvi inson dunyoqarashini o‘zgartirdi, fikrlashini kengaytirdi va chuqurlashtirdi. Natijada, inson xayoloti murakkab va boy, «konstruktiv» bo‘la boshlagan. Shu boisdan, qadimda samarasiz, ba’zan amalga oshmaydigan orzulari bugungi haqiqatga aylandi. O‘z xalq og‘zaki ijodlarida uchar gilamlar, qanotli otlar, ochil dasturxonlar, tiriklik suvi va boshqalar to‘g‘risida orzu qilgan xalqlar, qat‘iyatli mehnat, iste’dod va aqlning tirishqoqligi natijasida insoniyatga vafodorlik bilan xizmat qilayotgan fan va texnika yutuqlarini: samolyot, raketa, tibbiy kashfiyotlarni yaratdi. Sivilizatsiyaning keyingi rivojlanish jarayonlari kelajakda insoniyat fantaziyasining yaratuvchilik imkoniyatlarining beqiyosligi va cheksizligidan dalolat bermoqda.[Rahimova G.,2009. –S.308.]

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bolalar adabiyotining o‘ziga xos xususiyati — bolalar adabiyoti o‘zgaruvchan hodisa bo‘lib, u bolalar yoshi, tarixiy davr va ijtimoiy muhit bilan bevosita bog‘liq. Kitobxon yoshini hisobga olish bolalar adabiyotining eng asosiy xususiyatlaridandir. Bolalar adabiyotining yana bir xususiyati uning harakatga boyligidir. Bundan bolalar adabiyotida syujetga bo‘lgan talab ham kelib chiqadi. U voqealarning tezkor, qiziqarli, fantaziyaga, yumorga boy ravishda yechilishini talab qiladi. O‘zbek bolalar adabiyoti jahon bolalar adabiyotining ilg‘or an’analari ta’sirida rivojlandi. Jahon bolalar adabiyotining nodir namunalari o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Ular sirasiga kiruvchi “Gulliverning sayohatlari” (J.Svift), “Robinzon

Kruzo” (D.Defo), “Tom tog‘aning kulbasi” (Bicher Stou), “So‘na” (E.Voynich) kabi jahon adabiyotining nodir asarlari o‘zbek bolalarning ham sevib mutolaa qiladigan asarlari bo‘lib kelmoqda. Mustaqil mamlakatimizda kattalar adabiyotining ajralmas bir bo‘lagi bo‘lgan bolalar adabiyotining rivojlanishi, har tomonlama boyib borishida tarjima asarlarining o‘rni, ahamiyati katta. Negaki, tarjima asarlarini o‘qigan har bir yosh kitobxonning dunyo haqidagi fikri, tasavvuri boyib, o‘sha xalqning yashash sharoitlari, urf-odatlari, mehnatlari, orzu-intilishlari bilan oshno bo‘ladilar. Asrlar osha xuddi ertak kabi eldan elga, tildan tilga o‘tib, dillarni yashnatib yurgan “Qizil Shapkacha”(Sh.Perro), “Robinzon Kruzo” (D.Defo), “Gulliverning sayohatlari” (J.Svift), “Dyumchaxon” (H. Andersen), “Oltin baliq” (A.S.Pushkin), “Tom Soyerning boshidan kechirganlari”, “Shahzoda va gado” (M. Tven), “Kapitan Grant bolalari”, “Ostin-ustin” (S. J.Vern), “Don Kixot” (J. Servantes) kabi asarlar yosh qalblarning olamga nisbatan qiziqishlarini jo‘sh urdirib yuboradi. XX asrda yaratilgan “Maugli” (R. Kipling), “Kichkina Shahzoda” (A.De Sent – Ekzyuperi), “Katta va kichik Karlson” (A.Lindgren), “Toshkent – non shahri” (A.Neverov), “Vinni Pux” (A. Miln), “Ahmoq sichqoncha haqida ertak” (S.Marshak), “Uch baqaloq” (Y.Olesha), “Quvnoq japbaqlar” (B. Kerboboyev), “Doktor Aybolit” (K.Chukovskiy), “Temur va uning komandasi” (A. Gaydar), “Chipollinoning sarguzashtlari” (J. Rodari), “Styopa amaki” (S.Mixalkov), “Kim bo‘lsam ekan?” (V. Mayakovskiy), “Bilmasvoy quyosh shahrida” (N. Nosov) singari olam kezib yurgan asarlar o‘zbek kitobxon bolalarida katta taassurot qoldirmoqda. [Mirzayev I.K, Muhiddinova B., Ro‘zmonova R., 2019. –S.113.] Ushbu yozuvchilarning asarlari bolalarga har tomonlama ta’lim va tarbiya berishga qodir bo‘lgan noyob asarlar desak, yanglishmagan bo‘lamiz. Har bir tarixiy davr o‘zining fantastik obrazlarini va syujetlarini yaratgan. O‘z shakliy tuzilishi va mazmuniga ega bo‘lgan bu obrazlar xarakteriga ko‘ra bevosita hayot, tabiat sirlari to‘g‘risidagi tasavvurlar xarakteri bilan bog‘liq bo‘lib, bu «tasavvurlar» mexanizmini aks ettirar edi. Ertak, afsona va mifologik obrazlarning va badiiy elementlarning ayrim o‘xshashliklari yaqin va o‘rta sharq xalqlari adabiyotining shakillanishida muhim rol o‘ynadi. Xususan, arab xalq ertaklaridan “Ming bir kecha”, “Kalila va Dimna”, “Qobusnoma” singari asarlarda yaqqol ko‘rinadi.

Qadimgi mifologiya va folklorda fantastika elementlari animistik, totemistik motivlar va personajlar ko‘rinishida bo‘ladi. Xususan, bu juda ko‘plab o‘zbek xalq ertaklarida, masalan, “Ayiq polvon”, “Ilon pari”, “Cho‘loq bo‘ri”, “Sherzod va gulshod”, “O‘tinchi boy”, “Er Kenja”, “Qiron og‘a”, “Qilich botir” singari sehr-jodu bilan bog‘liq ertaklarda namoyon bo‘ladi. Jumladan, «Yoriltosh», «Ochil-ochil qamishlar» singari ertaklarda sehr-jodu tufayli tabiatdagi jonsiz predmet-narsalarga jon ado etiladi, ular tilga kirib inson bilan muloqotga kirishadi. Yoki qahramonning joni qilichda, uzukda bo‘lib, biror joyga yashirilgan bo‘ladi. Shu tufayli qahramon hech qachon o‘lmaydi. («Qiron og‘a», «Qilich botir» singari ertaklarda). Ko‘rinadiki, ertaklardagi animistik, totemistik motivlar, obrazlar sehr-jodu bilan bog‘liq. Shu boisdan ham ertaklar fantastika elementlarining tutgan o‘rniga qarab tasnif etiladi. [Husanboyeva Q.,Niyozmetova R. 2020. –S.56.]

O‘zbek xalq og‘zaki ijodidan fantastik elementlarning ta’siri ostida o‘zbek mumtoz adabiyotida fantastik tasvir maydonga kelgan. O‘zbek mumtoz adabiyotida fantastik tasvirni deyarli ko‘pchilik ijodkorlar asarlarida uchratishimiz mumkin.

Jumladan, Rabg‘uziyning «Qissasi Rabg‘uziy» Xorazmiyning «Muhabbatnoma», Navoiy «Xamsa»sida, Majlisiyning «Qissasi Sayfulmulk» singari asarlarida ko‘rishimiz mumkin. Navoiy dostonlarida fantastik tasvirlar tasodif emas, chunki birinchidan, ular judayam ko‘p, ikkinchidan, ular ma’lum ma’noda e’tiqod tasavvurlarini aks ettiruvchi fantastika emas, balki shoir g‘oyalarini ifodalovchi badiiy uslub sifatida ko‘zga tashlanadi.

Tahlil va yechimlar. Ma’lumki, ilmiy fantastikaning shakllanishi XX asrning ikkinchi yarmiga ijtimoiy taraqqiyotidagi ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning mislsiz ravishda rivojlanish davriga to‘g‘ri keladi. *«O‘tgan asr oxirida,*-deb yozadi Gerbert Uells,-*sehr-jodudan hech kim ajablanmasdi,hech kim unga va uning natijalariga ishonmasdi. Shunday bir vaqtda hayolimga bir fikr keldi. Kitobxonni iblis yoki ko‘zboylag‘ich, sehrlar bilan duch keltirish*

o‘rniga, agar sen ozgina hayol qila oladigan bo‘lsang, fan ko‘rsatgan yo‘ldan borish mumkin. Bu katta kashfiyot emas edi. Men faqat eski feteshni yangisi bilan almashtirdim, xolos. Imkoniyat darajasida uni haqiqiy nazariyaga yaqinlashtirdim».[Borodich A.M. 2014. –S.49.]

Jahon adabiyotida ilmiy fantastikaning yorqin namunalari Jyul Vern va Gerbert Uellsgacha ham uchraydi. Xususan, Tamazzo Kampanellaning 1623-yilda yaratgan «Quyosh shahri», Frensis Bekonning 1627-yilda yaratgan «Yangi Atlanta», Jonatan Sviftning «Gulliverning sayohatlari» singari asarlarini e’tirof etish mumkin. Bu asarlarda fan va texnika yutuqlari, ijtimoiy taraqqiyot g‘oyalari tashviq etiladi. Biroq, baliiy adabiyotning bir tarmog‘i sifatida, yangi mustaqil turi sifatida ilmiy fantastika J.Vern va G.Uells ijodida har tomonlama taraqqiy etdi. [Bolshova T.V.,2009. –S.63.]

Bu albatta, boshqa xalqlarning milliy adabiyotlariga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bugungi kunda o‘zbek fantastikasiga Mahkam Mahmudov, Tohir Malik, Xojiakbor Shayxov, Murod Xidir, Anvar Qosimov singari yosh ijodkorlar poydevor qo‘yib kelmoqdalar.

Xulosa. Jahon adabiyotining o‘zbek adabiyotidagi o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Chunki jahon adabiyoti bolalarning fikrlashini rivojlantiradi, ularni har tomonlama rivojlanishlariga turtki va omil bo‘ladi. Bugungi kunda yaratilayotgan fantastik asarlar yoshlarimizni yuksak ma’naviy, qahramonlik, milliylik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Rahimova G. Ona tili va adabiyot(bolalar adabiyoti). O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDU, – 308-bet.
2. Mirzayev I.K, Muhiddinova B., Ro‘zmonova R. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. Samarqand, SamDU, 2019.
3. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: “Innovatsiya-ziyo”,2020.
4. Borodich A.M. Bolalar nutqini rivojlantirish usullari. – M., 2014.
5. Bolshova T.V. Biz ertakdan o‘rganamiz. – Sankt-Peterburg, 2009.

BOLALAR SHOIRI DILSHOD RAJAB IJODIDA MAZMUNIY BARKAMOLLIK

f.f.n Ashurov Baxshillo Sharopovich
NavDPI O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbek bolalar adabiyotining istiqlol davri rivojlanishi va taraqqiyotiga hissa qo‘shayotgan bolalar shoiri Dilshod Rajabning ijodida shakliy va mazmuniy barkamollik haqida yozgan she’rlarining ba’zilari tahlilga tortildi.

Kalit so‘zlar: qish, yomg‘ir, tabiat, ramz, o‘xshatishlar, tasvir, bolalar, adabiyot, ijod, she’r.

Аннотация: В данной статье анализируются несколько стихотворений представителя узбекской детской литературы Дилшода Ражаба, который вносит вклад в развитие детской литературы годов независимости. Поэт сквозь призму своих стихотворений знакомит детей с природными явлениями, учит беречь, охранять и любить природу.

Ключевые слова: зима, дождь, природа, символ, сравнение, описание, дети, литература, творчество, стихотворение.

Annotation: In this article some poems are analyzed the representative of the Uzbek literature for children is Dilshod Rajab, who makes a contribution to infantile literature in the ears of Independence. The poet introduces children to nature elements, teaches how to save, protect and love nature itself in the light of his poems.

Key words: winter, rain, nature, symbol, comparison, description, children, literature, creation, poem.

Badiiy adabiyot – hayot darsligi. U tom ma’noda hamohang hayot haqida, uning o‘ziga xos jihatlari xususida saboq beradi. Biroq, bu quruq “pedagogik” saboq bo‘lmay, badiiy libos va mukammallikka, muayyan maqsadga ega bo‘lgan saboqdir. U kishining faqat ongigagina emas, qalbiga, hissiyotiga ham ta’sir etadi. Negaki, adabiyot ham san’atning bir turi sifatida “obrazlar tili” bilan so‘zlaydi; voqelikni obrazli aks ettiradi. Obrazli tasvir esa faqat ongga emas, ayni chog‘da, inson qalbiga, ma’naviyatiga ham kuchli ta’sir qiladi. Ijodkorning mahorati ham ana shunday obrazli tasvirni san’atkorona chizishida ko‘rinadi[19]. Zero, adabiyot o‘zi “so‘z” orqali nafis tasvir san’atidir.

Zotan, adabiyotshunoslik ham badiiy asarni tekshirganda, ijodkor qalamga olgan mavzu va g‘oyaning muhimligi yo salmog‘igagina emas, ayni chog‘da, shu mavzu va g‘oyaning badiiy ifodasiga ham asosiy e’tiborini qaratdi. Chunki “niyat qanchalik ezgu bo‘lmasin, agar u badiiy yuksak shaklda o‘zining ifodasini topmasa, kitobxon qalbini to‘lqinlantirmaydi, uning ongiga ta’sir ko‘rsatmaydi”[20]. Ijodkor niyatining yuksak badiiy shaklda ifodalanishi esa ijodkorning tasvir yaratish mahoratiga bog‘liq. Bu ijodkorlarimiz uchun muhim vas hart bo‘lgan eng muhim jihatlardan biridir.

80- yillar bolalar adabiyoti she’riyatidagi shakiliy izlanishlar haqida so‘z ketar ekan, iste’dodli shoir Dilshod Rajabov she’rlari ham kitobxonlar e’tiborini o‘ziga tortadi. Uning “Otamning bog‘i” to‘plamiga kirgan “Tanbeh”, “ Sport maydonida”, “ Minnatdorlik”, “ Guvoh”, “ Topishmoq she’r”, “Chivinga talangan bola”, “ Futbol” she’rlarida o‘ziga xos shakiliy izlanish samaralari ko‘zga tashlanadi.

Yosh shoir shakliy o‘xshashlik asosida yosh kitobxon ko‘z o‘ngida o‘ziga xos manzara yaratishga erishgan. Zero, xas-xashak to‘plashda ishlatiladigan Xaskashni birov ushlab turmasa, yerga yiqilib tushadi. Ijodkor ana shu tabiiy holatdan jonli manzara yaratgan (Darrov cho‘zilib olib Yotganing ne, Xashxashak?). Belkurakni esa yerga sanchib qo‘ysangiz, xohlagancha tikka turaveradi (shoir aytmoqchi, charchash nimaligini bilmaydi). Ushbu tashqi ko‘rinish - holat ijodkorning o‘ziga xos manzara yaratishiga sabab bo‘lgan: zero, she’rning oxirgi satri tikka turgan belkurakning harflardan yasalgan suvratidir. Yosh kitobxon ko‘z oldida bu manzara darrov jonlanadi, uning qiziqishini orttiradi.

Ana shunday shakliy o‘xshashlik o‘yin asosida yaratilgan “Ko‘tarma kranning ko‘kka yetgan boshi” yosh kitobxon ko‘z o‘ngida darrov bor bo‘y-basti bilan yorqin namoyon bo‘lishidan tashqari, xotirasida ham bir umrga mixlanib qoladi. “Sport maydonida” she’rida shu usulda “oyog‘ini kerib turgan turnik”ning, “Guvoh” she’rida “oppoq yuzida qat-qat chang”i bor Oynaning, “Topishmoq” she’rida “Oq oppoq qalpoq”nng, “Chivinga talangan bola” she’rida “og‘zi ochiq bola”ning ochiq og‘zining suvratlari harflar vositasida mahorat bilan chizilganki, bu shakliy vositani Dilshod Rajabning shakliy va mazmuniy uyg‘unlikni o‘zida jamlagan maqtashga arzigulik izlanishi sifatida e’tirof etish joiz. Bular singari shaklan g‘aroyib ,mazmunan izchil, ma’nodor she’rlar kichik yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan she’riyatimiz izlanish-intilishda, kamolot sari ko‘tarilishda ekanidan dalolat beradi, kelajagidan umidbaxsh qiladi.

Shuni ham qayd etish kerakki, aslida mumtoz she’riyatimizda shakliy va ma’naviy san’atlarning yuzlab go‘zal namunalari, rang-barang usul-u shakllari qadim-ul ayyomdan ma’lum-u mashhur edi. “Muvashshah” san’atiga asoslangan so‘zlarning dastlabki harflari yoki ma’lum qismlaridan kishi nomlarining yasalishi, “Ta’rix” san’atiga asoslangan ma’lum harflar yoki so‘zlar vositasida ma’lum bir voqeaning ro‘y bergan vaqti aks ettirilishi va hokazo san’atlar fikrimiz dalilidir. Ustoz shoir Abdulla Oripovning:

“Harf o‘yin aylay desam, o‘zga erur imlo bu kun” – satrlari esa mumtoz adabiyotimizdagi turli san’atlarning yo‘qolib ketayotganidan afsuslanish ramzi sifatida yangraydi. Binobarin, bugungi o‘zbek bolalar adabiyoti she’riyatida yaratilayotgan yuqoridagilar singari kichik yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan shakliy izlanishlar mahsuli bo‘lmish yangicha she’rlar she’riy san’atlarning, jumladan shakliy san’atlarning shakl va turlari doimo behisobligidan, tinimsiz izlanish, hamma

[19] Довурбоева Н.Шеърими ёки қофияли насиҳат. /Ўзбекистон адабиёти ва санъати – 1990, 23-март.
[20] Шермуҳамедов П. Она сутидек покиза. Т., 1993, 4-бет.

narsadan yangilik axtaradigan yosh bolaning o‘zi yanglig‘ olamga yangidan tanish, kashf qilish nigohi bilan qarash ular uchun yaratilajak she’riy asarlarda ham yangidan - yangi shakliy topilmalar yaratish imkoniyati hamma vaqt mavjudligidan dalolat beradi.[21]

Yuqorida qayd etilganiday, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning faoliyatlarida o‘yin alohida o‘rin tutadi. Yosh bolalarning bilimlarni egallashi o‘yin jarayonida tabiiy va samarali kechadi, mehnat ko‘nikmalari ham o‘yin elementlari singdirilganda oson o‘zlashtiriladi. Chunki maktabgacha va kichik maktab yoshida o‘yin bola uchun shunchaki ermak emas, balki o‘yin jarayonida bola bilim va ko‘nikmalarni egallaydi, o‘yin jarayonida uning kattalar mehnati, o‘zaro munosabatlari mas’uliyatlari haqidagi ko‘nikmalari shakllanadi, bola shaxsiyatida axloqiy-ma’naviy va irodaviy-psixologik jihatlar kamol topa boradi.

She’riyatning go‘zalligi shundaki, shoir biz har kun ko‘rib yurgan, biz uchun odatdagi narsaga aylanib qolgan tabiat manzaralarini o‘zgacha ko‘z bilan ko‘radi. Sevimli shoirimiz Dilshod Rajabning tabiat va yil fasllari tasviriga bag‘ishlangan she’rlari ham yosh kitobxon qalbiga o‘ziga xos bir nur, shu’la olib kirishi bilan e’tiborga sazovordir. SHoirning yil fasllari tasviriga bag‘ishlangan she’rlaridagi o‘ziga xos, ohorli tashbehlar kitobxon ko‘z o‘ngida Ona tabiat tarovatini o‘zgacha ranglarda namoyon qiladi.

Bolalar shoiri Dilshod Rajabning she’riyatini kuzatganda, uning so‘zga nisbatan ana shunday nuqtadan turib, mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lganini ko‘rish mumkin. SHoirning “Noshud bog‘bon” she’ri o‘zgacha bir ma’no-mazmunga ega:

Yangi bog‘bon – echkiga … Chaqqon echki uch kunda.
Topshiriq tegdi kecha. Ishni “boplab” qo‘yibdi.
– Barcha nihollarni siz. Nihollarni ohaksiz
Oqlang o‘n kun ichida. Tezda oqlab qo‘yibdi[22].

Kichkintoylar tilidan aytilgan bu she’r quvnoq va o‘ynoqi ohangi, oddiy so‘zlar vositasida muhim hayotiy g‘oyani tashishi bilan ajralib turadi. Bolalar qalbida uy hayvonlariga hamda mehnatga muhabbat uyg‘otadi.

Dilshod Rajab she’rlarining qahramonlari xayolparast bo‘lsalar ham odamiy bo‘lishni unutmaydilar, tabiat go‘zalligidan zavqlana biladilar.

Shoirning hazil-mutoyiba tarzida yozilgan she’rlari bolajonlarni ziyrak va uquvli bo‘lishga undaydi. Quyidagi hazil she’rni o‘qiymiz:

Bug‘doy ekdi Ketmonboy, Xaskash to‘pladi barin,
Sug‘ordi, o‘g‘it berdi. Ho‘p ham bo‘ldi haydalib.
Pishib yetilgach, uni O‘rog‘da yo‘q… Panshaxa
O‘roqboy o‘rib berdi. Hozir bo‘ldi qaydandir.
Og‘rimagan-da beli,
U och-yupun qolgurning!
Shuncha xirmonni kelib,
Zumda yelga sovurdi. (“Xirmon”)

Ushbu hazil she’ri orqali shoir Dilshod Rajab bolalarni mehnatsevar dehqonlarimizning mehnatini qadrlashga, o‘z-o‘zidan bug‘doylarimiz yetilib-pishgach, xirmon hosil bo‘lmasligini, buning uchun beminnat mehnat qilinishini uqtira olgan. Bu esa, she’rning ta’sirchanligini oshirgan. Dilshod Rajab bolalar adabiyotining vazifalarini chuqur his qiladigan shoir sifatida uning tarbiyaviy-ma’rifiy xususiyatiga alohida e’tibor beradi. Shoir ijodining o‘ziga xosligi ham ana shundadir.

[21] С.Матжон,С.М.Қурбонниёзов.Болалар адабиёти,ижодий-услубий изланишлар.Тошкент-2009-йил.
[22]Маъқулова М, Адашбоев Т. Китобим – офтобим. Т., 2002, 116-бет.

XX ASR OZAR ADABIYOTSHUNOSLIGIDA MUXAMMAS JANRI TADQIQI

Boltayeva Gulchehra Shokirovna
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
NavDPI, tel. (90) 500 56 75 // gulyashokirovna74@gmail.com

Tarixiy manbalardan ma'lumki, turkiy tilli xalqlar tili va adabiyoti biri ikkinchisidan oziqlanib, adabiyotlar hamda millatlararo hamkorlik asosida rivojlanib kelgan. Jumladan, O'zbekiston Prezidemti Sh.Mirziyoyevning Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining 8-sammitidagi ishtiroki hamda sammitda turkiy dunyo birdamligi, adabiyotlar, madaniyatlar mushtarakligini asarlari orqali ko'rsatgan buyuk mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotning ta'sis qilinishi tarix sahifalarida muhrlanib qoldi. Turkiy tilli xalqlarning "Turkiy davlatlar tashkiloti" nomi ostida birlashishi bugungi murakkab geosiyosiy jarayonda tinchlikni mustahkamlash, barcha sohalar kesimida o'zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish yo'lidagi muhim qadam hisoblanadi.

O'zbek adabiyotida dastlabki turkiy muxammas XV asrning birinchi yarmida Hofiz Xorazmiy tomonidan yaratilib, bugungi kungacha yuksak badiiy takomiliga erishgan bo'lsa, Ozarbayjon adabiyotida yaratilgan go'zal va jozibador muxammas janri namunalari ham turkiy xalqlar madaniy merosida alohida o'ringa ega. XVI asrdan boshlab, Ozarbayjon adabiyoti tarixida ham muxammas g'azaldan keyin ijod ahli tomonidan faol qo'llanilgan janrlardan biri sifatida qayd etilgan. Muxammas janri genezisi, taraqqiyoti va takomili borasida Nailya Mustafayevaning tadqiqotlari diqqatga sazovor. Olimaning ta'kidlashicha, "Janrlar rang-barangligi va muxammas, taxmis yozish an'anasi XVI asrga kelib takomillashgan. G'azaldan keyingi janrlar takomilida Alisher Navoiyning ta'siri katta. Bunday holat asosan ozarbayjon turkiysida ijod qilgan shoirlarning asarlarida uchraydi. XVI asr adabiyotining yirik namoyondalari sifatida Shoh Ismoil Xatoiy, Muhammad Fuzuliy, Habibiy, Shohiy, G'aribiy, Sodiq Afshar, Ibrohim Mirzo, Zamiriy, Shamsiy, Zehniy, Fazliy kabilarni ta'kidlash mumkin. Muhammad Fuzuliyning turkiy devonida muxammas, taxmis, murabba', qit'a va ruboiy alohida o'rin tutadi. Bu davr adabiyotida muxammas va taxmis yaratish an'anaga aylangan. Xulqiy, Fuzuliy, Masihiy, Yusufbey Ustachlu kabi shoirlar ona tilida muxammas yaratganlar. Shoh Ismoil Xatoiyning yagona taxmisi forschadir. U Hofizning "Ğolame-nərgis məst, to tacdareənd" misrasi bilan boshlangan g'azaliga 7 bandlik taxmis yozgan" [Mustafayeva N., 2016. – S.83.].

To'rt asr davomida muxammas ozar shoirlarining asosiy va sevimli janrlaridan biri sifatida bu millat adabiyotshunosligida jadallik bilan takomillashib bordi. Tarixiy manbalardan ma'lumki, XX asr boshlarida Ozarbayjonda siyosiy faollik kuchayadi, siyosiy tashkilotlar tuzilib, milliy kuchlarning birlashishi nazarga tashlanadi [Azərbaycan tarixi, 2001. – S.135-146].

Bu davrda "Hayot", "Irshod", "Fuyuzat", "Mulla Nasriddin", "Ochiq so'z" kabi ommaviy axborot va matbuot vositalarining yuzaga kelishi va rivojlanishi, vatanparvar yozuvchi hamda shoirlarning faol ijodi xalqning milliy o'zlikni anglash, Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirdi. Bu davr shoirlari matbuotda erkinlik, milliy istiqlol haqidagi she'rlar bilan chiqishdi. Asosan, mumtoz she'riyat janrlarida xalqqa taqdim etilgan istiqlol va erk g'oyasi bu davr adabiyotining yetakchi mavzusiga aylandi. Bu haqda professor Ahmad Jafar o'g'li yozadi: "Yangi she'rlar ma'lum ma'noda klassik she'rning tuzilishi, shaklini saqlab qolgan, ammo mavzu nuqtayi nazaridan milliy hamjamiyatning o'zgarishlarga bo'lgan tendensiyalari va ehtiyojlarini ifodalay boshladi. Vaqt o'tishi bilan vatanparvarlik tuyg'usini o'zida aks ettirib, shuhrat qozongan milliy adabiyot maktablarining shakllanishi ozarbayjon adabiyotining mohiyatiga katta ta'sir ko'rsatdi" [Cəfəroğlu Ə., 2008. – S.236].

XX asr boshlarida ozarbayjon adabiyotida lirikaning jadal taraqqiyoti ko'zga tashlanadi. She'riyatda erkinlik, Yevropadan yangi she'riy janrlarning kirib kelishi lirikaning ham janr, ham mavzu doirasiga juda katta ta'sir o'tkazadi. Bu davrda muxammas janrida ijod qilish kuchayib, janrning yangi imkoniyatlari kashf etildi. Mavzu doirasining kengayishi, shakliy yangiliklar, janrning yasharishi ko'zga tashlanadi. Ozarbayjon shoiri Mirzo Aliakbar Sobir (1862-1911) muxammaslarida bu janrning mavzu va forma jihatdan yangilanishlari yorqin nazarga tashlanadi.

Satirik shoir Mirzoning muxammas yozishdagi novatorligi shundaki, uning ayrim muxammaslari ikki misra bilan boshlanib, keyingi uch misra beshlik banddagi misralardan iborat boʻladi. Shoir she'rlarining tematikasi oʻzida XX asrning ijtimoiy-siyosiy kayfiyatini ifodalab, ancha keng mavzularni qamrab oladi. Ozarbayjon adabiyotida bu davrda yaratilgan muxammaslarning mavzu doirasini olima N.Mustafayeva asosan 6 ga boʻladi: 1) lirik; 2) vatanparvarlik; 3) ijtimoiy-siyosiy; 6) falsafiy; 7) diniy; 8) satirik mavzudagi muxammaslar [Mustafayeva N., 2020. – S.151.]. Bu esa muxammaslarning mavzu doirasi, mazmun-mundarijasi boyib borganligini koʻrsatadi.

XX asr boshlarida ozar adabiyotida yaratilgan muxammaslarda Vatan mavzusi yetakchilik qiladi. Bir qator vatanparvarlik mavzusida yaratilgan muxammaslarda Vatanga fido boʻlish, uning erki va ozodligi uchun kurashish madh etilib, ona yurtni bosqinchilardan himoya qilishga chaqirilgan. Chunki oʻtgan asr boshlarida chor Rossiyasining aybi bilan Ozarbayjon va Armaniston oʻrtasida yuzaga kelgan siyosiy kelishmovchilik, qarama-qarshiliklar koʻp qon toʻkilishiga, shahar va qishloqlarning vayronagarchilikka yuz tutib, xalqning parokanda boʻlishiga, mamlakat tanazzulga uchrashiga sabab boʻldi. Bu voqealar mazkur davr adabiyotida ham oʻz aksini topdi. Mamobek Mamay, Hodi Muhammad, Miqoil Mushfiq, Nazmi Ali, Sarbandi Komil, Mir Muhsin Navvob, Rijoiy, Shaig, Shaydo kabi shoirlar oʻz muxammaslarida sodir etilgan jinoyatlarning haqiqiy aybdorlari, milliy kuchlarni birlashtirish, ona yurtni bosqinchilardan himoya qilish haqida yozdilar. XX asr she'riyatining atoqli namoyandasi Muhammad Hodi muxammaslarida erkinlikka erishish mavzusi mahorat bilan kuylanadi. Uning 1906-yil 1-noyabrda "Fuyuzat" jurnalida chop etilgan "Amali – tarag'i" muxammasida shoirning orzu-istaklari, fikrlari, yutuqlari Vatan va millat ravnaqi, erki bilan bogʻliqligi, faqat ozod xalq haqiqiy taraqqiyotga erishib, farovon yashashi, mamlakat gullab-yashnashi mumkinligi gʻoyasi ilgari suriladi. Muhammad Hodining 1906-yil 16-noyabrda "Tekamul" gazetasida birinchi marta nashr etilgan "Xalq ovozi" muxammasi ham xalq va millat erki, farovon hayot, baxtli kelajakka erishish orzusi bilan yoʻgʻrilgan: Hürriyyət ilə millət edər kəsbi-məali, //Hürriyyət ilə mülkün olur qiyməti ali, //Avropalı hürriyyət ilə tapdı kəmali [Hadi M., 1979. – S.26.].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, agar Muhammad Hodining muxammaslarida Vatan madhi, milliy ozodlik gʻoyasi tarannum etilsa, oʻz ijodi bilan milliy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qilgan boʻlsa, mashhur satirik shoir Mirzo Aliakbar Sobir mamlakat taqdiriga befarq qaragan, ilgʻor rivojlanishga toʻsqinlik qilgan reaksionerlarni qoraladi. Shoir ijodida ta'lim olish, yurt taqdiri, ayollarning jamiyatdagi oʻrnini mustahkamlash bilan bogʻliq masalalar ham qamrab olingan. Ozarbayjon Respublikasida 1920-yil 28-aprelda roʻy bergan davlat toʻntarishidan soʻng Jafar Jabbarli, Ahmad Javod, Ali Yusuf kabi shoirlar milliy mustaqillik tuygʻusini ifodalash uchun allegoriya, metafora va oʻxshatishlardan foydalangan. Ozarbayjon adabiyotida bu davrda yaratilgan muxammaslarning boshqa davrdagi ijod namunalaridan yana bir muhim farqi va oʻziga xos jihati – koʻproq satirik mavzularni qamrab olganligidadir.

XX asrda bir qancha ozar shoirlari klassik janrlarda ijod qilishda davom etdilar. Faxraddin Abboszoda Hammal, Mammad Said Ordubadi, Ali Nazmiy, Miqoyil Rafili, Ali Nazim, Sulaymon Rustam, Miqoyil Mushfiq kabi ijodkorlar oʻz muxammaslarida ona yurtni madh etish bilan birga, davr mafkurasini ham ulugʻlaganlar. Davrning koʻzga koʻringan muxammasnavisi Miqoyil Mushfiqning 1926-yilda yozilgan "Vatan" nomli she'ri alohida oʻrin tutadi. Toʻrt banddan iborat mazkur tarje'band-muxammasning har bir bandi oxirida "Gʻam va qaygʻudan xoli yurtda" misrasi takrorlanib, badiiy mukammallikni ta'minlagan:

Qış getdi ölümlərlə, ölkəmdə bahar vardır,
Bağlarda gözəlliklər, şən qəhqəhələr vardır,
Sevdalı könüllərdə sevdikləri yar vardır,
Daim sevişirlər, bax, məzdad olan ölkəmdə,
Qəmlərdən, ələmlərdən azad olan ölkəmdə [Müşfiq M., 2013. – S.58.].

Bu davr ijodkorlarining koʻpgina muxammaslari xalqaro voqealarga bagʻishlangan boʻlib, imperialistik kuchlarni tanqid ostiga oladi. Ana shunday shoirlardan biri Fuzuliy lirik an'analari davomchisi, mumtoz gʻazal ustasi sifatida tanilgan Aliogʻa Vohid (1895-1965)dir. U asosan, ijtimoiy mavzularda qalam tebratgan. XX asr boshlari va sobiq sovet davrida ijtimoiy hayot

voqealariga munosabatini tasvirlab, adolatsizlik va kamchiliklarni tanqid qilib, ikkinchi jahon urushi yillarida fashizmni fosh etuvchi muxammaslar yozgan. Ikkinchi jahon urushi davrida muxammasnavis shoir o‘z asarlarida nemis fashizmining muqarrar mag‘lubiyatini bashorat qilib, askarlarining mardligi-yu matonatini she’r misralarida yuksak badiiy mahorat bilan ifodalab beradi. Satirik shoir Aliakbar Sobir jami yuzdan ortiq satirik muxammaslar muallifidir. Hajm jihatdan uning she’rlarini Ali Nazmiy muxammaslari bilan bilan solishtirish mumkin. Bu davr ozarbayjon she’riyatida diniy mavzudagi muxammaslar yaratish ham ko‘zga tashlanadi. Ozar shoirlari orasida Aliog‘a Vohid bu mavzudagi muxammaslari bilan ajralib turadi. Sobiq sovet davrida yozgan she’rlarida ateizm g‘oyalari bilan sug‘orilgan sotsialistik jamiyatda diniy aqidaparastlik, diniy marosimlarni qoralash, yangi jamiyatni ulug‘lash motivlari yetakchilik qiladi. Shoirning “Keksa musulmonlar”, “Shayxdan yordam”, “Shayxga tuhfa”, “Zamonimiz”, “Achchiq kulgu”, “Mulla zamon” [Əliağa V., 1979. – S.210-215.] va boshqa bir qator muxammaslarida odamlarning e’tiqodini suiiste’mol qilib, diniy marosimlardan manfaat kutadigan, faqat cho‘ntagini o‘ylaydigan mullalar qoralanadi.

XX asrning ikkinchi yarmidan ozarbayjon she’riyatida diniy mavzudagi she’rlar soni ortib boradi. Diniy she’rlar mualliflaridan biri Yusuf G‘ulommirzodir. Uning “Tavhid”, “Muhammad”, “Qur’on”, “Hazrati Ali haqida”, “Fotima-yu Zahro”, “Duo”, “Johod”, “O‘lim va Shayton” kabi muxammaslari diniy mavzuga bag‘ishlangan.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, XX asr ozarbayjon she’riyatida muxammas keng tarqalgan bo‘lib, unda juda ko‘p ijod namunalari yaratilgan. Ularning mavzu doirasi kengayib, muxammas tuzilishida yangi shakllarni izlash holati yuz berdi. Mashhur satirik Mirzo Aliakbar Sobir (1862–1911)ning muxammaslari ikkilik bayt bilan boshlanadi. Muhammaslar muhabbat, vatanparvarlik, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, diniy va boshqa mavzularda yozilgan. Bir qator vatanparvarlik muxammaslarida ona zamin go‘zalliklari ulug‘lanadi. Ularning bir qismi Vatan himoyasiga bag‘ishlangan. XX asr boshlarida yashagan shoirlar o‘z vatanini ozod va yurtdoshlarini ma’rifatli ko‘rishni orzu qilganlar va bu ularning asarlarida ham o‘z aksini topgan. Bu davr adabiyotida satirik she’rlar sonining ortib borganligi diqqatni tortadi. Dunyoda bo‘layotgan xalqaro voqealarga munosabatni yoritishda ham shoirlar muxammas janridan unumli foydalanganlar. Umuman olganda, Ozarbayjon she’riyatida muxammas janri ko‘plab dolzarb ijtimoiy muammolarni badiiy aks ettirish vositasi sifatida ijodkorlar e’tiborini tortgan. So‘z san’atkorlari bugungi kunda ham lirik kechinma va tuyg‘ularni erkin ifodalashda bu janrning imkoniyatlaridan unumli foydalanib kelmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mustafayeva Nailə. Füzuli və müasirlərinin müxəmməsləri barədə. Risalə. Araşdırmalar toplusu. 12-ci kitab. –Bakı: Elm və Təhsil, 2016.
2. Azərbaycan tarixi. Yeddi cilddə. Beşinci cild. – Bakı: Elm, 2001.
3. Cəfəroğlu Əhməd. Seçilmiş əsərləri. – Bakı: Mütərcim, 2008.
4. Mustafayeva N. XX əsr azərbaycan ədəbiyyatinda müxəmməs janrinda yazilmiş şeirlərin mövzu dairəsi. Risalə. Елми арашдырмалар jurnalı. №1.2020 (18). – Bakı: Elm və Təhsil, 2020. – S. 151.; Мустафаева Н.Б. Строфическая форма мухаммас в азербайджанской лирике XX века // Неофилология. 2020. Т. 6, № 21. – С. 76-84. DOI 10.20310/2587-6953-2020- 6-21-76-84
5. Hadi Məhəmməd. Seçilmiş əsərləri. İki cilddə. Birinci cild. – Bakı: Elm, 1979. – S. 26.
6. Müşfiq Mikayıl. Seçilmiş əsərləri. – Bakı, 2013.
7. Əliağa Vahid. Seçilmiş əsərləri. İki cilddə. Birinci cild. – Bakı: Elm, 1979.

MUXAMMASLARNING QOFIYA VA VAZN XUSUSIYATLARI

Boltayeva Gulchehra Shokirovna
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
NavDPI, tel. (90) 500 56 75 //

gulyashokirovna74@gmail.com

Annotatsiya. Adabiyotda janrlar masalasi tadqiqi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki har janrning o‘ziga xos genezisi, biografiyasi, nazariyasi, tadrijiy taraqqiyoti, badiiy takomili, spesifik xususiyatlari, qonuniyatlari, shakl va mazmuni bor. Maqolada XV-XIX asrlarda o‘zbek mumtoz adabiyotida yaratilgan muxammaslarning qofiya va vazn xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: poetika, mumtoz she’riyat, aruz tizimi, musammat, muxammas, tabyi xud muxammas, taxmis-muxammas.

Аннотация. В литературе особое значение имеет изучение жанровых критерий произведения. Потому что каждый жанр имеет свой генезис, биографию, теорию, поэтапное развитие, художественное развитие, специфические особенности, каноны, форму и содержание. В данной статье, посвященной характеристике отдельного жанра, исследуется научно-теоритические основы рифмования мухаммасов, созданные в узбекской классической литературе XV-XIX веков.

Ключевые слова: поэтика, классическая поэзия, арузная система, мусаммат, мухаммас, свободный мухаммас, тахмис-мухаммас.

Abstract. The study of genres in literature is of particular importance. Because each genre has its own genesis, biography, theory, gradual development, artistic development, specific characteristics, laws, form and content. In the article, the rhyming and weight characteristics of the poems created in the Uzbek classic literature in the XV-XIX centuries are studied from a scientific and theoretical point of view.

Keywords: poetics, classical poetry, metric aruz (versification system), musammat, mukhammas (five verses), tabi khud mukhammas, takhmis-mukhammas.

O‘zbek mumtoz she’riyatida muxammaslar vazniy o‘ziga xosliklarga va muayyan qofiya tizimiga ega. Jumladan, Hofiz Xorazmiy ijodidagi janrning dastlabki namunasi ko‘zdan kechirilganda, quyidagi manzarani kuzatish mumkin:

Eykim, ko‘/ runur la’li /labing shahd i/la shakkar,
So‘z birla/ labi la’ling/ erur qandi /mukarrar,
Santak(i) /sanamo yo‘q/turur ruhi /musavvar,
Ko‘ngul ol/g‘uchi qadi/ chu sihiy sarv /sanavbar
Kim, bo‘lsa /sachi sunbu/lu yuzi gu/li ahmar [Хоразмий Ҳ., 1981. – Б.258.].

Paradigmasi: - - V/ V - - -/ V - - - / V - -

Afoyili: maf-uv-lu/ ma-fo-iy-lun/ma-fo-iy lun/ fo-i-lun.

Demak, bu muxammas hazaji musammani axrabi mahzuf vaznida yozilgan. Bunda vazn g‘azal bayti asosida aniqlanadi. Muxammas qofiyalanishida ham an’anaviylik saqlangan: aaaaa, bbbba. Ma’lumki, qofiya xillari farqlanadi. Qolaversa, qofiyadagi tirgak harf raviy bo‘lib, u “tub so‘zlarda o‘zak oxirida, yasama so‘zlarda esa negiz so‘ngida keluvchi cho‘ziq unli yoxud undosh harfdir” [Ҳожиаҳмедов А., 1999. – Б.196.]. Tahlil etilayotgan banddagi “shakkar”, “mukarrar”, “musavvar”, “sanavbar”, “ahmar” qofiyadosh so‘zlarda raviy “r” undosh tovushi bilan yakun topgan, shuning uchun muqayyad qofiya turiga kiradi. Darhaqiqat: “Raviy bilan tugallangan qofiyalarni muqayyad deb, undan keyin harflar kelgan qofiyalarni esa mutlaq qofiya deb atash qabul qilingan”dir [Ҳожиаҳмедов А., 1999. – Б.205.].

Alisher Navoiyning taxmislari ham shoir g‘azallari vazni asosida yuzaga chiqadi:

Jilva qildi /dahr aro ko‘p/ husni bexam/to yigit,
Gul kebi no/zik badanlik, /sarvdek ra’/no yigit,
Ushbu majma’/dinki, bo‘lg‘ay/ erdi ming ze/bo yigit,

Koʻnglum oldi /bir pariy pay/kar malak siy/mo yigit
Kim, bani o/damda andoq /boʻlmamish pay/do yigit [Навоий А., 1988. – Б.459.].

Paradigmasi: - V - - / - V - - / - V - - / - V -

Afoyili: fo-i-lo-tun/ fo-i-lo-tun/ fo-i-lo-tun/ fo-i-lun. Bu muxammas ramali musammani mahfuz vaznida bitilgan. Alisher Navoiy ham bunda anʼanaviylikni saqlagan. Qolaversa, sheʼr mazmunida ham bu xususiyat seziladi. Chunki muxammas ishqiy mavzuda yozilgan. Muxammasning qofiya tizimi ham oʻziga xos. Adabiyotshunos A.Hojiahmedov yozadi: "Oʻzbek sheʼriyatida keng qoʻllangan qofiya turlaridan biri mujarrad qofiya hisoblanadi. Bu xil qofiyaning bir turi raviy va choʻziq unlidan boshqa biron harf ishtirok etmaydi. Raviy oʻrnida esa unlilardan istalgani kela oladi". Yuqoridagi bandda mujarrad qofiya qoʻllanilgan: yaʼni "bexamto", "raʼno", "zebo", "siymo", "paydo" ohangdosh soʻzlaridagi raviy "o" choʻziq unlisidir.

Boborahim Mashrab ham muxammas janrida samarali ijod qilganligi maʼlum. Shoir muxammaslari ishqiy mavzuda boʻlishi barobarida Vatanga muhabbatni ham ifoda etadi:

Ey musulmon/ lar, netay, men/ yor(i)din ay/ rilmisham,
Fitna chashmu/ shoʻxi xush raf/tor(i)din ay/ rilmisham,
Bulbuli shoʻ/ridaman, gul/zor(i)din ay/rilmisham,
Qoshlari yo,/ koʻzlari xun/xor(i)din ay/rilmisham,
Bir pari taL'/at, shakarguf/tor (i)din ay/rilmisham [Машраб Б., 1990. – Б.294.].

Paradigmasi: - V - - / - V - - / - V - - / - V - /

Afoyili: fo-i-lo-tun/ fo-i-lo-tun/ fo-i-lo-tun/ fo-i-lun. Yuqoridagi satrlar ramali musammani mahfuzda bitilgan. Qolaversa, bunda imola qoʻllangan. Yaʼni vazn talabi bilan misra oxirida oʻta choʻziq hijo boʻlib keladigan "raftor", "shakarguftor" soʻzlari satr ichida kelgan va bitta qisqa (i) tovushi orttirilgan. Shuning hisobidan vazn toʻgʻri kelib chiqqan. "Yor", "shoʻxi raftor", "gulzor", "xunxor", "shakarguftor" soʻzlari ohangdosh boʻlishidan tashqari sheʼrda ifoda etilayotgan poetik fikrni yorqinlashtirishga xizmat qilgan: bu nomlar avvalo, yorni ifodalasa, ikkinchidan, vatanidan yiroqda boʻlgan shoirning yurt sogʻinchini ham bildirib keladi. A.Hojiahmedovning yozishicha: "Raviy harfidan oldin choʻziq unlilardan biri kelgan qofiya murdaf (ridfli) qofiya deb nomlanadi. Choʻziq unlining oʻzi esa ridf deb ataladi" [Ҳожиаҳмедов А., 1999. – Б.200.]. Bu bandda murdaf qofiya qoʻllangan. Chunki raviy "r" undoshi boʻlib, undan oldin kelgan tovush "o" choʻziq unlisidir.

Ul bahori/ husnidin o/xir(i) judo boʻl/dum, netay?
Gʻam(i) bila /mehnat qoʻlida /mubtalo boʻl/dum, netay?
Vasl(i) shohi/din judo boʻl/gʻoch gado boʻl/dum, netay?
Dardi furqat/ga girifto/ri balo boʻl/dum, netay?
Bir pari taL'/at, shakarguf/tor(i)din ay/rilmisham.

Paradigmasi: - V - - / - V - - / - V - - / - V -

Afoyili: fo-i-lo-tun/ fo-i-lo-tun/ fo-i-lo-tun/ fo-i-lun

Keyingi bandda ham fikrlar rivojlantiriladi. Vazn ham sistemali davom etadi. Undagi "judo", "mubtalo", "gado", "balo" ohangdosh soʻzlaridagi "o" choʻziq unlisi raviy boʻlib kelgan. Bu ham mujarrad qofiya turiga kiradi.

Ogahiy gʻazal, mustazod, qasida singari janrlar qatorida muxammasnavislikda badiiy kamolotga erishgan ijodkor. U sheʼriyatimizda ancha murakkab boʻlgan razaj bahrida ham ijod qilgan:

Toki guli/ jamolingiz /bulbuli be/qarorimiz,
Furqatingiz/da beadad /dard-u alam /duchorimiz,
Jonu koʻngul/ni oʻrtadi /shuʼlayi o/h-u zorimiz,
Bizga tarah/hum aylang, ey/ dilbari guL'/uzorimiz,
Ishqingiz oʻ/ti sar-basar /yoqti tani /nizorimiz [Огаҳий, 1972. – Б.140.].

Paradigmasi: - V V -/ V - V -/ - V V -/ V - V-

Afoyili: muftailun/ mafoilun/ muftailun/ mafoilun/

Shoir muxammaslari orasida ishqiy mavzuda bitilganlari ham bor. Yuqoridagi sheʼr shu jihati bilan eʼtiborni tortadi. Uning vazni razaji musammani matviyi maxbunga toʻgʻri keladi. Bu

vazn turi she’riyatimizda ramal, hazaj kabi faol emas. Demak, bu Ogahiyning san’atkorligi, aruz ilmini chuqur bilishini ko‘rsatib turadi. Banddagi “beqarorimiz”, “duchorimiz”, “zorimiz”, “guL’uzorimiz”, “nizorimiz” so‘zlari ohangdosh bo‘lib, undagi raviy “r” undoshidan oldin “o” cho‘ziq unlisi ridf bo‘lib keladi. Binobarin: “Raviydan harfidan oldin cho‘ziq unlilardan biri kelgan qofiya murdaf (ridfli) qofiya deyiladi. Cho‘ziq unlining o‘zi esa ridf deb ataladi” [Ҳожиаҳмедов А., 1999. – Б.200.]. Demak, bunda murdaf qofiya qo‘llangan. Muxammas an’anaviy ishqiy mavzuda bitilgan. Bundagi qofiyadosh so‘zlar ohangdorlikni ta’minlashdan tashqari, lirik qahramon – oshiqning ruhiy holatini ifodalab kelganligi kuzatiladi. Darhaqiqat, oshiq ma’shuqa yo‘lida bulbulga monand, uning hajrida chekkan iztiroblari “beadad” – cheksizdir. Shu boisdan oshiqning jismi va qalbi ishqda o‘rtanmoqda. U ma’shuqadan “tarahhum” aylashini – marhamat qilishini so‘raydi.

Komil Xorazmiy ham muxammas janrida barakali ijod qilgan. Uning an’anaviy mazmundagi shunday she’rlari badiiyati bilan birga shaklda ham mukammallik kasb etgan:

Harimi ko‘/yungo yo‘l top/sa kim, tavfi /haram qilmas,
Qoshing manzu/r(i) bo‘lg‘on qad/dini mehro/ba xam qilmas.
Qading ko‘rgach/ deyolmon: sar/v(i)din qumri/ni ram qilmas,
Ko‘ngul ko‘rgoch/ yuzungni may/li gulzori/ eram qilmas,
Ne gulzori /eram yodi, / guli firdav/s(i) ham qilmas [Хоразмий К., 1975. – Б.200.][23].

Paradigmasi: V - - -/ V - - - / V - - -/ V - - -

Afoyili: mafoiylun/ mafoiylun/ mafoiylun/ mafoiylun

E’tibor berilsa, dastlabki bandda ma’shuqa go‘zalligi tashbehlarda ifoda etilgan: qoshi mehrobga, qaddi sarvga, yuzi gulzorga o‘xshatilgan. Shu bilan birga bu yerda husni ta’lil – chiroyli dalillash san’ati qo‘llanilgan. Bu muxammas hazaji musammani solimda yaratilgan. Undagi “haram”, “xam”, “ram”, “eram”, “ham” ohangdosh so‘zlarida raviy harfi “m” undoshi, undan oldingi “a” qisqa unlisi esa tavjih bo‘lib keladi. Demak, bandda mujarrad qofiya qo‘llangan.

Muxammaslarning vazn xususiyatlarini jadvalda quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

1-jadval

№	Muxammas muallifi	Muxammas bandi	Vazni
1	**Xorazmiy**	Santak sa/namo yo‘qtu/rur ruhi musavvar, Kim, bo‘lsa /sachi sunbu/lu yuzi gu/li ahmar.	- - V/ V - - -/ V - - - / V - - Maf- uv-lu/ ma-fo-iy-lun/ma-fo-iy-lun/ fo-i-lun Hazaji musamani axrabi mahzuf
2	**Navoiy**	Jilva qildi /dahr aro ko‘p/ husni bexam/to yigit, Gul kebi no/zik badanlik, /sarvdek ra’/no yigit.	-V - - / - V - - / - V - - / - V - Fo-i-lo-tun/ fo-i-lo-tun/ fo-i-lo-tun/ fo-i-lun Ramali musammani mahzuf
3	**Ogahiy**	Bizga tarah/hum aylang, ey/ dilbari guL’uzorimiz, Ishqingiz o‘/ti sar-basar /yoqti tani / nazorimiz.	- V V - / V - V -/ - V V - / V – V- Muftailun/ mafoilun/ muftailun/ mafoilun/ Razaji musammani matviyi maxbun
4	**Komil Xorazmiy**	Ko‘ngul ko‘rgoch/ yuzungni may/li gulzori /eram qilmas, Ne gulzori /eram yodi,/ guli firdav/s(i) ham qilmas.	V - - -/ V - - - / V - - -/ V - - - Mafoiylun/ mafoiylun/ mafoiylun/ mafoiylun Hazaji musamani solim
5	**Muqimiy**	Marhamat ag‘/yora, jono,/manga istig‘/no nechuk, Kechti g‘am kun/jida holing, /demading, tan/ho	- V - - / - V - - / - V - - / - V - Fo-i-lo-tun/ fo-i-lo-tun/ fo-i-lo-tun/ fo-i-lun Ramali musammani mahzuf

[23] Комил Хоразмий. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1975. – Б. 200.

		nechuk?	
6	**Zavqiy**	Fursat g‘a/nimat, ahbob,/ millatg‘a/ ko‘z ochaylik, Umr o‘tdi/ zulmat ichra/ g‘aflatga ko‘z ochaylik.	- - V / - V - - / - - V / - V - - Maf’ulu / foilotun / maf’ulu / foilotun Muzoreyi musammani axrab
7	**Hamza**	Jonona/ gul yuzingdin /ruxsorin/giz chiroylik, Abro‘ ka/mon qoshingdin /diydorin/giz chiroylik,	- - V / - V - - / - - V / - V - - Maf’ulu / foilotun / maf’ulu / foilotun Muzoreyi musammani axrab

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, Hofiz Xorazmiy, Alisher Navoiy, Mashrab, Huvaydo, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Muhammadniyoz Nishotiy, Furqat, Muqimiy, Nodira, Yusuf Saryomiy, Zavqiy, Turdi kabi shoirlar ijodidan olingan janr namunalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek mumtoz adabiyotida muxammasnavislik xuddi g‘azalnavislikdagi kabi adabiy an’anaga aylangan va muayyan davrlarda yetakchilik qilgan.

Ikkinchidan, o‘zbek mumtoz she’riyatidagi muxammaslar vazniy xilma-xillik kasb etgan. Jumladan, hazaji musammani axrabi mahzuf (Huvaydo), ramali musammani mahfuz (Alisher Navoiy, Mashrab, Huvaydo, Muhammadniyoz Nishotiy, Muqimiy, Nodira, Yusuf Saryomiy, Turdi), razaji musammani matviyi maxbun (Ogahiy), hazaji musammani solim (Komil Xorazmiy, Furqat), rajazi musammani muxalla (Zavqiy) kabi aruz bahrlarida yozilgan she’rlar buni tasdiqlab turadi. Kuzatishlarimiz, ramal bahrining muxammasnavislikda faol qo‘llanganligini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, muxammaslarning qofiya tizimi ham o‘ziga xoslik kasb etgan. Bu janrdagi she’rlarda ko‘proq muqayyad (Hofiz Xorazmiy), murdaf (ridfli) (Ogahiy), mujarrad (Alisher Navoiy, Mashrab, Komil Xorazmiy, Muhammadniyoz Nishotiy, Furqat, Muqimiy), murdaf (Mashrab), mutlaq (Hofiz Xorazmiy, Nodira), mujarrad qofiya, hurujli mutlaq qofiya (Nodira, Yusuf Saryomiy, Zavqiy, Turdi), noyirali mutlaq (Turdi), vaslli mutlaq qofiya (Turdi) turlari samarali qo‘llanilgan.

ДОСТОНЛАРДА ТАҚИҚЛАРНИНГ МИФОЛОГИК АСОСЛАРИ

Ахмедова Зебинисо Жумакуловна
Навоий давлат педагогика институти
Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси
доценти,
ф.ф.ф.д (PhD)

Аннотация: Мазкур мақолада тотемлар билан боғлиқ тақиқларнинг мифологик асослари ҳақида сўз боради. “Алпомиш” достонида мавжуд бўлган қушлар билан боғлиқ тақиқнинг қадимиятга бориб тақалувчи тарихий илдизлари таҳлил этилади.

Калит сўзлар: тақиқ, табу, мифология, ибтидоий жамият, тотем, қушлар, ёввойи ғоз

Аннотация: В данной статье рассматривается мифологическая основа запретов. Анализируются исторические корни запрета на птиц в эпосе «Алпомиш».

Ключевые слова: запреты, табу, мифология, первобытное общество, тотем, птицы, дикий гусь.

Abstract: This article examines the mythological basis of prohibitions. The historical roots of the ban on birds in the epic “Alpomish” are analyzed.

Key words: prohibitions, taboos, mythology, primitive society, totem, birds, wild goose.

Тақиқларнинг мифологик асослари жуда қадимиятга бориб тақалади. Ибтидоий жамиятда инсоният ўз ақлини танигандан бошлаб ахлоқий нормаларни тартибга солишга ҳаракат қилган. Аммо, энг аввало пайдо бўлган тақиқларга табиат, ҳайвонлар ва қушлар

билан боғлиқ ҳодисалар асос қилиб олинган. Шу сабабли ҳам ислом дини кириб келгунга қадар яратилган тақиқлар табиат жисмлари, жонзотлари ва коинот ёритқичлари билан боғлиқ. Инсониятнинг илк тасаввурлари натижасида пайдо бўлган бу табулар ўз моҳиятига кўра бир неча турларга бўлинган. Аввал табиат ҳодисалари билан боғлиқ тақиқлар яратилган бўлса, кейинчалик кўпхудолик ва тангричилик билан алоқадор табулар юзага келган. Фольклоршунос олима Г.Гайсина ислом дини кириб келгунга қадар яратилган бошқирд тақиқларини бир неча турларга ажратади: осмон ёритқичлари билан боғлиқ тақиқлар (қуёш, ой, юлдузлар), мифологик персонажлар билан боғлиқ тақиқлар (ялмоғиз, дев, пари), табиат унсурлари билан боғлиқ тақиқлар (ер, сув, олов, ҳаво), тотем табулар (муқаддас саналган ҳайвонлар ва қушлар)[1]. Ҳар бир тақиқ турида ўзига хос хатти-ҳаракатлар яширинган бўлиб, бу қадимги инсониятнинг тафаккур тарзи ва дунёқараши билан боғлиқ. Биз ушбу мақолада тотемлар билан боғлик табуларнинг айрим жиҳатларини таҳлил этишга ҳаракат қиламиз. Юқорида таъкидлаганимиздек, тотем табулар икки турга ажратилди: ҳайвонлар билан боғлиқ тақиқлар ва қушлар билан боғлиқ табулар.

Ибтидоий жамоа давридан бошлаб кишилар билан ҳайвонлар тоифаси ўртасида яқинлик, қариндошлик бор деган тушунча мавжуд бўлган. Айрим уруғларнинг пайдо бўлишини ҳайвонлар билан боғлашган. Тотемизм одамнинг ҳайвон, ўсимлик ва жонсиз нарса билан алоқаси борлиги ҳақидаги эътиқод саналган. “Тотемни ўлдириш, ейиш мумкин эмас, чунки у қабилани ҳимоя қилувчи деб тушунилган”[2]. Тотемга нисбатан берилган бу табуларга одамлар қатъий риоя қилганлар.

Қадимги мифологик тасаввурларга кўра айиқ, бўри, буғу, илон, от, эчки, қўй, ҳўкиз, бургут каби жониворлар муқаддас тотем ҳисобланган. Айиқ тотеми ёқут, олтойлик, туркий қавмлар орасида юзага келган. Олтойликлар ўзини айиқдан тарқалганмиз деб ҳисоблашган [3]. Айниқса, туркий халқларда от, қўй, эчки, қорамол тотемлаштирилди. Ҳаттоки, улар муқаддаслаштирилиб, уларнинг пирларига атаб қурбонликлар ҳам қилинди. “Чорвадорлар фикрича, ҳар бир ҳайвоннинг ўзига хос пири бўлган ва йилда бир марта мазкур пирга бағишлаб қурбонликлар қилинган. Қўй пири – Чўпонота, қорамол пири Зангиота, отнинг пири Қамбарота, эчкининг пири – Чиғатота бўлган. [4]. Демак, бундан кўринадики, тотем сифатида муқаддаслаштирилган ҳайвонларнинг кейинчалик ҳомийлари ҳам юзага келган. Олим А.Ашировнинг ёзишича, ўзбеклар орасида от, сигир, қўй ва туяни оёқ билан тепиш ҳам қадимдан оғир гуноҳ саналган. Тотем ҳайвонларга зарар етказиш тақиқлангани сабабли, ҳозирги кунда ҳам уларга дўстона муносабатда бўлиш онгимизга сингиб қолган. Масалан, халқимизда от муқаддас жонивор ҳисобланади. Уни уриш кишига зарар келтиради деб ҳисоблашади. Гўёки, отнинг деви бўлиб, жониворга зарар етгазганда от эслаб қолади ва албатта ўчини олади деб ўйлашади. Шу сабабли ҳам, фольклор асарларида от инсоннинг энг қадрдон дўсти саналади ва қаҳрамонни кулфатлардан омон сақлайди. Шунингдек. қушлар билан боғлиқ тақиқлар ҳам ниҳоятда кўп учрайди. Мусича. кабутар, қалдирғоч, оққуш каби қушлар ҳозир ҳам муқаддас саналади. Қарға қадимги эртакларда ҳам хабарчи, ёмонлик элчиси бўлса, бургут, лочин, лайлак, турна эзгулик тимсоли бўлиб келади. Аммо, қадимий эътиқодларга кўра, оққуш, турна, лайлак, кабутар, ёввойи ғозни отиш тақиқланган. Гўёки, кабутарда париларнинг жони бор эмиш. Шу сабабли ҳам эртакларда парилар каптар суратида намоён бўлади. Бу қушларни отиш инсонга кулфат келтиради, бахтсизлик содир бўлади деб ҳисоблашган. Бошқирд халқларида ҳам қушлар билан боғлиқ тотемларда шундай тақиқлар мавжуд: “Оққушни, турнани, ёввойи ғозни отиб бўлмайди, қарғайди, бахтсизлик келтиради”[5].

Ўзбек халқ достонларидан энг машҳури бўлган “Алпомиш” достонида ҳам мана шу тотем тақиқлар билан боғлиқ қарашлар мавжудки, бу ҳодиса достоннинг қадимий эканлигидан далолат беради. Алпомиш Қалмоқ элида зиндонда ётганида бир куни қараса яраланган ёввойи ғоз қанотларини ёзиб, айланиб турибди:

“Эй, жонивор Қўнғирот элдан келдингми,
Ҳумоюндай менга соя солдингми,

Тор зиндонда мендан хабар олдингми,
Қариндошдан элчи бўлиб келдингми?
Оҳ тортсам тўкилар кўзимнинг ёши,
Илоҳим қурисин подшолар иши,
Кажга айланган шум фалакнинг гардиши,
Зиндонни айналган **ғойибнин**г қуши....
Давлатли хон энди шундай қаради,
Ёлғиз ғозни у яқинда кўради...
Ўзин келиб ғоз зиндонга ташлади."[6]

Нега айнан ғоз? Агар қадимий мифологияга мурожаат қилсак, ғоз ҳақидаги қарашлар эрамиздан олдинги даврларга бориб тақалади. Миср мифологиясида ёввойи ғоз – қуёш рамзи бўлган. Баъзан, Қуёш худоси Амоннинг муқаддас қуши сифатида эъзозланган. Юнон мифологиясида эса само илоҳаси Геранинг атрибути, Апполон худосининг символи. Ғозлар оққушларга тенглаштирилган. Чунки, ғозлар ҳам севги, садоқат, бахт, ҳушёрлик, озодлик ва маърифат тимсоли сифатида эъзозланган. Римни ҳам ғозларнинг қағиллаши галлар ҳужумидан хабардор этган. Россиянинг шимолида ғоз расмини уйларга чизиш уларни кулфатдан асрайди деб тушунилган.

Аслида қаҳрамон қийин вазиятларга тушганда ёрдам берувчи ҳомий кучлардан мадад сўрайди. Бундай вазиятда достонда ёлғиз ғознинг пайдо бўлиши ҳам қизиқарли ҳолат. Айниқса, ғознинг Ҳумоюндай (Хумо қуши, Хумой) келиши, зиндонни айланиши, ғойибнинг қуши сифатида талқин этилишида ҳам муқаддаслик мавжуд. Балки, ғоз тимсоли ғойибнинг қуши, руҳлар дунёсидан хабарчи сифатида тасвирлангандир. Алпомиш қараса ўқ тегиб ғознинг бир оёғи синган, бир қаноти майиб бўлган. Бу ғозни Шакаман тоғида бир кампирнинг ўғли отган бўлиб, ғоз ярадор бўлиб йиқилмай кетганига йигит кўксини ерга бериб ётган эди. Ярадор ғозни Алпомиш даволаб, қанотига хат боғлаб қайта учиради. Ғоз Шакаман тоғига чарчаб қўнганда, ўғлининг ғозни отиб қўйишидан қўрққан кампир онаси ғозни қочириб юборади.

Подшоларнинг қатнаб юрар элчиси,
Элчиларнинг бўлар экан тилчиси.
Бу **ёлғиз ғоз** Алпомиш арзачиси,
Қўйгин болам, арзачига ўлим йўқ...
Фалак уриб сенинг гулинг сўлмасин,
Бекнинг арзачиси бунда ўлмасин...
Қандай бўлса **ёлғиз ғозни** ўлдирма,
Бу ишингни кўзим яхши билмагин..
Қўйгин болам **ёлғиз ғозга** бормагин...[7]

Агар матнга эътибор берсак, ёлғиз ғозни отиш тақиқлигини, кулфат келтиришини англаймиз. Айниқса, ёлғиз ғозни отиш қадимги мифологик қарашларга кўра бахтсизлик олиб келади деб тушунилган. Ёқут халқларида ғоз қушлар худоси, телеут халқларида шомоннинг ёрдамчиси сифатида акс эттирилган. Маълумки, шомонлар ғайб олами билан мулоқотга кирувчилар деб ҳисобланган. Бундан кўринадики, руҳлар оламига алоқадор бўлганлиги сабабли муқаддас саналади. Ҳаттоки, қадимий эътиқодларга кўра, икки олам ўртасидаги воситачи сифатида эртакларда ҳам тасвирланган. К.Имомов "Ўзбек халқ насри поэтикаси" китобида қадимги мифологик ритуал-маросимлардан бири "инициация"да балоғат ёшига етган бўз ўғлон - ўсмирнинг уруғ-қабила тартибларини буза бошлаши (яъни табу-тақиқни бузиши) ҳақидаги фикрлари мавжуд. Инициация-ўсмирнинг балоғат ёшига етиб эркак қаторига ўтиш даврида қатнашиши шарт бўлган диний маросим ҳисобланган. Мифологик тушунчага кўра, тақиқни бузган ўлган, ритуал маросимда қатнашгач қайта тирилган, туғилган саналиши тақиқнинг илдизлари жуда қадим замонларга бориб тақалишидан далолат беради[9]. Маросим заминида ҳам шомон ва ўсмир ўртасидаги тақиқни бузиш ҳолати

достонда йиллар ўтиши билан трансформацияга учраб, балки кампир ва ўғли муносабатлари орқали акс эттирилган бўлса ажаб эмас. Шомонниг вазифаси ўсмирни фалокатдан қутқариб қолиш. Достонда эса кампирнинг мақсади хат олиб кетаётган ғойибнинг қуши саналган – ғозни қутқариш. Чунки, кампир ўсмирни қарғишдан асрайди. Масалан, "Ғозлар-оққушлар" номли рус халқ эртагида укаси Иванушка –бу инициация-синовдан ўтувчи ўсмир тимсоли бўлса, опаси Алёнушка –унга ёрдам берувчи руҳоний - шомон рамзидир. Эртакдаги ялмоғизнинг ёрдамчилари ғозлар эса, ўликлар ва тириклар дунёси ўртасидаги руҳ ташувчиларидир. Яъни руҳлар дунёси вакиллари сифатида рамзий маъно ташийди. Аммо, кейинчалик ёлғизни ғозни отиш тақиқи кенгайтирилиб, достонда бу ғоз Алпомишнинг арзачиси, унинг кўмакчиси сифатида кампир томонидан ҳимоя қилинади. Гўёки, уни отиш бахтсизлик келтиради. Бу мотив достоннинг қадимийлигини ва даврлар ўтиши билан унинг функцияси бироз ўзгаришларга учраганлигини англатади.

Фольклор жанрлари таркибидаги тақиқларни ўрганиш инсоният тараққиёти давомида яратилган қадимий эътиқодларнинг ўтмиш замонларга бориб тақалишидан далолат беради. Ибтидоий жамиятга хос бундай тақиқларнинг халқ оғзаки ижоди намуналарида учраши бу асарларнинг қадимийлигини билдиради. Чунки, тотемизм ва анимизм билан боғлиқ тақиқлар бағрида ҳам халқимизнинг тарихи ва ўтмиши билан алоқадор эътиқодлар, маросимлар ва қадриятлар яширинган. Хулоса сифатида шуни айтиш муҳимки, тотем ҳисобланган ғоз тимсоли таҳлили орқали тақиқларнинг фольклор асарлари структурасининг шаклланишида муҳим функцияни бажарганлигини англаш мумкин.

Адабиётлар рўйхати

1. Гайсина Ф.Ф. Запреты как фольклорный жанр в традиционной культуре башкир: Автореф. дисс… канд. филол. наук. – Казан., 2013. –Стр 54
2. Жалолов Ғ.Ўзбек фольклорида жанрлараро муносабат. Тошкент, "Фан" нашриёти,1979. 13-бет
3. Потапов А.П. Пережитки культ медведья у алтайских турок // Этнограф-исследователь. – Л., 1928. – №2-3. – С.7.
4. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. Тошкент, Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2007, 149-бет
5. Гайсина Ф.Ф. Запреты как фольклорный жанр в традиционной культуре башкир: Автореф. дисс… канд. филол. наук. – Казан., 2013. –Стр 54
6. Алпомиш. Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1985. 204-бет
7. Алпомиш. Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1985. 207-бет

СЎЗ МАГИЯСИ БИЛАН БОҒЛИҚ МАРОСИМЛАРДА ИРИМ-СИРИМЛАРНИНГ ЭТНОГРАФИК РАКУРСДА ЎРГАНИЛИШИ

Насиба ТУРСУНОВА
Навоий давлат педагогика институти
Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация: Ушбу мақолада сўз магияси билан боғлиқ маросимлар ва ундаги ирим-сиримларнинг моҳияти, фольклоршунослиқда тутган ўрни, муҳим аҳамият касб этиши ҳақидаги мулоҳазалар берилган.

Калит сўз: бола, ирим, маросим, магик, чилла, кўз, сух, эътиқод.

Аннотация: В данной статье дана сущность обрядов и ритуалов, связанных со словесной магией, их роль в фольклористике, а также их значение.

Ключевые слова: ребенок, ирим, ритуал, магия, чилла, глаз, сух, вера.

Annotation: In this article, the essence of ceremonies and rituals related to word magic, their role in folklore studies, and their importance are given.

Key word: child, irim, ritual, magic, chilla, eye, sukh, belief.

Халқимиз орасида бола ёки катта одамнинг касал бўлиши унинг вужудига ёвуз руҳларнинг кириб ўрнашиб қолишидан, деб тасаввур қилинган. Ҳатто одамлар ўзининг сўзи, кўзи (яъни нигоҳи), муайян хатти-ҳаракати билан кишиларга салбий таъсир кўрсатиши мумкинлигига ишонишган. “Инсоннинг кўзи ва кўриш иқтидори Ўрта Осиё халқларида, жумладан, ўзбекларда қадимдан магик қудратга эга бўлган хусусиятлардан бири саналади”[24], – деб ёзади Б.Саримсоқов. Халқ лирикасидаги кўз магияси билан боғлиқ поэтик образлар генезисини чуқур ўрганган А.Мусақуловнинг фикрича, “кўз магиясига ишонч жаҳонда жуда кенг тарқалган. Агар маросим фольклорида кўзнинг салбий магик хусусиятларига ишонч кўпроқ тарқалган бўлса, халқ номаросим лирикасида унинг севги билан боғлиқ сеҳрли фазилатлари ўз ифодасини топган. Шу билан бирга, айрим қушиқларда кўз магиясининг маросимий қирралари ҳам сақланиб қолган”[25]. Кўз магияси билан боғлиқ ана шундай турли-туман ишонч-эътиқодлар “кинна”, “сухлаш” ёки “суқ чиқариш” сингари маросимларни келтириб чиқарган.

Анъанага кўра “кўзи бор” одамларнинг ёмон нигоҳи, яъни ҳасаддан сақланиш учун кийимга (кўринмайдиган жойларига) тумор ва кўзмунчоқ тикиб қўйишган. Яна кўзу суқдан сақлайдиган нарса туз бўлиб, бу туздан кичкинагина туморча тикиб, айниқса, эркак кишиларнинг чўнтакларига игнабандак билан тугиб қўядилар.

Навоий вилоятининг Навбаҳор туманидаги Боқи қишлоғида суқ теккан, яъни сухланган беморни даволаш учун ҳафтанинг пайшанба куни чорраҳадан чўп терилади, яъни бир жойдан тўрт тарафга қараб кетган йўлларнинг кесишган жойидан икки-уч бўлак ҳар хил чўп, латталар териб келишган ва исириққа қўшиб тутатаётган пайтда:

Куйсин, куйсин, куйсин,
Ҳамсоя-ю ҳақни кўзи бўлса куйсин,
Кўчада турганларнинг суқи бўлса куйсин,
Отасининг кўзи бўлса куйсин,
Онасининг суқи бўлса куйсин,
Ака-опаларининг суқи бўлса куйсин,
Бисмилло, бисмилло, бисмилло, – дейишган[26].

Қашқадарёлик қорлуқларда кўз теккан беморни даволаш учун бахши момо таклиф қилинган. Бахши момо қўлига бир бўлак нонни олиб, ўша нон бўлагини беморнинг турли жойларига тегизиб:

Даштларга бор, чиқ-чиқ,
Чўлларга бор, чиқ-чиқ,
Эски тегирмонларга бор,
Мени баламга нима ишинг бор,
Чиқ, чиқ, чиқ! – деб суқ чиқарган. Маросим тугагач, ҳалиги суқ чиқаришда ишлатилган нон бўлагини итга ташлаганлар[27].

Кўринадики, “суқ чиқариш” ёки “сухлаш” маросимида халқимиз маиший ҳаётининг таркибий қисми бўлган шомонийлик амалиётининг кўз магияси билан боғлиқ бу ритуали театрлаштирилган саҳнавий асарга хос шаклда ўтказилган. Бу маросимда ҳар бир иштирокчи, яъни бемор, унинг қариндошлари ёки ҳамроҳ(лар)и ва даволаш амалиётини бажарувчи шахс – қушноч (ёки бахши) ўзига хос функцияни адо этади. Иштирокчилар ўртасидаги нутқий мулоқот бемор билан қушноч (бахши) ўртасидаги диалог ҳамда даволаш амалиётини бажарувчи шахснинг монологи орқали реаллашади. Маросим ўтиши учун алоҳида жой ва атрибутлар (кул, нон бўлаги)нинг танланиши ҳам саҳна асарига хос бўлиши билан магик иримлар билан беморни танасидаги хасталикдан воқиф этиш масаласи хам иночга айланганлигини кўрсатади.

[24] Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 1986. – Б.181.
[25] Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Тошкент: Фан, 2010. – Б.137.
[26] Тадқиқотчи фольклор экспедицияси материалларидан. 2016 йил 1 июлда Навоий вилоятининг Навбаҳор туманидаги Боқи қишлоғида яшовчи Лола Жумаевадан ёзиб олинган.
[27] Шаниязов К. Узбеки-карлуки. – Ташкент: Фан, – С.159-160.

Халқ қўшиқларида хам ирим айтимлари, расм-русумлар ранг-баранг ва ҳаммаси ўринли, ҳаммаси зарур. Масалан, қизалоқнинг сочини илк бор ювиб-тараганда сочнинг узунлиги, қалинлиги, кўрса кўргудаклиги, катта-кичикнинг ҳавасини келтирадиган даражада кўркамлиги обдон мақталади. Айрим қўшиқларда сочнинг таърифи ой-у қуёш билан боғлаб куйланади. Бақувват сочнинг узунлиги чўзса ой ва қуёшга ҳам етиб бориши қувноқ мисраларда ифодаланади: Ойда — қулоч, Кунда — тутам.

Сенга — куёв, Менга — палов.

Соч билан боғлиқ яна шунадай ирим борки, Сочни ўрганда ёки йиғиштирганда, бир тола соч алоҳида қўшилмай қолса," совчи келади" деган ирим бор.

Соч тўйи ўғил болани биринчи сочи олинганда қилинадиган тўй. Боланинг илк сочини махсус маросим сифатида ташкил этилиб, ёши улуғ киши қайчи уриб берган ва ис чиқарилиб, соч мевали дарахт тагида кўмилган. Сабаби бола узоқ умр кўришига ва ўзидан кўпайишига мевали дарахтга ишора қилинган иримлар мавжуд;

Бола билан боғлиқ "чилла соч" маросимидаги иримлар ҳам баъзи ҳудуларада сақланиб қолган. Масалан фольклоршунос Л.Худойқулованинг тадқиқотига кўра [28]"Чилла даврида чақалоқнинг сочини биринчи марта олиш маросими Сурхон воҳасида "чилла соч" дейилган. Чақалоқнинг сочини биринчи марта олишда ҳам магик характердаги муайян ирим-сирим ва одатларга амал қилишган. Боланинг "умр йўли оқ бўлсин" деган ниятда чақалоқнинг сочи олинадиган жойда янги оҳорли оқ рўмол тўшалган. Чақалоқнинг сочини олишдан аввал "боланинг умри узун бўлсин" деган маънода серфарзанд, ўзидан тиниб-тинчиган бирор киши, кўпинча гўдакнинг бобоси ёки момоси боланинг сочига қайчи уриб берган. Чақалоқнинг олинган "чилла сочи"ни ҳовлидаги бирорта мевали дарахт (кўпинча ток)нинг тагига кўмишган.

Болани бешикда белаш маросимида хам, ўзига хос иримлар мавжуд: Бешикка узоқ вақт бола ётмаган бўлса, инс-жинслардан воқиф бўлсин, болага зиён етмасин деб, бешик ичида олов, яъни кичик чўпда пахта ўралган ва мойга тиқилган пилик, айлантилириб олиш ирими бор;

Янги туғилган болани илк бор уйида олиб келганда унинг акаси ёки, укасигга оёғи кўрсатилган, бола укасаини куйинмаслиги учун ирим қилинган;

Айниқса болани яхши кўриб эркалаган кишининг кийимидан ип олиб, исириқ билан тутатиш ирими ҳам кўз-назар тегмаслик мақсадида ирим қилинади. Бундай эътиқод ислом динида хам мавжудлиги, яъни назар билан шикастланган ёш болалар ёки умуман бирор бирбемрга нисбатан Қуръони Каримнинг баъзи сураларини ўқилиши ва унинг дарддан халос бўлишига қаратилган.

Туркий халқлардаги мавжуд болалар билан боғлиқ иримлар шартли тақиқлар асосида одат тусига кирган. Ёки табиат ҳодисаларидан ёмиғир билан боғлиқ қарашларда, тўхтовсиз ёғилган ёмғирни тўхтататиш учун оиладаги тўнғич фарзанни орқасини очса, ёмғир тиниишига ишора қилинган. Ёш болани деразадан олиб берилса бўйи калта бўлиб қолади деган ирим мавжуд; Болани қорни оғриса, унинг киндиги устидан уч маротаба нон сийпаб, итга берилса, оғриғи қолиб итга ўтади еб ирим қилинган;

Айнан ўзбек халқига хос маросимларида бажарилаиши шарт иримлардан чупрон қилинадиган болани онаси, чинақай бармоғини мойга тиқиб туриши мавжуд. Унда бола ҳеч қандай муаммосиз, мойдай силлиқ, тез ҳалол бўлиши назарда тутилади деган иримлар халқ наздида одат тусига кириб қолганлиги тақазо этади.

Хуллас, ўзбек халқининг қадимий тарихга бой оилавий-маиший маросимлари ранг-баранг бўлиб, улар инсон туғилиши билан боғлиқ турли расм-русмлари ва урф-одатларга, сўзнинг мўъжизали қудратига асосланган. Халқнинг истеьдодли вакиллари томонидан яратилиб, унга бадиий сайқал берилиб, авлоддан-авлодга ўтиб келаётган этнографик ракурсдаги маросимларнинг вербал қисмини ташкил этувчи, ирим-сирмлар фольклоршуносликда муҳим аҳамиятлигини тақозо этади.

[28] Худойқулова Л. Сурхондарё тўй маросими қўшиқлари: Филол. фанлари номз. дисс. – Тошкент, 2012. – Б.86-88;

MIFOLOGIK HOMIY PERSONAJLARNING TARIXIY ASOSLARI

Rizoyeva Mehrniso Abduazizovna
Navoiy davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.f.d (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek xalq og‘zaki nasridagi homiy obrazlar xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: marosim, ma’buda, diniy e’tiqod, sakral, mifologik tasavvur, urf-odat, kult, qahramonlik eposi, tasavvur

Аннотация: В данной статье рассматриваются образы покровителей в узбекской народной прозе.

Ключевые слова: ритуал, богиня, религиозная вера, сакральное мифологическое воображение, традиция, культ, героический эпос, воображение.

Annotation: This article examines the images of patrons in Uzbek folk prose.

Key words: ritual, goddess, religious belief, sacred mythological imagination, tradition, cult, heroic epic, imagination.

Jahon xalqlari folklorining eng qadimiy qatlami muayyan ma’noda sinkretik tabiatga ega bo‘lgan mifologiya asosiga qurilganligi ko‘pchilik folklorshunoslar tomonidan e’tirof etilgan. Folklorshunos S.S.Katash oltoy miflarining tarixiy taraqqiyoti va taqdiri yuzasidan fikr bildirar ekan, shunday yozadi: “nazarimizda, mif syujetining keyingi davrlardagi evolyutsiyasi quyidagicha kechgan: mifdan afsonaga va so‘ngra ertak hamda qahramonlik eposigacha. Shunday qilib, mifologik qarashlarning gullagan payti barcha predmetlar va hodisalarni jonlantirib tasavvur qilish, ya’ni animizm davriga to‘g‘ri keladi. Keyinchalik miflar o‘zining tadrijiy rivoji davomida antropomorf va zoomorf asotirlarga bo‘lingan. Animizmdan uzoqlashish esa oxir-oqibatda mif ijodkorligi an’anasining so‘nishiga sabab bo‘lgan. Ammo insoniyat jamiyatining ilk bosqichlarida yaratilgan miflar ajdodlarimizning ma’naviy madaniyati yodgorliklari sifatida badiiy-estetik zavq berish orqali yashashda davom etmoqda”[29]. Taniqli folklorshunos olim K.Imomov «mif zaminida naql qilingan afsonalar sinkretik xarakteri bilan farqlanadi. Ularning qadimgi namunalari g‘ayritabiiy hodisalar haqida bayon shaklida paydo bo‘gan namunalari urf-odat, marosim, din elementlari, xudolar, pirlar haqida hikoya qiladi» deb yozganida, voqelikka ongsiz hissiy munosabat bildirgan ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan miflar ibtidoiy marosimlar, e’tiqodiy inonchlar, diniy qarashlar va borliq haqidagi birlamchi bilimlarni o‘zida yaxlit holda aks ettirganligini nazarda tutgan edi.

Filologiya fanlari doktorlari, professorlar M.Jo‘raev va Sh.Shomusarovlarning yozishicha esa, “Voqelikni badiiy idrok etish an’anasining ibtidosi sifatida qadim zamonlarda shakllangan mifologik tasavvurlar tizimi folklordagi epik janrlarning syujet silsilasi va obrazlar tarkibining yuzaga kelishiga asos bo‘lgan”[30].

Diniy-mifologik dunyoqarash zamirida tasavvurlar xosilasi o‘laroq kelib chiqqan hamda o‘zida mifik inonchlar mohiyatini ifoda etgan mifologik obraz va an'anaviy personajlarga e’tiqod bilan qarash hozirda ham ayrim xududlarda mavjud. Turkiy xalqlarning og‘zaki ijodida keng tarqalgan, ajdodlarimizning ibtidoiy tasavvur va tushunchalari bilan bog‘liq bo‘lgan mana shunday timsollardan biri nuroniy obrazi hisoblanadi. Nuroniy qahramonlarning paydo bo‘lishining tub ildizi qadimgi animistik, totemistik va shomonistik tushunchalar asosida kelib chiqqan. O‘lkamizda Islom kirib kelguniga qadar shakllangan Cho‘pon ota ham ezgu homiy sifatida tasavvur qilinadigan mifologik personajlardan biridir. Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”da mayda mollarga homiy sanalgan Frodat-Fshova nomi xususida fikrlarning mavjudligi kishilik jamiyatining ilk davrlarida chorvachilik bilan bog‘liq kultlar insonlarning turmush tarzi uchun naqadar ahamiyatli bo‘lganligidan darak beradi. Cho‘pon ota to‘g‘risidagi afsonada aytilishicha, payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v.ning

[29] Каташ С.С. Архаические жанры алтайского фольклора (генезис, типология, поэтика): Дисс. на соис. докт. филол. наук. – Ташкент, 1984. – С.120.
[30] Jo’rayev M, Shomusarov Sh. O’zbek mifologiyasi va arab folklori. – Toshkent: Fan, 2001. – B.10-11.

tug‘ilishlaridan bir ming yilcha oldin Samarqand shahrining yeri tekislikdan iborat bo‘lgan ekan. Kunlarning birida bosqinchilar shaharga bostirib kelishibdi. Shu davrga qadar but va ilohlarga sig‘inib yurgan aholi bosqinchilar zulmidan qutulish maqsadida o‘z ma’budlaridan yordam so‘rashibdi. Ammo, ma’budlari ularning iltijosini eshitmabdi. Shundan so‘ng shaharliklar o‘zlari sig‘ingan barcha- but, haykal, sanamlarni sindirib tashlashibdi.Endi ular yolg‘iz Yaratgan Ollohdan yordam so‘rashni boshlashibdi. Yer va osmon Xudosiga ularning iltijosi yetib boribdi. Xudo aholiga yordam beribdi. Ertasi kuni dushmanlar zulmidan halos bo‘lgan Samarqandliklar qayerdandir paydo bo‘lib qolgan ulkan tog‘ni ko‘rib qolishibdi. Tog‘dagi tosh ustida uxlab yotgan cho‘ponga ko‘zi tushgan kishilar mana shu kundan e’tiboran, cho‘ponga xaloskor va chorvachilik homiysi sifatida qarab Ota sifatini qo‘shib atay boshlashibdi[31].

Turkiy mifologiyada har bir hayvon turining o‘ziga xos homiy ruhi borligi haqidagi qarashlar mavjud. Etnograf Ye.M.Pesherevavaning fikricha, O‘rta Osiyo xalqlarida qadimdan qo‘yga insonlarni balo-ofatlardan asrovchi ilohiy jonivor sifatida munosabatda bo‘lishgan . Haqiqatdan ham xalqimiz orasida qo‘y eng muqaddas jonivorlardan biri hisoblanganligi sababli hozirda ham xonadonlarda kalla suyagini daraxtga osib qo‘yish odati mavjud. Shuningdek, “ko‘z tekkan”ligi natijasida og‘rigan bemorni yangi suyilgan qo‘y ko‘zi bilan silash odati mavjud bo‘lib, nazardan, yomon ko‘z va suqdan asrash vositasi sifatida ham foydalanishadi.

Turmush tarzi chorvachilik va dehqonchilikkka daxldor bo‘lgan xalqimizda cho‘ponlar piri sanalgan Cho‘ponota va chorvadorlar piri Zangiota ruhiga bag‘ishlab amallar o‘tkazish o‘lkamizda islom dini kirib kelguniga qadar ham mavjud bo‘lgan. Zangi otaga sig‘inish O‘rta Osiyo va Janubiy Sibirdagi turkiy xalqlar, shuningdek, Rossiyada istiqomat qiluvchi tatarlar orasida ham keng tarqalgan. O‘lkamizda Islom dini tarqalganidan so‘ng ham butparastlik an'analarining ayrim qoldiqlari saqlanib qolgan. Qadimda aholi uchun asosiy boylik chorva bo‘lganligi sababli azaliy turmush tarzi chorvachilikka daxldor bo‘lgan ajdodlarimiz osmon xudosidan podani ko‘paytirish va himoya qilish uchun madad so‘rashgan. Shuningdek, chorvadorlarning e’tiqodicha yaylovdagi har bir hayvonning o‘ziga xos piri bo‘lgan va har yilda bir marta mana shu e’riqod qilingan homiy pir nomiga atab qurbonlik qilingan. Qo‘y homiysi-Cho‘ponota, qoramol homiysi - Zangiota, ot piri - Qambarota, echki homiysi-Chig‘atota deb qaralgan. Qozoq xalqlari Zengi boboni e’zozlab, undan chorvani saqlash, balo-qazodan asrash va ko‘paytirishni so‘rashgan. “Zangi ota kimga qarasa, darhol boyib ketadi” kabi qarashlar ham mavjud. Ayrim tadqiqotchilar fikricha, tasavvurlarda totemizmning ayrim xususiyatlari xanuzgacha saqlanib qolgan.Afsonalarda aytilishicha, Turkmanistonning shimol tomonida uzoq yillar yashab o‘tgan solih cho‘pon bo‘lgan ekan.Halollikda nom chiqargan cho‘pon dafn qilingan hududidagi tog‘ va ko‘l hozirda Zengibaba deb ataladi.

Tatar xalqlari orasida esa Zangi boboga hovli egasi deb qaralgan va sayisxonada yashashiga ishonilgan . Uni sharafiga vaqti-vaqti bilan qurbonlik qilib turishgan[32].
“Zengi boboga sig‘inishning diqqatga sazovor tomoni shundaki, u aniq ifodalangan sehrli yo‘nalishga ega, ayni paytda u "xalq" variantida islom dini amaliyotiga kiritilgan”[33]. Umuman olganda O‘rta Osiyoda istiqomat qilgan qadimgi odamlarning turmush tarzi chorvachilik madaniyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lganligi sababli ularning e’tiqodiy qarashlari kult zamirida shakllangan. Shuningdek, og‘zaki nasrda epik homiy sifatida talqin etilish an’anasi islomning sakral mohiyatini yanada oshirish maqsadida maydonga kelgan.

[31]Dissertantning folklor ekspeditsiyasi materiallari Samarqand viloyatining Narpay tumani. Axborotchi: 50 ёшда, oliy ma’lumotli MO‘tabar Shukurovadan yozib olingan.
[32] Мырзашова А. К. Зооморфные признаки интеллектуальной концептосферы казахов и русских // Вестник Карагандинского государственного университета (Серия Филология). — Караганда, 2010. — № 02 (58). — С. 13—18.
[33] Кондыбай С. Зенги-баба // Казахская мифология. — Алматы: Нурлы Алем, 2005. — С. 127—128. — 272 с.

NAJMIDDIN KOMILOV – “XAMSA” TALQINSHUNOSI

Zarif Quvonov,
Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti, f.f.f.d
E-mail: zarif_1178@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada Istiqlol yillarida Navoiy “Xamsa”sining o‘rganilishi, uning ma’no-mohiyati, badiiyatining yangicha talqin va tahlillari Najmiddin Komilov tadqiqotlari misolida o‘rganildi. Olimning bu boradagi ilmiy faoliyati xususida mulohaza yuritildi.

Kalit so‘zlar: doston, tasavvuf, timsol, matn, talqin, tadqiqot, xamsashunoslik.

Аннотация: В данной статье на примере исследований Наджмиддина Камилова изучено исследование «Хамсы» Навои в годы независимости, ее значение, новая интерпретация и анализ ее искусства. Обсуждалась научная деятельность ученого в этом плане.

Ключевые слова: эпос, мистика, символ, текст, интерпретация, исследование, аллология.

Annotation: In this article, the study of Navoi's "Khamsa" in the years of independence, its meaning, new interpretation and analysis of its art were studied on the example of Najmiddin Kamilov's research. The scientific activity of the scientist in this regard was discussed.

Key words: epic, mysticism, symbol, text, interpretation, research, allology.

“Xamsa” dostoni – Navoiy poetik iste’dodining ulkan mahsuli. O‘tgan besh asrdan ortiq davr “Xamsa”ning xalqimiz madaniyati tarixidagi muhim voqealardan biri bo‘lganligini ko‘rsatdi. Shu bois bu asarning genezisi, yozilish jarayoni, obrazlar tizimi, badiiy xususiyatlarini tadqiq etish navoiyshunoslikda alohida ahamiyat kasb etadi.

Istiqlol yillarida Navoiy ijodiyotini yangi mezonlarda o‘rganishga kirishildi. “Xamsa” tadqiqiga doir yigirmaga yaqin dissertatsiyalar yaratildi. Bu tadqiqotlar xamsashunoslik mant, til, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini yangicha tahlil va talqinlar bilan boyitdi.

Har bir davr (muayyan sohada) o‘z tadqiqotchilarga muayyan vazifalarni yuklaydi. O‘tgan asr oxirida mumtoz adabiyotshunosligimizda paydo bo‘lgan masalalar va sharoit adabiyotshunoslar zimmasiga katta vazifalarni qo‘ydiki, uni bajarish uchun tadqiqotchi fundamental bilimga, konseptual tafakkur tarziga ega bo‘lishi kerak edi. Navoiyshunoslikda, xususan, xamsashunoslikda bu Sharq mumtoz adabiyotini, tasavvuf falsafasini hamda Navoiy o‘qigano‘rgangan asarlarni hamda Navoiy asarlarini yaxshi bilishni talab qilardi. Bunday fundamental tadqiqotlarning yuzaga kelishida olimning konseptual fikrlash tarzi muhim o‘rin tutadi.

Najmiddin Komilov ilmiy faoliyatida Navoiy ijodining islomiy ma’rifati, shoir e’tiqodining javhari – tasavvuf g‘oyalari va inson qalbi, shohu gado hikmati, insonning ma’naviy kamoloti, Ko‘ngil va g‘ayb olami, axloqiy poklanish va Ilohiy ishq sirri kabi muammolar talqini yetakchi o‘rin tutadi. Uning o‘zi ta’kidlaganidek: “Navoiy dunyoqarashini yaxlit bir tizim sifatida olib qaraydigan bo‘lsak, uning markazida, shubhasiz, islom ahkomi va tasavvuf ta’limoti yotadi. Zero, shoirning otashin gumanizmi, odamiylik konsepsiyasi, adlu insof, saxovat va muhabbat haqidagi fikr-o‘ylari, ezgulikka payvast buyuk tafakkur olami shu ta’limot negizida shakllandi. Tasavvufga mehr unda bolalikdan boshlangan; ko‘proq faqr ahli bilan do‘stlashgani, so‘fiyona asarlar mutolaasiga berilishi (chunonchi, «Mantiqut tayr»ni yod olgani), «soliki majzub»ni orzu qilgani shundan. U naqshbandiya sulukini tanlab, Abdurahmon Jomiyni pir deb qabul qilib, uning huzurida vahdat ul-vujud falsafasidan saboq oldi, shayx Muhammad Tabodgoniy suhbatlarini qozonib, «iltifotlar» ko‘rdi. Jomiy Navoiy iltimosi bilan orif shayxlar tazkirasi «Nafahot ul-uns» kitobini yozdi va Faxriddin Iroqiyning «Lamaot» asarini sharhladi. Navoiy «Nafahot ul-uns»ni qisqartirib, o‘zbek tiliga tarjima qildi, turk mashoyixidan ko‘pini va zamondosh darveshlarni kiritdi. Natijada, Navoiy qalban va botinan «faqru fano jodasida iqbol topgan» (Jomiy) odamga aylandi. Azaliy va abadiy Tangri taoloni Haq va haqiqat hisoblab, nafs talablarini o‘ldira borib, dilni poklash, o‘zni tanib, o‘zlikni fido etish orqali ilohiy ma’rifat topgan orif so‘fiylar maslagi Navoiy maslagiga aylanadi. Natijada, tasavvuf g‘oyalari uning ijodining mag‘z-mag‘ziga singib ketadi. So‘fiyona ishq olamini ilohiy nur tajallisida ko‘rish, hol mastonaligi shoirning valiylarcha iste’dodiga quvvat bag‘ishlar, romantik taxayyulini yashnatardi” [Komilov N. Xizr chashmasi.2005. –S.3].

Najmiddin Komilov Navoiy ijodini o‘rganishdan o‘z konsepsiyasiga ega olim edi. Bu Navoiy dunyoqarashining yaxlitligini [Komilov N., 2005.-S.7], shoirning o‘z asarlarida olam yagonaligi, jism va ruhning o‘zaro vobastaligini ifodalab berishini [Komilov N., 2005.-S.7] chuqur idrok etganligida ko‘rinadi. Shu bois shoir ijodini tushuntirishda yangi – hamma uchun tushunarli va ayni paytda chuqur va mukammal sharh, tahlil va talqinlar yuzaga keldi. Albatta, Najmiddin Komilov o‘zigacha bo‘lgan ilmiy-nazariy va adabiyotga oid manbalarni o‘rganib, ular ustida nuktadonlik bilan fikr yuritdi. Islom diniga oid, tasavvufga oid manbalar va tadqiqotlar va ayni paytda forsiy adabiyotning ulkan vakillari ijodi yuzasidan olib borilgan dunyo olimlarining (xalqimizdan chiqqan olimlarning) tadqiqotlari ham olim nazaridan chetda qolmadiki, bular Navoiy ijodini teran idrok etish, sharhlash va tushuntirishda muayyan ahamiyatga ega. Olim Navoiy o‘qigan asarlarni ham nazardan chetda qoldirmagan edi. Shu bois bir masala-muammoni hal etishda ularga murojaat qilib, asoslar topib beradi, to‘g‘ri xulosalarga keladi.

Najmiddin Komilovning “Xamsa” dostonlarini talqin qilar ekan, Sharq islom falsafasi, komil inson axloqi, ruhiy dunyosi va ma’naviyatiga doir teran mulohazalarni o‘quvchiga tushunarli tarzda yetkazadi. Birgina Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni sharhini ko‘rib chiqaylik. Ruhi Mutlaq oshiq va ma’shuqa taniga kiradi, shunda Ruhlar o‘zaro tutashadi, deydi muallif. Ammo tong yorishganda, sevishganlar el nazaridan qo‘rqib, yana ajralishadi, negaki hali Ruhi Mutlaqqa yaqinlashuv bir-biriga singish va erib ketish degani emas… Layli O‘z egasi qoshiga kelgach, o‘limni quvonch bilan qarshi oladi, sababi ma’shuqasi – Iloh vasliga axiyri yetishdi. U foniy dunyoning kayf-safosi, lazzatlaridan qutulib, abadiy farog‘atga yetishgani tufayli baxtlidir. Laylining Iloh vasliga yetishganini bilgan Majnun yo‘lga tadorik ko‘radi. Ikkovi ham visol oni yaqinlashgani, sevgilisi (Iloh) bilan mangu qovushish imkoni yetib kelganidan xursand.

So‘fiy shoirning xulosasiga ko‘ra, har bir odam oshiqlik yo‘lini tutib, ishq tariqiga kirib, o‘zini o‘limga emas, balki vasl mayini ichishga tayyorlab bormog‘i darkor. Albatta, inson aqli va farosati Ilohni tasavvur etishga ojizligini bilgan Navoiy uni Layli timsolida bergan va maqsadiga erishgan! U g‘oyasini badiiy mahorat bilan obrazga singdira olganki, hatto ilohiy ma’shuqa bilan dunyoviy ma’shuqa o‘rtasidagi farqni sezmay qolasiz.

Olimning ilmiy talqinlaridan biri shoh va darveshga obraziga bag‘ishlangan, desak xato bo‘lmaydi. So‘fiy she’riyatida darveshlar zohiran aftodahol, janda kiyimda (hirqada) ko‘rinsa-da, lekin botinan ilm-ma’rifatli, hozirjavob va mard-hamiyatli kishilardir. Tasavvuf ahli nazdida shoh – qul, dunyo qulidir. “Chunki u mol-dunyoga hirs qo‘ygan odamlarning eng “peshqadami”, eng zo‘ri, uning fikri-yodi dunyoni egallash bilan band, – deb yozadi N. Komilov. – Shunday qilib, shoh dunyodan to‘ymaslik, zulm-u zo‘ravonlik ramzi bo‘lsa, darvesh o‘z xususiyati bilan shohning butunlay teskarisi – saltanat, taxtu tojni inkor etish, unga nafrat timsolidir” [Komilov N., S. 69]. Shularni tahlil qilarkan, raiyatga bosh bo‘lmoq uchun o‘zni ilohiyot nuri va ma’rifat dunyosi bilan bezash lozim, degan xulosaga keladi muallif.

Najmiddin Komilov hokimiyat, toju taxt imkoniyati bilan ma’rifat-u bilimning darajasini qiyoslab, mansabga xos ijobiy va salbiy qusurlarni sanab o‘tayotib, insondagi hokimiyatga hirs, dunyoparastlikni ochiq tanqid qiladi. “Har qanday podsho yaxshilarni himoyasiga olib, olimlardan doimo maslahat so‘rab, yomonlarni jilovlashi va jazolashi lozim”, deydi. Shu ma’noda Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo”, Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns”, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat”, Sa’diy Sheroziyning “Guliston”, “Bo‘ston” asarlaridan pokdil darveshlarning hayot yo‘lini, nozik xislatlarini keltirib o‘tadi.

Munaqqidning “Saddi Iskandariy” dostoniga oid ilmiy tadqiqoti ham o‘rganishga loyiq hodisa. Olimning ta’kidicha, shoirning bu asarida ota va bola, shoh va raiyat, shoh va a’yonlar, shoh va darvesh, ustoz va shogird, donishmandlik va amaliyot, taqdir va tadbir, inson va Xudo kabi axloqiy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy masalaga oid fikrlari davlat boshqaruvida qo‘l kelishi mumkin. Jumladan, Iskandar taqdirida jahongirlik yozilganini aytib, u bu maqomga faqat chuqur bilimi, ma’naviy-axloqiy kamoloti tufayli erishganligini ta’kidlaydi. Asarning foydali jihati shundaki, inson komillikka yetib, yuqori martaba-yu, maqomga erishganida manmanlikka berilmasligi, shon-shavkatga erishganida ham Xudo oldida o‘zini ojiz his etmog‘i darkor.

Dostondagi murakkab nuqtalarni tahlil qilgan muallif: “Shohlik uning uchun zo‘rlik va hukmronlik vositasi, mumtozlik belgisi emas, balki xalq va Haq oldidagi vazifa, burch edi” [Komilov N., S. 212], degan xulosaga keladi.

Navoiyshunos olim Najmiddin Komilovning “Farhod va Shirin” dostoniga bag‘ishlangan tadqiqotida ajdaho nafs, Ahraman dev salatanat (hokimlik) va temir paykar ro‘yo-yolg‘on timsoli sifatida talqin etilgan. Bu talqinda ta’kidlaniganidek, to‘rt manzil deganda, asosan, nafs, qalb, ruh va aql nazarda tutilganini ham e’tibordan qochirmaslik kerak. Diniy-tasavvufiy manbalarda keltirilishicha, odamzod vujudini shu to‘rt asos tashkil etadi va ularni bu dunyo manzilidan toza, pok holda olib o‘tish buyurilgan. [Bobomurod E. Majoziy muhabbat haqiqatlari. 2015. - S.51-bet]

Najmiddin Komilov tadqiqotlarida keng dunyoqarash, teran tafakkur, qiyosiy tahlil va hassos qalbning ajoyib tarzdagi uyg‘unligini ko‘ramiz.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Комилов Н. Комилов Н. Хизр чашмаси. –Тошкент: Маънавият, 2005. –320 б.
2. Истиқлол даври навоийшунослиги. Ўттиз жилдлик. Еттинчи жилд. Тошкент, “Тамаддун”, 2021.- 408 б.
3. Бобомурод Э. Мажозий муҳаббат ҳақиқатлари. 2015. 96 б.

GADOIY QIT’ALARI: BADIIY IFODA VA POETIK MUKAMMALLIK

Xudoyorova Munira Baxronovna , NavDPI dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Email:muniraxudoyorova77@g.mail.com
Тел: +998972288460
(O‘zbekiston)

Annotatsiya: Maqolada Gadoiyning o‘zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotidagi o‘rni va qit’a janri rivojiga qo‘shgan hissasi haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: qit’a, an’ana,badiiy obraz, poetika.

Аннотация: В статье рассматривается роль Гадои в развитии узбекской классической литературы и его вклад в развитие жанра китъа.

Ключевые слова: китъа, традиция, художественный образ, поэтика.

Abstract: The article discusses Gadoi's role in the development of Uzbek classical literature and his contribution to the development of the kit'a genre.

Key words: kit'a, tradition, artistic image, poetics.

Navoiygacha bo‘lgan davr turkiy adabiyot rivojida Gadoiy ijodi ham muayyan mavqe egallaydi. Alisher Navoiy “Muhokamatul lug‘atayn” asarida turkiy til ravnaqida munosib hissa qo‘shganlar qatorida Gadoiyning nomini ham keltiradi: “...Hulogulixon zamonidin sultoni sohibqiron Temur Ko‘ragon zamonidin farzandi xalafi Shohruh sultonning zamonining oxirigacha turk tili bilan shuaro paydo bo‘ldilar. Va ul Hazratning avlod va ahfodidin ham xush tabu salotine zuhurga keldi: shuaro Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va Atoyi va Muqimiy va Yaqiniy va Gadoiydeklar”.[34]

Gadoiyning hayoti va ijodiga doir ma’lumotlar nihoyatda kam saqlanib qolgan. Ular orasida Hazrat Alisher Navoiyning yana bir qimmatli asari – “Majolis un-nafois” tazkirasidagi mana bu qaydlar nihoyatda qadrli: “Mavlono Gadoiy-turkigo‘ydur, balki mushohirdindur. Bobur mirzo zamonida she’ri shuhrat tutdi. Bir nav’i aytur va aning mashhur matla’laridan biri budurkim:

Ohkim devona ko‘nglum mubtalo bo‘ldi yana,
Bu ko‘ngulning ilkidin jong‘a balo bo‘ldi yana ”.

[34] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 16-том. – Тошкент: “Фан” нашриёти ,2000. - Б.36.

Mavlononing yoshi to‘qsondin o‘tibtur…”[35]

Mavlono Gadoiy hayoti va ijodiy faoliyatini ilmiy jihatdan tadqiq etish borasida E.Rustamov, S.G‘aniyeva, E.Ahmadxo‘jayev, turk olimi Ya. Ekman va I.Haqqulovlarning xizmatlarini alohida e’tirof etsa arziydi.

Gadoiyning asarlari ilk marotaba Ya. Ekman tomonidan 1960-yilda Turkiyada chop etilgan. (Bu nashrga kiritilgan 50 ta g‘azal Parij Milliy kutubxonasiga saqlanayotgan yagona devondan tanlab olingan.[36]) 1970-yilda professor H.Sulaymonovning sa’y harakati bilan Gadoiy devonining mikrofilmi mamlakatimizga olib kelinadi. Gadoiy devonining adabiyotimiz tarixidagi birinchi marta to‘liq nashri ana shu mikrofilm asosida olim E.Ahmadxo‘jayev tomonidan nashrga tayyorlanadi.[37] Ushbu devon tarkibida jami 273 ta she’r mavjud bo‘lib, 230 g‘azal, 1 mustahzod va 1 qasida qatorida 5 ta qit’a ham o‘rin olgan.

Adabiyotshunos Ibrohim Haqqulov Navoiy va uning davri ijodkorlarining o‘z xalqi oldidagi burch va mas’uliyatlarini “hammadan oldin she’riyat vositasida o‘zbek tilining qudrati, ulug‘vorligi va shukuhini yanada yorqinroq miqyoslarda namoyish qilish” da ekanligini alohida ta’kidlagan edi.[38] Ishq va oshiq iztiroblari, ma’shuqa yodi, sof, tabiiy, samimiy va ta’sirchan ifoda tarzi, badiiy so‘z shukuhining turkiy tilga xos noziklari Gadoiy qit’alariga ham xosdir. Garchi shoir ijodida qit’a janri namunalarining soni kamroq, ya’ni 5 ta bo‘lsa-da, poetik jihatdan mukammalligi, badiiy san’atlarning fikr mohiyatini yuzaga chiqarishdagi o‘ziga xosligi bilan e’tiborlidir. Gadoiy qit’alari ham shaklan ixcham – 4 misradan tashkil topgan. Asosan, ishq talqini, lirik qahramon – oshiqning ruhiy kechinmalari tasviriga bag‘ishlangan. Qit’a qofiyasida shakldosh so‘zlarning tajnis san’atini hosil qilib, qofiyadosh bo‘lib kelishiga ko‘ra Gadoiy va Lutfiy qit’alari o‘zaro o‘xshash. Ammo Lulfiyda qofiyaning mutlaq va muqayyad qofiya turlari uchrasa, Gadoiy she’rlarida faqatgina muqayyad qofiya shakli qo‘llangan. Mavzu va mazmuniga ko‘ra ham har ikkala shoir ijodidagi qit’alar bir-biriga yaqin. Jumladan, quyidagi qit’ani olaylik:

Topmag‘ay g‘avvosi fikrat sen bilan
Bahri husn ichra, begim, bir javhare.
Zulfunga vobastamen bu shahrda
Sensizin yo‘qtur manga bir jav Hariy[39].

Unda husn mulkida tengsiz bo‘lgan, aniqrog‘i, “bahri husn” – go‘zallik ummoni ichra yagona “javhar” – gavhar deya tavsiflangan betakror chiroy sohibasi – ma’shuqa ulug‘lanmoqda. Yor tarovati, latofatining asosi, moyasi qayda – buni hech bir “fikr g‘avvosi” ham anglay olmaydi va boshqa yana bir shunday gavharni “top”olmaydi. Shu sababli, oshiq ma’shuqaning “zulf”iga bog‘lanib qolganki, “shahr” – Hirot shahridan o‘zga bir joyga, makonga ketishni xayoliga ham keltira olmaydi. Qit’ada “javhare” va “jav Hariy” so‘zlari vositasida jinsdoshlik yuzaga kelgan bo‘lsa, “g‘avvosi fikrat”, “bahri husn” poetik ifodalari istiora san’atini hosil qilgan. Lirik qahramon kechinmalari aniq toponimik joy nomi – Hirot shahri bilan bog‘liqlikda ifoda etilganki, bu ham Gadoiy qit’asining o‘ziga xosligini ta’minlagan. Badiiy adabiyotda zulf – moddiy dunyo tashvishlari, ularga bog‘lanib qolish ma’nolarini ham bildiradi. Qit’adagi “zulfungga vobastamen” birikuvidan ana shunday mazmunlar ham anglashiladiki, bu Gadoiy qit’alaridagi badiiy ifodalarning mumtoz adabiyot an’analari bilan o‘zaro bog‘liqligini ham ko‘rsatadi. Quyidagi qit’ada ham lirik qaharamonning kayfiyati tajnis she’riy san’ati orqali yorqin tasvirlangan:

Chunki qilsam shakkar erningdin savol,
Man Gadog‘a lutfi birla kel, ma, der.
Chun borur bo‘lsam yavuqroq qoshig‘a,
Shum raqibi behaqiqat kelma der[40].

[35] Alisher Navoiy.To‘la asarlar to‘plami.9-jild.- Toshkent:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2013.- B.350.
[36] Qarang:Ҳаққулов И.Абадият фарзандлари. – Тошкент: “Ёш гвардия” , 1990.- Б.62.
[37] Qarang:
[38] Ҳаққулов И.Абадият фарзандлари. – Тошкент: “Ёш гвардия” , 1990.- Б.62.
[39] Гадоий девонининг луғати ва матни. – Тошкент: Давлат адабиёт музейи, 2007. – Б. 202.
[40] Гадоий девонининг луғати ва матни. – Тошкент: Давлат адабиёт музейи, 2007. – Б. 202.

“Kel, ma, der” va “kelma der” shakldoshlari vositasida yuzaga chiqqan so‘z o‘yini ifodaning jozibadorligini ta’minlab, oshiqning jo‘shqin va hayotsevar qiyofasini ko‘z oldimizga keltiradi. Mumtoz she’riyatda, xususan, ishqiy mavzudagi she’rlarda lirik qahramon – oshiqning ag‘yor yoki “shum raqib”ga nisbatan keskin munosabati, murosasizligi ayon. Ammo “raqibi behaqiqat”dan yozg‘irayotgan oshiqning holati aynan Gadoiy qit’asida keltirilgan. Umuman olganda, qit’alar nafaqat Gadoiy badiiy mahoratining yorqin jihatlarini ifoda etgani, lirik qahramon xarakterining o‘ziga xos tomonlarini dalilagani, shuningdek, o‘zbek mumtoz adabiyotda qit’a janr taraqqiyotida muhim bosqich vazifasini ham o‘tagani bilan ham ahamiyatlidir.

“HAYRAT UL-ABROR”DA USTOZLAR TALQINI

Nigora Sharipova Nuriddinovna
NavDPI doktoranti (DSc), f.f.f.d., PhD.

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiy “Xamsa”sining ilk dostonida madh etilgan xamsanavis ustozlari - Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlangan bob va qarashlar nazariy tahlilga tortilgan.

Аннотация: В статье был проанализирован первый дастан “Хамсы” Алишера Навои, в котором нашли отражения взгляды прославленных предшественниках - Низами Гянджеви, Хусрава Дехлави, Абдурахмана Джами.

Annatation: The article analyzes the first dastan of “Khamsa” by Alisher Navoi, wich reflected the views of illustrious predecessors - Nizami Ganjavi, Khusrav Dehlavi, Abdurakhman Jami.

Kalit so‘zlar: an’ana, mahorat, badiiy talqin, ustoz, bob, obraz, xarakter.

Ключевые слова: традиция, мастерство, художественная интерпретация, глава, образ, характер.

Keywords: tradition, craftsmanship, artistic interpretation, chapter, image, character.

Mumtoz adabiyotda nasriy va she’riy asarlar, xususan, dostonlar tarkibida ustozlarga bag‘ishlab boblar kiritish an’anasi mavjud. Alisher Navoiy ham ko‘pgina she’riy va nasriy asarlarida xamsanavis ustozlari Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlangan maxsus boblar kiritadi, ularga hurmatini, iliq munosabatini ifoda etadi. Xususan, «Hayrat ul-abror»da salaflari Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy portretini benuqson, mukammal chizadi. Bolaligidanoq ustozlari e’tirofiga sazovor bo‘lgan Navoiy «Xamsa» yozish uchun umrining aynan boy hayotiy tajribaga ega bo‘lgan davrini tanlashi «Hayrat ul-abror»dagi teran falsafiy mushohadalarida, jamiyatdagi muammo va ziddiyatlar borasidagi mulohazalarini ochiq-oydin va real bildira olishida yaqqol ko‘rinadi. SHunday bo‘lsa-da, shoir o‘ta kamtarona mulohaza yuritib, Nizomiy va Dehlaviyning ruhi pokiga umid bog‘laydi, Jomiyning ma’naviy madadiga ehtiyoj sezadi:

Botin ila qilmasa ul ikki rad,
Zohir ila bu biri qilsa madad.
Menki talab yo‘lida qo‘ydum qadam,
Bordur umidimki, chu tutsam qalam,
Yo‘ldasa bu yo‘lda Nizomiy yo‘lum,
Qo‘ldasa, Xusrav bila Jomiy qo‘lum. [1;46]

Olimlarimiz Navoiy salaflari merosidan o‘rganib, ulardan olgan saboqlarini o‘z davri adabiyotiga tatbiq qilganini, ularni rivojlantirganini, faoliyati davomida o‘z salaflari tomonidan olg‘a surilmagan bir qator ilg‘or g‘oyalarni ham olg‘a surib, qator badiiy, falsafiy va ilmiy asarlar yaratib, o‘z zamonida yuksak darajaga ko‘tarilib, adabiyot olamida ulkan so‘z ustalari qatoridan munosib o‘rin olganini yozishadi [17;10].

Shoir salaflariga mehr qo‘yishi barobarida ularning ijodini puxta o‘zlashtirdi, ustozlari ko‘tarilgan ma’naviy yuksaklikka astoyidil intildi. Navoiyshunos A.Hayitmetov Navoiy va uning salaflari munosabati masalasiga e’tibor qaratar ekan, jumladan, shunday ta’kidlaydi: «U epik poeziyada Firdavsiy, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Jomiyni, lirik poeziyada Hofiz, Xusrav Dehlaviy,

Jomiy, Lutfiyni tan olar va butun hayotida ular bilan tenglashishga intilgan edi. Shuning uchun uni Sharq shoirlaridan faqat shu gigantlar bilan, ayniqsa, masnaviyda Nizomiy, g‘azalda Hofiz bilan tenglashtirish to‘g‘ri bo‘ladi»[8;166]. Chindan ham, xamsachilik an’anasida, SHarq adabiyotida yaratilgan mashhur «Xamsa»larning barchasida, shu jumladan, Navoiyda ham Firdavsiy «Shohnoma»sining ta’sirini inkor etib bo‘lmaydi. Navoiy «Xamsa»dagi Xusrav, Bahrom, Iskandar obrazlarini yaratishda, ayniqsa, «Shohnoma»dan eskiz oladi. Navoiy salaflari masalasiga e’tibor qaratilsa, «boshqa salaflar haqidagi gaplar juda kam bo‘lib, Navoiyda bu ko‘proq «avvalgi yozganlar» (FSh, SS) – Ashraf Marog‘iy bo‘lishi yoki ayrim asar muallifi «roqim» (bunda «roqim» so‘zi ostida Orif Ardabaliy va uning «Farhodnoma»si ko‘zda tutilgan degan fikrlar bor (q.: S.Erkinov, 1971; Arasli, 1969, 24) asar yaratuvchisi deb atab ketilgan [6;87]. Biroq Ganjaviy va Dehlaviy xususida bunday emas. «Xamsa» dostonlarining barchasida ikki ustoziga maxsus bob bag‘ishlaydi, ularning «Xamsa»larini «xamsatayn» deb yuqori baholaydi.

Navoiy «Hayrat ul-abror»ning XII bobida Nizomiy Ganjaviyning cheksiz mahorati haqida so‘z yuritib, uni «kamolot daryosining qimmatbaho injusi» degan yuksak nomga sazovor ko‘radi:

Xayli fasohat boshining afsari,
Ganji yaqin afsarining gavhari.
Koni fazilat guharig‘a amin,
Bahri balog‘at aro durri samin. [1;39]

Atoqli navoiyshunos N.M.Mallayev «Nizomiy Ganjaviy merosi va uning ma’rifiy-tarbiyaviy ahamiyati» nomli risolasida Nizomiyning axiylar tariqatiga, futuvvatga aloqadorligi haqida yozadi. U akademik Vohid Zohidovning «Dunyo adabiyotining nuroniy siymosi» asaridan eldigizlar sulolasi vakili Shirvonshoh Ohiston jabr-zulmini tortgan buyuk shoir Afzaliddin Hoqoniyning Ilyos ibn Yusuf Nizomiyga yozgan maktub-nasihatini keltiradi. Bu maktubdagi fikrlar Nizomiy yashagan davr muhitining hurfikrli ijodkorlar uchun juda og‘irligini bildiradi [11;9-15].

Ilk dostonning o‘n ikkinchi bobida Nizomiy va Dehlaviy «Xamsa»larining ilk dostonlari haqida alohida to‘xtaladi. Nizomiy masnaviy yo‘lini o‘ziga bo‘ysundirgan bo‘lsa, Dehlaviy ham unga ergashdi, unga monand ish tutdi deya Sharq xamsachiligida Nizomiyning alohida o‘rni borligiga zimdan ishora qiladi. «Hayrat ul-abror»ning Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlangan XIII bobida ham ustozi bilan kechgan suhbatlari ko‘p bora Nizomiy va uning «Xamsa»siga borib taqalganini shoirning «Gavhare yo‘q «Maxzan ul-asror»dek» singari iqrorida ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

«Hayrat ul-abror»ning o‘n ikkinchi bobi jami 37 baytdan iborat bo‘lib, Navoiy bobda ikki salafi uchun deyarli teng o‘rin ajratgan. Birinchi qismida Nizomiy xususida fikr yuritsa, ikkinchi qismida Dehlaviyni madh etadi. Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat» asarida mashhur shayx va sufiylar qatori uch salafini nomini ham tilga oladi. Avval Nizomiy (722), undan so‘ng Xusrav Dehlaviy (723), keyinroq Jomiy (735) xususida maxsus to‘xtaladi. «Nasoyim ul-muhabbat»da Nizomiy xususida so‘z yuritar ekan, uning xudojo‘y va sufiytabiat ijodkor ekanligini, «Panj ganj»i mashhurligini, 592 yilda uning so‘nggi kitobi «Iskandarnoma» yozilganini aytadi hamda Nizomiyning poktiynat inson ekanligi isboti sifatida shunday deydi: «Alarga zohiriy ulumi va rasmiy istilohotdin bahrai tamom bor ermish. Ammo barchadin ilik tortib Haq s.t.g‘a yuz kelturubdurlar»[3;477]. Bu asarida ko‘proq Nizomiyning sufiy shoirligiga e’tibor qaratsa, «Hayrat ul-abror»da shu fazilatlari qatorida ilk «Xamsa» yaratuvchisi sifatida cheksiz iste’dodi va mahoratini yuksak baholaydi:

Xoni latoyifqa so‘zi munqasim,
Durri maoniyg‘a tili muntazim. [1;40]

Alisher Navoiy uchun Nizomiy Ganjaviy xamsanavislarning birinchisi, boshlovchisi, daho shoir, donishmand, mutafakkir sifatida aziz va qimmatlidir. Navoiy bu bobda badiiy nafosat va falsafiy teranlik bilan Nizomiyni «fasohat xayli» nafis, go‘zal san’at ijodkorlarining boshidagi toj, «ganji yaqin» – haqiqat tojining gavhari deydi.

Tug‘ilgan yurti, «Panj ganj»ining shuhrati, taxallusining fazilati xususida so‘z yuritar ekan, fazilat koni gavharlarining qo‘riqchisi, kamolot daryosining qimmatbaho injusi deya e’tirof etadi.

Nizomiyning Ganja yurtidan ekanligini ta’kidlar ekan, shu baytda o‘zakdosh so‘zlardan mahorat bilan foydalanib, ishtiqoq san’atining go‘zal namunasini yaratadi:

Ganja vatan, ko‘ngli aning ganjxez,
Xotiri ganjuru tili ganjrez. [1;40]

Shoir ilk salafiga muqaddas Baytullohdan hamisha bir eshik ochiqligini, ibodat chog‘ida unga bu eshik mehrob vazifasini o‘tashini tasvirlab, Nizomiyning sufiy-shoir ekanligiga bir necha ishoralar beradi:

Masjidi qandili sipehri asir,
Shu’la bu qandil aro mehri munir.
Ka’ba uyidin bir ochuq bob anga,
Sajda chog‘i hay’ati mehrob anga. [1;39,40].

Bu bobda ilk salafini maqtashdan tashqari ozorboyjon shoirining shaxsiy, ruhiy, ma’naviy olamining barkamolligi haqida ham g‘oyaviy va badiiy yuksak fikrlarini aytadi. Navoiy fikricha, Nizomiy juda kamtarinligi sababli molu johga qiziqmay, oddiy kulbada yashaydi, xalqona tilda aytganimizda kichik ko‘ngil oddiy kulbani ixtiyor etgan:

Garchi ko‘ngul kulbasidek muxtasar,
Ikki jahon anda bo‘lub jilvagar. [1;39]

Nizomiy Ganjaviy saroy, devon mansablarida ishlashga qiziqmay, uzlatda yashab, ijod qilgan. Uzlatda, xilvatda yashash aziz avliyolar odati hisoblangan. «Vahdat guharin qo‘lga oldi» degani kalom ilmida ham, tariqatda ham yuqori maqomga yetishdi, degan ma’noni bildiradi. Nizomiy ta’rifidagi bobda shoir tashbeh, kitobat, mubolag‘a, ishtiqoq, ruju’, iyhom, talmeh san’atlaridan mohirona foydalanib, poetik tasvirda mukamallikka erishgan.

O‘n ikkinchi bobning ikkinchi qismini shoir ikkinchi salafi Amir Xusrav Dehlaviy ta’rifiga bag‘ishlaydi. Nizomiy maqtovida shoir yuksak tashbehlarni bag‘ishlasa, Dehlaviy ta’rifida shoir munosabati ko‘proq Nizomiyning davomchisi doirasida ifodalanadi. Biroq, ta’kidlash joizki, bu izdoshlik Dehlaviy shuhratini aslo susaytirmaydi. Ma’lumki, Dehlaviyning Nizomiyga nisbatan hurmati keyinchalik xamsanavislikda Dehlaviyning o‘zini ham salaf yoki ustoz sifatida tilga olish an’anasini vujudga keltirgan [6;86]. Navoiy bu bobda uni hind sultoni, o‘z nomi bilan so‘z iqlimida shoh ekanligini (bu o‘rinda xusrav so‘zi podshoh ma’nosini anglatishi nazarda tutilgan – N.Sh.), har bir dostoni Hindistonning bir o‘lkasiga tengligini e’tirof etadi:

Ganja shahi ganjfishon, payrav – ul,
Shah bu so‘z iqlimi aro, Xusrav – ul. [1;41]

Salaflariga atalgan boblar «Xamsa» dostonlarining barchasida uchraydi va ko‘tarinki, yorqin badiiy uslubda yozilgan. Ilk dostondagi baytlarga ohang jihatidan hamohang:

Nizomiy dedi, Xusrav bo‘ldi payrav,
Agar ul shoh edi, bu erdi xusrav. [2;342]

Navoiy xamsanavislikdagi ikkinchi salafi Amir Xusrav Dehlaviyni g‘azalnavislik va qasidanavislikda ham ustoz deb bilar edi. Forsiy tilda yozgan «Devoni Foniy»da Xusrav Dehlaviy g‘azallariga ko‘p tatabbu’ bog‘lagan, uning «Bahr ul-abror» qasidasiga forsiyda yozgan javobi «Tuhfat ul-afkor» ham shuhrat qozongan edi.

Navoiy zamonida Hirotda agar ziyolilar, shoirlar Nizomiy va Xusrav Dehlaviy «Xamsa»larini o‘qimagan bo‘lsa ma’rifatli, savodli hisoblanmas edi. Hatto sulton Shohruhning o‘g‘illari Boysunqur Mirzo bilan Ulug‘bek Mirzo suhbatlari va yozishmalarida g‘oyaviy-badiiy jihatdan Nizomiy «Xamsa»si afzalmi yo Xusrav Dehlaviy «Xamsa»simi?-deb bahslashar edilar[5;88]. Bu esa ikki xamsanavisning barcha zamonlarda ma’lum va mashhur bo‘lganligidan dalolat beradi.

Alisher Navoiy «Xamsa» dostonlarini yozishda Nizomiyga nisbatan ko‘proq Xusrav Dehlaviyga ergashgani haqida adabiyotshunos Yo.Is’hoqov bunday deydi: «Nizomiy Iskandar haqida ikkita doston («Sharafnoma», «Iqbolnoma») yozsa, Navoiy Xusrav kabi bir doston yozadi. Navoiy Farhodni ham Xusrav Dehlaviy kabi podshohning o‘g‘li qilib ko‘rsatadi [10; 88-98].

Alisher Navoiy o‘zi «Muhokamat ul-lug‘atayn», «Mahbub ul-qulub» va «Nasoyim ul-muhabbat»da Xusrav Dehlaviy ijodi haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. «Nasoyim»da ham

Dehlaviyga Nizomiydan keyin o‘rin beradi va ko‘proq biografiyasiga oid ma’lumotlarga o‘rin ajratadi [3;480]. «Hayrat ul-abror»da Dehlaviy madhida Navoiy unga nisbatan o‘t, olov, barq obrazlarini qo‘llaydi, umuman, uning xarakteristikasi tezlik, o‘tkirlik, otashinlik orqali ifodalanadi [12;18]. Navoiy ikki xamsanavis salafini bab-baravar qo‘ymaydi. Nizomiyni nafaqat «Xamsa» ixtirochisi, balki so‘zda qudrati, cheksiz iste’dodi va mahoratini ulug‘laydi. Dehlaviyni esa ko‘proq «Xamsa»ni munosib davom ettirgan ijodkor sifatida e’tirof etadi. Shu bilan birga «Xamsa» yozishga harakat qilgan ko‘p sonli havaskorlar orasida bu murakkab vazifani a’lo darajada uddalay olgan tengsiz iste’dod sohibi ekanligini ham tan oladi.

Navoiy ham ustozlariga hurmat saqlab, o‘z davrining cheksiz so‘z san’atkori bo‘lishiga, imkoniyati yetarli ekanligiga qaramasdan, g‘oyatda kamtarona mulohaza yuritadi, salaflarini buyuk sanab, o‘zini kamtarlikda itga mengzaydi:

It kibi chun pastlig‘im chog‘ladim,
O‘zni biyiklar ipiga bog‘ladim. [1;47]

«Hayrat ul-abror»ning XIII bobi Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlangan bo‘lib, unda Navoiy o‘z piri komilini behad ulug‘laydi, ustozining portretini mukammal tavsiflaydi. Uni ulug‘lab, o‘rnini yetti qavat osmondan ham yuqorida deya ta’riflaydi. So‘zda tengsizligini, nasr va nazmda birdek mahoratliligini, ulug‘ martabaga ega ekanligini ta’kidlaydi:

Qasri kalomi chiqib andoq baland,
Kim anga gardun sola olmay kamand.
Nazmi aqolimi jahonni tutub,
Nasri dog‘i kishvari jonni tutub.
Fayzi gadovu shah aro muntashir,
Xizmatiga shohu gado muftaxir. [1;42,43]

Navoiy va ustozi Abdurahmon Jomiy munosabatlariga jahon adabiyotshunosligida ham e’tibor qaratilgan [4]. Jomiy Navoiy uchun nafaqat ustoz, ota singari mehribon inson, yo‘lboshchi, piri komil. O‘z salaflari Nizomiy va Dehlaviyga o‘z «Xamsa»sining har bir dostonida maxsus bob ajratgan bo‘lsa, ustozi Jomiyga alohida bobdan tashqari «Xamsatul-mutahayyirin» nomli manoqib, esdalik asar bag‘ishlaydi.

Sharq adabiyotida Navoiy va Jomiy orasidagi do‘stlik buyuk shaxslar o‘rtasidagi eng ibratli va samimiy do‘stlik ekanligi, bu do‘stlik ikki qardosh xalq orasidagi asrlar osha mavjud bo‘lgan ahillik va hamkorlikning ajoyib ifodasi va timsoli hisoblanishi ta’kidlangan [14;17]. Manbalarda ularning har bir ishda hamkor, maslahatchi va maslakdosh bo‘lgani [16;18], shuningdek, Navoiyning «Xamsa» yaratish fikri ustozi Jomiy tomonidan qo‘llab-quvvatlangani e’tirof etiladi[9;70].

Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlangan bobda Navoiy Jomiyni ta’riflar ekan, boshqa salaflaridan farqli o‘laroq ikkita asosiy jihatga e’tibor qaratadi:

Birinchidan, Nizomiy va Dehlaviy xususida so‘z yuritar ekan, ularni ko‘proq xamsanavis, mohir so‘z san’atkori sifatida tilga oladi. Biroq Jomiy xususida so‘z ketganda, bu fazilatlardan tashqari piri komil sifatida ham e’tirof etadi. Ta’kidlanishicha, Jomiy o‘zining mutasavviflik faoliyatida Bahouddin Naqshband g‘oyalarini taraqqiy ettirgan Sa’diddin Qoshg‘ariyga sadoqat ko‘rsatgan, keyinroq uning qiziga uylangan va vafotidan keyin faoliyatini davom ettirgan. SHuningdek, Movaraunnahrdagi naqshbandiylik oqimining yirik namoyandasi Xoja Ahror bilan yaqin munosabatda bo‘lgan, o‘zining diniy-tasavvufiy qarashlarini lirik va epik asarlarida keng rivojlantirgan[7;13]. Shu sababli ham Navoiy Jomiyni sufiylik maslagining dahosi, haqiqat sirlarining kashshofi deya ulug‘laydi:

Ulki bukun qutbi tariqatdur ul,
Koshifi asrori haqiqatdur ul. [1;46]

Bunday e’tirofga asosiy sabab sifatida Navoiy «piri ko‘magida Naqshbandiya tariqatiga kirganini, tasavvuf ilmini mukammal o‘rgangani»ni ko‘rsatish mumkin [15;11].

Ikkinchidan, Navoiy Jomiyni ko‘ngliga ilk bora «Xamsa» yozish istagini solgan ustoz sifatida e’tirof etadi. Navoiyning qo‘liga tutqazgan «Haft avrang»ning ilk dostoni «Tufhat ul-ahror» Alisher Navoiyni turkiy tilda «Xamsa» yaratishdek yuksak maqsad sari yo‘llaydi, buyuk

«beshlik»ning dunyoga kelishida asosiy sabab sifatida ko‘rsatiladi, shoirga «Xamsa» yaratish ilhomini ustozi bergani ta’kidlanadi:

Kulgu bila qildi ishorat manga,
«To‘hfa» bila berdi bashorat manga...
...Boshtin-ayoq gavhari shahvor edi,
Qaysi guhar, «Tuhfat ul-ahror» edi...
...Chun o‘qimoq zamzamasi bo‘ldi bas,
Ko‘nglim aro dag‘dag‘a soldi havas. [1;45]

Navoiy boshqa salaflariga ham hurmat ko‘rsatib, ularning asarlaridan ilhomlanadi. Biroq Jomiy ilk dostonini hajman kichik bo‘lsa-da, ularnikidan har jihatdan yuksak deya baholaydi:

Naf’ topib kimki bo‘lub mustafid,
Muxtasar ul ikkidin, ammo mufid.
Ul ikini topsa bo‘lur munda-o‘q,
Munda tuhaf ko‘pki, ul ikkida yo‘q. [1;45]

Navoiyning ikki mashhur salafiga bir bob; uchinchi salafi, ustozi Jomiyga alohida bob bag‘ishlagani zamondosh ustoziga shogirdlik sadoqatini saqlab, tengsiz iste’dodini yuksak baholashi, shuningdek, ularning doimiy hammaslak, hamkor, hamfikr bo‘lganidan dalolat beradi.

Atoqli tojik shoiri Mirzo Tursunzoda shoir tanlangan asarlarining birinchi jildiga yozgan so‘zboshida ustoz Jomiyning rahmdil inson ekanligini, ko‘p yillar avval, chaqaloqligida dunyodan o‘tgan farzandini eslab, qayg‘urib nodir baytlarini yozganini aytadi[13;5-6]. Darhaqiqat, Abdurahmon Jomiy tengsiz iste’dod sohibi bo‘lishdan tashqari shaxsiyatida bir qator ijobiy fazilatlar mujassam bo‘lgan tabarruk zot sifatida tarixda nom qoldirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. To‘la asarlar to‘plami. Oltinchi jild. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 812 b.
2. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. To‘la asarlar to‘plami. Oltinchi jild. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 812 b.
3. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. TAT. O‘n jildlik. O‘ninchi jild. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B.477.
4. Бертельс Е. Э. Наваи и Джами. – М.: Наука, 1965.
5. Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo‘stoni (“Tazkiratul-shuaro”dan). –T.,1981. – B.88.
6. Erkinov A. Alisher Navoiy “Xamsa”si talqinining XV-XX asr manbalari. Filol.fan.dok.diss. – Toshkent, 1998. – B.87.
7. Hayitmetov A. Abdurahmon Jomiy. – T.: Fan, 1989. – B.13.
8. Hayitmetov A. Navoiyning ijodiy metodi masalalari. – Toshkent: O‘zRFA nashriyoti, 1963. – B.166.
9. Hayitmetov A. Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti. – T.: Fan, 1996. – B.70
10. Is’hoqov Yo. Navoiy va Xusrav Dehlaviy // Navoiy va adabiy ta’sir masalalari. – T.: Fan, 1968. – B.88-98.
11. Mallayev N. Nizomiy Ganjaviy. Mas’ul muharrir Hamidjon Homidiy. – T.: A.Navoiy nom. O‘zbekiston milliy kutubxonasi. – T.,2015, – B.9-15.
12. Qayumov A. Hayrat ul-abror talqini. Asarlar. 1-jild, 1-kitob. – T.: MUMTOZ SO‘Z, 2008. – B.18
13. Турсунзода М. Весенний сад поэзии // Джами. Избр. произв. 64 – х томах, том 1. – Душанбе: Ирфон, 1972. с. 5-6.
14. G‘aniyeva S. Abdurahmon Jomiy // Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy. – T.: Fan, 1966. – B.17.
15. G‘afforov N. Alisher Navoiy “Xamsa”sida sufiylar timsoli. Filol.fan.nom.diss. ... avtoref. – Toshkent, 1999. – B.11
16. Shodiyev: E. Alisher Navoiy va fors-tojik adiblari. –T.: O‘qituvchi, 1989. – B.18.
17. Shodiyev E. Alisher Navoiy va uning salaflari. – L., 1967. – B.10.

USMON AZIM IJODIDA “YOMG‘IR” OBRAZINING BADIIY TALQINI

R.M.Sharipova
NavDPI O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
katta o‘qituvchisi f.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya: ushbu maqolada oddiy bir tikondan buyuk go‘zallikni yaratib, tabiat unsurlarini misralarga tamoman jipslashtirgan, ularga yangitdan jon baxshida etgan bejirim pafosli satrlar sohibi Usmon Azimning she’rlarida tabiat qirralari yomg‘ir talqin qilinadi.

Annotation: in this article, the features of nature are interpreted in the poems of Usmon Azim, who created great beauty from a simple thorn, integrated the elements of nature into verses, and gave them new life.

Kalit so‘zlar: she’r, tabiat, o‘xshatish, tahlil, ijod, lirik qahramon, istiora, tasvir.

Key words: poem, nature, simile, analysis, creativity, lyrical hero, metaphor, image

Mustaqillik davri she’riyatida yangicha uslublar bilan bir qatorda yangicha motivlr ham kirib keldi. Zamonaviy she’riyatda bunday timsollar umumlashtirish darajasiga ko‘ra «motiv, topos, arxetip deb yuritiluvchi ko‘rinishlari ham ajratiladi. Motiv (motiv obraz) shakliy va mazmuniy jihatdan muayyan turg‘unlik kasb etgan, bir yoki bir necha ijodkorning asarlarida qaytarilib turishi bilan ularning ijodiy intilishlarini namoyon etuvchi obraz[41]» dir. Shu xususiyatiga ko‘ra Usmon Azim ijodidagi yomg‘irni motiv obraz qatoriga kiritish mumkin. Chunki bu obraz shoir ijodida takrorlanib turadi:

Ketdim...Yomg‘irdayin o‘tdim-u ketdim,
Ming asr tanholik kechdi boshimdan.
Ming asr oralab qaytadan etdim,
O‘sha yolg‘iz qolgan ayol qoshiga[42] .

Tabiatda yomg‘irning turli xil yog‘ish holati kuzatiladi. Jumladan, bir yog‘ib, tezda yotib ketuvchi yomg‘ir lirik qahramonning muhabbatsiz o‘tgan hayotini ifoda etadi. Yoki shoirning «Yomg‘ir haqida ballada» she’ri oshiqning qalb og‘riqlarini ifodalab keladi:

Bulutlar kiftida etdim sayohat,
Osmondan ergacha yo‘lni taradim.
Uchib derazangga etdim nihoyat,
Men – yomg‘ir! Qaragin, jonim, qaragin![43]

Ma’lumki, yomg‘ir qalbga ajib bir musaffolik olib kiradi. Yuqoridagi satrlarda shoir bulutdan erga inguvchi tabiatning bu noyob hodisasida o‘zini ko‘radi. Ya’ni bulutdan erga tomchi-tomchi bo‘lib tushguvchi yomg‘ir oshiqni ma’shuqaga etkazuvchi yo‘l ma’nosini ifodalab keladi.

Derazangni chertdim – berilib chaldi
Kuzning bayotini ho‘l barmoqlarim.
Kuzak – g‘am yaratar bahaybat cholg‘u,
Gulxanida yondi, voh, oyoqlarim.
Derazangni chertdim. G‘ussalaring mo‘l –
Seni asragaylar dunyodan uzib.
Tashqariga qara, yonoqlari ho‘l –
Oynaga yuz bosmish sog‘inchning yuzi [44].

«Kuzning bayoti» – shoirning badiiy topilmasi. Chunki yomg‘irning yog‘ishida o‘ziga xos musiqa bor. Bu musiqa mahzunlikka yo‘g‘rilgan. Shuning uchun lirik qahramon kuz yomg‘irini o‘sha bayotni kuylovchi «g‘am yaratar bahaybat cholg‘u»ga qiyoslaydi. Keyingi bandda tashxis

[41] Қуронов Д., Мамажонов З. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. –Т.: Akademnashr, 2013. –Б.47.
[42] Usmon Azim. Sog‘inch: Шеърлар. – Тошкент: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2007. –Б.8.
[43] Усмон Азим. www.ziyouz.com .
[44] Усмон Азим. www.ziyouz.com .

bor. Ya’ni deraza oynasiga ingan yomg‘ir tomchilarini shoir «yonoqlari ho‘l» deya jonlantiradi. Va bunda sog‘inch hislarini tuyadi.

Meni eshitmaslik mumkinmas... Oxir
Eshiging ochildi – ko‘rdim ko‘zingni.
Ammo sen junjikib, entikib og‘ir
Soyabon tagiga olding o‘zingni.
Sen meni sevmaysan... Yomg‘irman nochor –
Soyabon sathida bekor urindim.
Goho etagingga etdim beozor,
Goho etigingga bebaxt surindim...[45]

Bunda lirik qahramon – oshiq holati aks etgan. U o‘zini «yomg‘irman» deydi. Yomg‘irdan tanasi «junjikib, entikib» turgan suyukli o‘zini og‘ir soyabon ostiga oladi. Bunda qo‘llangan holat fe’llari ham yomg‘irga mos. Muhabbati javobsiz qolayotgan oshiq o‘zini yomg‘irga mengzaydi. Yomg‘ir sevgilining etagiga uriladi va etigiga surinadi. Bunda ham tabiat manzarasi va lirik qahramon ruhiyatida monandlik bor. Hatto shoir «etagingga, etigingga» so‘zlari vositasi o‘ziga xos so‘z o‘yini qiladi. Umuman, bunda yomg‘ir ishqdan ozorlangan oshiq obrazini ifodalab keladi.

Sog‘indim men seni – yuragim taqir.
So‘ra, mayda qolgan maysadan so‘ra –
Men ham yomon yomg‘ir emasdim, axir.
Endi kuz sevgimni soldi qo‘shiqqa,
Hajringda vujudim tobora ravshan...
Manzilga etasan. Nogoh eshikda
Meni soyabondan silkib tashlaysan.
Seni ostonada quchadi birov.
Gul kabi hidlaydi seni – to‘ymaydi.
Yog‘aman, yog‘aman – ravishim yig‘lov –
Bundan ketay desam sog‘inch qo‘ymaydi[46] .

Ruhiy holat tasviri yuqoridagi bandlar davom etadi. «Kuz sevgimni soldi qo‘shiqqa» der ekan shoir, yomg‘irni nazarda tutadi. Ma’shuqa o‘z manziliga etgandan keyin soyabonni qoqadi. Bu ham lirik qahramonda mahzunlik uyg‘otadi. Ya’ni o‘sha qoqilgan yomg‘ir tomchilarida u o‘zini ko‘radi. «Yog‘aman, yog‘aman – ravishim yig‘lov. Bundan ketay desam sog‘inch qo‘ymaydi» misralari ham shoirning muhabbat va yomg‘ir tasvirida ismsiz dardlarni tuyishini ifodalab keladi. Yomg‘ir yog‘ishdan to‘xtamaydi. «Ravish» so‘zi holat ifodalab keladi. Yomg‘ir tomchilari esa yig‘iga o‘xshatiladi. Shu o‘rinda shoir yomg‘irning to‘xtamay yog‘ishida sog‘inchni ko‘radi. «Xazon bo‘lish, yonish, kul bo‘lish ijodkordan juda katta g‘ussali yurak talab etadi. «Yomg‘ir haqida ballada»sida «Yog‘aman, yog‘aman – ravishim – yig‘lov» satri bor. El va yurt dardi bilan yongan g‘ussali yurakka faqat birgina taskin bor: So‘z va she’r sog‘inchi unga taskin beradi[47]»

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Қуронов Д., Мамажонов З. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. –Т.: Akademnashr, 2013

2. Usmon Azim. Sog‘inch: Шеърлар. – Тошкент: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2007.

3. Усмон Азим. “Кўнгил”. “Янги аср авлоди”.Тошкент: 2019

4. “Сўнгсўзлар” У.Азим.-Тошкент: Илм-зиё-заковат. 2020

[45] Усмон Азим. www.ziyouz.com .
[46] Шеър матни www.ziyouz.com kutubxonasi сайтидан олинди
[47] Нормат Йўлдошев.Ўзликни англаш изтироби. https://diyor24.uz/9989 **сайтидан олинди**

ХУРШИД ДАВРОН ИЖОДИДА ТИЛ ХУСУСИЯТЛАРИ

ДИЛНОЗА НУСРАТИЛЛОЕВА
Навоий давлат педагогика институти
Филология фанлари бўйича фалсафа доктори

Аннотация: Мақолада Хуршид Даврон шеъриятида тилдан фойдаланиш маҳорати таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: адабиёт, лирика, образ, тил хусусиятлари, инверсия, антитеза.

Аннотация: В стаье анатизируется мастертво использования мастерство использования языка в поезии Хуршида Даврона.

Ключевые слова: лирика, образ, особенности языка, инверсия, антитеза.

Abstract: The article analyzes the skill of using language in Khurshid Davron's poetry.

Key words: Lyric, image, language features, inversion, antithesis.

Хуршид Даврон шеъриятида ўзбек тили бойликларидан жуда кенг фойдаланади. Шунинг учун ҳам унинг лексикаси бой ва ранг-барангдир. Шоир доим оригинал, янги ташбеҳлар топиб, уларни лириканинг бадиий-эстетик қувватини оширишга хизмат қилдиради. Шуни ҳам алоҳида таъкидлаш лозимки, Хуршид Даврон япон шеъриятидан қилинган таржималарини тўплаб "Денгиз япроқлари", жаҳон халқлари шеъриятидаги мутаржимлик фаолиятида юзага келган "Қирқ бир ошиқ дафтари" каби тўпламлари шоир бадиий тилининг ривожига, сўз қўллаш маҳоратининг юксалишига беқиёс таъсир кўрсатганлигини кўришимиз мумкин. Ҳақиқатда, "Поэтик асарнинг етук бўлишини фақат тилнинг ўзигина ҳал этмайди. Аммо тил асарнинг бутун ички оламини кўрсатувчи ойнадир ва поэзиянинг барча компонентлари билан муомала қилувчи кўп қиррали воситадир"[48]. Мазкур илмий-назарий қарашлар фонидаги поэтик хусусиятлар Хуршид Даврон лирикасининг ҳам бадиийлигини таъминлаб берган жиҳатлардандир.

Шеърий оҳанглар, шеър ўқиган шоир овози булбулга қиёс этилади. Чунки шоир табиат ато этган сирли товушларнинг шоир туйғуларида жило топган, нафосатга йўғрилган, ритмик композиция ҳосил қилган кўринишидир. Булбул навоси ҳам тангри томонидан ато этилган ишқ қўшиғидир. Табиат – Аллоҳ томонидан инъом этилган истеъдод, латофатли овоз жамиятнинг, муҳитнинг ғаюрлиги билан қушларга қайтариб берилди. Ойбек тилдан қолди. Шоир ўхшатишлари, ташбеҳлари биз кўникиб қолган сўз ёки қўшимчалар кўринишида эмас, балки поэтик тафаккур қаърига сингдирилган, бир мунча адабиётдан хабардор китобхонгина англаб етадиган, бадиий-эстетик ҳофизаси бор кишигина ҳиссиётлари орқали тушунадиган, завқ туядиган ҳодисадир.

Шеър – фақат қуш тили, деганди шоир
Қулоқ тутиб қувноқ, шўх товушларга.
Бошида рутубат қилганда қаҳр,
У тилни қайтариб берди қушларга.

Метафоралар орқали шеър ихлосмандларини шоир биографияси томон етаклайди. Сўз ўйини, жимжимадор сўзлар сийрати орқали ҳосил қилинган тасаввурлар ўқувчини сеҳрлайди.

Шоирнинг "Сен қизингнинг сочини силаб" номли шеърида салбий бўёқдор сўзлар билан ижобий бўёқдор сўзлар қаршилантирилиши асосида поэтик кашфиёт яратилади. "Бахтдан бўлиб кўр" жумласида "кўр" сўзи кўзи ожиз, ёруғ дунёни кўришдан бенасиб одамлар маъносида келган. Бундай маънодаги сўз ҳар қандай кўринишда ҳам ижобий маъно ташимайди. Шоир маҳорати уни бахтли дақиқалари кўп бўлган одамга нисбатан ишлатади. "Бахт ва кўр" сўзларини бир мисрада келтириш билан изоҳан бир-бирига зид бўлган сўзлар воситасида лирик манзара яратилган. "Ўғил ва гўр" сўзлари ҳам ҳудди шундай зид маъно ташийди. "Фарзанд", қолаверса ўғил хурсандчилик, шодлик аломати, "гўр" лексикасида эса

[48]Адабиёт назарияси. 1 жилд. – Тошкент: Фан, 1978. – Б.356.

фожиа ва мотам маънолари мужассам. Биринчи банддаги қора ва ёруғ кунларда ишлатиладиган ҳар иккала сўзнинг ёнма-ён ишлатилиши билан лирик тасвирда ноосойишталик бордек кўринади.

Турмас эдинг шодумон кулиб,
Боқмас эдинг бунчалар сен шўх.
Бир кун сенинг болангга келиб
Тегишини билсанг ўша ўқ.

Хуршид Даврон лирикасида ўз услубига хос тарзда “тун”,“ўқ”, “осмон”, “қўрқув”, “тоғ”, “ҳурлик”, “ханжар”, “қуёш”, “болалик”, “қон”, “ватан”, “қул”, “боғ”, “қушлар”, “денгиз”, “сўз”, “душман”, “озодлик” каби умумистемолдаги сўзлар тез-тез ишлатилади. Юқорида тилга олганимиз шоир лексик қатламидаги сўзлар гоҳ ўз маъносида, гоҳ маъносини ўзгартириб кўп маъноли сўз кўринишида ифода этилади. Қуйида айримларини кўриб чиқамиз: “Бу ерда ўқлардан яродор бўлмай, Қонлари тўкилмай ўлар одамлар”, байтидаги ўқ сўзи ўз вазифасини бажармаяпти. У фақат шоир услубини яратишга хизмат қилаётган образ сифатида намоён бўлмоқда. “Кесилган дарахтлар, сўлмоқда боғда, Барг чиқара бошлар чарчаган болта” мисраларидаги боғ сўзи кўп маъноли бўлиб, жой номи – макон сифатида гавдалантирилмоқда. Чунки шоир назарида бу маконда ўсадиган нарсанинг ўзи йўқ. Шунинг учун “болта барг чиқаради”, ёвузлик авж олади. “Учиб кетдим осмонга кейин, Ҳасратлардан бўлай деб йироқ” шеъридаги осмон сўзи ҳам поэтик маъносида эмас. Осмон кенглик, беғуборлик, бепоёнлик рамзи. Унинг салобати, кўркли виқори мувозанатни сақлаб туриши керак. Лирик қаҳрамон эса узоқ бир маконга отлангани каби кетмоқда, паноҳ истамаяпти, яширинаяпти. “Ёлғон сўзласа у – ҳамма фош этар, Тўғри сўзни айтса – ҳеч ким чидамас” байтидаги “сўз” атамасининг сеҳрли кучи ифодаланган. Худди халқ мақолларидаги “битта сўз камлик қилади, иккита сўз кўплик қилади, ўртадаги сўзнинг ўзи йўқ” ҳикматига мос яратилган. “Кечалари улар қуёшдан шамшир ясарлар”. Мазкур мисрада қуёш сўзининг башариятга кўрсатаётган чексиз, чегарасиз меҳр нури эмас, балки қирғин қуроллар ясаш мумкин бўлган предмет каби тасвирланиши билан мажозий маъно ҳосил қилинмоқда. Хуллас, сўзларнинг шеърий битикларда ифодалаган турли хил маъно қирралари шоир шеъриятига образлилик олиб келган. Лириканинг ўқимишлигини, бадиийлигини таъминлаган.

Шоир шеъриятида оз бўлса-да, архаик сўзлар ишлатилади. “Вужуди зиндондир – вужуди – қамоқ, Кўкда сузган ҳилол осмон қизидек”, “Дили тўла озорга”, “Ҳассага суянган дарвеш”, “Қилич ушлаб ўрганган қўллар”, “Юз бир забон, юз бир лаҳжада”, “Ҳилол нури тинчиган узлат” каби мисраларда эскирган сўзлар асосли қўлланган, бадиий-тасвирий атмосферани юзага келтирган.

Шоир шеърияти лексикасида қўлланиш даражаси мунтазам бўлган, сўзлар қатори ва гуруҳи мавжуд: Булар: тун, шам, дарахт, қушлар, ой, қуёш, юлдуз, булут, ёмғир, гиёҳ, майса, қон, кўзёш, қилич, ханжар ва бошқалардир. Шунингдек кўпгина шеърларида ярим, бир, икки мисрадан иборат метафоралар ҳам учрайдики, булар муҳим бир фикрни, гапни, қолаверса, шеърнинг бутун поэтик мазмунини сиқиқ ва қисқа ифодалашга қўл келади. Буларга айрим мисоллар: “Уни тонгга тираб отдилар”, (“Лорканинг ўлими”) *“Кўкни қўмсар занжирлар қисиб// оддий қўлга айланган қанот”*, (“Бибихоним”), “Ҳуркиб кўкга сапчир патирлаб, Тун уйқуси – қора қарғалар”, (“Бобур”), “Ой безовта кишнайди, Яғринида қизил доғ”, (“Баллада”), “Осмонда бир пичоқ учиб юрибди”, (шу номли шеър), “Ой ўлчаб юрибди ерни қаричлаб”, (“Бу одам”). Баъзан бутун бандлар метафора асосида қурилади.

Тарихда келажак кунлар яширин,
Қайтган сайин ўтган кунларга
Келажакга яқинлашарсан

Т.Қосимбековнинг “Синган қилич” китобига битик” деб аталган шеър ҳам тўлалигича метафорик тафаккурга асосланган асар. Хуршид Давроннинг китобхоннинг интелектуал савиясига мўлжаллаб ёзилган “В.Г.Ян хотирасига” шеърининг бирор мисраси йўққи,

метафорадан ҳоли бўлса. Шуларга таяниб айтиш мумкинки, Хуршид Даврон лирикаси – метафоралар шеъриятидир.

Хуршид Даврон ижодида баъзан ясама мавҳум сўзлар ҳам учраб туради. “Дарахтларда бўртарди туйғу”, “Кимнидир жим, сиқтаб чиқарди”, “Шаҳар кезиб дилхун ва тинсиз”, “Ўлган шоҳга содиқ соллотлар”.

Хулоса қилиб айтганда, шоир асосан XX асрнинг 70-80 йилларида тарих ва ватан мавзуларига эътибор қаратиб, замонавий кўринишдаги шеърий жанрларда устозлари тажрибаларига суяниб ижод қилди. Ўз овози, поэтик тил яратишдаги уринишларида уларга тўғридан тўғри эргашмай, анъаналарни сақлаган ҳолда ўзига хос услуб ярата олди. Хуршид Давроннинг тил бойликларидан унумли фойдаланиши XXI аср ўзбек шеърияти учун маҳорат мактабини ўташи, шубҳасиз.

MIFOLOGIK TAFAKKUR IZLARINING YANGICHA TALQINI

Mansurova Nodira Bobojonovna

Navoiy davlat pedagogika instituti, katta o‘qituvchi

Annotatsiya. Maqolada Shodiqul Hamro asarlarida magik realizm unsurlarining ifodasi, mifologik tasavvurlar bilan bog‘liq inson ichki dunyosining ruhiy olami ramz va metaforalar orqali betakror chizgilarda aks ettirilishi yoritib berilgan.

Аннотация. В статье выражение элементов магического реализма в творчестве Шадикул Хамро, духовного мира внутреннего мира человека, связанного с мифологическими представлениями, отражено в уникальных линиях посредством символов и метафор.

Abstract. In the article, the expression of elements of magical realism in the work of Shadiqul Hamro, the spiritual world of the human inner world related to mythological ideas is reflected in unique lines through symbols and metaphors.

Kalit so‘zlar. Magik realizm, mifologik tasavvur, afsona, syujet, ruhiy olam, badiiy xronotop.

Ключевые слова. Магический реализм, мифологическое воображение, легенда, сюжет, духовный мир, художественный хронотоп.

Keywords. Magical realism, mythological thinking, legend, plot, spiritual world, artistic chronotope.

Bugungi kunda o‘zbek milliy nasrida ham modern yo‘nalishida ijod qiladigan talaygina yozuvchilarimiz bor. Bulardan biri – Shodiqul Hamro XX asrning 90-yillarida adabiyot maydoniga kirib kelgan. Uning ilk kitobi “Suratdagi ayol” nomi bilan 1994-yilda chop etilgan. Yozuvchi o‘z uslubiga ega, kitobxonlar e’tiborini qozongan asarlar bitgan, ammo sermahsul emas. Gap ijodkorning ko‘p yoki kam asar yaratishida emas, albatta. Muhimi, chinakam so‘z san’atini namunasini yarata olishda. Masalan, milliy nasrimizning peshqadam darg‘asi bo‘lmish Abdulla Qodiriyning ham asarlari soni ko‘p emas; Murod Muhammad Do‘st kabi iste’dodli yozuvchining ham so‘nggi yirik asari hozircha “Lolazor” romani (1988-yil) bo‘lib turibdi... Shodiqul Hamro asarlari soni ham ko‘p bo‘lmasa-da, u o‘ziga xos asarlari bilan milliy adabiyotimizni boyitgan yozuvchi. Adib asarlari, ayniqsa, magik realizm nuqtai nazaridan e’tiborga molik. Chunki Shodiqul Hamro mustaqillik davri o‘zbek nasrida birinchilardan bo‘lib magik realizmni olib kirdi, magik realizmning o‘zbek adabiyotida ham imkoniyatlari kengligi, istiqboli borligini ko‘rsata oldi.

Yozuvchi ilk hikoyalaridan biri bo‘lmish “Suratdagi ayol”ni sof magik realizm usulida yozgan. Syujet bevosita o‘lim hodisasi bilan boshlanadi: bosh qahramon yashaydigan ijara sohibasi olamdan o‘tadi. O‘lim, bilamizki, hayotning eng sirli hodisalaridan biri. Dunyoning barcha xalqlari mifologiyasida o‘lim bilan bog‘liq asotirlar, afsonalar uchraydi. Hatto Tanatos, Aid (qadimgi Yunoniston), Pluton (qadimgi Rim), Mara (buddizm), Osiris (qadimgi Misr) kabi o‘lim ma’budlari bor. Ayrim xalqlarda o‘lim qari kampir qiyofasida tasvirlangan [Н.М.Савченко., 2011. – С.17.].

Shodiqul Hamro ham o‘lim motivini kampir obrazi bilan ifoda etadi. Hikoyada o‘lim kabi sirli, odamzodni yaratilganidan buyon turli xayollarga yetaklagan hodisa bilan bog‘liq ibtido ibtidoligicha qolib ketmaydi – syujet voqealari yanada sirli tus oladi: bir kechasi suratdagi ayol tiriladi, qahramonimiz u bilan tungi ko‘chalarda sayr qiladi. “Mifologik tafakkurga ko‘ra, umuman o‘lim yo‘q. – deb yozadi tadqiqotchi E.Jumanov. – Faqat mohiyatning, jon (ruh)ning bir shakldan ikkinchi shaklga o‘tishigina bor”. Tadqiqotchi davom etib aytadiki, eng qadimgi e’tiqodlardan biri bo‘lmish animizmga ko‘ra, ruh abadiydir. O‘lim – hayotning tugashi, intihosi emas, balki boshqa o‘lchamlardagi hayotning boshlanishidir [Жуманов Э., 2021. – Б.25.]. Sh.Hamroning “Suratdagi ayol” hikoyasida ham ana shu qadim mifologik tafakkurlar izini ko‘ramiz: suratdagi ayol go‘yo boshqa o‘lchamdagi dunyoda yashayotir, u ma’lum muddatga bizning dunyomizga qaytib keladi, yigit bilan uchrashadi va o‘zi bilan bog‘liq sirga elas-elas ishora berib ketadi.

Voqealarning o‘zi ham mifologik tasavvurlar bilan bog‘liq muhitda kechadi: kampir vafot etgach, uning chirog‘ini yoqib turish qahramonga topshiriladi, yigirma, qirq kabi marosimlar o‘tkaziladi, o‘lim chillaxonasida qirq kun chiroq yoqiladi.

“Mifologiya ensiklopediyasi”da qayd etilishicha, “O‘limning kelib chiqishiga oid miflar turli-tuman bo‘lishiga qaramasdan, ularda quyidagi motivlar takror-takror uchraydi: oy, ilon, yolg‘on xabar, munozara, jazo. Hamisha o‘lib va qayta tirilib turadigan Oy bilan bog‘liq salbiy analogiya hatto eng qadimgi xalqlar madaniyatida ham uchraydi” [Н.М.Савченко., 2011. – С.69.]. “Suratdagi ayol” hikoyasida ham bevosita oy obrazi berilmagan bo‘lsa-da, sehrli voqealar oy bilan bog‘liq badiiy vaqtda – tunda sodir bo‘ladi. Qahramon suratdagi ayol bilan uchrashadigan tun, suratning qorayib ketgani, suratdagi ayol sirining qorong‘iligi – bularning bari asar badiiy to‘qimasida o‘ziga xos uyg‘unlik kasb etadi.

Bu qadar sirli, sehrli hodisalar yozuvchi tomonidan, albatta, faqatgina qiziqarlilik uchun yozilmagan. Hikoyada aniq aytilmasa-da, ishoralardan taxmin qilish mumkinki, gap ayol erki, haq-huquqi xususida bormoqda. Hikoyada aytilmagan voqealarni quyidagicha tasavvur qilish mumkin: suratdagi ayol yoshligida juda go‘zal bo‘lgan. Barcha yosh qizlar singari erkinlikni, muhabbatni, romantikani sevgan. Ammo uni ixtiyoriga qarshi o‘zi istamagan, jismoniy noqis (burni yo‘q) kishiga uzatishgan. Ayol butun umr o‘zi istamagan odam bilan yashab o‘tgan. Erksizlik, tanlovga haqsizlik bir kuni uni xiyonatga boshlagan. Ammo tiynati nihoyatda nafis-nozik, jismidan latif qilib yaratilgan bu ayol xiyonatga qo‘l urganu, bu qilmishidan o‘zi dahshatga tushgan, o‘zini kechirolmagan. Ayolning “iztirob changalida azoblanayotgan yuzi” ana shundan darak beradi. Ha, Shodiqul Hamro bundan o‘ttiz yillar oldin yozgan hikoyasida ana shu taxlit hozir ham kun tartibidan tushmagan, aksincha, yangi-yangi fojialarga sabab bo‘layotgan ayol erki masalasini ko‘tarib chiqqan. O‘zi istamagan hayotni yashab o‘tgan, to‘g‘rirog‘i, shunga majbur, mahkum etilgan ayol qismati uni larzaga soladi. Ilk marta suratga termular ekan, “*ayol, daf’atan ko‘zimga, moviy osmon bag‘rida ko‘kragini shamolga toblab charx urib uchayotgan qushlar galasiga cheksiz havas hamda ichki iztirob bilan mung‘ayib termulib turgan qafasdagi qushchaga o‘xshab ko‘rindi, - deb yozadi adib. – To‘g‘ri, ayol suratga tushayotgan lahzada o‘zi istamay jilmayishga uringan va qurishqoq, qonsiz lablarida kulgi yuz ko‘rsatib mayus chehrasi ravshan tortgandek edi. Ammo uning yirik-yirik tim qora ko‘zlarida butunlay o‘zga holat zuhur etardi*” [Ҳамро Ш., 2016. – В.71.].

Yigit suratdagi ayolni o‘z suymaganidan qutqarish uchun erkakning rasmini yirtib tashlamoqchi bo‘ladi. Ammo ayolning qo‘li erkakning qovurg‘asidan o‘sib chiqqanday unga bog‘langan, surat yirtilsa ayol qo‘lsiz qolar edi. Bu bilan adib ayol erki masalasi hech qachon yechim topmasligiga ishora qilayotgandek...

Hikoya shunday yakunlanadi: “*Men esa, yelkamni zil-zambil yuk bosib turganday, boshimni o‘gira olmas edim. Mana, xona ostonasiga ham yetdim… Ehtimol shu ketgan ko‘yim qaytib hech qachon bu ostonani hatlay olmasman… Ehtimol, bir necha daqiqadan so‘ng, tinib qolganday mudroq tortgan bu qonimda yana sovuq va yovuz jur’at uyg‘onar… Ehtimol, bundan buyon suratdagi ayol, yolg‘iz o‘zi, do‘zaxdan ham quvilgan arvohday tunlari ko‘chada izg‘ib yurar va uning armonlari hech qachon to‘zim topmas… bilmayman… Boshim hech narsani idrok qilmay*

qo‘ygan edi. Men uchun ushbu daqiqada eng muhimi tezroq surat qarshisidan nariroq ketish edi” [Ҳамро Ш., 2016. – B.82.]

Asar yakuni magik realizm asosida yaratilgan yana bir hikoyaning finalini eslatadi. Bu fransuz yozuvchisi Gi De Mopassanning “Tun” hikoyasidir. Tunni qattiq sevgan qahramon tun qo‘ynida keza-keza daf’atan vaqtning to‘xtab qolganini, real borliq g‘oyib bo‘lganini, tovushlar eshitilmay qolganini sezib qoladi. Bu g‘ayritabiiy hodisaga aniqlik kiritish uchun daryo tomonga boradi. Tun qo‘ynidagi sayohat hikoyasi shunday yakunlanadi: “*A Sena-chi? U haliyam oqyaptimikan? Shuni bilgim keldi, timirskilanib zinani topdim, quyiladim… Hatto suvning ko‘prik ostidagi guvillashi ham eshitilmaydi… Yana pillapoyalar… keyin qumloq… balki suvdir… Suvga qo‘limni tiqdim… U hali oqayotir… oqayotir… sovuq… sovuq… sovuq… qariyb muzday… hatto butunlay to‘xtab qolganday… oh, deyarli ado bo‘lganday. Birdan aniq-tiniq anglab yetdimki, endi hech qachon yuqoriga ko‘tarilish uchun o‘zimda kuch topolmayman… shu yerda shundaycha o‘lib ketaman… o‘lib ketaman ochlikdan, holsizlikdan, sovuqdan*” [https://ziyouz.uz/jahon-nasri/gi-de-mopassan/gi-de-mopassan-tun-hikoya/]. Bizningcha, bu ham shunchaki tasodif emas. Bu ikki hikoyadagi badiiy xronotop (voqealarning tunda kechishi), real borliqning izchil ravishda sehrli borliqqa aylanishi, tun qo‘ynida maqsadsiz kezish, qahramonning vaqt tuyg‘usini unutib qo‘yishi, darvoza detali kabilar tashqi belgilariga ko‘ra bu ikki hikoyani bir-biriga parallel qo‘yadi. Ammo bu ikki asarning badiiy g‘oyasi butunlay boshqa-boshqa.

Sh.Hamro hikoya markaziga ayol erki masalasini qo‘yadi, unga achinish bilan qaraydi: “Ehtimol, deb o‘ylardim, ayolning o‘zi ham quyoshning eng yugurik nurlari bo‘ylay olmaydigan, **choh tubiday qorong‘i va zax bu eski suratda yashashdan allaqachon bezgan, lekin inon-ixtiyori qo‘lida emasligidan** hech qayoqqa bosh olib ketolmayotgandir... Yo‘q, ehtimol, ayol qachonlardir **johil kimsalar tomonidan bu suratda yashashga mahkum etilgan** va bir umrga tilsimlab tashlangandir”. Ammo yozuvchi uchun baribir axloqiy qadriyatlar yuksakligicha qoladi. Hikoya oxirida shunday jumlalarni o‘qiymiz: “Ehtimol, bundan buyon suratdagi ayol, yolg‘iz o‘zi, do‘zaxdan ham quvilgan arvohday tunlari ko‘chada izg‘ib yurar...” Bu gapda bizni “do‘zaxdan ham quvilgan arvohday” degan fraza qiziqtiradi. Yozuvchi erksizlikka xiyonatni qarshi qo‘yishni ma’qullamagan ko‘rinadi. Aks holda, bu frazani ishlatmas edi. Bu xuddi muhtasham Lev Tolstoyning o‘z Annasini o‘limga mahkum qilganiga o‘xshaydi.

Magik realizmda hayotning real voqeligiga sehr-jodu aralashgani uchun ham tasvirlanayotgan voqelikka o‘quvchini ishontirish unchalik qiyin emas. Chunki kitobxon asardagi tasvir usulini his qilib turadi. Magik relizm asarlarida qo‘lyozmalar yonmasligi (Bulgakov), yuvilgan kirni qoqayotgan qiz osmonga uchib ketishi (Markes), ayol iblisdan bola ko‘rishi (N.Eshonqul), suratdagi ayol oqshomlari tirik odamdek ko‘cha kezishi (Sh.Hamro) mumkin. Bu o‘quvchini umuman hayron qoldirmaydi. Vaholanki, realistik asarlarda ayrim tasvirlar, tafsilotlar o‘quvchida “bunday bo‘lishi mumkin emas” degan shubha tug‘dirishi mumkin. A.Pushkin bir balladasida qo‘li bir-biriga qo‘shib kishanlangan ikki mahbusning daryodan suzib o‘tganini yozadi, ammo tanqidchilardan biri “bunday bo‘lishi mumkin emas” deya e’tiroz bildiradi. Vaholanki, A.Pushkin asarni aniq fakt asosida yozgan bo‘ladi. Demak, real hayotda aynan sodir bo‘lgan voqea ham hatto o‘quvchini ishontirmasligi mumkin ekan. A.Pushkin shundan keyin o‘sha balladasini yirtib tashlaydi. Realizmda ijodkorni qattiq ramkada saqlab turadigan hayot mantig‘i magik realizmda zaiflashadi, chekinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Н.М.Савченко. Мифология романо-германских народов. - Могилев: УО «МГУ им. А.А. Кулешова», 2011. - 116 с.

2. Жуманов Э. “Бор экан-да йўқ экан...” иборасига яширинган борлик ва йўқлик ҳақида // “Маънавий ҳаёт” журнали, 2021 йил, 3-сон.

3. Ҳамро Ш. Қақнус қанотидаги умр. – Тошкент, “Ўзбекистон” НМИУ, 2016. – 152 бет.

4.https://ziyouz.uz/jahon-nasri/gi-de-mopassan/gi-de-mopassan-tun-hikoya/

ADABIY AN’ANA VA MILLIYLIK

Farxod NIZOMOV,
Navoiy davlat pedagogika instituti
katta o‘qituvchisi, tayanch doktorant
(O‘zbekiston)

Annotatsiya. Maqolada epik turning o‘rta shakli hisoblangan qissa janri haqida ayrim fikrlar bayon etilgan. Bunda Tog‘ay Murod va Luqmon Bo‘rixon qissalari g‘oya, mavzu, badiiyat, detallar, adabiy metod va usullar, shakl va mazmun elementlariga ko‘ra taqqoslangan. Asarlarning an’anaviy o‘ziga xosligiga oid ba’zi fikrlar bayon etilgan.

Аннотация. В статье раскрываются некоторые представления о жанре рассказа, который считается средней формой эпического типа. При этом рассказы Тогая Мурада и Лукмана Бурихана сравниваются по элементам идеи, темы, художественности, деталей, литературных приемов и приемов, формы и содержания. Представлены некоторые представления о традиционной уникальности произведений.

Annotation. The article describes some ideas about the short story genre, which is considered the middle form of the epic type. In this, the stories of Togay Murad and Luqman Borikhan are compared according to the elements of idea, theme, artistry, details, literary methods and methods, form and content. Some ideas about the traditional uniqueness of the works are presented.

Kalit so‘zlar: janr, an’anaviylik, tadrij, germenevtika, lingvistik metod, xarakter, ramziylik, psixologik tasvir, milliylik, detal, motiv.

Ключевые слова: жанр, традиционализм, исследование, герменевтика, лингвистический метод, персонаж, символика, психологический образ, национальность, деталь, мотив.

Key words: genre, traditionalism, study, hermeneutics, linguistic method, character, symbolism, psychological image, nationality, detail, motive.

O‘zbek nasrida qissa janrining tadrijiy rivojlanishida O‘lmas Umarbekov, Shukur Xolmirzayev, Uchqun Nazarov, O‘tkir Hoshimov, Ne’mat Aminov, Omon Muxtor, Tog‘ay Murod, Murod Muhammad Do‘st, Hojiakbar Shayx, Xayriddin Sulton, Erkin A’zam, Xurshid Do‘stmuhammad, G‘affor Hotam, Nurali Qobul, Tohir Malik, Nodir Normat, Mamadali Mahmud, Asad Dilmurod, Xurshid Davronlarning alohida o‘rni bor. Ularning qissalari badiiy strukturada jahon adabiyoti an’analariga yaqinlashganligi, milliy tasvir, inson ruhiyatini boricha tasvirlanaganligi bilan boshqalaridan ajralib turadi.

Bu yozuvchilar orasida o‘ziga xos adabiy an’analar borligini ham ko‘rishimiz mumkin. Asarda aks etgan mavzu, tasvir bayoni, nutq shakllari, detallar, janr, shakl va mazmun, metod, badiiyat kabi adabiyotning muhim vositalari nuqtayi nazaridan seziladi. “Aksariyat yozuvchilar o‘z qahramonlarining tashqi belgilarinigina, ko‘zga tashlanib turgan suratlarini chizadilar. Qahramonning umrboqiyligini ta’minlash uchun bu mutlaqo kifoya emas”, [Sharafiddinov O., 2004. – S.196.]- deydi atoqli tanqidchi O.Sharafiddinov. Qanday qilib asarning umrboqiyligini asoslash haqida esa olimning o‘zi shunday deydi: “...avvalo, hayotiylik mezoniga rioya qilmoq lozim. Zero, adiblarimiz oldiga qahramonlarni emas, balki ularning badiiy siymosini yaratish vazifasi qo‘yildi” [Sharafiddinov O., 2004. – S.195.]. Darhaqiqat, Sh.Xolmirzayev, O‘.Umarbekov, T.Murod, A.Yo‘ldoshev, L.Bo‘rixon kabi zabardast yozuvchilarimiz ijodida bu fikrlar o‘z tasdig‘ini mukammallik bilan topgan.

Nomlari sanalgan yozuvchilar teran realistik xarakterdagi qissalari bilan badiiylik, ramziylik, majoziylik, mifologik fazilatlari, shuningdek, o‘tmish, yaqin o‘tmish hamda zamonaviy mavzudagi qissalari bilan jahon adabiyotining ilg‘or tamoyillariga dadil yaqin borganliklari, novatorlik fazilatlari bilan e’tiborni tortdi; bu esa adabiy avlod vakillarining sho‘ro tuzumining so‘nggi demokratik prinsiplar, qayta qurish davri va yangi istiqlol zamonining ilk yoqimli shabadalari esa boshlagan pallalari mevasi sifatida shakllandilar; mazkur avlod namoyandalari yuksak iste’dod darajalari, o‘tkir adabiy fahm va badiiy sajiyalari bilan o‘zbek adabiyotini, uning

nasri va qissachiligini ilg‘or jahon adabiyoti halqasiga mustahkam uladilar. Bu jihatdan, ularni shartli tazrda qissa janrida tub burilish yasagan birinchi avlod deb atash mumkin.

Chin ma’nodagi erkin so‘z, erkin ijod davrida adabiyot maydoniga kirib kelgan, kamolot bosqichlari jihatdan ijodkorlarning beshinchi kenja avlodiga mansub bir guruh teran iste’dodli yoshlar istiqlol mafkurasining sodiq vakillari edilar. Bular: Nazar Eshonqul, Ulug‘bek Hamdam, Qo‘chqor Norqobil, Shoyim Bo‘tayev, Abduqayum Yo‘ldosh, Luqmon Bo‘rixon, Isajon Sulton, Bahodir Murod Ali, Shodiqul Hamroyev va boshqalar; bu teran iste’dod sohiblari yaratmalarida namoyon bo‘lgan va bo‘layotgan yetakchi va umumiy fazilatlarning qisqacha umumiy tavsifi shunday:

– yaqin va yaqin tarixiy voqeliklarning haqiqatini bor bo‘yi-basticha tavsirlash;

- milliy-ma’naviy qadriyatlar va tarixiy ko‘lamni ulug‘lash, ona tariximizning sho‘ro zamoniga yashirilgan, toptalgan barcha haqiqatlarini badiiy talqin etish;

- qahramon xarakter-tiynati talqinida psixologik tasvir turlarini qo‘llash;

- g‘oyaviy-badiiy ko‘lamda ramziy-majoziy tasvir-talqinlarni hayot va obraz tasviriy vositasi deb bilish kabilarda yuzaga chiqdi[49].

Bu shartli guruhlarga binoan yuqoridagi adiblarni ikkinchi avlod deb atsh mumkin. Bunday, ya’ni birinchi va ikkinchi avlod (ta’kid F.N) sifatida ajratishda har ikki guruhdagi adiblar asarida g‘oya, badiiyat, ifodalashga ko‘ra hamohanglik, mavzuviy o‘xshashlik, atrofimizdagi kishilar tasvirni rost ochib berishga ko‘ra moslik, ifoda usulida o‘ziga xoslik ko‘zga tashlanadi.

Yangicha fikrlaydigan avlod ijodkorlari qissalarida, eng avvalo, milliy-ma’naviy qadriyatlarni, noyob milliy mentalitet qirralarini ulug‘lash tamoyillari yetakchilik qiladi. Tog‘ay Murod, Xayriddin Sultonov, Erkin A’zamov, Nazar Eshonqul, Shoyim Bo‘tayev, Luqmon Bo‘rixon, Abduqayum Yo‘ldoshevlar ijodida buni kuzatish mumkin.

Tog‘ay Murod - qadim o‘zbeklar yurti Surxon vohasining farzandi sifatida o‘z elining katta-kichik urf-odatlarini, milliy-ma’naviy qadriyatlarini yaxshi biladi. Bu boradagi masalalarning dadil va zukkolik bilan badiiy tasvirlangan “Yulduzlar mangu yonadi”, “Oydinda yurgan odamlar”, “Ot kishnagan oqshom”, “Momo Yer qo‘shig‘i” kabi qissalari, o‘nlab hikoyalari, “Otamdan qolgan dalalar” romani o‘zbek nasri istiqlol davriga oid milliy-ma’naviy qadriyatlar, erk va umumlashmalari sanaladi. Tog‘ay Murodning chin millatparvarlik ruhidagi yaratmalari hatto dastlab taniqli adabiyotshunoslar, yozuvchilar orasida turli bahs-munozaralarga, tanqidiy-tahliliy qarashlarga ham sabab bo‘ldi. Hattoki, muallifning o‘tmishini ideallashtirayotgan yozuvchi sifatida ham tanqidga olindi. Biroq yozuvchining milliylik masalasi borasidagi o‘z ijodiy maqsadlariga sodiq qoldi. U xalqning urf-odatlarini, milliy an’analarini o‘zining asarlarida mardona tasvirlashda davom etdi. Chunonchi, milliy qadriyatlar inson hurligi va erkining o‘zagini belgilaydi.

Yozuvchining qalamiga mansub bir qator qissalarida o‘zining milliy-ma’naviy e’tiqodiga hamisha sodiq qolgani o‘z isbotini topdi. “Tog‘ay Murod qissalari sof milliy o‘zbek qissalari, - deb yozadi Said Ahmad. - Tog‘ay Murod qissalarida tasvirlangan odamlarga boshqa xalq libosini kiydirsangiz ham o‘zbekligi bilinib turadi. Ularning xulq-atvori ham boshqa xalqqa aslo o‘xshamaydi” [Murod T.., 1994. – S.3.].

Tog‘ay Murodning milliy ma’naviyat bo‘yicha izlanishlarida “Yulduzlar mangu yonadi” qissasi muallifning mazkur mavzu bo‘yicha asarlari orasida xarakterli qissalaridan biri sanaladi. Chunonchi, har bir xalq yoki elatga xos tub milliy qadriyatlar, avvalo, uning to‘y-ma’rakalarida, katta-kichik tadbirlari, shu tadbirlaridan turli odatlarida, rasm-rusumlarida ancha yorqin va jozibali tarzda aks etadi. Mana, masalan, qissa boshlanishidayoq to‘y tantanasi xabaridan biz milliy ruhning teran mohiyatini anglaymiz.

“ - Odamlaru odamlar, tog‘da bitgan bodomlar, eshitmadim demanglar! Bugun ha-a-am-ma Zulfiqor polvonnikiga sunnat to‘yiga, he-ye-yey! Cho‘, jonivor!

Egar qoshiga to‘n solib olmish jarchi guzarma-guzar ot o‘ynaydi. Xo‘jasoat qishlog‘i ahlini to‘yga chorladi. Xiyol o‘tladi. To‘y bekasi otda eshikma-eshik yurdi. Xonadonlarni alohida-alohida aytdi.

[49] Bu mavzuviy tavsiflar muallifning shaxsiy fikri sifatida berildi.

Xonadon bekalari:

- Quruq ketmang, - deya egar qoshiga to‘n ildi” [Murod T.., 1994. – S.7.].

Shu kichik tasvir bag‘ridagi milliy urf-odat go‘zalligi va ma’naviy ibrati kishiga faxr va joziba bag‘ishlaydi. To‘yga alohida ayrim kattalarnigina emas, barchaning chorlanishi o‘zaro ahillik, mehr-oqibat ko‘rinishidir. Bu o‘rinda o‘zbek milliy to‘y-tantanalariga xos bo‘lgan azaliy urf-odatlar maroqli va yorqin ravishda obraz qilib tasvirlangan. Ayollar turli-tuman taomlar bilan, erkaklar esa to‘yga to‘yona bilan keladilar. Nabi oqsoqol ham mehmonlarni o‘ziga xos tarzda odob va nafosat bilan kutib oladi. Keraklicha ko‘rsatmalarini berib turadi. Tasvirlarda bolalarning sochqilarni terib olish jarayonini, turli xil milliy o‘yinlarni o‘ynashlari anchagina maroqli tarzda yorqin aks ettirilgan. Yozuvchi ma’lum muhitni va xos manzarani kitobxonning ko‘z o‘ngida jonli tarzda gavdalantira olgan.

Bu jihat L.Bo‘rixonning “Quyosh hali botmagan”, “Olis qo‘rg‘on fuqarosi” kabi qissalarida ham yorqin aks etadi. “Yulduzlar mangu yonadi” qissasida ko‘plab xalq maqollari, o‘xshatishlar, aforizmlar uchraydi. Shuningdek, muallif voqelik davomida xalq qo‘shiqlari, afsonalar hamda ayrim latifalardan mahorat bilan foyadalanadi. Bu jihatlar L.Bo‘rixonning yuqorida nomlari qayd etilgan ikki asarida bir necha o‘rinlarda uchraydi. Ayniqsa, No‘mon (“Olis qo‘rg‘on fuqarosi”) obrazining tadrijiy rivojlanishida ertak, latifa, xalq dostonlaridan olingan parchalar, maqol va qarg‘ish kabi folklor janrlarining ahamiyati katta. Bu o‘zi xosliklarni adabiy an’ana sifatida baholashimiz mumkin. Bir o‘rinda Absal polvon haqida “Bu jigit bilan hazillashmang. Hamisha izzatini joyig qo‘ying, unga chilton pirlar polonlikni g‘oyibdan yurtirgan” [Bo‘rixon L.,2015. – S.78.] deyishi yoki polvonlarning “bobomning ori deb olishaman”, “otamning ori deb olishaman” yoki xo‘jasoatliklar uchun (Bo‘ri polvon), kengsoyliklar uchun (Norsoat) shoirlari orqali davralarda kurash tushish voqealari ham adabiy o‘xshashlikdir.

Yurtning oqsoqolsiz bo‘lmasligi kabi milliy udum va an’ana yozuvchi tomonidan asar ruhiyatiga badiiy yo‘nalishda singdirilgan. Xalq udumlari birma-bir tasvir doirasi ichiga kiritiladi. Turli-tuman maroqli xalq o‘yinlarini, shuningdek, chanqovuz yoki yashinmachoq bazmi va boshqa o‘yinlar juda jozibali ruhda o‘z ifodasini topgan. Bunga hamohang tasvirlar yuqorida nomlari sanalgan ayrim asarlarda ham uchraydi. Bular ham o‘z o‘rnida ramziy-majoziylik yukiga ega bo‘lib, yozuvchining bosh kredosi: milliy qadriyatu odatlar o‘lmas-yitmasligini, hech qanday bosqin, zulm, zo‘ravonlik bilan ham bu noyob, javohir kabi zakovatli qadriyatlarning mahv etilolmasligi kabi ijtimoiy haqiqat o‘z in’ikosini topgandir.

L.Bo‘rixon haqida tadqiqotchi Barchinoy Shukurova shunday deydi: “Bugungi o‘zbek nasrining jonsarak yozuvchilaridan biri Luqmon Bo‘rixon hikoyalarida ko‘plab ma’naviy axloqiy ideallar (sobitlik, lafzi halollik, shukronalik, qat’iyatlilik, iymon) bosh mezon qilib tanlab olingan. Yozuvchi Globallashuv davri ruhiyati va qalbi parokanda avlodiga yetishmayotgan ma’naviy-axloqiy ideallarni qizil ip sifatida asarlarida ko‘rsatib berishi bejiz emas” [Shukurova B.,2022. – S.56.]. Hikoyalarga aytilgan bu jihat mualliflarning mashhur qissalari uchun ham birdek tegishlidir.

Mazkur “Yulduzlar mangu yonadi” qissasi tasvir usuliga, Nasim polvonning taqdiriga doir e’tiborli tomoni shuki, Nasim polvon va Bo‘ri polvonlarning bolalik davriga oid sargazushtlari tizimida qadim milliy udumlarimiz bilan bog‘liq poda boqish va tuxum urishtirish kabi bolalikdagi do‘stlikning sehrga to‘la tashvishlari bilan tanishishi milliy joziba, milliy faxr, shu bilan birga, xalq osoyishtaligi, farovonligi va dunyodan roziligi borasida yorug‘ fikrlar hosil qiladi.

T.Murod adabiy asarda ijtimoiy-siyosiy mohiyatni bo‘rttirib, totalitar tuzum kirdikorlari haqida minbarboz fikr yuritmaydi. Ammo, yaqin o‘tmishda ro‘y berib kelgan erkin fikr, sof milliy qadriyatlarning cheklanishi kabi olchoq qilg‘iliklarni milliy jozibani ulug‘lash poetikasi bilan o‘zining vatanparvarligini namoyish etadi. Muallif O‘z qahramonini tasvirlar ekan, adib so‘z qudratidan unumli foydalanadi. Ta’kidlash joizki, T.Murod o‘zbek tilining tengsiz nafosatini, adabiy uslubning shoirona ravon va rangin jozibasini namoyish etib, retseptiv estetika mohiyatiga erishadi. Bu ayni vaqtda adibning xalq og‘zaki ijodiga xos jo‘shqin va xalqchil uslub bilan realistik nasr uslubining mushtarakligi orqali o‘ziga xos go‘zal tasvirlash tizimini yaratgan. Bu jihat istiqlol yillarida yaratilgan L.Bo‘rixonnning “Quyosh hali botmagan” qissasida ham bo‘rtib aks etadi.

Nomus, qadr-qimmat, tug‘ilgan go‘shani muqaddas asrash, o‘zlik uchun kurash, muhabbatga sadoqat, do‘stlik, ustozga hurmat kabi axloq meyorlari bo‘lgan tushunchalar qabariq holatda ifodalandi. Bo‘ri polvon va Norsoat, Momoqiz va Tanzila, Normurod oqsoqol va Absal polvon kabi siymolarni mushatak obrazlar sifatida qayd etib o‘tish o‘rinlidir.

Bo‘ri polvon maydonga tushar ekan zimdan ajdodlaridan ruh oladi, ichida ulug‘ kurash ustalaridan madad tilaydi. Yoshi kattalardan duo olib maydonga tushadi. Otasini eslaydi. Absal, Norsoat kabi adabiy qahramonlar ham shu yo‘lni tutishadi. Bo‘ri polvon har bir insonning yuragida asrab yuradigan tuyg‘ulari bo‘lishi kerak mazmunida bot-bot ta’kidlasa, Absalning kuy, musiqaga muhabbati, doim sibizg‘a chalishi takror-takror “Kuy quvvatga quvvat qo‘shadi. Har bir polvonning o‘z sibizg‘asi bo‘lishi kerak, uni yurakning kissasida asrab-avaylab yurgan maq’ul” [Bo‘rixon L.,2015. – S.83.] degan iqrorlarida ilohiy bir mezon, g‘aybiy qudrat, inson ruhidagi yuksak ishonch, duolar ijobati yaqqol seziladi.

Umuman olganda, T.Murod va L.Bo‘rixon ijodida ijodiy mushtaraklik asarlardagi obrazlarning tutumi, ruhiyati, chapaniligi, badiiy detallar, motivlarning tanlanishi, xalq hayotini boricha ko‘rsatish, milliy qadriyatlarni asarab qolishga bo‘lgan intilishlarda yaqqol seziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Бўрихон Л. Қуёш ҳали ботмаган. Т.: “Ўзбекистон”, 2015. Б. 78.

2. Тоғай М. От кишнаган оқшом. Қиссалар // Саид Аҳмад. Тоғай Муроднинг қўшиқлари (Сўзбоши). “Шарқ”, Т.: - 1994, 3-бет (464-бет).

3. Тоғай Муод. От кишнаган оқшом. Қиссалар. “Шарқ”, Т.-1994, 7-бет.

4. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. - Т.: "Шарқ", 2004. 196-бет.

5. Shukurova B. Yangi o‘zbek nasrida etik va estetik ideal muammosi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan disser. T.: 2022. 56-bet.

ПРЕОБРАЖЕНИЕ ЭСТЕТИКИ В ПЕРЕВОДЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ М.БУЛГАКОВА

Шаропова Нилуфар Бахшилло кизи,
Базовый докторант кафедры русского языка и литературы
Навоийского государственного педагогического института
Телефон:+998913304820
E-mail: lotos.nilu.94@mail.ru

Аннотация В статье исследуется анализируются приемы и стратегии переводческой практики, направленные на сохранение эстетических качеств оригинала и передачу их в тексте перевода. Через изучение различных переводческих решений и их влияния на художественное воплощение оригинального произведения в статье раскрывается сложность и значимость этого процесса.

Annotatsiya Maqolada asl nusxaning estetik fazilatlarini saqlash va ularni tarjima matnida uzatishga qaratilgan tarjima amaliyotining texnika va strategiyalari tahlil qilinadi. Maqolada turli tarjima qarorlari va ularning asl asarning badiiy gavdalanishiga ta’sirini o‘rganish orqali ushbu jarayonning murakkabligi va ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari adabiy asar estetikasini saqlash va o‘zgartirishda tarjimaning rolini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Abstract The article studies the process of transformation and it analyzes the methods and strategies of translation practice aimed at preserving the aesthetic qualities of the original and transferring them in the translation text. Through the study of various translation solutions and their influence on the artistic embodiment of the original work, the article reveals the complexity and significance of this process.

Ключевые слова: перевод, эстетика, художественное воплощение, роман “Мастер и Маргарита”, литературный перевод, культурный контекст, методы перевода, стратегии перевода, сохранение оригинала, преобразование текста.

Kalit so‘zlar: tarjima, estetika, badiiy ifoda, “Usta va Margarita” romani, badiiy tarjima, madaniy kontekst, tarjima usullari, tarjima strategiyalari, asl nusxani saqlash, matnni o‘zgartirish.

Keywords: translation, aesthetics, artistic embodiment, the novel “The Master and Margarita”, literary translation, cultural context, translation methods, translation strategies, preservation of the original, text transformation.

Множество ученых предметом своих исследований выбирают художественный текст. В своем труде «Проблема речевых жанров» М. М. Бахтин анализирует художественный текст как один из вторичных речевых жанров, формирующихся в контексте специфического культурного общения. Ученый подчеркивает, что в художественном тексте имплицитно присутствуют замыслы писателя, и имеют важное значение национально-культурные коды. Эти коды представляют собой накопление культурных ценностей и отражение духа народа. Тем не менее, точное и правильное передача замысла писателя и культурных кодов в процессе перевода представляет собой сложную задачу.

Культурные образы, присутствующие в оригинале, подвергаются трансформации в узбекском переводе. Переводчик стремится придать им национальную окраску, интегрируя их в контекст узбекской культуры. Это может включать в себя изменения в описании мест и событий, чтобы они лучше соответствовали узбекскому ландшафту и обычаям.

Исследование подтверждает, что узбекский перевод «Мастера и Маргариты» активно учитывает влияние культурного контекста. Эта адаптация не только сохраняет художественные ценности оригинала, но и вносит необходимые изменения для успешной ассимиляции произведения в узбекскую культуру. Такой творческий подход позволяет читателям узнать классическое произведение через призму своей собственной культурной и лингвистической среды.

Таким образом, узбекский перевод «Мастера и Маргариты» отличается творческим подходом к изменению лексики, стиля и образов. Переводчик стремится сохранить дух оригинала, но при этом вносит уникальные черты, которые делают произведение ближе и понятнее для узбекской аудитории, а также подчеркивают своеобразие узбекской литературной традиции.

Исследование процесса перевода романа «Мастер и Маргарита» на узбекский язык открывает перед нами глубокий взгляд на влияние этого процесса на эстетику оригинала. Анализ проведенных аспектов позволяет сделать несколько важных выводов.

Важным результатом исследования является подтверждение того, что узбекский перевод «Мастера и Маргариты» не просто является механическим воспроизведением оригинала, но представляет собой творческое преобразование, вносящее уникальные художественные черты. Переводчик, в лице Кодира Мирмухаммедова, не ограничивается лингвистической передачей, а активно взаимодействует с текстом, создавая новое произведение, адаптированное к узбекской литературной традиции.

Анализ влияния культурного контекста подчеркивает, насколько важно учитывать культурные и лингвистические особенности при переводе художественных произведений. Узбекский перевод не просто сохраняет эстетику оригинала, но и успешно адаптирует ее под узбекскую культурную среду, что делает произведение близким и понятным для узбекского читателя.

Отметим, что важность творческого подхода к переводу подчеркивается не только в связи с необходимостью учета культурных и лингвистических особенностей при создании переводов художественных произведений. Примером успешного слияния двух литературных традиций становится перевод романа «Мастер и Маргарита» на узбекский язык, что выделяет богатство и разнообразие мировой литературы.

Воссоздание стиля в художественном переводе представляет собой сложный и важный процесс, направленный на сохранение средств выражения и идей автора. В данном контексте несколько ключевых аспектов заслуживают особого внимания. [Гарбовский Н.К. Теория перевода: Учебник. - Москва, 2007. – с 4.]

Фундаментальной задачей переводчика является сохранение не только смысла, но и стиля, а также эмоционального содержания текста автора. В процессе перевода голос автора и переводчика сливаются, создавая единый художественный образ. Для успешного

воссоздания стиля необходимо духовное и психологическое соответствие между автором и переводчиком, что подчеркивает важность понимания лингвистических, культурных и эмоциональных особенностей произведения.

Ориентация на художественный текст в качестве общего фокуса для автора и переводчика играет ключевую роль в успешном воссоздании стиля. Этот подход позволяет создать не просто механический перевод, а общее художественное произведение, где каждый участник вносит свой вклад. Воссоздание стиля в художественном переводе требует от переводчика не только технических навыков, но и чувства языка, творческого подхода и глубокого понимания культурных особенностей. Результат этого процесса – это не просто переведенный текст, а новое произведение, способное передать уникальность и глубину оригинала в контексте другой языковой и культурной среды.

Использование интернациональных реалий и общечеловеческих аспектов оказывается эффективным средством, делая произведение доступным и понятным для читателей различных культур. Это сохраняет универсальность произведения, позволяя ему преодолевать границы и культурные барьеры.

Таким образом, сосредоточивание на тексте и включение универсальных элементов позволили переводчику не только сохранить стиль оригинала, но и сделать его более широко понятным и привлекательным для аудитории с различными культурными фонами. Сбалансированное отношение к национально-специфическим словам и выражениям, включая лексико-фразеологические средства, а также элементы быта и культуры, позволили сохранить национальный колорит произведения.

При переводе литературных произведений необходимо учитывать особенности авторского стиля. М. Булгаков активно применял метафоры, включая индивидуальные, которые не возникали случайно. Они часто были тесно связаны с намерениями и прагматической задачей автора, а также с культурным контекстом.

Примером может служить следующий фрагмент из романа М. А. Булгакова «Мастер и Маргарита»: «Прокуратор поднял глаза на арестанта и увидел, что возле того столбом загорелась пыль». [Булгаков М. Мастер и Маргарита. – Москва: 1984. – С. 33] Понтий Пилат допросил Иешуа, где прокуратор поднимает глаза и видит, что пыль загорается возле арестанта. В этой метафоре автор намеренно придает святость и чудодейственные свойства персонажу Иешуа. При сравнении перевода этого фрагмента на узбекский язык становится ясным, что в переводах теряется специфика такой индивидуально-авторской метафоры:

«Прокуратор бошини кўтариб маҳбусга қараган эди, унинг атрофида қуёш шуъласига ғарқ бўлган чангнинг тўзон бўлиб кўтарилганини кўрди» [Булгаков М. Уста ва Маргарита. – Тошкент: «Шарқ» 2008. Қодир Мирмуҳамедов таржимаси. – Б. 18.].

Эта метафора символизирует, что над головой Иисуса всегда висели облака, как бы защищая его от солнечных лучей. Тем, кто знаком с историей христианства, известно, что происхождение христианского нимба прослеживается ещё в Ветхом Завете. В христианской иконографии нимб представляет собой светящийся круг или ореол вокруг головы святых персонажей, обозначая их святое или божественное состояние. В Ветхом Завете, например, описывается, как лицо Моисея светилось после того, как он встретился с Богом на горе Синаи. Это свечение интерпретировалось как божественное проявление и является одним из примеров предвестий христианского нимба. В христианской традиции этот символ также был использован для обозначения святости Христа и других библейких персонажей. Таким образом, христианский нимб имеет свои корни в богатой символике, предшествующей христианству и проникнутой через различные культуры и верования. Тем не менее, возникает вопрос: является ли буквальный перевод вышеупомянутой метафоры достаточным? По нашему мнению, ответ должен быть отрицательным, поскольку существуют различные категории читателей: одни читают для развлечения, другие стремятся к пониманию различий двух культур, а третьи пытаются раскрыть замысел автора. Для удовлетворения разнообразных потребностей читателей переводчик может предоставить не только буквальный перевод данной метафоры, но также включить в сносках или в конце

текста дополнительные комментарии – подробные объяснения к подобным метафорам. Эти комментарии могут выявить различия между двумя культурами и раскрыть основные идеи автора.

Литература

1. Гарбовский Н.К. Теория перевода: Учебник. - Москва: Издательство Московского университета, 2007. – с 4. (-544 с).
2. Булгаков М. Мастер и Маргарита. – Москва: 1984. – С. 33
3. Булгаков М. Уста ва Маргарита. – Тошкент: «Шарқ» 2008. Қодир Мирмуҳамедов таржимаси. – Б. 18.
4. Булгаков М. Итюрак. Таржимон: Хожиакбар Шайхов, Гулчеҳра Нишонова. – Тошкент: «Yangi asr avlodi", 2020. -144 б.

SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA MUMTOZ ADABIYOT ANA'ANALARIGA IZDOSHLIK

Ra'no Fayzullayeva,
NavDPI tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada mumtoz adabiyotimizda Vatan obrazining o'ziga xos poetik talqinlari mavjudligi, bu talqinlar Mahmud Koshg'ariy va Yusuf Xos Hojib ijodining Sirojiddin Sayyid ijodiga ta'siri misolida qiyosan ochib berilgan. Shoirning mumtoz adabiyot vakillari ijodiga g'oyaviy izdoshligi misollar asosida tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Aruz vazni, barmoq vazni, Vatan obrazi, poetik talqin, vatanparvar shaxs, adabiy ta'sir, novatorlik.

Аннотация: В данной статье рассматривается уникальное поэтическое трактование образа Родины в узбекской классической литературе. Данное трактование раскрывается на примере влияния произведений Махмуда Кашгари и Юсуфа Хоса Хаджиба на творчество Сироджиддина Сайида. На основе примеров анализируется идейная приверженность поэта творчеству представителей классической литературы.

Ключевые слова: вес Аруза, вес пальца, образ Родины, поэтическая интерпретация, патриотическая личность, литературное влияние, новаторство.

Annotation: This article examines the unique poetic interpretation of the image of the Motherland in Uzbek classical literature. This interpretation is revealed through the example of the influence of the works of Mahmud Kashgari and Yusuf Khos Hajib on the work of Sirojiddin Sayyid. Based on examples, the poet's ideological commitment to the work of representatives of classical literature is analyzed.

Key words: Aruz's weight, finger weight, image of the Motherland, poetic interpretation, patriotic personality, literary influence, innovation.

O'zbek mumtoz adabiyoti nihoyatda boy. Janrlar rang-barangligi, mavzular ko'lami kengligi, har bir ijodkorga xos uslubiy jilolar bugungi kunda zamonaviy o'zbek adabiyoti rivojiga katta ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Shoir va adiblarimiz mumtoz adabiyotimizning yetuk namunalarini o'qib, o'rganib, an'analarni ijodiy rivojlantirish, boyitish bilan umrboqiy asarlar yaratib kelmoqda. Mumtoz adabiyotimiz bitmas-tuganmas xazina, badiiy so'z san'atining duru javohirlariga to'la. Undan bahramand bo'lmasdan, an'analarni, tajribalarni o'zlashtirmasdan, ularni ijodiy rivojlantirmasdan bugungi adabiyot rivojini tasavvur qilish mumkin emas. Hozirgi adabiyotimizning yirik vakillari ijodiga e'tibor qaratsak, ularning har biri mumtoz adabiyotimizdan u yoki bu darajada o'rgangan, tajriba va an'analarni rivojlantirgan va adabiy ta'sir natijasida mukammal asarlar yaratib kelayotgani ko'zga tashlanadi. Hamza, Fitrat, Cho'lpon, Elbek, Botu singari o'tgan asr boshlarida adabiyot maydoniga kirib kelgan shoirlar barmoq vaznining she'riyatimizda asosiy she'r o'lchovi darajasiga ko'tarilishiga ulkan hissa qo'shish bilan birga, bu vaznda yaratilgan asarlarda mumtoz adabiyot usul va vositalarini muvaffaqiyat bilan qo'lladilar. Ulardan keyingi avlod barmoq vazni imkoniyatlarini qadim badiiy-poetik an'analar bilan yanada

boyitdilar. Oybek, Usmon Nosir, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Mirtemir, Shayxzoda ijodida buni ko‘rish mumkin. Bu borada yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida poeziya maydoniga kirib kelgan Erkin Vohidov va Abdulla Oripov xizmatlarini alohida ta’kidlash lozim. Shunday an’analarni davom ettirib kelayotgan yana bir zabardast shoir Sirojiddin Sayyiddir.

Shoirning to‘rt jildlik “Asarlar”ining har bir jildida alohida bob sifatida berilgan mumtoz janrlardagi namunalarni o‘qir ekanmiz, uning mumtoz adabiyotimiz vakillari ijodini chuqur o‘rgangan, ular ijodidan o‘zgacha ilhomlangani va aruz ilmidan yaxshigina xabardor ekanining guvohi bo‘lamiz. Sirojiddin Sayyid she’riyatida mumtoz adabiyotning ta’sirini quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin:

1) shoirning g‘azal, muxammas, masnaviy, qit’a, ruboiy, kabi janrlarda samarali qalam tebratganida;

2) mumtoz adabiyotda yetakchilik qilgan mavzularga hamohang yaratgan she’rlarida ilgari surilgan badiiy-estetik tamoyillarda;

3) Sharq adabiyotida mavjud badiiy obrazlarga munosabati va ular qatorining yangilanganishida;

4) badiiy talqinlardagi poetik tasvir ifodasining o‘ziga xosligi, salaflar va ustozlar an’analariga munosabati va novatorligida.

Mumtoz adabiyotda Vatan obrazining o‘ziga xos poetik talqinlari xususida so‘z ketganda, yozma badiiy adabiyotimizning ilk namoyandalari – Mahmud Koshg‘ariy va Yusuf Xos Hojib ijodiga alohida to‘xtalish o‘rinlidir. Xususan, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida turkiy xalqlarning tili, madaniyati, tarixi, etnografiyasi, geografiyasi tadqiq etilishi barobarida bevosita Vatanning umumlashma badiiy obrazi yaratilganini ko‘rish mumkin. Asardagi she’riy parchalarda tabiat hodisalari, yil fasllari, hayvonot, nabotot, butun koinot tasviri Vatanning bir uzvi sifatida keladi. Shu bilan bir qatorda, xalqparvarlik, ezgulik, mardlik, jangovorlik kabi yuksak insoniy fazilatlar tasvirida ham vatanparvar shaxs obrazi namoyon bo‘ladi:

Ulug‘liging oshsa gar,
Xushxulq bo‘lg‘il.
Bek yonida xalqlar uchun
Xo‘b ish qilg‘il. [4; 17]

Mazkur misralarda inson martabasi qanchalik oshsa ham, o‘zida xalqparvarlik, vatanparvarlik fazilatlarini saqlab qolishi lozimligi uqtirilgan.

“Devonu lug‘otit-turk”da harbiy mavzudagi to‘rtliklar ham uchraydi. Ularda askarlarni vatanparvarlikka da’vat etish, yurtni himoya qilish uchun harbiy rejalar tuzish, g‘alaba shukuhi, ozodlikni qadrlash ruhi ustivorlik qiladi:

Dushman yo‘lin o‘raylik,
Otdan tushib uraylik,
Arslon kabi turaylik,
Yovning kuchi bo‘shashgan. [4; 34]

Mahmud Koshg‘ariy bu kabi to‘rtliklarini o‘sha davrda yurt ozodligi uchun askarlarga da’vat, chaqiriq ohangida yozadi. To‘rtliklar nafaqat badiiy qimmati bilan, balki Vatan himoyasi uchun yaratilgan nizom, yo‘riqnoma xarakterida ekanligi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Asardagi “Alp Er To‘nga” marsiyasida Afrosiyobning vatanparvar shaxs, xalqparvar sardor ekanligiga urg‘u berilib, xalqning odil hukmdor, elparvar boshliqsiz qolishi ulkan fojea sifatida talqin etiladi:

Alp Er To‘nga o‘ldimu,
Essiz olam qoldimu,
Dunyo o‘chin oldimu?
Endi yurak yirtilur. [4; 39]

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari ham pandnoma ruhida yaratilgan bo‘lib, unda keltirilgan aksar fikr va g‘oyalarda xalqning baxtiyorligi va farovonligi, davlat tinchligi va el manfaatlari ko‘zlanadi. Xususan, asarning “Mulkka loyiq bek qanday bo‘lishi haqida” bobida Elig va O‘gdulmishning savolu javoblarida bu jihat yaqqol ko‘zga tashlanadi: “Bekning so‘zlari chin, qilish-qilmishlari to‘g‘ri bo‘lishi kerak, xalq unga ishonib baxtiyor yashashi kerak.” [1;180]

Asarda adib “Haqiqiy yurt sardori qanday bo‘lishi lozim?” degan savolga javob izlab, yetuk rahbarning mukammal poetik tasvirini yaratadi. Shoir talqinicha, bunday inson Vatan uchun har qanday to‘siqlarni yengishga qodir, yurt himoyasi uchun g‘ayrati jo‘sh urgan, yurtni yovdan asray oladigan, hatto Vatan uchun o‘z jonidan kechishga tayyor:

Boq, botir ot chopib dushman boshin yer,
Yo uni qul qilar, yo olar asir.
Yov ko‘rsa mardlarning g‘ayrati jo‘shar,
Boshqaga hech navbat bermay urushar.
Lashkar yetsa, botir, mardlar sher bo‘lur,
Ot surar, o‘ldirar, yo o‘zi o‘lur. [5; 205]

Shoir ta’biricha, el farovonligi ko‘p jihatdan adolatli, xalqparvar bekka bog‘liqdir. Adib bob markaziga “Yurtga bek bo‘ladigan sardor qanday bo‘lishi kerak?” degan muhim muammoni qo‘yar ekan, bunday sardor yurtni yashnatib, xalqini badavlat qiladigan bo‘lishi lozimligi haqida qat’iy xulosaga keladi:

Shunday elga kimlar bo‘lur bek-sardor,
To dovrug‘, davlati bo‘lolsin poydor?
Yashnatib yurt, xalqin badavlat qilsa,
Ezgu nom orttirsa, eli mo‘l bo‘lsa. [5; 169]

Sirojiddin Sayyid ijodida uning Yusuf Xos Hojib g‘oyalaridan ilhomlangani, unga ijodiy ergashgani yaqqol ko‘zga tashlanadi:

Agar yaxshi bo‘lsa yurtda podshohlar,
Boylaringiz bo‘lsa saxiy, botadbir,
Ishlar bamaslahat bitsa, sizlarga
Yer ostidan ko‘ra usti afzaldir. [2; 17]

Quyidagi misralarda ham ustoz ijodkorga g‘oyaviy izdoshlik aks etganini ko‘rish mumkin:

Nimadir aslida yurtga sarvarlik –
Mehrparvarlikdir, millatparvarlik.
Har zarra tuprog‘i zarlik, gavharlik,
Bul Vatan toabad saodatdadir. [3; 359]

Sirojiddin Sayyid ham yurtga sardorlikning asosi mehrparvarlik va millatparvarlik ekanligini, bunday hukmdorga ega bo‘lgan yurt abadiy saodatga erishajagini ta’kidlaydi.

Ijodkorning ilgari yaratilgan asarlarni o‘qib, ulardan ilhomlanishi va yaratayotgan asarlariga namuna olishi badiiy adabiyotda an’anaviylik va ijodiylikning davom etishini ta’minlaydi. Bu o‘z navbatida adabiyotning milliy qiyofasini saqlab qolishda va uning taraqqiy etishida zaruriy omillardan biri hisoblanadi.

Mumtoz adabiyotimiz an’analarini davom ettirish, mumtoz adabiyotimizda yaratilgan Vatan obrazining badiiy talqini hozirgi o‘zbek she’riyatida qanday poetik sintez qilinayotganligi Sirojiddin Sayyid ijodida o‘zining yorqin ifodasini topayotganligi yuqoridagi misolarda ko‘rsatib berishga harakat qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmonov Nasimxon. Qadimiy hikmatlar. . – T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti. 1987.
2. Sirojiddin Sayyid. Asarlar. II jild. She’rlar. Doston. Qirq hadis. G‘azal daftari. Nasriy ohanglarda. “Sharq” nashriyoti, - Toshkent, 2018
3. Sirojiddin Sayyid. Asarlar. III jild. She’rlar. Doston. G‘azal daftari. Nasriy ohanglarda. “Sharq” nashriyoti, - Toshkent, 2019
4. Qayumov A. Asarlar. 10 jildlik. 10-jild. Qadimiyat obidalari. – T.: MUMTOZ SO‘Z, 2010.
5. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. . – T.: Akademnashr, 2015.

“SIROJ UL-MUSLIMIYN”DA XOJA UBAYDULLOH AHROR ZIKRI

Muftullayeva Gavhar Yusupovna
NavDPI tayanch doktoranti
Tel: (99) 412-46-43
E-mail: gavharmuftillaeva@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Siroj ul-muslimiyn” asarida Xoja Ubaydulloh Ahror zikri keltirilgan o‘rinlar tahlil qilingan bo‘lib, Navoiyning buyuk mutasavvuf allomaning nomini keltirishining sababi yoritiladi va ushbu shaxs bilan bog‘liq o‘rinlarni yoritishda qo‘llangan badiiy san’atlarga to‘xtalib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar. *“Siroj ul-muslimiyn”, Xoja Ubaydulloh Ahror, tashbeh, tasdir, tasbe’, mubolag‘a, iyhom.*

Abstract. *This article analyzes the places where Khoja Ubaydullah Ahror is mentioned in Alisher Navoi's work "Siroj ul-Muslimin", the reason why Navoi mentions the name of the great Sufi scholar is explained, and the art used to illuminate the places related to this person.*

Keywords. *"Siraj ul-muslimin", Khwaja Ubaidullah Ahror, tasbe’, tasdir, tasbeh, mubolaga, iyhom.*

Alisher Navoiyning islom dini ahkomlarini yoritishga bag‘ishlangan sof diniy ruhdagi asari “Siroj ul-muslimiyn” (Musulmonlar nuri) an’anaga muvofiq Allohga hamd va Muhammad (s.a.v)ga na’t bilan boshlanadi va ushbu kitobni nazm etishning sababi yoritiladi. So‘ng islomda aqida va ahkomlar haqida batafsil ma’lumotlar keltiriladi. Adabiyotshunos N. Jabborov ushbu asar tahlili bo‘yicha dastlab professor Suyima G‘aniyeva o‘zining “Navoiy yodga olgan asarlar” risolasida fikr bildirganini ta’kidlaydi va undan keyingi ushbu asarga to‘xtalib o‘tilgan ishlar sifatida navoiyshunos D.Yusupovaning “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (Alisher Navoiy davri)” o‘quv qo‘llanmasini hamda Hasanxon Yahyo Abdulmajid va Husaynxon Yahyo Abdulmajidlar tomonidan nashrga tayyorlangan “Navoiydan chu topqaylar navoye” kitobini keltiradi. [1.Н. Жабборов. Маоний аҳлининг соҳибкирони. Монография. Тошкент, “Adabiyot”, 2021.186]. Biz yuqorida sanab o‘tilgan ishlarni ko‘zdan kechirar ekanmiz, asarning mazmun-mohiyati to‘la ochib berilganining guvohi bo‘lamiz va bu borada qayta so‘z ochish o‘rinsizdek ko‘rinadi. Shu nuqtai nazardan va tadqiqot obyektimizning markazida shayxlar zikrining turishi jihatidan biz asardagi faqat Xoja Ubaydulloh shaxsi bilan bog‘liq o‘rinlarni tahlil qilamiz.

Navoiy “Siroj ul-muslimiyn” da Xoja Ahror siymosini badiiy obraz sifatida gavdalantirmasa-da, o‘z ta’biri bilan aytganda “murshidi komil”ining muborak nomini tilga olmay o‘tishni joiz deb bilmaydi. Bunga bir necha sabablarni keltirish mumkin:

1. Navoiyning naqshbandiya tariqati vakili ekanligi va bu yo‘lda Xoja Ubaydullohni Jomiy orqali o‘ziga ma’naviy pir deb bilishi. (Bu haqda olim Botirxon Valixo‘jayevning “Buyuk ma’naviy murshid” risolasida batafsil yoritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti, 2004. 55-bet).
2. Xoja Ubaydulloh Ahrorning Navoiyga bo‘lgan ehtiromi, ixlosi sababidan unga ko‘rsatgan yuksak ishonchi. Biz bu ishonchni buyuk mutasavvuf olimning “Majmuai mursalot” (“Maktublar majmuasi”) to‘plamidagi maktublarning birida Xoja hazratlarining Alisher Navoiydan vazirlik mansabidan ketmasligini iltimos qilganligi va bu bilan cheklanib qolmasdan Abdurahmon Jomiyga ham aynan shu mazmundagi maktub yo‘llaganidan ham bilishimiz mumkin. [2. Ҳасанхон Яҳё Абдулмажид, Ҳусайнхон Яҳё Абдулмажид. “Навоийдан чу топғайлар навое”- Т.: “Ҳилол-нашр” 2014. – 32-33-бетлар].

Bu yerda Navoiyning yurt ravnaqi, xalq farovonligi yo‘lidagi beminnat xizmatlari va oliyjanobligi anglashiladi, ya’ni Navoiy davlat va jamiyat ishlarida yetakchi mavqe’ga ega bo‘lgan va Xoja Ubaydullohdek buyuk siymolarning e’tirofiga va hurmatiga sazovor bo‘lgan. Aynan “Sirojul muslimiyn”ning yozilishiga turtki bo‘lgan, musulmonlar uchun qimmatli bir manba yaratishga

undagan shaxs sifatida ham Xoja Ubaydulloh Ahror nomining keltirilishi fikrimizning tasdig‘i bo‘la oladi.

Asardagi “Kitob nazmining sababi” qismida Navoiy uni yozishga kirishishi sababini yoritishdan avval Sulton Husayn Boyqaro nomini ehtirom bilan tilga oladi. Nurboy Jabborov Husayn Boyqaroga bag‘ishlangan baytlarni qasida baytlar deb ataydi va Shayx Ahmad Taroziyning “Fununu-l-balog‘a” asaridagi qasidaga xos to‘rt xususiyatni sanab, qasida-baytlarga bu nazariy talablarni qo‘yib bo‘lmasa-da, Navoiyning so‘z qo‘llashdagi mahoratiga urg‘u beradi. [1. Н. Жабборов. Маоний аҳлининг соҳибкирони. Монография. Тошкент, “Adabiyot”, 2021.184]. Keyingi baytlarda esa Navoiyning obodonchilik va xalq farovonligi yo‘lida qilayotgan ishlarining ovozasi yurt bo‘ylab kezib yurar ekan, sohibqironning yaqin odami bo‘lmish bir dono kishining Navoiy o‘zi uchun “achchiq haqiqat”dek yangragan so‘zlarini eshitganini yozadi:

Demish: “Ne sud gar bir uyni tuzmish

Ki, nazmi shaynidin ko‘p uyni buzmish,

O‘qug‘on el aning she’rini payvast,

Tilar bo‘lg‘ay hamisha oshiq-u mast.

Solib Islom-u din uyiga oshub,

Binoyi xayr butkarmak ne mahsub?!” [3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик Ўзбекистон ССЖ «Фан» нашриёти. Ун олтинчи том. Сирожул муслимийн. Тошкент—1991. 198-б.]

Navoiyning yuqoridagi “tanqid”ni haqiqatdan ham eshitgani yoki eshitmagani, bor gap bo‘lsa, aynan kim tomonidan aytilgani haqida bizda dalil yo‘q, ya’ni bu fikrlar shoirning o‘ziga nisbatan boshqalar ko‘zi bilan qarashi bo‘lishi ham mumkin. Negaki Navoiydek shaxs o‘zini o‘zi idora qila oladigan, o‘z ustida mulohaza yuritadigan xarakterga egaligi borasida shubha bo‘lmasa kerak. Keyingi baytlarda Navoiyning bu so‘zlardan ta’sirlangani va Islom uyining obod bo‘lishini ta’minlaydigan asar yozishni maqsad qilgani ayonlashadi:

Dedimkim, aylayin bir nusxa mastur,

Ki, bo‘lg‘ay din-u Islom uyi ma’mur. [3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик Ўзбекистон ССЖ «Фан» нашриёти. Ун олтинчи том. Сирожул муслимийн. Тошкент—1991. 198-б.]

Keyingi misralarda Navoiyning bunday asarni yozishga kirishishda to‘sqinliklarga uchragani, turli holatlarning mone’lik qilishi kuzatilayotganini aytadi va Xoja Ubaydulloh Ahror nomi bilan bog‘liq o‘rinlar quyidagi misralardan anglashila boradi:

Anga tegurki, bu fursatda nogoh,

Birovkim, erdi ko‘p ma’nidin ogoh.

Maqomi mavlidi oning Samarqand,

Ki, nuzhad ichradir Firdavs monand. [3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўзбекистон ССЖ «Фан» нашриёти. Ун олтинчи том. Сирожул муслимийн. Тошкент—1991. 198-б.]

Yuqoridagi baytlarda aynan kim haqida so‘z borayotgani noma’lum. Bu borada tarixiy faktlarga ega emasmiz. Ushbu asar tahliliga bag‘ishlangan oldingi ishlarda ham tug‘ilgan joyi Samarqand bo‘lgan, ko‘p ma’nilardan boxabar kishining aynan kim ekanligi yoritilmagan. Navoiyshunos D. Yusupova tahlilida ham “bir ulug‘ insonning Samarqanddan Hirotga tashrif buyurishi” deb yoritilgan. N.Jabborov ham bu shaxsni “osmondan farishta misoli ingan bir kishi”

deya keltiradi. Kimligi noma'lum bo‘lsa-da, Navoiy shunday ehtirom bilan tilga oladiki, buni quyidagi baytda qo‘llagan betakror tashbeh misolida ham ko‘rish mumkin:
Buyon ul pok kishvardin yetishti,

Surushe charxi axzardin yetishdi. [3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўзбекистон ССЖ «Фан» нашриёти. Ун олтинчи том. Сирожул муслимийн. Тошкент—1991. 198-б.]

Bu yon deyilganda Hirot nazarda tutilayotgani ma'lum. Pok kishvar - Samarqand. Bu ulug‘ kishining Samarqanddan Hirotga kelishi moviy osmondan farishtaning kelishiga o‘xshatilar ekan, Navoiy uchun yuksak ehtirom ko‘rsatishga arzirli inson. Shuning uchun Navoiy "Ko‘ngil uning xizmatiga moyil bo‘lib, o‘zimni uning suhbatiga musharraf qildim". [2. Ҳасанхон Яҳё Абдулмажид, Ҳусайнхон Яҳё Абдулмажид. "Навоийдан чу топғайлар навое"- Т.: "Ҳилол-нашр" 2014. – 126]. deya ta'kidkaydi. Keying baytda esa shu shaxsga nisbatan Navoiyning ehtiromi yanada oydinlashadi, uning qalbi ma'nolar xazinasiga, og‘zidan chiqqan so‘zlar esa gavharlarga o‘xshatilyapti:

Bo‘lur erdi maoniydin guharposh,

So‘z asnosida bu na'v ayladi fosh: [3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўзбекистон ССЖ «Фан» нашриёти. Ун олтинчи том. Сирожул муслимийн. Тошкент—1991. 199].

Keyingi baytda shu anglashiladiki, yuksak ehtiromga sazovor bo‘lgan, yuqorida tilga olingan samarqandlik kishi Navoiyga "murshidi komil"i Xoja Ubaydulloh Ahrorning qimmatli fikrlarini yetkazadi, ya'ni Navoiyning nazm borasida rag‘bati balandligi, agar sha'riy ahkomlar masalasiga bag‘ishlangan asar bitsa, munosib ish bo‘lishini ta'kidlaydi. Shu o‘rinda bir narsani anglash kerakki, Navoiy o‘sha xabar olib kelgan kishining tilidan aytilgan so‘zlarni ham o‘zi ijod etadi, badiiy sayqal beradi. Buni Xojaga berilgan ta'rifda ham ko‘rish mumkin:

"Ki, bir kun Xojaekim, charxi oliy,

Hilolin istar oning oti na'li. [3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўзбекистон ССЖ «Фан» нашриёти. Ун олтинчи том. Сирожул муслимийн. Тошкент—1991. 199].

"Otining tuyog‘i yuksak osmonning hiloli bo‘lishga da'vogar bo‘lmish Xoja" deya *mubolag‘a* vositasida yuksak baho berilgan Xoja Ubaydulloh Ahror keyingi baytda *talmeh* san'ati orqali tasavvufning eng yirik namoyondalari hisoblanmish Shayx Shibliy va Zunnun Misriylar bilan tenglashtiriladi hamda irshod ahlining peshvosi bo‘lgan zot deya ta'riflanadi:

Ravishda Shibliy-u Zunnung‘a foyiq,

Ubaydulloh deb otin xaloyiq.

Kim, uldir peshvoyi ahli irshod,

Bu irshod etti sendin aylabon yod:

"Kim, ul ko‘p nazm derga bo‘ldi rog‘ib,

Bu yanglig‘ nazm ham erdi munosib".

Shunday qilib Navoiy Xojaning maslahati bilan oldindan o‘ylab, lekin boshlay olmay yurgan asarini yozishga kirishadi. Navoiy asarni yozishga kirishishini bildirar ekan, Xojaning so‘zlarini Hazrati Iso nafasiga tenglashtiradi:

Chu so‘rdi Iso anfosi bu damni,

Ham ul dam azmig‘a yo‘ndim qalamni. [3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўзбекистон ССЖ «Фан» нашриёти. Ун олтинчи том. Сирожул муслимийн. Тошкент—1991. 199].

“Siroju-l-muslimiyn”da Xoja Ubaydulloh haqidagi o‘rinlar atigi yetti baytda ifodalangan bo‘lsa-da, Navoiy yuqorida keltirgan tashbeh, talmeh hamda mubolag‘alardan tashqari tasbe’ yoki raddul aruz ilal ibtido san’atidan ham unumli foydalangan. Ushbu badiiy san’at A. Rustamovning “Navoiyning badiiy mahorati” nomli kitobida **“tasbig‘”** yoki **tashobihu-l-atrof** nomi bilan kelgan va unga quyidagicha ta’rif berilgan: “Bu san’atda oldingi gap, misra yoxud bayt oxirida joylashgan so‘z, so‘z birikmasi keyingi gap, misra yoxud baytda qaytarilib fikriy izchillik ta’minlanadi, bunda gap, misra baytlar zanjir hosil qiladi. [A.Рустамов. Навоийнинг бадиий махорати. Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. 51] Xoja Ubaydulloh Ahror nomi bilan bog‘liq uch baytda biz aynan tasbe’ san’atiga xos xususiyatlarni ko‘rish mumkin. Quyida ana shu uch baytni ajratib ko‘rsatamiz:

*Kim, uldir peshvoyi ahli **irshod,***

*Bu **irshod** etti sendin aylabon yod:*

Irshod so‘zi “to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi, to‘g‘ri yo‘lga undovchi” kabi ma’nolaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, Navoiy Xojaning irshod ahlining peshvosi ekanligini v ava shunday valiy zot bunga ham eng to‘g‘ri yo‘lni nasihat qilganini tushunamiz va tasbe’ san’ati ushbu baytda fikriy izchillikni ta’minlab bergan, deya olamiz. Yana bir misol:

*“Kim, ul ko‘p **nazm** derga bo‘ldi rog‘ib,*

*Bu yanglig‘ **nazm** ham erdi munosib”.* [3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўзбекистон ССЖ «Фан» нашриёти. Ун олтинчи том. Сирожул муслимийн. Тошкент—1991. 199].

Ushbu baytda nazm so‘zining joylashuvi nuqtai nazaridan, tasdir san’atiga xos jihatlarni ham ko‘rish mumkin. Negaki, A. Rustamov takrorlanib keluvchi so‘zlarning joylashuv o‘rniga ko‘ra tasdir san’atini 6 turga ajratadi:

1. Baytning bir so‘z bilan boshlanib, shu so‘z bilan tugashi.
2. Baytning birinchi misrasi boshidagi so‘z ikkinchi misrasi boshida ham takrorlanishi.
3. Baytning ikkinchi misrasi boshidagi so‘z shu misraning oxirida takrorlanishi.
4. Baytning birinchi misrasi o‘rtasidagi so‘z ikkinchi misra boshida kelishi.
5. Birinchi misra o‘rtasidagi so‘zning ikkinchi misra oxirida takrorlanishi.
6. Birinchi misra o‘rtasidagi so‘zning ikkinchi misra o‘rtasida kelishi. [4. A.Рустамов. Навоийнинг бадиий махорати. Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. 52]

Demak, yuqoridagi baytdagi nazm so‘zi takrori tasdir san’atining 6-turiga misol bo‘la oladi. Quyidagi baytda esa iyhom va tajnis san’atini ko‘rish mumkin:

*Chu so‘rdi Iso anfosi bu **damni,***

*Ham ul **dam** azmig‘a yo‘ndim qalamni.* [3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўзбекистон ССЖ «Фан» нашриёти. Ун олтинчи том. Сирожул муслимийн. Тошкент—1991. 199].

Birinchi misradagi dam so‘zi(ish, vazifa) va ikkinchi misradagi dam so‘zi(vaqt, payt) o‘zaro shakldoshlikni hosil qilib, tajnis san’ati yuzaga kelgan. Biroq, ikkinchi misradagi dam so‘zining o‘zi bir vaqtning o‘zida ikki ma’noda qo‘llanilgan, ya’ni ikkinchi misrani quyidagicha tahlil qilish mumkin: 1.Ham ul dam azmig‘a yo‘ndim qalamni- o‘sha zahoti boshlashga qalamni yo‘ndim. 2.Ham ul dam azmig‘a yo‘ndim qalamni - bu ish azmiga, ya’ni boshlashga qalamni yo‘ndim.

Asardagi Xoja Ubaydulloh Ahror zikr etilgan o‘rinlar tahlil qilinar ekan, biz quyidagi umumlashma fikrlarga kelishimiz mumkin:

1. Navoiyning ushbu asarda Xoja Ubaydulloh nomini tilga olishining asosiy sababi bu ulug‘ zotning o‘ziga ma’naviy pir deb bilishi, asarning sof diniy asarligi, yozishga undagan shaxs sifatida ham aynan Xoja Ahror Valiy nomining keltirilishi.
2. Asar islom dini ahkomlariga bag‘ishlangan asar bo‘lsa-da, muqaddimaviy boblarda badiiy uslubning ustunlik qilishi, ya’ni ko‘tarinkilik, tantanavorlik avvalo hamd, na’t qismida, so‘ng Husayn Boyqaroni madh etishda va Xoja Ubaydulloh Ahror vasfida ko‘zga tashlanadi.
3. Navoiy fikr izchilligini ta’minlash, ifoda ko‘lamini kuchaytirish maqsadida turli badiiy san’atlardan foydalangan, xususan Xoja Ubaydulloh haqidagi yeti baytning o‘zida tashbeh, tasdir, tasbe’, mubolag‘a, iyhom kabilardan mahorat bilan foydalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Н. Жабборов. Маоний аҳлининг соҳибкирони. Монография. Тошкент, “Adabiyot”, 2021.186.
2. Ҳасанхон Яҳё Абдулмажид, Ҳусайнхон Яҳё Абдулмажид. “Навоийдан чу топғайлар навое”- Т.: “Ҳилол-нашр” 2014. – 32-33.
3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик Ўзбекистон ССЖ «Фан» нашриёти. Ун олтинчи том. Сирожул муслимийн. Тошкент—1991. 198.
4. А.Рустамов. Навоийнинг бадиий махорати. Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. 51.

“HOTAMNOMA” ASARIDAGI MIFOLOGOK VA MISTIK TASVIRNING LINGVOFOLKLORISTIK TAHLILI

Abdumannatova Nafisa Abdumajit qizi
SamDU doktoranti
nafisaabdumannatova@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada saxiylikning oliy timsoli Hotami Toy va uning qahramonliklari tasvirlangan xalq kitobi - “Hotamnoma” asaridagi folklor motivlari lingvofolkloristik jihatdan tahlil qilingan.*

Аннотация. В статье с лингвофольклористической точки зрения анализируются фольклорные мотивы народной книги “Хотамнома”, в которой описывается Хотами Той, высший символ щедрости, и его героические подвиги.

Annotation. *In the article, folklore motives in the folk book "Hotamnoma", which describes Hotami Toy, the supreme symbol of generosity, and his heroic deeds are analyzed from a linguo-folkloristic point of view.*

Kalit so‘zlar. *Folklor motivlari, mistik tasvir, mifologik tasvir, giperbolizatsiya, metafora, tush tasviri.*

Ключевые слова. Фольклорные мотивы, мистический образ, мифологический образ, гиперболизация, метафора, образ сновидения.

Keywords. Folklore motives, mystical image, mythological image, hyperbolization, metaphor, dream image.

Folklor tilini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda turli lingvistik birliklarning folklorda voqelanishi masalasiga alohida ahamiyat qaratiladi. Lingvofolkloristikada aynan folklorning barcha janrlariga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlar asosida atributlash amalga oshiriladi. Lingvoflkloristik tahlilning muhim jihatlaridan biri folklor motivlari, ularning tuzilishi, lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish hisoblanadi. [4;40] Masalan, xalq ertaklariga xos sayyor folklor motivlari sirasida an’anaviy boshlanmalar va tugallanmalar:

“Bor ekan-u yo‘q ekan, och ekan-u to‘q ekan,

Bo‘ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan”. singari shakllarga ega.

Shuningdek, folklorga xos bo‘lgan sujetlar va uning har bir folklor janrida individual va sinkretik tazrda ifodalanishi, bunda nutqiy vaziyat o‘zgarishi, til birliklarining qo‘llanilishi singarilar alohida e’tiborga olinadi.

“Hotamnoma”da ishtirok etgan folklor motivlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Giperbolizatsiya;
2. Mifologik tasvir;
3. Mistik tasvir;
4. Tush tasviri.

Giperbolizatsiya. Giperbolizasiya – psixologiyada alohida patalogik jarayonni ifodalovchi termin sifatida qo‘llaniladi. Psixologiyada giperbolizasiya fenomeni xayol obrazlarini hamda tasavvur shakllarini o‘zlashtirish jihatidan yaqin agglyutinatsiyaga yondosh, o‘xshash psixik jarayondir. [1;15] Folklor asarlarida uning namoyon bo‘lishi o‘ziga xos tarzda amalga oshadi. “Hotamnoma” asarida giperbolizasiyaning ifodalanishini quyidagi shakllarda ko‘rish mumkin:

a) leksik usul orqali (ma’noni kuchaytirishga xizmat qiluvchi o‘ta, juda, rosmana, daxshatli v. h k);

b) metaforalar, litota, giperbola orqali.

a) leksik usul orqali. Bunda belgining ortiqligini ifodalashga xizmat qiluvchi *ulkan, daxshatli, rosa, juda, g‘oyatda, bag‘oyatda, mislsiz, azim, andog‘, onqadar, oncha* singari so‘zlardan foydalaniladi. *Go‘yat saxiydursan, magarkim Hotamdurmisanki o‘z yuzungdin kesib bermakka hozirsan?*

Hotamning o‘ta saxiyligi o‘z yuzidan kesib berar darajada ekanligi *g‘oyatda* so‘zi orqali ifodalangan.

Ko‘rdilarki bir baloyi azimdurki, hargiz bunday ulkan vahshati daxshatli maxluqni daf etmoqqa imkon yo‘q.

Yilon vaqtiki xaloyiqlarning oldig‘a keldi, quyrug‘ini andog‘ qattiq harakat berib erdi, aning damidin mardumlarning nafasi basta bo‘lubtur.

Giperbola tasvirni boshqa tasvirga qiyoslash orqali metaforik usulda ham namoyon bo‘lganligini ko‘rish mumkin:

Nogoh bir qaro yilon, nihoyati cho‘ng, chohdin boshini chiqardi, xartumi filning xartumidek. Tasvirning kattalgi haqida tasavvurni aniqlashtirish uchun filning xartumiga qiyoslanadi. Bu esa tasvirni bo‘rttirishga xizmat qiladi.

Mifologik tasvir.

“Hotamnoma” asarida *dev, ajdar, jin, pari, suv* kulti bilan bog‘liq mifologik tasvirlar ishtirok etadi. Xarakterli jihati aynan mifologik obraz tasvirlanmaydi, biroq ushbu kult tasvirda ishtirok etadi. Shuningdek asarda *Xaluqa* otli maxluq tasviri ham bor. Asarda u shunday tasvirlanadi:

Gumbazga o‘xshash put-qo‘li yo‘q va gardani yoq’, magar og‘zi bor. Ul ham tananing orasida. Yumalanib keladur. Og‘zidin o‘tning tutuni chiqadur.

Hotam ayttiki:

–Bu Xaluqa otlig‘ balodur, hech zarb bilan o‘lmaydur, magar o‘z suratini ko‘rmak birla, vaqtiki o‘zidin bo‘lagini ko‘radur, g‘ussadin o‘z damining haddi birla qursoqi pora bo‘ladur.

Yana shunday maxluqlardan biri quyidagicha tasvirlanadi:

Necha mahaldurki bul viloyatg‘a bir balo nozil bo‘lg‘ondur. Ani kosa dum derlar. Bazilar qora quloq ham derlar. Dumida bir kosa shaklida joyi bordur. Ul kosasiga siyib otsa va har yerga tegsa, kuydurur.

Ushbu tasvirlangan *kosadum* yoki *qora quloq* maxluqiga o‘xshash mifologik obrazlar boshqa xalqlar mifologiyasida yo‘q. Demak, “Hotamnoma” asarida tasvirlangan turli mifologik obrazlar o‘sha xalq folklori, tasavvurotining o‘ziga xos shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa ushbu mifologik obrazlarni o‘rganish, etimologiyasini tadqiq etish zaruratini paydo qiladi.

Mistik tasvir. Folklor matnlarida har xil karomatga ega shaxslar (jodugar, yalmog‘iz, sehrgar), sehrli buyumlar (to‘qmoq, hassa, qalpoq, oyoq kiyim va h.k) singarilar ishtirok etadi.

Asosan, folklorning ertak janrida sehr-jodu bilan bog‘liq tasvirlar, obrazlar faol uchraydi. Ayniqsa, bolalar folklorida mistik tasvirni faol uchratish mumkin.

Olimlar tomonidan mistik tasvir, mistika falsafiy tushuncha uning o‘rganish obyekti sifatida baholanadi. [1;10] Folklor matnida sehrgarlik sehr-jodu, noodatiy qobiliyatlar tasviri xalq fantaziyasiga asoslanadi. Bunda, asosan, qahramonlarni mushkul ahvoldan qutqaruvchi yoki ularga qarama-qarshi kuch-raqib sifatida harakatlanuvchi obraz bo‘lib gavdalanadi. Folklor matnida qo‘llangan mistik tasvirning falsafiy mohiyatini ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash ifodasi sifatida ko‘rish mumkin. [2;8] “Hotamnoma” asarida qo‘llangan mistik tasvir vositalarini quyidagicha guruhladik: **1) sehrli buyumlar; 2) sehrli, tilsimotli joylar; 3) tilsimli shaxslar; 4) sehrli qush, jonzotlar.**

Xususan, “Hotamnoma” asari tadqiqi davomida quyidagi mistik tasvir vositalari kuzatildi:

O‘tda kuymas, suvda cho‘kmaslik qobiliyatini beruvchi sehrli muhra:

Xirsning qizi Hotamning qo‘lig‘a bir muhra berdi va ayttiki:

– Muni o‘zingg‘a saqlag‘il, og‘ir kunda korg‘a kelur.

Hotam sarguzashti davomida sehrli muhra bir necha o‘rinlarda asqotadi. Muhrani og‘ziga olgan mahal har xil zaharli hasharotlar uzoqlashadi, issiq olov misli suv taftiga aylanadi. Ajdarho qornidan muhra tufayli o‘lmay tirik chiqadi.

O‘likni tiriltiruvchi suv, Ajali yetgan odamni huzuriga chorlovchi Ko‘hi Nido, qanotida olib uchib yuruvchi parilar, kunduz o‘lik, kechasi tirik tilsimotlar, shohlar ko‘ziga ko‘rinuvchi sirli malikalar, ichida uy, qasr yashiringan ilon, yilda bir marta sehrli tuxum qo‘yuvchi qush, devga aylantiruvchi qizilqush qanoti, tamoman tilladan daryo, tilladan daraxt.

Har bir mistik tasvirda qahramonga yordam beruvchi yoki uning tilsimotlarining bir kaliti bo‘luvchi tasvir mavjud. Xususan, Xirs (ayiqlar)lar tomonidan taqdim etilgan muhra sehrli karomatga ega bo‘lib, uni og‘ziga solgan kishi borki sirli himoya ostida bo‘ladi. Sarguzasht davomida muhra Hotamga quyidagi holatlarda yordam beradi:

- suvda cho‘kmaydi,
- olovda yonmaydi,
- har xil afsunlar kor qilmaydi,
- zaharli mavjudotlar chaqmaydi,
- qizigan yog‘da erimaydi,
- devlardan omon saqlaydi.

Urf-odat va qadriyatlar tasviri. Folklor matnlarida muayyan xalqqa doir marosimlar, urf-odatlar o‘sha xalq madaniyatini, qadriyatlarini ifodasi bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, Alpomish dostonida “Choch siypatar”, “It irillar”, “Kampir o‘ldi” singari marosimlar tasvirlanadi. Xalq og‘zaki ijodi madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishning eng boy manbasi sifatida xalq urf-odatlari, marosimlari nafaqat etnografiya, tarix, arxeologiya sohasidagi mutaxassislarning e’tiborini tortadi, balki voqelikni badiiy idrok etishni xohlaydigan yozuvchilarning fikrlarini ham jalb qiladi. [5;36] Shuning uchun ham adabiy matn faoliyatining bu jihati adabiyotshunos uchun ham, folklorshunos, hamda lingvofolklorist uchun ham birdek ahamiyatga ega.

“Hotamnoma”da Hotam sarguzashtlari davomida turli hudud vakillarining odatlari, marosimlariga guvoh bo‘ladi. O‘z yurtida bunday odatlar yo‘qligi bois ushbu holatlar Hotamni hayratlantiradi. Masalan, Hotamning birinchi safarida Xirs qiziga uylanishida qizning qo‘lini yigitning qo‘liga tutqazish bilan nikoh nihoyasiga yetadi. Bu esa ikki o‘rtada nikoh bog‘langanligini anglatadi.

To‘rtinchi safarida esa, kutilmagan va g‘ayritabiiy dafn marosimiga duch keladi.

Hotam Bul odamlardin so‘rdikim:

–Bul nechuk rasmdur?

Odamlar dedilarki:

–Bul shaharni rasmi odatidur: Har kim o‘lsa, ul dashtga olib borib

o‘lturgaymiz, to bir musofir ul yo‘ldin paydo bo‘lsa, murdani tufrog‘ arosig‘a qo‘yurmiz. To qirq kun poylarmiz, qirq kunda ham musofirning qadami yetmasa ul o‘lgan kishining badbaxtlig‘i nishonasi bo‘lg‘ay. [3;62]

Xulosa sifatida aytish mumkinki, “Hotamnoma” sarguzasht xarakteridagi folklor asari bo‘lib, uning matnida folklor asarlariga xos bo‘lgan giperbolizasiya, mifologik tasvir, mistik tasvir, urf-odat va qadriyatlar tasviri singari folklore motivlarini kuzatish mumkin. Asar matnida bu kabi tasvirlarning mavjud ekanligi uni badiiy asarlardan farqlab turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Неронова, М. Ю. Типология мистического опыта : матер. науч. конф. Сер «Symposium». – СПб., 2001.
2. Хроленко А.Т. Лингвофолклористика. Листая годы и странисы. –Курск, 2008.
3. Хроленко А.Т. Что такое лингвофолклористика? / А.Т. Хроленко // Русская реч. - 1971. - № 1. - С. 36—41
4. Ҳотамнома. Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи: А.Матғозиев. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 188 б.
5. Мирзаев Т., Сафаров О., Ўраева Д. Ўзбек халқ оғзаки ижоди хрестоматияси. – Тошкент: Фан, 2008. – 324 б.

USMON NOSIRNING “NIL VA RIM” SONETI BADIIYATI

Jonpo‘lotova Gulshoda Qobil qizi
Navoiy davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi tayanch doktoranti
99-703-01-78
Ilmiy rahbar: f.f.d, prof. A. Xolmurodov

Annotatsiya: Ushbu maqolada erk va ozodlik kuychisi Usmon Nosirning tarix zarvaraqlariga bitilgan, shoir yashagan davr jamiyatida ham boshqa ma’lum bir ko‘rinishda davom etib kelayotgan qullik va bandilik alamlari sonet janrining beqiyos imkoniyatlari bilan jo‘shqin ohang, ulkan dard bilan ochib berilishi tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: sonet, sonet maktabi, badiiyat, pafos, tug‘yon, janr, o‘xshatish, qiyoslash.

Kirish

O‘zbek adabiyotida sonet janrining ilk namunalari XX-asrning 20-yillarida yaratila boshlangan bo‘lsa-da, ushbu janrning badiiy qirralarini ochib berishda, uning jahon adabiyoti an’analari ruhida kashf etilishida, qolaversa o‘zbek adabiyotida ilk bor sonetlar turkumi yaratishga qo‘l urgani, urganda ham, o‘zining o‘tkir pafosi, jo‘shqin badiiyati bilan jahon adabiyoti durdonalaridan qolishmaydigan asar yarata olgan ijodkor, shoir, sonetnavis Usmon Nosirdir. O‘z o‘rnida biz uni o‘zbek sonetnavisligiga, sonet maktabiga asos soldi deya e’tirof etsak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki ijodkor Nil va Rim sonetlar turkumi orqali nafaqat davr ruhini, balki moziy zarvaraqlari qatidan to‘kilgan haqiqatlar, o‘z ichki tug‘yonlarini ham o‘quvchiga ochiq bayon etadi, sonet janri imkoniyatlarini to‘la - to‘kis ochib beradi.

Muhokama

Moziy haqida munoqasha yuritish, uning haqiqatlaridan hikmatlar axtarish, xulosalar chiqarish har bir davr ijodkori uchun xos xususiyatdir. Ammo o‘zi yashab turgan davrni tanqidiy qalamga olish har bir davrda bo‘lgani kabi Usmon Nosir yashagan davrda ham, ayniqsa juda tahlikali edi. Usmon Nosir kabi erk kurashi uchun dunyoga kelgan ijodkorlar uchun esa bu tahlikalar g‘ov bo‘la olmas edi. O‘zidan ming yillar ilgari yashagan Misr va Rim aholisi uchun kuchli dard, alam, qalb og‘riqlari balqib turgan o‘tkir pafosli asar yaratgan ijodkor Misr va Rimdagi qullar taqdirida mustabid tuzum ostidagi o‘z yurtdoshlarini ko‘rib ezilgan bo‘lsa ajab emas.

Lampam yonur...Yaralangan qanotday og‘ir

O‘y bosadi. Yuragimda go‘yo sel yog‘ir.

Qiynalaman. Tirishaman. Hushim parishon

O‘tmish, hozir va kelajak ko‘rinur har on.

Tirishaman, butun kuchim ko‘zimga kelar,

Chirog‘imga parvonadek urinar yillar-

Iste’dodli ijodkor Usmon Nosir ilmga tashna, kitob mutolaasiga oshno edi. Bular haqida Naim Karimovning "Usmon Nosir" avtobiografik romanlarida batafsil ma’lumot berilgan. Tarix ilmini ham puxta egallagan yosh shoir tarix zarvaraqlariga shunchaki ma’lumot sifatida qaray olmas, undagi chin ijodkor yuragi bunga yo‘l qo‘ymas edi. U shunchalar tarixni ta’sirlanib o‘qirdiki yonayotgan lampasi yaralangan qanotday og‘ir bo‘lib tuyular, o‘tmish, hozir va kelajak ko‘z o‘ngida aylanganda, qiynalib, tirishib, hushi parishon holga kelardi. Bu chizgilar albatta, ijodkorning misralari qalb torlaridan dard bilan dunyoga kelganidan darakdir. Tarixni o‘qirkan yosh ijodkor, o‘tmishdagi azob-uqubatlar hali-hanuz davom etib kelayotganidan, bu kelajakda ham davom etishi mumkinligidan tashvishga tushgandir, balki.

To Minisdan Ramzesgacha, Ramzesdan nari

Malika qiz - Kleopatra hukmron davri.

Undan tortib...yana uzoq, yana ko‘p yillar

Xarsang bilan yotqizilgan necha ming yo‘llar

Ko‘z yoshidan, dil toshidan qurilgan haykal

Magrur turar, magrur boqar; hech biron mahal

Na odamdan, na zamondan qo‘rqmas asti u.

G‘azabini yutib olgan qullar dasti bu!

Misrning dastlabki hukmdorlaridan biri bo‘lgan Minis, undan tortib o‘z qurilish-bunyodkorlik ishlari bilan tarixda nom qoldirgan Ramzes va so‘ngi malika(uning davrida Misr Rimga qaram bo‘ladi) Kleopatra davrida ham Misr xalqi qullik zulmidan qiynalib yashaydi. Bu go‘zal shaharlarning har bir go‘zal maqbarasi, haykalidan tortib yo‘ligacha g‘azabini ichga yutib ishlagan qullarning ko‘z yoshidan, dil toshidan bunyod bo‘lgandek go‘yo. Mislsiz qiyoslash. Shoir ijodga shunchalar beriladiki, bu voqealarni ko‘zi bilan ko‘rayotgandek haqqoniy, o‘z navbatida badiiy unsurlar bilan bezab ko‘rsatadi. Me’moriy obidalar har bir davrda ham o‘ziga xos mashaqqatlar bilan dunyoga kelgani har birimizga ma’lum. Ammo ularni bunday badiiy o‘xshatishlar bilan ifoda etish haqiqiy ijod kishisiga xosdir.

Ijodkor sonetni faqat Misr tasviri bilan yakunlamaydi. Sonet oltita turkumdan iborat bo‘lsa-da, mazmunan ikki qismdan: Misr va Rim tasviridan iboratdir. " Garchi she’rlar katren va tersetlarga maxsus bo‘linmagan bo‘lsa-da (balki noshirlarning xatosidir), lekin unda ma’lum fikrning o‘rtaga tashlanishi, kulminatsiyasi, xulosasi kabi aniq ko‘rinib turgan belgilar " Nil va Rim"ning sonet janrida yozilganini ko‘rsatadi. Balki mavzu Rim, Italyan tarixiga aloqadorligi uchun ham shoir she’rni sonet janrida (sonetning kelib chiqishi Italiyaga taqaladi) yozgan bo‘lishi mumkin."[3]

Otim uchar (xayolimda) oldinga doim,

Avval bahor osmonidek yig‘lar gado Rim

Emchagida bir tomizim suti yo‘q ona

Go‘dagini tosh ostida bostirdi, ana!

Shoir erksizlik mavzusini qalamga olgan ekan kuni ko‘z yosh to‘kib o‘tayotgan Rim haqida so‘zlamasdan iloj yo‘q edi. (Rim aholisining holati avval bahor osmoniga mengzalmoqda, erta bahorda kunora yomg‘ir yog‘adi). Ijodkorning (xayolan oti) o‘tkir qalami doim oldinga intiladi. U endi gado Rim haqida bizga badiiy haqiqatlar so‘zlaydi. Bolasini emizish uchun bir tomchi suti qolmagan onaning o‘z go‘dagini tosh ostiga bostirib o‘ldirishi- naqadar ayanchli epizod. Bu achchiq qismat egasi taqdirida, balki Usmon Nosir o‘z onasini ko‘rgandir: o‘gay ota zulmi ostida uydan quvilgan o‘g‘li bilan diydor ko‘risha olmay hayot kechirgan o‘z mazlum onasi xotiriga kelgandir...

"Esga solma, mehribonim,

Ko‘risha olmay diydor,

Ajralishib ketganimiz

Men ko‘chalarda xor...

Esga solma u mushtumzo‘r-

U xo‘jayinlarni:

Meni ko‘p qiynadi,

Jodi olib qo‘llarimni

Qonlarini ketkazdi,

Urib yuzlarimga u,

Holimni bitkazdi.

Bu va boshqa she’rlarda tasvirlangan va tasvirlanmay qolgan ko‘rgiliklardan bechora onaning xabari bor edi. Ammo undagi onalik mehri zulm qarshisida, g‘ayriinsoniy kuch qarshisida ojiz va ilojsiz qoldi." Naim Karimov. Usmon Nosir. Sharq. Toshkent.1993.s.31

Xulosa

Akademik Naim Karimov Usmon Nosirning "Nil va Rim" asarini "liro-tragik" doston deb ataganlar. Zero asarda asrlar osha davom etgan erksizlik fojialari maromiga yetkazib ochib berilgan. Mavzu markazida bo‘lgan Misrning ulkan daryosi Nil-" qullar to‘kkan yosh", va "qullar to‘kkan qon" deya, Rim esa "o‘yindan o‘lim kutgan jinni teatr" deya nomlanib, badiiy o‘xshatma qilinadi. Bu o‘xshatmalarni asarning xulosasi sifatida ham qabul qilish mumkin. Asarning kulminatsiyasini esa

" Ki tun qancha qora bo‘lsa, oy shuncha yorug‘

Spartakning lashkarlari hali ham borur..." ushbu misralar ifoda etadi. Shoir erksizlik butun umr davom etmasligini, haq deya, erk deya jonini tikkan o‘g‘lonlar hali ko‘p chiqajagini; yurtini, xalqini ozod qilmoq uchun kurashlar olib borishlarini, O‘zi ham bu harakatning yorqin yulduzi bo‘lajagini bashorat qiladi:

Mana menman, u isyonning o‘lmas avlodi

Mana menman, u qullarning hech so‘nmas yodi

Mana menman, falaklarga lov-lov o‘t qo‘yib

Otalarimning boshidan poydevor uyib

Kelajagim obidasin qurgan insonman

O‘sha qonman, o‘sha jonman va o‘sha shonman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Nosir Usmon, Nil va Rim, “Unutmas meni bog‘im”, She’rlar, dostonlar, she’riy drama. Toshkent, Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988. B.21-22
2. Naim Karimov. Usmon Nosir. Sharq. Toshkent.1993.
3. X.X. Mirzayev. Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi. Noyabr. 2023.s.131

IBROHIM HAQQUL TADQIQOTLARIDA CHO‘LPON SHAXSIYATI VA SHE’RIYATI TADQIQI

Qodirova Hamida,
NavDPI, O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
II kurs magistranti.
(O‘zbekiston)

Annotatsiya: Maqolada Ibrohim Haqqulning Cho‘lpon shaxsiyati, o‘zbek adabiyotidagi o‘rni, she’riyati va xorijda o ‘rganilishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Cho‘lpon, she’riyat, Qo‘qon muxtoriyati, “Baljuvon”

Annotatsiya: The article discusses Ibrahim HaqquL’s personality, his place in Uzbek literature, his poetry and his study abroad

Keywords: Cho‘lpon, poetry, Kokan autonomy, "Baljuvan"

Ibrohim Haqqul milliy, mafkuraviy zabunlik va erksizlikning miqyosi nihoyatda keng va g‘oyat qayg‘uli bo‘lgan davrlarda “so‘zning ilohiy kuch-quvvati, millat taqdiridagi roli va adabiyotning asl mohiyatini to‘g‘ri va teran anglay olganlar” orasida Cho‘lpon nomini ham alohida e’tirof etadi.[50] Ibrohim Haqqul “ijodining zamini va osmoni Vatan” bo‘lgan Cho‘lpon fojiasinng sababini esa o‘zini yurtning pok istakli shoiri deb bilgan va hech qachon pokiza istaklaridan kechmaganligida, ona Turkiston tuprog‘i kelgindi yovlar tomonidan toptalishiga qarshi munosabatini yashirmaganligida, deb ko‘rsatadi. Olim Cho‘lpon she’rlari tahliliga kirishar ekan, eng avvalo, cho‘lponshunoslikda tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilayotgan asarning tahlillariga nazar soladi. “O‘lka qayg‘usi” maqolasida keltirilgan “Buzilgan o‘lkaga” she’ri tahlili misolida bunga amin bo‘ lishimiz mumkin. I.Haqqulov I.Sulton, G‘ayratiy, O.Sharafiddinov va boshqa bir nechta adabiyotshunoslar qatorida o‘z davrida yaratilgan darsliklardagi fikrlarga ham murojaat qiladi. She’r haqida xato va uydurma fikrlarga qarshi olim O. Sharafiddinovning 1967-yilda yozilgan “Yillar va yo‘llar” maqolasidagi o‘sha davr uchun jasorat hisoblangan fikrlarini yoqlaydi.[51]

1921-yilda yozilgan “Go‘zal Farg‘ona” she’ri bilan “Buzilgan o‘lkaga” she’rining hamohangligini tarixiy voqealar bilan dalillaydi:

“Buxoroyi sharifning 1918-1920-yillardagi qismatini eslang.Xiva-chi?! Muarrixlarning ma’lumotlariga ko‘ra, 1918-yil 31-yanvarda berilgan farmondan so‘ng qizil qo‘shinlar Qo‘qon muxtoriyati hukumatini yo‘qotish uchun 5-fevraldan boshlab Qo‘qonga hujum qiladilar. Ikki o‘rtadagi janglar davomida Qo‘qon shahri uch kun yong ‘in ichida qoladi va 10 mingdan ortiq kishi halok bo‘ladi. 1918-yilning boshida Marg‘ilon shahrida 7000 ga yaqin, Andijon shahrida 6000, Namangan shahrida 2000, Bo‘zqo‘rg‘on va Qo‘qonqishloq tumanlarida 4500 ga yaqin turkistonli o‘ldiriladi.”[52] Olim ana shu voqealar asosida “Buzilgan o‘lkaga” she’ridagi fikrlarni yoqlaydi.

Ey, tog‘lari ko‘klarga salom bergan zo‘r o‘lka,

[50] Ҳаққулов И. Ҳаёт.адабиёт ва абадият. – Тошкент: “Тафаккур” нашриёти.2019 - Б.47.
[51] Qarang: Ҳаққулов И. Ҳаёт.адабиёт ва абадият. – Тошкент: “Тафаккур” нашриёти.2019 - Б.51-52.
[52] Ҳаққулов И. Ҳаёт.адабиёт ва абадият. – Тошкент: “Тафаккур” нашриёти.2019 - Б.53.

Nima uchun boshingda quyuq bulut ko‘lanka?[53]

I.Haqqul “quyuq ko‘lanka”ni - zo‘rlik, qo‘rqinch, o‘lka toleidagi qorong‘ulik timsoli deb biladi. Bu kulfatlarning ta’siri shu darajadaki, “Uchmohlarning kavsaridek pokiza, Sadaflarning donasidek top-toza, Salqin suvlar tog‘dan quyi tusharkan”, yig‘lar holatda:

“Yov bormi?... ” deb to‘rt tarafni tinglaylar… ,deya tahlil etadi.

Cho‘lponning boshqa she’rlari kabi qo‘ldan-qo‘lga o‘tib, sevib o‘qilgan she’rlaridan biri o‘zbek adabiyotida deyarli nomi tilga olinmay kelgan “Baljuvon” she’ridir. Cho‘lponning Turkiyadagi tadqiqotchisi Husayn O‘zboyning ta’kidlashicha, “Baljuvon” she’rini e’tiborga olmasdan, shoir adabiy shaxsiyati va ijodiyotiga to‘g‘ri baho berish mumkin emas. Jami 26 misrali bu she’rga I. Haqqulning bahosi esa mana bunday: “She’rning bag‘riga yashiringan tarixiy ma’no, ochiq faryod va tolesizlik alamini o‘nlab dostonlar tarkibiga ham sig‘dirib bo‘lmaydi ”[54] Bugina emas, she’rdagi boshlanmaning mazmuniga tayanib, bu oddiy ohang emas, marsiya ohanglari ekanligiga e’tiborimizni qaratadi:

Faryodim dunyoning borlig‘in bo‘g‘sin,
Umidning eng so‘nggi iplarin uzsin!

Keyingi misralardan motamning sababchisi yosh bir yigit ekanligini aniqlaymiz:

G‘azabdan titragan yosh bir yigitning
Toshdan siynasiga o‘qlar o‘rnashmish.
Tog‘larda erk uchun yurgan kiyikning
Qora ko‘zlariga motamlar kirmish.

She’rdagi “tog‘larda erk uchun yurgan kiyikning” kimligiga olim aniqlik kiritadi. “Anvar Posho Turk dunyosida bo‘lganidek, Islom olamida ham keng tanilgan mard va fidoyi bir insondir. Birinchi jahon urushigacha u Turkiyaning nufuzli siyosiy va harbiy arboblardan bo‘lib, kurashning qaltis va mashaqqatli yo‘llarini bosib o‘tgan”. Anvar Posho haqidagi tarixiy ma’lumotlarni olim bir nechta (Usmon Xo‘ja. “Anvar Posho Buxoroda qolsa edi…”,Shavkat Surayyo Oydemir. Makedoniyadan O‘rta Osiyoga, Anvar Posho.(3-jild),1988-yilda nashrdan chiqqan “Turk dunyosi tarixi” jurnalining 9-soni,)ilmiy, tarixiy manbalarga tayangan holda beradi. 1922-yilning 4-avgustida Baljuvonda shahid bo‘lgan istiqlol va mustaqillik umidi bo‘lgan Anvar Poshoning mash’um taqdiri Cho‘lponni befarq qoldirishi mumkin emas edi. Olim I. Haqqulovning ma’lumotlari nafaqat she’rning mohiyatini anglashimizda, balki Cho‘lpon asarlari nashrlari tarkibiga nima sababdan bu she’rning kiritilmaganligiga ham oydinlik kiritadi. Turkistonni qonga bo‘yagan mustamlaka siyosati yurtimizning ko‘plab mard va jasur farzandlari qatorida “Istiqlol ishqining ramzi” bo‘lgan Anvar Poshoni ham ayamagan. Ibrohim Haqqulning sinchilik mahorati bizga she’rning kulminatsion nuqtasi Baljuvonda to‘kilgan bu muborak qonning “tarixning rangini ozgartirgan qon” degan fikrlarida ekanligini ta’kidlashida yaqqol namoyon bo ‘ladi.

Tarixning rangini ko‘p qonlar bilan
Qoraytgan, to‘ldirgan biroq Baljuvon
Eng so‘nggi umidni qonga bo‘yagan,
Oh, qanday xayrsiz zamonlar kelgan!

USMON AZIM SHE’RIYATIDA FOLKLOR AN’ANALARI

Yavqocheva Gulnora
Navoiy davlat pedagogika instituti
O‘zbek til va adabiyoti fakulteti I-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: dots, f.f.f.d(PhD)M.Rizoyeva

[53] Чўлпон.Яна олдим созимни.- Тошкент.Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.1991.- Б. 415
[54] Ҳаққулов И. Ҳаёт.адабиёт ва абадият. – Тошкент: “Тафаккур” нашриёти.2019 - Б.60.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Usmon Azim she’riyatining o‘ziga xos jihatlari, folklordan foydalanish mahorati haqida so‘z boradi.

Аннотация: В данной статье рассказывается об особенностях поэзии Усмана Азима и мастерстве в использовании фольклора.

Annotation: This paper talks about the features of Usman Azim's poetry and his mastery in the using folklore

Kalit so‘zlar: she’riyat, xalqona ohang, xalq og‘zaki ijodi, maqol.

Ключевые слова: поэзия, народная мелодия, фольклор, пословица.

Key words: poetry, folk melody, folklor, proverb.

Har bir millatning turmush tarzi, orzu-umidlari,dunyoqarashi va qadriyatlari uning og‘zaki ijodida namoyon bo‘ladi. Ushbu tafakkur mahsuli bejizga folklor, ya’ni “xalq donoligi” deb nom olmagan. Hali yozma adabiyot vujudga kelmasdan, insoniyat quvvai hofizasida yashab kelgan og‘zaki ijodiyotni bebaho xazinaga qiyoslash mumkin. Adabiyot hamisha xalq ijodidan oziqlanib, foydalanib keladi. Xalq og‘aki ijodi yozuvchi, shoirlarimiz ilhom manbayi sifatida g o‘zal asarlar yaralishiga xizmat qilib kelmoqda. Usmon Azimning “Bashiyona” she’rlar turkumi ana shu ilhom yanglig‘ yaratilgan go‘zal obidadir. Xalq og‘zaki ijodi o‘zining betakror tarovati, o‘ziga xos usuli bilan insonlar qalbidan chuqur joy egallab kelmoqda. Shunday yozuvchi, shoirlarimiz borki, xalqona ohang, xalqona usul ular ijodining bir bezagi bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek adabiyotida folklor ta’siri natijasida juda ko‘plab asarlar yaratildi. Usmon Azim ham xalq og‘zaki ijodidan ruhlangan holda o‘zining “Baxshiyona” turkumini yaratib xalq ijodining yetuk bilimdoni ekanligini namoyish etdi. Ushbu turkumga kiritilgan she’rlar asosi folklorga borib taqaladi. Baxshiyona” uch qismdan iborat bo‘lib, har bir qism o‘zining xususiy va umumiy jihatlariga ega. Masalan, dastlabki qismdagi sakkiz dramatik ballada chuqur mantig‘i, falsafasi bilan, ikkinchi qismdagi “Baxshiyona” turkumi xalqona ruhi bilan, so‘nggi uchinchi qism esa yaxlit xoldagi yirik bir badiiy asarligi va undagi mazmunning o‘ziga xosligi bilan o‘zaro farqlanadi. Turkumdagi she’rlar har tomonlama: g‘oyasi, usuli, shakliy tuzulishi, kompozitsion qurilishi bilan xalq og‘zaki ijodi namunalarini yodga soladi. Satrlardagi soddalik, samimiylik, ohangning o‘ynoqiligi, bayon etish usuli xalqona. Bu turkum she’rlarda folklorning eng yetakchi, eng muhim va ta’sirchan g‘oyalari, motivlari, oxanglari, mohirona, zamonaviy ifodalanadi. She’rlarda turkum doirasidagina an’anaviy bo‘lgan Elbek baxshi, Elomon, Oqbotir, Qorabotir, Alpomish, Barchin, Qaldirg‘och kabi bir qator obrazlar ishtirok etadiki, sinchkovlik bilan e’tibor berilsa, muallif obrazlarning deyarli har birida o‘ziga xos bir ramziylikni ifodalashga xarakat qilganini sezish qiyin emas. Masalan, o‘z eli, vatani uchun fido bo‘lishga, jonini berishga, xatto haqiqatning ko‘ziga tik qarashga tayyor vafodor insonlar Oq botir timsolida, unga qaramaqarshi tomon vakillari esa Qora botir nomi ostida birlashtirilgan. Yoki ushbu ikki obraz yuqoridagilarni mantiqan o‘z mezonlari mexvariga qamrab oladi[2.56]. “Baxshiyona” turkumining yana bir o‘ziga xos xususiyati – bu she’rlarning deyarli barchasi baxshi tilidan ya’ni, Elbek baxshi tomonidan do‘mbira jo‘rligida aytilganidiridir. Shoir zoti borki, ishqni kuylaydi, mehr-muhabbatni ulug‘laydi. Usmon Azimning ushbu turkumidagi she’rlar ham ishqnoma tarzida yangraydi, ko‘ngillarga taskin, tasalli beradi. Shu bois bo‘lsa kerak ushbu she’rlar qo‘shiqqa aylanib, xofizlar tilidan, xalqimizning dilidan tushmay kelmoqda. Asarda “Elbek baxshi bir kambag‘alning to‘yini gurillatib, necha kampirqizlarning yuragini dirillatib, ovuliga qaytib kelayotgan” da bir karvonga duch keladi. Karvon atrofi otliqlar bilan to‘la. Shu payt sevganidan ayrilib bo‘zlab borayotgan yori Oytumanning ovozi eshitiladi. U yig‘lab-yig‘lab dard-u holini bayon qilib borardi. O‘zining orzularining armonga aylanishini kuzatib turgan baxshi yorini qo‘shiq aytib kuzatadi. Asarning qolgan qismlarida Alpomish va uning sarguzashtlari tasvirlanadi. Alpomishning mardlar bilan olishuvi, hiyla sabab Qalmoqqa asir tushishi nazr va nazm uyg‘unligida bayon qilinadi. Ushbu qismda “Alpomish” dostoni motivlari stilizatsiya qilingandir. Biroq shoirning topilmalari, yangiliklari ham bisyor. Usmon Azim doston motivlarini “baxshiyona” she’riy shakli yordamida stilizatsiya qiladi. Motiv stilizatsiyasi janr tanlamaydi, albatta. Usmon Azimning “Alpomish”dagi “G‘ozning xat yetkazishi” motivini nasriy yo‘l bilan stilizatsiya qilgani shu ma’noda e’tirofli. Shoir dostondagi Alpomishning qalmoqqa ikkinchi ` 89 «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy,

masofaviy, onlayn konferensiya safari, Alpomishning qalmoqdan qaytmagani, g‘ozning xat yetkazishini stilizatsiya qilgan. [4.112]. Alpomish Qalmoqqa ketayotib Barchinga qarab shunday deydi: Olamda ko‘p erur ibora, Bir so‘z bor – og‘riqdan iborat. U – Vatan! Barchinim, u – Vatan! Bolamga, “Vatan” de ilk bora”.[1.179] Baxshiyona ohanglar Usmon Azim ijodida uslubiy jilvalardan she’riy turkum darajasiga ko‘tarila bordi. Uning “Baxshiyona” turkumida Elbek baxshining mukammal obrazi yaratilganiga ko‘ra “Baxshiyona” she’rlar turkumini hatto o‘ziga xos doston, deb atash mumkin. Usmon Azim baxshiyona ohanglarga murojaat etishining tub sababi, u tug‘ilgan yurtda baxshichilik an’analarining qadrlanganidir. Aslida xalq og‘zaki ijodidan ta’sirlanmagan va uning boyliklaridan foydalanmagan ijodkorlar ko‘p, deb bo‘lmaydi. Lekin Usmon Azim uslubini belgilaydigan yetakchi xususiyat shundaki, u go‘yo baxshi bo‘lib kuylaydi, baxshining kuylash mahorati va uslubini o‘ziga singdiradi, bu ruh beixtiyor asarlariga ko‘chadi. Shoir she’riyatida xalq adabiy syujetlaridan foydalanish badiiy tamoyil darajasiga ko‘tariladi. Usmon Azim ijodi serqirra g‘oyalarga boy. Shoirning lirik va epik she’rlari bir ummon. Ularning asos mohiyati ishq muhabbatdan iborat va biz ularning ayrim namunalari bilan tanishdik. Shoir she’rlari ko‘pincha aqliy muhokamalar bilan qorishib ketgan. Bu esa jiddiylik hamda donishmandlik samarasi va alomati. Zamon bilan hamnafas shoir she’rlari mazmundor va bugungi hayot ohangini aks ettirayotgan go‘zal asarlardir. Baxshiyona ohangdagi she’rlari xalqona va o‘ynoqi xususiyati bilan alohida ajralib turadi. Bu xalqona va o‘ynoqilik zamirida juda katta falsafiy donishmandlik va ijodiy tajriba yotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmon Azim. Sog‘inch: She’rlar. –Toshkent: O‘zbekiston, 2007. – 200 b.
2. Tohir Shermurodov. Usmon Azim ijodiyoti. – Toshkent, 2011. – 204 b.
3. Umurov H. Ehtiyoj tafti. – T.: O‘zbekiston, 2009. 53-bet.
4. Sharipova L. XX asrning 70-80-yillari o‘zbek she’riyatida folklorizm. – Toshkent: Fan, 2011. – 153

JAHON FOLKLORSHUNOSLIGIDA RAMZ VA TIMSOLLARNING O‘RGANILISHI
ИЗУЧЕНИЕ СИМВОЛОВ И ЗНАКОВ В МИРОВОМ ФОЛЬКЛОРЕ
THE STUDY OF SYMBOLS AND EMBLEMS IN WORLD FOLKLORE

Gulmurodova Dilshoda Qobil qizi
Navoiy davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-bosqich magistranti
abduraxmanovadilshoda75@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon folklorshunosligida ramz va timsollarning o‘rganilishi masalasi tadqiq etilgan. Tadqiqot usullari sifatida qiyosiy-tarixiy, tipologik, struktural-semiotik tahlil usullari qo‘llanilgan. Folklorshunoslikda ramz va timsollarning nazariy asoslari, tasnifi, talqini bo‘yicha xorijlik va mahalliy olimlarning qarashlari tahlil qilingan. Jahon xalqlari og‘zaki ijodidagi ramz va timsollar misolida ularning universalligi va milliy xususiyatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ramz va timsollar insoniyatning arxaik tafakkuri va dunyoqarashini aks ettiruvchi vositalardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: folklorshunoslik, ramz, timsol, arxetip, mif, metafora, xalq og‘zaki ijodi, milliylik, badiiylik

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос об изучении символов и знаков в мировом фольклоре. В качестве методов исследования использовались методы сравнительно-исторического, типологического, структурно-семиотического анализа. В фольклористике проанализированы взгляды зарубежных и отечественных ученых на теоретические основы, классификацию, толкование символов и символов. На примере символов и символов в устном творчестве народов мира раскрываются их универсальность и национальные особенности. Результаты исследования показывают, что символы и знаки приобретают все большее значение как одно из средств выражения архаичного мышления и мировоззрения человечества.

Ключевые слова: фольклор, символ, знак, архетип, миф, метафора, устное народное творчество, национальность, артистизм

Abstract: this article explores the question of the study of symbols and emblems in World Folklore. Comparative-historical, typological, structural-semiotic analysis methods were used as research methods. In folklorology, the views of foreign and domestic scientists on the theoretical foundations, classification, interpretation of symbols and symbols are analyzed. On the example of symbols and symbols in the oral creativity of the peoples of the world, their universality and national characteristics are revealed. The results of the study show that symbols and emblems are important as one of the tools that reflect the archaic thinking and worldview of mankind.

Keywords: folklore, symbol, emblem, archetype, myth, metaphor, folk oral creativity, nationalism, artistry

KIRISH

Ramz va timsollar insoniyat madaniyati tarixida muhim o‘rin tutadi. Ular nafaqat badiiy adabiyotda, balki xalq og‘zaki ijodida ham keng qo‘llaniladi. Folklor asarlaridagi ramz va timsollar xalqning dunyoqarashi, orzu-umidlari, qadriyatlarini ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu bois ularni o‘rganish jahon folklorshunosligining dolzarb masalalaridan biriga aylangan.

Ramz haqidagi dastlabki qarashlar qadimgi Yunoniston va Rimda shakllangan bo‘lib, Arastu, Aflotun, Sitseron kabi mutafakkirlar asarlarida o‘z aksini topgan [1, 25-b.]. O‘rta asrlarda ramzlarni diniy-falsafiy talqin qilish keng tarqalgan. Masalan, Foma Akvinskiy, Dante Aligeri kabi olimlar ramzlarni ilohiy sirlarni anglashning kaliti sifatida talqin etganlar [2, 112-b.]. Urmanism davrida ramzlarning dunyoviy talqini yuzaga kelgan. Italyan olimi Marsilio Fichino timsollarni olam va odam haqidagi ezoterik bilimlarning in'ikosi sifatida qaraydigan bo‘ldi [3, 68-b.].

XVII-XVIII asrlarda ramzlarni mantiqiy-ratsional jihatdan o‘rganishga e’tibor kuchaydi. Nemis faylasufi G.V.Leybnits ramzlarni "universal til" yaratishda qo‘llash mumkinligini ta’kidlagan [4, 158-b.]. J.Lakoff va M.Jonson metaforaning inson tafakkurida tutgan o‘rnini ko‘rsatib bergan [5]. Hozirgi davrda jahon folklorshunosligida ramzlar va timsollarni o‘rganishning turli yo‘nalishlari mavjud.

USULLAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda qiyosiy-tarixiy, tipologik, struktural-semiotik tahlil usullaridan foydalanildi. Ramz va timsollarning kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyotini ko‘rsatish uchun qiyosiy-tarixiy usul qo‘llanilishi bilan ahamiyali. Turli xalqlar folklorida kuzatiladigan o‘xshash ramz va timsollarni aniqlashda tipologik usul samarali bo‘ldi. Ramzlar sistemasini semiotikaning "matn" va "til" tushunchalari asosida o‘rganish struktural-semiotik tahlil imkonini berdi.

Tadqiqotda ramzlar nazariyasiga oid xorijlik va mahalliy olimlarning ilmiy asarlari tahlil qilindi. Jumladan, K.G.Yungning arxetiplar haqidagi qarashlari [6], A.N.Veselovskiyning "Tarixiy poetika" asari [7], V.Ya.Propp [8], E.M.Meletinskyning [9] struktural-tipologik tadqiqotlari folklorshunoslikdagi ramzlar talqinining ilmiy-nazariy asoslarini belgilab beradi.

Tadqiqotchi E.Pirmuxamedovning fikrlariga ko‘ra: "xalq ijodi namunalaridagi obrazlarda asrlar davomida sayqallanib, silliqlanib, yanada takomillashib, uzoq tarixiy taraqqiyotda ilgari surilgan ijtimoiy ideallar, xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, orzu-umidlari o‘ziga xos badiiy-ramziy shaklda mujassamlangan" [10, 33-b.]. B.Sarimsoqov ramz va timsollarning qo‘llanishiga ko‘ra "motivlar - barqaror va o‘zgaruvchan" ikki turga ajratadi [11, 129-b.]. Demak, ramzlarning paydo bo‘lishi, evolyutsiyasi uzoq tarixiy jarayonlarni bosib o‘tgan bo‘lib, ularni tizimli o‘rganish katta ilmiy ahamiyatga ega.

NATIJALAR

Ramzlar inson ongida uzoq evolyutsiya jarayonida shakllangan universal vositalardir. K.G.Yung ta’limotiga ko‘ra, ramzlar inson ruhiyatining "kollektiv ongsizlik" qatlamiga xosdir [6, 103-b.]. Ular xalqlarning qadimiy mifologik tasavvurlaridan kelib chiqib, keyinchalik yangi mazmun va vazifalar bilan boyib borgan. Arxaik davr miflarida ramz va timsollar hali aniq farqlanmagan bo‘lsa, keyinchalik badiiy til taraqqiyoti bilan ular tabaqalashib borgan.

Turli xalqlar og‘zaki ijodida o‘xshash ramz va obrazlar uchraydi. Masalan, jon (ruh) qushi obrazi ko‘plab xalqlar mifologiyasi va folklorida mavjud [12, 94-b.]. Bu esa ramzlarning universal

xarakterga ega ekanini koʻrsatadi. Ayni paytda, ramzlar milliy xususiyatlarga ham ega. Masalan, gʻoʻza Oʻzbekistonda farovonlik, hosildorlik ramzi boʻlsa, Hindistonda bu ramzni nilufar guli bajaradi.

Folklorda tabiat obrazlari - togʻ, daryo, daraxt kabi ramzlar alohida oʻrin tutadi. Ular insonning tabiat bilan munosabatini ifodalaydi. Xalq qoʻshiqlarida sevgi-muhabbat, ayriliq va hijron kechinmalari ham koʻpincha tabiat timsollarida ifodalanadi. Oʻzbek xalq qoʻshiqlarida bul-bul va gul, oy va yulduz, quyosh kabi ramzlar shular jumlasidandir [13, 25-b.].

TAHLIL VA MUHOKAMA

Ramz va timsollarni tahlil va talqin qilishda turli qarashlar mavjud. V.Ya.Propp xalq ertaklaridagi ramzlarni sehrli qahramonlar bilan bogʻliq syujet tuzilmasining asosiy birligi sifatida talqin etadi [8, 163-b.]. Uning fikricha, konkret ertak syujetida sehrli yordamchilar turlanishi mumkin, lekin ularning bajaradigan vazifasi (qahramonga yordam berish) oʻzgarmas qoladi. Bu esa sehrli yordamchilar obrazining ramziy xarakterga ega ekanini koʻrsatadi. *(Xuddi shunga 1-2 ta misol aniq keltir) Masalan: Yomonning doʻsti koʻp, Piyozning doʻsti)tahlil qil keyin. Yoki qoʻshiqlarda misol bilan.*

E.M.Meletinskiy xalq qahramonlari obrazining ramziyligi uning mifologik arxetipi bilan bogʻliqligini ta'kidlaydi [9, 39-b.]. Olimning bu qarashi ramz va obrazlar genezisini, ularning tarixiy-genetik ildizlarini tushunishda muhimdir.

Oʻzbek xalq dostonlarining asosiy qahramonlari - Alpomish, Goʻroʻgʻli va boshqalar xalqning orzu-istaklarini ramziy tarzda mujassam etadi [14, 147-b.]. Ular xalqqa xos fazilat va xislatlarning yorqin timsoli boʻlib, badiiy idrok taraqqiyotining yuksak bosqichini ifodalaydi. Bu obrazlar badiiy-estetik va axloqiy tamoyillarning ramziy ifodasidir.

XULOSA

Jahon folklorshunosligida ramzlar va timsollarni ilmiy oʻrganish XIX asrning oxirlaridan boshlangan boʻlib, hozirgi kunda ham bu yoʻnalish dolzarb sanaladi. Xorijlik va mahalliy folklorshunos olimlar ramz va timsollarning nazariy asoslari, kelib chiqishi, tasnifi, talqini singari jihatlarini tahlil etgan. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, ramzlar va timsollar xalq ogʻzaki ijodi stilistikasida muhim rol oʻynaydi. Ular xalqning fikrlash tarzi, olamni idrok etish tamoyillarini aks ettiradi. Folklordagi ramzlar xalq dunyoqarashi evolyutsiyasining mahsulidir.

Jahon xalqlari ogʻzaki ijodidagi keng tarqalgan ramzlar orasida jon (ruh) qushi, daraxt, ot, gul va bulbul, oy va quyosh kabi obrazlarni sanab oʻtish mumkin. Ular folklor asarlari mazmunini ifodalashdagi badiiy-estetik funktsiyasi bilan alohida ajralib turadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni ramzlarning paydo boʻlishi va takomillashuvi xalq estetik tafakkuri taraqqiyoti bilan uzviy aloqador. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ifoda etuvchi vosita sifatida ramz va timsollarning ahamiyati beqiyosdir.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Losev, A.F. Problema simvola i realisticheskoe iskusstvo [The problem of symbol and realistic art]. Moscow: Iskusstvo, 1995. - S. 25.
2. Gurevich, A.Ya. Kategorii srednevekovoy kuL'tury [Categories of medieval culture]. Moscow: Iskusstvo, 1984. - S. 112.
3. GorfunkeL', A.X. Filosofiya epoxu Vozrozhdeniya [Philosophy of the Renaissance]. Moscow: MysL', 1980. - S. 68.
4. Leybnits, G.V. Sochineniya v 4 tomax [Works in 4 volumes].Vol. 3. Moscow: MysL', 1984. - S. 158.
5. Lakoff J., Johnson M. Metafory, kotorymi my zhivem [Metaphors We Live By]. Moscow: Editorial URSS, 2004.
6. Yung, K.G. Arxetipi simvol [The Archetype and the Symbol]. Moscow: Kanon, 1991. - S. 103.
7. Veselovskiy, A.N. Istoricheskaya poetika [Historical poetics]. Moscow: Vysshaya shkola, 1989.
8. Propp, V.Ya. Istoricheskie korni volshebnoy skazki [The historical roots of the fairy tale]. Leningrad: Izd-vo LGU, 1986. - S.163.

9. Meletinskiy, E.M. O literaturnyx arxetipax [On literary archetypes]. Moscow: RGGU, 1994. - S. 39.
10. Pirmuxamedov E. O‘zbek xalq ijodida badiiy tasvirning asosiy usullari [The main methods of artistic representation in Uzbek folklore].Toshkent: Fan, 2010. - B. 33.
11. Sarimsoqov B. Epik janrlar diffuziyasi [Diffusion of epic genres]. Toshkent: Fan, 1982. - B. 129.
12. Jalolov T. Alpomish dostonining genezisi va tipologiyasi [Genesis and typology of the Alpamysh epic]. Toshkent: Fan, 1994. - B. 94.
13. Safarov O. O‘zbek xalq qo‘shiqlarida obrazlar tizimi [The system of images in Uzbek folk songs]. Toshkent: Fan, 1989. - B. 25.
14. Mirzaev T. Alpomish dostonining o‘zbek variantlari [Uzbek versions of the Alpamysh epic]. Toshkent: Fan, 1968. - B. 147.

JAMOL KAMOL SHE’RIYATIDA BADIIY TIMSOLLAR AN’ANAVIYLIGI

Bazarova Xolida Ergashevna,
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi
e-mail: holidabozorova@gmail.com tel: +998 91 253 73 38

Annotatsiya: An’anaviylik trazditsiyasi bor ekan, bugun ertadan madad olaveradi, qachonlardir qaynagan buloq ming yilla o‘tsa ham, o‘z sharbatidan kelgusi avlodlarn bahramand etaveradi. Mazkur maqolaning bosh mohiyati an’anaviylik, vorisiylik tamoyillariga qaratilgan bo‘lib, unda taniqli so‘z ustasi Jamol Kamol qalamiga mansub she’rlarda mumtoz adabiy janrlarda qo‘llangan badiiy timsollarni qo‘llash an’anasi, maqomi, maromi, unda shoirning mahorati kabilarga e’tibor qaratilgan. Tahlilga shoirning „Suvaydo“, „Asr bilan vidolashuv“, „Anvarmirzo hikoyalari“ majmualariga kirgan ko‘plab she’rlar olingan. She’rlarda qo‘llangan oshiq, ma’shuqa, bulbul singari obrazlarning ifodalanishi borasida mulohazalar qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: „Suvaydo“, „Asr bilan vidolashuv“, „Anvarmorzo hikoyalari“; Alisher Navoiy, „Navodir ush-shabob“ kulliyoti; oshiq, bulbul; ma’shuqa, muhabbat, dilbar, jono obrazlari

Аннотация: Пока существует традиция традиции, сегодня продолжит получать помощь от завтрашнего дня, даже если пройдет тысяча лет, некогда вскипевший родник будет продолжать наслаждаться своим соком для будущих поколений. Основная суть данной статьи сосредоточена на принципах традиции и наследования, в которых рассматриваются традиция, статус, церемониальность использования художественных символов, используемых в классических литературных жанрах в стихах, написанных известным мастером слова Джамалем Камалем, и внимание сосредоточено на мастерстве поэта. Проанализированы многие стихотворения, вошедшие в сборники поэта «Сувайдо», «Прощание с веком», «Рассказы Анвармирзы». Отмечены мнения о выраженности используемых в стихотворениях образов любовника, любовницы, соловья.

Ключевые слова: «Сувайдо», «Прощание с веком», «Истории Анварморзо»; Алишер Навои, «Наводир Уш-Шабаб» Куллият; любовник, соловей; образы любовника, любви, чаровницы, души

Annotation: As long as there is a tradition, today it will continue to receive help from tomorrow, even if a thousand years have passed, the spring that once boiled will continue to enjoy its juice for future generations. The main essence of this article is focused on the principles of tradition and inheritance, in which the tradition, status, ceremony of using artistic symbols used in classic literary genres in the poems written by the well-known master of words Jamal Kamal, and the skill of the poet attention is focused on. Many poems included in the poet's collections

"Suwaydo", "Farewell to the Century", "Anvarmirza's Stories" were analyzed. Opinions about the expression of images such as lover, mistress, and nightingale used in the poems are noted.

Key words: "Suwaydo", "Farewell to the century", "Stories of Anvarmorzo"; Alisher Navoi, "Navodir Ush-Shabab" Kulliyat; lover, nightingale; images of lover, love, charmer, soul

Mumtoz badiiy nazm oshiq, ma'shuqa va ag'yor uchligidan iborat obrazlar asosiga qurilgan. Ijodkorlar o'z hayotiy qarashlarini ana shu obrazlar mizolida ifodalash bilan mahoratlarini namoyish etganlar. Demakki, oshiq-bulbul, ma'shuqa-yor-dildor, raqib- dushman-it va hokazo. Ana shu tanosubiy zanjir ijodkorlar qalbiga ilhom solib, uni junbishga keltirgan. O'ziga xos kononik tamoyil asosida bu an'ana tusini olib, asrlar osha bizning davrimizga ham yetib keldi. O'z davrida Navoiy, Bobur, Xorazmiy, Ogahiy davom ettirgan san'at bugun zamonaviy o'zbek she'riyatining zabardast vakillari ijodida ham o'z mavqe va darajasini namoyish etib turibdi. Zamonaviy she'riyatning bugungi qiyofasi hamda unda ijod qilayotgan so'z ustalarining san'atkorligiga yetarli baho berishda she'riyatimizning mumtoz nazm hamda uning buyuk vakillari ijodi bilan bog'liqligini tahlil qilish adabiyotshunoslik oldida turgan dolzarb vazifalardan. Bu vazifa tahlil va tadqiqotni talab etadi. Mazkur tahlil ana shu maqsadga asoslangan.

Mumtoz she'riyatda „yor" timsoli orqali go'zal sanam tasvirlanishi bilan unga nisbatan „dilbar", „jonon", „gul", „muhabbat"; oshiq obrazi tasvirida „bulbul", „ma'shuq" atamalari qo'llangan. Ammo ijodkorlar bu bilangina cheklanmasdan ushbu timsollar orqali ijtimoiy munosabatlarni ham ko'rsata olganlar. Bu hodisa, ayniqsa, XX asr she'riyatida odatiy holga aylandi. Jamol Kamol she'rlarida an'anaviy badiiy timsollar: oshiq, ma'shuqa, raqib, do'st singari yangicha talqinlarda, ya'ni shoirning olam va odam, hayot va ijtimoiy muhit bilan bog'liq qarashlarining keng ifodasi o'laroq yuzaga chiqadi. Mumtoz adabiyotda eng keng mavzu ishqiy mavzudagi yaratiqlar bo'lgani kabi, yuqorida ta'kidlanganidek, faol obrazlar ham, darhaqiqat, oshiq, ma'shuqa va ag'yor sanaladi. Jamol Kamol she'riyatida ham bu timsollar "dilbar", "yor", "dildor" "ey yori guluzor", "jono", "muhabbatim"; oshiq "kaptar", "bulbuli devona", "oshiq bulbul", "ul", "ko'ngil" obrazlarida gavdalantiriladi. Shoirning poetik mahorati shundaki, u bu obrazlarni faqat oshiq-ma'shuqa munosabatlarini ifodalashda emas, balki ijtimoiy mavzularda yaratgan she'rlarida ham go'zal tanosubiy timsollar darajasiga ko'taradi.

Navoiy hazratlari bir g'azallarida yorga:

"Dilbaro, sendin bu g'amkim, menda bordur, kimda bor?

Furqatingdin bu alamkim, menda bordur, kimda bor?" [Navoiy., 2023-yil.-S.78]-deya murojaat qiladilar, Jamol Kamol:

Dilbarim qoshiga bordim kecha, aytdim aytarim,

Aytarim aytdim, tamanno birla kuldi dilbarim,-tarzida yor obrazini navoiyona istifoda etadi. [4.Jamol Kamol.,2018-yil.-S.40]

Shuni ham qayd etish lozimki, mumtoz adabiyotni tasavvuf ta'limoti tamoyillarisiz tasavvur qilish imkonsiz. Ya'ni yor tasviri haqida gap ketganida, bu obraz timsolida Yaratgan anglashiladi. Jamol Kamol g'azaliyoti ham ushbu tamoyilga xos an'anani munosib saqlay olgan:

Dilbar, yana kiprik bila

Shahloni yashirma.

Lab tashna bu yoring

O'sha daryoga yetishdi. [3.Jamol Kamol.,2018-yil.-S.218]

Mazkur g'azalda "dilbar" timsoli an'anaviy ma'shuqa, ya'ni Allohni ifodalagan bo'lsa, shoir o'zining ona tiliga bo'lgan mehr-muhabbatini ham aynan shu so'zda jonlantirish tasvir vositasini qo'llash bilan so'z ma'nosini o'ziga xos kengaytiradi:

Dilbarimsan shu jahonda,

Dilrabo o'zbek tilim,

Ham go'zalsan, ham asal,

Ohanrabo o'zbek tilim.[4.Jamol Kamol.,2018-yil.-S.85]

Kechalarini bedor, xayollarini parishon etgan tuyg‘u-muhabbat haqida kim ham she’r yozmagan, bu tuyg‘u kimga ham ilhom bermagan, deysiz. Muhabbat asosiga qurilgan she’riyat olami! Hazrat Navoiy -ana shu muhabbat olamining podshosi:

Nasli odam bo‘lmadi hargiz **muhabbat** (1) mazhari,

Ul nimakim bilmagay odam, qachon bilsun pari.

Xo‘blar husnin qazo mashshotasi ko‘p qildi zeb,

Anda yuz ming hayfkim, yo‘qtur vafoning zevari.

Men kebi aylab vafo, ko‘rgan jafo topilmag‘ay,

Axtarilsa sarbasar ahli **muhabbat** (2) daftari.

Ey ko‘ngul, jinsi bashardin sen vafo ko‘z tutmakim,

Yo‘qturur bu xayl zotida **muhabbat(3)** javhari… [Navoiy.,2023-yil.-S.312] Mutafakkir Alisher Navoiy “muhabbat” tuyg‘usini qimmatbaho dur-javhar(3)ga qiyos etib, shunday buyuk his sohibi dunyo oshiqlari haqidagi barcha yodnomalar(2)ni izlaganda ham, topilmasligini qayd etadilar. Muhabbat dardiga yo‘liqqanlarni nasli odam safiga qo‘shib bo‘lmas, zero, bu shunday murakkab ilmki, inson bilmadimi, pari sira ham anglay olmas! Ko‘rinadiki, Navoiy muhabbat deyilganda dastlab tuyg‘u(1), keyin oshiqlar makoni-olam-muhabbat olami(2), shunchaki sevish, yaxshi ko‘rish, yoqimli bo‘lish(3) hissi kabi sifatlarda tasvirlab, muhabbat so‘zi bilan bog‘liq tanosub zanjirini hosil qiladilar. Navoiyning quvvai hofizasi shunchalik kuchliki, shoir “muhabbat” atamasidan “hirs qo‘yish” ma’nosida ham qo‘llagan:

Oltin, kumushga hirs man’ikim tutmog‘i ilikni qora qilur va muhabbati ko‘ngulni

Ko‘p oltun, kumush sari qo‘l so‘nmog‘il,

Ki tutsang kafingni qora zang etar,

Ko‘ngulda dog‘i maylini asrama,

Ki, ko‘nglungni dog‘i hamul rang etar. [Navoiy.,2023-yil.-S.360]

Jamol Kamol ham o‘z she’rlarida muhabbatni tasvirlaydi. Muhabbat mavzusi vatan, xalq, yor, farzand, olam hamda Yaratganga mehr qaratish bilan shoir o‘z nuqtayi nazarini “Yagona muhabbatim” she’rida umumlashtiradi:

Yigit yoshim bo‘y cho‘zib, qaddim raso bo‘lganda,

Jonim tanamga sig‘may, orzularga to‘lganda,

Gul-chechaklar yo‘limda ishva bilan kulganda,

Solding yurakka otash, yagona muhabbatim,

Tongotarda yulduzdek afsona muhabbatim. [4.Jamol Kamol.2018-yil.-S.53]

Ko‘rinadiki, bandda Alloh “muhabbat” timsolida obraz darajasiga olib chiqilgan. Yoshining ayni to‘lib-toshgan, zavqqa-shavqqa to‘lgan bir pallasida ko‘ngliga tushgan cho‘g‘

insonni ishq otashiga giriftor qiladi. G‘oyatda tabiiy bo‘lgan bir holatni Ollohdan berilgan inoyat deb qabul qilish, ya’ni “Solding yurakka otash, yagona muhabbatim” tarzida tasvirlash- shoirga tan. Ammo bandning beshinchi misrasida “muhabbat” asl, mavhum ot sifatida, ishq, sevgi ma’nosida qo‘llanishi go‘yoki oshiqning qalbida o‘rnashgan go‘zal tuyg‘u hech misli ko‘rilmagan, shirin dard afsonasining o‘zi edi. Muxammasning keyingi bandlarida “muhabbat” timsoli hayot yo‘ldoshi-inson, sevikli umr yo‘ldosh obraziga aniqlashtiriladi:

Ko‘rdim yuzingni, ohim dunyo bilan tutashdi,

Ishqim ovoza bo‘ldi, savdo bilan tutashdi,

Oshiq bulbul chamanda ra’no bilan tutashdi,

Bo‘lding uyim chirog‘i, hamxona, muhabbatim,

Ey shu yorug‘ dunyoda yagona muhabbatim.

Jamol Kamolning ishq mavzusida bitgan she’rlari talaygina. Bu she’rlarda yor go‘zalligi, suvrati, siyrati qalamga olingan. Ijodkorning so‘zda benazirligi shundaki, u bir so‘zdan turli ma’no va shakllarda foydalana oladi. Jumladan, ijodkor “jono”, “jonon” so‘zlarini o‘z ma’nosida ma’shuqa, sevgili yor ma’nosida an’anaviy tarzda qo‘llaydi:

Bir ko‘rib, jono, Jamoling

Chekdi andoq bir navo,

Holini ko‘rganlar aytsin,

Holati qandoq emish…[6.Jamol Kamol.,1983-yil.-S.135]

G‘azal mumtoz she’riyatning eng sara janrlaridan sanaladi. So‘z qo‘llashda, fikr ifodalashda, poetik mahorat ko‘rsatishda benazir janr. G‘azal janrining qadimdan mavjudligi, Rudakiy, Rumiy, Tabriziy, Navoiy, Atoyi singari ko‘plab g‘azalnavislar tajribasining beqiyosligi, devon tuzishda ham alifbodagi barcha harflarga tugaydigan so‘zlardan iborat g‘azal yozishlik talabining qo‘yilishi, uning tuzilishiga ko‘ra, shuningdek, mavzusiga ko‘ra turlarining ko‘pligi singari imkoniyatlar unda ijod qiluvchilarning ham salmoqli bo‘lishiga sabab bo‘la oladi, albatta. Shundan, ijodkorlar bu janrlarga nisbatan o‘z munosabatlarini ham ochiq-oydin, zavq-shavqqa to‘lib izhor etadilar, go‘yo janrni jonlantirib, obraz darajasiga ko‘taradilar. Mamlakatimizda qariyb bir asr davom etgan ushbu janrga nisbatan tazyiq davri oqibatlariga qaramasdan Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Asqar Mahkam, Nodira Afoqova singari shoirlar ijodida g‘azalning betakror namunalari yaratildi, boyitildi. Jamol Kamol ijodida ham g‘azalning yuzlab namunalari qog‘ozga tushirilgan. Xususan, shoir ushbu janrga nisbatan alohida e’tirof bilan yondashadi. O‘z qalbiga tushgan otashning ham sababchisini g‘azalda deb bilgan shoir shunday yozadi:

Soldi shaydolikka jonimni

Ajab shaydo g‘azal.

Solmasa jonimga shaydolik,

Nechun paydo g‘azal. [3.Jamol Kamol.,2018-yil.-S.175] Shoir qalbida o‘zi ijod qilayotgan janrga nisbatan mehr-muhabbat bo‘lishi tabiiy jarayon. Jamol Kamol nafaqat o‘z qalb kechinmalarini, balki “g‘azal”ni obraz darajasiga ko‘taradi, uni go‘yo sevgili yor qiyofasida

tasvirlaydi. Bag‘oyat ustakorlik bilan g‘azalning o‘zbek she’riyatiga arab va fors-tojik adabiyotidan kirib kelganiga ham ishora qilib o‘tadi:

Gohi Mashriqdan kelar ul,

Gohi Mag‘ribdan ravon,

Mag‘rib-u Mashriqqa birdek

Sevgili, jono g‘azal. …[6.Jamol Kamol.1983-yil.-S.128].

Albatta, shoirning tafakkur olami uning so‘z qo‘llashdagi mahoratida namoyon bo‘ladi. Shu sifat “so‘z teruvchilar”ning eng go‘zal sifatidir. Quyida keltirilgan g‘azalda Jamol Kamol “jonon” so‘zini joy, vatan, qadrdon go‘sha ma’nosida qo‘llab, g‘oyatda ta’sirchan ifodani yaratadi:

Uy emasdir faqat, sarmanzili jonon erur,

Shu munavvar oshiyon sendan qolur-ku, mandanam. [4.Jamol Kamol.,2018-yil.-S.29]

Shu tariqa shoir ijodida ma’shuqa ma’nosida qo‘llanuvchi “jono” so‘zi o‘z o‘rnida yorni, boshqa o‘rinda g‘azal, ya’ni she’riyatni, hatto manzil-makon ma’nosini ifodalaganining ham guvohi bo‘lamiz. Shoir ijodida bu kabi misollar juda ko‘plab uchraydi, mumtoz adabiyotga xos an’anaviy obrazlar shu taxlit tanosublashib boradi.

An’anaviy mumtoz adabiyotda “bulbul” timsoli oshiq obrazini ifodalaydi. Bulbul (oshiq) gul (ma’shuqa) hajrida nolon, oh-zor chekuvchi lirik qahramon timsoli bo‘lib, uning kuylashi ishq yo‘liga kirgan solikning goh Allohga, goh ma’shuqaga bo‘lgan muhabbatini ifodalaydi.

Gul sari boqmadi bulbul, chunkim

Ko‘rdi gulgasht etasen gulshan aro. [Navoiy.,2023-yil.-S.12] Darhaqiqat, chamanda sayr qilib yurgan Yorni ko‘rgach, bulbul-da gulga qiyo boqmas yoki oshiq dardini o‘zida tuygan bulbul o‘z nolasi bilan chamandagi barcha gullarni yoqib yubormog‘i-da mumkin:

Chamanda barcha gul o‘rniga solg‘ay o‘t, bulbul

Mening fig‘onim ila bir kun o‘lsa nag‘masaro. [Navoiy., 2023-yil.-S.19]

Jamol Kamol ijodida “bulbul” obrazi lirik qahramon sifatida oshiq, shoir, ya’ni ijodkor qalb timsollarida qo‘llanganining guvohi bo‘lamiz.

Gulshani jonim bugun

Sayri chamanlik bog‘ emas,

Bulbuli ruhim nechun

jimdir yana, sayroq emas [4. Jamol Kamol.,2018-yil.-S.47] baytida shoir “bulbul” timsolida oshiq obrazini tasvirlaydi. Chin ma’shiq ko‘ngli bulbul misol guliga navo qilmas ekan, uning oshiqligi shubhalidir:

Bong urar gulshanda bulbul,

Gulga bulbuldan rivoj.

Ne qilur gulshan aro ul,

Yetmasa guldan rivoj.[3.Jamol Kamol., 2018-yil.-S.220]

Shoir she’rlarida “bulbul” obrazi doim ham oshiqni ifodalamasligining guvohi bo‘lamiz. Zero, bu holat-da mumtoz adabiyotda chiroyli navo qiluvchilarga nisbatan qo‘llanib kelingan azaliy an’ana. Jamol Kamol ham ana shu an’anani davom ettira olgan:

Haydar Ali ilhom etar,

Bulbullaring mug‘om etar,

Samad Vurg‘un kalom etar,

Jamol Kamol davom etar,

Yasha, yuksal, ey jonajon,

Ozarbayjon, Ozarbayjon! [4.Jamol Kamol.,2018-yil.-S.95]

Yoki yana bir g‘azalida shoir aynan mezbon –shoirlarga ishora sifatida bulbul so‘zini qo‘llaydi:

Shohimardon, muncha ham

Xushxon ekan, bulbullaring,

Sutdek oydin kechalarda

Jon ekan bulbullaring…[3. Jamol Kamol.,2018-yil.-S.183]

Manabu tasvir yanada yorqinroq:

Bu chaman bulbullari ko‘p,

Ayru-ayru navqiron,

Erkini bor, O‘tkiri bor,

Qo‘yki Abdullosi bor…[3.Jamol Kamol. 2018-yil-S.205] Mazkur misralar Sayfi Saroyining :

Jahon shoirlari , ey gulshani bog‘,

Kimi bulbuldurur so‘zda, kimi zog‘,-misralarini yodga tushiradi. Jamol Kamol mashhur hofiz Sherali Jo‘rayevga bag‘ishlov tarzida bitgan g‘azalida san’atkorga nisbatan “O‘zbekiston bulbuli” tasviriy ifodasini qo‘llaydi:

O‘zbekiston bulbulidirsan,

Ayo, aytgil o‘zing.

Bulbul o‘lgaymi gulistonidan

Ayro, Sherali? [4. Jamol Kamol.,2018-yil.-S.32]

To‘g‘ri, “bulbul” obrazida oshiq yoki shoir timsolini yaratish, she’riyatda yoki hofizlarga nisbatan “bulbul”atamasini qo‘llash xalqimiz orasida azaldan mavjud edi, biroq “bulbul” nomi bilan “ishq” obrazini yaratish -Jamol Kamolgagina xos topilma. Oshiqlik - murakkab sinov. Toki inson qalbi butun jism-u joni bilan yor dardida kuyib-yonmas ekan, uning sevgisi rost emas. Quyida shoir ishq so‘zini “bulbul” atamasi bilan qo‘llaydi:

To kuyuk jonim xayoling

Birla mashg‘ul bo‘lmagay,

Lol qolmish soyadek,

Ko‘nglimda bulbul bo‘lmagay.

“Bo‘lmagay” nomi ostida nashr etilgan mazkur g‘azalning keyingi baytida “bulbul” so‘zi o‘z ma’nosida qo‘llanadi.:

To takallum etmasang

Bog‘imda go‘yo bulbulim,

Chin bo‘lur bedilligim,

Ko‘nglimda ko‘ngil bo‘lmagay.[3.Jamol Kamol.,2018-yil.-S.217]

Jamol Kamol o‘zbek zamonaviy she’riyatining zabardast vakillaridan. Shoirning zamonaviy she’rlari benazir. Ammo bugun she’riyatimizda Jamol Kamol nomini otashnafas she’rlari uchungina emas, balki bu nomni mumtoz adabiy janrlar, ularda ifodalangan go‘yaviy mazmun, mavzu va mumtoz badiiy obrazlarning o‘ta mahorat bilan qo‘llaganligi, zamonaviy she’riaytni mumztoz navolar bilan chambarchas bog‘lab turuvchi muhtasham rishta sifatida ham tilga olmog‘imiz joiz. Zero, shoir lirikasida Navoiy, Bobur, Ogahiy singari buyuk allomalarning nafaslari ufurib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoi. Navodir ush-shabob. www ziyouz.com kutubxonasi.2023-yil
2. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at. T.:-O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining “Fan” nashriyoti.2016.
3. Jamol Kamol. Saylanma. Olti jildlik. I jild. Asr bilan vidolashuv. -Toshkent: G.Gulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2018.
4. Jamol Kamol. Saylanma. Olti jildlik. V jild. Anvarmirzo hikoyatlari. -Toshkent: G.Gulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2018
5. Jamol Kamol. Saylanma. Olti jildlik. II jild. Yonayotgan dala. -Toshkent: G.Gulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2018
6. Jamol Kamol. Suvaydo. –Toshkent G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent. ”O‘zbekiston” nashriyoti , 2006-yil. 5-tom

TOG‘AY MUROD QISSALARIDA MILLIYLIK MASALASI

Ismoilova Komila
Navoiy davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti II-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: dots, f.f.f.d(PhD)M.Rizoyeva

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tog‘ay Murod asarlaridagi milliylik masalalari xususida fikr yuritilgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы народности в творчестве Тогая Мурада.

Annotation: This article discusses issues of nationality in Togay Murad's works.

Kalit so‘zlar: qadriyat, milliylik, xarakter, ruhiy kechinma,peyzaj,obraz,xalqonalik

Ключевые слова: ценность, национальность, характер, духовный опыт, пейзаж, образ, национализм.

Key words: value, nationality, character, spiritual experience, landscape, image, nationalism.

Yetuk asarlari bilan badiiy adabiyotimiz va kitobxonlar qalbida o‘chmas iz qoldirgan Tog‘ay Murod - o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rni va so‘ziga ega bo‘lgan, adabiyotga zamonaviy, xalqchil uslubni kiritgan yozuvchidir. Tog‘ay Murod asarlarida so‘nggi yuz yilda o‘zbek millati boshdan kechirgan fojialarning aniq yaxlit tasavvuri mavjud.Tog‘ay Murodning barcha asarlari xalq tilida yaratilganligi uchun ham, badiiy qiymatini yo‘qotmagan. Tog‘ay Murod asarlarining qahramonlari o‘zbek xalqining o‘ziga xos harakter xususiyatiga egaligi bilan ajralib turadi[55]. Adib so‘lim Surxon elida tug‘ilgani bois uning asarlarida surxon elining mag‘rur va o‘ktam, chapdast va epchil, uddaburon va chapani yigitlari timsoli, asar qahramonlari misolida o‘zining ona-tabiatga bo‘lgan munosabati ifodalangan. Uning xayvonot dunyosiga , ayniqsa, otga bo‘lgan mehr-muhabbatini badiiy tarjima borasidagi faoliyati misolida(S.Tompson “Yovvoyi yo‘rg‘a”) ham kuzatish mumkin. Shu jumaladan, “Ot kishnagan oqshom” asarida ham sevgi, yurt, millat tushunchalari qoliplangan so‘zlar shaklida emas, tabiiy, oddiy, kamtarona, ming yillar mobaynida shakllangan madaniyat boricha tasvirlangan.Asar kompozitsiyasi unchalik murakkab bo‘lmagan shaklda tuzilgan: bitta sujet chizig‘i va unchalik ko‘p bo‘lmagan bosh qahramonlardan tashkil topgan qissa “Alpomish” dostoni an’analarini eslatadigan xalqchil ruh bilan sug‘orilgan. Bunda xalq og‘zaki ijodiga aloqador uslub seziladi. Qissaning bosh qahramoni Ziyodulla oddiy bir cho‘pon. Uning o‘z oti Tarlonga bo‘lgan mehri – insonning tabiatga qo‘ygan mehriday sof. Tarlon tabiat timsoli bo‘lgani uchun ham yozuvchi uni yorqin bir obraz darajasiga ko‘tarib tasvirlaydi[56].

Birinchi qissaning qahramoni Ziyodulla o‘zi yashayotgan joydagi ikkiyuzlamachi va riyokor odamlarga qarshi dadil kurashadi. U hatto o‘zidagi jismoniy nuqsonga qarshi isyon ko‘taradi, “kal” degan malomatni ma’naviy ustunlik – mohir chavandozlik shuhrati bilan yengib o‘tadi. Vaholanki, jamiyatdagi munofiqlikni yengishga bir kishining kuchi yetmasa-da ,kurash yo‘lini tanlaganlar kamdan kam topiladi.Ziyodulla chavandoz aynan shunday , qishloqning sodda ,chapani insoni!. Qissada ba’zi bir insonlarda bo‘lmagan vafodorlik Tarlonda jamlangan. Asarning bosh qahramoni Ziyodulla chavandoz timsolida o‘zbek yigitlarining tipik ko‘rinishi yaratilgan. Tog‘ay Murodning sodda,xalqona uslubi nafaqat kitobxonlar, balki, adabiyotimizning atoqli,mahoratli adiblarini ham maftun qilgan. Asarda Ziyodullaning mardona qiyofasi adabiyotimiz uchun yangilik bo‘lgan badiiy kashfiyot darajasiga yetkazib tasvirlangan.

ATOYI IJODIDA TABIAT TASVIRI BILAN BOG‘LIQ POETIK OBRAZLAR TALQINI

Omonova Sevinch Zaripovna
Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi
e-mail: ***sevinch_zaripovna@gmail.uz***

Annotatsiya: *Maqolada milliy adabiyotimiz tarixida Alisher Navoiygacha bo‘lgan davrda yetishib chiqqan ulkan so‘z san’atkorlaridan biri Atoyi ijodining o‘ziga xosligi, shoir g‘azaliyotida tabiat tasviri bilan bog‘liq poetik holatning san’atkorona tasviri haqida mulohaza yuritilgan.*

[55] Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish . T: A Qodiriy nomidagi xalq merosi 2004.,-B.68

[56] Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr, Xronotop.G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot manbaa ijodiy uyi T:2015.,148-150 bet.

Kalit so‘zlar: *g‘azal, peyzaj, poetik ifoda, lirik qahramon, she’riyat, tasvir.*

Annotation: *The article discusses the uniqueness of Atoyi, one of the great word artists who flourished in the history of our national literature in the period before Alisher Navoi, and the artistic description of the poetic situation related to the image of nature in the poet's gazel.*

Key words: *gazel, landscape, poetic expression, lyrical hero, poetry, image.*

Atoyi falsafiy mushohadalari, lirik qahramonning ishqiy kechinmalarini tabiat bilan bog‘liq holda tasvirlaydi. Uning juda ko‘p g‘azallarida tabiat bilan aloqador ruhiy kechinmalar, shoirona tasvirlar uchraydi. V.G.Belinskiy “Tabiat Gyote uchun g‘oyalarning ochiq kitobi edi. Pushkin uchun eea u to‘liq tavsifga sig‘maydigan, ammo sokin va sehrli jonli surat edi...” deydi. Atoyi uchun ham tabiat ayniqsa, bahor va uning maftunkorligi ilhom manbai bo‘lib xizmat qilgan. Shoirga tabiatdagi ba’zi narsalar poetik obraz va badiiy tasvir rolini o‘tagan: bahorning so‘limligi, gul, bulbul, g‘uncha, mug‘anniy, bo‘ston, soqiy, sarv, bodi sabo, mayi gulgun, bog‘, bog‘cha, rayhon, sumbul, savsan, qizil gul, nargis kabi poetik obrazlar g‘oyaviy-badiiy maqsadni to‘la gavdalantirishga xizmat qilgan. Shoir bahor ko‘rkini tasvirlar ekan, tabiat jonlanishidan tuyg‘ulari junbushga keladi. Chor atrofdagi go‘zallik uni zavqlantirib, visolga ishtiyoq uyg‘otadi. Bulbul gul qoshida afg‘on cheksa, u ham o‘z yori bilan sirlashmoq, unga dil dardlarini izhor qilmoqqa yetkadi.

Atoyi lirikasida mavjud borliq, koinot va hayot, inson va uning shodligi, hasratu alamlari o‘z aksini topgan. Bahor fasli, chaman sahni, gul isi va bulbul honishi unga zavq-shavq bag‘ishlaydi. U go‘zal tabiat qo‘ynida do‘stlari bilan birga bo‘lishni, yorning visoliga va lutf-ehsoniga musharraf bo‘lishni istaydi. Shoir she’riyatida tabiat bilan bog‘liq holatlar ko‘plab kuzatiladi. Bahor–ko‘rk va chiroy, tug‘ilmoq va unmoq fasli, u yasharish fasli hamdir. Inson esa bularning hammasidan yanada ko‘rkli va dilrabo. Yor–sevgi, hayot va insonga muhabbatning tajassumi. Yorsiz shoirga va bahorning ko‘rki va na uning zavq-shavqi tatiydiki, bu holatni quyidagi misralarda ko‘ramiz:

Vaslingiz umrum gulidur, shavqida men andalib,
Yoz faslinda bo‘lur–vaqti hazon sizsiz mango.
Men bu yuz mushtoqidurmen, bog‘u bo‘ston kim bo‘lur?
Bo‘lmasun nasrinu lola, arg‘uvon sizsiz mango. [Atoyi.Devon.2008.-S 36]

Shoirning deyarli har bir g‘azali hayotga, nafosat va muhabbatga tashnalik, olam va odamning mohiyat muammolariga bag‘ishlangan. Mana u bir g‘azalida nima deydi:

Kel, ey dilbar bo‘ston vaqti bo‘ldi,
Gul ochildi guliston vaqti bo‘ldi. [Atoyi.Devon.2008.-S 178]

Zotan, bu vaqt, shoirning o‘z ta’biri bilan aytganda, “hazoron nav’ alhon vaqti”, ming ohangda xonish qilish fursati. Demak, Atoyi she’riyati– tabiatdan, tabiatning inson ichki olamiga ta’sir etishga qodir go‘zalliklaridan uzilib qolmagan she’riyat. Bu esa uning doimiy g‘oyaviy qimmatini saqlab qoladigan eng muhim jihatlaridan yana biridir. Atoyi lirikasida bu da’voni dalillaydigan misollar ko‘p. Bu haqda aniq tasavvur paydo qilish uchun quyidagi satrlarni keltirish o‘rinli:

Soqiyo, keltur mayi gulgunki, xush damdur bukun,
Olami farxunda navro‘zi olamdur bukun...
Yer yuzinda gulshanu bog‘i bahoru bog‘cha,
Gunbazi hazro mengizlik sabzu xurramdur bukun...
Ey Atoyi, bo‘lma g‘ofil, bir nafas hamdam tila,
Umrni hamdam kechurmalik base kamdur bukun. [Atoyi.Devon.2008.-S 36]

Atoyi she’riyatida tabiatning go‘zalliklarini ta’minlaydigan gul va o‘simliklar nomlari keng qo‘llanadi: naxl [nihol], sanubar [tik o‘sadigan chiroyli daraxt], sunbul [gullari halqa-halqa bo‘lib ochiladigan savansimon giyoh], sunbuli tar [shabnamli gul bargi], abir [anbar, xushbo‘y hidli giyoh], arg‘uvon [pushti gulli daraxt] va boshqalar. Shoirning ko‘plab she’rlarida *gul* va gulzor bilan bog‘liq poetik obrazlilik o‘ziga xos tarzda ifoda etiladi:

G‘uncha bo‘ldim g‘amdin ilkim doming‘a yetmayin,
Gul bikin jon ko‘nglaki g‘asrat bila bo‘ldi qabo. [Atoyi.Devon.2008.-S 25]

Devondan o‘rin olgan mana bu g‘azalda shoir tabiatning go‘zal yaratiqlari orqali lirik qahramonning ko‘ngil kechinmalarini tasvirlaydi:

O‘rtandi gul yuzin o‘tidin lolazorlar,
Yolg‘uz ne lola, balki angidek hazorlar.
Naxli qadingni ko‘rsa chaman ichra sarvtek,
Bosh indurub tavoze’ etarlar chinorlar. [Atoyi.Devon.2008.-S 91]

Ko‘rinadiki, ma’shuqaning go‘zallikka boy chiroyidan nafaqat lola va chamandagi lolazorlar, balki yorning sarvdek qaddi-qomatidan chinorlar ham “bosh indurub” ta’zim qiladi.

Shoir she’rlari orasida juda chiroyli bir g‘azal bor. Bu g‘azal borasida ko‘plab fikrlar bildirilgan. Atoyining badiiy mahorati mahsuli bo‘lgan bu g‘azalda ham tabiat va inson, ularning o‘zaro mushtarak jihatlari borasida fikr ifoda topadi:

Jamoling vasfini qildim chamanda,
Qizordi gul uyottin anjumanda. [Atoyi.Devon.2008.-S 24]

Baytni soddaroq yo‘lda tahlil qilishga urinamiz. Baytda oshiq tilidan chamanda yorning jamolining vasfini–ta’rifini bayon etgani, [shunda] anjumanda, ya’ni chamanzordagi gul bundan uyalgan holatda qizarib ketganligi aytiladi. Bu bilan shoir: “Mening yorim juda ham chiroyli”,–deyapti xolos. Ana shu oddiy fikrni shoirona badiiy ifodalamoqda. Bundan anglashiladiki, gullar yig‘ini–anjumanda bir gul: “Dunyoda eng go‘zal menman”,–deya maqtanardi. Buning ustiga kelib qolgan oshiq o‘z ma’shuqasini ta’rifu tafsir qilgan edi, o‘zidan bir necha marta go‘zalroq jamol egasi borligini eshitgan gul maqtanchoqligidan sharmanda bo‘lib, qizarib ketdi va shundan keyin dunyoda qizil gul paydo bo‘ldi. Shoir gulni insonlardek jonli qilib tasvirlash orqali jonlantirish san’atini yaratadi. Bu tasvir vositasi mumtoz adabiyot ilmida tashxis [shaxslantirish] san’ati deb ham ataladi. Birgina mazkur baytda yana bir mumtoz she’riy san’at mavjud. Bu– husni ta’lil bo‘lib, daxli bo‘lmagan biror holatni chiroyli asoslash demakdir. Ya’ni, gulning qizarishi uyatdan emas, u biologik hodisadir. Shoir buni badiiy topilma orqali asoslashga urinadi va o‘quvchiga estetik zavq bag‘ishlaydi.

Atoiy she’riyatida gul va gulzor, chaman, tabiatning go‘zal manzaralari aks etgan baytlar ko‘plab uchraydi. Tahlil jarayonida shulardan ayrimlari xususida to‘xtalamiz.

Lola– mumtoz adabiyotda ko‘p uchraydigan an’anaviy badiiy obraz. Lola boshqa gullarga qaraganda Atoyi she’riyatida eng ko‘p qo‘llanilgan:

Lola o‘xshatsa o‘zin ruxsoriga ma’zur tut,
Yozida o‘z boshig‘a qo‘bqondur ul ko‘ngli qaro. [Atoyi.Devon.2008.-S 25]

Ma’lumki lolaning, ya’ni lolaqizg‘aldoqning qora rangi boshida. Xalqimizda bu haqda shunday maqol ham bor: “Tunsiz kun yo‘q, dog‘siz–lola”. Bu baytda shoir shunga ishora qiladiki, lolaning boshidagi qaro uning boshidagi balo desa, yana bir o‘rinda:

Ey xijil gul orazingdin bo‘stonu bog‘lar,
Lola ruxsoring firoqi qo‘ydi jong‘a dog‘lar.
Oy yuzung shavqinda tunlar to sahargah o‘lturub,
Yondurub ko‘z mash’alin, yoshtin quyarmen yog‘lar.
Zulfungu qaddingni ko‘rgach, bog‘bon aytur ravon
“Gul yag‘ochi ustida qo‘nmish ajoyib zog‘lar” [Atoyi.Devon.2008.-S 63]

Intizor oshiq to sahargacha yorining yuzini qumsab, uxlamay o‘tirib chiqadi. U visol ilinjida barcha mashaqqatni tortishga tayyor. Tunning intihosi sahar bo‘lganidek, hijronning oxiri visol bo‘ladi. Yor diydoridan lazzatlanishga qittiq umid qilgan oshiq har qanday iztirobli damlarni boshdan kechirishga rozi. Mash’alaga qancha ko‘p yog‘ quyilsa, u tunni shuncha ko‘p ravshan qiladi. Oshiq ham ko‘z mash’aliga go‘yo ko‘z yoshidan yog‘ quyib, sahargacha tunni bedor o‘tkazadi.

Lola obrazi Atoyining mana bu baytida ham qo‘llangan:

Yod qilmas zulfu ruxsoru xatingni ko‘rgali,
Lolau nasrinu sunbul birla rayxondin ko‘ngul. [Atoyi.Devon.2008.-S 142]

Yoki yana bir o‘rinda:

Bo vujudu orazing bargi sumandin kim desun?

Loladin kim so‘zlasun, ham nastarindin kim desun? [Atoyi.Devon.2008.-S 175]

Lirik qahramon ma’shuqasining butun chiroyidan hatto chamandagi lola, nastarin kabi gullar rang olishini bayon etadi:

Yuzingdin rang olur, nasrinu lola,
Ko‘zingdin munfail yuz ming g‘azola.
Tabussum aylakim, bisyor xushtur,
Chamanda g‘unchayi xandonu jola. [Atoyi.Devon.2008.-S 214]

G‘azallar tahlili jarayonida gul bilan bog‘liq tasvirlar ham ko‘plab uchrashiga guvoh bo‘ldik va bu poetik obraz ham lirik qahramonning tuyg‘u kechinmalari, uning ta’riflanayotgan go‘zal ma’shuqasining holati va tasvirini berishda ayniqsa qo‘l kelgan:

G‘uncha bo‘ldum g‘amdin ilkim doming‘a yetmayin,
Gul bikin jon ko‘nglaki hasrat bila bo‘ldi qabo [Atoyi.Devon.2008.-S 25]

Gul, g‘uncha tasvirini yana quyidagi baytlarda ham uchratamiz:

G‘uncha sevunib to‘nig‘a sig‘mas,
O‘xshatsam o‘qung bashoqi birla [Atoyi.Devon.2008.-S 26]

Yana:

Har xasta dilkim, ul yuzi tulun oyo boqar,
To‘ymas ko‘zi, kuyar tanu joni yano boqar.
Topmas yuzi guli kabi ranginu obdo,
Bog‘u chamanda har necha bodi sabo boqar. [Atoyi.Devon.2008.-S 58]

Yohud manu bu bayt orqali Atoyining badiiy mahoratiga yana bir bor guvoh bo‘lamiz:

Yig‘lab yuzunguzdin olayin zulfi niqobin,
Gul yaxshi ochilmas kechalar yog‘masa yomg‘ur. [Atoyi.Devon.2008.-S 84]

Adabiyot–insonshunoslik fani. Inson va uning o‘y-kechinmalari, inson va olam muammolari adabiyotning domiy dolzarb masalasi sanalgan. Insonni ulug‘lash, undagi yuksak va oliyjanob sifatlarning qadrini bilish, ularga e’tiqod bog‘lash bilan belgilanadi.

“Devon”dan o‘rin olgan tabiat olami tasviriga bag‘ishlangan g‘azallardan birida shoir lirik qahramon o‘yu kechinmalarini kuzning xazoniyu, ko‘klam tarovatiga qiyoslagan holda bir-biriga qarshilantiradi:

Xazondek ayladi baxtim, bu yil fasli bahorimni,
Ki hijrong‘a mubaddal qildi nogah, vasli yorimni.[Atoyi.Devon.2008.-S 255]

Shoir g‘azallarida joy nomlari bilan bog‘liq o‘rinlar ko‘plab ko‘zga tashlanadi. Bu orqali mumtoz she’riyatdagi talmeh san’ati qurilgan bo‘lb, Atoyi lirik qahramon ruhiy va ma’naviy olamini ochib berishda undan o‘rinli foydlanadi:

Ummonu muhitu shatu Jayhun, tengizni,
Yoshurdi firoqingda ko‘zum yoshi Firoti.
Har lahza qilur sajda Atoyi bo‘sag‘angg‘a,
Chun uldur aning Ka’basiyu ham Arafoti. [Atoyi.Devon.2008.-S 256]

Tabiat bilan bog‘liq she’rlarida hayotsevarlik g‘oyalari, inson turmushi bilan bog‘liq she’rlarida esa xalqchillik ifodasi o‘rin olgan. Atoiyning mahorat bilan yaratilgan lirik asarlari o‘zbek mumtoz adabiyotimizning yorqin sahifalarini tashkil etadi. O‘quvchilarni badiiy didi, dunyoqarashini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etishi bilan xarakterlidir.

3-SHO‘BA.

TURKIY TILLI DAVLATLARNING MADANIY-FALSAFIY QARASHLARI: O‘TMISH, BUGUN, KELAJAK

TURKIY VA SUG‘DIY TILLAR ALOQASI TARIXI XUSUSIDA

Abdiyev M.B.
Sh. Rashidov nomidagi SamDU professori,
filologiya fanlari doktori. elek. pochta: muradkasim63@mail.ru

Annotatsiya: mazkur maqolada turkiy va sug‘diy xalqlar o‘rtasidagi qadimiy aloqalar xususida fikr yuritilgan. Bu aloqalar ular o‘rtasidagi integratsion jarayonlar madaniy, xususan, lisoniy aloqalarda yaqqol namoyon bo‘lish xususida mulozalar bildirilgan.

Kalit so‘z va birikmalar: turkiy til, sug‘diy til, xoqonlik, integratsiya, madaniy aloqa, lisoniy aloqa, tarix, hudud.

Аннотация: в данной статье размышляются древние взаимоотношения между тюркскими и сугдийскими народами. Интеграционные процессы между ними ярко проявляются в культурных, особенно языковых отношениях.

Ключевые слова и фразы: турецкий язык, сугдийский язык, каганизм, интеграция, культурное общение, языковое общение, история, регион.

Abstract: this article reflects on the ancient relationships between the Turkic and Sugdian peoples. Integration processes between them are clearly manifested in cultural, especially linguistic relations.

Key words and phrases: Turkish language, Sugdian language, Kaganism, integration, cultural communication, linguistic communication, history, region.

Markaziy Osiyo o‘z geografik joylashuviga ko‘ra Yevrosiyo materigining azaliy sivilizatsion jarayonlar kesishadigan eng qulay hududi hisoblanadi. Aynan shu hududdan Buyuk Ipak yo‘lining o‘tishi ham tasodifiy hol emas edi. Buyuk Ipak yo‘li turli sivilizatsiyalararo madaniy uyg‘unlikni vujudga keltiradi. Qadimdan to XII asrga qadar Markaziy Osiyoda uchta yetakchi etnos muhim o‘rin tutgan. Bular xitoylar, turklar va sug‘dlardir. Ushbu uch etnos o‘rtasida kechgan siyosiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlar orasida turk va sug‘d etnoslararo munosabatlar keyingi asrlardagi etnik shakllanishlarga ham kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Tadqiqotchilar tarixda miloddan avvalgi IV-III asrlardayoq sug‘dlarning xitoylar va prototurk qabilalari bilan munosabatlarga kirisha boshlaganliklarini ta’kidlaydilar. Deyarli bir yarim ming yillik tarixiy davr ichida sug‘dlar va turkiylar bir mintaqada yashab o‘zaro hamkorlik qilganlar. Qiyosiy tipologik tahlil sug‘d va turkiylarning jamiyatlari deyarli tengdosh ekanligini ko‘rsatmoqda. Bu holat etnik munosabatlar uchun muhim hisoblangan. Haqli ravishda VI – VIII Markaziy Osiyo “turk-sug‘d” davri nomini oldi. Mintaqada yagona tarixiy madaniy makon vujudga kelishiga asos soldi. Aynan shu davr turkiy-sug‘diy simbiozi davri sifatida baholanadi. Bu jarayon Markaziy Osiyoning deyarli barcha tarixi geografik o‘lkalarida kechgan. Jumladan, bizning mintaqa uchun akademik K.Shoniyozov ta’kidlaganidek; miloddan avvalgi II-I asrlarda vohalardan dehqon, hunarmand va savdogar aholi bilan shu hududga kirib kelgan chorvador etnik qatlam madaniyati aralashib, o‘ziga xos sinkretik – madaniyat hosil qilgan.

Bepoyon Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari tarixida ilk o‘rta asrlar nafaqat etnik yuksalish, balki davlatchilik an’analarini rivojlanish tiklash va qudratga yetkazish davri ham hisoblanadi. Turk xoqonligining qaror topishi esa barcha sohalarda rivojlanish va taraqqiyot uchun omil bo‘ldi. Xoqonlik qaror topgunga qadar ham sug‘dlarning ular hayotiga kirib kelishi kuzatilgani ma’lum ma’noda xoqonlikning ma’muriy-boshqaruviga zamin yaratgan. O‘troq sug‘dlarning har tomonlama maslahatlari va ko‘maklari turklarning davlatchiligini shakllanishiga ta’sir o‘tkazgan deya olamiz. Sug‘d savdo koloniyalari – shahar-davlatlar tizimi

ko‘plab ko‘chmanchilarning o‘troqlashuviga, yarim o‘troq va ko‘chmanchilarning esa shaharsozligi rivojiga asos bo‘lib xizmat qildi. Sug‘dlarning turklashuvi ham bejiz emas edi. O‘zaro integratsiya assimilyatsiyalashuv uchun imkon yaratdi. Ko‘p sonli turkiylar orasida sug‘diy diasporalari bu jarayondan manfaatdor ham edilar. Sug‘diylar orasida Erkin, Tudun, Tegin, Bahodir, Tarxon, O‘zmish, kabi turkiy ism va unvonlar rasm bo‘la boshladi. Aynan Turk xoqonligidagi turkiy-sug‘diy munosabatlariga e’tiborni qaratsak, fikrimiz ancha o‘z tasdig‘ini topadi.

Sug‘dlar Markaziy Osiyoga Ipak yo‘li bo‘ylab o‘rnashdilar, ko‘chmanchilar orasiga kirib bordilar. Shulardan biri sug‘diylarning turkiylarga sivilizatsion ta’siri ma’lumdir”, deb, ta’rif bergandi. Xitoy manbalari aynan turkiy-sug‘diy munosabatlari haqida ham qiziqarli ma’lumotlar qoldirganlar. Kelib chiqishi An (Buxoro)dan bo‘lgan Gunsulik sug‘d Annopanto (Naxband) Birinchi Turk xoqoni Bumin o‘rdasining eng ishonchli shaxslaridan bo‘lgan. U 545-yilda Xitoyga elchi bo‘lib borgan. Sug‘dlar xoqonlikning qaror topishi, idoraviy boshqaruvining shakllanishi va iqtisodiy yuksalishida o‘z hissalarini qo‘shganlar. Bu jarayon ildizlari uzoq yillik simbioz – hamyurtlik, o‘zaro yaqinlik, umumiy manfaatdorlik siyosiy ittifoqchilik mahsuli edi. Xoqonlik hududidagi sug‘d manzilgohlari oqsoqollari xoqon tomonidan eltabar – yirik vassal qabila rahnamosi unvoniga ega bo‘lganlar. Asta-sekin sug‘d muhojirlari turklashib borib, turk aslzodalari qon-qardosh tutina boshlaganlar. Hatto ba’zi sug‘dlar tegin-xoqon ukasi yoki farzandiga beriladigan shahzoda unvoniga ham erishganlar. Sug‘d Torug‘shodning o‘g‘li otasi kabi shod unvoniga ega bo‘lmasa-da, unga Elbi-nezuk-eltabar unvoni berilgan. Bundan tashqari 742-yilda Sharqiy Turk xoqoni O‘zmish taxtga kelgach, o‘zaro nizolardan bezor bo‘lgan sug‘dlar Tan hukmdolariga tegishli osoyishta hududlardan panoh izlaydilar. Shunday ko‘chkin bo‘lgan guruh rahbari turklashgan sug‘d Kan Ai Kultarxon bo‘lgan. Yana bir ma’lumotda 588-600 yillarda Turk xoqonligini boshqargan To‘ng Turon saroyida An Sui Sze ismli sug‘d maslahatchi vazifasida bo‘lib, aynan u xitoylarni turklarning ichki ishlariga aralashuviga qarshilik qilgan. 609-619 yillarda hukmronlik qilgan Shibi xoqon saroyida Shishi Xusi ismli sug‘d e’tiborli saroy a’yonlaridan bo‘lgan. VIII asr boshlarida esa An Yan-yan ismli sug‘d xatto turk qo‘shinlari qo‘mondoni darajasiga erishgan. U qadimiy turk urug‘laridan biri turk aslzodasi qiziga uylangan.

VII asr ikkinchi yarmidan Samarqand atrofidagi Sug‘d mulklarida markazlashish jarayoni sodir bo‘ldi. G‘arbiy Turk xoqoni To‘ng yabg‘u(618-630) Sug‘d ma’muriy boshqaruvini takomillashtirgach, bu jarayon boshida mahalliy hukmdor – ixshid Avarxuman(650/655-675) turdi. Sug‘ddagi mulklar o‘z navbatida markazga konfederativ tartibda bo‘ysungan. O‘rta Osiyodagi azaliy o‘troq hayot tarzi hukm surgan o‘lkalari (Sug‘d, Xorazm, Toxariston, Farg‘ona va Choch) da yer-suv egaligi mulkchiligiga asoslangan siyosiy–hududiy va ma’muriy tizim shakllangan. Markaziy hokimiyat va mahalliy hokimliklar o‘rtasidagi munosabatlar yirik zamindorlar, boy savdogarlar va shaharlik aslzodalar tomonidan tuzilgan Oqsoqollar Kengashi orqali amalga oshirilgan. Ixshid–podsholar Oqsoqollar Kengashi oldida hisobot beruvchi cheklangan hokimiyatga ega bo‘lgan. Har bir mulkning harbiy sarkardalari qo‘l ostida jangovar harakatga layoqatli chokarlari bo‘lgan. Bu maxsus gvardiya nafaqat tan qo‘riqchi, balki dehqon va savdogarlarning mulklari va savdo karvonlarining himoyachilari ham bo‘lishgan. Xitoy manbalarida keltirilishicha, 759-yilning 12-oyida Xitoy imperatori saroyida chokarlar uchun ziyofat uyushtirilib, har bir chokarga 30 bo‘lakdan ipak mato– xizmat haqi berilgan. Chokarlarning aksariyati esa turkiylardan bo‘lgan. Bu sug‘diy savdogarlar va turkiy harbiylar manfaati ifodasi edi.

VI asr ikkinchi yarmidan mintaqada Turk xoqonligi hukmronligi o‘rnatilgach, mahalliy mulklar qatorida Sug‘d bilan qalin munosabatlar o‘rnatildi. Bu eftaliylarning soliq va to‘lovlar yig‘ish siyosatidan farq qilgan hamda mahalliy hukmdorlarga iqtisodiy va siyosiy erkinlik berilgan. G‘arbiy Turk xoqonligi(603-742) esa mahalliy ma’muriy-boshqaruvda bevosita ishtirok etib, Sug‘dning siyosiy, ijtimoiy–iqtisodiy, madaniy hayotiga o‘z ta’sirini o‘tkazishga erishdi. Bunda, Turk hukmdorlari va Sug‘d ixshidlari hamda jamiyat a’zolari o‘rtasidagi qarindoshlik munosabatlari katta ahamiyat kasb etdi. Sug‘d taraqqiyotida G‘arbiy Turk xoqoni

To‘ng yabg‘u(618-630)ning ma’muriy boshqaruvdagi islohotlari ahamiyatli bo‘ldi. Natijada, tayinlangan vakillar mahalliy boshqaruvni takomillashtirib, vasalliklarning ichki siyosiy nazoratini ta’minladilar. Bu chora Sug‘d mahalliy boshqaruv tizimining xoqonlik markaziy boshqaruv tizimi oldidagi ma’suliyatini oshirdi hamda Sug‘dning G‘arbiy Turk xoqonlik bilan aloqalarini mustahkamladi.

Xoqonlik boshqaruv tizimi va Sug‘ddagi yer mulkchiligiga asoslangan boshqaruv tizimi bir-biridan farqlanardi. Sug‘dda podsho– ixshidlar Oqsoqollar Kengashi tomonidan tayinlansa, xoqonlikda urug‘-qabilaviy va qarindoshlik tamoyillariga amal qilinar edi. Davlat boshqaruvida xoqonga qarindoshlari, hukmron sulola a’zolaridan iborat ma’muriyat yordam bergan.

Xitoy manbalarida qadimgi turkiy davlatchilik ma’muriy- boshqaruv tizimidagi ierarxxarakterga ega bo‘lgan 28 ta mansab qayd etilgan. Ularning dastlabki 5 tasi: exu(yabg‘u), she(shad), dele(tegin) va tutunfa(tudun)lar oliy mansab hisoblangan. Qolgan 23 ta mansab kichik amaldorlarga tegishli bo‘lgan. Barcha mansablar merosiy hisoblangan. Sug‘d uchun turkiy ma’muriy boshqaruvning ayrim jihatlari yuechjilar, xioniylar, kidariylar va eftaliylar davridan ma’lum bo‘lib, Sug‘ddagi boshqaruv ko‘p jihatlari bilan ularga moslashgan ham edi. Manbalarga ko‘ra, G‘arbiy Turk xoqonligi ma’muriy boshqaruvida: yabg‘u(jabγw), tegin(tegin), ɯad(šad), eltabar(eltäbär), xatun(xatun/qatun), tudun(tudun/tuδun), tutuq(tutuq/tutuγ), tarxon(tarxan/tarqan), cho‘r(cur), erkin(irkin), chabish(caβiš) kabi unvon va mansablari amalda bo‘lgan bo‘lsa, Sug‘d boshqaruvida: ixshid(’γšyδ), afshin(’βšyn), xvabu(γwβw), xutav(γwtw) kabi mahalliy unvon va lavozimlar qo‘llanilgan. 603-yilda Birinchi Turk xoqonligi ikki qismga bo‘linib, Sug‘d G‘arbiy Turk xoqonligi tarkibiga kirdi. Dastlabki yillarda Sug‘dni ixshid Tayshebi (600-yilgacha) va Kaymochjo(Kyue-mu-chji) (600-620), G‘arbiy Turk xoqonligini esa Cho‘li(Sheli) (600-611) va Istemi yabg‘uning nabirasi Sheguy(Shixey) xoqonlar (611-618) boshqardi. G‘arbiy xoqonlik To‘ng yabg‘u(618-630) qo‘liga o‘tgach, ixshid Kaymochjo (Kyue-mu-chji) To‘n yabg‘uning qiziga uylanib, o‘rtada qarindoshlik aloqalari o‘rnatildi.

Yuqoridagi sug‘d, turk va xitoy manbalari asosida xulosa qiladigan bo‘lsak, butun Markaziy Osiyoda ro‘y bergan etnomadaniy jarayonlarning ilk o‘rta asrlar bosqichi, turk-sug‘d simbiozi va sug‘dlarning turklashuvi assimilyatsiyasi davri sifatida baholanishi mumkin. Asrlar davomida do‘stona, samimiy va qon-qardosh bo‘lib yashagan turklar va sug‘dlar keyingi davr etnoslari: o‘zbek, uyg‘ur, tojik va boshqa elatlarning shakllanishida bevosita ishtirok etganlar.

Eng qadimgi turkiy yozma yodgorliklar (Urxun Enasoy yozuvida) VII- XI asrlarga mansub bo‘lib, ular, asosan, qabrtoshlar tarzida Shimoliy Mo‘g‘uliston, Qirg‘izistonda, Enasoyy daryosining yuqori qismi, Talas vodiysida va boshqa joylarda topilgan. Brahmi va sug‘d yo‘zuvlarida bitilgan qadimgi turkiy yodgorliklar ham uchraydi (Sharqiy Turkiston va O‘rta Osiyo).

Xulosa qilib aytganda, O‘rta Osiyoningeng qadimgi xalqlari o‘lgan turkiy va sug‘diylar qadimdan ham madaniy, ham siyosiy mushtarak aloqada bo‘lganligi ularga xos lug‘at boyligida o‘z aksini topgan. Bu esa ikki xalq o‘rtasidagi mushtarak va nomushtarak jihatlarini har tomonlama keng ko‘lamda tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

QO‘QON XONLIGIGA DOIR TARIXIY MANBALARGA XOS NOYOB ISMLAR XUSUSIDA

Uluqov Nosirjon,
NamDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasi
professori, filologiya fanlari doktori
Xalilova Nilufar, Qo‘qon davlat pedagogika instituti
Tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada Qo‘qon xonligiga doir tarixiy manbalarga xos ayrim noyob ismlarning tarixiy-etimologik manbalari, tarkibiy tuzilishi, lug‘aviy va nominatsion-motivatsion asoslari hamda ma’nosi yoritilgan.

Аннотация. В статье описаны историко-этимологические источники, структурная структура, лексические и номинативно-мотивационные основы и значение некоторых уникальных имен, характерных для исторических источников Кокандского ханства.

Abstract. The article describes the historical-etymological sources, structural structure, lexical and nominative-motivational bases and meaning of some unique names specific to the historical sources of the Kokand khanate.

Kalit so‘zlar: *antroponimika, antroponim, ism, noyob ism // raritet ismlar, so‘z, tarixiy-etimologik manba, lug‘aviy asos, ma’no, qo‘shma tarkibli ism.*

Ключевые слова: *антропонимия, антропоним, имя, редкое имя // редкие имена, слово, историко-этимологический источник, лексическая основа, значение, составное имя.*

Key words: *antroponymy, antroponym, name, rare name // rarity names, word, historical-etymological source, lexical basis, meaning, compound name.*

Tilning imkoniyatlari keng va cheksiz, ajibliklarga to‘la. Bu tarixiy antroponimlar sirasida ham kuzatiladi. Antroponimikada tilda kam, siyrak uchraydigan ismlar **noyob yoki raritet ismlar** deb ataladi [1:119; 2:50]. Qo‘qon xonligiga doir tarixiy manbalarga xos tilda kam, siyrak uchraydigan yoki uchramaydigan, antroponimik lug‘atlarida berilmagan *Beko‘g‘libek, Boyshum, Gulmingboy, Jomador, Kunasarixon, Cho‘bin, Mirzod, Cho‘libek, Olishbiy, Oychuchuk, Qulika, Sulton Ilik, Tandi, Taqdirshoh, To‘rajonto‘ra, Tug‘di inoq, Yakkamehr, Shohmastbiy (Chamashbiy)/ Shohmast / Shamast, Shohpisand, Cho‘tan* kabi antroponimlar uchraydi. Mazkur antroponimlarning har biri o‘zining nominatsion-motivatsion, lug‘aviy asosiga, ma’nosiga, tuzilish tarkibiga ega.

Bir necha antroponimlar aynan bir lug‘aviy birlik, antroponimik indikator va ijtimoiy tabaqa ifodalovchi birliklar takrori asosida ohangdoshlik bilan yasalgan, hosil qilingan: *Beko‘g‘libek, To‘rajonto‘ra* kabi.

Antroponimlar tarkibidagi *bek, to‘ra* lug‘aviy birliklarining takrori ismlarga ohangdorlik baxsh etgan. Bu, albatta, turkiy, jumladan, o‘zbek lingvomadaniyatiga xos o‘zgachalikning bir ifodasi.

Beko‘g‘libek – Olimxonning amakisi Hojibekning o‘g‘li. *Olimxonning amakisi Hojibek fitnachilarga sherik bo‘lishda ayblanib, o‘g‘illari Ulug‘bek, Sheralibek,* ***Beko‘g‘libek*** *va ukalari Rustambek, Fozilbek, Yodgorbek, xonzodalardan Dovudqulibek va akalari Bo‘tabekni, uzoqni ko‘ra bilgan holda, andisha qilib, bir dasta sipoh bilan Talas mavzeyiga olib borib, himoyalari uchun posbonlar tayinlab, qaytdilar*. (Ibr.xavoqin, 378).

Beko‘g‘libek tuzilishi jihatdan qo‘shma tarkibli antroponimlar guruhiga mansub bo‘lib, *bek, o‘g‘li va bek* morfemalaridan tarkib topgan.

Bek so‘zi tarixiy-etimologik jihatdan turkiycha bo‘lib, asli *hukmdor, janob* ma’nolarini anglatadi va o‘zbek tilida quyidagi ma’nolarda qo‘llanadi:

1. Qadimiy turkiy xalqlarda xon xizmatidagi alohida harbiy qism vakillari. Ular katta imtiyozlarga ega bo‘lib, oliy harbiy zodagonlar tabaqasini tashkil qilgan.

2. Movarounnahr xonliklarida davlat arboblarining bolalari va yaqin qarindoshlariga, zodagonlarga berilgan faxriy unvon. Bek bolalari “bekzodalar” deb atalib, ular yoshlik chog‘idanoq maxsus tarbiyachilardan harbiy, siyosiy ta’lim olganlar. Ular kelgusida mamlakatni idora qilish, dushman hujumini qaytarish, el-ulus taraqqiyoti yo‘lida sa’yi harakat qilish ruhida tarbiyalangan.

3. Kavkazorti turkiy xalqlarida o‘rta asrlar va yangi davrda yer egasi, mulkdor unvoni.

4. Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida o‘rta asrlarda yer egalari unvoni.

5. Usmonli turk saltanatida viloyat (sanjoq) hokimi; XIX-XX asrlarda bek unvoni yuqori darajadagi turk zobitlari va amaldorlariga berilgan (1934-yili bekor qilingan); XIX asrning ikkinchi yarmidan bek asosan murojaat shakli sifatida qo‘llangan.

6. Eronning ayrim joylarida qabila boshliqlari unvoni.

7. Tunisda 1705-1957-yilarda valiaxd shahzodalarga berilgan unvon [3:680].

Ism tarkibida “davlat arbobining bolasi, beklar avlodiga mansub bek bola” ma’nosida qo‘llangan. *Beko‘g‘libek* antroponimi bek*lar avlodiga mansub bek bola* ma’nosini anglatadi.

To‘rajonto‘ra ham qo qo‘shma tarkibli antroponim bo‘lib, *to‘ra, jon* va *to‘ra* anroponimining takroridan yasalgan.

To‘ra so‘zi ismlar tarkibida quyidagi ma’nolarda qo‘llangan:

1. Oliy toifaga mansub, xon, podshoh farzandi; shohzoda, podshoh o‘g‘li; yo‘lboshchi.
2. O‘tmishda xonlar davrida katta mansabning, hokimning unvoni; mansabdor, ulug‘ martabali.
3. Buxoro xonligida sayyidlarning unvoni bo‘lgan; *rahnamo, sardor* ma’nolarini anglatadi.
4. Odam bo‘yicha keladigan harbiy aslaha (qalqon)ning nomi. Bu vazifada to‘ra so‘zi *muhofaza qilingan, himoyalangan* ma’nolarini anglatadi.
5. Oilada uchinchi o‘g‘ildan keyingi o‘g‘il, ya’ni to‘rtinchi o‘g‘il. Xalq tilida “to‘ra bola”, “to‘ralardek yigit bo‘lsin”, “to‘ram”, “to‘ra o‘g‘il” kabi erkalash, suyish iboralari ham mavjud [4:568].

To‘rajonto‘ra ibn Sayyid G‘ozixonto‘ra – Xudoyorxonning uchinchi o‘g‘li Sayyid Umarbekning tog‘asi. Mahram qaL’asi hokimi. *Anda xonni uchinchi o‘g‘li Sayyid Umarbekni tog‘asi* ***To‘rajonto‘ra*** *ibn Sayyid G‘ozixonto‘ra hokim bo‘lub, biror ming lashkari Farg‘ona ila mazkur qayin og‘asi turur edi*. (Ibr.xavoqin, 334).

Tahlillardan anglashiladiki, ismga lug‘aviy asos bo‘lgan va takror qo‘llangan *to‘ra* so‘zi ism tarkibida “oliy toifaga mansub, xon, podshoh farzandi; shohzoda, podshoh o‘g‘li; yo‘lboshchi, hokim, mansabdor, ulug‘ martabali” ma’nolarida, *ruh, tiriklik, hayot* semalarini ifodalovchi *jon* esa *hurmat, ehtirom, erkalash, suyish* ma’nolarida qo‘llangan [5:578]. Demak, *To‘rajonto‘ra* antroponimi *to‘ralar avlodiga mansub hurmatli, ehtiromli, suyimli mansabdor, ulug‘ martabali* ma’nosini anglatadi. Fikrlarimizni uning nasl-nasabi, amali va otasining unvonlari ham tasdiqlaydi.

Noyob ismlardan yana biri *Jomador* antroponimidir: *Jomador* – 1860-1865-yillarda Qo‘qon to‘pchiboshisi. *O‘sha vaqtda* ***Jomador*** *Afg‘on – dorul-amorat noibi, poytaxt to‘pchilariga buyurib to‘plarni nasoro to‘plarga qarshi uzunasiga joylashtirib, ota boshladi*. (Ibr.xavoqin, 267).

O‘zbek tilida fors tilidan o‘zlashgan *jom* va *joma* so‘zlari bor. Forscha jom so‘zi asli piyola, qadah; kosa ma’nolarini ifodalaydi. O‘zbek tilida *mis tog‘ora, tos; sharob ichiladigan idish; qadah; metall nog‘ora, gong* ma’nolarida qo‘llanadi.

Forscha joma so‘zi asli *libos* lug‘aviy ma’nosini anglatadi. Tilimizda quyidagi ma’nolarda iste’molda:

1. Kiyim, libos.
2. Kam o‘rinlarda aynan jom ma’nosida [6:101-102].

Ismga ana shu *joma* so‘zining uchinchi, ya’ni jom – *metal nog‘ora, gong* ma’nosi asosida *-dor* qo‘shimchasi vositasida yasalgan *jomador – nog‘arachi* so‘zi lug‘aviy asos bo‘lgan. Anglashiladiki, *Jomador* antroponimi *nog‘arachi* demakdir.

O‘zbek tilida *Kunash, Kunberdi, Kunbeka, Kunjamol, Kunyigit, Kunmurod, Kunnazar, Kunsulton, Kunsuluv* kabi ismlar uchraydi. Manbalarda shu turkumga mansub *Kinasarixon* antroponimi uchraydi: *Kinasarixon* – qozoq xoni. ***Kinasarixon****ning oti charchab, otdin tushub, bir tepaning ustida turgan ekan, oni ushlab olindi.* (T.Turkiston, 135).

O‘zbek tilida *mir so‘zi* tarixiy va zamonaviy *Mirziyo, Mirziyod, Mirzoda, Mirzohid, Mirzoir, Mirzokir, Mirilyos, Mirislom, Mirmahmud, Mirkamol, Mirkarim, Mirkomil, Mirmaqsud, Mirmurod, Mirodil, Mirmo‘min, Mirnazarkabi* yuzlab ismlar tarkibida *amir* ma’nosida uchraydi [4:241]. Ismlar lug‘atida qayd etilmagan *Mirzod* antroponimi ham kuzatiladi. Ismlar shu turkumga mansub *Mirzoda* (*ft.*) ismiga *amirning o‘g‘li, farzandi; aslzodalar nasliga mansub bola* deb izoh berilgan. Demak, *Mirzod* ismi ham shu ismga yaqin bo‘lib, *amirlar avlodiga mansub bola; amirzoda* ma’nolarini anglatadi.

O‘zbeklarda cho‘lda tug‘ilgan o‘g‘il bolaga ezgu orzu-niyatlar bilan *Cho‘lbosh* (cho‘lda tavallud topgan to‘ng‘ich bola), *Cho‘limurod* (cho‘lda tug‘ilgan bola murodiga yetsin yoki cho‘lda erishilgan orzu, tilak), *Cho‘lli* (cho‘lda tug‘ilgan bola); qizlarga *Cho‘lbibi* (cho‘l (dasht)da tug‘ilgan baland martabali qiz yoki mushtoq bo‘lib yurib erishilgan qiz) kabi ismlar qo‘yiladi. Qo‘qon

tarixiy manbalarida bunga qo‘shimcha tarzda *Cho‘libek* ismi uchraydi. Mazkur antroponim *cho‘lda tavallud topgan beklar avlodiga mansub bola ma’nosiga ega.*

Cho‘libek – Xudoyorxonning mingboshisi bo‘lgan Muhammadiyor mingboshining yaqin kishilaridan. *Mullo* ***Cho‘libek****, Olishbiy singari qancha ishonchli kishisi bo‘lsa va boshqa nechalarni Turkistonga surgun qilib yubordi.* (T.jahonnamoyi, 121).

Tilimizda *xizmatchi, tobe, banda; ersiz* ma’nolarini anglatuvchi *qul* so‘zi vositasida yasalgan *Qulmuhammad, Muhammadqul, Qulali, Qulahmad, Qulbashar, Qulbek, Qulberdi, Qulbobo, Qulboy, Quljon, Qulzoda, Qulzoda, Qulzaynab* kabi o‘nlab ismlar bor [4:549-550]. Qo‘qon tarixiy manbalarida *Qulika* antroponimi uchraydi: *Qulika* – Qo‘qon xoni Abdurahimxon davrida (1721-1733) O‘ratepa hokimi. *Ikkinchi yil yangidan askar va qo‘shin tartib etib O‘ratepa shahriga borib, muhosara aylab, oni ham fath qilib,* ***Qulika*** *nomli O‘ratepa hokimini dastgir aylab, fasth va nusrat ilan Xo‘qand shahriga qaytibdur*. (T.Turkiston, 50). Bizningcha, *Qulika* ismi *Allohning beklar avlodidan bo‘lgan xizmatkori* ma’nosini anglatadi.

Sulton Ilik // Sulton Elik – Oltin Beshikning o‘g‘li. *Bu nikohdan bir o‘g‘il vujudga keldi va unga “Sulton Ilik” deb ot qo‘ydilar*. (Ibr.xavoqin, 39). O‘zbek tilida *Sulton, Sultonbek, Sultonali* kabi ismlar ko‘p uchraydi, biroq *Sulton Ilik* ismi ikkinchi qismi nuqtai nazaridan noyob ismlar sirasiga kiradi.

Ilik lug‘aviy birligi qo‘l ma’nosida eskirgan so‘zlar qatlamiga mansub. Ism tarkibida aynan shu ma’noda qo‘llangan[2:191]. Demak, *Sulton Ilik* antroponimi
sultonning ishongan qo‘li bo‘lsin degan orzu-niyat mahsuli.

Tilimizda tug‘ so‘zi lug‘aviy asos bo‘lgan Tug‘boy, Tug‘mat, Tug‘murod, Tug‘muhammad kabi ismlar mavjud. Bunday ism *belgili, bayroqli bola* ma’nolarini bildiradi, asosan, o‘g‘il bolalarga qo‘yiladi [4: 443].

Tug‘di inoq – Muhammadalixonning qo‘shin boshliqlaridan. “Ertasi xitoylardin tushurib olgan jazoir va kamon va aslaha va qalmoq va xitoylik asirlarni Muhammadalixonning xos nadimlaridin **Tug‘di** inoq deganni bosh qilib, Xo‘qand shahriga yuborub, qo‘shun to‘g‘ri Qoshg‘ar shahriga doxil bo‘lubdur”. (T.Turkiston, 95).

O‘zbek tilida *mehr* so‘zi lug‘aviy asos bo‘lgan *Mehrali, Mehri, Mehriali, Mehribek, Mehribon, Mehrigul, Mehrigo‘zal, Mehridil, Mehrjon, Mehriniso, Mehriyor, Mehrijamol, Mehrinigor* kabi o‘nlab ismlar bor [4:231]. Bulardan farqli Yakkamehr antroponimi uchraydi. Antroponimga yakka va mehr so‘zlari lug‘aviy asos bo‘lgan, mazkur qo‘shma tarkibli ism *quyoshdek yakka bola* ma’nosini anglatadi. *Yakkamehr* – Sheralixon davlatida mingboshi bo‘lgan. *Andin so‘ng Yakkamehr* mingboshi *bo‘lub, hukumat dastgir qilib, atrof va javonibdin boxabar va o‘z ishig‘a hushyor bo‘lub, bir suqub o‘n marta atrofg‘a qarar erdi.* (Ansob., 34).

Qo‘qon xonligi manbalarida qardosh tillarga, xususan, qirg‘iz tiliga mansub ayrim antroponimlar ham uchraydi. Masalan, *Cho‘tan* **–** qirg‘iz amaldori, ya’ni erkak ismi.

Cho‘t shevaga xos bo‘lib, teshani ifodalaydi. *Daraxtlarni* ***cho‘t*** *bilan, bolta bilan qirqib, o‘tni yoqib, famil choyni damlab, egarini kursi qip, aslahasini yerga qo‘ydi.* “Yusuf va Ahmad” [7:526].

O‘zbek tilida mazkur ismga uyqash *Cho‘tboy, Cho‘tmamat, Cho‘tmat, Cho‘tmuhammad, Cho‘tpo‘lat* ismlari bor, biroq E.Begmatovning lug‘atida ham *Cho‘tan* antroponimi qayd etilmagan[4: 443].

Mazkur ismlarning lug‘aviy asosi cho‘t so‘zi tesh ma’nosini anglatadi.

Internet manbalarida *Cho‘tan* ismi o‘g‘il bolalarga qo‘yilishi, *baquvvat, qo‘rqmas, chaqqon, dovyurak* ma’nolarini anglatishi qayd etilgan [8:443]. Bizningcha, bu izohlar xato. *Cho‘tan, Tesha* antroponimlari sinonim, *tesha kabi mustahkam va o‘tkir bo‘lib o‘ssin, balo-qazolarga chidamli bo‘lsin* ma’nosiga ega.

Cho‘tan dodxoh laqabini olgan: *Cho‘tan dodxoh* – Xudoyorxon davrida yashagan qirg‘iz amaldori. *Sayidbek dodxoh, Fo‘lod dodxoh,* ***Cho‘tan dodxoh****, Mullo Murod dodxoh, Qo‘ychibiy, Devona dodxoh kabi va har biri necha bir qirg‘iziya urug‘ va aymoq va jumbag‘ishiya, qirg‘iz-qipchoqiyaning sardori bo‘lmish boshqalarga odam yuborib,* …(T.jahonnamoyi, 216).

Shuningdek, xonlikka doir tarixiy manbalarda *Bechora, Ogʻuy, Olishbiy, Choʻbin* kabi noyob ismlar ham uchraydi:

Bechora – Qoʻqon xoni Abdurahimbiy davrida (1721-1733) noib, qozi. *Xullas, taniga shu kasallik yopishgach, xon oʻzining noibi sifatida Annaquli dodxoh va mullo* ***Bechora****ni Samarqandda qoldirib, oʻzi Xoʻqand sari qaytdi*. (Muntaxab., 230).

Ogʻuy botur – dashti qipchoqlik qirgʻiz sipohlaridan biri. *Kamina muharrir Qarqaroli uyezdiga tobe yetmish besh yoshlik mazkur qirq yigitlarning mashhur bahodirlaridin* ***Ogʻuy*** *botur deganni, bu tarixdin qirq ikki yil muqaddam Choʻlak mavzeyida koʻrub soʻzlashgan edim.* (T.Turkiston, 134).

Olishbiy – Xudoyorxonning mingboshisi boʻlgan Muhammadiyor mingboshining yaqin kishilaridan. *Mullo Choʻlibek,* ***Olishbiy*** *singari qancha ishonchli kishisi boʻlsa va boshqa nechalarni Turkistonga surgun qilib yubordi.* (T.jahonnamoyi, 121).

Mavlaviy Choʻbin – Xudoyorxonning uchinchi xonligi davrida (1865-75) Qoʻqonda yashagan taraqqiyparvar olim, alloma. 1875-yili olomonni oʻrda talon-tarojidan toʻxtatmoqchi boʻlganda oʻldirilgan. *Hamda Xoʻqanddagi maqbuli omma, ustozu ulamoi Xoʻqand boʻlgan Mavlaviy* ***Choʻbin*** *domulloni noinsof fuqarolar bosib borib, xoʻb kaltaklab oʻldirib qoʻydilar*. (T.Aziziy, 31).

Ключевые слова: Добускала, Ковчег, памятник, святыня, мавзолей, надгробие, «Имам Бахра ота», письмо сулуса, мраморный камень.

Buyuk Ipak yo‘lining markaziy tarmoqlari Samarqand Sug‘di orqali o‘tgani bois markaziy Sug‘d hududida joylashgan Dabusiya shahri qadimda xalqaro savdo-sotiq munosabatlarida muhim o‘rin tutgan. Bu shaharda nafaqat savdo-sotiq, balki me’morlik, hunarmandlik, to‘qimachilik,

kulollik va dehqonchilik kabi sohalar ham ancha rivoj topgan. Jumladan, ipdan to‘qilgan “vedariy” navli matosi jahon bozorlarida juda xaridorgir bo‘lgan. Bu gazlama “Xuroson parchasi” deb ham atalgan[65]. Yozma manbalar, arxeologik ma’lumotlar va ilmiy tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, Dabusiya shahrida mo‘g‘ullar istilosiga qadar – XIII asr boshlarigacha hayot qaynagan. Undan so‘ng shahar hududi ancha torayib, u bir qaL’aga aylangan va DabusqaL’a nomini olgan. XX asrning 30-yillariga kelib, uning katta qismi qabristonga aylanib ketgan. Hozirgi kunda DabusqaL’a xarobalari Samarqand viloyati Paxtachi tumani hududidan oqib o‘tuvchi Zarafshon daryosining chap qirg‘og‘idagi DobusqaL’a qishlog‘ining shimoliy tomonida saqlanib qolgan bo‘lib, tarixiy manbalarda Dabusiy nisbasi bilan tanilgan allomalar ko‘p uchraydi[66]. “Dabusiya” so‘zining etimologiyasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, “Dabus” so‘zi “temir qo‘rg‘on” degan ma’noni bildiradi. Shahar devorlari mustahkam qurilgani uchun shunday atalgan[67]. Yodgorlik uch qismdan: Ark, shahriston va rabotdan iborat bo‘lgan. Ark yodgorlikning shimoli-g‘arbiy burchagida joylashgan. Arkning shimolidan Zarafshon daryosi oqib o‘tadi, g‘arbiy qismi esa baland mudofaa devori bilan o‘ralgan. Arkning janubiy qismi shahristondan chuqur xandaq bilan ajratilgan. Ark bilan shahriston faqatgina sharqiy tomondan bir-biriga tutashgan. Arkning shimoliy qismini hozir Zarafshon daryosi yuvib bormoqda. Daryo yuvgan tomonda 5-6 metrlik madaniy qatlam va unda mavjud bo‘lgan badrablar yaqqol ko‘rinib turibdi[68]. Shahristonning janubi-g‘arbiy qismida XVI-XVII asrlarga oid pishiq g‘ishtdan barpo qilingan maqbara mavjud. Uning ichkari va tashqarisida bir nechta qabr bor. Ularning ustiga marmar tosh qo‘yilgan. Xalq orasida mazkur qabrlarga dafn qilingan shaxslar haqida turlicha qarashlar mavjud. Ayrimlar maqbara ichkarisidagi qabrda Abu Hurayra dafn etilgan, desa, boshqalar Imom Bahra ota nomli shaxs dafn etilgan,- deydi. Bu holatga aniqlik kiritish va qabrtoshlardagi bitiklarni o‘rganish maqsadida O‘zFA Arxeologiya instituti ilmiy xodimi tarix f.n. Komil Rahimovning taklifiga ko‘ra, 2013-yil oktyabr oyida ilmiy safar tashkil etiladi.

O‘rganish jarayonida quyidagilar ma’lum bo‘ldi: Ziyoratgoh atrofida obodonlashtirish ishlari olib borilayotgan vaqtda arab xatida yozilgan toshbosma kitoblarning ba’zi varaqlari topilgan. Ular 1850-1880-yillarda bosilgan turkiy va forsiy tillardagi adabiyot, islom huquqshunosligi va she’riyatiga oid kitoblarga tegishli. Varaqlarda hikmat, rivoyat va g‘azallar yozilgan. Ular yirtilib, ayrim joylari chirib ketgan. Xatto ba’zilari tuproqqa qorishib, bir-biriga yopishib qolgan. Shu bois u sahifalardagi yozuvlarni to‘liq o‘qib bo‘lmaydi. Ustiga-ustak, ular raqamlanmagan ham. Ba’zi varaqlarda poygir qo‘yilgan, ba’zilarida esa yo‘q. Maqbara ichidagi qabrga yer sathidan pishiq g‘isht terilib, taglik qilingan. Ustidan balandligi 183 sm, eni 63 sm, qalinligi 13 sm, o‘lchamli marmartosh janubga sal qiya holatda yotqizilgan. Uning ustiga silliqlab pardozlangan to‘rt burchakli katta ko‘k marmartosh qo‘yilgan. Ko‘k toshning uzunligi 163 sm, eni 36 sm, balandligi shimoldan 50 sm janubdan 48 smni tashkil etadi. Toshning ustki qismi chetlari bo‘ylab aylanasiga to‘rt burchakli shakl chizilgan. O‘tkir did bilan hoshiyalangan sag‘ana toshi o‘rtadan ikki joydan nafis naqshlar bilan birlashtirilgan va suls xatida arabiy yozuvi bilan chiroyli qilib bezatilgan[69]. Qabrtoshda arab tilida suls xatida: “Bu – gunohlari mag‘firat qilingan abror bandaning qabri. Bu – jannat bog‘laridan biri. U shahid bo‘lgan buyuk va yetuk Imom Bohirning joyi. “Oliy jannatda, jannat mevalari yaqin” bo‘lgan bog‘cha. Alloh u zotga hijriy bir ming sakkizinchi (1008/1599) yilda o‘z jannatidan joy berdi”, mazmunidagi bitik yozilgan.
Islom olamida alohida o‘rin tutgan va yuksak nufuzga ega bo‘lgan siymolarning faoliyatini kelgusi avlodlarga ibrat qilish maqsadida maqbaralarini hashamatli qilib qaytadan bunyod etishga xalifa Muntazir davridan (aniqrog‘i 812-yildan) boshlab ruxsat etiladi.

[65] Беленицкий А.М. Монументальное искусство Пенджикента. –Москва: Наука,1973.-Б. 272-274.
[66] Исаев М.Й. Имом Баҳра Ота зиёратгоҳидаги эпиграфик манбалар.- Published February 10, 2022 | Version online. // 3 Бердимурадов А.Э., Уно Такао, Раҳимов К.А. Дабусияда ўтказилган археологик тадқиқотлар. //Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2006-2007 йиллар 6-сони. –Т.: Фан, 2009. –Б. 5.
[67] Санаев И. Бу кўҳна дунё. –Тошкент: Адолат, 1996. –Б. 14.
[68] Бердимурадов А.Э., Уно Такао, Раҳимов К.А. Дабусияда ўтказилган археологик тадқиқотлар.
// Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2006-2007 йиллар 6-сони. –Т.: Фан, 2009. –Б. 76.
[69] Исаев М.Й. Имом Баҳра Ота зиёратгоҳидаги эпиграфик манбалар.- Published February 10, 2022 | Version online.

Hozirgi koʻrinishdagi maqbara Shayboniylar sulolasining yirik namoyondasi Abdullaxon II tomonidan 1590-yillarda qayta qurilgan. Maqbaradan tashqarida janubiy, ya’ni oyoq uchi tarafda yana bir qabr boʻlib, uning ustiga ham koʻkimtir marmardan tayyorlangan qabrtosh oʻrnatilgan. Toshga yaxshi ishlov berilgan boʻlib, uning balandligi 179 sm., eni 53 sm., qalinligi 11 sm.ni tashkil etadi. Qabrtoshda arab tilida suls xatida: “Bu – vafot etib, Alloh rahmatiga yetgan, magʻfirat qilingan bandaning qabri. Bu bogʻ yashillikka burkangan jannat bogʻlaridan bir bogʻ va Rizvon bogʻlaridan bir bogʻdir. Alloh uni jannat mevalari yaqin boʻlgan, oliy jannatga joylashtirdi. (Bu) muqaddas qabr (mashhad) ulugʻ va buyuk amir doʻstim Chashm Abroʻ ibn Amir Sulton Ahmad biyniki, // Alloh ularning gunohlarini kechirsin va ayblarini pinhon qilsin. Nabiy (S.A.V.) hijratlaridan bir ming sakkiz (1008/1599) yil oʻtib (vafot etdi)”, mazmunida bitilgan yozuv bor.

Maqbara bir necha marta ta’mirlangan. Kamtarona shakldagi ilk maqbara dastlab VII asrda bunyod etilgan[70]. Qabrtoshdagi yozuvlardan maqbara ichidagi qabr Imom Bohirniki ekanligi ma’lum boʻlsa, maqbara tashqarisidagi ikkinchi qabr Abroʻ ibn Amir Sulton Ahmadbiyniki ekanligini bilib olish mumkin. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, bu ziyoratgoh xalq orasida “Imom Bahra ota” nomi bilan mashhur. Uning ustiga qurilgan maqbara esa undan soʻng XVI-XVII asrlarda barpo etilganini xulosa qilish mumkin. Bu obida Buxoro hukmdori Amir Haydar tashabbusi bilan 1817-yilda qayta ta’mirlangan. Ushbu maqbarada soʻnggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarning koʻrsatishicha, bu yerga dafn etilgan ulugʻ shaxs haqida aniq; ma’lumotlar olishning imkoni boʻlmagan. Maqbara ichi va atrofidagi qabrtoshlardagi yozuvlarni oʻrganish ham aniq ma’lumot bermadi. Bu boradagi ilmiy tadqiqotlar davom etmoqda. Buxoro amaldorlari hamkorligida yoʻl-yoʻlakay Ziyovuddin bekligi yaqinlari va aholisidan bu ma’lumotlarni soʻrab bilib olgan Buxorodagi bir qancha islom olimlari ham tekshirib ma’qulladilar. Oʻylaymizki, kelgusida DabusqaL’a yodgorligida olib boriladigan tadqiqotlar yana ham keng koʻlamli boʻlib, buning natijasida shahar tarixi va Imom Bahraning shaxsiyatiga oid hali noma’lum boʻlgan jihatlar ochib beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar roʻyxati.

1. Belenitskiy A.M. Monumentalnoye iskusstvo Pendjikenta. –Moskva: Nauka,1973.-B. 272-274.
2. Qulmatov SH., Berdimurodov A. Samarqand yodgorliklari.-Samarqand, Imom Buxoriy nashriyoti,2017.-b.151.
3. Isayev M.Y. Imom Bahra Ota ziyoratgohidagi epigrafik manbalar.- Published February 10, 2022 | Version online.
4. Sanayev I. Bu koʻhna dunyo. –Toshkent: Adolat, 1996. –B. 14.

OILA TAVSIFI VA TALQINI

Muhtarama Inayatullayevna XALILOVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti
Filologiya va tillarni oʻqitish kafedrasi Ingliz tili oʻqituvchisi

Annotatsiya. Ma’lumki, oila jamiyatning ajralmas boʻgʻini hisoblanadi. Qadimgi sharq xalqlarida “Oila – vatan ichra vatan”, “Oila – mehr-oqibat maskani”, “Oila – baxt qoʻrgʻoni” kabi purma’no hikmatlarning mavjudligi oilaning inson va jamiyat hayotidagi oʻrni naqadar beqiyos ekanligining yorqin dalilidir. Shuningdek, “Vatan ostonadan boshlanadi” deganda ham “ostona” soʻzining “oila”, “xonadon” ma’nolarida qoʻllangani hech kimga sir emas, albatta.

Kalit soʻzlar: oila, ota-ona, er-xotin, oqpadar, nikoh, sevgi-muhabbat, suyanchiq, itoatkor, kechirimlilik.

Аннотация. Как известно, семья является неотъемлемым звеном общества. Наличие у народов Древнего Востока таких пурпурных пословиц, как” семья – Родина внутри страны“,” семья-обитель добра“,” семья – крепость счастья " - яркое свидетельство того, насколько непревзойденна роль семьи в жизни человека и общества. Не секрет, конечно, и в том, что

[70] Qulmatov SH., Berdimurodov A. Samarqand yodgorliklari.-Samarqand, Imom Buxoriy nashriyoti,2017.-b.151.

слово “порог” употребляется в значении “семья”, “дом”, даже когда говорят “Родина начинается с порога”.

Ключевые слова: семья, родитель, пара, белый, брак, любовь-любовь, спинка, послушание, прощение.

Abstract. As you know, the family is an integral part of society. The presence of such purple proverbs among the peoples of the Ancient East as ”the family is the Homeland within the country“, ”the family is the abode of goodness“, ”the family is the fortress of happiness" is a vivid evidence of how unsurpassed the role of the family in human life and society is. It is no secret, of course, that the word “threshold“ is used in the meaning of ”family“, ”home", even when they say “Homeland begins from the threshold”.

Keywords: family, parent, couple, white, marriage, love-love, back, obedience, forgiveness.

Oila jamiyat tarixida azaldan mavjud bo‘lmagan. Ibtidoiy jamoa tuzumining birinchi bosqichida, kishilar to‘da-to‘da bo‘lib yashayotgan davrda jinslar orasidagi munosabatlar muayyan tartib-qoidaga ega bo‘lmay, to‘dadagi barcha erkaklar va ayollar bir-birlariga umumiy er-xotin hisoblangan. Ijtimoiy ishlab chiqarish – chorvachilik va dehqonchilikning rivojlanishi bilan erkaklar mehnatining qadri oshdi, mahsulot ishlab chiqarishda ulushi ortdi, binobarin, ularning ijtimoiy mavqeyi ham tubdan o‘zgardi. Mavjud qoida tartiblar – farzandlarning onagagina tegishli bo‘lishi, ona mulkiga merosxo‘r sanalishi erkaklarning yangi mavqeiga zid kelib qoldi. Natijada ota huquqiga asoslangan patriarxal oila vujudga keldi. Shunday qilib, hozirgi individual oilaning o‘tmishdoshi vujudga kelgan”.

Oila jamiyatning tayanchi, uning birinchi yadrosi, zarrasidir. Ongli oila bo‘lib yashash dunyodagi barcha jonzotlar orasida faqat inson zotiga xosdir. Oilaviy hayot, oila bo‘lib yashashning tarixiy asoslari haqida so‘z yuritganda, diniy qadriyatlar va xalq pedagogikasiga oid manbalar muhim ahamiyatga molik ekanligini alohida ta’kidlasa bo‘ladi. “Avesto”da oila mustahkamligini saqlash, nikoh tartiblari, er-xotinning majburiyatlari, nikoh tuzish va bekor qilishning qonun-qoidalari batafsil ko‘rsatib o‘tiladi. Unda oila qurish, jufti halol tanlashda shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘ymaslik, ota-ona, keksalar nasihatiga quloq tutish kabi maslahatlar haqida ham qimmatli mulohazalar mavjud. Oila tarixining Odam Ato va Momo Havodan boshlangani ham diniy kitoblarda rivoyat qilinadi. Uzoq taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan Markaziy Osiyo xalqlari Sharq Uyg‘onishi davrida yangi bosqichga qadam qo‘ydi. Bu tarixiy davrning mohiyatini islom madaniyati tashkil etadi. Islom dini oilaviy munosabatlarning hayot haqiqatlariga, adolat tuyg‘usiga va insonparvarlikka asoslangan ma’naviy mezonlarini yaratdi, ayollarning oila va jamiyatdagi haq-huquqini belgiladi. Hatto musulmon olamining muqaddas manbasi Qur’onda ham “Qilinadigan yaxshilikning eng afzali kishining o‘z oilasiga qilganidir. Bunday yaxshilikning bir uchi o‘zingizga ham etib turadi” kabi ko‘plab purhikmat oyatlarni uchratish mumkin.

Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf-odatlarni o‘zida sinovdan o‘tkazadi. Oiladagi yozilmagan qonun-qoidalar avloddan avlodga o‘tib, sayqallanib boradi. Ayniqsa, oilada azaliy madaniy urf-odatlar saqlanadi va avlodlarga o‘tib boradi. Oila o‘z davomchillarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga boshlang‘ich ijtimoiy yo‘nalish beradi. Oilada boshlangan mas’uliyat insonlarni jamiyatning fidoyi a’zosiga aylantiradi. O‘z farzandlarini katta oqimga – jamiyatga qo‘shish bilan esa oila jamiyat yo‘nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma’rifatini ham belgilashga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo‘rg‘on hisoblanib kelingan. Xususan, o‘zbek oilalarining serildizlik, serbutoqlik xususiyatlari hozir ham saqlanib turibdi. O‘zbeklarda oilalarning muayyan turmush tarzi shakllanib hayotiy tajriba orttirib borishi, tejamli va sarishta ro‘zg‘or tutishi, farzandlarni odobli, ma’naviy yetuk bo‘lib kamol topishida keksalar, ota-onaning roli katta. O‘zbek oilalari o‘zlarining mustahkamligi, saranjom-sarishtaligi, bolajonligi, qarindosh-qondoshlik rishtalarini hurmat qilishi, mehr-oqibatli va boshqa qadriyatlari bilan ajralib turadi.

Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasini tashkil etadi. Jamiyat katta-kichik oilalardan iborat. Bu oilalar qanchalik mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham shunchalik mustahkam bo‘ladi. Oilaning bu xususiyati birinchi galda uning jamiyat manfaatlari bilan bog‘liqligida hamda ijtimoiy vazifalarida ifodalanadi. Mustaqillik yillarida oila fenomeniga davlat ahamiyati darajasida e’tibor

qaratilganligi, oilani har taraflama rivojlantirish, uni qo‘llab-quvvatlash hamda ijtimoiy-ma’naviy himoya qilishga astoydil kirishilganligini alohida ta’kidlash zarur. Mamlakatda har bir oila va har bir insonning turmush farovonligini, fuqarolar totuvligini mustahkamlashga qaratilgan dasturiy maqsadlarga asoslanib ish olib borilmoqda.

Bu, avvalo, asosiy qomusimiz bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o‘z ifodasini topdi. Bosh qomusimizning 14-bobi “Oila” deb nomlangan. Jumladan, Konstitutsiyaning 63-moddasida oilaning jamiyatning asosiy bo‘g‘ini ekanligi hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga egaligi, oila qurishga asos bo‘luvchi nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanishi to‘g‘risida fikrlar alohida ta’kidlab o‘tilgan. Ayniqsa, keyingi yillarda mamlakatimizda oila va mahalla institutlarini shakllantirish, ularda xotin-qizlar va yoshlarning o‘rnini mustahkamlash, yosh oilalarni har tomonlama himoya qilish masalalarida keng ko‘lamdagi islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlab o‘tkazilgan tantanali marosimda so‘zlagan nutqida ham bu borada amalga oshirilgan ishlar ta’kidlab o‘tilgan: Barchangizga ma’lumki, biz uchun mehr-muhabbat qo‘rg‘oni bo‘lgan oila institutini mustahkamlash keyingi paytda yurtimizda davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ana shu siyosatni belgilaydigan muhim hujjat – O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi qabul qilindi. Oila masalasini kompleks o‘rganib, mavjud holatni tahlil etish, monitoring qilish va baho berishga, ilmiy tadqiqotlar orqali oila farovonligini oshirishga xizmat qiladigan yangi tizim yaratildi.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli, 3-jild. – Toshkent: O‘zME, 2007. – B. 97.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2 tomlik, 1-tom. – Moskva, 1981. – B. 526.
3. Shayx Muhammad Sodiq. Baxtiyor oila. – Toshkent: Hilol-nashr, 2023. – B. 28.

KITOB VA KITOBXONLIK MAVZUSINING O‘ZBEK, RUS, INGLIZ MAQOLLARIDA YORITILISHI

Bozorova Gulchehra Nazarovna,
NDKTU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada kitob mavzusi o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi maqollarda ko‘rib chiqilgan va ushbu mavzuning har bir millat rivoji uchun ahamiyati qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: o‘qishning ahamiyati, yoshlikni rivojlantirish, maqol va matallar, kitob tushunchasining universalligi, mavzuning o‘ziga xosligi, umumiy madaniy talqin.

Texnika taraqqiyoti davrida, hayotning ijtimoiy-madaniy sohasidagi tezkor o‘zgarishlar, insoniyatning axloqiy va axloqiy me’yorlarini qayta ko‘rib chiqish yosh avlodga alohida e’tibor qaratilmoqda. U davlatning kelajagi, dunyoning umumiy manzarasida uning iqtisodiy va tarixiy o‘rni, har bir alohida mamlakat taraqqiyoti uchun katta mas'uliyatni o‘z zimmasiga oladi. Axloqiy qadriyatlarning qiyin tanlovi va zamonaviy, ko‘pincha siyosiy shartli vaziyatga duch kelgan har bir o‘spirin uchun to‘g‘ri yo‘lni topish va bolalik davrida singdirilgan umuminsoniy qadriyatlarni saqlab qolish oson emas. Kitob bu masalada muhim rol o‘ynashi mumkin, chunki kitob bizning doimiy yordamchimiz, tasalli beruvchi va o‘qituvchimiz bo‘lib qoladi. Barchamizga kitob kerak, chunki o‘qish bizni rivojlantiradi, biz savodli bo‘lamiz, fikrlash doiramiz kengayadi, bilim aloqalarimiz to‘ldiriladi. Bizning o‘qish uchun sarflagan vaqtimiz eng foydali ish deb hisoblanadi. Barcha dunyo madaniyatlarida qadimdan odamlar badiiy adabiyotlarni o‘qishga alohida e’tibor berishgan. Bolaligimizdan hammamiz Vatan, o‘z xalqimiz va butun dunyo nomidan o‘z manfaatlarini va hatto o‘z hayotlarini qurbon qilishga qodir zaif va qashshoqlarni himoya qilish uchun tik turgan ertak qahramonlari va haqiqiy qahramonlar bilan tanishganmiz.Boshqacha qilib aytganda, hayotimizning dastlabki kunlaridanoq biz kattalar o‘qigan kitoblardan atrofimizdagi dunyo haqida bilib olamiz. Kitoblar o‘zimizni, fikrlarimizni, turli vaziyatlarda tushunishga yordam beradi.Har bir millat, har bir madaniyat qanday qilib yashashga, nimani hurmat qilishga, har xil sharoitda qanday harakat qilishga yordam beradigan o‘ziga xos

dono fikrlarga ega. Biroq, mentalitet, madaniy an'analar farqiga qaramay, bizda turli xil qarashlar va xalqlarni birlashtira oladigan umumiy qadriyatlar mavjud.

Xalq donoligi xazinasiga kiruvchi maqol va matallar – umuminsoniy qadriyat va jozibadorligi bilan aytilgan so‘zlar yoshlar orasida kitob mutolaasiga bo‘lgan qiziqishini oshirishga va ularning rolini kuchaytirishga yordam beradi.Ularda mujassam bo‘lgan haqiqatlar, mintaqaviy, diniy, milliy va boshqa xilma-xilliklariga qaramay, birinchi navbatda, ularning ta’siri ko‘p asrlar davomida barcha mamlakatlarda bir xil darajada ommalashgan va talabga ega. Umumiy haqiqatlardan tortib, inson tajribasiga asoslangan aniq tavsiyalar, ogohlantirishlar va mulohazalargacha bo‘lgan,ularni o‘qitishning qisqaligi har birimizni ma’lum bir tarzda harakat qilish va o‘zini tutishga undaydi. Maqollar bilan tanishganda, nima uchun odamlar ularni umuman ishlatishini so‘rash mumkin. Ma’lumki, maqollar odatda nutqning oddiy she’riy bezaklari vazifasini o‘tamaydi va insonning falsafiy iboralarni ko‘paytirishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatilmaydi. Qoida tariqasida, ular kundalik aloqaning turli xil sharoitlarida amaliy maqsadlarda foydalaniladi.

Maqollar ko‘p maqsadlarga xizmat qilishi mumkin. Birinchidan, maqollar har doim didaktik funksiyani ifoda etgan va hanuzgacha bajarib kelmoqda. Ularning yordami bilan biz odamlarga biron bir narsani o‘rgata olamiz, ularga maslahat beramiz yoki qiyin vaziyatlarda yordam beramiz, eng muhim narsalarni ko‘rsatib, hayotdagi to‘g‘ri yo‘lni taklif qilamiz. Ikkinchidan, maqollar shaxsiy munosabatlarda juda tez-tez ishlatiladi. Ular ogohlantirish, taklif, tanbeh, tushuntirish, bahona, xulosa yoki sharh vazifasini bajarishi mumkin.Uchinchidan, maqollar biz kimnidir obro‘sizlantirish yoki birovni tanqid qilish vositasi. Muloqotning odobli shaklidan foydalanib, qisqa, mazmunli jumla bilan biz o‘z fikrlarimizni yashirib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shaxsan aytishga jur'at etolmaydigan gaplarni aytishimiz mumkin.

Shuni ta’kidlash kerakki, siz o‘zbek, rus va ingliz tillarida xalqning ajdodlari merosi va ularning bilimlariga – kitoblarga bo‘lgan hurmatini ko‘rsatadigan ko‘plab tuzatuvchi maqollar va so‘zlarni topishingiz mumkin, chunki bu kitoblar butun donolikni saqlaydi marta. Turkiy o‘zbek tili da k itoblarning beqiyosligi, ularning insoniyat taraqqiyotidagi o‘rni to‘g‘risida ko‘plab maqollar mavjud.

O‘qigan – guliston, o‘qimagan – go‘riston.

Kitob bilim bulog‘i, o‘quvchining o‘rtog‘i.

Bilim baxt keltirar.

Kitob – xazina, bilim – boylik.

Rus xalqining maqollari ham kitobni sevishga va ularni ardoqlashga chaqiradi. Shuni ta’kidlash kerakki, rus tilidagi maqollar nafaqat kitoblarning o‘zi, balki kitobxonlar haqida ham gapiradi.

С книгой жить – век не тужить. (Kitob bilan yashash bir asr davomida qayg‘uchekmaslikdir.)

Книги читать – не в ладоши играть. (Kitob o‘qish bu o‘yin emas)

Хороша книга, да чтец плох. (Kitob yaxshi, lekin o‘quvchi yomon)

Книга поможет в труде, выручит и в беде. (Kitob mehnatda ham, qiyinchilikda ham yordam beradi)

Ingliz tilidagi maqol va matallar haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, ular to‘g‘ri kitob va muallifni tanlashning ahamiyati, shunchaki go‘zallik yoki ularning miqdori emas, balki ularda aynan nima yozilganligi haqida gapirishlarini ta’kidlash lozim.

Don’t judge a book by its cover. (Kitobni muqovasiga qarab baholamang).

Choose an author as you choose a friend. (Do‘stingizni tanlaganingiz kabi yozuvchini tanlang).

Like author, like book. (Yozuvchi qanday bo‘lsa, kitob ham shunday bo‘ladi).

A book is a book although there is nothing in it. (Kitob hali ham kitobbo‘lib, unda hech narsa yo‘q bo‘lsa ham).

Bundan tashqari, turli xil tillar va madaniyatlarga murojaat qilishlariga qaramay, deyarli bir xil ma’noga ega bo‘lgan bunday maqollar mavjud. Masalan, o‘zbekning "Kitobsiz aql – qanotsiz qush" maqoli, hatto so‘zma-so‘z tarjimada ham, rusning " Ум без книги, что птица безкрыльев " degan maqoliga teng keladi. Va ingliz tilidagi " There is no friend so faithful as a good book " (Kitobdan ko‘ra sodiq do‘st yo‘q) degan so‘z o‘zbek tilidagi "Kitob – beminat do‘st" va " Kitobdan yaxshiroq do‘st yo‘q jahonda " kabi bir qancha so‘zlarga yaqin.

Demak, ezgu ishlar va ezgulik mamlakatlarni, madaniyatlarni va tillarni tanlamaydi. Yaxshi o‘qigan va savodli odam bo‘lish ma’lum bir kelib chiqishi, tili yoki diniga ega bo‘lishni anglatmaydi. Eng muhimi, insonning bilimi va dunyoqarashi. Inson ongiga ta’sir qiladigan eng samarali manba bu kitobdir. Kitoblar bizni mantiqqa, fikrlashga o‘rgatadi; turli yo‘nalishlarda rivojlanishimizga hissa qo‘shish; shaxsning oldidagi maqsadni ko‘rish qobiliyatini rivojlantirish va unga erishish uchun zarur vositalarni topish. Kitoblar olami cheksizdir. Hamma narsa shu qadar jozibali va qiziqki, bu dunyoning kichik bir qismini ham o‘rganish va o‘rganish uchun barchaga uzoq umr tilash qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://fortee.ru/2015/03/04/proverbs-sayings-and-quotes-books/

2.https://posloviz.ru/category/kniga/

3.http://www.ziyouz.com/index.php?option=com_content&task=view&id=2689&Itemid=367

SHAXS MA’NAVIY – PSIXOLOGIK DUNYOSINI TASVIRLASHDA YOZUVCHI MAHORATI

Aslonova Mohiniso Narzullo qizi NavDPI magistranti
Tel: 99 856 01 05 // mohinisoaslonova44@gmail.com
Ilmiy rahbar: f.f.n., dotsent Boltayeva Gulchehra Shokirovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada asar qahramonlarining psixologik dunyosini tasvirlashda yozuvchining mahorati xususida so‘z boradi. Misol tariqasida Tohir Malikning “Shaytanat” asaridagi bosh qahramon Asadbek obrazi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: obraz, epizod, personaj, ruhiyat, bosh qahramon.

Abstract: This article talks about the skill of the writer in describing the psychological world of the heroes of the work. As an example, the character of the main character Asadbek in the work “Shaitanat” by writer Tahir Malik is analyzed.

Key words: image, episode, character, mentality, main character.

Özet: Bu makale, yazarın eserin kahramanlarının psikolojik dünyasını tanımlama becerisinden bahsediyor. Örnek olarak, yazar Tohir Malik'in “Şeytanat” eserindeki ana kahraman Asadbek'in görüntüsü analiz edilir.

Anahtar Kelimeler: görüntü, bölüm, karakter, ruh, ana kahraman.

Badiiy adabiyot – inson faoliyatining mahsuli. Inson faoliyati esa keng va serqirradir. Inson faoliyati bir-biriga bevosita yoki bilvosita bog‘liq bo‘lgan „mehnat faoliyati“, „ruhiy faoliyat“, „estetik faoliyat“ kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. Boz ustiga, ruhiy faoliyatning o‘zi „aqliy“, „hissiy“, “ruhoniy”faoliyat qirralarini namoyon etadi. Badiiy adabiyot insonning go‘zallik qonunlari asosidagi ijodiy-ruhiy faoliyati mahsulidir. Shunday ekan, badiiy adabiyotni ta’riflashda biryoqlamalikka yo‘l qo‘yish, uni faqat ijtimoiy ong yoxud faqat san’at hodisasi sifatida tushunish

predmetning mohiyatini jo‘nlashtiradi, bizni uning tabiatini anglashdan uzoqlashtiradi [Quronov D., 2007. – S.33.].

“Shaytanat”da Asadbek, uning qizi Zaynab, xotini Manzura, kuyovi Elchin, eng yaqin do‘sti Jalil, keyingi o‘rinlarda uning qo‘l ostidagi odamlaridan bo‘lgan Haydar (Kesakpolvon), Mahmud (Chuvrindi), Jamshid so‘ngra Hosilboyvachcha, Shomil, Xongrey, Zelixon kabi obrazlar gavdalanadi. Asardagi bosh qahramon – Asadbek. Asadbek o‘ta aqlli, bir so‘zli, qo‘rqmas, hech narsadan qaytmas, qasoskor, qaysidir ma’noda, ya’ni kezi kelganda zulmkor, qatiqqo‘l o‘z navbatida oriyatli shaxs, mehribon ota, vafodor er, dardkash do‘st, uddaburon boshqaruvchi kabi ta’riflarni bersak bo‘ladi.

To‘g‘ri, Asadbekni yaxshi xislatlarga ega odam deya olmasmiz, lekin qahramonimiz Asadbek vijdonsiz emas. U shunchaki hayotdan alamzada, sababi shunday tarbiya topgan, uni boshini silaydiga hech kim bo‘lmagach, ko‘chadan najot qidiradi. Hayotni o‘z-o‘zicha taniydi. O‘zining qilganlarini to‘g‘ri deb biladi, kezi kelganda mazlumga ham zulm qiladi. Xato ish qilayotganini bilsa ham ba’zi joylarda ko‘z yumadi, sababi uni yuragini qora parda, shayton deb atalgan bir qorong‘ulik egallagan bo‘ladi. Ammo uni tomirlarida oqayotgan qon sof, mana shu qongina uni iymoniga qarshi chiqishga to‘sqinlik qiladi. Asadbekni asarning bir necha joylarida, “men odam bolasiman, itni bolasimasman“ deb uqtirishi ham shundan edi. Uning eng yaqin do‘sti Jalil hisoblanadi. Faqat u Asadbekni tushunadi, yaqindan maslahat beradi va hattoki xatosini bemalol yuziga shartta ayta oladi. O‘z navbatida Asadbek ham bu do‘stlikni qadrlaydi, do‘stini har bir aytgan gapiga tanbehlariga ham chidaydi. Asarni o‘qish jarayonida ayniqsa Zaynab o‘g‘irlab ketilgan bir vaqtda Asadbek juda asabiy ayni damda qizidan xavotirda bo‘lgan mahalni esga olaylik. “…eshik ochilib Jalil kirib keldi. Asadbekni bunday holatini ko‘rib sababini so‘radi. Asadbekning “Zaynabni o‘g‘irlab ketishdi” gapiga javoban, Jalilning: “Xudodan qaytibdi” jumlasi, Asadbekni ham o‘quvchi kitobxonni ham bir qator esankiratib qo‘yadi. Asadbek xafa bo‘lsa ham og‘ir bosiqlik bilan do‘stini aytgan gapi xato ekanligini uqtiradi. Darhaqiqat, agar o‘sha onda bu gapni boshqa odam aytganda bormi? Asadbek uni hech ikkilanmay “burdalab” tashlagan bo‘lardi. Buni turli holatlarda bir qator joylarda ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Jalil:

” *– …Zaynab tuzukmi?*

Asadbek “Zaynabning tobi yo‘qligini qayerdan bilding?”deganday unga ajablanib qaradi.

– Menga bunaqa qarama. Hovliga o‘tuvdim. Eshitdim. Zaynab o‘zini osib qo‘yganmish. Shu rostmi o‘zi?

– Rost

– Nima gap o‘tuvdi?

– Hech gap.

– Bekordan bekorga odam o‘zini osarkanmi? Kallangni ishlatib ko‘rmadingmi?

– Sasima. Ishing bo‘lmasin.

– Ishim-ku, bo‘lmaydi, og‘aynichalish. Senga achinamanda. Har holda qiz o‘rtog‘imsan. Jahling chiqsa ham rost gapni aytaymi?

– Ayt.

– Puli ko‘pning aqli kamroq bo‘larkan… [Т.Малик, 2018. – S.119.]

Darhaqiqat, bu gaplarni faqatgina Jalil aytgani uchun emas, hatto o‘sha suhbatda Jalil unga qiz o‘rtog‘imsan deganda ham Asadbek bunga e’tibor bemaydi. Aytilgan achchiq so‘zlar yuragini o‘rtaydi. Avvalo, oradagi gaplar haqiqat bo‘lgani, jondan aziz qizi, qaysidir ma’noda uning aybi bilan o‘sha ko‘rguliklarni boshidan o‘tkazgani uchun ham u o‘zini ayblagan edi. Asarda Asadbek

obrazi qanchalik qattiqqo‘l va ayovsiz odam sifatida tasvirlangan bo‘lsa ham, u kibrdan yiroq, o‘rni kelganda xatolarini tan oladigan shaxs. Shu boisdan ham Asadbek avvaliga jahl ustida Jamshidni o‘limga hukm qilib, so‘ngra ichida xato qilganini tushunadi. Tushunishiga sabab esa, qizi – Zaynab o‘zini osgani edi. Ammo endi kech bo‘lgani uchun hech kimga aytmaydi. Balki shu uchun ham Asadbek Jalilga indamaydi. Chunki Asadbekning ham yuragining allaqayerida, o‘zi ham bilmaydigan bir yerida iymon degan narsa bor. Chunki asardagi bir qahramonning tili bilan aytganda Asadbekning “palagi toza edi”. Uning tomirida unga isnod bo‘lgan vatan xoinining qoni emas, balki Vatan uchun jon fido qilib jang qilgan mard, jasur, asar qahramoni Anvar tili bilan aytganda “zo‘r odam”ning qoni oqardi. Asadbek yillar davomida haqiqatni bilmaydi, ammo otasi yomon odam emasligini biladi xolos. Aslida Asadbek ham yomon odam emas, faqat yomon tarbiya topgan. Asadbekda qon orqali iymon singiydi. Faqat buni uning o‘zi ham bilmaydi, ya’ni aslida bu gaplar Asadbekning emas yozuvchining ijodi mahsuli ekanini unutmasligimiz kerak. Chunki asarda Asadbekni bosh qahramon qilgan ham, Jalilni yaxshi xislatga ega bo‘lgan inson sifatida gavdalantirgan ham, Zaynabni Zaynab, Elchinni Elchin qilgan ham aslida ijodkor. Aslida asarning boshidan oxirigacha, personajlar, ularning nutqi, xatti-harakati, barchasi ijodkorning xayoloti mahsuli sanaladi. Bugungi kunda hech kimga sir emaski mazkur asar bir necha qismli kino film qilib ishlangan. Asar rejissiori, mashhur aktyor, O‘zbekiston xalq artisti, Tojikiston xalq artisti Yodgor Sa’diyev. Asadbekni rolini ijro etish orqali Asadbek obrazini xalqimizga yaxshi tanitadi. Ammo rejissyor ushbu obrazni yaxshi inson sifatida talqin qilishga urinadi. Aktyor ushbu holatga shunday izoh beradi; “Shaytanat” deganda inson ko‘z oldiga Asadbek, Asadbek deganda esa “Shaytanat” keladi. Bu uzviy tushunchalarni bir-biridan ayro tasavvur etib bo‘lmaydi.

Asadbek obrazi haqida... Men Asadbek obraziga ijobiy yondashishga harakat qilganman.Asadbek obrazini o‘ta ablah qiyofada ko‘rsatmaslik uchun, Tohir akaga iltimos qilib bo‘lsa ham o‘zgartirganman. Chunki, asardagi obrazlardan biri Muhiddin otaning bir gapi bor: “Aslida, buning palagi toza edi...” [https://kun.uz/39819590]

Adabiyotda psixologizm personajlar obrazini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Bu yozuvchiga qahramonlarning ichki dunyosini, ularning fikrlari, his-tuyg‘ulari, motivlari va psixologik holatlarini o‘rganish va ochib berishga imkon beradi. Bu qahramonlarni o‘quvchi uchun yanada real, chuqurroq va qiziqarli qiladi. Tahlil qilayotganimiz “Shaytanat” asarini yuqorida, yozuvchining badiiy mahsuli dedik. Lekin asarni o‘qish jarayonida ba’zi real voqea-hodisalarga badiiy ishlov berilib, asarga singdirilganini ko‘rishimiz mumkin.

Masalan, asarning “*Non began jon olmaydi*” deb nomlangan bobida 80-yillarda yuz bergan Farg‘ona voqealari keltirilgan. Balki ushbu bobda kiritilgan bir qator personajlar to‘qima bo‘lishi mumkin, ammo sodir bo‘lgan voqeaning realligi asardagi voqea-hodisalarni haqiqatan yuz berganiga tarix guvoh. Psixologizm muallifga tashqi voqealar va ta’sirlar qahramonlarning ichki dunyosiga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatishga yordam beradi. Bu qahramonlar nima uchun o‘zini qanday tutishini, va ularning qarorlari va harakatlariga qanday omillar ta’sir qilishini tushunishga imkon beradi [Quronov D., 2007. – S.33.] Masalan, psixologizm qahramon nima uchun ma’lum bir qaror qabul qilishini yoki muayyan vaziyatda muayyan his-tuyg‘ularni boshdan kechirishini tushuntirishga yordam beradi. Fikrimiz dalili o‘laroq yana tahlil qilayotgan asarga qaytamiz.

“…bir kuni Asadbek nimadir deganida Manzura “xudo xoxlasa adasi” dedi. Asadbekning kayfiyati chatoq edi ushbu gapdan jahli chiqib: “Huda-behudaga xudoni o‘rtaga soleverma. Xudoni sendan boshqa tashvishi yo‘qmi?” deb jerkidi. Manzura qo‘rqibgina: “Unaqa demang, adasi, Xudodan qo‘rqing”, deb yana baloga qoldi. “Xudodan qo‘rqib bo‘lganman. Xudo menga atalgan yomonliklarni berib bo‘lgan. Men yomon ekanmanmi bunga xudoning o‘zi aybdor. Men ham odamlarga o‘xshab ota-onamni bag‘rida o‘sganimda bunaqa bo‘lmasdim. Mehrga zor holda o‘stirib endi mendan mehr talab qiladimi? [Т.Малик, 2018. – S.60.] Aynan mana shu qismiga kelganda Asadbekning nimaga bunday bo‘lishiga, hayotdan alamzada, qahri-qattiq bo‘lib ulg‘ayishi-yu, yomon yo‘llarga kirib ketishiga sabab topganday bo‘lamiz. Darhaqiqat, Asadbekni mana shu yo‘llar tarbiyalab uni voyaga yetkazgan edi. Asadbek ham barchasiga ota-onasiz o‘sganim uchun shunday bo‘ldim deya o‘zini ishontirardi. Asarni o‘qigan kitobxon ushbu

savollarga asarni o‘zidan yechim, sabab qidiradi. Asarni keyingi sahifalarida bu savolga ham javob topiladi. Abdurahmon tabib aytganidek: “*hamma ota-onasiz o‘sgan bolalar ham jinoyatchi bo‘lib ketmagan-ku”.* Demak qahramonimizni adashgan yo‘lga kirib qolishi, uni hayotini izdan chiqaradi. O‘sha vaqtdagi jamiyat, unga qilingan nohaqliklar, tuhmat toshlari, alamzadalik va boshqalar. Yoshgina bolani “hammasini o‘ldiraman” deb ahd qilishi, uni ruhiyatiga tub burilish yasagan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Asarning asosiy g‘oyasi, muallifning boshqa asarlari singari, hech kim jinoyatchi bo‘lib tug‘ilmaydi, uni hayot, jamiyat majbur qiladi kabi g‘oyalar singdirilgan. Yuqoridagi bosh qahramonning hayoti ham fikrimiz dalilidir.

Bundan tashqari asarda kichkina epizod, Mahmudning onasi bor. Ushbu obraz hayoti ham fikrimizga dalil bo‘la oladi. Bu obraz ham aslida yomon ayol emas edi. Uni hayot, alamzadalik ushbu yo‘lga olib kirdi. Ayol noto‘g‘ri yo‘lni tanladi. Bir umrlik suygan eri, ayolning otasi tomonidan beixtiyor o‘ldirib qo‘yilgach, u uyda ota-onasi bilan yashay olmadi. Qaynonasining ham uyiga qaytib bora olmadi. Shaharga ketib Mahmudni dunyoga keltirgach, bolani yashirincha qaynonasiga tashlab ketdi. Shundan so‘ngra ayol yomon yo‘llarga kirib ketdi. Uning taqdirini esa asarni o‘qigan kitobxon juda yaxshi biladi. Mahmud hatto ona deb atashga noloyiq bildi. Janozasiga ham borishni xohlamadi. Asarda kim aybdor degan savol har bir obraz taqdirida mavjuddek go‘yo. Masalan, agar Mahmudning buvisi onasi bilan ahil yashaganida kelini onasiniga ketmas edi. Mahmudning otasi ham xotinini qaytarish uchun u uyga bormas edi. Shunday ekan janjal chiqmas va Mahmudning otasi o‘ldirilmas edi. Baxtli, inoq oila bo‘lib yashaganlarida balki, Mahmud ham yaxshi ta’lim-tarbiya olib, bunday yo‘llarga kirmas edi. Shunday ekan bir insonning taqdiri uchun faqat bir kishini ayblash noo‘rindir, degan g‘oya asarda mujassamlashadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, asardagi shaxs ruhiyatini tasvirlashda yozuvchining badiiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday, asar qahramonlari yuqori psixologik kuch bilan, uyg‘unlashtirilgan qahramonni yaratish, tasvirlash uchun ham avvalo yozuvchining o‘zi kuchli ruhiyat egasi bo‘lmog‘i lozim. “Shaytanat” video filmi bosh qahramoni Yodgor Sa’diyev jurnalistlarga bergan bir intervyusida, “Men Asadbek rolini ijro etish uchun o‘zimni to‘rt yil tayyorlaganman” [https://kun.uz/39819590] mazmundagi fikrni aytgan edi. Ijodkor yaratgan asarni ijro etish uchun aktyor shuncha yil va kuch sarflangan bo‘lsa, yozuvchi bu asarni qanchalik mahorat va yuksak ruhiyat ostida yozganini tasavvur qilish qiyin bo‘lmasa kerak. Bir so‘z bilan aytganda asar muallifini yuksak ruhiyat va jasorat sohibi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: O‘zbekiston, 2007. – 155 b.
2. Малик Т. Шайтанат. 2-қисм. – Т.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 431 b.
3. https://kun.uz/39819590

XXI ASR – GLOBAL TA’LIM ASRI

D.Sharifjonova NDPI 1-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar B.Tuxtayeva NDPI o‘qituvchisi

“Axborot asri” deb nom olgan hozirgi davrda jamiyatning har bir a’zosidan umuminsoniy qadriyatlarga amal qilish, samarali muloqot qilish, axborotni tog‘ri qabul qilish, o‘z shaxsini takomillashtirish, uzluksiz o‘rganish kabi layoqat(kompetentlik)larga ega bo‘lish talab qilinadi. Biz yashab turgan axborot asrida zamon talab etayotgan yangi turdagi kasb-korga ega bo‘lish, mutaxassislik bo‘yicha texnika va texnologiyalarni jahon standartlari talablaridarajasida bilish insonning va oilaviy farovonligini ta’minlovchi birlamchi talabga aylangani hech kimga sir emas. Har qanday kishi zamon talabi darajasidagi mutaxassislikni egallashi uchun yangi bilimlarni bilishi bilan birga, o‘z-o‘zini shunga irodaviy jihatdan tayyorlashi muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim olish jarayonini isloh qilish rivojlantirish darajasidan qat’iy nazar har qanday jamiyat oldida turgan asosiy masalalardan biridir. Har qanday faoliyatga, o‘tmish, hozirgi kun va kelajak elementlari tadbiq etiladi. Hayotda yashay olish uchun kerakli ko‘nikma, qobiliyat va bilimlarni

egallashga alohida e’tibor beriladi. Bu ta’limni asosiy maqsadi o‘rganish uchun o‘rganish va muammolarni yechishni o‘rganish hisoblanadi.

Barcha uchun ta’lim jahon dekloratsiyasining 1- moddasi boshlang‘ich ta’limning istalgan natijalari va chegaralarini belgilab beradi. Asosiy talablar:savodxonlik, fikrlash qobiliyati, muammolarni yechish va o‘z-o‘zini og‘zaki ifoda etish hamda “insonni yashashi, o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishi, o‘z qadr-qimmatini saqlab yashashi va ishlashi, rivojlanishda to‘la ishtirok etishi, o‘z hayotining sifatini oshirishi, qaror qabul qilishi va bilim olishni davom ettirishi” uchun kerak bo‘ladigan bilimlar, ko‘nikmalar va qarashlardir. Ta’lim ehtiyojlari qondirilgan davlatlar umumiy madaniy, lingvistik va madaniy merosni hurmat qilish va barpo etish, boshqalarga ta’lim olish imkoniyatini yaratish, odil jamiyat g‘oyalarini ilgari surish, atrof-muhit himoyasiga erishish, ijtimoiy, siyosiy, diniy farqlarga nisbatan sabrli bo‘lish, insoniy fazilatlar va inson huquqlarini hurmat qilinishini ta’minlash hamda o‘zaro bog‘liq dunyoda xalqaro tinchlik va hamkorlik tomon ishlash majburiyatlarini ilgan hisoblanadilar.

Dunyo darajasida fikrlash endi ortiqcha hashamat emas, balki yangi asrda hayotni saqlab qolish uchun zaruriyat hisoblanadi. Turli qarashlar va fikrlarga duch kelish, o‘z-o‘zini chuqurroq tushunishni vujudga keltiradi.

Ta’lim tizimi oldida o‘quvchilarning axborot olish va qayta ishlash madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish vazifasi ham dolzarb masaladir. Bu jarayonning muvaffaqiyatli kechishida o‘qituvchining o‘zi maslahatchi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, o‘quv jarayonining boshqaruvchisiga aylanib boradi. Bunda bosh masala bilimlar olamiga kirish, bu olamning resurslaridan foydalanish va o‘zlashtirishga bog‘lanib qoladi. O‘quvchi axborot ummonida yangicha qoidalarni o‘rganishi, barcha o‘quv fanlari kesimida axborot olishi, uni qayta ishlay olishi zarur bo‘ladi.

Global kompyuter tarmoqlarining paydo bo‘lishi kishilar muloqotining kitob, gazeta va televideniyadan farq qiluvchi yangi o‘ziga xos usul va shakllarini vujudga keltirmoqda. Bu usullar endi kishilik munosabatlarining yangi shakllari, faoliyatlarining yangicha turlari, tafakkur qilish va o‘zini o‘zi anglashning o‘zgacha tarsi bilan ajralib turadi.

O‘quvchilar ma’naviyatini shakllantirishda adabiy ta’limningo‘rni alohida ahamiyatga ega. ayniqsa, she’riyatni bu boradagi imkoniyatlari afsuski,ko‘p hollarda she’rga oddiy matn nuqtai nazaridan yondashiladi. Poetik ohangni his qilmaslik,matndagi so‘zlar ma’nosini to‘la tushunib yetmaslik natijasida she’r o‘qish yoki yodlash zerikarli mashg‘ulotga aylanadi. O‘quvchilar asardagi obrazlilik mag‘zini chaqolmasliklari tufayli she’r yodlashga maktabgacha ta’lim jarayonida o‘rgatilsa-da, umumta’lim tizimini tugatayotgan ko‘plab o‘quvchilar hatto bitta she’rni yurakdan berilib, yoddan aytib berolmaslik holatlari kuzatiladi. O‘quv dasturida yod olishga tavsiya qilingan, sinfda o‘qib-o‘rganish ko‘zda tutilgan she’rlarning hammasini ham o‘quvchilar tushunmasligi mumkin emas. Demak, adabiyot o‘qituvchilari bolalarni adabiyot, jumladan, she’riyat bilan chuqur tanishtirish metod va usullari haqida jiddiy bosh qotirish lozim.

O‘quvchi mutolaa chog‘ida asar mazmuni bilan tanishadi. O‘qituvchining namunali ifodali o‘qish orqali shu mazmunni qisman his qildirishga erishishi juda muhim. Chunki keyingi bosqichda, ya’ni tahlil paytida uning badiiyyatiga murojaat qilinadi. Mutolaa hissiyotni boyitish, aqlni peshlasa, tahlil matn tag-zamiridagi ma’noni chuqur o‘rganishga yordam beradi. o‘qituvchi adabiy tahlil darslarini tashkil etganda muayyan asarni o‘qib-o‘rganishnigina maqsad qilib qo‘ymaydi, balki adabiyotshunoslik, mantiq, tilshunoslik, ruhshunoslik, didaktika, san’at,falsafa kabi sohalarning badiiy ijodga bog‘liq qonuniyatlariga tayanib ish yuritadi. Bunda quyidagi masalalarni hal etish ham nazarda tutiladi:

1.O‘quvchilarni asarni tahlil qilishga tayyorlash, tahlilning maqsadi va mazmunini belgilaydi.

2. Ishni ilmiy-metodik jihatdan turli tashkil qilish(asar tahlilini o‘quvchilarning yoshi, ruhiyati, bilim darajasi, his qilish qobiliyatiga e’tibor bergan holda,o‘quv tahlili talablari asosida darslar bo‘yicha taqsimoti, topshiriqlar tizimini ishlab chiqish).

3. Tahlil usullarini, o‘quvchilar egallaydigan bilim va malakalar doirasini oldindan aniq loyihalashtirish.

Adabiy-estetik tahlil har bir asarning janr xususiyatlari, o‘quvchilarning yoshi, bilimi va egallagan malakalariga ko‘ra o‘ziga xoslik kasb etadi. Masalan, topishmoq predmet, voqea-hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikni taqqoslash orqali o‘zlashtirilsa, maqollar mazmuni hayotiy misollar vositasida sharhlangandagina tushunarli bo‘ladi.yoki kichik yoshdagi bolalar voqealar oqimiga, sarguzashtlarga ishqiboz bo‘lsa, katta yoshlilir qahramonlarning ruhiy olami, ichki dunyosiga qiziqadilar.

Ijodkorlik – global ta’lim tizimining maqsadlariga erishish uchun “balandroq turdagi” har xil ijodkor fikrlar keltirish, masalalarni yechish va nuqtai nazarga ega bo‘lish talab qilinadi. Jan Xyustonning fikriga ko‘ra:”Biz ko‘p taraflama o‘ylashimiz kerak, nafaqat so‘zlarni, balki rasmlarni ham ko‘z oldimizga keltirishimiz kerak. Biz qanchalik murakkab va interaktiv va ijodkor muvozanatsizlikni vujudga keltirsak, ehtimollik holatini keltirish uchun shunchalik ko‘p imkoniyatga ega bo‘lamiz”. O‘quvchining bilim olish faoliyati jadal xarakterga ega bo‘lishi kerakligini davr taqozo etmoqda. Bu albatta o‘quvchining mustaqil bilim olish faoliyati bilan bog‘liq. Shuning uchun darsda shunday metod va texnologiyalardan foydalanish kerakki, ular o‘quvchiga kerakli axborotni mustaqil toppish, muammolarning yechimini toppish usullarini ajratishga, tanqidiy munosabat bildirishga va ularni amalda qo‘llashga yordam beradi.

HAMID OLIMJON IJODIDA TABIAT RAMZLARINING BADIIY TALQINI

Nematova Sarvinoz
NavDPI O‘zbek tili va adabiyot fakulteti
4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: R.M.Sharipova

Annotatsiya: ushbu maqolada oddiy bir tikondan buyuk go‘zallikni yaratib, tabiat unsurlarini misralarga tamoman jipslashtirgan, ularga yangitdan jon baxshida etgan bejirim pafosli satrlar sohibi Hamid Olimjonning she’rlarida tabiat qirralari talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: Hamid Olimjon, she’r, tabiat, o‘xshatish, tahlil, ijod, lirik qahramon, istiora, tasvir.

Annotation: in this article, the features of nature are interpreted in the poems of Hamid Olimjon, who created great beauty from a simple thorn, integrated the elements of nature into verses, and gave them new life.

Key words: Hamid Olimjon, poem, nature, simile, analysis, creativity, lyrical hero, metaphor, image

Jahon adabiyotshunosligida tabiat ramzlariga bag‘ishlangan she’rlar, ularning ramziy ma’nolari, obrazlilik darajasi, poetikasi, ijodkor uslubi singari masalalar doimiy e’tiborni tortib kelmoqda. Jumladan, she’riyatda shamol, bulut, yomg‘ir, qor tasviri peyzaj lirikasidan tashqari lirik qahramon ruhiyatini ifoda etishi, turli timsoliy ma’nolarni bildirishi kabi qator muammolarni yaxlit holda tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson-tabiat. Navo-tabiat. She’r-tabiat. Bu juftliklarni bir-biridan ayirib bo‘larmi? Aslo! Ularni bir qiluvchi esa she’riyat, mohir qalam sohibidir. Shu ma’noda lirikada katta o‘ringa ega bo‘lgan tabiat ramzlari tasviridagi o‘ziga xosliklar, kelib chiqish asoslari, timsoliy ma’nolari, ular bilan yonma-yon keladigan lirik obrazlar mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganishga alohida diqqat qaratilmoqda. Xususan, “Eng gullagan yoshlik chog‘i…”ni kuylagan Hamid Olimjon ijodida ham bu juftliklarni ayni maromiga yetkazib kuylanganini guvohi bo‘lamiz. O‘zbek she’riyatining oqsoqollaridan biri Mirtemir Hamid Olimjon haqida shunday degan edi: “Hamid Olimjon nodir iste’dod egasi. Qonida, ko‘z qorachig‘ida, to‘qson ikki tomirida tug‘ma zukkolik, shoirona sajiya, bilgichlik ayon. Bilmagani oz, o‘qimagani kam, chin ma’nosi bilan o‘qimishli qalamkash edi”.[71]
Hamid Olimjon ijodida shamol timsollari rang-barang mazmun kasb etgan:

Tinmay esar har tomonga yel,

[71]Nuriddin Boboqandov. Baxt va yoshlik kuychisi Hmaid Olimjon 110 yoshda:Vafo va sadoqat timsoli. Zarnews.2019.30.11

Qo‘ymay sochar o‘rikning gulin.
Daraxt shoxlarini silkitar,
Uyg‘otishga boshlar uni tun…[72]

Bunda bahorda esguvchi shamol haqida so‘z bormoqda. Ko‘klam tongidagi manzara jonlantirilgan. Ertalabki shabada o‘rik gullarini har yonga sochadi, daraxt shoxlarini silkitadi. Shoir shamolni yangi kunning boshlanishi tarzida beradi.

Daryo to‘lqin shamol qo‘ynida
Porillamoqdadir chiroqlar
Yorishmoqda uning aksidan
Cho‘qqilar, adirlar va tog‘lar [H.O.S.T.:2009-B.32]

Bunda ham ko‘proq peyzaj tasviri ustuvorlik qiladi. «Shamol qo‘yni» metaforasida an'anaviylik bor. Ayni chog‘da daryolarning to‘lqinlanishi shamol tufaylidir.

Shoir:
Novdalarni bezab g‘unchalar,
Tongda aytar hayot otini.
Va shabboda qurg‘ur ilk sahar,

Olib ketdi gulning totini. [H.O.S.T.:2009-B.56]

kabi misralarida yana bahor shamoli haqida so‘zlamoqda. Ma’lumki, ko‘klamda gul ochgan kurtaklarning hammasi ham yashab qolmaydi, balki tabiat injiqliklariga, shamollarga dosh berganlarigina meva tugib, hosilga aylanadi. Shoir shabbodaga nisbatan «qurg‘ur» sifatlashini qo‘llaydi. Garchi bu so‘zda ko‘proq salbiy ma’no ifodalansa-da, gulning totini olib ketishi tabiiy holat ekanligini anglash qiyin emas.

Har bahorda shu bo‘lar takror,

Har bahor ham shunday o‘tadi.

Qancha tirishsam ham u beor,

Yellar meni aldab ketadi [H.O.S.T.:2009-B.52]

Tabiat bahori har yil takrorlanadi. Inson umrining o‘tkinchiligini shoir uni aldab ketgan «beor yellar»da ko‘radi. Adabiyotshunos I.Haqqulovning yozishicha: «Tuproqdan insonga to‘rt sifat: sabr, hayo, tavakkul va makrumot paydo bo‘lgan. Suvdan esa to‘rt turli hol: safo, saxo, lutf va visol yuzaga kelgan. Shamol to‘rt havas: yolg‘on, riyo, shoshqinlik, va nafsga asos bo‘lgan. Olovdan esa shahvat, kibr, tama va hasad tug‘ilgan”. [73] Demak, Hamid Olimjonda shamol shoshqinlik, tezda o‘tib ketguvchi umr ramzini ifodalab keladi.

Yuzlarimni silab-siypalab,

Baxting bor, deb esadi yellar.

Etgan kabi go‘yo bir talab,

Baxting bor deb qushlar chiyillar… [H.O.S. T.:2009-B.56]

Lirik qahramon ko‘klamdan masrur daqiqalarning abadiy bo‘lishini istaydi. Shu bois undan baxt izlaydi. Shamol bunda baxtdan darak beruvchi timsol sifatida tasvir etilgan.

Hamid Olimjon she’rlarida bulut ko‘proq peyzaj tasvirini ifodalashga xizmat qilgan:

Tongda oppoq bulut xayolimda,

[72] Олимжон Ҳ. Дарё каби уйғоқ ўтурман. Сайланма. – Т.: Шарқ, 2009. – Б. 32. (Ушбу фаслдаги мисоллар шу китобдан олинади ва қавс ичида бети кўрсатилади).
[73] Ҳаққулов И. Навоийга қайтиш. 4- китоб. – Тошкент: Тафаккур, 2007. –Б34

Qip-qizil loladan nishon taqdi.

Yoki dildan kulib hayot uzra,
Oltin ilhom sochib quyosh boqdi. [H.O.S. T.:2009-B.12]

Oppoq bulut ham chiroyli bo‘ladi, ham chiroyli yomg‘irlarni boshlab keladi.

Yastangandi ufqda,
Laxcha-laxcha bulutlar.
O‘ranardi har yoqda,
Ko‘lka sochib sukutla. [H.O.S. T.:2009-B.13]

«Laxcha-laxcha» takror so‘zi olovga nisbatan qo‘llanadi. Shoir esa uni bulutga nisbatan qo‘llaydi. Ya’ni olov parchalari va bulut uyumlari orasida shaklan yaqinlik bor.

U kunlar hayotning ko‘kida,
Bulutlar keng qanot yozgandi.
Yulduzlar ko‘rolmay borliqni,
Bir voram yaproqdek ozgandi. [H.O.S. T.:2009-B.14]

Shoir Ozarbayjonning o‘tmishiga nazar tashlaydi. Bulutlar osmonda paydo bo‘lishini shoir «keng qanot yozish»ga qiyoslaydi. Bulutlar yulduzlarni to‘sib qo‘yadi. Ko‘chma ma’noda bulutlarning yulduzlarni to‘sib qo‘yishi ozodlikning yo‘lini berkitish deganidir.

Hamid Olimjon ijodida qor haqidagi she’rlar muhim o‘rin tutadi. Binobarin, unda qorning yog‘ish manzarasi uni kuzatayotgan lirik qahramon tuyg‘ulari bilan hamohang tasvirlangan:

Oppoqki
Shu qadar
Bu qorlar…
Boshlayman,
Tubandan – yuksakka intilib,
Avaylab odimlar tashlayman.
Yo‘rgakka o‘ragan
qish meni,
Chaqaloq singari
qo‘ragan,
ochilib-sochilib bo‘lmaydi.
Hammayoq shu qadar oppoqki…
G‘ijirlar yerlarda qorlari,
Har tili shu qadar chah-chahki…
Boshlayman,
Avaylab odimlar tashlayman. [H.O.S. T.:2009-B.22]

Shoir bunda qorning fazilatlariga urg‘u beradi. Ma’lumki, yangi tug‘ilgan chaqaloq oppoq yo‘rgakka mahkam yo‘rgaklanadi. Qishning oppoq qorlari chaqaloqni yo‘rgaklagandek hamma yoqni o‘rab olgan. Keyingi misralar qorda yurganda g‘ijirlab ovoz chiqishi «tili shu qadar chah-chahki» tarzida beriladi. Chahchahlash esa bulbulga xos. Shoir bu tabiiy holatdan zavq-u shavq tuyadi:

Daraxtlar
shu qadar
oppoqki,
Oq bulut ko‘klardan enganday,
Novdalar
shu qadar oppoqki,
Bulutda cho‘milib tinganday,
Qorlardan yo‘l ochib kelaman,
Shu sovuq jonlilik
berganday,
Qonlarim

sof havo
emganday,
Oq tuman qo‘ynida
jilaman,
Yo‘llardan
zavq bilan
kelaman [H.O.S. T.:2009-B.22]

Ko‘rinadiki, Cho‘lpon tasviridagi qorda mahzunlik kayfiyati ko‘zga tashlansa, Hamid Olimjonda bu hayotsevarlik ruhi bilan almashinadi. Zavq bilan qor yoqqan yo‘llarda kelayotgan lirik qahramon daraxtlarning shu qadar oppoqligidan hayratlanadi va o‘smaning rangini endirish xususiyatini ko‘kdagi oppoq bulutlarga yuklaydi. Oppoq qorlardan novdalarning qotib turishi oppoq bulutlarga cho‘milib chiqqan yosh bolaga mengzaladi. Garchi sovuq bo‘lsa-da, qorning sof havosi kishini tetiklantiradi. Zero, G‘ayrat Majid «Hamid Olimjon mo‘jizasi» maqolasida «Qish» sarlavhali she’ridagi qorning tasviri haqida yozadi:«Agar boshlovchi shoirga she’riyatning kitoblarda yozilmagan sirlarini o‘rgatmoqchi bo‘lsangiz, Hamid Olimjonning mana shu she’ri eng yorqin va eng namunali misol bo‘ladi. She’rda voqelik bayon qilinmaydi, badiiy so‘z bilan tiniq manzaralar chiziladi».[74]

Hamid Olimjon o‘lka «tabiatiga taqlid qilmaydi, balki u bilan raqobatga kirishadi, tabiatni o‘z ko‘zi, qalbi ongi bilan tiriltiradi, uni faollashtiradi, baxt va shodlik kuyini chaldiradi, tuyg‘ularni mazmunga ko‘madi, hissiyotni toshirtiradi, entiktiradi. Darhaqiqat, «Manzara» she’rida hamma yoqni qoplagan, ko‘zni qamashtiruvchi qor tasviri beriladi:

Qor…Qor…Qor…
Ko‘zlarim qamashar boqqanda,
Hamma yoqqa cho‘kkan barobar,
Biror erni qilmagan kanda.
Qorli yer ustiga tinmagan,
O‘txona tashlaydi oq tutunni.
Tutun cho‘ziladi qor sari, sekin,
Sahro tugatadi qora tunni... [H.O.S. T.:2009-B.29]

Bunda o‘txona – osmon, oq tutun esa yog‘ayotgan qor parchalaridir. Shoir qo‘llagan metaforalar shu jihatdan hayotiy. Qor sahroga quyilgan qora tunni yoritib turadi. Shuning uchun oqlikka burkangan sahro qora tunni tugatadi, deydi shoir. «Hamid Olimjon tabiat manzaralarini tasvirlashdagi mahorati, yil fasllari, daryolar, yurt go‘zalligida hayratlanish tuyg‘ularini ifodalashdagi betakror usuli bilan boshqa shoirlardan ajralib turadi» [75]

Daryo to‘lqin shamol qo‘ynida,
Porillamoqdadir chiroqlar.
Yorishmoqda uning aksidan,
Cho‘qqilar, adirlar va tog‘lar. [H.O.S. T.:2009-B.32]

Yuqoridagi she’riy parchada laylakqorlarning zavq bilan yog‘ishi «porillagan chiroqlar»ga o‘xshatilgan. Uning yorqin nurlari, ya’ni qor uchqunlari atrofni – cho‘qqi, adir va tog‘larni oqlikka burkaydi.

Shoirning «Yanvar qor» she’rida qorning go‘zal tasvirini kuzatish mumkin:

Qish yoymishdir oq qanotini
Shamol o‘tar yuzlarni yalab.
To‘zon kabi sovurilar qor,
Quyun chopar erni timdalab. [H.O.S. T.:2009-B.51]

[4]G‘ayrat Majid. Uning boyliklari umrlarga teng. Shoirning hamrohi xayol, hayoti xayol, qismati xayol. Hurriyat gazetasi

[75]G‘ayrat Majid. Uning boyliklari umrlarga teng. Shoirning hamrohi xayol, hayoti xayol, qismati xayol. Hurriyat gazetasi

Ushbu satrlarda shoir betakror istiora qo‘llaydi: qor qishning oppoq qanotiga qiyos etiladi. Bu she’riyatimiz uchun qorning yangi tasviri. Akademik N.Karimov yozganiday: «Hamid Olimjon tasvir vositalaridan o‘z hayotiy falsafasini, tabiat va jamiyat hayotiga faol munosabatini ifodalash niyatida foydalanadi. Shu ma’noda istiora uning she’rlarida, ayniqsa, katta ahamiyat kasb etadi».Uning har shamol ta’sirida har tomonga yoyilib yog‘ishi esa to‘zonga o‘xshatiladi. Qolaversa, shoir nazdida to‘zonda sovurilib yog‘ayotgan qorni intizorlik bilan kutayotgan bahor, tog‘lar, ko‘llar va dehqonlar bor. Shu o‘rinda lirik she’rga ijtimoiy mazmun kirib kelgan.

Qor dehqon uchun bo‘lajak hosilga zamin yaratadi. Quyidagi misralardan shu fikrni uqish mumkin:

Qor dala cho‘llarga,
Uni kutar zoriqib bahor.
Qor kerakdir tog‘lar, ko‘llarga,
Uni kutar har bir paxtakor…[H.O.S. T.:2009-B.51]

Tabiatda qor faqat tabiiy hodisalar silsilasigina emas, yoki qishning zebi ziynatigina ham emas. Qor hayotiylik nuqtai nazaridan ona zaminning kuchiga kuch, quvvatiga quvvat bag‘ishlovchi ma’dan hamdir. Ijodkor qorning mana shu xislatini nazarda tutib, uni zoriqib kutilgan ne’mat ekanligiga ishora qiladi. Dalalarga yoqqan qor ekin-tekin, hosillarga poydevor. Qaqshagan cho‘llar qorga muhtoj. Hatto baland tog‘lar va ko‘llar ham qordan manfaatdor.

Yangi o‘zbek she’riyatida shamol obrazi turli ma’nolarni ifodalab keladi. Binobarin, lirik qahramon ruhiyatini, inson umrining o‘tkinchiligini (H.Olimjon); oshiqning ko‘tarinki kayfiyatini kecha va bugunni bog‘laguvchi rishta ma’nosini, kuz shamoli inson umrining tez o‘tishini….

Qor lirik qahramonning mahzun kayfiyatini, hayotsevarlik ruhini, lirik qahramon tuyg‘u-kechinmalarini ifodalab keladi: «porillagan chiroqlar», «qishning oppoq qanoti» singari istioralar aynan shoirning ijodida behad sarhadlarga ega chiqqan. Xuddi shu kabi lirik qahramonning his tuyg‘ularini, yoxud tabiat go‘zalliklarini boshqa qalamkashlarning ijodida ham kuzatish munkin. Ammo ularning hech biri Hamid Olimjon navolarining ayni o‘zidek bo‘lolmaydi. Hamid Olimjon ijodi nafaqat takrorlanmas, balki qayta dunyoga kelmas bir she’riyat chashmasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Олимжон Ҳ. Дарё каби уйғоқ ўтурман.Сайланма. – Т.: Шарқ, 2009. – Б. 32. (Ушбу фаслдаги мисоллар шу китобдан олинади ва қавс ичида бети кўрсатилади).
2. Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. 4 китоб –Тошкент: Tafakkur, 2021. –Б34
3. Н. Каримов. Ҳамид Олимжон. Шоир ҳаёти ва ижодидан лавҳалар. Тошкент 1985.
4. Азимов Сарвар. Ҳамид Олимжон адабиёти. Тошкент.1967

SHAVKAT RAHMON SHE’RLARIDA «TOG‘ « OBRAZINING IFODALANASHI

Tuxliyev Baxriddin
NavDPI O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.f.d (PhD) R.M.Sharipova

Annotatsiya: Shavkat Rahmon she’rlaridagi obrazlar. «Tog‘» so‘zining majoziy obraz sifatida qo‘llanilishi. Insonning ruhiy holati, kechinmalari bilan bog‘liqligi. «Tog‘» so‘zining o‘xshatishlardagi o‘rni.

Abstract: Images in Shavkat Rahman's poems, the use of the word «Mountain» as a figurative image. Relationship with a person's mental state and experiences. The role of the word «mountain» in similes.

Kalit so‘z: obraz, majoziy obraz, ramziy ma’no, falsafiy mushohada, o‘xshatish, tashbeh.

Key words: image, figurative image, symbolism, philosophical observation, simile, allusion

Jamiyatdagi har qanday o‘zgarishlar adabiyotga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Ayniqsa, she’riyat nisbatan tez yangilanadigan, shaklan va mazmunan zamon bilan hamohang qadam tashlaydigan soha sanaladi. Shavkat Rahmon she’riyati ko‘proq o‘z nigohini insonning botiniy dunyosiga

qaratdi, uning ruhiy olamini, tuyg‘ularini ochib berish asnosida insonni o‘zi bilan tanishtirdi. Bunda u o‘ziga xos yaratilgan poetik obrazlardan, ramziy ko‘chimlardan foydalandi, ularga alohida e’tibor berdi. Buning asosiy sababi inson ruhining tabiatini teran va to‘laroq ochish, shuningdek, ta’sirliroq ifodalash bilan belgilandi. Chunki bunga adabiyot har qachongidan ham ko‘proq ehtiyoj sezmoqda.

Shavkat Rahmon zamonaviy o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga, o‘z so‘ziga ega bo‘lgan ijodkor. Uning lirikasi betakror obrazlarga boy. «Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa va b.) san'atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlanib, hissiy idrok etish mumkin bo‘lgan shaklda ifodalangan aksidir.»[76] Shoir ijodining yana bir e’tiborli jihati shundaki, ijodkor tabiat obrazlaridan xususan, biz so‘z yuritishga kirishgan «tog‘» obrazidan bir o‘rinda inson ruhiy holatini ifodalash uchun foydalansa, bir o‘rinda odamga xos xususiyatlarni «tog‘» so‘ziga ko‘chiradi.Shavkat Rahmon bir necha o‘rinda bu leksemasidan majoziy obraz sifatida foydalangan.

Ma’joziy (simvolik obrazlar) - predmetlar, o‘simliklar, jonivorlar, ranglar orqali ijtimoiy hodisalarni umumlashtirib ifodalash demakdir. Ma’joziy obrazlarda ifodalangan tasvirdan bevosita insonlarning munosabatini, ruhiy olamini anglaymiz»[77]. Quyida shoir ijodidagi «tog‘» timsoli kiritilgan misralar bilan tanishamiz:

Tog‘ yugurib yubordi og‘ir -
Vodiylarga yugurdi shamol,
Yuzlarini yashirdi hilol [3,11]

«Xo‘rsiniq» she’ridan olingan parchada oddiy tabiat hodisasi - shamolning yelishi tog‘ning xo‘rsinishiga qiyoslanadi. Bu xo‘rsiniq tog‘ning dardga, alamga to‘la ovozi. Bu ovoz shunchalar kuchliki, uning zo‘rayishi (ta’siri) bilan hilol yuzlarini berkitadi. Baxt, quvonch timsoli - vodiylarga kelgan shamol endi g‘am bulutlari ila oy yuzini yopadi.Shavkat Rahmon bu o‘xshatishlar orqali zimdan inson ruhiy holatini ifodalagan, nazdimizda. Shavkat Rahmon o‘z she’rlarida bir necha bor «tog‘»[78] leksemasidan foydalanadi. Ba’zi she’rlarida esa to‘laligicha inson kechinmalarini, ruhiyatini tog‘ timsoliga ko‘chiradi.

Tog‘ o‘tirar vodiyda tanho,
Oq sochlari qoplagan ko‘ksin,
Ming yillarki bu nuroniy tog‘
Asrlarga kiradi o‘ksib … [3,26]

Yuqoridagi she’rda tog‘ necha-necha zamonlardan oshgan, qanchadan-qancha voqealarni urush, to‘palonlarning guvohi bo‘lgan timsol. Shoir tog‘ning nuroniyligini oq sochlari bilan ya’ni, cho‘qqilaridagi oppoq qorlari bilan dalillaydi.

So‘ylaganday bo‘lar edi tog‘,
Tushunmasdim ammo so‘zlarin.
Qanday g‘amgin edi bu ko‘zlar
Qanday yig‘lar edi ko‘zlari!.. [3,26]

Ushbu misralarda ijodkor mana shu xotiralarning tarixlarning guvohi tog‘ning unsiz nidosiga quloq tutadi, ammo uning so‘zlariga tushuna olmaydi. Keyingi satrlarda shoir nigohi uning qoyalardagi ko‘zlariga qaratiladi. Bu ko‘zlar juda g‘amgin. Zero, ular uzoq o‘tmish guvohlaridir.

Shavkat Rahmonning falsafiy mushohadaga boy «Odamdaraxt» she’rida ham fikr yuritayotgan mavzumizga duch kelamiz:

O‘sayotgan
kuchli daraxtman,
Shoxlarimda pishar so‘zlarim,
O‘ychan kuzak kelguvchi yo‘lga
Ikki tog‘day boqar ko‘zlarim. [6,31]

[76] "Adabiyot nazriyasi asoslari" D. Quronov; "Navoiy universiteti" Toshkent.2018 ; 90-bet
[77] ."Adabiyotshunoslik nazriyasi" Xotam Umarov; Abdulla Qodiriy nomidagi "Xalq Merosi" nashriyoti; Toshkent. 2004. 42-bet
[78] "Saylanma" Shavkat Rahmon; "Sharq" nashriyot-matbaa konserni; Toshkent. 1997.

Inson umri bir daraxt misol: nihol boʻlib unishi begʻubor bolalikka; yashnagan daraxtga aylanishi navqiron yoshlikka; mevaga kirgan mahali esa oʻrta yasharlikka, kuchdan va xosildan qolgan davri keksalikka qiyoslanadi. Isteʼdodli soʻz ustasi «oʻsayotgan» soʻzini ham bejiz ishlatmagan. Inson ulgʻayarkan, u bilan qarashlari hayotiy mulohazalari ham boyib boradi. Oʻychan kuzak tajribaga ega boʻlgan ulugʻlik ekan, shoir umrining kuzini ham magʻrurona qarshilaydi.

Safsarlashar oqshomgi osmon,
Kun chekinar qorli togʻlarga,
Sukunatning munis qushlari
Uchib kelar kuzgi bogʻlarga. [3,31]

Yuqoridagi parchada «togʻ» tun botish manzarasini tasvirlash uchun xizmat qilgan. Zangori tusga kirgan oqshomgi osmon endi kunni (quyoshni) qorli togʻlar ortiga joʻnatadi. Qorli togʻlar uni quchogʻiga olishi bilan sukunatli tun choʻkadi.

Oʻzim togʻda, yuragim togʻda,
Qoyalarning tagida yurdim.
Kun nurida tovlangan qorda
Odamlarning izlarin koʻrdim. [3,85]

Shoir tahlilimizdagi sheʼrda togʻlarni musaffolik, poklik ramzi sifatida tasvirlaydi. qanchalik balandlashib borar ekan, shunchalik yengillashib, poklanadi, kishi. Axir u yer samoga, Ilohiy maskanga yaqin. Avval taʼkidlab oʻtganimizdek, togʻlar zamonlar bilan yuzlashgan, necha-necha tarixlarning guvohi boʻlgan tilsimlardir. Shoir bu qarashlarni umumlab bu qoyalar bundan million yillar oldin ham koʻplab odamlarni chorlagan. Ular ham yuksak togʻlar uzra yuksaklashib borgan. Ijodkor oʻz fikrini quyoshda yaraqlagan izlar misolida dalillaydi.

Ammo sezar har bir sharpani,
Boʻlsa hamki xoblari hadsiz.
Oʻz tinchini buzgan yovlarni,
Oʻldiradi togʻlar shavqatsiz. [3,25]

Bu misralar orqali shoir togʻlarni magʻrur, jahldor, shavqatsiz sifatida tasvirlanadi. Qancha zamonlardan oshgan boʻlsa ham ular doim jim, zotan, mangu uyqudadirlar.

Keyingi misralarda esa togʻ xalovatini buzganlarni dushman bilib, ularni ham halok qiladi deyilgan.Har qanday yov ham togʻning hadsiz umri oldida magʻlub. Hatto vaqt ham uning oldida ojiz. Togʻ oʻz dushmanlarining oʻlimini jimgina kuzatadi. Shu bois ham shavqatsiz u.

Koʻzi borday kuzgi dalaning,
Koʻzi borday nuroniy togʻning;
Xotiramga sanchilib qolar
Narsalarning oʻtkir nigohi.[3,90]

Yuqoridagi misralarda ham togʻlar yana tilsiz guvohlar. Biroq endi ular bugunning ham kuzatuvchilari. Har bir xatomizni, har bir quvonchimizni koʻradi ular. Shu sababli magʻrur togʻlarning qarashlari ham oʻzgacha, unitilmas. Ularning oʻtkir nigohi shoir taʼbiricha xotiralarga sanchilib qoladi.

Bu kabi goʻzal tashbehlarni, qiyoslashlarni Shavkat Rahmon ijodida koʻplab uchratish mumkin. Muhimi, shoir har bir obrazga oʻzgacha yondashishga harakat qilgan. Togʻning bir sheʼrdagi ramziy maʼnosi boshqasida butunlay oʻzgacha. Ammo har biri kishini teran mushohadaga undaydi. Zeroki, majoziy obrazlar ortiga inson ruhiyati, kechinmalari ham singdirilgan. Shoir mahoratiga tan bermaslikning iloji yoʻq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Adabiyot nazriyasi asoslari» D. Quronov; «Navoiy universiteti» Toshkent.2018 ;
2. «Adabiyotshunoslik nazariyasi» Xotam Umarov; Abdulla Qodiriy nomidagi «Xalq Merosi» nashriyoti; Toshkent. 2004. 42-bet
3. «Saylanma» Shavkat Rahmon; «SHARQ» nashriyot-matbaa konserni; Toshkent. 1997.

O‘ZBEK MAROSIMLARI VA XORAZM VOHASINING URF-ODATLARI, IRIMLARI XUSUSIDA

Navoiy davlat pedagogika instituti
II kurs talabasi Sevinch Rajabboyeva

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek xalqining oilaviy-maiyshiy marosimlaridan biri bo‘lgan “ nikoh to‘yi” da qilinadigan ur-odat va irim-sirimlarning o‘tkazilishidan maqsadi ochib berildi.

Kalit so‘zlar: Marosimlar, urf-odat, irimlar va ularning ahamiyati.

Har qanday xalqning ma’naviy dunyoqarashi uning ijtimoiy hayoti, maishiy turmush tarzi, an’analari va rasm-rusumlari, folklori bilan belgilanadi. Folklor xalqning etnik o‘ziga xosliklari va milliy belgilarini so‘z orqali ifoda etuvchi muhim manba sifatida xarakterlidir. Jahon folklorshunosligida marosimlar va ularning xususiyatini o‘rganishga ishtiyoq XX asrdan oldinroq maydonga kelgan edi. Dunyoda bironta xalq yo‘qki, turli munosabatlar bilan ommaviy bayramlarni nishonlamasin. Shunday ekan, hozirgi kunda o‘zbek xalqining ba`zi unitilib borilayotgan marosimlari qadimdan momolarimiz tomonidan urfga aylanib turkiy xalqlarning odatlari, etnografiyasi, rasm-rusm va irimlari o‘zaro mushtarak bo‘lib, ma`no-mazmuni bir xillikni ko‘rsatsadi. Ammo, O‘zbekistonning turli hududlarida turlicha talqinda tashkil etilishi bilan ahamiyatli.

Marosim haqida gapirar ekanmiz, uning turli davrlardagi sayqal topib borishi bizni o‘ziga jalb qiladi. “Ma’lum bo‘ladiki , “marosim“ tushunchasi “bayram“ so‘zi ifodalagan ma’nodan kengligi bilan farq qilar ekan. Chunki marosim bir shaxs hayotidagi muhim voqea bilan bog`lanishi mumkin. Bu tadbir, oila chegarasi bilan cheklanadi. Bayramda esa umumxalq ishtiroki bo‘lishi lozim.”[79] “Marosim insoniyat madaniyatining eng muhim shakllaridan biri bo‘lishi bilan bir qatorda uni rivojlantirishdagi samarali vosita ham hisoblanadi. Marosim xalq san’ati va madaniyati shakllari orasida eng ulkan auditoriyani o‘ziga jalb qiladigan ommaviy tadbir hisoblanadi.[80] Biz mana shunday marosimlardan “nikoh to‘yi” haqidagi urf –odat va irimlari borasida fikr yuritamiz.

O‘zbeklarda nikoh to‘yini o‘tkazish bilan bog‘liq an’naviy urf-odatlar bir necha bosqichlardan iborat o‘ziga xos etnofolkloriy tizim tarzida shakllangan bo‘lib, ularga amal qilish qat’iy qoida holiga kelib qolgan.[81]

Xorazmda vohasida yashovchi aholining nikoh to‘yi marosimining birinchi bosqichiga mansub ayrim udumlar folklorining o‘ziga xos lokal xususiyatlari hamda boshqa joylardagi shu kabi an’analardan farqli belgilarini ko‘rsatib berish uchun to‘ygacha o‘tkazib kelingan asosiy udum va rasm-rusumlar hamda ularni bajarish bilan bog‘liq jarayonlarni tahlilga tortishni joiz topdik.

Nikoh to‘yi bilan aloqador udumlar tizimida sovchilik odati muhim o‘rin tutadi. *Sovchi* so‘zining etimologiyasiga asos bo‘lgan leksema Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida “sov ”// “sav” shaklida berilgan bo‘lib, uning ma’nosi: 1) sav – otalar so‘zi; 2) sav – qissa, qadimgi voqeadan xabar berish; 3) sav – hikoya; 4) sav – risola, xat; 5) sav – xabar, yangiliklarni etkazuvchi tarzida izohlangan. Shuningdek, Mahmud Koshg‘ariy “savchi” (sovchi) so‘zi “kelin va kuyov orasida xat-xabarlar eltuvchi kishi” ma’nosida qo‘llanilishini ham alohida qayd etadi.[82] Xorazmning ayrim tumanlarida agar sovchilikka borilgandan qiz tomon rozi yoki noroziligi bildirganlaridan keyin qiz tomon rozi bo‘lib qudalashishga moyil bo‘lsa, sovchilarga to‘n kiygizib, bellariga belbog‘ bog‘lagan. Kuyov tomon esa sovchilikdan qaytib kelgan kishilarga “*Bo‘rimi, tulkimi?*” –deb savol berganlar. Agar sovchilarning ishi bitgan bo‘lsa – “bo‘ri ”, qiz tomon norozi bo‘lgan bo‘lsa – “tulki” deb javob qaytarilgan.

Xorazm viloyatining Hazorasp tumanida nikoh to‘yi marosimini o‘tkazilishi boshqa tumanlarnikidan farq qiladi. Bu yerda kuyov kelinni uyiga olib kelgandan keyin, kelin mashinadan tushishidan oldin kuyov mashina atrofida sigirni 3 marotaba aylantiradi. Bu udum qilinishidan maqsad, “kelin uyga o‘zi bilan birga boylik, baxt-saodat olib kelsin” degan ma’noda qilinadi.

[79] M.Jo`rayev , J .Eshonqulov , SH . Turdimov , T . Mirzayev ,A . Tilavov. O`zbek folklori.Tosh.2020y 43-bet.
[80] Latifa Xudayqulova , Nasiba Tursunova . Oilaviy – maishiy marosim folklori . Navoiy 2022. 6-bet.
[81] Latifa Xudayqulova , Nasiba Tursunova . Oilaviy – maishiy marosim folklori . Navoiy 2022. 82-bet
[82] M. Qoshg`ariy. Devonu lug`otit turk.. 3-tom. – Toshkent: Fan, 1963. –169-bet.

Undan so‘ng sigrini aylantirib bo‘lgandan so‘ng, juft non olib chiqib, uni ham kelinni boshi ustida 3 marotaba aylantirib, kelinga yediriladi. Bundan maqsad “kelin uyga rizq-nasiba olib kelgan bo‘lsin” degan ma`noni bildiradi. Shundan so‘ng kuyovni do‘stlari kuyov kelin yoniga uyga kirishidan oldin kuyovni tutib urishadi. Bu urf-odatni qilishdan maqsad, kuyov endi oldingi hayotida qanday muammo, hayot sinovlari ham kelsa ikkalasi bir-birini tushunib, hayot bardoshlariga chidasin degani.

Xorazmning Urganch, Xiva, Xonqa va boshqa tumanlarida “taqa tashashma” degan marosimi Hazorasp hududida “Ko‘tarib urishma” deb aytiladi. Bu marosim Xorazmning hamma joyida bir xil o‘tkaziladi. Bunda kuyov kelinni atrofini uch marota aylanib, oyog‘ini bosib, kelinni ko‘tarib, o‘ng yelkasini yotoqqa qo‘yib kelinni yotoqqa qo‘yadi. O‘ng yelkasini qo‘yib qo‘yishidan maqsad hamma ishlari o‘ngidan kelsin, orqaga ketmasin degan irim qilinadi.

Xorazm xalqining yana bir urf-odati kelin - kuyovga asal yedirishi sutligurunch, novvot choy ichiriladi. Bu degani hayoti asalday shirin, sutdek oppoq, guruchdek serfarzand, novvotday chidamli, bardoshli bo‘lsin, sabrli bo‘lishga ishora qilinadi. Keyin kuyovning do‘stlari kuyovning beliga “chalqat” bog`lashadi. Va buni kelinning yangasi yechishi kerak bo‘ladi. Bu urf-odatni o‘tkazishdan maqsad hayotda baxtli-taxtli, saodatli bo‘lsin, farzandlari ko‘p bo‘lsin, qiyinchiliklarga chidasin degani. Agar yanga chalqatni yecholmasa yecholmagani uchun do‘stlari aytganicha ta’zim qilishi sharti qo‘yiladi.

Xorazm marosimlarining yana bir irimi bor, bu odatiy irimdan maqsad kuyovga bo‘lgan hurmat-ehtiromni bildiradi. Ya’ni yanga kuyovni oyoq kiyimini, do‘ppisini, kostyumini yechganda har birisi uchun ta’zim qiladi. Bu kiyimlarini yechish jarayonida kuyovni do‘stlari kiyimlariga pul yashirib qo‘yishgan bo‘ladi. Buni yanga kiyimlarini yechganda oladi.

O‘zbek folklorshunosi M. Jo‘rayevning qator tadqiqotlari va e’lon qilgan kitoblarida irimlar bilan bog`liq ilmiy talqinlarga e’tibor berilganligini ko‘ramiz.

Xorazm vohasining nikoh to‘ylaridagi irim-sirimlar borasida aytadigan bo‘lsak, kelin kuyovni to‘yi bo‘lgunga qadar va qirq chilla davrida xonalariga notanish odamlar kirgizilmaydi. Kelinga yanga qilib eridan ajrashgan yoki beva qolgan kishini yanga qilishmaydi. Chunki yangi kelin bo‘layotgan qizning ham hayoti buzilmasin, o‘xshamay qolishi mumkin degan maqsadda shunday irim qilishadi. Shuning uchun ham kelinning yangasini tanlayotganda qarindoshlarida bolalari ko‘p, baxt-saodatli, tili shirin, yumshoq tabiatli ayolni yanga qilishadi.Ya’ni kelin ham borgan xonadonida shunday xulq egasi bo‘lib borsin degan maqsadda. Kelin-kuyovning xonasiga bolasi yo‘q, beva yoki eridan ajrashgan ayol kirgizilmaydi. Chunki ular ham shunday baxtsiz bo‘lib qolmasin, hayoti o‘xshasin deb shunday qilinadi. Kelin tushgan xonadondan kelin kech tushgandan so‘ng qorong`uga chiqishi mumkin emas, chunki kelin-kuyovga chilla tushishi mumkin. Yana bir irim-sirimlardan biri, agar kelin tushgan xonadon egalarining qarindoshlaridan kimdir chaqaloqli bo‘lgan bo‘lsa, shu kishi bu xonadonga, kelin esa qirqq kunlik chaqaloqni oldiga bormasligi kerak. Chunki kelinga chilla tegib, kelin tug`masligi yoki bolasi bo‘lganda bolasiga chilla tushishi mumkin. Xorazm nikoh to‘ylari ana shunday urf-odat va irim-sirimlari bilan boshqa vohalarda farq qiladi. Bu kabi qadriyatlar zamirida oila va inson tushunchasi, uning muqaddasligin ibelgilaydi

Xulosa qilib aytganda, marosim insoniyat madaniyatining eng muhim shakllaridan biri bo‘lishi bilan bir qatorda uni rivojlantirishdagi samarali vosita ham hisoblanadi. Marosimlarda qilinadigan urf-odat va irimlarning ahamiyati juda katta ahamiyatga ega. Chunki, ular marosimning badiiyati bilan bir qatorda, marosimning jozibador o‘tkazilishini ta’minlaydi. ”Xalqimizning milliy taraqqiyotida, ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy yuksalishida folklor, umuman badiiy so‘z san’ati hamisha tayanch nuqta bo‘lib kelgan. Zero, folklor bu millatning quvvati, tirikligi va buyukligidir.”[83]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. M. Qoshg`ariy. Devonu lug`otit turk.. 3-tom. – Toshkent: Fan, 1963
2. B.Sarimsoqov.O‘zbek marosim folklori.Toshkent.fan.1986.
3. L.Xudayqulova,N.Tursunova .Oilaviy-maishiy marosim folklori.Navoiy.2022

[83] T.Mirzayev, ShTurdimov,M.Jo`rayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov.O`zbek folklori.Tosh-2020y,13-bet

4. M. Jo‘raev, L. Xudoyqulova Marosimnoma. O‘zbek xalqining urf-odat va marosimlari haqida qisqacha ma’lumotnoma. – Toshkent: O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008.
5. N. Tursunova. Hozirgi o‘zbek dramaturgiyasida folklor stilizatsiyasi.
6.T.Mirzayev,SH.Turdimov,M.Jo‘rayev,J.Eshonqulov,A.Tilavov.O‘zbek folklori.Tosh-2020y

XALQ OG‘ZAKI IJODINING BARKAMOL SHAXSNI TARBIYALASHDAGI O‘RNI

Oripova Abera Qudrat qizi
Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.f.d (PhD) Z.Axmedova

Annotatsiya: Ushbu maqolada folklor asarlarining inson tarbiyasiga ko‘rsatgan ta’suri masalalari muhokama qilinadi. Xalq og‘zaki ijodi manunalari tahlil qilinadi

Kalit so‘zlar: folklor, ertak, dostonlar, axloq, ilm, maqol, qahramonlik, vatanparvarlik, do‘stlik, mehnatsevarlik

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние фольклорных произведений на образование человека. Анализируются образцы фольклора.

Ключевые слова: фольклор, сказки, былины, нравственность, наука, пословица, героизм, патриотизм, дружба, трудолюбие.

Abstract: This article examines the influence of folklore works on human education. Samples of folklore are analyzed.

Key words: folklore, fairy tales, epics, morality, science, proverb, heroism, patriotism, friendship, hard work.

Insoniyat juda qadim zamonlardan beri turli san’at asarlari vositasida o‘z orzu-armonlarini aks ettirib kelgan. Xalq dostonlari, ertaklari, qo‘shiqlari va maqollari ko‘p asrlar davomida yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qilgan. Ayniqsa, xalq hayotini, tarixini va psixologiyasini to‘la namoyon etadigan xalq donoligining nodir yodgorligi bo‘lgan maqol va ertaklarda aqliy, axloqiy va nafosat tarbiyasiga katta e’tibor berilgan. Jumladan, o‘zbek xalq eposining ulkan namunalari “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” kabi dostonlar, xalq orasida keng tarqalgan ertak, qo‘shiq, maqol va topishmoqlar xalq donoligining o‘lmas xazinasi hisoblanadi.

Buyuk hazrat Aziziddin Nasafiy “Komil inson” risolasida shunday deb yozgan edilar: “Bilgilki, komil inson quyidagi to‘rt narsaga mukammal shaklda ega bo‘lgan insondir. Ularning birinchisi –yaxshi so‘z, ikkinchisi –ezgu faoliyat, uchinchisi –go‘zal axloq , to‘rtinchisi-ilm”. Ma’lumki, qadim Turonda inson umumiy axloqining, ma’naviy rasoligining tayanch ustunlaridan biri - nutq odobi fazilat sanalgan. Shuning uchun ham har bir so‘zga jiddiy e’tibor berilgan. Har tomonlama voyaga yetgan komil inson yaxshi so‘zlay olishi, ya’ni ma’nili, bejirim gapira olishi jamiyatdagi muvozanat va osoyishtalikni belgilovchi asosiy axloqiy mezon hisoblangan. Chunki kishilar o‘rtasidagi xushmuomalalik, tavoze, o‘ylab so‘zlash kabi xislatlar donolikning asl nishonasidir. Mehnatkash xalq orzu qilgan eng go‘zal inson-kamtarin insondir. Ko‘p gapirish, maqtanchoqlik hamma vaqt qoralangan. “Kamtarga –kamol, manmanga –zavol”, “Sen o‘zingni maqtama, seni birovlar maqtasin”, “Maqtanma g‘oz, hunaring oz” kabi maqollarda kamtarin, mehnatkash insonni tarbiyalash g‘oyasi ifodalanadi. Shuningdek, “Uch og‘ayni botirlar” ertagida ham ota o‘z o‘g‘illariga shunday deb nasihat qiladi: “...Yana uchta narsani aytaman, quloqlaringizga olib, eslaringizdan chiqarmanglar. To‘g‘ri bo‘ling-bexavotir bo‘lasiz. Maqtanchoq bo‘lmang-hijolat tortmaysiz. Dangasalik qilmang-baxtsiz bo‘lmaysiz.”[1]. Bu o‘rinda ham chol o‘g‘illariga maqtanchoqlik va dangasalikning zararli illat ekanligi haqida nasihat qiladi. Doimo to‘g‘ri so‘zni aytishga da’vat etadi.

O‘zbek xalqi yuksak axloqiy me’yorlarga asrlar osha to‘xtovsiz amal qilib kelgan.va hamon amal qilib kelmoqda. “Salom ham qarz, alik ham”, “Bir kun tuz ichgan joyga qirq kun salom ber”, “Qaytib kelar eshigingni qattiq yopma” kabi maqollar shular jumlasidandir. Xalq ertaklarida ham yalmog‘iz kampir ertak qahramoniga “ Agar saloming bo‘lmaganda bir yamlab yutar edim” deb

aytadi. Xalq maqollarida axloqiy sifatlardan bebahra johil kimsalar ayovsiz ravishda fosh etiladi. “Tuyadek bo‘y berguncha, tugmadek o‘y bersin”, O‘zi yuzsizning so‘zi yuzsiz”, “ Baxilning bog‘i ko‘karmas” kabi maqollar uzoq tajribalar asosida qilingan xulosalardir. Ularga amal qilish axloqiy sifatlarning shakllanishida muhim bir vositadir. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibbatul haqoyiq”, Sa’diyning “Guliston”, Alisher Navoiyning “Hayratul abror”, Mahbubul qulub” asarlarida ham til odobiga katta e’tibor berilgan. Bu to‘g‘risida shunday xalq maqollari yaratilgan: “Qo‘l yugurigi oshga, til yugurigi boshga”, “Ming eshitib, bir so‘yla”, “Suvning onasi-buloq , so‘zning onasi-quloq”, “Oyoq osh keltirar, og‘iz tosh”, “Og‘iz bir, quloq ikki, bir so‘zlab tingla qirq ikki”, “Tig‘ yarasi tuzaladi, til yarasi tuzalmas”, “Tilingni botir qilmay o‘zingni botir qil”, “Gap bilguncha ish bil”[2] kabilar. O‘zbek xalq ertaklarida ham so‘zni o‘ylab ishlatishga katta e’tibor berilgan. Ertak qahramoni o‘zining donoligi va o‘ylab gapirishi, topqirligi va so‘zga chechanligi tufayli barcha mushkullarni yechishga muyassar bo‘ladi. “Guliqahqah” ertagida ertak qahramoni bola bilan dev o‘zaro do‘st tutinishadi. Shunda dev odamzotning eng aqlli mavjudot ekanligini nazarda tutib shunday deydi: “...Devlar bilan olishib, surishib, tortishib yenga olmaysan, ular seni bir pastda tilka-pora qilib tashlashadi. Buning uchun aqlni, hiylani ishga solishing kerak. “Qo‘l qilolmaganni aql qiladi”, degan gap bor. “ Ko‘z olmaganni aql oladi”, degan ham gap bor. Aqlingni ishga sol, hiyla ishlat”[3]. Bu bilan ming qudratli bo‘lmasin xudo yaratgan olam sarvari-inson oldida, uning aql-farosati qarshisida barcha yovuz kuchlar tenglasha olmasligini o‘qtirish orqali odamzotning aql-idroki ulug‘lanadi. Ertakda devlarni yengishning yo‘li “ ...gap-so‘z, hiyla-nayrang, do‘q-po‘pisa bilan ularni qo‘rqitib olishdir” deb aytiladi. Ertak qahramoni bola shu yo‘llar bilan devlarni yengadi va niyatiga yetadi. “Ishq qudrati” nomli ertakda ham kambag‘al podachi yigit turli shartlarni bajarib, ko‘k qo‘chqor yordamida husnda tengsiz malikaga uylanadi. Diqqat bilan xalq ertaklarini kuzatsak, ularda bosh qahramon turli to‘siqlarni yengishi uchun so‘zga chechan va nihoyatda dono, topqirlik fazilatiga ega yigit sifatida namoyon bo‘ladi. Xalqimiz bu orqali kerakli so‘zni o‘z vaqtida topib aytish ham fazilat ekanligini ta’kidlaydi. Yoki “Besh qiz” ertagini olib qaraylik. Bu ertakda Karomatxon musofirlarga savol bermaslikni aytadi, ammo bemahal kelgan bu musofirlar sodir bo‘lgan voqeani azbaroyi qiziqqanidan so‘raydilar va natijada shartni buzganligi uchun jazolanadilar. Bundan xulosa chiqariladiki, noo‘rin aytilgan so‘z o‘limga olib borishi mumkin. Aslida ertak qahramoni bevafolik qilgani uchun sehr tufayli qiyofasini yo‘qotgan o‘z singillarini jazolagan edi. Bu xalq ertagi aslida “Ming bir kecha” kitobi asosida yuzaga kelgan bo‘lib, keyinchalik vaqt o‘tishi bilan biroz o‘zgarishga uchragan holda o‘zbek millatining mentalitetiga mos holatda qayta yaratilgan. Nisbatan avval yaratilgan qadimiy variantda ertak qahramoni xiyonatkor opa-singillarini qattiq jazolaydi. O‘zbek xalq ertagida esa opa-singillar yengilroq jazo oladi. Chunki ular g‘ayrlik qilib opalariga xasad qilishadi va opasining sevgan yigitini daryoga tashlaydilar. Ammo qahramon o‘z jigari bo‘lganligi uchun ularning gunohini avf etadi. Xalqimizga xos kechirimlilik, bag‘rikenglik sifatlari ulug‘lanadi. “Besh qiz” ertagidagi ayol qahramonlar o‘zbek milliy urf-odatlariga mos ravishda talqin etiladi.

Xalq maqollarida ham, ertaklarida ham kishining odobli bo‘lishi uchun uni yoshligidan boshlab tarbiyalash kerak degan g‘oya ilgari suriladi. “Bolani yoshdan asra, niholni boshdan asra”, “Bola aziz, odobi undan ham aziz” kabi maqollar fikrimiz dalilidir. Ertaklarda ham ota o‘z o‘g‘lini to‘g‘ri tarbiyalash uchun yoshlikdan boshlab ustozga berib ilm va hunar o‘rgattiradi. Podsholar esa yurtni boshqaradigan farzand el-yurtga munosib bo‘lishi uchun yoshlikdan unga murabbiy tayinlab, ilm olishiga va jangovar san’atni egallashiga , hattoki, hunar o‘rganishiga ham jiddiy e’tibor berganlar. Eng e’tiborli tomoni shundaki, ertaklar kishida optimistik-kelajakka ishonch ruhini tarbiyalashga yordam beradi. Demak ,xalq maqollari va ertaklarida har tomonlama kamolga yetgan –yuksak ma’naviyatli shaxs egallashi lozim bo‘lgan barcha fazilatlar - qahramonlik, vatanparvarlik, do‘stlik, mehnatsevarlik , mardlik, insoniylik, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik va ilm-hunar ulug‘lanadi. Shuning uchun ham xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘rganish har tomonlama yetuk kishilarni tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Xalq donishmandligining nodir yodgorliklari asosida tarbiyalangan bugungi yoshlar jamiyatning jadal sur’atlar bilan rivojlanishiga katta hissa qo‘sha oladigan darajada mukammal tarbiyalangan bo‘ladi. Xulosa sifatida shuni ta’kidlash zarurki, bugungi yoshlar chuqur bilimga ega, salohiyatli va keng dunyoqarash sohiblaridir. Ular jamiyatning

har bir sohasida faol ishtirok etmoqda. Mana shunday salohiyatga ega bo‘lishida shubhasiz xalq og‘zaki ijodining ham o‘rni mavjud. Chunki yoshligidan boshlab ertak tinglagan va o‘qigan, xalq maqollarining mag‘zini chaqishga harakat qilgan bu yoshlar ota-bobolarimizning urf-odatlari, asrlar osha yetib kelgan qadriyatlarini ulug‘lagan holda ajdodlarga munosib vorislar sifatida tarbiyalanadilar. Ming-ming yillardan beri saqlanib kelgan an’ana va urf-odatlar asosida shakllangan bu qarashlar ta’sirida tarbiyalangan avlod shubhasiz yuksak ma’naviyatli va sog‘lom fikrli shaxs sifatida kamolga yetadi.

Adabiyotlar

1..O‘zbek xalq ertaklari. Toshkent. 1990, 94-bet.
2. Shomaqsudov Sh, Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. Toshkent., 1990.
3. Guliqahqah. Sehrli ertaklar. VI kitob, Toshkent. 1988, 11-bet.

TILNING MADANIYAT BILAN ALOQADORLIGI

A.H Zaynabiddinova, Musayeva Ma’mura, Murtozaqulova Oynigor
(Qo‘qon DPI talabalari)

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilning xalq tarixi, madaniyati bilan aloqasi lingvokulturologiyaning o‘rganish masalalari o‘zbek va nemis tili misollarida tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar. Til, madaniyat, lingvokulturologiya, milliy xususiyat, til birliklari.

Abstract. In this article, the relationship of language with national history and culture, the study issues of linguo-cultural studies are analyzed in the examples of Uzbek and German languages.

Key words. Language, culture, linguoculturology, national character, language units.

Til xalq, uning tarixi, madaniyati, orzu-o‘ylari, ruhiy kechinmalari, saviyasi, qarashlari haqida to‘laqonli ma’lumot bera oluvchi asosiy vosita sanaladi. Shuning uchun qaysidir xalq haqida ma’lumotga ega bo‘lishni xohlaganlar avvalo o‘sha xalqning tili haqida ma’lumotlar olishga intilishi kerak. Bundan kelib chiqadiki, tilshunoslik fani juda ko‘plab sohalar bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, birini atroflicha anglash uchun boshqasini ham bilish, o‘rganish, anglash talab qilinadi.[84].

Masalan, til bilan madaniyat o‘rtasida zich aloqa mavjud. Inson va uning tiliga xos o‘zgarishlar, yangilanishlar madaniyatning ham rivojlanishiga turtki bo‘ladi. O‘z navbatida, madaniyat sohasidagi yutuqlar xalqning tilida aks etadi. Xalqning madaniyatini til orqali keng targ‘ib qilish, taraqqiy toptirish, tarqatish mumkin. Ilm-fan, adabiyot, dinni til til orqali tushunish mumkin.

Dunyo tillari o‘zi mansub xalqning milliy xususiyatlarini, dunyoqarashini belgilab beradi, xalq o‘z tilida fikrlaydi, dunyoni bilishga intiladi.Til ma’lum tilda so‘zlashuvchi xalqning fikrlash doirasini, milliy tafakkurini ifodalab beradi. Masalan, ba’zi xalqlar uchun ilon go‘zallik, dilbarlik ramzi bo‘lsa, o‘zbeklar ilonni “sovuq” jonivor sifatida baholaydi. Yoki raqamlarga nisbatan turli xalqlarda turlicha qarashlar mavjud. So‘zlar til va tildan tashqaridagi omillar ta’sirida turli o‘zgarishlarga uchrashi, belgi va baho ma’nosiga ega bo‘lishi mumkin. Katta shaharda yashovchi aholi uchun to‘rt qavatli uy past hisoblansa, qishloq kishisi uchun baland sanaladi. Hatto kechga qolishning ham o‘z chegaralari bor. Bundan kelib chiqadiki, insonlar aynan bir narsaning o‘zini har xil idrok qiladi, turlicha ko‘ra oladi.

Til fikrni ifoda etuvchi vosita bo‘libgina qolmay, balki tafakkur mahsuli, butun bir olam, koinotning tarkibi sifatida, qolaversa, madaniyatning ahamiyatli bir bo‘lagi sifatida namoyon bo‘ladi. Tabiat hamda jamiyatda yuz berayotgan barcha o‘zgarishlar tilda o‘z aksini, ifodasini topadi[85]. Har bir millatda o‘sha xalq mentalitetini ifodalovchi kalit so‘zlar mavjud. Masalan, nemis madaniyatida *intizom, qat’iyat, tartib, aniqlik*; o‘zbek madaniyatida *bolajonlik, mehmondo‘stlik, andishalilik, bosiqlik* kabi so‘zlar xalqning madaniy-tarixiy an’analari bilan uzviy bog‘liqdir.

[84] *Маслова В.А.*Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. Москва: Издательский центр «Академия», 2001. С. 28.

[85]ЖўраеваМ.М., ХамидоваМ.Х. Лингвокультурология ва лингвокультурема// Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti, 2019. – № 4 (76). – Б. 111-114.

Shaxsning nutqi u haqda baho chiqarish uchun birinchi mezon hisoblanishi bejiz emas. Bugungi kunda antroposentrizm til ilmi bilan bir butunlik hosil qilishi juda o‘rinlidir. V. Gumboldtning «Til – xalq ruhi, hayot tarzi va uning mavjudligidir»[86] degan fikri buni tasdiqlaydi

Vazifasi til va madaniyat, til va etnos, til va mentalitet o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni tavsiflash va o‘rganishdan iborat bo‘lgan lingvokulturologiya o‘zbek tilshunosligida J.A. Yakubov, G.X. Bakieva, D.U. Ashurova, Sh.S. Safarov, A.E. Mamatov, N.M. Mahmudov, D.S. Xudoyberganova, D.R. Jumanova, M.D. Jusupov, I.M. Tuxtasinov[87] va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Afsona, marosim, folklor, she’riy va nasriy matnlar, frazeologizm va metaforalar, belgi va paremiyalar (maqol va matallar)ni umumlashtiruvchi til birliklari lingvokulturologiyaning predmeti hisoblanadi[88].

Shu munosabat bilan so‘z birikmalari, frazeologik birliklar, metaforalar, ramzlar va boshqa uslubiy qurilmalar keng ko‘lamda o‘rganiladi. Buning bari xalq madaniyati, mentaliteti haqidagi bebaho ma’lumotlar manbayidir; ularda afsonalar, rivoyatlar, urf-odatlar, xalq e’tiqodi, ijtimoiy tuzum va mafkura aks ettirilgan. madaniyat bilan emas, balki u orqali turli milliy urf-odatlar, diniy hodisalar, milliy konseptlar, dunyoning til orqali ongli his qilish vositalarini o‘rganadi.

Madaniy yodgorliklarni o‘rganish asnosida insoniyat taraqqiyotining u yoki bu bosqichida xalq tilining rivojlanish davri uchun qanday narsa-hodisalar muhimligini bilib olamiz. Tilning leksik fondi insonni haqiqatdan nima qurshab turishi, uning tafakkur va o‘y-xayolini nima tashkil etishi hamda uning madaniy rivojlanish darajasini ko‘rsatadi; sintaktik tuzilishi esa uning fikrlashi qanday amalga oshishini ko‘rsatadi.

Lingvokulturologiyaning o‘rganish obyektlaridan eng keng tarqalgani stereotip bo‘lib, u ma’lum xalq yohud shaxs, voqea-hodisalar haqida bilim, tushuncha, qarashga ega bo‘lishda muhim manba sanaladi. Stereotip odamning ijtimoiy sharoitlar va tajribasi ta’siri ostida rivojlangan har qanday hodisaga odatiy munosabatdir, inson miyasi ushbu stereotiplarga tayangan holda, o‘z ishini ancha osonlashtiradi.

Madaniyatning ikki ko‘rinishi tan olinadi: 1) moddiy madaniyat; 2) ma’naviy madaniyat.

Moddiy madaniyat – inson yoki millat moddiy faoliyatining barcha sohalari va uning natijalaridir. Bular quyidagilar:

- mehnat qurollari;
- yashash joylari;
- kundalik turmushda ishlatilagan narsalar;
- kiyim-kechak;
- transport vositalari;
- aloqa vositalari;
- iste’mol vositalari va turlari.

Ma’naviy madaniyat inson yoki umuman olganda, millatning idrok sohasi va ma’naviy faoliyati natijalarini o‘z ichiga oladi. Bular qatoriga quyidagi omillar kiradi: bilim; axloq, yurish-turish

[86]Гумбольдт В. Язык и философия культуры. Москва: Прогресс, 1985. – 452 с.

[87] Якубов Ж. Француз тилида «муҳаббат» концептининг когнитив хусусиятлари / Олмоншунослик ва таржимашуносликнинг долзарб муаммолари. – Т., 2011. – Б.107-111; Бакиева Г. Лингвистические основы анализа художественного текста: Автореф. дисс... док-ра филол. наук. – Т., 1993. – 46 с.; Ashurova D., Galieva M. Cultural Linguistics. – 2019.; Ashurova D. Text Linguistics. Tashkent: Tafakkur Qanoti. 2012. – 204 p.; Бушуй А. Взаимоотношения между языком, культурой и обществом // Тил ва миллий маданият. Самарқанддавлат чет тилларинститутининг 10 йиллигиюбилейигабағишлабўтказилганхалқароконференция материаллари. – Самарқанд, 2008. – Б. 6-13.;Сафаров Ш. Когнитивтилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 92 б.;Маматов А. Лингвомаданиятшунослик: лингвокультурема ва логоэпистема. – Хорижий филология. Тил. Адабиёт. Таълим. – Самарқанд, 2015. – №1(54). – Б. 9-15; Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2015. №3. – Б. 3-12.; Юсупов Ў. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультурема атамалари хусусида / Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида. – Т., 2011. – Б.49-55; Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Т., Турон-замин-зиё, 2015. – 42 б.; Тухтасинов И.М. Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков): дис. ... канд. филол. наук. – Т., 2011. 157 с.

[88] Сабитова З.К.Лингвокультурология: учебник. – Москва: ФЛИНТА, 2013. – С. 10.

normalari; ta’lim va tarbiya; huquq; falsafa; etika; estetika; fan; adabiyot; mifologiya, xalq og‘zaki ijodi; din.

Madaniyat inson ma’naviy faoliyatini o‘z ichiga oladi: faoliyatda voqelanadigan kuch va qobiliyatlar, bilim va malakalar, ishlab chiqarish va kasbiy malaka-ko‘nikmalar, intellektuallik darajasi va h.k.[89] Ana shu madaniy boyliklar inson omili orqali tilda aks etadi, yanada taraqqiy topadi.

Xullas, til va madaniyatning aloqadorligini bir qancha omillar vositasida dalillash mumkin. Bulardan eng salmoqli o‘rin egallovchilari xalq og‘zaki ijodi, stereotiplar hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1.*Маслова В.А.*Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. Москва: Издательский центр «Академия», 2001. -С. 28.

2.ЖўраеваМ.М., ХамидоваМ.Х. Лингвокультурология ва лингвокультурема// Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti, 2019. – № 4 (76). – Б. 111-114.

3.Гумбольдт В. Язык и философия культуры. Москва: Прогресс, 1985. – 452 с.

4.Якубов Ж. Француз тилида «муҳаббат» концептининг когнитив хусусиятлари / Олмоншунослик ва таржимашуносликнинг долзарб муаммолари. – Т., 2011. – Б.107-111.

5.Solijonov M.Z. Ingliz va o‘zbek tillaridagi rivoyatlar konseptual maydonining lingvokulturologik tadqiqi. –Toshkent, 2023. –B. 24.

6.Сафаров Ш. Когнитивтилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 92 б.

7. Маматов А. Лингвомаданиятшунослик: лингвокультуремавалогоэпистема. – Хорижий филология. Тил. Адабиёт. Таълим. – Самарқанд, 2015. – №1(54). – Б. 9-15

MAKTAB DARSLIKLARIDA JAHON ADABIYOTI NAMOYONDALARINING TARJIMAYI HOLINI O‘QITISH (7-SINF ADABIYOTI DARSLIGI MISOLIDA)

Qurbonova Norjona Sherdavlat qizi
SamDU 4-bosqich talabasi
norjonaqurbonova@gmail.com

Annotatsiya Mazkur maqolada jahon adabiyoti namoyondalarining biografiyasini o‘qitishning dolzarbligi yoritilgan. Tarjimayi hol o‘qitishda yangicha yondashuvlar, metodlar va faktlarning ahamiyati, shuningdek, hayot yo‘lining darslikda berilgan asarlar bilan bog‘liqlikda o‘qitishning amaliy va nazariy jihatlari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: tarjimayi hol, jahon namoyondalari, metod, fakt, asar tahlili, aniqlik va xolislik.

Аннотация В данной статье освещается актуальность преподавания биографий деятелей мировой литературы. В автобиографии показано значение новых подходов, методов и фактов в обучении, а также практические и теоретические аспекты обучения в связи жизненного пути с трудами, изложенными в учебнике.

Ключевые слова: биография, мировые проявления, метод, факт, анализ работы, точность и объективность.

Annotation This article highlights the importance of teaching biographies of representatives of world literature.The importance of new approaches, methods and facts in teaching biography, as

[89] Solijonov M.Z. Ingliz va O‘zbek tillaridagi rivoyatlar konseptual maydonining lingvokulturologik tadqiqi. –Toshkent, 2023. –B. 24.

well as, the practical and theoretical aspects of teaching the connection of the life path with he works given in the textbook are shown.

Key words: biography, world manifestations, method, fact, analysis of the work, accuracy and objectivity.

Maktab darsliklarida yozuvchi biografiyasini o‘qitish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodkorning shaxsiyati, hayot yo‘li o‘quvchilar uchun qiziqarli. Yozuvchi biografiyasi orqali tarbiyalanuvchilar uning asarlarini o‘qishga intiladilar. Chunki asarlarida ham yozuvchining tarjimayi holi o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Tarjimayi hol o‘rganishda o‘quvchilar yozuvchining hayoti va ijodidan tashqari, u yashagan davr va zamondoshlari bilan qanday munosabatda bo‘lgani haqida ham ma’lumotga ega bo‘ladi.

“Yozuvchining shaxsiy hayoti bilan uning ijodiy o‘sishi chambarchas bog‘lab o‘rganiladi. Yozuvchining yaratgan asarlari, qanday ijtimoiy problemalarni ifoda etganligi, uning ijodi zamondoshlariga qanday ta’sir ko‘rsatganligi haqida ma’lumot beriladi”.(Dolimov, Ubaydullayev, Ahmedov. 1967, 239) Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, ijodkor va uning asarlari orasida bog‘liqlik mavjud. Shunday ekan, yozuvchi biografiyasini o‘rganish uning asari tahlilini teranroq anglashga xizmat qiladi. 7-sinf adabiyot darsligida Ernest Heminguey “Chol va dengiz” asari uchun umumiy 3 soat ajratilgan bo‘lib, 1-soati yozuvchining tarjimayi holini o‘qitishga mo‘ljallangan. Mazkur soatda maktab darsligida yozuvchi ijodi bo‘yicha berilgan ma’lumotlar kam. O‘qituvchi o‘quvchilarga Ernest Heminguey biografiyasi haqida qo‘shimcha va asosli ma’lumotlarga tayanib, dars tashkil etishi lozim. Jahon namoyondalaridan Ernest Hemingueyning o‘ziga xos tabiati mavjud. Buni o‘rganish 7-sinf o‘quvchilari uchun biroz mushkul. Shoira Normatovaning “Jahon adabiyoti” o‘quv qo‘llanmasidan ham quyidagi ma’lumotlarni o‘quvchilarga hikoya qilib berish mumkin*: “Buyuk Amerika yozuvchisi Ernest Heminguey hayoti tirikligidayoq afsonaga aylangan edi. Sayohat-u sarguzashtlarga, zafar va mag‘lubiyatlarga, sevgi va ayriliqlarga boy umri davomida bu ajoyib shaxs o‘lmas ijod namunalarini yaratdi. Adabiyot, badiiy ijod uning hayoti mazmunini tashkil qilar edi.*

Uning shiori “Muhimi bir satr bo‘lsa ham haqiqatni yozish, qolgani esa o‘z-o‘zidan bo‘laveradi” edi. Hemingueyning ilk kitobi 1923-yilda “Uch hikoya va o‘n she’r” nomi bilan chiqdi.1952-yilda dunyo yuzini ko‘rgan “Chol va dengiz” asari yozuvchi ijodiga nisbatan yuzaga kelgan ishonchsizlikni, uning iste’dodi so‘na boshladi, degan qarashlarni tumanday tarqatib yubordi. Keksa, omadsiz baliqchi haqidagi g‘amgin qissa tanqidchilik va keng kitobxon ommasi tomonidan yuksak baholandi. Butun dunyoga Hemingueyning shuhrati taraldi, 1953-yilda bu asari uchun Pulitser mukofoti bilan taqdirlandi.

1954-yilda Heminguey “Chol va dengiz” asarida yana bir karra namoyish etilgan yozuvchilik mahorati uchun hamda zamonaviy nasrga ko‘rsatgan ta’siri uchun Nobel mukofoti bilan taqdirlandi. Mukofot topshirish marosimida Shved akademiyasining a’zosi Anders Esterling Hemingueyga “davrimizning eng ahamiyatga molik adiblaridan biri” deya baho beradi. Heminguey sog‘lig‘i yomonlashgani tufayli Nobel mukofoti taqdimotida qatnasha olmaydi”.(Normatova,2008,51-54)

“Yozuvchining buyukligini, adabiyot sohasidagi xizmatlari, jamiyatda tutgan mavqei, milliy ma’naviyatga qo‘shgan hissasi, chinakam so‘z ustasi ekanligini o‘quvchilarga yetkazish zamirida bir tomondan, ma’rifiy maqsadlar yotsa, ikkinchi tomondan, o‘rganiladigan asarga ijobiy munosabatni shakllantirish yotadi”.(Husanboyeva, Niyozmetova.2018,297) Yozuvchi biografiyasi o‘qitishda faqatgina darslikda berilgan ma’lumotlarga tayanishdan chekinish kerak. Boisi, berilgan ma’lumotlar yozuvchi shaxsiyatini, asarlaridagi g‘oyasi va umuminsoniy qarashlarini ifodalab

bermaydi. Maktab o‘quvchilarning yoshiga va dunyoqarashiga mos holda yozuvchi va shoirlar umrbayonlarini o‘qitishning taktikasini ishlab chiqish kerak. Masalan, 5-sinf o‘quvchisiga ijodkorning shaxsiyatini chuqur o‘rgatmaslik kerak. Ijodkorning surati, videolavha yoki bolalik chog‘idagi qiziqarli qisqa hikoya bayon etilishi kerak. Yuqori sinflarda esa bir soat davomida ijodkor tarjimayi holini o‘rgatish maqsadga muvofiq. Shunda ham, darslikda berilgan asarlarining mohiyatini ochib berishda asqotadigan ma’lumotlardan foydalanish o‘rinlidir. Shuningdek, o‘quvchilarning ma’naviyatini boyitishda, insoniy tuyg‘ularini kamol toptirishda ijodkor tarjimayi holining o‘rni beqiyos. Mazkur masalani inobatga olgan holda, o‘qituvchi shoir yoki yozuvchi yashagan davrni, zamondoshlari o‘sha ijodkor asarlariga, shaxsiyatiga bo‘lgan munosabat masalasini yoritib berishi lozim.

Jahon adabiyotining mashhur vakillaridan biri Anton Chexovning tarjimayi holini o‘qitishning yangicha usullarni ishlab chiqish lozim. Zotan, bunday mashhur adibning umr yo‘li va asarlari barcha uchun ibrat namunasi bo‘la oladi. Asarlarda aks ettirilgan voqeliklar orqali tarbiyalanuvchilar katta hayot saboqlarini egallaydilar. Anton Chexovning akasi Nikolayga yozgan maktubidagi gaplari juda ham ta’sirli, ibratli va o‘sha xat asarlari mag‘zini tashkil etadi*: “Anton Chexov jahon adabiyotida nufuzli o‘ringa ega. Uning qanday yozuvchiligini asarlari aytib turibdi. Buyuk adib shaxs sifatida ham o‘rnak bo‘larli fazilatga ega edi.*

Bu o‘rinda yozuvchi qalamiga mansub bir xatga e’tibor qaratmoqchimiz. Chexovning akasi Nikolay iste’dodli rassom edi. Biroq qat’iyatsizligi, ichkilikka mukkasidan ketganligi sabab o‘zini o‘zi xarob qilib borardi. Adib u haqda: “Millatning kuchli bir iste’dodi o‘lyapti, hech bir sababsiz o‘lyapti” degandi nadomat bilan. Yozuvchi akasining zaif tomonlarini bilar va uni o‘ylab hamisha qayg‘urardi. Chexov akasiga bir xat yozadi. Maktubdagi fikrlar siz-u bizga tegishli bo‘lmasada, unda katta ibrat bor.Ushbu xatdan parcha:

Tarbiyali odamlar, fikrimcha, quyidagi talablarga javob berishi kerak: Ular insonni hurmat qiladi, shu sababli hamisha iltifotli, muloyim, murosali… bo‘ladi. Ular bolg‘acha yoki yo‘qolgan o‘chirg‘ich sababli janjal ko‘tarmaydi; birov bilan yashab, keyin buni ta’na qilmaydi, ketayotib: “Siz bilan yashab bo‘lmaydi!” demaydi. Ular shovqin, sovuq, ko‘p qovurib yuborilgan go‘sht, ovqatning tuzi o‘tkirligi yoki uyida mehmonlar borligi tufayli g‘azabga minmaydi…

Ularning yuragi toza, yolg‘on gapirishdan qattiq qo‘rqadilar. Hazillashib ham yolg‘on gapirishdan qattiq qo‘rqadilar. Hazillashib ham yolg‘on gapirmaydi. Yolg‘on tinglovchiga haqorat bo‘lib tushadi va uning nazarida so‘zlovchi qadrsizlantiriladi. Ular o‘zini ko‘z-ko‘z qilmaydi, ko‘chada ham o‘zini yaxshi tutadi, birodarlarining ko‘ziga kul sochmaydi. Ular vaysaqi bo‘lmaydi, so‘ralmagan paytda hamma narsani ochiq-oydin gapiravermaydi…Begona quloqlar hurmati uchun ko‘pincha sukut saqlaydilar”.(Yoshlik,2019 ,6-son)

Ko‘rinib turibdiki, Chexovning xati samimiy va diltortar. Maktubdagi har bir satrni o‘qish davomida asarlaridagi obrazlar, asardan chiqariladigan umumiy xulosa va tarbiyani his etish mumkin. “Xameleon” hikoyasidagi Ochumelov, Xryukin va Yeldirin obrazlari xatdagi fikrlarning tamomila aksidir. Ammo adib bermoqchi bo‘lgan g‘oya ikkiyuzlamachi inson bo‘lmaslik, xuddi xatidagidek tarbiyali inson bo‘lishga chorlash sanaladi. Chexovning yuqorida berilgan xatidan tarjimayi holini o‘qitishda samarali foydalanib, darslikda berilgan “Xameleon” asariga biroz bog‘lab bayon qilish lozim. Shunda tarbiyalanuvchilar adibning chinakam yetuk shaxs ekanligini, asarlarida ham o‘z shaxsiyati chizgilari asoratini ko‘ra oladilar. Darsni shunday tashkillashtirgan o‘qituvchi asarni tahlil qilishda o‘quvchilarga ko‘mak beradi.

Yozuvchi biografiyasini o‘rgatishda xolislik va aniqlikka e’tibor qaratish lozim. Xalq og‘zida yurgan noaniq ma’lumotlardan foydalanishdan chekinish kerak. Chunki bunday

ma’lumotlar o‘quvchining saviyasini pasaytiradi, yozuvchi va uning asarlariga munosabatini tubdan o‘zgartiradi. O‘qituvchi mana shunday holatlarni bartaraf etishi, maqsadi o‘quvchilarga ko‘proq bilim va tarbiya berish bo‘lmog‘i lozim. O‘qituvchi ijodkor haqida quruq fakt aytish bilan cheklanmasligi kerak. Aytilgan ma’lumotlar yozuvchining ijodiy qiyofasi, asarlarining shakllanishi va tahlilida tegishli qurol vazifasini o‘tashi lozim. Masalaning yana bir jihati sifatida, o‘quvchilarni fikrini jamlash maqsadida o‘rganilayotgan ijodkor bilan ularning nechog‘lik tanish ekanligini so‘rash yotadi. Ushbu jarayonda o‘quvchilar jonlanadi, fikr yuritadi va ijodkor bilan tanishishga qiziqadi. O‘qituvchi o‘quvchilar bilmagan ma’lumotlarni aytishga intiladi va dars samardorligi yanada oshadi.

“Maktabda ijodkorning hayot yo‘lini o‘rganishdan asosiy maqsad uning bitganlarini teranroq tushunish ehtiyojidir. Shuning uchun ham “Adabiyot” darsliklarida san’atkor umr yo‘lidagi ma’lumot uning o‘rganiladigan asarlaridan oldin beriladi. Umr yo‘lini o‘rganish asarning tahliliga tayyorgarlik vazifasini bajaradi. Yozuvchi umr yo‘li, ijodkorning umr yo‘lidan xabardor bo‘lish o‘quvchida ezgu insoniy sifatlar shakllanishiga xizmat qiladigan yo‘sinda taqdim etilishi kerak”.(Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh,2022, 146) Yuqoridagi fikrlardan ma’lumki, ijodkor hayot yo‘lini o‘qitishda ham o‘ziga xos yondashuvlarga amal qilish lozim. O‘qituvchi bermoqchi bo‘lgan yangiligi bilan yozuvchining darsligi o‘rtasida qisman bo‘lsa-da, bog‘liqlik bo‘lishi joiz. Quruq yodlatish usulidan voz kechgan holda, zamonaviy metodlar va usullar bilan yozuvchi biografiyasini o‘rganish taklif qilinadi. Metod va usullar o‘qituvchining kasbiy mahoratini ko‘rsatsa, o‘quvchilar qiziqishi va bilim darajasini oshiradi. Sergey Yesenin va Rasul Hamzatov biografiyasini o‘qitishni quyidagicha tashkil qilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi: Rasul Hamzatov hayot yo‘lini o‘rgatishda shoirning o‘zi haqidagi fikrlaridan foydalanish kerak*: “Mening eng oliy orzuim oxirigacha nimadandir xavotir olmayoki ko‘r-ko‘rona emas, balki chin yurakdan xalqimga sadoqat bilan xizmat qilish. Tilagim bunday niyatni barcha odamlar orzu qilsin. Men oz sonli tog‘lik xalqining o‘g‘liman. Qaysiki, barcha tog‘liklar kabi ularning bolaligi va keksaligi juda ham qisqa, yoshligi va yetuklik davri esa juda ham uzun…O‘zi tug‘ilgan zamindan, yurtdan kuch olmagan she’riyat misoli uyasiz qush. Men shunday shoirlarni bilaman, ularning she’rlari chumchuq kabi esdan chiqadi, halok bo‘ldi… Odamlarni faqat til emas, yurak ham bir-biriga yaqinlashtiradi. Bizning avar tilida dunyoda uch yuz ming odamgina gaplashadi. Lekin dunyoda mening yurak tuyg‘ularimni tushunadigan millionlab do‘stlarim bor, ular ham menga yurtdosh”.(Yoshlik, 2013, 9-son)* Rasul Hamzatov o‘zi tug‘ilgan maskan Dog‘iston haqida juda ko‘p she’rlar bitgan. Darslikda berilgan she’rlari ham aynan Dog‘iston, avar tili va shoirning yurtiga, ona tiliga bo‘lgan muhabbati haqidadir. Shoir o‘zi haqida aytgan ma’lumotlari she’rlarini chuqurroq anglanilishiga imkon beradi.

Yozuvchi biografiyasi haqidagi faktlar qimmatli sanaladi. Sababi, biografiyada o‘rgatilgan faktlar shoirning she’rlarini o‘quvchi tafakkurga yetkazish uchun zarur. Sergey Yesinin umr bayonini o‘rgatishda **“Raketa” metodi**dan foydalanish tavsiya qilinadi. Chunki Rasul Hamzatov tarjimayi holi bilan bir soatlik darsda o‘rgatilishi kerak. Rasul Hamzatov haqida hikoya tarzda bayon etish usulidan foydalanildi va Sergey Yesininda ham bu usuldan foydalanish o‘quvchini zeriktiradi. Ushbu metodda raketaning rasmi doskaga yopshtiriladi va ostidan kichik rangli qog‘ozlarda qiziqarli faktlar yozilgan bo‘ladi. O‘quvchilar zerikmasligi, darsga loqayd bo‘lmasligi maqsadida ular doskaga chiqib, rangli qog‘ozlar ortiga yozilgan shoir haqidagi faktlarni navbatma-navbat o‘qishadi. O‘qituvchi faktlar tugagach, ma’lumotlarni xulosalaydi va raketani uchiradi, ya’ni foydali ma’lumotlar yetarlicha eganlanganligini anglatadi. Mazkur metod o‘quvchining tasavvur doirasini kengaytiradi va darsga diqqatini qaratishini ta’minlaydi. Zamonaviy ta’limda shu kabi

metod va usullardan foydalanish talab qilinmoqda. An’anaviy ta’limdagi quruq yod olish tarbiyalanuvchilar tafakkuri o‘sishida samarali natija bermayapti. Shunday ekan, yozuvchi biografiyasida ham metodlardan foydalanish o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun muhim.

Ijodkor tarjimayi holida zamondoshlarini fikridan ham foydalanish o‘rinlidir. Boisi, zamondoshining fikri orqali yozuvchisini insoniylik jihatlarini, adabiy muhitdagi beqiyos o‘rnini va yashab o‘tgan davridagi voqeliklardan ma’naviy oziqlanish mumkin. Maktab darsliklaridagi barcha namoyondalar bejizga berilmagan. Ular buyuk iste’dod egalari, adabiyotning ustunlari. Yozuvchining qanday oiladan kelib chiqqanligi, ya’ni ijtimoiy tabaqasini ham aytishda ehtiyotkorlik zarur. O‘quvchilar ham turli oilalardan kelib chiqadi: kimdirning ota-onasi ziyoli, kimnikidir ishchi. Bu holatda ular ruhiyatiga putur yetishini oldini olish lozim. Shuningdek, avtobiografik tipdagi asarlardagi ma’lumotlarni tarjimayi hol o‘qitishda batamom qo‘llash tavsiya etilmaydi. Ma’lumki, har qanday asarda badiiy bo‘yoqdorlik mavjud.

Tarbiyalanuvchilar yozuvchi umr yo‘lini to‘liq o‘rganishi shart emas. Ular aniq ma’lumotlarga ega bo‘lishi ham adabiyot uchun, ham yozuvchining asari tahlili uchun o‘rinli. Darslikda berilgan asarlariga bog‘liq faktlarni o‘qitish adabiy ta’lim va o‘quvchi ma’naviyatida samarali natija beradi. Jahon adabiyoti namoyondalarining tarjimayi holi o‘zbek adiblarinikidan farqlidir. Ular orasida tushkunlikka tushgan, ruhiy xastalikka chalingan va o‘z joniga qasd qilgan adiblar ham mavjud. 7-sinf o‘quvchisiga bu kabi faktlarni aytmaslik tavsiya qilinadi. Yuqori sinflarda aytish maqsadga muvofiq. Tarjimayi hol masalasi ham adabiyotda, ta’lim jarayonida beqiyos mavzu hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. –T.:2022.

2.Dolimov S., Ubaydullayev H., Ahmedov Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.:O‘qituvchi, 1967 –B.239.

3.Normatova Sh. Jahon adabiyoti. –T.: Cho‘lpon, 2008 –B.51-54.

4.Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: Barkamol fayz media,2018 –B.297

5.Anton Chexov. Tarbiyali odamning sakkiz fazilati // Yoshlik, 2019 –N.6

6.Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2022 –B.146.

7.Hamzatov R. O‘zim haqimda uch og‘iz so‘z // Yoshlik,2013 –N.9.

4-SHO‘BA

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGINING AMALIY MASALALARI

ALOQA-ARALASHUV VA O‘ZBEK ISHORALARI LUG‘ATI

Saidxonov Ma’murjon Muhammedovich
Filologiya fanlari doktori, dotsent,
Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti
Saidxonov54@mail.ru Tel. +998902598887

Annotatsiya. *Aloqa-aralashuv jarayonida verbal va noverbal vositalarning ishlatilishi muloqotning tabiiy ko‘rinishi sanaladi. Shuning uchun kishilar o‘rtasidagi fikr almashuvda ishlatiladigan ishoralarning lug‘atini tayyorlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.*

Kalit so‘zlar: *Kommunikant, adresant, adresat, verbal, noverbal, kommunikativ akt, paralingvizm, etiket.*

Аннотация. Использование вербальных и невербальных средств в процессе коммуникации считаееся естественным видом общения. Поэтому являеекя целесообразным подготовка словаря жестов, используемых при обмене мнениями между людьми.

Ключевые слова: коммуникант, адресант, адресат, вербальный, невербальный, коммуникативный акт, паралингвизм, этикет.

Annotation. The use of communication of the means of verbal and nonverbals in the prosses of relation intervention is considered natural appearance. That is why it is considered to the aim of preparing the dictionary of mimics which is used in the opinion exchange among people.

Key words: communicator, addresser, addresee, verbal, nonverbal, communicative act, pairlinguinism, ethics.

Kishilar o‘rtasidagi aloqa-aralashuvning ro‘yobga chiqishida nutqiy vosita bilan birga nonutqiy jihatning ham tadqiq etilishi keyingi yillar tilshunosligining dolzarb o‘rganuv obyektiga aylanib ulgurdi. Funksional-pragmatik nuqtayi nazar ustuvor tekshirish usuliga aylanib borgan sari fikr ifodalashda kommunikativ aktni to‘laligicha o‘rganishga e’tiborning kuchayishi sababli paralingvistik vositalarni tadqiq etishga e’tibor kuchayib bormoqda. Zero, adresatga uzatilayotgan axborotning 8 foizigina lisoniy vosita orqali, qolgan 92 foizi nolisoniy vositalar yordamida uzatilar ekan, paralingvizmlar tadqiqi o‘z-o‘zidan dolzarb ekani e’tirof etiladi.

Aloqa-aralashuvda qatnashuvchilar ma’lum tilni to‘la bilgan bo‘lsalar-da, milliy madaniyatlaridan, urf-odatlaridan, milliy shakllangan holatlardan bexabar bo‘lsalar, ular bir-birlarini tushunib yetolmaydilar. Suhbatdoshlar “madaniy to‘siq”qa duch keladilar [Верещагin V.N., Kostomarov V.G., 1971. – S. 80]. Ushbu fikrni e’tirof etgan holda A.Nurmonov: Imo-ishoralr fikr ifodalashda nutq uchun yordamchi vosita bo‘lish bilan birga o‘zbek xalqining o‘ziga xos mentalitetini ko‘rsatuvchi yorqin dalil hisoblanadi, – deb yozadi [Nurmonov A., 2012. – S. 212].

Muloqot jarayonida hali nutqiy aloqa-aralashuv boshlanmasidan, kommunikantlar uchrashganlaridayoq nonutqiy (noverbal) axborotni “o‘qiy boshlaydilar”. Suhbatlashuv joyiga kommunikantlardan birining kech kelishi uning prinsipsizligi (yoki vaqtini taqsimlay olmasligi, bee’tiborligi, suhbatdoshni hurmat qilmasligi, ishi ko‘p ekanligi...) haqida xabar bersa, yana sekin yurib kelishi loqaydligidan, mas’uliyatsizligidan dalolatdir. Shuningdek, uning bo‘yi-basti, kiyinishi, mimika va ishoralari, nigohlari va boshqa jihatlari ham suhbatdoshga u haqda ma’lumot uzatadi. Suhbat jarayonida esa ovoz sifati, gapirish manerasi, pozasi, yuz va ko‘zlardagi mimik jihatlar, qo‘l, bosh, gavda harakatlari aloqa-aralashuv akti tarkibida ahamiyat kasb etadi. Birgina ko‘rishuv jarayoni turlicha amalga oshiriladi va har biri o‘ziga xos ma’no ifodalab keladi: qo‘l berib ko‘rishish (qo‘l uchini berish, qo‘lni urishtirmoq, qo‘sh qo‘llab, qo‘lni qisib ko‘rishish, uzoq vaqt

qo‘l olishmoq...), ko‘rishishda yuzdagi mimika va gavda harakati (tabassum, nimtabassum, jiddiy qiyofada, kulib, xo‘mrayib, darg‘azab bo‘lib va b.), bosh qimirlatib salomlashuv, quchoq ochib ko‘rishish va b. Demak, suhbatdoshlar o‘zaro nutqiy fikr almashmaslaridan kommunikantlar aloqa-aralashuvga kirishadilar.

Kommunikantlarning kayfiyati nutqiy suhbatning borishiga bevosita ta’sir etadi. (Kayfiyati yomonligi uchun muayyan fikrni aytmasligi yoki aksincha holat yuz berishi mumkin). Italiyalik psixolingvist Mauro Kotsolino “Kommunikativ tahlil nafaqat kommunikativ aktni, balki suhbatdoshlarning munosabatlari va o‘zaro aloqadorliklarini ham e’tiborga olishi kerak”ligini ta’kidlaydi [Kotsolino M., 2009. – S. 21].

Kishilik jamiyatida shaxsning etiketi, muloqotga kirishishi, muomala madaniyati an’ana va qadriyat sifatida tarkib topar ekan, demak, kommunikativ aktning yuzaga chiqishida ham o‘zaro farqli jihatlar bo‘lishi tabiiy sanaladi. O‘zbek, rus, hind millatiga mansub kishilarning ko‘rishuvidagi o‘zgachaliklar, o‘zaro qarashlaridagi farqli jihatlar, gapirish pozasi va boshqa holatlar har bir xalq (elat, millat) noverbal tilini alohida tadqiq etishni taqozo etadi.

Ruslar etiketiga ko‘ra suhbatdoshlar muloqotga kirishganlarida ko‘zlariga qarab turishi aytilayotgan fikrni e’tibor bilan eshitayotganini bildiradi. O‘zbeklarda esa muloqot etikasida yuzga qarash, so‘zlovchiga tikilib turish anormal etiket hisoblanadi. Yaponlarda esa hurmatsizlik, darg‘azablikni ifodalaydi. O‘zbek ayollari erkaklar bilan muloqotga kirishganlarida (hatto eri bilan ham) ko‘ziga qaramaslik, yerga qarab turish, fikrni ba’zan bosh bilan, ba’zan ovoz bilan tasdiqlash xarakterli jihat sanaladi. Shuningdek, ma’lum ishoraning turli xalqlarda turlicha ma’no ifodalashini ham kuzatish mumkin: bosh barmoqni yuqoriga qaratib, boshqa barmoqlarni bukish o‘zbeklarda “yaxshi”, “zo‘r”, “a’lo” kabi ma’nolarni bildirsa, YEvropa xalqlarida ushbu ishora mashina to‘xtatish maqsadida qo‘llaniladi. Mo‘g‘ullarda va Afrika xalqlarida esa o‘tirmoq va so‘kish ma’nolarida keladi. Shularni e’tiborga olgan holda A.Abduazizov: “Paralingvistika uchun nimani aytish emas, balki qanday aytish ahamiyatlidir”, – deb aytib o‘tadi [Abduazizov A., 1973, – 158].

O‘zbeklardagi “duo qilmoq” (yuziga fotiha tortmoq) harakati kommunikatsiyada ishora ma’nosida ham ishlatib kelinadi va ishoradan anglashilgan ma’no uning o‘z ma’nosidan o‘sib chiqishi asosida hosil bo‘lgan. “Duo qilish”ning denotativ ma’nosi Qur’on oyatlari o‘qilgach, qo‘l orqali amalga oshiriladigan harakat sanaladi. “Duo qilish”ning ommalashgan shakli marhum sha’niga o‘qilgan Qur’on oyatlaridan keyin amalga oshirilgani sababli unda “o‘lmoq”, “umri tugamoq”, “yo‘q bo‘lmoq” semalari mavjud bo‘lib, ushbu sema “duo qilmoq” leksemasining ko‘chma ma’noda kelishiga asos bo‘ladi.

Chol uyga kira solib kampiridan “ovqat bormi” deb so‘ragan edi, kampir yuziga fotiha tortdi. (ovqat yo‘q, tugadi, qolmadi.)

Ushbu ishora milliy xarakter kasb etib, boshqa xalqlar uchun tushunarsiz harakat sanaladi. Bu esa imo-ishoralarning izohli, tarjima lug‘atlarini yaratish zarur ekanidan dalolatdir. “Imo-ishoralar – tarjimasiz til” deyilsa-da, ushbu kommunikativ birliklarning izohli va ikki tilli (ko‘p tilli) lug‘atlarini yaratish maqsadga muvofiq.

Imo-ishoralar nutqiy aloqa-aralashuv jarayonining atributi bo‘lib, ular lisoniy vositani almashtirishi, unga yordam berishi, ta’kidlashi yoki kuzatib borishi mumkin. Ishoralarning ma’nolari kommunikativ kontekstda va holatda reallashadi. Shularni e’tiborga olgan holda o‘zbeklar muloqotida ishlatiladigan imo-ishoralar lug‘atini tuzish dolzarb masalalardan sanaladi. Ushbu lug‘at izohli va tarjima ko‘rinishida bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Imo-ishoralar izohli lug‘atida ishora so‘zlik sifatida olinib, quyidagi tartibda beriladi:

Qo‘lini bigiz qilmoq

1) ishoraning fizik-fiziologik ifodasi yoziladi, ya’ni ishora kishining qaysi organining qay holdagi harakati natijasida hosil bo‘lishi tasvirlanadi. Masalan: *o‘ng qo‘lning ko‘rsatkich barmog‘i suhbatdoshga qaratilib, boshqa barmoqlar yopiq holda bir necha bor silkitiladi.*

2) ishoraning tasviri rasm sifatida ko‘rsatiladi;

3) so‘zning (birikmaning) ishoraviy ma’nosining izohi beriladi: *Norozilik, bahslashish, o‘z fikrini asoslash, urishish, haqoratlash.*

Ishoraviy ma’no asosiy ma’nodan o‘sib chiqqan ma’no sanalib, bu o‘rinda qo‘l (barmoq)ning adresatga tomon silkitilishi uni *mensimaslik, o‘dag‘aylash* kabi semalar asosida hosil bo‘lgan. Albatta, ushbu harakat muayyan kontekst va holatda kommunikativ akt doirasida ishoraviy ma’no ifodalaydi. Boshqa holda barmoqni bigiz qilish biror narsani (tomonni) ko‘rsatishni bildirib kelishi mumkin. Masalan: *Yomg‘ir, bu - go‘zallik ! – Ko‘zoynak* **barmog‘ini bigiz qilib** *shiftni ko‘rsatdi. (Yu.Latipov.)* Bu holda ushbu birikma ishora fe’li sanalmaydi;

4) badiiy asar yoki so‘zlashuvdan misollar keltiriladi:

Oxunjon aka bilan Xolmirza yarim soat deganda qaytib kelishdi. Oxunjon aka ***qo‘lini bigiz qilib*** *Normatga o‘dag‘ayladi:*

- Atay qilgansan sen, yugurtirmoqchi bo‘lgansan meni! (M.Karim.)

- Ayb o‘zingizda! –dedi ***qo‘lini bigiz qilib****, odamlar bilan aymaqi bo‘lib, kattalarni betkachopar, beandisha, yoshlarni shapshaq qilib qo‘ydingiz. (A.Q.)*

Borliqdagi har qanday holat – u real yoki virtual (faqat ongda) bo‘lishidan qat’i nazar muayyan tushuncha ifodalaydi yoki sezgimizga ta’sir etadi. Bu holat til tizimida ma’lum til birligi (so‘z, so‘z birikmasi...) orqali ifodalanib muayyan nomga ega bo‘ladi. A.Nurmonov: “Konkret nutq vaziyatida ma’lum bir ma’no ifodalovchi imo-ishoralar shu nutq vaziyatini qayta hikoya qilib berish jarayonida ma’lum lingvistik birliklar yordamida ifoda etiladi. Bu fe’llar semantik tomondan **ishora fe’llari** deb yuritiladi”, - deb yozadi [Nurmonov A., 2012. – S. 221]. O‘zbek tilida ishora fe’llari nomi ostida tadqiq etilayotgan birliklar fe’l semantik tizimida alohida o‘rinni egallaydi. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida ishora fe’llari fe’llarning ma’no guruhlari ichida alohida guruh sifatida berilgan bo‘lib, **imo qildi, labini burdi, ko‘zini qisdi** kabi fe’llar misolida keltirilgan [Nurmonov va b. 202: 248].

Ishora fe’llari va ishoraviy birikmalar ikkilamchi nomlash xususiyatiga ega bo‘lib, asosan, **kishi organi + uning harakati** ko‘rinishida bo‘ladi.

Imo-ishoralar lug‘ati lingvoo‘lkashunoslik va lingvomadaniy yo‘nalishdagi bir tilli izohli lug‘atlar sirasiga kirib, u muayyan hudud bilan bog‘liq bo‘lishidan tashqari milliy mental xususiyatga ega: urf-odat, an’ana va udumlar bilan aloqador bo‘ladi.

Ushbu xarakterdagi lug‘atda ishoralarning kommunikativ va lingvistik jihatlari ifodalanadi va izohlanadiki, bu aloqa-aralashuv yuzaga chiqishi lisoniy va nolisoniy vositalarning dialektik birligidan iborat ekanini bildiradi, ekstra- va intralingvistik vositalarni birlashtiradi [Nakashidze N.V., 1980. – S. 65].

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Абдуазизов А.А. О статусе паралингвистических средств и о критериях их установления // сб. научн. трудов ТашГУ. 1973. № 543.

2.Верещагин В.Н., Костомаров В.Г. Язык и культура. М.: Русский язик. 1971.

3.Коцолино М. Невербальная коммуникация. Харьков: Гуманитарный центр. 2009.

4.Накашидзе Н.В. Вербальная интерпретация паралингвистических средств в тексте // сб. научн. трудов МГПИИЯ. М., 1980, вып. 141.

5.Нурмонов А.Танланган асарлар. 1-жилд. Тошкент: Академнашр. 2012.

6.Нурмонов А., Собиров А., Юсупова Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили.- Т.: Шарқ, 2002.

NAVOIY VILOYATIDAGI AYRIM TOPOTOPONIMLAR TALQINI

Oripov O‘ralboy Axmedovich
Navoiy davlat pedagogika instituti

Asoslov. Ma’lumki, toponimlar negizida toponim yotsa, ya’ni toponimdan toponim hosil qilinsa topotoponimlar deb yuritiladi. Topotoponim toponimik negizdan hosil bo‘lgan toponimdir.

Kalit so‘zlar. Toponim, toponimiya, toponimika, toponegiz, topotoponim, onomastik konversiya

Toponimiyada bir obyektning atoqli oti bilan boshqa bir obyektni ham atash, ya’ni obyektlar nomining biridan ikkinchisiga ko‘chishi, aniqrog‘i toponimdan toponim hosil qilish ma’lum darajada keng tarqalgan xarakterli hodisadir. Bunday nomlar negizida toponim yotsa, ya’ni toponimdan toponim hosil qilinsa topotoponimlar deb yuritiladi. Topotoponim toponimik negizdan hosil bo‘lgan toponimdir. Toponimning yangi, qo‘shimcha vazifaga o‘tishi, asosan, onomastik konversiya – nomni funksional ko‘chirish orqali yuz beradi.

Topotoponimlarning hosil bo‘lishida ikki xil jarayon yorqin ko‘zga tashlanadi: 1) yonma-yon, yaqin joylashgan obyektlarning nomi biridan ikkinchisiga o‘tadi; 2) aksincha, uzoq joylashgan obyektlarning nomi biri-biriga o‘tadi. Topotoponimlarning hosil bo‘lish qonuniyatlari hali toponimiyada yaxshi o‘rganilgan emas. Bunga sabab nom ko‘chishi murakkab jarayon bo‘lsa, ikkinchidan, biridan ikkinchisiga o‘tgan nomlarning qaysi biri dastlabki nom ekanini aniq belgilashni talab qiladi. Chunonchi: Oqtosh degan qishloq ham, quduq ham bor yoki Maydonsoy degan qishloq ham, soy ham bor, Yomonjar degan qishloq ham, g‘or ham bor. Qaysi birining nomi qaysisiga o‘tgan? Toponimik shakl dastlab qaysi obyektning nomi bo‘lgan? Bunday masala toponim mansub bo‘lgan joyga borib aniqlashni talab qildi. Bizning Nurota toponimiyasi yuzasidan kuzatishlarimiz bitta nom (toponim)ning ko‘p holda birdan ortiq obyektning nomi bo‘lib kelishini ko‘rsatdi. Biz to‘plagan materiallar orasida 2,3,4,5 tagacha obyektga nom bo‘lib kelgan toponimlar mavjud. Quyida ushbu nomlardan namunalar keltiramiz:

1. Ikkita obyektning nomi bo‘lib keluvchi toponimlar. Bular quyidagilar:

– Qishloq va mahalla nomi: Al-Buxoriy, Xo‘jaobod, Yangiturmush, Azizobod va b.

– qishloq va otar nomi: Boyovul (Boydovul) va b.

– qishloq va quduq nomi: Barotquduq, Balandquduq, O‘tamurod va b.

– qishloq va koriz nomi: Boshkoriz, Boymat, Yangibino va b.

– qishloq va masjid: Chashma va b.

– qishloq va yaylov nomi: Bomin, Papanoy, Tikanli, Yulg‘unzor va b.

– qishloq va maydon: Kichikchorbog‘ va b.

– qishloq va soy nomi: Buyumsoy, Kichiksoy, Sop, Qodoq va b.

– qishloq va tog‘ nomi: Bel va b.

– qishloq va tepalik nomi: Dehibaland, Kattachorbog‘, Urganji va b.

– qishloq va g‘or nomi: Ko‘tikuyuk va b.

– qishloq va qoya nomi: Modavot, Tutakli va b.

– qishloq va buloq nomi: Ko‘kbuloq, Sovuqbuloq va b.

– qishloq va quduq nomi: Tosquduq, Teriquduq va b.

– mahalla va ko‘cha nomi: Bahor, Bo‘ston, Bog‘ishamol, Binokor, Mustaqillik, Tinchlik va b.

– mahalla va guzar nomi: Nonvoylar, Ulug‘lar, Shayxon va b.

– mahalla va qadamjoy: Sayidota va b.

– mahalla va koriz nomi: Sardoba, Hovuzak, Shirinhayot va b.

– mahalla va tepalik nomi: Karvon va b.

– mahalla va tog‘ nomi: Childuxtaron kabi.

– mahalla va masjid nomi: Tillachilar, Tillashayx kabi.

– tog‘ va g‘or nomi: Ajdarqiz, Kelinchak.

– tog‘ va tepalik: Kalapo‘shtepa, Qoraqarg‘a, Qirqqiz.

– tog‘ va chashma nomi: Beshbarmoq.

– tog‘ va buloq nomi: Qirqqozon va b.

– tog‘ va cho‘qqi nomi: Sallali, Sandalcho‘qqi, Qoyatosh va b.

– tog‘ va yaylov nomi: Mijgon, Shirg‘alon, Qulonyaylov, Qulamajarsoy

– soy va buloq nomi: Gajir, Jonbuloq, Sariqzar, Tangli va b.

– soy va ariq: Otsug‘orar, Torsoy va b.

– soy va qoya nomi: Yang‘oqli, Ottuyoq va b.

– soy va jarlik: Konsoy va b.

– soy va dara nomi: Burgan, Echkili va b.

– soy va yaylov nomi: Jo‘lisoy, Ismaloqsoy, Kelinsoy, Qarmoqli va b.

– soy va g‘or nomi: Ikkitut, Ko‘hak, Kampirsoy, Tandirsoy, Xarsangsoy.

– soy va koriz nomi: Meliboy, Quvondiq va b.

– Koriz va ariq: Ravshan, Dumariq va b.

– Koriz va buloq nomi: Korizak, Po‘lat, Poshshot, Totli va b.

– Koriz va quduq nomi: Normatqozg‘on, Uzunsuv, Yunusobod, Karimboy

– buloq va g‘or nomi: Ko‘rbuloq, Naychali va b.

– buloq va quduq: Kallahovuz va b.

– buloq va qoya nomi: Piyozli va b.

– buloq va tepalik nomi: Sharshara, Eshmattepa va b.

– qir va cho‘qqi nomi: Ingichka kabi.

– yaylov va tekislik nomi: Bahorikor kabi.

2. Uchta obyektning nomi bo‘lib keluvchi toponimlar: Andoq - qishloq, ziyoratgoh, tepalik; Alqorli-soy, tepalik, dara; Boshputov - soy, yaylov, dara; Bozorboy -cho‘qqi, qishloq, qo‘ra; Jaylovsoy – g‘or, soy, qishloq va b.

3. To‘rtta obyektning nomi bo‘lib keluvchi toponimlar: Jizmon-tepalik, tekislik, yaylov, soy; Ko‘ktosh – tog‘, soy, qadamjoy, qabriston; Ko‘ksaroy – qishloq, tekislik, yaylov, soy; Kuygansoy – soy, yaylov, otar, dara; Oqtepa – qishloq, tepalik, g‘or, ariq va b.

4. Beshta obyektning nomi bo‘lib keluvchi toponimlar: Nurobod – mahalla, koriz, buloq, ariq, qabriston; Arab - qishloq, mahalla, ariq, urug‘, guzar; Zaynibobo - qoya, avliyo, tekislik, buloq, soy kabi.

5. Oltita obyektning nomi bo‘lib kelgan toponim: Oqtosh – koriz, dara, tog‘, cho‘qqi, buloq, avliyo kabi.

Demak, Nurota tuman toponimlariga faqat bir tomonlama qarash, qandaydir xulosalar chiqarish bugungi kun talablariga mutlaqo javob bermaydi. Nudud toponimlarini har tomonlama o‘rganish kerak bo‘lsa, ilmiy asoslash davr talabidir. Biz keyingi tadqiqodlarimizda bu yuqoridagilarni albatta inobatga olamiz degan umiddamiz.

Adabiyotlar:

1. Begmatov E. Joy nomlari-ma’naviyat ko‘zgusi. T.;Ma’naviyat 1998.
2. Do‘simov Z. Toponimlarning yasalishi masalasiga doir. O‘zbek tili va adabiyoti. 1980. №2.
3. Mamatov N. O‘zbek tilida qo‘shma so‘zlar. T.:Fan, 1982.
4. Otajonova A.J. Xorazm etnotoponimlari va ularning lugaviy asoslari - Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. – Tashkent, 1997. O‘sha muallif. Xorazm etnotoponimlari – Toshkent: Fan, 1997.
5. Turobov A.I. Samarkand viloyati etnonim va etnooykonimlarining tahlili. - Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. – Toshkent, 1999.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. T.: I-V jild, 2006-2008 y.

MILLIY QADRIYATLAR VA SAYYOHLIK TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA O‘TOVNING O‘RNI

THE ROLE OF PASSAGE IN THE DEVELOPMENT OF NATIONAL VALUES AND TOURISM SYSTEM

РОЛЬ ПАССАЖА В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И СИСТЕМЫ ТУРИЗМА

Berdiyev Xusan Xolnazarovich
filologiya fanlari boyicha falsafa doktori, dotsent
O‘zbekiston -Finlandiya pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri
+99899-125-20-41 E-mail: rustam_berdiyev1996@mail.ru

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada hozir turizimda urf bo‘layotgan va keng sonli sayyohlarning dala sharoitida, tabiat bag‘rida dam olish istagini ta’minlovchi vositalardan biri o‘tovlarning mamlakatimiz sayyohlik tizimini rivojlantirishdagi o‘rni bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar va terminlar xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘tov, etnoturizm, madaniy meros, mentalitet, termin.

Abstract: This scientific article discusses the issues related to the role of grasses in the development of the tourism system of our country, which is now a tradition in tourism and one of the means of ensuring the desire of a large number of tourists to relax in the countryside.

Keywords: ethnotourism, cultural heritage, terms.

Аннотация: В данной научной статье рассматриваются вопросы, связанные с ролью трав в развитии туристической системы нашей страны, что в настоящее время

является традицией в туризме и одним из средств обеспечения желания большого количества туристов отдохнуть в сельская местность.

Ключевые слова: этнотуризм, культурное наследие, термины.

Kirish. O‘zbekiston moddiy-madaniy merosi nihoyatda boy mamlakat sifatida jahon hamjamiyatida alohida o‘rin tutadi. Ayni hozirgi davrda milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylashni yanada takomillashtirish, shuningdek xalqaro va ichki turizm sohasini samarali tarzda tashkil etishda o‘tov va o‘tovsimon uylardan keng foydalanish, ularning serhasham turlarini qayta tiklash hamda soha rivojida undan unumli foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Avvalo, shuni ta’kidlash joizki, o‘zbek davlatchiligi tarixi ko‘p ming yillik tarixiy taraqqiyot bosqichiga ega. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o‘tov juda qadimiy madaniy-ma’naviy, moddiy-ashyoviy meros hisoblanadi. U, bir tomondan, juda uzoq o‘tmishdagi ajdodlarimizning yashash tarzini ifoda etuvchi meros, ikkinchi tomondan, madaniy hayotning yana bir shakli sifatida hozirgacha turli hududlarda yashab kelayotgan va shu yerliklar uchun qulay uysozlik namunasining bir ko‘rinishi o‘laroq qadriyat sifatida qarashni taqozo etadi.

Tilning lug‘at tarkibida xalqning ijtimoiy hayoti, turmushi, kasb-kori, qarashlari, an’analari, urf-odatlari bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalar va bu tushunchalarni aks ettiradigan leksik qatlam hamda uning tarkibiy bir qismi bo‘lmish terminologik sistemalari rivoj topib keldi.

O‘tovning qurilish materiallari, materiallarning turlari, xususiyati, vazifasi, ahamiyati, o‘tov materiallari bezaklari, to‘shanchi va shu kabi qator narsa-predmetlarni anglatuvchi so‘z/terminlar so‘zlar mavjud. O‘tovsozlik leksikasi nafaqat lingvistik manbalar va og‘zaki nutq materiallari, shuningdek arxeologik, etnografik, badiiy-folkloristik tadqiqotlar natijalariga ham asoslangan holda tadqiq qilingan. Chunonchi, tilshunosligida o‘tovsozlik leksikasi an’anaviy qurilish yo‘nalishida maxsus o‘rganilgan bo‘lib, U.Daajav, O.A.Konstantinova mo‘g‘ul, P.B.Fedorov qalmiq, R.M.Yusupov boshqird, A.D.Erdineyeva buryat; A.A.Shevtsova, A.R.Nurdubayeva qozoq; E.Chiniyeva, A.Y.Malchuk qirg‘iz o‘tovlari haqida tadqiqot olib borgan bo‘lsalar, Sh.Allaniyazova qoraqalpoq qo‘l hunar leksikasi tarkibida o‘tov jihozlari terminlari, N.A.Tleubergenova an’anaviy qurilish yo‘nalishida ilmiy izlanishlar olib borganlar [Daajav va b.]. O‘zbek o‘tovlari leksikasining ayrim jihatlari haqida E.Umarov, Q.Sapayev, M.Abdiyev, A.Omonturdiyev, Sh.Usmanova [Umarov va b.] kabi tadqiqotchilar tomonidan e’lon qilingan ishlarda ba’zi fikrlar bayon etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ishda mavzu talabidan kelib chiqqan holda, qiyosiy-tarixiy, tavsifiy va tasniflash metodlaridan foydalaniladi. Uning obyektini tarixiy, zamonaviy leksikografik manbalar va og‘zaki nutq materiallari tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. Bu terminologik qatlamga oid materiallarni chuqur o‘rganish hamda ular bo‘yicha pragmalingvistik, lingvokulturologik aspektlarda keng qamrovli tadqiqot olib borish lozim degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Kuzatishlardan ma’lum bo‘ladiki, o‘zbek va qoraqalpoq tillarining o‘tovsozlik leksikasi til leksik sistemasida alohida o‘rin tutadi, qadimiy meros bilan bog‘liq muhim lingvistik qadriyat hisoblanadi. Zero, soha leksikasidagi so‘zlar semantikasi, turli davrlarga oid lingvistik birliklar, tarixiy dialektal so‘zlarning ma’no ko‘lami o‘tov va u bilan bog‘liq so‘z/terminlarda aks etib kelgan.

Uylar transformatsiyasi jarayoni insoniyat tarixiy taraqqiyotidagi eng muhim omil sanaladi. Qurilishga aloqador bo‘lgan tasavvurlar turli urf-odatlarning paydo bo‘lishiga ham zamin yaratgan. Asta-sekinlik bilan ularni bajarish an’ana tusini olgan va soha terminlarining shakllanishida o‘ziga xos rol o‘ynagan. Tabiat va olam haqidagi tasavvurlarning yashash joylari bilan bog‘lanishi bu terminologik sistema tarkibini yanada boyitgan. An’anaviy qurilish tizimiga ega bo‘lgan o‘tov bu jihatdan o‘ziga xosdir. Shuning uchun ham o‘tov muhim qadriyat hisoblanadi.

O‘tovsozlik madaniyati hamda leksikasi, eng avvalo, xalqning yashash tarzi, atrof-olam, milliy mentalitet singari ma’naviy tomonlar bilan bevosita aloqador. U madaniy hayot sivilizatsiyasining ko‘pgina hodisalarini o‘zida aks ettirib kelgan. Mazkur uy tipi materiallari ornament belgilari ham shundan dalolat beradi. Zero, kundalik turmushdagi ehtiyojlar rang-barang

so‘z - tushuncha va iboralarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, o‘tovsozlik leksikasi o‘ziga xosligi bilan xarakterlanadi. Soha leksikasiga xos so‘zlarni tadqiq etish, tabiiyki, qadriyatlarga aloqador bo‘lgan ma’naviy-moddiy merosni o‘rganish, ularning lingvistik xususiyatlariga oid o‘ziga xosliklarni aniqlash hamda til lug‘at boyligi xazinasida tutgan o‘rnini belgilashdek dolzarb vazifa bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘tov va o‘tovsimon uy tipidan hozirgi paytda ham mavsumiy jarayon va boshqa hollarda, shu bilan bir qatorda, turizm sohasida foydalanilmoqda.

O‘tovning tiklanishi, materiaallarning tayyorlanishi, yog‘och va mato qismlari, to‘shanchilari, kashtalari, jihozlari, bezaklari, shuningdek o‘tov tiklash urf-odatlari bilan bog‘liq juda ko‘pgina qadriyatlar saqlanib qolgan.

Nufuzli leksikografik manbalar, tarixiy-ilmiy asarlar (“Devonu lug‘otit turk”, “Muqaddimat ul-adab”, “At-tuhfatuz fil-lug‘ati turkiya”, “Temur tuzuklari”, “To‘rt ulus tarixi”, “Shajarayi turk” va b.), badiiy ijod namunalari (og‘zaki va yozma manbalar: dostonlar, topishmoq, maqol, ibora singari janrlar) hamda jonli so‘zlashuv tilida mavjud bo‘lgan ko‘plab so‘z/terminlar davrlar o‘tishi mobaynida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy o‘zgarishlar o‘tovning vazifasida ham qator o‘ziga xosliklarni keltirib chiqarganidan dalolat beradi. Shu ma’noda, nafaqat kishilar yashash joyi, balki davlatchilik tarixida muhim rol o‘ynagan harbiy sohada ham o‘tovning o‘rni alohida ekanligini manbalardagi ma’lumotlar tasdiqlaydi.

Markaziy Osiyo xalqlari madaniy turmush tarzi haqidagi qimmatli ma’lumotlar mintaqaga turli maqsadlarda tashrif buyurgan chet ellik mualliflarning esdaliklari, muayyan podshohlik tarixi yoki hukmdor faoliyatiga doir asarlarda ham mavjud.

O‘tovni milliy qadriyat sifatida keng ko‘lamda tadqiq etish, u yuzasidan etnografik, etnologik, san’atshunoslik, folkloshunoslik, kino sohalarida amaliy ishlarni yaratish va boshqalar galdagi vazifalardan hisoblanadi.

Umuman, o‘zbek tilining lug‘at tarkibi xalqimizning moddiy va madaniy tarixi bilan uzviy aloqador holda asrlar davomida boyib kelmoqda. Unda xalqning ijtimoiy hayoti, turmushi, kasb-kori, qarashlari, an’analari, urf-odatlari bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalar va bu tushunchalarni aks ettiradigan leksik qatlam hamda uning tarkibiy bir qismi bo‘lmish terminologik sistemalari rivoj topib keldi. Shubhasiz, ular milliy mentalitet va tasavvurlar asosida shakllangan, taraqqiy etgan, qadriyat darajasiga ko‘tarilgan.

Xulosa va takliflar. Xalq og‘zaki ijodi dostonlari, maqollar, topishmoqlar, iboralar, o‘lan va termalardan keltirilgan talqinlar, badiiy, tarixiy–ilmiy asarlar materiallarida mavjud ma’lumotlar soha terminlarining qadriyat sifatidagi alohida ahamiyatini ham ko‘rsatadi.

Etimologik lug‘atlar materiallaridan ma’lum bo‘ladiki, o‘tovsozlik terminlari juda qadimgi davrlarga aloqador bo‘lib, ular tarixiy, tarixiy-qiyosiy leksikani o‘rganishda, tillar va madaniyatlar mushtarakligini tadqiq etishda alohida ahamiyatga molik lingvistik dalillardir.

Izohli hamda dialektologik lug‘atlarda ham o‘tovsozlik terminlarining muayyan qismi aks etgan bo‘lib, bu holat mazkur soha terminlarining o‘zbek tili leksik sistemasida o‘ziga xos o‘ringa ega ekanligidan dalolat. Biroq turli asarlar asosida tahlil etilgan materiallar, dala amaliyoti paytida biz tomonimizdan to‘plangan yangi so‘zlar ilmiy muomalaga kiritilishi zarur, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Даажав У. Юрта – основа национальной архитектуры Монголии // Ползуновский вестник, 2013. – №4-1. – С. 221-223; Константинова О.А. К характеристике лексического комплекса “очаг – жилище - народ” в тунгусо-маньчжурских, монгольских и тюркских языках // Проблема общности алтайских языков. – Л.: Наука, 1971. – С. 164-175; Этот же автор. Тунгусо-маньчжурская лексика, связанная с жилищем // Очерки сравнительной лексикологии алтайских языков. – Л.: Наука, 1972. – С. 224-256; Федорова П.Б. Отраслевая лексика сорременного калмыцкого языка (термины, связанные с обработкой древесины) // Камыцкий государственный университет. – Элиста. – С.38-40; Эрдынеева А.Д. Лексико – семантическая характеристика жилищно-поселенческого комплекса бурят: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Улан-Удэ, 2005; Шевцова А.А. Казахский народный орнамент как этнографический источник (на материалах XIX-начала XX вв.): Автореф. дисс. ...канд. истор.

наук. – Москва, 2004; Нурдубаевой А.Р. Кииз уй: структура пространственности: Автореф. дисс. ...канд. архитек. – Москва, 1977; Чыныева Э. Кыргыз улуттук орнаментинин коммуникация системасындагы ролу. – Бишкек, 2011; Мальчик А.Ю. История кыргызского народа прикладного искусства: эволюция кыргызского орнамента с древних времен до XX в.: Автореф. дисс. ...канд. искусст. наук. – Бишкек, 2005; Алланиязова Ш. Қорақалпоқ тилининг қол онер лексикаси. – Нукус, 1997; Тульбасиева Л.Е. Интерьер жилой юрты как художественно-композиционная система (казакское народное жилище кочевого периода): Автореф. дисс. ...канд. искуст. наук. – Москва, 1984; Тлеубергенова Н.А. Традиционное жилище каракалпаков XIX– начала XX вв.: Автореф. дисс. ...канд. истор. наук. – Нукус, 1996.

2. Умаров Э. Алишер Навоий асарларида оқ уй атамаси // ЎТА, 2005. – №1.– Б. 30-31; Сапаев Қ. Строительная терминология узбекского языка. Научная библиотека диссертаций и авторефератов disserCat http://www.dissercat.com/content/stroitelnaya-terminologiya-uzbekskogo-yazyka#ixzz3QZ99OW37; Абдиев М. Ўзбек тили ўтовсозлик атамалари // ЎТА, 2011. – №6. – Б. 97-101; Омонтурдиев А. Профессионал нутқ эвфемикаси (чорвадорлар нутқи мисолида): Филол. фан. д-ри ...дисс. – Т., 2009. – Б.139; Усмонова Ш. Олтой тилларида муштарак маиший лексика: Филол. фан. д-ри ...дисс. автореф. – Тошкент, 2011.

TURKIY TILLAR INTEGRATSIYASINI VA IMLOVIY SAVODXONLIKNI TAKOMILLASHTIRISHDA QO‘LLANILADIGAN IJODIY ISHLAR.

Suyunov Husniddin Miltiqboyevich,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent,
Navoiy davlat pedagogika instituti,
E-pochta: suyunov@inbox. ru.

Annotatsiya. Turkiy tillar integratsiyasi orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, dunyoqarashini, og‘zaki va yozma nutqlarini o‘stirishda hamda imloviy savodxonligini takomillashtirishda ijodiy ishlardan essening ahamiyati katta ekanligi bayon etilgan. Shuningdek, essening tarbiyaviy ahamiyati, so‘z birikmasi va gap ustida ishlash, lingvistik baza, bog‘lanishli nutqning lingvistikaga asoslanishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: So‘z, nutq, mustaqil fikrlash, imloviy savodxonlik, esse, tarbiya, gap, matn, lug‘at, savol.

Dunyoqarashi keng har bir mustaqil fikrli, ma‘naviyatli, o‘zining xolis fikriga ega inson kelajagini buyuk qilib yarata oladi. Uning oldida aniq maqsadlar, ulkan rejalar qo‘yiladigan qadami uchun mustahkam poydevor turadi.

Og‘zaki va yozma nutq o‘stirish nima? Agar o‘quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda tilni har tomonlama talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishini, bog‘lanishli nutqni faol amaliy o‘zlashtirish tushuniladi.

Nutqni egallashning qator usullari mavjud. Bular :

1.Adabiy til me’yorlarini o‘zlashtirish. Maktab o‘quvchilarini adabiy tilni sodda so‘zlashuv tilidan, sheva va jargosidan farqlashga o‘rgatadi, adabiy tilning badiiy, ilmiy so‘zlashuv variantlari bilan tanishtiradi.

2.Jamiyatimizning har bir a’zosi uchun zarur bo‘lgan muhim nutq malakalarini, ya’ni o‘qish va yozish malakalarini o‘zlashtirish. Bu bilan o‘quvchilar yozma nutqning xususiyatlarini, uning og‘zaki so‘zlashuv nutqidan farqini bilib oladi.

3.O‘quvchilarning nutq madaniyatini takomillashtirish. Til jamiyatdagi eng muhim aloqa vositasidir. Tilning manba shu ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, maktabda o‘quvchilarning nutq madaniyatiga alohida e’tibor beradi. Bu vazifalarni bajarish uchun o‘qituvchi, o‘quvchilar bilan rejali ish olib borishi lozim. Buning uchun esa o‘quvchilar nutqini o‘stirish ustida ishlash tushunchasiga nimalar kirishini bilib olish muhimdir.

Bu, avvalo, bilim nuqtayi nazaridan, savodxonligidan, go‘zal fikrlashidan, nutqiy so‘zamolligidan bilinib turishi kerak. Buning uchun ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘quvchiga malaka ko‘nikmasini shakllantirib berish, keng mushohadali fikrlashga o‘rgatish, chiroyli, aniq, qisqa, ma‘noli, mazmundor gaplar, so‘z birikmalari yaratishga yordam berish lozim. O‘quvchi chiroyli fikrlasagina chiroyli, mantiqqa boy jumlalar yarata oladi. Chunki, har kim o‘z fikri nuqtayi nazaridan kelib chiqib jumla tuzadi, matn yaratadi. O‘quvchi tuzgan gaplarida, qo‘llagan birikmalarida, iboralarida ma‘nodosh, shakldosh, paronim, zid ma‘noli so‘zlarni ishlata olishi, imloviy, uslubiy, ishoraviy xatoliklarga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Bu jarayonni mustaqil fikr asosida yaratgan ijodiy ishlar: insho, esse, bayon kabilar bilan shakllantirish, mustahkamlash, boyitish mumkin.

Xo‘sh, esse o‘zi nima? U boshqa ijodiy ishlardan nimasi bilan farqlanadi?
Bu savollarga javob berish uchun biz “Esse” so‘ziga to‘xtalamiz. Uning ma‘no belgisi nimada ekanligiga, o‘quvchiga fikrlash jihatidan qanday yordam berishiga to‘xtalib o‘tamiz. “Esse”- bu fransuz tilida “essai”- “tajriba”, ingliz tilida “assay”- “intilish”, “ijodiy sinov”, lotinchada “o‘ylash” degan ma’noni bildiradi. Esse inshodan farqli bo‘lib, unda reja tuzilmaydi, fikrlar jamlanib, kirish qismi, asosiy qism, xulosa shaklida yoritiladi. Har bir esse muallifi mustaqil fikrlari asosida ijodiy yondashadi. Mustaqil fikrlarini, berilgan mavzu bo‘yicha yoritib, bu fikrlarni qo‘llashi yoki qo‘llamasligini bemalol yoza oladi. Xulosa chiqarib, teran fikr qiladi. Hayotiy dalillar keltiradi, asoslab beradi.

Yozgan fikrlarini dalillash uchun kirish so‘zlar, kirish birikmalar, aforizmlar, xalq maqollari, iqtiboslar, hayotiy dalillar keltira oladi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchining husnixatiga, imlosiga, so‘z qo‘llash uslubiga ijobiy yondashuv bo‘ladi. Insho yozishda esa o‘quvchi ma‘lum bir mavzuni, o‘qilgan badiiy asarni,
yoki bo‘lmasa, biror tanlangan erkin mavzuni yoritadi.

Esse – qisqa hikoya, ocherk hisoblanadi. Umumiy qo‘llangan so‘zlar miqdori 200-250 ta bo‘lishi ham uning ixcham so‘zda keng ma‘no ekanligini isbotlaydi.

Esse yozishda uch yo‘nalish aniq ajratiladi:
1)so‘z ustida ishlash. 2) so‘z birikmasi va gap ustida ishlash.
3) bog‘lanishli nutq ystida ishlash.

So‘z, so‘z birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik baza bo‘lib leksikologiya (frazeologiya va stilistika bilan birgalikda), morfologiya, sintaksis xizmat qiladi; bog‘lanishli nutq esa mantiqqa, hayot ko‘nikmalari va murakkab sintaktik butunlik lingvistikasiga asoslanadi.

Ko‘rsatilgan uch yunalish parallel olib boriladi: lug‘at ishi gap uchun material beradi; so‘z, zo‘z birikmasi va gap ustida ishlash bog‘lanishli nutqqa tayyorlaydi. O‘z navbatida, bog‘lanishli esse lug‘atini boyitish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Maktabda o‘quvchilarni esse ustida ishlashga o‘rgatishda ona tili o‘qitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. Esse ustida ishlash faqat ona tili va adabiyot darslarininggina emas, balki o‘quv rejasidagi barcha fanlarning, shuningdek, sinfdan tashqari o‘tkaziladigan tadbirlarning ham vazifasidir.

Bog‘lanishli nutq tugallangan mazmunni ifodalaydigan mantiqiy va grammatik qoidalar asosida tuzilgan mustaqil va o‘zaro bog‘langan ma’noli qismlarga bo‘linadigan nutqdir. Maktab sharoitida bog‘lanishli nutq birligi o‘qituvchi bergan savollariga o‘quvchilarning keng, mukammal og‘zaki javobi, yozma bayonni, insholari va esselari hisoblanadi.

Esse kichik og‘zaki axborot va emasional hikoyadan boshlanib, o‘z fikrini ifodalashga o‘quvchi shaxsining kamol topishiga xizmat qiladigan, ta’limiy- tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan jiddiy hayotiy ishga aylanadi. Esse shaxsni shakllantirishda foydali vosita bo‘lib, his-hayajon uyg‘otadi, aqliy mustaqillikga, fikrlashga, ko‘rgan kechirganlari va o‘zlashtirganlarini baholashga o‘rgatadi, kuzatuvchanlikni o‘stiradi, voqea – hodisalar o‘rtasidagi sabab natija bog‘lanishini topishga, ularni qiyoslashga xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Esse fikrni tartibga soladi, o‘quvchilarda o‘ziga, o‘z kuchiga va imkoniyatiga ishonch tug‘diradi.

Esse o‘quvchilardan faollik, qiziqish fikr bildirishni, talab qiladi. Material tayyorlash uni tartibga solish, o‘ylash mantiqiy bog‘lanishini belgilash, so‘z birikmasi tanlash, gap tuzish va uni o‘zaro bog‘lash, imloni tekshirish, bu barcha ishlar o‘quvchidan aqliy kuchni to‘la ishga solish bilan birga, o‘z ma’naviy faoliyatini boshqarish kunikmasini talab etadi. Esseda til nazariyasi nutq tajribasi bilan qo‘shiladi.

Esse ustida ishlashga o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarda mavzuni tushinish va yoritish, hayotiy material to‘plash, uni tartiblash, mazmunga mos bo‘lgan til vositalaridan foydalanish, yozgan essesini takomillashtirish ko‘nikmalari hosil qilinadi. Bundan tashqari, esseni yozishda matnni qismlarga bo‘lish, xat boshidan boshlash, hoshiyaga, imlo va xusnixat qoidalariga rioya qilish kabi talablarga amal qilinadi.

Essening tarbiyaviy ahamiyatini oshirish uchun quyidagilarga rioya qilish talab etiladi:

1. Osondan qiyinga tamoyiliga rioya qilgan holda esseni muntazam o‘tkazib borish bilan o‘quvchilarda mustaqillikni tarbiyalash. Mustaqil esse o‘quvchilar faolligini o‘stiradi.

2. Esseni hayot bilan bog‘lash. Bunda kuzatishlar asosidagi esse, kundalik yuritish, qilingan ishlar yuzasidan hayotiy yozma ma’lumot berish kabilarning tarbiyaviy ahamiyati juda katta.

3. Esse uchun maktab va o‘qituvchining tarbiyaviy vazifalariga mos bo‘lgan mavzu tanlash. Bunday mavzularga davlat tili haqidagi, kishilarning maqtovga loyiq ishlari haqidagi, axloqiy muammolar, Vatan haqidagi mavzular kiradi. Mavzuni o‘qituvchi maktab sharoiti va o‘z sinfi o‘quvchilarining xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlaydi.

Esse yozish jarayonida o‘quvchining savodxonligi ham rivojlanadi. Chunki har bir ishlatilgan so‘z, yangi ma‘no, yangi fikr, yangicha yondashuv o‘quvchini bilim jihatdan charxlaydi. Imloviy xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslikka, tinish belgilarini o‘rinli qo‘llashga undaydi.

Esse yozishda kirish so‘zlardan o‘rinli foydalanish lozim. Har bir kiritmalar o‘rniga ko‘ra vergul bilan ajratiladi. Agar kirish birikma qo‘llansa, u kengroq bo‘lib, ko‘pincha gapning boshida yoki o‘rtasida qo‘llanadi.

Esse yozishdan ko‘zlangan maqsad – o‘quvchining tushunchasi asosidagi fikrini shakllantirish, nutq jarayonini boyitish, mustaqil fikrga o‘rgatish, tilimizdagi qator so‘zlar ma‘nodoshlarini topa olish, imloviy jihatdan xatosizlikka erishish.Til unsurlaridan o‘rinli foydalanib, o‘z mustaqil fikrini bildirgan o‘quvchi mavzuda qo‘yilgan muammolarni erkin tarzda yecha oladi. Bu o‘z o‘rnida kelajakda hayot qiyinchiliklarini yenga olishga, hayotda uchragan hodisalarga befarq bo‘lmaslikka undaydi. O‘quvchilar esse yozish bilan birga hayotga munosabat bildira oladi. Mavzuni, unda qo‘yilgan muammoni yechish uchun badiiy asarlarga, hikoyalarga, she‘riyatga murojaat qiladi. Bu holat o‘quvchini diqqatini jalb qilishga, izlagan so‘zini topishga, uning ma‘nodoshini qidirishga undaydi. Bu jarayonning borishi savodxonlik rivojini keltirib chiqaradi.

Demak, maktablarda ona tili fanlarida ko‘proq esse yozish lozim. Esse yozish ijodkorlik bilan birga, fikr rivojlanishini, mantiqiylikni, savodxonlikni, mustaqil tushuncha bildira olishni, o‘z ustida ko‘proq ishlashni ta‘minlaydi.

O‘quvchiga “Mening go‘zal hayot haqidagi o‘ylarim”, yoki “Haqiqiy baxt nima?” mavzularida esse yozish topshirig‘i berilsa, bola, albatta, esseni yozishga kirishishdan avval fikr yuritadi. Hayotidagi, yon-atrofidagi insonlar, ularning hayot yo‘li, qiziqishlari, yashash tarzini ko‘z oldidan o‘tkazadi. Qay biri baxtliroq? Nega unisi? Menimcha boylik baxtmikin? Halollik, halol yashash – baxtmi? Biz oilamiz bilan qaysi jihatdan ulardan ko‘ra ustunmiz?. Balki, baxt tinch hayot kechirishdir? Mashinaning markasi boshqalarning mashinasidan ustun turishi- baxtdir, go‘zal hayotdir? - degan qator savollar uning butun vujudini, miyasini, fikrlarini qamrab oladi. Bu fikrlar girdobida esseni yozish uchun kerakli so‘zlarni jamlay boshlaydi. U so‘zlar jamligini eng noyobini, doimiy neytral so‘zni emas, uning ma‘nodoshini izlay boshlaydi. Albatta, men, menimcha, mendagi, mening fikrimcha, shunday fikrdaman, shunday o‘ylayman, shu qarorga keldim, mening xulosam shuki kabi so‘z va birikmalardan foydalanadi. Bu o‘quvchining kirish so‘zlar va kirish birikmalarga e‘tibor bilan qarashini ta‘minlaydi.Yoki hikoya jarayonida hayotiy misollar keltirishi lozim bo‘lsa, ko‘chirma gaplarga, muallif gapiga, undagi tinish belgilariga alohida e‘tiborli bo‘ladi.

Chunki, ko‘chirma gaplarda, aforizmlarda, maqollar va matallardan namunalar keltirishda tinish belgilari e‘tibor talab qiladi. Ikki nuqta, vergul, tire, chiziqcha, qo‘shtirnoq, nuqta – kabilar.

“Haqiqiy baxt nima?” mavzusini yoritishda bir qator so‘zlar qo‘llash mumkin.

Hayotni “go‘zal” demasdan “totli”, “sevimli”, “osuda” deyish ham mumkin. Yoki “baxt” so‘zini ham o‘rni bilan “chiroyli yashash”, “tinch hayot”, “sog‘lom
turmush” kabi so‘zlar bilan almashtirib qo‘llash mumkin. Har qanday ijodiy ish mashqlar natijasida sayqal topadi, rivojlanadi, o‘qishli bo‘ladi. Maktab darsliklarida ko‘proq kichik-kichik hikoyatlar, hadislar, buyuklar pand-nasihatlaridan namunalar berib borish kerak. O‘sha berilgan hikoyani, hadisni o‘qib, bola xulosa qiladi. Qolaversa, ko‘zi bilan ko‘rgan yozuvida, o‘qigan jumlasida berilgan so‘z va so‘z birikmalarida, gaplarda o‘quvchi hech qachon xato qilmaydi. Shuning uchun darsliklarda matnlar berilgan joyda ko‘proq amaliy mashq qilish, nutqiy faollikni oshirish, nutq tezligini oshirish, ifodali o‘qish jarayoniga amal qilish kerak. Shunda biz ko‘zlagan maqsadlarga erishamiz. Ifodali o‘qish mashqi o‘quvchi uchun juda foydali hisoblanadi. Bunda ham so‘zni yodda saqlaymiz, ham ifodali o‘qiymiz ham ko‘ramiz. Shu so‘z xotirada qoladi.

Tilimizda bir qator so‘zlar bor. Ulardan har doim o‘z o‘rnida foydalansh lozim. Agar so‘zlarni to‘g‘ri tanlay olsak, uslubiy jihatdan ham xatolik bo‘lmaydi. Ma‘nodoshlikning asosiy ko‘rinishi ham shunda aslida.

Masalan, [**kulmoq**] fe’lining bir qator ma‘nodoshlari bor. Bu so‘z esa dominant so‘z hisoblanadi. E‘tibor qiling. [jilmaydi, iljaydi, tirjaydi, irshaydi, xandon otdi, miyig‘ida kuldi, og‘zi qulog‘iga yetdi] Bunday so‘zlar uslubiy jihatdan farq qiladi. Har biri o‘ziga xos salbiy va ijobiy bo‘yoqdorlikka ega. [Iljaydi, tirjaydi, irshaydi] kabi so‘zlar salbiy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lib, ko‘proq so‘zlashuv va badiiy uslubga xos.

O‘quvchi esse yozishda gap qurilishiga ham ahamiyat berishi lozim. Matn yaratishda sodda va qo‘shma gaplarning o‘rni muhim. Sodda gaplar tuzilishi, grammatik asosi, gap bo‘laklarining joylashish o‘rniga ko‘ra ham farq qiladi. Agar gap darak gap, so‘roq gap, buyruq gap tarzida aks etadigan bo‘lsa, ma‘lum tinish belgilari bilan farqlanadi. Gaplarda inversiya hodisasi yuz berishi mumkin. Ya‘ni, ega, kesim, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, holning o‘rni almashinib qoladi. Aslida bu she‘riyatda, badiiylikda ko‘proq aks etishi kerak. Mustaqil fikr asosida yozilgan ijodiy ishda ham gap qurilishi o‘zgarishi mumkin.

Masalan, [Hovliga ikki bolali ayol kirib keldi] gapi berilgan. Agar bu gapda ma‘lum o‘rinda to‘xtam bilan aytilsa, gap qurilishi va mazmun o‘zgaradi. [Hovliga ikki // bolali ayol kirib keldi]. Birinchi gapda ikkita bolasi bor bir ayolni tushunamiz. Ikkinchi gapda esa hovliga bolasi bor ikkita ayol kirib kelganini tushunamiz. Demak, ohang (intonatsiya) gapning nafaqat tuzilishini, balki mazmuniy-hissiy yo‘nalishini ham o‘zgartiradi.

Tilimizda nafaqat so‘zlar, balki iboralar ham keng qo‘llanadi. Ibora til boyligi hisoblanib uning jozibasini oshiradi. Tinglovchi yoki o‘qiyotgan kishi uchun tushunarli birlik bo‘lib xizmat qiladi. Chunki, iboralarda ham xuddi so‘zlardagi kabi o‘zaro zid ma‘nolilik, omonimlik (shakldoshlik), sinonimlik (ma‘nodoshlik) mavjud.

Masalan, [Labi labiga tegmaydi. Juda tez va ko‘p gapirmoq]
[Labini tishlamoq. Kutilmagan hodisaga duch kelib, nima deyishini bilmay qolmoq. O‘xshashi: tilini tishlamoq]
[Xamirdan qil sug‘urganday. Oson]
[Yog‘ tushsa, yalaguday. Toza. Oyoq bosishga tortinasan.Toza]
[Boshi osmonga yetmoq. Og‘zi qulog‘ida. Xursand bo‘lmoq]
[Yuragiga qil sig‘maydi. Dili xufton bo‘lmoq. Sertashvish. Ishi yurishmagan kabi ma‘nolarda qo‘llanadi.]

Iboralar ma‘nosi so‘zga tenglashganiligi uchun bemalol og‘zaki va yozma nutqda qo‘llash mumkin. Bunda mazmunga va fikriy mantiqqa hech qanday putur yetmaydi. Bunda gap qurilishi boyiydi , mantiqiy bog‘lanish bo‘ladi , mazmun tushunarli bo‘ladi.

Esse yozish qoidalariga to‘liq amal qilgan holda o‘quvchining savodxonligini oshirish, imloviy, ishoraviy, uslubiy jihatdan uning ko‘nikmalarini boyitib borish lozim. Shundagina maqsadga muvofiq tarzda savodxon, bilimli mustaqil holda o‘z fikrini yoritadigan, kelajakda hayot

sinovlariga bardosh bera oladigan, o‘ziga ishonchi baland mukammal shaxsni tarbiyalay olamiz. Bu faqat ijodkorlikda emas, nutq jarayonida, teran fikrlashda aks etib turishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. Toshkent, “O‘zbekiston nashriyoti”, 2020-yil.
2.O‘zbek tili me’yorlari (punktuatsiya). Toshkent, “Zamin nashr”, 2021-yil.
3. Karimov B. So‘z xiyoboni. Toshkent, “Fan”, 2020-yil
4. Tolipova R. Ona tili o‘qitish muammolari // Til va adabiyot ta’limi. – Тошкент, 2010. – № 1. – B. 3-12.
5. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, O‘zME 2013-yil.

BADIIY ASARLARDA “YAXSHILIK” KONSEPTINING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Nuritdinova Ra’no Sevdiyevna
NavDPI O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

Annotasiya: Ushbu maqola o‘zbek tilida “yaxshilik” konseptining nutqiy ifodalanishi, ifoda vositalari, yaxshilik va yomonlikka oid aksiologik konseptlar masalalariga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: konsept, konseptual, olam manzarasi, yaxshilik aksiologik konsept, xalq ruhiy olami, qadriyatlari.

Til, tafakkur va inson madaniyatini belgilovchi boshqa konseptlar turli tizimdagi tillarda zohir bo‘ladigan bog‘liqlikni konseptuallashtiruvchi usullarning barcha tillar uchun umumiyligidan dalolat beradi. Biroq har bir millat mentalitetining kontekstida olam manzarasini ars ettirishning turli lingvomadaniy konfiguratsiyalari ham mavjudki, bu uning mavjudligini va takomilini belgilaydi. Xalq aksiosferasida yaxshilik aksiologik konsept sfatida umuminsoniy va milliy qadriyatlarni ifodalaydi. Yaxshilik leksemasi eng oliy ko‘rinishdagi insoniy munosabatlardan birini ifodalagani holda, o‘zbek tilida badiiy asarlar, iboralar, maqollar, hikmatli so‘zlar va xalq donishmandligining boshqa namunalari tarkibida xalq madaniyatini, o‘ziga xosligini namoyon qiluvchi leksik-semantik birliklar sifatida xizmat qilishini kuzatamiz.

Konsept turlaridan biri bu badiiy konsept bo‘lib, idrok etuvchi ongida tushunchalarni emas, birinchi navbatda tasvirlarni uyg‘otadi va aynan ular hissiy ta’sir ko‘rsatadi. Badiiy kontseptning asosida obrazlilik, emotsionallik, cheksiz irratsional assotsiativlik va o‘quvchi bilan muloqot yotadi.

So‘z san’atkorlari tomonidan xalq ruhiy olami, qadriyatlari, axloqida yaxshilik konseptining tutgan o‘rni mahorat bilan tasvirlanadi. “O‘tkan kunlar” asarida *yaxshilik* so‘zining 26 marta takrorlangani mazkur etnomadaniy qadriyatning o‘zbek xalqi hayotida katta ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi. Asarda *yaxshilik* leksemasi quyidagi ma’no nozikliklariga ega:

muruvvat: *– Jumladan, bittasi ko‘z o‘ngimizda – Azizbek. Men uni yoshlig‘idan boshlab o‘z qo‘limda o‘stirdim, Toshkand hokimligidan Salimsoqbekni olib uning o‘rniga hokim tayinladiq. Biroq shunchalik **yaxshiliq**larimizg‘a qarshi natijada bizga yog‘iy bo‘ldi.*

yaxshi yo‘l, usul: *Ammo xatimni o‘qumasangiz-da va marhumingiz uchun tortqan ohingiz o‘tida kuydirsangiz-da, manim uchun farqsizdir. Nega deysizmi? Chunki siz manim shar’iy rafiqamsiz – **yaxshiliq** bilan-da va **yomonliq** bilan-da men buni isbot qilishg‘a hozirman!*

ijobiy istak, tilak: *– So‘zingizga tushunolmadim, ota, – dedi, – shundog‘ bo‘lsa ham javob beraman: bu kungacha siz yolg‘iz meninggina emas, bizning oilamizga otaliq mavqi’ida turib, **yaxshiliq**dan boshqani sog‘inmay kelasiz.*

ijobiy xotira: *Tuproq ostlarida unutilib yotqan kezlarimda: «Bir vaqt Hasanali otamiz ham bor edi», deb yodlasalar, **yaxshiliq** bilan eslasalar yetar menga shu».*

yordam, xizmat: *– Uying kuysin, musulmonlar! Yaxshi deb yo‘lida jon berganing Azizbek, bu kun senlarga **yaxshilig‘**ingni o‘ttuz ikki tanga soliq bilan qaytarmoqchi bo‘ldi.*

Nima bo‘lg‘anda ham biravning yaxshilig‘ini bilish kerak edi.

*— **Yaxshiliq** qilg‘an kishingdan hech bir yaxshiliq qaytmas ekan, — dedi Musulmonqul.*

*Begim, garchi achchig‘lansangiz ham aytishka majburman: sizda vijdon, insof, rahm, va’da, vafo, **yaxshiliq**ni bilish, boring-chi, odamgarchilikdan hech gap yo‘q emish. BiL’aks siz: hiylakor bir tulki, og‘zi qon bir bo‘ri, rahmsiz bir jallod, uyatsiz bir yigit!*

odamgarchilik: *To‘ng‘uz ishxonadan chiqib boshlag‘an edi: «Sen bilan otangg‘a yigirma yillab xizmat qilib, nihoyat sendan ko‘rgan **yaxshilig‘**im shu bo‘ldimi?» dedim.*

ijobiy munosabat: *– Keliningiz mendan **yaxshiliq** ko‘rmas, demaganmi edim? Siz bilan otam bunga ko‘nmaganmi edingiz, siz buni inkor qilasizmi?*

“O‘tkan kunlar” asarida yaxshilik tushunchasi yomonlik bilan yonma-yon qo‘llangan, ularning munosabatini o‘zaro taqqoslash orqali ochib berilgan.

ijobiy/salbiy xabar: *Ul o‘zining shubhasidagi gapka qoni’, oradan yarim soatlab emas, bir soatlab vaqt o‘tib borg‘an bo‘lsa ham bu unga zerikarlik emas, tez kelgandan kelmagani yaxshi; **yaxshiliq**mi, **yomonliq**mi haytovur bo‘ladirg‘an ko‘ngilsiz gapni kechikkani yaxshi...*

ish, xatti-harakat: *– Men ham Zaynab bo‘lsam, albatta solar edi, — deb kuldi Xushro‘y, – menga qolsa har kim o‘z nafsiga **yaxshiliq** yoki **yomonliq**ni o‘zi hozirlaydir...*

Quyidagi matnda adib yaxshilik va yomonlik tushunchalarini farqli semalarida keltiradi:

*– Qolishg‘a-qolding, – dedi oxirda ona, — ammo qayin ota va qayin onalaringg‘a xizmat qil, **yaxshiliq**ni qo‘lingdan berma, ayniqsa, kundashingga **yomonliq** sog‘inma, **yaxshiliq**dir, **yomonliq**dir har nimaiki o‘zlari qilsinlar, zinhor sen aralashma.*

O‘. Hoshimov asarlarida ham yaxshilik konsepti ifodasini kuzatamiz:

Katta yo‘l bo‘yida daraxt o‘sardi... Ittifoqo uning tagiga bir yo‘lovchi keldi. Kun issiq, yo‘lovchi charchagan edi. Daraxt soyasida o‘tirib dam oldi... Yo‘lovchi ochiqqan edi. Qarasa, daraxtda mevalar pishib yotibdi. U daraxtga chiqishga erindi: tosh otdi. Mevalar duv to‘kildi. Yo‘lovchi to‘ygunicha edi... Manzil olis edi. Yo‘lovchi daraxt shoxini sindirib, tayoq yasadi... Keyin... zahar tang qilib qoldi. Yo‘lovchi daraxt panasiga o‘tdi... So‘ng... yo‘liga ketdi...

Daraxt boshqa yo‘lovchini kuta boshladi... Bu daraxtning nomi Yaxshilik edi... (O‘.Hoshimov. “Yo‘l bo‘yidagi daraxt”)

Ushbu matnda yaxshilik konsepti o‘z aksini topgan bo‘lib, uning ifodalovchi ramzi “daraxt” timsoli hisoblanadi. Muallif badiiy tasvir vositalari orqali aks etgan ushbu matnda yaxshilik konseptining mohiyatini ochib berishga harakat qilgan.

Yaxshilik leksemasi antonimi yomonlik bo‘lib, badiiy asarda antiteza sifatida uslubiy vazifa bajaradi. Badiiy adabiyotda *yaxshilik* va *yomonlik* tushunchalari doimo qiyoslash, zidlash orqali yonma-yon, o‘zaro muqoyasa qilingan holda keltiriladi. Buni O‘.Hoshimovning birgina “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asari misollari yaqqol tasdiqlaydi:

O‘z fursatida qilinmagan **yaxshilik** – **yomonlik**ka yo‘l ochishi mumkin (D. h. b.). Mehr – **yaxshilik**, qahr – **yomonlik** belgisi, degan gap bor... Teskarisi bo‘lsa-chi? Tasavvur qiling. Bir nomard begunoh odamni o‘ldirdi. Siz mehr ko‘rgizib, uni jazodan saqlab qoldingiz. U ertasiga boshqa bir begunohni o‘ldirdi. Sizning mehringiz **yaxshilik**ka emas, **yomonlik**ka sabab bo‘ldi… Dunyoda soat kapgiridek tebranib turadigan haqiqatlar ham bo‘ladi… **(**Daftar hoshiyasidagi bitiklar, 17)

Yomonning yaxshisi bo‘lgandan yaxshining yomoni bo‘l. Yomondan **yomonlik** yuqadi. Yaxshidan – **yaxshilik**. **(**Daftar hoshiyasidagi bitiklar, 17)

Yomonlikka **yaxshilik** bilan javob bersang, bir hissa savob olasan. **Yaxshilik**ka **yomonlik** bilan javob bersang, o‘n hissa gunohga botasan. Negaki, bu dunyoda **yomonlik**ka **yaxshilik** qiladiganlardan ko‘ra **yaxshilik**ka **yomonlik** qiladiganlar o‘n hissa ko‘p. **(**Daftar hoshiyasidagi bitiklar, 17)

Sen birovga **yaxshilik** qilsang, javobini kutma. Undan qaytmasa, boshqadan qaytadi. Birov senga **yomonlik** qilsa javob berma. Sendan qaytmasa, boshqadan qaytadi! **(**Daftar hoshiyasidagi bitiklar, 17)

Demak, yuqoridagi lug‘at izohlari hamda badiiy asarlar tahlili “yaxshilik” va “yomonlik” konseptlarining konseptual maydonini yaratishga imkon beradi. “Yaxshilik” konsepti tuzilishining **markazi (yadrosi**)da “*yaxshilik”, “yaxshi*” leksemalari, **qurshov (yadro atrofi**)da esa quyidagi tushuncha va birliklar joylashadi: *boshqalarga beg‘araz, moddiy va ma’naviy yordam berish*;

muruvvat ko‘rsatish; birovga va o‘ziga yaxshi narsalar, amallarni tilash, istash; yaxshi xotira; odamgarchilik; to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, ijobiy munosabat, jamiyatda adolat o‘rnatish, davlat qonunlarini fuqarolar hayot va farovonligi uchun yaxshilash, ezgulik, insonparvarlik, fidoiylik, saxovat, qahramonlik, oliyjanoblik, tantilik, andishalilik, mehribonlik, ishchanlik, kamtarlik, mehmondo‘stlik, mehnatsevarlik, shirinsuxanlik, halollik, bag‘rikenglik va boshqalar; **periferiyada** esa *qoniqarli, inoyat, tasalli, zavq, marhamat* kabi leksemalar bo‘ladi.

“Yomonlik” konsepti markazi (yadrosi)da “*yomonlik”, “yomon*” leksemalari;

qurshovda *yovuzlik, hasad, dilozorlik, yolg‘onchilik, g‘iybat, tuhmat, xoinlik, xasislik, adolatsizlik, xudbinlik, g‘arazgo‘ylik, yovuzlik*; periferiyalarida *tajovuzkorlik, asabiylik, qo‘rquv, zo‘ravonlik, manmanlik* kabilar.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, yaxshilik va yomonlik tushunchalarining lug‘at va asar tahlili mazkur konseptlar konseptual maydonini yaratishga imkon beradi. Yaxshilik va yomonlik konseptlari qarama-qarshi axloqiy tushunchalar sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
2. Qambarov G‘.S. Baho munosabati va uning o‘zbek tilida ifodalanishi (shaxslararo munosabat asosida). Filol. fan. nomz... diss. – T., 2008.
3. Boymirzayeva S. O‘zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar. Filol. fan. dok. diss... avtoref. – T., 2010.
4. Madayev O. Maqollar olamida. – T.: O‘zbekiston, 1984; O‘zbek xalq maqollari. Akademik nashr. 2 tomlik. I tom. – T.: Fan, 1987; O‘zbek xalq maqollari. Akademik nashr. 2 tomlik. II tom. – T.: Fan, 1988.
5. Mirzayev T., Musaqulov A., Sarimsoqov B.O‘zbek xalq maqollari. T., 2019.
6. Jo‘rayeva B. Maqollarning lisoniy mavqei va ma’noviy uslubiy qo‘llanilishi: Filol. fan. nomz. … diss. avtoref. – T., 2002

QUYI ZARAFSHON VOHASI TOPONIMLARINI TADQIQ ETISHNING ILMIY METODOLOGIK ASOSLARI XUSUSIDA

Ganiyev Nurbek Uktamovich,
f.f.f.d.(PhD), NavDKTU
nurbek-ganiyev@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri bo‘lgan milliy-madaniy merosimizni o‘zida ifoda etgan mamlakatimiz, xususan, quyi Zarafshon vohasi joy nomlarining o‘rganilishi hamda tadqiqiga doir ilmiy nazariy metodologiyasi xususida fikrlar ifoda etilgan

Kalit so‘zlar: toponim, etnonim, turkiy tillar, etnik tarkib, geografik obyekt, tarixiy ildiz.

Аннотация: В данной статье одним из наиболее актуальных вопросов на сегодняшний день является изучение топонимики нашей страны, в частности, Зарафшанского оазиса, который представляет наше национальное и культурное наследие, кроме того, высказываются мнения о научно-теоретической методологии исследования

Ключевые слова: топоним, этноним, тюркские языки, этнический состав, географический объект, исторические корни.

Annotation: In this article, one of the most relevant issues today is the study of the place names of our country, in particular, Zarafshan district, which represents our national and cultural heritage, moreover opinions on the scientific theoretical methodology of research are expressed.

Key words: toponym, ethnonym, turkic languages, ethnic composition, geographical object, historical root.

Insoniyat tarixida va olamning lisoniy manzarasida nomlar, xususan, toponimlar ijtimoiy-siyosiy, ilmiy amaliy va ilmiy nazariy jihatlardan alohida ahamiyatga ega. Ularda xalqimizning ham

qadimiy, ham umuminsoniy madaniyati, milliy, madaniy-ma'rifiy qarashlari, tabiat va jamiyatga mehr-muhabbati, e'zozu e'tirofi bir butun holda mujassamlashgan.

Bugungacha mamlakatimizning Xorazm, Toshkent, Qashqadaryo, Buxoro, Jizzax, Farg'ona, Samarqand, Surxondaryo viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasidagi toponimlar u yoki bu darajada o'rganilgan bo'lsa-da, Quyi Zarafshon vohasi toponimlari kam o'rganilgan. Ularning topogrammatik, leksik-semantik (toposemantik) va topoetimologik xususiyatlariga, ya'ni lisoniy tadqiqiga maxsus ravishda to'xtalib o'tilmagan. Bu esa mintaqa toponimlarining ma'naviy meros, milliy madaniy boylik va ko'hna tarixiy yodgorliklar majmuida alohida muhim bir elementligini ko'rsatadi. Shu sababli ham Quyi Zarafshon vohasi toponimlarining ilmiy va amaliy jihatlardan monografik yo'nalishda, ma'naviy meros hamda madaniy boyliklarimizni "onomastik madaniyat" [Шмелева Т.В., 2013.-С.9.] sifatida o'rganish va lingvo-geografik nuqtayi nazaridan ilmiy-amaliy asoslarda tadqiq etish zaruriyatini taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF–4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi, 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarig va (moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ–3270-son "Kitob maxsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risidagi" qonuni (Toshkent, 1989), "Geografik obyektlarning nomlanishi to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasining qonuni (Toshkent, 2011) boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsion tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Bugungacha toponimlar lingvistik, geografik va tarixiy yo'nalishlarda umumiy, enseklopedik, tavsifiy, ta'birli hamda izohli tahlil tarzda o'rganilgan. Mana shu ilmiy izlanishlardagi yo'nalishlarning ta'sirida mamlakatimiz toponimlari ma'lum darajada tadqiq etilgan bo'lsa ham, ularning etimologik tahliliga kam munosabat bildirilgan. Sababi, turkiy tillarning etimologiyasi muammolariga bag'ishlangan anjuman materiallarida bu tahlilning nazariy masalalari shu tahlilday bahsli ekanligi ko'rsatilgan [Кайдаров А.Т.,1990.-С.5-25].

Ushbu ilmiy ishda toponimik tadqiqotlarda muhim manbalardan biri sifatida Quyi Zarafshon vohasi joy nomlariningng lingvo-onomastik tadqiqida ilmiy fikr va mulohazalar yuritilar ekan, o'zbek toponimikasining alohida soha sifatida shakllanishiga va taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shgan tarixshunos akademik A. Muhammadjonov, filologiya fanlari doktori, professorlar E.Begmatov, Z.Do'simov, S.Qorayev, Q.A.Abdumurotov, T.Nafasov, T.Ernazarov, N.Uluqov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent N.Oxunov singari olimlarning toponimlarga oid ilmiy ishlari metodik, va metodologik asoslari sifatida e'tiborga olish har jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

A.Muhammadjonov tarixchi-arxeolog olim bo'lishiga qaramasdan, o'tgan asrning 50-yillaridan buyon nomshunoslikning alohida bir turi, qismi bo'lgan o'zbek tarixiy toponimikasi masalalari bilan shug'ullanib, joy nomlarining umumiy, enseklopedik, tarixiy, izohli, etimologik tahlillariga tarixiylik pozitsiyasidan turib yondashilgan holda ilmiy-amaliy hamda ilmiy nazariy tahlillarga tortib, ma'lum ilmiy xulosalarga kelib, salmoqli maqola va kitoblar ko'rinishidagi ilmiy ishlarini e'lon qilgan.

E.A.Begmatovning filologik nuqtai nazaridan amalga oshirgan ilmiy tadqiqotlari asosan o'zbek antroponimlari hamda o'zbek toponimikasiga bag'ishlanganligi bilan ajralib turadi. Ularda antroponimika hamda toponimikaning nazariy va amaliy masalalariga munosabat bildirilgan. Bu olim o'z tadqiqotlarida toponimlarning topoobyekt sifatidagi ko'rinishlari bo'lgan shahar va shaharchalarning nomlanishiga xos xususiyatlarga ham e'tibor qaratib, "Istiqlol o'lkasining toponimik siyosati", "Joy nomlari - ma'naviyat ko'zgusi" nomli bir qancha ilmiy maqola hamda kitoblarni yozgan [Бегматов Э., 1997.-Б.3-9]. Bu bilan mustaqillikka erishgan davlatimizning

toponimik siyosatining xalqchilligi masalasini turli toponimik dalillar orqali isbotlab berishga harakat qilgan. Bu bilan olim mamlakatimiz hududidagi toponimlarning toponimik tahlilini lingvistik jihatdan nazariy asoslay olgan.

T.Nafasov XX asrning 60-yillaridan XXI asrning boshlarida Janubiy O‘zbekiston, xususan, Qashqadaryo viloyati toponimlari tadqiqiga oid samarali ilmiy izlanishlar olib borgan. Mamlakatimizda tilshunoslik, geografiya, tarix kabi fanlarning tutashgan nuqtasida o‘rganiladigan toponimlarga bo‘lgan ilmiy va amaliy munosabatlarning shakllanishida uning sezilari xizmati bor. Uning ilmiy tadqiqotlari natijasi o‘laroq yuzaga kelgan «O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati» (1988), «O‘zbek nomnomasi» (1993), «Qashqadaryo qishloqnomasi» (2009) singari asarlari fikrimizning tasdig‘idir. Ularda o‘rganilgan toponimlar, asosan, izohli va qisman etimologik tahlil qilishga harakat qilingan holda o‘rganilgan hudud toponimiyasining tadqiq etish va izohli tahlilga asoslangan toponimik tahlil metodologiyasini lingvistik jihatdan ham nazariy, ham amaliy jihatlardan shakllantira olgan. Ushbu olimning ilmiy ishlari bilan “O‘zbek onomastikasi”ning haqiqiy filologik yo‘nalishi shakllangan.

S.Qorayev mamlakatimiz toponimlarini, shu jumladan, oykonimlarni asosan geografiya fani nuqtai nazardan tadqiq etgan [Қораев С.,1978. 204 б.]. Bu olimning o‘tgan asrning 60-yillaridan e’tiboran olib borgan ilmiy kuzatishlari toponimlarning, shu jumladan, oykonimlarning tavsifiy, tasnifiy, ensiklopedik va izohli tahlillariga tegishli ekanligi bilan e’tirofga loyiq. Shuningdek, S.Qorayev O‘zbekiston oykonimlari haqida maxsus to‘xtalib, “Oykonimiya Uzbekistana” nomli monografiyani e’lon qilib, geografiya fanlari doktori ilmiy unvonni olish uchun xuddi shu nomda ilmiy ma’ruza qilgan. Ammo unda mamlakatimizning viloyat va tumanlaridagi ba’zi bir oykonimlarga tegishli bahsli ma’lumotlar berilgan. S.Qorayevning yana bir ilmiy asari “Toponimika” o‘quv qo‘llanmasida joy nomlariga tegishli bir qancha qonuniyatlar to‘g‘risida to‘xtalib, oykonimik va toponimik nomlarga ham munosabat bildirilgan [Qorayev S., 2006. –B.5-,21-,50-57].

Z.Do‘simov ham XX asrning 60-yillaridan hozirgacha toponimikaning nazariy va amaliy masalalari bilan shug‘ullanib kelmoqda. Olimning Xorazm vohasi joy nomlari tahliliga bag‘ishlangan ishlari, «Joy nomlarining qisqacha izohli lug‘ati» (1977), «Xorazm toponimlari» (1985), «Joy nomlarining siri» (2001); «Toponimika asoslari» (2002) kabi asarlari toponimika masalalari bilan shug‘ullanadigan tadqiqotchilar uchun mazkur sohaga “Kirish”ga nazariy hamda amaliy asos va uni o‘rganish uchun ilmiy metodologik hamda metodik maktabiga aylangan [Дўсимов З. ва б., 1977. 174 б.]. Shu bilan birga mazkur asarlarida olim mamlakatimizdagi oykonimlarning tahliliga, xususan, ularning izohli tahliliga e’tibor qaratib, turli onomastik dalillar vositasida o‘z munosabatini bildirib o‘tgan.

T.Enazarovning ilmiy tadqiqoti tarixiy-qiyosiylikka asoslangan holda mamlakatimiz toponimlarini leksik-semantik va etimologik jihatlardan toponimik tahlil qilishga qarab borgan. U Shahrisabz tumani toponimiyasini 1989-1993-yillarda tarixiy-qiyosiylik tamoyillariga asoslangan holda leksik-semantik jihatdan ilmiylik tamoyillariga amal qilgan holda maxsus o‘rgangan. Bu olimning O‘zbekiston toponimlarining etimologik tadqiqiga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasi “O‘zbek nomshunosligi”da birinchi marta etimologik tadqiqining amalga oshirish tamoyili, omil va usullari belgilab berilgan holda bir qancha oykonimlarning etimologik tahlillariga e’tibor berilib, ularning etimonlari masalasiga ham to‘xtalgan. Uning “O‘zbek nomshunosligi” nomli monografiyasi esa mamlakatimiz toponimlarining toponimik tahliliga e’tibor berganligi bilan ahamiyatlidir.

Etnik guruhlarning etnik va madaniy tarixining bir turi sifatida qaraladigan toponimik tizim xalqlar, tarixiy voqealar, jismoniy va geografik xususiyatlar, insoniy munosabatlarning tadrijiyligi - hududlar haqidagi qimmatli ma’lumotlarni, ba’zan haligacha aniqlanmagan ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun ham Quyi Zarafshon vohasi toponimiyasini o‘rganish va tavsiflash o‘tmishda va hozirgi davrda hududda yashab, istiqomat qilayotgan xalqning tarixi, etnogenezi va etnik madaniyatini o‘rganishda dolzarblik va ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шмелева Т.В. Ономастика. Учебное пособие. Славянске-на-Кубани, 2013.с.9.
2. Кайдаров А.Т. Тюркская этимология: проблемы и задачи // Проблемы этимологии тюркских языков. Алма--Ата, Гылым, 1990.–С.5-25.
3. Бегматов Э. Истиқлол ўлкасининг топонимик сиёсати // ЎТА. Т., Фан, 1997. 3-сон. Б. 3-9; ЎТА. Т., Фан, 1997. 4-сон. Б. 7-9.; Бегматов Э. Жой номлари - маънавият кўзгуси.Т., Маънавият,1998. 64 б.
4. Қораев С. География номлар маъноси. Т.,Ўзбекистон,1978. 204 б.; Қораев С. Тошкент топонимлари. Т., Фан, 1991. 62 б.
5. Qorayev S. Toponimika. T.: O‘zbekiston faylasaflari milliy jamivati nashrivoti», 2006. 5-, 21-, 50-57-betlar.
6. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. Т., Ўқитувчи, 1977. 174 б.; Дўсимов З. Хоразм топонимлари. Т., Фан, 1985. 104 б.; Дўсимов З., Тиллаева М. Жой номларининг сири. Хива, Хоразм Маъмун Академияси, 2001. 52 б.; Do‘simov Z., Tillayeva M. Toponimika asoslari. T., 2002. 88 b.

MORFEMIK SATH BIRLIKLARI VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA YASAMA SO‘Z

Akmal Tursunov Raxmatullayevich
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti dotsenti
(93) 437-37-11,
akmal_tursunov_1971@mail.ru

Abstract The base word (conditional "root word") A. G. Gulyamova or unit level inherent sense bases "real value" is called lexical meaning. In fact, the inherent meaning of the root word or foundation related language is characterized by the material potential. It should be borne in mind that a group of scientists N. A. Baskakov, A.G. Gulyamov, A.M.Sherbak, F. G. Iskhakov) emphasize the connection with separate lexical and grammatical category (number, nominative, verb base). They argue that the 2 nd person singular expresses grammatical meaning of ordering form.

Аннотация Основа слова (условный «корень слова») А.Г. Гулямова или свойственная единица уровню смысла основы «Вещественное значение» называется лексическим значением. В сущности, свойственный смысл корню или основу слова родственного языка характеризуется материальным потенциалом. Надо принимать во внимание, что группа учёных Н.А.Баскаков, А.Г. Гулямов, А.М.Шербак, Ф.Г. Исхаков) подчёркивают отдельную связь с лексико-грамматической категорией (число, именительный падеж, основы глагола). Они утверждают, что 2 лицо единственного числа выражает грамматическое значение приказной форме.

Keywords: Functional, or foundation, comfortale, olictionoriyt, informations, meaning, layer the inits, migiration morphete.

Ключевые слова: функциональная, корню, словарь, ограничивают, синтактическая, лексический, сущности, речи, потенциалом, лексико-грамматической.

Tayanch iboralar: Cheklash, sistem, semantik, transformatsiyasi, omillar, affiksi, shakl yasalishi, formal.

Maqolada professor A.G‘.G‘ulomovning yasama so‘zning sintagmatik xususiyatlari to‘g‘risida hamda morfem sintagmatika ham boshqa til sathlarida bo‘lgani kabi morfemika birliklarining ham mazmun, ham ifoda sathlarining murakkab munosabatidan tarkib topganligi to‘g‘risida fikir yuritilgan.

KIRISH. Maqolada tilshunoslik taraqqiyotning hozirgi bosqichi morfemika sathi birliklarga xos terminologiya sistemasini takomillashtirish, morfem birliklarning eng asosiy ko‘rinishlari va ularning munosabatini to‘la qamrab oladigan, yuqori, umumlashgan yangicha nomlashlarni talab qilinishi to‘g‘risida fikr yuritamiz.

Tub so‘z (shartli “o‘zak-so‘z” (A. G‘. G‘ulomov) yoki o‘zakning mazmun sathiga xos birlik “moddiy ma’no” lug‘aviy ma’no kabi nomlanadi. Aslida o‘zak yoki tub so‘zga xos mano til zgalari (ongida tipiklashgan moddiy-potentsial, boshqa har qanday invariant birlikda bo‘lgani kabi, harakterga ega. Bir guruh olimlar (N. A. Baskakov, A.G‘. G‘ulomov, A. M.Shcherbak, F. G. Isxakov) o‘zakning yakka holda biror leksik grammatin kategoriya bilan bog‘lanishi (ot o‘zaklarda birlik, son, bosh kelishik; fe’l o‘zaklarda II shaxs birlikning buyruq shakli), ma’lum grammatik ma’noga taalluqlilikni bildirishini qayd etadilar.

Har bir tip morfema, jumladan, yordamchi morfemalar ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklamaning ham o‘ziga, xos variant mazmun belgisi bor: “Bu so‘zlarning lug‘aviy ma’nolari ularning grammatik, mantiqiy yoki ekspressiv uslubiy vazifa (funksiya)lari bilan mos keladi. Yordamchi morfemalarning yana bir turi qo‘shimchalar orqali hosil bo‘ladigan variant ma’no ayniyatligi so‘z yasalishida hamda forma yasalishida tubdan farqlanadi. So‘z yasalishida hosil bo‘ladigan ma’no derivatsion qatorlarda yuzaga chiquvchi ma’noga tayansa, forma yasalishi universal muntazam ma’no birliklariga tayanadi. [[1]G‘ulomov A.G‘.T.: 1957- yilda nashr etilgan. “Hozirgi zamon o‘zbek tili” kitobining “Morfologiyaga kirish” bo‘limi.-bet 287-289]

Prof. A. P. Hojiyev fe’l yasovchi-**la** qo‘shimchasi hosil qiladigan ma’nolarni: a) o‘zak-negizidan anglashilgan narsa-predmet bilan ta’minlash, shu predmetga ega holatli qilish: o‘g‘itla, moyla, b) asbob - qurol bildiruvchi otlarga qo‘shilganda shu asbob bilan; bajariladigan ishni qilish: randala, qaychila; v) o‘zak-negizdan anglashilgan narsa- predmetni yuzaga keltirish: urug‘la.

Shu bilan birga, “har bir predmetning, o‘ziga xos xususiyatlari ham borligidan otlardan yasalgan fe’llarga xos ma’nolarni juda ko‘p fe’llar doirasida umumlashtirish mumkin bo‘lavermaydi. Ana shunday sabablarga ko‘ra, asbob-qurol bildiruvchi otlardan-la, affiksi yordamida yasalgan fe’llarning ma’nosi bir xil bo‘lavermaydi. Bu affiks bilan otlardan yasalgan juda ko‘p fe’llarning ma’nolarini esa har bir fe’lning o‘z doirasida alohida izohlash kerak bo‘ladi: utla, ko‘zla, boshla va b. [[2] Hojiyev A. O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi. –T.: 2007.- bet. 40.]

Ayrim ishlarda esa mano tipi ko‘rsatilmagan holda bu qo‘shimcha: a) sifatga qo‘shiladi, yaxshilik b) ravishga qo‘shiladi tezlik... v) songa qo‘shiladi: birlik..., g) otga qo‘shiladi: otalik... kabi tasvirlanadi. Bundan ko‘rinadiki, “O‘zbek tilida-lik affiksi haqida maxsus ishlar yozilganligiga qaramay, uning ma’nolari emas, hatto asosiy vazifasi ham hali aniq belgilangan emas.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Haqiqatan ham, tegishli ishlardalik affiksining ma’no hajmi, qo‘llanilish chegarasi xususida xilma-xil qarama-qarshi fikrlarni uchratish mumkin. N. Yoqubova, K.Sharipovaning fikricha,-lik qo‘shimchasi faqat ot yasovchi bo‘lib keladi va asosan, abstrakt otlar hosil qiladi. “O‘zbek tili morfem lug‘ati”da bu qo‘shimcha ot yasovchi deb ko‘rsatilib, uch ma’nosi (belgi oti yasash: bolalik, yangilik; konkret predmet oti: shirinlik, darslik; biror yerga mansublik: Toshkentlik) beriladi, infintiv va ish otlariga qo‘shilganda, ma’no va funktsiyasiga ko‘ra, forma yasovchi affiksga to‘g‘ri keladi (bormoqlik, aytishlik) deb ta’kidlanadi. [[3] O‘zbek tili grammatikasi, II jildlik, I jild, T.: 1975. -bet. 21,22,25,32.]

Prof, A. P. Hojiyev-**lik** affikssh so‘z yasovchilik vazifasida ham ot, ham sifat yasovchi deb belgilaydi: “Binobarin unli affiksiga qarama-qarshi qo‘yib, ot yasovchi sifatidagina tariflashni faqat subektiv yukorida - **lik** qo‘shimchasi haqida keltirilgan fikrlar tahlili shuni ko‘satadiki, morfema allomorflari urtasidagi semasiologik aloqa bog‘lanishlarni aniqlash, ular o‘rtasidagi munosabatlarni yoritish muayyan obektiv metodikani talab qiladi. Shu o‘rinda nutq oqimini fonetik hamda semasiologik-morfologik jihatdan farqlash uchun I.A.Boduen de Kurtenening so‘z va morfema tushunchasidan turli o‘rinlarda foydalanganini eslash joizdir. U so‘z tushunchasidan nutq oqimini fonetik, morfema tushunchasidan esa semasiologik-grammatik chegaralash maqsadida foydalangan.

Til sathlari va ularga xos birliklarning mohiyatini aniqlashga intilish, ayniqsa, agglyutinativ analitik tillarda morfemaning tabiatga boshqacha yondashish zaruratini kun tartibiga tobora keskin qo‘ymoqda. Morfemaning til egalari ongida erkin gavdalanishi, turli pozitsiyalarda bemalol qo‘llana olish xususiyati, nafaqat so‘z, balki yuqori sath birliklari-sintaktik birliklar uchun ham tashkil etuvchilik vazifasida kela olish qobiliyati bu tillarda morfem imkoniyatlari ancha kengligidan dalolat beradi. [[4] Baskakov N.A. va boshq. Umumiy tilshunoslik. T.: 1979-. bet 58-62.]

O‘zbek tilshunosligida ham morfemaning mavjudligi faqat ikki va ko‘p morfemali so‘zlar, so‘z formalar bilan bog‘liq degan aqidaning keng tarqalganligi, uning o‘rta va oliy maktab hayotidan mustahkam o‘rin olganligi morfemika masalalarini tor, biqiq doirada o‘rganishga olib keldi, bu narsa morfemalarning asosiy turlaridan biri-o‘zak morfema izohida ham ko‘rinadi. Avvalo shuni qayd qilish zarurki, berilgan ta’rif va qoidalar hind-yevropa tilshunosligida turli davrlarda o‘zakka berilgan ta’riflarga mos keladi.

Yuqoridagi izohlardan ko‘rinadiki, prof. S. Usmonov har qanday ko‘p morfemali so‘z tarkibidan o‘zakni ajratish imkoniyati mavjudligini e’tirof etsa, prof. Sh. U. Rahmatullayev faqat affiksatsiya usuli bilan hosil bulgan yasama so‘zlardagi uzakni belgilash mumkinligini tan olib, o‘zakning ish ko‘rish va qo‘llanish doirasini yanada toraytiradi. Hatto bir muallif fikrlarida yuqoridagi har ikkala izohning (albatta, hind-yevropa tilshunosligi an’analari ta’sirida) aks etganligini kuzatish mumkin.

O‘zbek tilshunosligida ham tilning lug‘at tarkibi hamda tilning lugaviy morfemalar tarkibi ikki xil o‘zaro farqlanuvchi, turli mohiyatga ega bo‘lgan hodisalar sifatida o‘rganilishi zarurligi yaqindagina kun tartibiga quyildi: agar birinchi tarkibning birligi so‘z bulsa, ikkinchi tarkibning birligi lug‘aviy morfemadir; “lug‘aviy morfemalar sinxronik tushuncha bo‘lib, diaxronik tilshunoslik birligi “o‘zak” tushunchasddan ancha farq qiladi”. Shu bilan birga, eng muhimi-“lug‘aviy morfemalarning tabiati va mohiyati o‘zbek tili leksikologiyasi doirasida emas, balki morfemalar, ularning tiplari va klassifikatsiyasi haqidagi ta’limot bo‘lgan morfemikada ochilishi va berilishi lozim”. [5 Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. T.: O‘qituvchi, 1972.- b.208].

Albatta, leksik ma’no ifodalovchi birliklarii alohida ajratib, lug‘aviy morfemalar nomi bilan o‘rganish morfemika sathidagi yirik bir zonaning yanada chuqurroq o‘rganilishga olib keladi. An’anaviy talqinga ko‘ra, o‘zak ko‘p morfemali hamda yasama so‘z uchun, yana tayanch vazifasini bajarishi kerak, o‘zidan oldin yoki keyin qo‘shiladigan qo‘shimchalarni ushlab, quvvatlab turishi zarur, qo‘shma, juft va takror so‘zlarda yangi ma’noga o‘z ulushi va hissasini qo‘shmog‘i lozim.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Prof. N. A. Baskakov turkiy tishlardagi o‘zak boshqa tillardagi,xususan, rus tilidagi so‘z o‘zaklaridak tubdan farq qilishini maxsus ta’kidlab, (turkiy o‘zak so‘z birikmasi va gap tarkibida mustaqil so‘z sifatida amal qilishi, leksik ma’no anglatish bilan birga, biror leksik-grammatik kategoriyaga taalluqlilikni, munosabat bildiruvchi ma’lum grammatik shaklga ega bo‘lishini, ko‘rsatadi. O‘zak bo‘linmas, monolit qism bo‘lib, so‘zning moddiy real ma’nosini o‘zida mujassamlashtiradi.

XULOSA. Umuman olganda, mazmun sathi ayniyatliligi barcha tip morfemalarda ma’nolarning qorishiqligi, ko‘p ma’nolilik, ko‘p vazifalilik va shakldoshlik ommonim munosabatlari bilan xarakterlanadigan hodisadir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.G‘ulomov A.G‘.T.: 1957-yilda nashr etilgan. “Hozirgi zamon o‘zbek tili” kitobining “Morfologiyaga kirish” bo‘limi.-bet 287-289.
2. Hojiyev A. O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi. –T.: 2007.- bet. 40.
3.O‘zbek tili grammatikasi, II jildlik, I jild, T.: 1975. -bet. 21,22,25,32.
4.Baskakov N.A. va boshq. Umumiy tilshunoslik. T.: 1979-. bet 58-62.
5.Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. T.: O‘qituvchi, 1972.- b.208.

KORNEY CHUKOVSKIY BOLALAR NUTQI LINGVISTI SIFATIDA

Nasiba Jumayevna YARASHOVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti professori v.b., f.f.d. (DSc)

Annotatsiya. Bolalar tilshunosligi − ontolingvistika o‘tgan asrning oxirgi choragida antroposentrik yo‘nalishda tadqiq etila boshlangan yosh ilmiy fanlar turkumiga kiradi. Ontolingvistika bolaning tilni o‘zlashtirish jarayoni, nutqiy faoliyatini tadqiq etishi bilan boshqa lingvistik yo‘nalishlardan ajralib turadi. Ushbu yo‘nalishning rivojida Korney Chukovskiyning xizmatlari alohida ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: ontolingvistika, ijtimoiylashtirish, bolalar nutqi, fonetika, lug‘at, so‘z shakllanishi, grammatika.

Аннотация. Детская Лингвистика-онтолингвистика относится к категории младших научных дисциплин, изучение которых в антропоцентрической направленности началось в последней четверти прошлого века. Онтолингвистика отличается от других языковых направлений тем, что исследует процесс овладения ребенком языком, его речевую деятельность. В развитии этого направления особо выделяются заслуги Корнея Чуковского.

Ключевые слова: онтолингвистика, социализация, детская речь, фонетика, лексика, словообразование, грамматика.

Annotation. Children's Linguistics-ethnolinguistics belongs to the category of junior scientific disciplines, the study of which in an anthropocentric orientation began in the last quarter of the last century. Ontolinguistics differs from other linguistic areas in that it explores the process of mastering a child's language, his speech activity. The merits of Korney Chukovsky are particularly highlighted in the development of this direction.

Keywords: ontolinguistics, socialization, children's speech, phonetics, vocabulary, word formation, grammar.

Garchi isbot talab etilmaydigan haqiqat bo‘lsa-da, ontolingvistika alohida maqomga ega fan sifatida o‘z qimmati va ahamiyatini isbotlash bosqichida turibdi. Zero, inson faoliyatining rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganish nafaqat ilmiy-amaliy, balki milliy ahamiyatga ega muhim dolzarb masala sanaladi. Badiiy asar orqali inson muloqot qilish, atrofdagi olamni bilish, shaxsiyatini shakllantirish va namoyon etish uchun keng imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Bugungi kunda bolalarni kattalar olamiga tayyorlash, ularni eng samarali tarzda ijtimoiylashtirish, lingvistik shaxs bo‘lish yo‘llarini ochib berish va izchil rivojlantirish zamonaviy antroposentrik tilshunoslikning muhim vazifalaridan sanaladi. Shunga ko‘ra har bir ota-ona, tarbiyachi, o‘qituvchi, psixolog, logoped, shifokor, shoir va yozuvchilar, xullas, bolaning aqliy hamda psixik rivojlanishiga mas’ul har bir shaxs bola kommunikativ qobiliyatining shakllanish jarayoni to‘g‘risidagi bilimga ega bo‘lishi lozim. Ular mazkur qobiliyatning to‘laqonli rivojini ta’minlashi va nutq evolyutsiyasiga nima xalaqit berishi, buzishi mumkinligini bilishlari maqsadga muvofiq. Bu bilimlar o‘sib kelayotgan yosh avlodni kelajakdagi katta muammolardan qutqarishi mumkin. Shuningdek, ontolingvistika turli yoshdagi til egalari o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi, jamiyatda katta va yosh avlod o‘rtasidagi turli muammolarni hal qilishga amaliy yordam beradi.

Rus tilshunosligida Korney Ivanovich Chukovskiyning bolalar nutqini lingvistik faktlar asosida to‘plash va tahlil qilish bo‘yicha amalga oshirgan faoliyati ahamiyatga molik. U A.M.Gorkiy tomonidan berilgan taklifga asosan gazeta va jurnallarga tarqalib ketgan bolalar nutqi haqidagi yozuvlarini bitta kitobga jamlab, 1928-yilda nashr ettirdi. Bu kitob K.I.Chukovskiyni butun dunyoga mashhur qilgan, hozirgi kundagi “Ikkidan beshgacha” asarining birinchi versiyasi edi. 20 marotaba qayta-qayta nashr qilingan ushbu kitobning hech bir soni biri-birini takror etmadi, chunki muallif har gal kitob ustida tinimsiz mehnat qildi, takomillashtirdi, asardagi matnlarni yangilab bordi. Shu bois bo‘lsa kerak hali hanuzgacha ushbu asar o‘z kitobxonlariga ega. Asar xususida yozuvchi to‘xtalar ekan, muqaddimada unga yuborilgan materiallardan faqat eng tipik va eng yorqinini tanlashga majbur bo‘lganligini yozib, “...Agar menga xabar qilingan barcha materiallarni ketma-ket chop etishga qaror qilsam, kitob o‘n-o‘n ikkiga shishib ketar edi”, – deya ta’kidlaydi[90]. K.I.Chukovskiy bilan birga A.N.Tolstoy, K.Fedin, Y.K.Olesha, S.Marshak, M.Aliger, A.Barto, R.Zelenaya kabi mualliflar bolalar adabiyoti tili haqidagi kuzatuvlarini baham ko‘rganlar[91]. “Ikkidan beshgacha” asarida ko‘plab faktlardan tashqari, bir qator chuqur va jiddiy lingvistik g‘oyalar ilgari surilgan. K.I.Chukovskiy nafaqat bolalar adabiyotining lingvistik

[90] Чуковский К.И. От двух до пяти. – Москва: КДУ, 2005. – С 4.

[91] Толстой Л.Н. Полное собрание сочинений. Художественные произведения. Исправления и дополнения к третьему тому: 1856–1859. – Москва: ЗАО “Издательский дом “Парад”, 2012. – 208 с.; Федин К.А. Светает: [Рассказы] / Конст. Федин; [Ил. худ. В.Конашевича]. - Пб.: Гос. изд., 1921. – 14 с.; Олеша Ю.К. Три толстяка. – Москва: 1928. – 203 с.; Маршак С. Двенадцать месяцев. – Москва: 2019. – 144 с.

tadqiqotchisi, balki o‘z o‘quvchilarining bir necha avlodlarini ushbu noyob durdona bilan tanishtirgan “bolalik ovozi”ni his qila oladigan buyuk qalb sohibidir.

Muallifning so‘zlariga ko‘ra, kitobning asosiy mohiyati uni bolalar bilan ko‘p yillik muloqotga olib kelgan g‘oyalar, bolalar adabiyotining noyob asarlari talqinidir. Kitob uzoq tajriba natijasida olingan kuzatuvlarni nazariy jihatdan asoslash, ushbu tajribani tushunish va umumlashtirish, badiiy matnlar asosida dalillash uchun yozilgan. Asarda jiddiy mavzular talqin etiladi: kichik bolalarni o‘zgaruvchilarga jalb qilishning maqsadga muvofiqligi, ularda she’riy buzilishlarning barqaror shakli, qadimgi folklor asarlari, bolalar she’riyatining bir tartibda amalga oshirilishi, misli ko‘rilmagan narsalar va ertaklar yordamida bolalarni real hayotga tarbiyalash va boshqalar. Kitobning maqsadi, deydi K.I.Chukovskiy, shu paytgacha o‘rganilmagan yosh bolalarning kognitiv va psixologik sohalarini bolalar adabiyoti orqali jiddiy ravishda o‘rganishdan iboratdir. Asarda zerikarli sahifalar yo‘q, ammo bu uning ilmiy emasligini anglatmaydi. Bu shuni anglatadiki, ilm-fan har doim ham tabiat va aqlga sig‘maydigan atamalar bilan birlashtirilmaydi.

K.I.Chukovskiyning asarlarida bolalar nutqi shartli tushuncha bo‘lib, u ma’lum darajada tilning umumiy tushunchasiga qarshi turadi. Bolalar nutqi tuzilishi va tizimi jihatidan o‘ziga xos xususiyatlarga ega: fonetika, lug‘at, so‘z shakllanishi, grammatika. Ammo bu kattalar adabiyoti tilidan tubdan farq qilmaydi, aksincha tizimli nutq ko‘rinishlarini namoyon etadi.

Kitob bolalar tilidagi bob bilan ochiladi, unda muallif nafaqat o‘zi ta’kidlaganidek, “ahmoqona, bema’nilik” misollarini keltiradi, balki ko‘plab yangi so‘zlar va ularning elementlarini o‘rganadigan har bir bolaning ongsiz mahorati haqida gapiradi. “Titrar ijod shohi” satrini eshitib, uni “murabba’dan titrar Shoh”ga aylantirayotgan bola tilshunoslar “xalq etimologiyasi” deb ataydigan birikmani yaratadi.

Bolalarning noodatiy so‘zlari, Chukovskiyning kuzatishiga ko‘ra, ildizdan erkin uziladi. Bunday so‘z tuzish, ba’zi iboralarga o‘zining eski ma’nosini qaytaradi. Fikrlashning ochiq fikrliligi tufayli uch yashar bolalar odamlar so‘zlarini osongina kashf qilishadi.

“Yuz ming nima uchun” bobida to‘rt yoshli bola yangi bilimlarga ochko‘zligi bilan ikki yarim daqiqa davomida “pulemyot tezligida” o‘nlab savollarni berishga qodir. Yoshi bilan, ko‘p “Nimaga?”, “Nima uchun?”, “Qanday qilib?” kamroq so‘raladi; kattalar ko‘pincha ularni so‘z birikmalaridan butunlay chiqarib tashlashadi.

K.I.Chukovskiyning so‘zlariga ko‘ra, ongsiz ravishda aniqlashga imkon beradigan bola nutqi xalqning o‘zida kechayotgan jonli tilning shakllanish jarayonlarini aks ettirib, kelajakdagi taraqqiyot yo‘nalishlarini belgilab beradi va tilning holati, bola kelajakni “yaratadi”, chunki bola nutqining o‘ziga xos xususiyatlari bilan tilning kelajakdagi holatini bashorat qiladi[92].

Umuman olganda, rus tilshunosligida bolalar adabiyoti tilini o‘rganish ikki yo‘nalishda: kattalar adabiyoti tilining bir bo‘lagi va mustaqil fan obyekti sifatida olib borilgan. Birinchi yo‘nalish kattalarning til tizimi pozitsiyasidan yondashishni talab etadi va bunda kattalar nutqi bilan taqqoslashga imkon beradi. Ikkinchi yo‘nalish boladagi muayyan lisoniy hodisalarni kuzatish va tahlil qilish imkonini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Александров А.И. Детская реч. // Рус. филол. вести. – Москва, 1883. Т. 10. №3. – 15 с.

2. Арушанова А.Г. Реч и речевое общение детей. Формирование грамматического строя речи. 3-7 лет. Методическое пособие для воспитателей // “МОЗАИКА-СИНТЕЗ”, 2004. – 46 с.

3. Аввакумова Е.А. Метонимия в речи детей. // Мир науки, культуры, образования. – 2014. – № 4 (47). – 14 с.

4. Айдарова Л.И. Маленкие школники и родной язык. – Москва: Знание, 1983. – 95 с.

5. Маршак С. Двенадцать месяцев. – Москва: 2019. – 144 с.

6. Олеша Ю.К. Три толстяка. – Москва: 1928. – 203 с.;

[92] Петренко Д.И. Лингвистический витализм К.И.Чуковского // под ред. К.Э.Штайн. – Ставрополь: Изд-во СГУб, 2011. – С. 288.

7. Петренко Д.И. Лингвистический витализм К.И.Чуковского // под ред. К.Э.Штайн. – Ставрополь: Изд-во СГУб, 2011. – С. 288.

8. Толстой Л.Н. Полное собрание сочинений. Художественные произведения. Исправления и дополнения к третьему тому: 1856–1859. – Москва: ЗАО “Издательский дом “Парад”, 2012. – 208 с.

9. Федин К.А. Светает: [Рассказы] / Конст. Федин; [Ил. худ. В.Конашевича]. - Пб.: Гос. изд., 1921. – 14 с.

10. Чуковский К.И. От двух до пяти. – Москва: КДУ, 2005. – 400 с.

O‘QUVCHILARDA ADABIY-ESTETIK TAHLIL MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Tuxtayeva Bibigul NavDPI
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi

O‘quvchilar ma’naviyatini shakllantirishda adabiy ta’limningo‘rni alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, she’riyatning bu boradagi imkoniyatlari keng. Afsuski, ko‘p hollarda she’rga oddiy matn nuqtai nazaridan yondashiladi. Poetik ohangni his qilmaslik, matndagi so‘zlar ma’nosini to‘la tushunib yetmaslik natijasida she’r o‘qish yoki yodlash zerikarli mashg‘ulotga aylanadi. O‘quvchilar asardagi obrazlilik mag‘zini chaqolmasliklari tufayli she’r yodlashga maktabgacha ta’lim jarayonida o‘rgatilsa-da, umumta’lim tizimini tugatayotgan ko‘plab o‘quvchilar hatto bitta she’rni yurakdan berilib, yoddan aytib berolmaslik holatlari kuzatiladi. O‘quv dasturida yod olishga tavsiya qilingan, sinfda o‘qib-o‘rganish ko‘zda tutilgan she’rlarning hammasini ham o‘quvchilar tushunmasligi mumkin emas. Demak, adabiyot o‘qituvchilari bolalarni adabiyot, jumladan, she’riyat bilan chuqur tanishtirish metod va usullari haqida jiddiy bosh qotirish lozim.

O‘quvchi mutolaa chog‘ida asar mazmuni bilan tanishadi. O‘qituvchining namunali ifodali o‘qish orqali shu mazmunni qisman his qildirishga erishishi juda muhim. Chunki keyingi bosqichda, ya’ni tahlil paytida uning badiiyyatiga murojaat qilinadi. Mutolaa hissiyotni boyitish, aqlni peshlasa, tahlil matn tag-zamiridagi ma’noni chuqur o‘rganishga yordam beradi. o‘qituvchi adabiy tahlil darslarini tashkil etganda muayyan asarni o‘qib-o‘rganishnigina maqsad qilib qo‘ymaydi, balki adabiyotshunoslik, mantiq, tilshunoslik, ruhshunoslik, didaktika, san’at,falsafa kabi sohalarning badiiy ijodga bog‘liq qonuniyatlariga tayanib ish yuritadi. Bunda quyidagi masalalarni hal etish ham nazarda tutiladi:

1.O‘quvchilarni asarni tahlil qilishga tayyorlash, tahlilning maqsadi va mazmunini belgilaydi.

2. Ishni ilmiy-metodik jihatdan turli tashkil qilish(asar tahlilini o‘quvchilarning yoshi, ruhiyati, bilim darajasi, his qilish qobiliyatiga e’tibor bergan holda,o‘quv tahlili talablari asosida darslar bo‘yicha taqsimoti, topshiriqlar tizimini ishlab chiqish).

3. Tahlil usullarini, o‘quvchilar egallaydigan bilim va malakalar doirasini oldindan aniq loyihalashtirish.

Adabiy-estetik tahlil har bir asarning janr xususiyatlari, o‘quvchilarning yoshi, bilimi va egallagan malakalariga ko‘ra o‘ziga xoslik kasb etadi. Masalan, topishmoq predmet, voqea-hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikni taqqoslash orqali o‘zlashtirilsa, maqollar mazmuni hayotiy misollar vositasida sharhlangandagina tushunarli bo‘ladi.yoki kichik yoshdagi bolalar voqealar oqimiga, sarguzashtlarga ishqiboz bo‘lsa, katta yoshlilir qahramonlarning ruhiy olami, ichki dunyosiga qiziqadilar.

Asar voqealari asosidagi bunday mufassal tahlil o‘quvchilarni adabiy qahramonlarning xatti-harakatlaridan, voqea-hodisalartasviridan ma’no izlashlariga o‘rgatishga yo‘naltiriladi.

O‘quvchilar ko‘proq qahramonlarning xarakteri mantiqiy,o‘zaro va davr bilan bog‘liq ziddiyatlari, kechmish-kechirmishlari o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishga qiziqadilar. Qahramonlar ma’naviyatiga bo‘lgan qiziqishlari tufayli o‘quvchilar hayotning nurli va qorong‘I jihatlari xususida muayyan tushunchaga ega bo‘la boradilar. Ularda go‘zallik va nafosatga muhabbat,yovuzlikka nafrat tuyg‘ulari shu ta’rifda shakllana boradi.

Badiiy matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarda adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirishda ularni nazariy bilimlar bilan qurollantirish ta’lim samaradorligini oshiradi. Chunki matn zamiridagi nafosat, yozuvchi ilgari surgan fikr asarning janriy xususiyatlari asosida o‘rganilgandagina chuqur his qilinishi va o‘zlashtirilishi mumkin. masalan, she’riy asarlar tahlil lirikaning adabiy tur sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlari va vazifasidan kelib chiqib olib borilganda samarali bo‘lishi qayta-qayta sinovlardan o‘tib, o‘z tasdig‘ini topgan. lirik asarning boshqa turdagi asarlardan farqi shundaki, undagi har bir so‘z va hatto tovush, qaynoq hissiyot ma’noni qiyinlashtirishga qaratiladi.

She’riy matn tahlilni maqom, hijron, turoq, vazn, qofiya va band haqidaginazariy tushunchalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. O‘quvchilar she’riyatning nazariy qonun-qoidalari bilan ko‘p hollarda yuzaki tanishtirilishi tufayli tahlilda hamisha oqsaydilar.

Bola she’riyatning inson baxti, quvonch shodliklari, g‘am-g‘ussasi, qalb iztiroblari bilan chanbarchas bog‘liqligi,shu xildagi kechinmalarning badiiy ifodasi ekanligini tushunib yetgandagina so‘z san’atining bu turiga nisbatan faol munosabatda bo‘ladi. aks holda o‘quvchida she’riyatga nisbatan loqaydlik tug‘iladi va bu narsa uning nafaqat so‘z san’ati, balki go‘zallik haqidagi umumiy tushunchalariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

7-sinf adabiyot darsligida Zulfiyaning “Oydinda” she’rini ana shu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi tartibda va ta’lim usullarida o‘rganish mumkin:

Jilib-jilmas to‘lin oy,
Bulut xayoldek yengil.
Oy anhorda qulun toy,
Gilos-la shig‘il-shig‘il.
Yaxlit oynaday bo‘lib,
Hovuzga yoyilgan u.
Egilsam – tubdan to‘lib,
O‘zim chiqdim ro‘baro‘.

Tasvirnayotgan manzaraga diqqat qiling: ko‘kdagi “jilib-jilmas to‘lin oy”, xayolday yengil bulutlar: shig‘il meva tuggan gilos, anhorda esa yaxlit oynadek yoyilgan oy aksi “qulun toy”ni eslatadi.

Lirik qahramon ana shu g‘aroyib go‘zallikni kuzatib, hovuzga engashasa, go‘yo “o‘zim chiqdim ro‘baro” deya obrazli tasvir yaratgan. Endi shu manzara zamiridagi ma’nolarni anglashga urinib ko‘ring; bahorgi bir zumlik jaladan so‘ng lirik qahramon g‘uborsiz, osuda tunda kezmoqda. Atrofda yog‘inda qolgan ko‘lmaklar tunda oy yorug‘ida “ming-ming yulduz” kabi yaltiraydi. Yomg‘ir suvlari to‘planib qolgan ko‘lmaklarni esa obrazli ifodalar vositasida “Sel unutgan ko‘lmaklar, misli oyning singari” kabi tasvirlanmoqda.

She’r xotimasida shoira lirik qahramon tilidan o‘z ehtirosli fikrini bayon qiladi:”eh umr yarmim o‘tib, o‘tgan tunlardami ayb? Endi bu ko‘rkni tutib, kunduzga bermasam hayf”.

Umuman, lirik asarlar orqali kitobxon – o‘quvchi tuyg‘ulariga, hissiyotlariga ta’sir ko‘rsatiladi. Lirik qahramon timsoliga ko‘chgan muallif kechinmalari she’rxonning hamruhiyatiga ko‘chib, uning kechinmalariga aylanib ketar ekan. Shu tariqa, lirik asarlar bizni o‘zga insonlarni his qilishga, ularning qalbini o‘zga insonlarni his qilishga,ularning qalbini hayajon-u iztiroblarini tushunishga o‘rgatar ekan. Natijada, boshqalarga hamdard, hamfikr,tuyg‘udosh insonga aylanib borar ekanmiz, bu – adabiyotning – badiiy adabiyotning insonshunoslik ekanidan dalolat beradi.

ALOQADORLIKNI TA’MINLASH TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Muborak Sattorova
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
katta o‘qituvchisi:

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar uning samaradorligini ta’minlash, barkamol shaxs va malakali mutaxassislarni tarbiyalab yetishtirishga yo‘naltirilgandir. Bu jarayonda ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish, bu borada

samaradorlikka erishish, shuningdek, yuksak malaka, pedagogik mahorat hamda chuqur mutaxassislik bilimlariga ega bo‘lgan pedagog kadrlar bilan ta’minlash kabi masalalarga jiddiy e’tibor berilmoqda.

O‘zbekisondagi ta’lim taraqqiyotining asosiy yo‘nalishi ta’lim mazmunini, uning ichki tuzilishi va boshqaruvini zamonaviylashtirishdan iborat bo‘lib, ta’lim jarayonining shaxsga yo‘naltirilganligi, ta’lim munosabatlarining xilma-xilligi hamda ta’lim dasturining turli-tumanligi innovatsion jarayonlarni samarali qo‘llab-quvvatlash ta’lim yo‘nalishlarini yaxshilashning zarur shart-sharoitlaridandir. O‘quvchilar faoliyatida raqobatdosh muhit yaratish va muvaffaqiyatga erishishga yo‘naltiruvchi o‘quv maqsadlarini, shuningdek pedagogik faoliyatini loyihalash va ularni amaliyotga tadbiq etishning yangi pedagogik texnologiyalarni rivojlantirishning amaliy nazariy asoslarini ishlab chiqishga to‘g‘ri kelmoqda.

“Davlat Ta’lim Standartlari”da uzluksiz ta’lim tizimining har bir mustaqil ta’lim turi boshqa ta’lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizlik va uzviylik tamoyiliga asosan bog‘lanishi ko‘zda tutilgan. Shu o‘rinda har bir ta’lim turi va bosqichi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, oldingisidan keyingisiga o‘tishda ta’lim jarayoni samarali ketishi uchun o‘qituvchi va o‘quvchidan alohida tayyorgarlikni talab etadi. Bunday muammolarni yechish uchun umumiy o‘rta ta’lim maktablari va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari o‘rtasidagi adabiy ta’lim mazmuni va jarayonini uzluksizlik va uzviylik masalasini hal etish lozim.

Mazkur muammo umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan adabiyot fani bo‘yicha yetarlicha o‘z yechimini topmagan. Mana shu jihatlar uzviylik muammosining dolzarbligini ko‘rsatadi.

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tizimlarida uzviylikni ta’minlash adabiyot o‘qitish samaradorligining muhim omili ekanligini alohida ta’kidlash lozim.

Adabiy ta’lim tizimida uzviylikni ta’minlash masalasi pedagogik muammo sifatida yoritilishi ”Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirish hamda uzviylik ta’lim tizimini yaratish jarayonida uning turli bosqichlari o‘rtasidagi uzluksizlik va uzviylikni ta’minlash alohida anamiyatga ega.

Mazkur masalani hal etish umumiy o‘rta ta’lim maktablarining adabiyot darslarida uzviylikni ta’minlash mazmuni yanada mustahkamlaydi. Dasturdagi uzviylikni ta’minlash uchun fanni o‘qitish izchilligini, yangi har bir bosqichda ayni bir mavzuni qanday hajmda o‘tishni belgilab olish, bunda albatta o‘quvchining yosh xususiyatlarini hisobga olib, ular mazmunini sinflararo taqsimlash, o‘quvchilarninig moyilligiga qarab kasb tanlashga yo‘naltirish lozimligi haqida batafsil fikr yuritishga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga adabiyot darslarida ta’limning uzviyligi va izchilligini ta’minlash uchun nimalarga e’tibor berish lozimligi haqida fikr va mulohazalar bildiriladi hamda, bildirilgan fikr va mulohazalar ijobiy hal etiladi.

Adabiy ta’limda uzviylikni amalga oshirishning maqsadi umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan adabiyot fanlari o‘rtasida uzviykikni ta’minlash metodikasini ishlab chiqish hamda, uni pedagogik jihatdan saoslashdan iborat. Bunda umumiy o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan adabiyot fanlari o‘rtasidagi ichki va tashqi aloqadorlik yo‘llari va adabiyot fanlari orasidagi uzviylikni ta’minlash usullari ishlab chiqiladi.

Aloqadorlik masalasiga kengroq yondashish uchun muammoga oid psixologik, pedagogik va metodik adabiyotlar, adabiyot fani o‘qituvchilarining ilg‘or ish tajribalari, rus va boshqa xalqlar adabiyotida mazkur sohada amalga oshirilgan tadqiqotlarga alohida e’tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, adabiyot fanini uzviylik asosida o‘rganish o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlari va bilim darajalari, adabiy fikrlash qobiliyatini oshirishga yordam berishi ilmiy jihatdan asoslanadi. Demak, adabiy ta’lim mazmuni va jarayoni uzviyligini ta’minlash ta’lim samaradorligini oshirishning asosiy omili ekanligi aniqlanadi.

O‘quvchlarning adabiy tayyorgarligini oshirishda uzviylikning asosiy vazifalaridan biri – fanning ichiga va mavzulararo bog‘liqlik, adabiy-badiiy jarayonlarning o‘zaro aloqadorligini ta’minlashdan iboratdir. Shuning uchun o‘quv rejadagi mavzularning ketma-ketligini oqilona tanlash mavzularning ketma-ketligini ta’minlashdan iborat bo‘lib adabiyot o‘qitishdagi uzviylik muammosini yechishga yordam beradi.

Tanlangan asarlar mazmun jihatdan o‘quvchlarning o‘zbek xalqi hayoti va tafakkur tarzini yaqindan bilib olishlariga, orzu-o‘ylarini qalban his qilishlariga yordam berish va ayni paytda hayotiy tajribalarini ham oshirish lozim. Ma’lumki, o‘zbeklarning hayot tarzida boshqa millat vakillarining hayot tarzidan farq qiladigan jihatlari mavjud. Shunga ko‘ra o‘qituvchi o‘quvchiga badiiy asarlar asosida o‘zbek xalqining hayoti, urf-odat va udumlari haqida ma’lumot berishi zarur.[93]

Uzviylikni amalga oshirish maktab o‘quv dasturida ayrim mavzularni chuqurlashtirib, o‘quvchilarning yoshlarini hisobga olib, ular mazmunini sinflararo aloqadorligini ta’minlashdan iborat bo‘lib, o‘quvchilarning o‘z orzu istaklariga qarab kasb tanlashiga, ularga kasb-hunar kollejlarida o‘z sohalari bo‘yicha bilim olishlariga sharoit yaratadi. Umumta’lim maktablari va kasb hunar kollejlarida “Davlat Ta’lim Standartlari’ va dasturlari asosida ta’lim jarayonini izchillik va uzviylik prinsipi asosida amalga oshirishga shart-sharoit yaratadi.

ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIY DOSTONLARDA LEKSIK-SEMANTIK MUNOSABATNI IFODALOVCHI VOSITALAR

Izbosarova Shaxnoza Baxriddinovna
O‘zbekiston.NavDPI “Boshlang‘ich ta’lim”
kafedrasi katta o‘qituvchisi
tel: 99-557-89-98

Annotatsiya: Badiiy adabiyot tilshunoslik uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qilar ekan, uning tahlili ham birinchi o‘rinda turadi. Zamonaviy o‘zbek dostonlarini lingvopoetik tahlil qilish, dostonlarning g‘oyalarini yaqqol namoyon bo‘lishiga olib keladi.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy doston, leksik-semantik vositalar, Zulfiya, Oydin Hojiyeva, antonim, sinonim, omonim, leksik-poetik vositalar.

Kirish. Hozirgi kunda tilshunoslar e’tiborini tortib kelayotgan badiiy matnlarda inson obrazini to‘laqonli namoyon qilish borasida muhim ahamiyat kasb etuvchi lingvopoetik vositalarning, ayniqsa, leksik-semantik vositalarning o‘ziga xos xususiyatlarini shaxs va til munosabatiga aloqadorlikda tadqiq etish bevosita zamonaviy tilshunoslik bilan uzviy o‘rganilishni taqozo etmoqda. Til vositalarining lingvopoetik imkoniyatlarini aniqlash esa badiiy matnlarga tayanishni, qator shoir va yozuvchilar asarlarini tahlil qilishni nazarda tutadi. Bunday ijodkorlar qatorida zamonaviy o‘zbek adabiy dostonlarining badiiy til xususiyatlarini tadqiq qilish shoiralar ijodining poetik mohiyatini yana ham teranroq anglashga xizmat qiladi.

Keyingi yillarda badiiy matnni tadqiq etishda turfa xil qarashlar, talqinlar namoyon bo‘la boshladiki, buning zamirida hayotga, borliqqa teranroq nazar solish an’anasi, insonni anglashga bo‘lgan intilish kabi uslubiy o‘zgarishlar yuzaga chiqa boshladi. Ayniqsa, badiiylikning asosidagi uslubiy izlanishlar taraqqiyoti, dostonlarda ham o‘zining badiiy ifodasini namoyon qildi. Zamonaviy dostonlar taraqqiyotiga sezilarli hissa qo‘shayotgan bir qator ijodkorlarning badiiy asarlarida bu holat yana-da, badiiy mukammallik kasb eta boshladi.

Zulfiyaning “Xotiram siniqlari” dostoni hajman ixcham, fikran keng ko‘lamlidir. U muallifning yillar bo‘yi qalbida cho‘kib yotgan dardlari, uning og‘riqlari, buning sabablari mohiyatidagi alamlari asosiga qurilgan. Shoira buni bir-bir xotirasida tiklar ekan, go‘yo singan ko‘zguning siniqlarini bir-biriga ulaganda narsaning aksini ko‘rsatganday, bu xotira siniqlarining ortida o‘zining siymosi paydo bo‘ladi. Biz bu siniqlarda shoira yuragidagi alamlarni ko‘ramiz. Bu iztiroblarning paydo bo‘lish sabablarini anglash borasida o‘sha davrdagi adolatsizlik, tuzumni dushmanlardan tozalash niqobi ostida hayotni anglash, undan tegishli xulosa chiqarish iqtidorga ega bo‘lgan fikrlovchi odamlarni “ovlash va yo‘q qilish” jarayonini butun murakkabligi bilan uqamiz va shoira irodasini anglaymiz. Bu jarayon shoiraning oilasini ham chetlab o‘tmadi, balki taniqli arbob bo‘lgan akasi Normat Isroilovni ham domiga tortib ketdi. Mana shunday kunlarni sodir qilgan

[93] “Uzluksiz ta’lim”,2015-yil, 1-son,30-31-betlar.

kishilar haqida shoira kuyinib, bir singil sifatida ularga nisbatan qalbida yongan nafrat va g‘azabni sinonimlar vositasida ifodalaydi:

Singilni “mehrdan bino” deydilar,
Ko‘z yoshga yetdimi mehrimning kuchi!
Gunohsiz, jonimning qotillariga
O‘q qilib otdimi ***nafratim, o‘chim. (58-b.)***

“Xotiram siniqlari”da nafaqat Zulfiyaxonimning taqdiri, balki o‘sha davr ayollari – onalar, opa-singillar, kelinchaklarning qora ko‘rguliklari aks etgan. Shoira yillar o‘tgan sayin onasining muborak zot ekanligini chuqurroq anglayotgani, tanho qolgan kezlarida esa xotirasi qatlaridan onasining ovozi eshitilayotgandek sezilishi dostonda tasvirlab berilgan. Zulfiya hijron azobida qolgan, tuhmat bilan qamalgan, avaxtama-avaxta o‘g‘lini izlab, horib, charchagan mushtipar onalar zamonini aks ettiradi:

Kuni bo‘yi kezib, ***bukchayib, tolib****,*
Keksa bag‘rin yerga berib yotardi.
Biz nochor bir-biriga ezilib boqib,
Sukut dengiziga og‘ir botardik.
Asl yigitlarga qazilardi go‘r.

Oydin Hojiyeva dostonlarida o‘z davri mafkurasi bo‘y ko‘rsatib tursa-da, katta estetik va ijtimoiy qudrat ham aks ettirilgan. Lirik qahramon kechinmalarida nafaqat o‘zbek xalqi, ba’zi Sharq xalqlarining ham achchiq taqdiri, dardlari o‘z ifodasini topgan:

Onam qirq yil bo‘zlab izlagan darak
Otamning qaddini bukkan ***dard****,* ***fig‘on****,*
Po‘lat sahfalardan misli guldurak –
Ovoz berib chiqar akam – Ne’matjon! (426-bet)

Bu baytdagi harbiy yurishlar, ularning yovuz oqibatlari to‘g‘risidagi olovli misralar o‘zining chuqur mazmuni, tasviriyligi va ta’sir kuchi jihatidan rassom suratlari bilan bir qatorda turadi. Zotan, misralarda bashariyat taqdiriga daxldor voqealar, o‘lkalar va xalqlar kechmishi, yangi turmush haqidagi orzu-istaklar hali-hanuz kitobxonlarni to‘lqinlantirib kelmoqda.

Oydin Hojiyeva dostonning yana bir o‘rnida *girdibodim – quyunlarim* sinonimlarini keltirish orqali uslubiy g‘alizlikni oldini olgan hamda so‘z takroriga yo‘l qo‘ymagan:

Shukrona rohatu azobim uchun,
Uyqusiz tunlarim uchun ming shukr.
Ko‘ngilda ishq ***girdibodim*** *uchun,*
O‘tli ***quyunlarim*** *uchun tashakkur.*

Misrada keltirilgan girdibod so‘zi fors tilidan o‘zlashgan bo‘lib, hozirgi zamon o‘zbek badiiy nutqida uchraydigan kamyob hodisa (qattiq uyurmali shamol, xas-hashak bormi, chang to‘zon bormi, yer bag‘rini qirtishlab, hammasini uchirib, aylana-aylana, tobora ko‘kka intiladi) ekanligi bilan, yana quyun ma’nosini anglatishini ham aytib o‘tishimiz mumkin.

Qay biri vazminroq: ***savobmi – gunoh****?*
Yashadim-ku riyo, haromdan nari.
Kuyganman. Bosh-oyoq kuyuk jismimning –
Nimasin yoqardi do‘zax o‘tlari…

Doston matnida antonimlik hosil qilgan *“savob”* va *“gunoh”* mazmuniy birliklari asar badiiy qimmatini va obraz ta’sirchanligini oshirib, muayyan obrazning ichki ziddiyatini, sifatini aniqlashga xizmat qiladi. “Savob” va “gunoh” mazmuniy birliklari asl, ya’ni o‘z ma’nosida qo‘llanishiga qaramay, doston qahramonining ijobiy tomonlari uning salbiy tomonlaridan ko‘ra ustunroq ekanligini yorqinroq, aniqroq ifodalashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, leksik-poetik antonimlar yoki zid ma’noli mazmuniy birliklar zamonaviy o‘zbek adabiy dostonlari tilida badiiy tilga ohangdorlik bag‘ishlagan, qarama-qarshi fikr, hissiyot, voqelikni badiiy ifodalash bilan birga ta’sirchanlikni oshirgan, hissiyotlar avjida va kuchli ta’sirga ega tasvirlarda umumlashma ma’no kasb etishi bilan poetik nutq hodisasi bo‘lgan oksimoronning yuzaga chiqishida muhim estetik vazifani bajargan.

Shakldosh so‘zlar nutqda keng qo‘llanilib, badiiy adabiyotda tajnis(jinos) san’ati va she’riy janrlardan biri tuyuqni yuzaga keltiradi. Halima Xudoyberdiyeva ham ona tilining leksik boyligidan ijodiy foydalangan. U aytmoqchi bo‘lgan fikrini kuchaytirish maqsadida leksik hamda grammatik omonimlardan, omoforma, omofon va omografiklardan o‘rinli foydalangan:

Yo‘q, men bunday yashamasman, umrim kuyar sham qilmay,
Baxtim dil so‘rasa unga men jonimni ***tut****gayman.*
Men go‘daklar o‘stirarman bir ko‘zini kam qilmay,
Ular bois ne yuk kelsa, yelka ***tut****ib o‘tgayman... (H.X.,136-bet)*

Xullas, zamonaviy o‘zbek adabiy dostonlarida omonimiya hodisasi kamyob hodisa ekanligini e’tirof etish mumkin. Biroq, shunga qaramay omonimlar, aynan, Zulfiya, Oydin Hojiyeva dostonlarida badiiylikning muhim omillaridan biri bo‘lib, o‘ziga xos ifoda imkoniyatlarini namoyon qila olgan. Omonim so‘zlardan foydalanish ijodkorlar uchun o‘z maqsadlarini ifodalash vositasi vazifasini bajargan hamda tarixiylik, milliylik, ohangdorlik va ta’sirchanlikni ta’minlash, ba’zi o‘rinlarda kinoya, kesatiqni ifodalash vositasi vazifasini bajargan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Abdurahmonov D.O‘zbek shevalari leksikasining taraqqiyot manbalari va ulardagi leksik farqlar // O‘zbek shevalari leksikasi. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 12–85.
2.Абдуллаева А. Употребление народных пословиц в романе Абдуллы Каххара «Огни Кошчинара // Ўзбек тилшунослиги масалалари. – Самарқанд: СамДУ, 1971. –№ 188. –Б. 82-85.
3. Жўрахонов А. Муқимийнинг халқ мақолларидан фойдаланишдаги маҳорати // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1974. –№ 4. –Б. 52-55.
4. 5.Ёриев Б. Шайхзода поэмасида мақол ва афоризмлар // Ўзбек тилшунослиги масалалари. – Самарқанд: СамДУ, 1977. –№ 325. –Б. 75-87.
5.Муталлибов С.Навоийдаги ҳикматли сўз ва иборалардан баъзи намуналар // Адабий мерос. –Тошкент, 1976. –№ 6. – Б. 67-75.
6.Qarang: O‘zbek xalq maqollari. –Toshkent: Sharq, 2005. –509 b.

O‘ZBEK TILIDA TILAK ADRESANTINING IJTIMOIY MAVQEI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Sayfutdinova Durdona Pulatjonovna
Andijon davlat universiteti katta o‘qituvchisi
+998934259311
saydur01041973@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada tilak nutqiy janridagi tilak ijobatining ilohiylashtirilishi va ilohiy Zot bilan bog‘lanishi tilak adresatining o‘ziga xos ekanligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: tilak ijobati, adresat, adresant, neytral rasmiy tilak, diniy qolipdagi tilak.

НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О СОЦИАЛЬНОМ СТАТУСЕ АДРЕСАТА ПОЖЕЛАНИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Сайфутдинова Дурдона Пулатжоновна
старший преподаватель
Андижанского государственного университета

Аннотация. В статье рассматривается обожествление ответа на пожелание в речевом жанре «пожелание» и тот факт, что адресат пожелания уникален в своей связи с Божеством.

Ключевые слова: ответ на пожелание, адресат, адресат, нейтральное официальное пожелание, желание в религиозной форме.

SOME REFLECTIONS ON THE SOCIAL STATUS OF THE ADDRESSEE OF DESIRE IN UZBEK

Sayfutdinova Durdona Pulatjonovna
Senior teacher of Andijan State University

Annotation. The article discusses the deification of the answer to the wish in the speech genre "wish" and the fact that the addressee of the wish is unique in his connection with the Divine Being.

Key words: response to a wish, addressee, addressee, neutral official wish, a wish in religious form.

Zamonaviy tilshunoslikda XX asrning 50-yillaridan tilshunoslar e'tiborining nutqiy hodisalar tadqiqiga qaratilishi til tizimida o'ziga xos nutqiy maqsad, kompozitsiya va uslubga xoslangan nutqiy butunliklarning lingvistik tadqiqini boshlab berdi. Hozirgi kunda nutqiy janrlar tadqiqida nutqiy janrlar tipologiyasini tuzish va umumiy tasnif tamoyillarini ishlab chiqishda nutqiy janrlar alohida tiplarining o'ziga xos lingvistik xususiyatlarini aniqlash muhim bo'lib bormoqda.

Tilak nutqiy janrida tilak ijobatining ilohiylashtirilishi, ilohiy Zot bilan bog'lanishi tilak adresatining o'ziga xos ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, tilak ijobati bilan bog'liq lingvistik hodisalarda xalq og'zaki ijodi to'qima ertaklarida duo adresatining oltin baliq, jin kabi sehrli mavjudotlar bo'lishi qadimdan kishilarning duoning sehrli kuchiga bo'lgan ilk ijtimoiy tasavvurlarining ijtimoiy lingvistik ifodasidir. To'plab o'rganilgan tilak nutqiy janri namunalari tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi kundagi tilak nutqiy janri tiplarida tilaklarning ilohiylashtirilishi, ya'ni tilaklarning ijobati Xudo bilan bog'lanishi yetakchilik qilib, tilak ijobatini sehrli mavjudot bilan bog'lash to'qima ertak va badiiy asarlardagina o'z aksini topadi. Hozirgi kun tilak namunalarida tilak ijobatining diniylashuvini, tilak ijobatining sehrli qahramonlardan ilohiy qahramonlarga ko'chganligini kuzatish mumkin. Masalan, ilohiy qahramon, Iso payg'ambarning shol kishilarni yurgizishi, ko'zi ojizlarni ko'zini ochishi kabi ilohiy mo'jizalari orqali shol va ko'zi ojizlar istak-xohishlari, ya'ni tilagining ilohiy jihatdan o'z ijobatini topganligi bilan xarakterlanadi. Islom dinida esa tilakning ijobati bevosita Oliy Zot bo'lgan Xudo nomi bilan bog'lanadi. Tilakning bu kabi ilohiylashtirilishi duo ijobatining muayyan sotsial (diniy, ilohiy, sehrli kabi) statusli adresat bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Demak, tilak nutqiy janrining tilak ijobatida sotsial statusi (diniy, ilohiy, sehrli kabi) muhim ahamiyatga ega. Tilak nutqiy janrida tilak ijobati adresant istak-xohishi bajarilishining kimgadir yuklatilishi jarayoni bo'lib, bunda tilak ijobatini ta'minlovchi adresat bu tilakni bajaruvchisidir.

O'tmishdagi ijtimoiy jamiyatda ijtimoiy e'tiqod, ijtimoiy-diniy muhitning almashinuvi kishilarning ruhiy olami va ongida ijtimoiy kuchga bog'liq bo'lgan tilak ijobati xronologiyasidagi sehrli-ilohiy-diniy qarashlarni yuzaga keltirgan. Bir so'z bilan aytganda, tilak ijobati masalasida tilak ijobatida sehrli kuch - ilohiy kuch tartibida xronologik o'zgarganligini kuzatish mumkin.

Tilak nutqiy janri Xudo bilan bog'langanda Xudo va unga bog'liq har qanday ijtimoiy diniy tushunchalar yetakchilik qiladi. Shu jihatlariga ko'ra qarg'ish, qarg'anish, so'kish, so'kinish kabi salbiy tilaklar; duo, maqtov, tabrik, suyunchi, fol kabilardagi ijobiy tilaklarni diniy tilak elementlari mavjud tilak nutqiy janrining turli shakllari deb baholash mumkin.

Masalan,

a) **qarg'ish+tilak**: *– Juvonmarg! – dedi singlisining emas, o'zining sochini yulib. – Iloyo, Zokir akaning arvohi ursin, xo'pmi? Sendek singlim yo'q, bildingmi! Otamning arvohiga soldim, benomus! Iloyo bu kuningdan battar bo'l, sharmanda!* [Hoshimov O'., 2018. – S.404.]

b) **duoibad+tilak:** *– Dod! - dedi to'lg'anib – Zokir! Bolam! Qandoq chidayman. Iloyo arvohing ursin, jon bolam! – Amallab qaddini rostladi-da, ko'zi to'la yosh bilan Zuhra kelinga yuzlandi. – U dunyo – bu dunyo kosang oqarmasin, juvonmarg! Kun ko'rib, kuni ro'shnolik ko'rmagin, imonsiz! – Qarg'amang, oyijon! – Fotima kelin qaynonasiga yopishdi. – Duoibad qilmang singlimni! Mayli bir kunmas bir kun o'zi...* [Hoshimov O'., 2018. – S.408.]

c) **tilak:** *Xotin ham pulni shoshmay sanab, engashgancha mahsining qo'njiga tiqdi. – Buyursin! – dedi qaddini rostlab.* ***– Yaxshi kunlarga kiysin.*** *Boya atrofimizni halqadek o'rab olgan erkak-ayol do'ppifurushlar hafsalasi pir bo'lib bir zumda nari ketgan, yangi xaridor izlashardi.* [Hoshimov O'., 2018. – S.418.]

Turli ijtimoiy davrlar va ijtimoiy jarayonlar mobaynida tilak ijobati e'tiqodlararo o'zgarishlarga uchraganligini alohida qayd etish lozim. Yevropa mamlakatlarida turli diniy e'tiqod va qarashlarga ega xalqlar va millatlarning madaniy to'qnashuvi, globallashuvi hamda zamonaviy ilm-fanning rivojlanishi, aniq fanlarning yuzaga kelishi natijasida tilak ijobatining ilohiylashtirilishi xalqlarning e'tiqodiy jarayon va e'tiqodiy ongdagi qarashlarini o'zgartirdi. Shu munosabat bilan tilak ijobati yana bir ijtimoiy o'zgarishga uchradi. Bunda tilak ijobatining ilm-fan taraqqiyoti va aniq fanlarning rivojlanishi bilan bog'liq shakllangan ateistik qarashlar tilak adresati haqidagi tasavvurni ijtimoiy shaxsning o'ziga yukladi. Shu sababdan ham turli tizimli tillarda tilak nutqiy janrining diniy va diniy bo'lmagan shakllari yuzaga keldi. Odatda dinsizlar va ateistlar nutqida tilak nutqiy janrida diniy elementlarga ega so'zlar va diniy mazmundagi tilaklar, diniy olamga ishora qiluvchi jumlalar va grammatik qurilishlar ishlatilmaydi.

Ammo shuni aytish kerakki, til tizimida rasmiy nutqda ko'proq diniy e'tiqod jihatdan neytral mazmunli jumlalar qo'llaniladi. Masalan,

Aziz Vatan himoyachilari! [Mirziyoyev Sh, 2024. – S.1.] *Sizlarni bugungi qutlug' bayram bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga mustahkam sog'liq, oilaviy baxt, olijanob va mas'uliyatli faoliyatingizda ulkan zafarlar tilayman.* Bunda ulkan zafarlarga erishish bevosita vatan himoyachilarining zimmasidadir.

Ba'zan rasmiy siyosiy nutqlarning ijtimoiy xalqqa yo'naltirilgan shakllarida diniy e'tiqod jumlalari ham qo'llanilishi mumkin.

Masalan,

Qadrli va muhtaram vatandoshlarim!

Sizlarni Yangi yil bayrami bilan yana bir bor qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, xonadonlaringizga tinchlik va fayz-u baraka tilayman.

Har bir oila, har bir mahalla, butun yurtimiz farovon bo'lsin!

Go'zal Vatanimizni, Yaratganning o'zi panohida asrasin!

Yangi yil barchamizga muborak bo'lsin! [Mirziyoyev Sh, 2023. – S.1.]

Shuni aytish kerakki, diniy bo'lmagan, neytral rasmiy tilak shakllari barcha xalqlar uchun umumiy va standart shakldagi tilakning lingvistik qolipidir. Shu nuqtai nazardan, diniy qolipdagi tilaklarni aytish rasmiy uslubda kuzatilmaydi, faqatgina diniy qolipdagi tilak shakllari diniy idoralarning rasmiy vakillari nutqida qo'llanilishi mumkin. Bu xususiyatlariga ko'ra tilak nutqiy janrining rasmiy standart va norasmiy so'zlashuv shakllari yuzaga keladi.

Demak, har qanday tilak shakllari tilak nutqiy janri tilak va tilak ijobati qolipida shakllanib, nutqiy kommunikatsiyada "**so'zlovchi +tilak+tilakni ijro etuvchi (qabul qiluvchi)**" ketma-ketligida reallashadi.

O'zbek tilida tilak nutqiy janrida tilak ijobati ilohiylashtirilganda tilak aytish so'zlovchiga, tilakni ijro etish esa Xudo va unga ilohiy jihatdan tegishli shaxslar, predmetlar, makon, joy, voqea kabilarga bog'lanadi. Masalan, *shu joylarda unib-o'sib tup yoyinglar.* Ushbu tilak mazmunidagi unib-o'sish Xudo bilan bog'liq hodisa sifatida tilak mazmuniga ko'chgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi nutqi. "Xalq so'zi", 2024-yil, 16-yanvar, № 17.
2. Sh.Mirziyoyev.O'zbekiston xalqiga yangi yil tabrigi nutqi. "Xalq so'zi", 2023-yil, 1-yanvar, №1.
3. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. 762 b.
4. Pulatjonovna, S. D. (2023). LINGUISTIC ANALYSIS OF ARTISTIC TEXT. PEDAGOG, 6(11), 305-308.
5. Nurmanova, D. A. (2021). Neutralization of Consonant Opposition in Anlaut of the Uzbek Language. Academicia Globe, 2(6), 347-354.

O‘ZBEK TILIDA RAVISHDOSH SHAKLI FE’LNI FE’LGA BOG‘LOVCHI VOSITA SIFATIDA

Shavkatov Sherzod Shavkatovich
Navoiy davlat pedagogika instituti
Ingliz tili amaliy kursi kafedrasi o‘qituvchisi
Telefon: +99897 085-9555
sherzodbek.shavkatov.uzb@gmail.com

Annotatsiya Gap tarkibida fe’lni fe’lga biriktiruvchi vositalar sifatida ravishdosh shakli, kelishiklar va ko‘makchilar xizmat qiladi. Bunda ravishdosh shakllari uchun tobe maqomdagi fe’lning muayyan shaklda kelishi talab etilmaydi. Chunki ravishdosh fe’lning shunday vazifa shakliki, u muayyan harakatning harakat va holat bilan bog‘liq bo‘lgan belgisini ifodalaydi. Ravishdosh shakllari fe’lni boshqa fe’lga bog‘lash bilan birga ular orasida payt, tarz, maqsad kabi ma’no munosabatlarini ham yuklaydi. Ravishdosh shakli o‘zbek tilida fe’lni ravish, ya’ni harakatning belgisini bildirib kelish vazifasini bajarishga xoslangan shakli sifatida ikki fe’lni biriktirish bilan birga ular orasida turli ma’no munosabatlarini ham yuzaga chiqaradi.

Kalit so‘zlar: fe’l, ravishdosh, birikma, semantik munosabat, morfologik vosita

ДЕЕПРИЧАСТИЕ КАК СРЕДСТВО СВЯЗКИ ГЛАГОЛА С ГЛАГОЛОМ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация В структуре предложения средствами связи глагола с глаголом служат наречия, союзы и вспомогательные слова. При этом не требуется, чтобы глагол в придаточном статусе стоял в определенной для наречия форме. Потому что форма наречия такова, что он выражает признак конкретного действия, связанного с действием и состоянием. В то же время наречия связывают глагол с другим глаголом и устанавливают между ними семантические отношения, такие как время, способ и цель. Наречие в узбекском языке используется для выражения глагола, то есть для обозначения признака действия, а также связывает два глагола и выявляет разные смысловые отношения между ними.

Ключевые слова: глагол, наречие, словосочетание, семантическая связь, морфологический инструмент.

PARTICIPLE AS A MEANS OF LINKING VERB WITH VERB IN THE UZBEK LANGUAGE

Abstract In the structure of a sentence, adverbs, conjunctions and auxiliary words serve as means of connecting verb to verb. In this case, it is not required that the verb in the subordinate status be in the form specific to the adverb. Because the form of the adverb is such that it expresses the attribute of a specific action associated with an action and a state. At the same time, adverbs link a verb to another verb and establish semantic relationships between them, such as time, manner and purpose. An adverb in the Uzbek language is used to express a verb, that is, to indicate a sign of an action, and also connects two verbs and reveals different semantic relationships between them.

Key words: verb, adverb, phrase, semantic connection, morphological tool.

O‘zbek tilidagi gaplarda fe’l ko‘proq kesim vazifasida kelganligi tufayli biriktiruvchi maqomida namoyon bo‘ladi. Shu sababli, bu turkum so‘zlari barcha mustaqil so‘z turkumlari bilan ifodalangan gap bo‘laklarini biriktirib kela oladi. Fe’lning grammatik mohiyati grammatik shakllari, kategoriyalari va gapdagi vazifalari bilan boshqa turkumlardan ajralib turishida namoyon bo‘ladi. Fe’l muayyan vaqt davomida sodir bo‘ladigan harakat va holatni ifodalovchi, boshqa turkum so‘zlarini atrofida uyushtiruvchi turkum sifatida morfologiyada birinchi bo‘lib o‘rganiladi. Fe’l so‘z turkumining leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilinar ekan, uning boshqa so‘zlarga, jumladan boshqa bir fe’lga birikishi haqidagi ma’lumotlar ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Chunki so‘z ba’zi ma’nolarini boshqa so‘zlar bilan birikkandagina namoyon qila oladi. Masalan, “non” so‘zining “daromad” ma’nosi “topmoq” fe’liga qo‘shilsagina yuzaga chiqadi. Tilshunoslikning eng muhim obyekti bo‘lgan so‘z tadqiqi shu tufayli uning birikuvchanlik xususiyatlari bilan bog‘liq holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

“Ingliz tilida fe’lning quyidagi grammatik kategoriyalari mavjud: Perfekt (korrelyatsiya) kategoriyasi (The category of perfekt (correlation Order)), nisbat kategoriyasi (The category of voice), shaxs kategoriyasi (The category of person), son kategoriyasi (The category of number), zamon kategoriyasi (The category of tense), aspekt (tus, tarz) kategoriyasi (The category of aspekt), mayl kategoriyasi (The category of mood)” [1:188-190]. Sanalgan kategoriyalarning deyarli barchasi fe’l so‘z turkumining birikuvchanlik xususiyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. O‘zbek tilshunosligida ham fe’l kategoriyalarining aksariyati uning birikuvchanlik xususiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Garchi tadqiqot, darslik, va qo‘llanmalarda mayl, zamon, shaxs-son kategoriyalari fe’lning munosabat shakllari sifatida baholansa-da [2,3], uning lug‘aviy shakllari sifatida qaraladigan fe’lning vazifa (xoslangan), nisbat va bo‘lishsizlik shakllari ham fe’lning boshqa so‘zlarga birikishiga ozmi-ko‘pmi ta’sir o‘tkazadi. Tushum kelishigi shaklidagi so‘zlarga birika olmaydigan fe’llarning orttirma nisbat shakli bilan o‘zgargandan keyin bunday imkoniyatga ega bo‘lishi ham fikrimizni dalillaydi.

Fe’l turkumiga mansub so‘zning shu turkumga mansub boshqa so‘zga birikishi o‘zbek tilida ham, ingliz tilida ham yuzaga chiqishi biroz mushkul bo‘lgan grammatik hodisadir. Chunki fe’l so‘z turkumi hokim maqomdagi valentlikka ega. Ikkita hokim valentlikka ega leksemaning birikishi uchun ulardan biri yoki har ikkalasi muayyan morfologik (grammatik) vositalar bilan o‘zgarishi talab etiladi. O‘zbek tilidagi fe’lni fe’lga bog‘lovchi vositalar ikki felni biriktirish bilan ular orasida muayyan semantik munosabatlarni ham yuzaga chiqaradi. Quyida shunday semantik munosabatlarni har bir vosita kesimida tahlil qilinadi.

Ravishdosh shakli o‘zbek tilida fe’lni ravish, ya’ni harakatning belgisini bildirib kelish vazifasini bajarishga xoslangan shakli sifatida ikki fe’lni biriktirish bilan birga ular orasida turli ma’no munosabatlarini ham yuzaga chiqaradi. Ravishlar harakat va holat ifodalovchi so‘zning turli belgilari: payti, sababi, maqsadi, miqdori, tarzi, o‘rnini ifodalay olsa, ravishdosh bu belgilarning hammasiga ham ega bo‘lavermaydi. Zero, “ravishdosh – fe’lning ravishga xos vazifada qo‘llanish uchun maxsuslashgan shakli. Ravish harakatning belgisini bildirib, uning biror xususiyatini ko‘rsatadi” [4]. Anglashiladiki, ravishdosh garchi matnlarda ravish vazifasini bajarsa-da, u ifodalay oladigan harakatning barcha belgilarini o‘zida aks ettirolmaydi. Ravishdosh shakllari fe’llarni o‘zaro bog‘lash bilan birga hokim maqomdagi fe’lifodalagan harakatning quyidagi belgilarini bildiradi:

1) harakatning qanday tarzda bajarilganligini bildiruvchi ravishdoshlar - (i)b, -a(y), -gancha (-kancha, -qancha) shakllari yordamida hosil qilinadi. *Kulgancha chiqib ketmoq, o‘ylanib javob bermoq, yig‘lay-yig‘lay gapirib bermoq* kabi birikmalarda ravishdoshlarning asosiy harakatlarning qanday tarzda sodir bo‘lganligini ifodalab kelgan. Bu birikmalarda ravishdosh shakli, shuningdek, ikki fe’lni biriktiruvchi vosita vazifasini ham bajargan. Mazkur shakldagi ravishdoshlar harakatning qanday tarzda (holatda) bajarilganligini ifodalaganligi uchun tilshunoslikka oid manbalarda “holat” yoki “tarz” ravishdoshi deb nomlanadi [5:56]. Holat ravishdoshining -a(y) shakli matnlarda takror holda qo‘llanadi va begi bildirayotgan harakatning takrorlanishini anglatadi. Bu shakl, shuningdek, juft fe’larda ham uchraydi. Masalan,

Bozorda qari cholni o‘g‘ri deya tutdilar,

Ura-sura sho‘rlikni podsho sari eltdilar (H.Olimjon).

Keltirilgan misoldagi *ura-sura* ravishdoshi kesim vazifasidagi *eltdilar* fe’liga poetik nutq talabi bilan distant birikkanligini ko‘rishimiz mumkin. Ravishdoshning *-a(y)* shakli juft fe’llarga qo‘shilganda juftlashayotgan fe’llarning galma-gal sodir bo‘lganligini ifodalaydi. Shu o‘rinda holat ravishdoshlari ifodalaydigan belgining holat ravishlari ifodalaydigan belgidan farqlanishini ta’kidlab o‘tish lozim. Ravishdosh harakat natijasida hosil bo‘lgan, jarayondagi belgini ifodalasa, ravish turg‘un, doimiy bo‘lgan belgini ifodalaydi. Shu sababli ham ravishdoshda ham fe’llik, ham ravishlik belgilari mavjud bo‘ladi, deyishimiz mumkin. Shu o‘rinda ravishdoshning *-(i)b va -a(y)* shakllari ba’zi manbalarda ko‘makchi fe’lni biriktirib, harakat tarzi shaklini hosil qilishi ta’kidlanadi [6:231]. Ammo bunday holatda faqat ravishdoshning shakli mavjud bo‘lganligi sababli bu kabi so‘zlarni shakl va ma’no butunligi sifatida ravishdosh sifatida baholab bo‘lmaydi. Zero, muayyan fe’l shaklini ravishdosh sifatida baholash uchun u boshqa bir fe’lda ifodalangan

harakatning qanday payt, maqsad va tarzda sodir bo‘lganligini bildirishi, ya’ni uning xususiyatlarini ochib berishi lozim, nazarimizda;

2) harakatning bajarilish paytini bildiruvchi ravishdoshlar *-gach (-kach, -qach), -guncha (-kuncha, -quncha), -ganda* qo‘shimchalar yordamida hosil qilinadi. “Bu affikslar o‘zi bog‘lanib kelgan fe’l bildirgan harakatning bajarilish vaqtini aniqlaydi” [7:379]. Bunda *-gach (-kach, -qach)* affiksli ravishdosh ifodalaydigan payt munosabati va *-guncha (-kuncha, -quncha)* affiksli ravishdosh ifodalaydigan payt munosabati farqlanadi. Chunki *-guncha* qo‘shimchasi yordamida hosil qilingan ravishdosh o‘zi bog‘langan fe’l ifodalovchi harakat bajarilishi uchun oxitgi chegarani anglatadi. Masalan, *Quyosh chiqquncha manzilga yetib olamiz*.

3) Mazkur gapda ravishdosh bilan ifodalangan harakat (chiqquncha) hokim maqomdagi fe’l (yetib olamiz) bajarilishi uchun so‘nggi vaqt chegarasini ifodalaydi. Boshqacha aytganda ravishdoshning bu turi hokim fe’ldan keyin sodir bo‘ladigan harakatni ifodalaydi. Payt munosabatini ifodalovchi *-gach* affiksi yordamida hosil qilingan ravishdosh esa hokim maqomdagi fe’lgacha sodir bo‘lgan harakatni bildiradi. Masalan, *Qahramon kelgach, men ketaman*. Mazkur gapda ravishdosh bilan ifodalangan fe’l unga nisbatan hokim maqomdagi fe’l (ketaman) bilan ifodalangan harakatgacha sodir bo‘lgan va tugallangan harakatni bildiradi. Ravishdoshning *-ganda* shakli zamon ma’nosiga ega bo‘lgan va yuqorida keltirilgan ikki shakldan biroz farqlanadi. “Bu shakl *-gan* va *-da* shakli ma’nosining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Bunday shaklli ravishdoshda harakatning biror chegarasi emas, balki uning sodir bo‘lish payti ifodalanadi” [8:293]. Masalan, *Akam kelganda ketayotgandim* gapida ikki harakat bir vaqtda sodir bo‘lganligini kuzatishimiz mumkin. Ravishdoshning bu turi ikki fe’lni bog‘lash bilan birga ular orasida payt munosabatini ham ifodalagani uchun manbalarda payt ravishdoshi deb nomlanadi [9:22];

4) hokim maqomdagi fe’lnining bajarilish maqsadini bildirgan ravishdish *-gani* (-kani, -qani) qo‘shimchasi bilan hosil qilinadi. Harakatga maqsad ma’nosini beruvchi bu ravishdosh shakli bo‘lishsiz shaklda qo‘llanmasligi bilan ajralib turadi. O‘zbekcha matnlarda maqsad ravishdoshining *-gali* arxaik shakli ham qo‘llanadi. Masalan, *Adolatoy uyg‘onib, barg kesgali yo‘l oldi* (H.Olimjon). Mazkur gapda *kesgali* ravishdoshi bajaruvchining nima maqsadda yo‘l olganligini ifodalab kelganligini ko‘rishimiz mumkin. Umuman olganda, ravishdoshning fe’lni boshqa bir fe’lga bog‘lash xususiyati uning umumiy grammatik ma’nosi sifatida qaraladi [10:261]. Ravishdoshning payt, maqsad va holat ifodalovchi turlari esa shu umumiy grammatik ma’noning tajallilanishi hisoblanadi. Bunday voqelanishlar sirasiga “davomli harakatning holat tusini ifodalash”, “davomli/davomsiz harakatga holat tusini ifodalash”, “bo‘lishsiz harakatga holat tusini berish”, “harakatning bir paytdaligini ifodalash”, “harakatning tamom bo‘lish paytini ifodalash”, “harakatga maqsad ma’nosini berish” kabilar bor. Anglashiladiki, ravishdosh shakllari bir fe’lni boshqa bir fe’lga biriktirganda hokim va tobe so‘zlar orasida payt, holat yoki maqsad kabi ma’no munosabatlari ifodalanadi. Bunda fe’lning fe’lga birikishida ravishdosh shakli qo‘llanishi shart. Chunki bu shaklsiz ikki fe’lning o‘zaro birikishi sodir bo‘lmaydi.

Gap tarkibida fe’lni fe’lga biriktiruvchi vositalar sifatida ravishdosh shakli, kelishiklar va ko‘makchilar xizmat qiladi. Bunda ravishdosh shakllari uchun tobe maqomdagi fe’lning muayyan shaklda kelishi talab etilmaydi. Chunki “o‘zgalovchi kategoriyaning tarkibiy qismidan bo‘lgan ravishdosh shakli bir fe’lni ikkinchi bir fe’lga bog‘lash uchun xizmat qiladi. Bu jihati bilan u kelishikka o‘xshab ketadi” [11:43]. Albatta, bu o‘rinda tilshunoslikda u qadar ommalashmagan “fe’l kelishigi” nazarda tutilmoqda. Anglashiladiki, ravishdosh shakllari fe’lni fe’lga bog‘lovchi eng muhim vositalardan hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Sulaymonova M. Fe’l so‘z turkumi va uning leksik-semantik tasnifi // Oriental Art and Culture Sxientific-methodical journal. Issue 6. 2021. – P.189-190.
2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet. 2006. – 464 b.
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya. 2010. – 404 b.
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ravishdosh

5. Mengliyev B.R., Xoliyorov O‘., Abdurahmonova N., O‘zbek tilidan universal qo‘llanma, - Toshkent: Akademnashr, 2018, 6-nashr. – 222 b.
6. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 399 б.
7. Шоабдураҳмонов Ш. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи. 1980. – 451 б.
8. Замонавий ўзбек тили. Морфология. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2008. – 468 б.
9. Abuzalova M., Toirova G. Hozirgi o‘zbek tili (Morfologiya). – Toshkent: Tafakkur avlodi. 2020. – 128 b.
10. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yo‘ldosheva D. Hozirgi o‘zbek tili. – Buxoro: Durdona.2021. – 555 b.
11. Неъматов Ҳ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 43.

SHE’RIY GAPLARDA RITORIK MUROJAAT GAPLARNING O‘RNI

(XURSHID DAVRON SHE’RIYATI MISOLIDA).

Yusupova Orziboni Sunnatovna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti,
Qurbonova Muharram Jurabekovna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti
e-mail: muharramqurbonova2@gmail.com

Annotatsiya Ushbu maqolada yoritmoqchi bo‘lgan ritorik murojaat she’riy san’ati borasida ham yuqorida zikr qilingan o‘tmish va davrimiz olimlarining yozgan ilmiy-nazariy xarakterdagi kitoblarida ma’lumotlar, fikrlar, izohlar aytilgan. Ritorik murojaat gaplar badiiy uslubda shoir nutqini jonli nutqqa yaqinlashtirishda foydalaniladi.

Kalit so‘zlar: Ritorika, ritorik murojaat, ritorik so‘roq, she’riyat, poetika, badiiylik, ritm, matn, undov, ruhiyat.

Annotation Regarding the poetic art of rhetorical appeal, which we want to cover in this article, there are information, opinions, and comments in the scientific-theoretical books written by the above-mentioned scientists of the past and our time.Rhetorical address sentences are used in artistic style to bring the poet's speech closer to live speech.

Key words: rhetoric, rhetorical appeal, rhetorical question, poetry, poetics, artistry, rhythm, text, appeal, spirituality.

Аннотация Относительно поэтического искусства риторического обращения, которое мы хотим осветить в данной статье, сведения, мнения и комментарии имеются в научно-теоретических книгах, написанных вышеупомянутыми учеными прошлого и современности. Риторические обращения-предложения используются в художественном стиле для приближения речи поэта к живой речи.

Ключевые слова: риторика, риторическое обращение, риторический вопрос, поэзия, поэтика, художественность, ритм, текст, обращение, духовность.

Ritorik murojaat san’ati ko‘rinishi hamda bayon qilish uslubiga ko‘ra, xalqona, so‘zlashuv uslubiga yaqin bo‘lib, uning mazmun va mohiyatida ijodkorning badiiy-estetik tafakkuri, his-tuyg‘ulari, falsafiy fikrlari, bayonoti, mualliflik huquqi masalasi kabi jihatlar aniq va ochiq tarzda ifodalanadi. “Ritorik murojaat – nido va xitob tarzidagi murojaat, stilistik usullardan biri. Ritorik murojaat ham ritorik so‘roq singari she’riy ritmik nutqda intonatsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi”. Yoki navoiyshunos olim Yoqubjon Isoqovning mazkur san’at haqidagi fikrlariga murojaat qilsak: “Ritorik murojaat – qadimgi davrlarda (Yunon-Rim) notiqlik san’atining muhim jihatlaridan biri bo‘lgan. Ritorik murojaat badiiy adabiyotda uslubning hissiyligini ta’minlovchi omillardan

biriga aylangan”.[94] Ko‘rinib turibdiki, ritorik murojaat she’riy matnning badiiyatini belgilovchi san’at turi sifatida zamonaviy va mumtoz adabiyotda xitob, nidoni vujudga keltirsa, tilshunoslikda ham sintaktik xususiyatini ochib beruvchi o‘laroq qaraladi.

Shoir X.Davronning “Bahordan bir kun oldin” she’riy to‘plamida ritorik murojaat gaplar ko‘p qo‘llangan. Masalan, “Kechqurun yo‘l bosib” she’rida ritorik murojaat bir qarashda insonga qilinganday tuyiladi, ammo u oyga nisbatan aytilgan hisoblanadi:

“Ey, oshnam, yolg‘iz oy, bormisan omon,
Seni sog‘ingandim, seni deb keldim”.

Yuqoridagi she’rda muallif oyga nisbatan, “ey, oshnam” undalmasini qo‘llaydi. Bugunga qadar mumtoz she’r namunalarida, “ul hilol, “ey hilol” tarzda oy so‘zi orqali yorga murojaat qilingan bo‘lsa, shoir yangicha undash turini qo‘llaydi, ya’ni aynan oyning o‘ziga murojaat qiladi, hamda uni oshnam deb ataydi. Bu ritorik murojaat orqali shoir o‘z ruhiy kechinmalarini ifodalashga harakat qiladi. O‘zining ham tunlari bedor ekanligini, ham bu bedor tunlarda tanho ekanligini isbotlash tariqasida oy bilan suhbatni matnga kiritadi.

Yoki, “Biz sen bilan yashaymiz uzoq” she’rida:

“Nastaringa deymiz: Ey, ko‘kat
Yashamoqni sen bizga o‘rgat”

Shoir she’rlarida qo‘llangan murojaat gaplarni tahlil qilar ekanmiz, yana bir okkazional ritorik murojaat gapga ko‘zimiz tushadi. Ritorik murojaat gaplarning qo‘llanilishi qadim adabiyot namunalariga borib taqalsa ham, ularning o‘rganilish salmog‘i yangi ahamiyat kasb etaveradi. Chunki zamon o‘zgarar ekan, u bilan hamnafas yashagan o‘qirman tilni sinxronik tarzda o‘rgana boshlaydi. Bugungi kunning nafasini, hayot, turmush, xalqchillikni ochib berish uchun ham shoir chapani, o‘ziga xos murojaatlarni qo‘llay boshlaydi. Masalan, an’anaga ko‘ra gulga “gul” deya murojaat etilmaydi, chunki gulning o‘zi ko‘chma ma’noda yor orazini ifodalaydi. Agarda jonsiz predmetlarga, masalan, yuqoridagidek gulga murojaat etilganda “ey, gul”, “ey, sunbul” va hokazo murojaatlar aytilishi mumkin edi. Ammo, shoir real voqelikka murojaat etar ekan, “ey, ko‘kat”ni tanlaydi. Nastarin guli umuman olganda, nafosat, samimiylik timsoli bo‘lgani uchun va bugungi kun insonlari hatto shu o‘simlikchalik ba’zi hislatlarga ega emasligini kinoya bilan ta’kidlash uchun ham o‘quvchi diqqatini tortgan holda bu murojaat usulini ishlatadi.

“Hoji Abdulaziz haqida qo‘shiq” she’rida:

“O, Hoji bobo sasi,
Naqadar g‘amgin, mahzun.
Bu ovozning nafasi
Hofiz umridan uzun.
O, Hoji bobo sasi –
Yovshangullar nafasi…”

Shoir yuqoridagi she’rda yana bir murojaat gapni mahurat bilan qo‘llaydi. U insonga emas, balki uning “sas”iga undalmani tashlaydi.

“Kechir, asrim” she’rida:

“Kechir, asrim,
Senga inonmay
Sen toptagan dinga inondim”.

Keyingi paytda esa aynan shu asr so‘zi yana murojaat olgan, ammo bu safar boshqacha ohangda, yuqorida kechirim so‘ragan asrga, do‘q bilan murojaat qiladi. Bu ham bir matn tarkibida ritorik murojaat gaplardan o‘ziga xos tarzda foydalanishdir.

“Hey, sen asr,
Sen ham ulardan

---

[94] Rajabova B. Nedur ahvoling, ey zori g‘aribim... yoxud Navoiyning “Farhod va shirin” dostonida norozilik notasi, bayonoti bitilgan ritorik murojaatlar qanday bo‘lgan? Yangi O‘zbekiston. 2022, N24.

Endi kutma shafqat, diyonat”.

Yoki, boshqa bir she’rida:

“Hey, esi past, – deyaman, – hovlida
Yashasang-chi, bu o‘yingdan qayt!”

“Umuman olganda, Alisher Navoiy o‘z lirikasida ham, “Farhod va Shirin” dostonida ham yuksak mahorat bilan qo‘llagan ritorik murojaat san’atini ikki turga tasnif qilib o‘rganish maqsadga muvofiq:

1. Alisher Navoiy qo‘llagan Olloh, Yo Rab, falak, soqiy, mug‘anniy, sabo, shabboda, yel, nasim, oshiq, ma’shuqa, raqib, Atorud (Utorid, Tir) kabi an’anaviy xarakterdagi ritorik murojaatlar.
2. Alisher Navoiy o‘zi yaratgan, ya’ni “oliy va navoiyona” uslubga xos bo‘lgan Qaro ko‘zim, Surush, Hotif (farishtalar), so‘z, qalam, kilk, siyohdon, dunyo, olam, jahon, gardun, nigoro, mahvasho, ko‘zyosh, ajal, g‘am, ishq, Navoiy, Foniy singari yangicha talqindagi poetik murojaatlar” – deya ta’kidlaydi B.Rajabova. Bundan kelib chiqadiki, murojaat gaplarning ham individual qo‘llanilish chegarasi, uslubi, davri mavjud. Shoir o‘z ruhiy kechinmasidan, yashash muhitidan kelib chiqib ma’no ifodalovchi birliklardan birini tanlab yoki ixtiro qilib qo‘llaydi. Shoir X.Davron she’rida ham yuqorida qo‘llangan xususiy murojaat gaplar: “Ey, ko‘kat”, “Ey,sas”, “hey, asr” ko‘rinishlari bilan birga hozir biz tahlil qiladigan an’anaviy murojaat gaplari ham mavjud. Masalan, “Do‘stim dedi” she’rida:

“Nogoh to‘xtab qayrilib boqdi:
Men Bolani, do‘stim, tanidim”

Yoki, “Erk guli” she’rida ham:

“ – O, bolajon,bu sirni bilsang,
G‘am kelaru diling qisadi –
U gul erk deb jon bergan erlar
Mozorlari uzra o‘sadi”.

Xulosa shuki, ritorik murojaat san’ati X.Davron eng ko‘p qo‘llagan she’riy san’atlardan biridir. Birinchidan, ruhiyat tasvirini, ijtimoiy mavqeini, holatini tasvirlash bo‘lsa, ikkinchidan, shoir an’anaviy va o‘ziga xos ritorik murojaatlardan mahoratli foydalangan. Demak, mazkur she’riy san’at shoirning poetik mahoratidan darak beruvchi, tilimizning boyligini, uning birliklarini ko‘rsatuvchi xalqona uslubdagi muhim badiiy vositalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. –Т.: Фан, 2008. –Б.27.
2.Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари.–Самарқанд. 1994. –Б 59.
3.Каримов С.Бадиий матннинг услубий аломатлари. –Самарқанд: СамДУ, 1992. –Б47.
4.Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Жиззах: Сангзор, Б. 55.
5.Ҳакимов М.Х. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. н-ди …дисс._-Тошкент ,1993. 17, 18, 21 – бетлар.
6.Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент. 2002. Б. 61.

ОНТРАСТИВНАЯ ЛИНГВИСТИКА И ТИПОЛОГИЯ

Расулова Истода Абдулатифовна,
Самаркандский государственный
архитектурно-строительный университет,
доктор филологических наук (PhD)
e-mail: istoda.87@gmail.com
Самаркандский государственный
архитектурно-строительный университет
студент 1 курса
Абдурахмонов Достон

Аннотация: *исследуются разные методы анализа языков, направленные на выявление сходств и различий между языковыми системами. Для этого рассматриваются трактовки понятий «сопоставительный», «контрастивный», «конфронтационный», «сравнительный». Аргументируется необходимость создания метаязыка в качестве стандарта для выявления фундаментальных особенностей организации языковых систем.*

Ключевые слова: *контрастивная лингвистика, грамматическая конрастивная лингвистика, главная цель грамматической конрастивной лингвистики, язык-эталон.*

Abstract: *various methods of language analysis are explored, aimed at identifying similarities and differences between language systems. For this purpose, interpretations of the concepts "comparative", "contrastive", "confrontational", "comparative" are considered. The need to create a metalanguage as a standard for identifying the fundamental features of the organization of language systems is argued.*

Key words: *contrastive linguistics, grammatical contrastive linguistics, main goal of grammatical contrastive linguistics, standard language.*

Annotatsiya: *til tizimlari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashga qaratilgan til tahlilining turli usullari rganiladi. Shu maqsadda "qiyoslash", "kontrastiv", "qarama-qarshilik", "qiyoslash" tushunchalarining talqini ko'rib chiqiladi. Til tizimlarini tashkil etishning asosiy xususiyatlarini aniqlash uchun standart sifatida metatilni yaratish zarurati ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: kontrastiv tilshunoslik, grammatik kontrastiv tilshunoslik, grammatik kontrastiv tilshunoslikning asosiy maqsadi, etalon til.

Контрастивная лингвистика – это область лингвистики, которая сравнивает и анализирует различия и сходства между языками с целью выявления и описания их структурных особенностей. Основной задачей контрастивной лингвистики является выявление различий в грамматике, фонетике, лексике и других аспектах языка между различными языками. Это позволяет лучше понять особенности каждого языка и помогает изучающим языки разработать эффективные методики обучения и перевода.

Контрастивная лингвистика исследует, как различные языки структурированы и функционируют, а также как этот фактор влияет на восприятие и понимание языка при его изучении или переводе. Ее целью является выявление общих и уникальных характеристик различных языков, а также анализ проблем и ошибок, которые могут возникнуть при использовании одного языка для обучения или перевода другого, «контрастивная лингвистика» в своего рода идиоматическое выражение, а само прилагательное «контрастивный» – в особый лингвистический термин со значением «относящийся к сопоставительному изучению разных языков» [1, с. 353]

В рамках контрастивной лингвистики изучаются различные аспекты языка, такие как фонетика, морфология, синтаксис, лексика, фразеология и просодия. Исследователи в данной области анализируют перекрестные различия между языками, чтобы определить, какие особенности одного языка отсутствуют или отличаются в других языках. Это может оказать значительное влияние на обучение и перевод, так как знание этих различий помогает снизить ошибки и недоразумения, возникающие при передаче информации между языками. Тем не менее, случаи чисто контрастивного описания языков встречаются достаточно часто в практических грамматиках. Обычно это делается с целью выявления особенностей изучаемого иностранного языка, которые отсутствуют в родном языке обучаемого. Например, в большинстве пособий по немецкому языку отмечается, что немецкий глагол имеет три формы прошедшего времени, в отличие от одной формы в русском языке. Это позволяет студентам усвоить различия в значениях, связанных с этими формами. Однако такое чисто утилитарное сравнение недостаточно, так как в реальности в русском языке

существует не одна, а две формы прошедшего времени (совершенного и несовершенного вида), семантика которых отличается от представленного в западных языках значения временной отнесенности. Это означает, что вместо "сугубо контрастивного" подхода к языкам уместнее использовать "характерологический" подход, который позволяет представить немецкую и русскую системы временных глагольных форм соответственно как таксисно-временную и видо-временную. Однако при таком подходе следует помнить, что все языки обладают определенным фундаментальным сходством как средства передачи информации об окружающей действительности, несмотря на различия в их системах. Недостаточность исключительно контрастивного подхода к описанию языков для разработки методики обучения одному из них была объяснена в свое время Г. Хельбигом. Он подчеркнул, что ошибки при изучении второго языка возникают не только из-за различий между языками, но также из-за их сходств. Такой комплексный подход к языкам, учитывающий как их различия, так и сходства, Г. Хельбиг назвал "конфронтативной лингвистикой"[2, с. 9]. Это более точно определяет суть методики лингвистического анализа, по его мнению. Другими словами, конфронтативная лингвистика, рассматривая контрасты языков в контексте их сходств, как бы включает в себя контрастивный подход.

Контрастивная лингвистика также играет важную роль в разработке методик обучения и перевода. Ее результаты помогают выявить наиболее эффективные способы сравнительного анализа и изучения языков, что способствует более глубокому пониманию и овладению языком.

В целом, контрастивная лингвистика позволяет ученым и языковедам лучше понять особенности каждого языка и его взаимосвязь с другими языками. Она является важным инструментом в изучении и анализе языковых явлений, а также в обучении и переводе.

Как кажется, характерологический подход противопоставляется прежде всего универсологическому, направленному на установление конечного перечня всеобщих свойств открытого множества языков. При этом универсология и характерология предстают как два базисных раздела типологии в широком смысле слова, над которыми «надстраивается» использующая их данные классификация языков – систематология [5, с. 3–4; 6, с. 31–32].

Грамматическая конрастивная лингвистика — это подраздел лингвистики, изучающий грамматические различия между языками с целью понять, как они отличаются в своих структурах и функциях. Она основывается на сравнительном анализе грамматических систем разных языков для выявления общих и отличительных черт.

Главная цель грамматической конрастивной лингвистики — изучение универсальных и специфических особенностей грамматических структур различных языков. Это помогает установить общие закономерности и различия между языками, а также понять, как эти различия влияют на процесс коммуникации и восприятия информации.

Грамматическая конрастивная лингвистика основывается на сравнении между двумя или более языками. Она анализирует различные аспекты грамматики, такие как морфология (словообразование и грамматические категории), синтаксис (порядок слов, структура предложений) и семантика (значения и взаимоотношения слов и фраз).

Сравнение грамматик разных языков позволяет выявить типологические различия между ними. Такие различия могут касаться, например, строения предложений (активный или пассивный залог), образования и употребления времен и наклонений, обязательности или необязательности глагольного склонения и др.

Грамматическая конрастивная лингвистика важна не только для академических исследований, но и для приложений в практической лингвистике. На основе сравнительного анализа грамматических систем разных языков можно разрабатывать учебные материалы для

изучения иностранных языков, адаптировать переводы и улучшать машинный перевод. Также она может помочь в разработке методик обучения иностранных языков, учитывая особенности грамматики каждого языка.

Грамматическая конрастивная лингвистика является важным инструментом для понимания грамматической структуры языков и связанных с ними языковых процессов. Она помогает раскрыть механизмы функционирования языков, а также понять и объяснить различия между ними.

Главная цель грамматической конрастивной лингвистики заключается в понимании особенностей грамматических структур и функций разных языков. Этот подраздел лингвистики основывается на сравнительном анализе грамматических систем различных языков в целях выявления общих и отличительных черт.

Грамматическая конрастивная лингвистика исследует универсальные и специфические особенности грамматических структур разных языков, что позволяет определить общие закономерности и различия между языками. Это также помогает понять, как эти различия влияют на коммуникативный процесс и восприятие информации.

Сравнительный анализ проводится между двумя или более языками, где анализируются различные аспекты грамматики, такие как морфология (образование слов и грамматические категории), синтаксис (порядок слов и структура предложений) и семантика (значения и взаимоотношения слов и фраз).[3, с.5]

Сравнение грамматик разных языков помогает выявить типологические различия между ними. Эти различия могут касаться структуры предложений (активный или пассивный залог), образования и использования времен и наклонений, обязательности или необязательности глагольного склонения и других аспектов.

Грамматическая конрастивная лингвистика важна не только для научных исследований, но и для практического применения. Она позволяет разрабатывать учебные материалы для изучения иностранных языков, адаптировать переводы и улучшать машинный перевод. Кроме того, она помогает разрабатывать методики преподавания иностранных языков, учитывая грамматические особенности каждого языка.

Грамматическая конрастивная лингвистика является важным инструментом для понимания грамматической структуры языков и связанных с ними языковых процессов. Она помогает раскрыть механизмы функционирования языков и объяснить различия между ними.[4. с,3]

Примеры контрастивного сопоставления грамматики узбекского и русского языков:

1. Форма множественного числа:
    - Узбекский: kitoblar (книги)
    - Русский: книги

Интерференция: В узбекском языке плюрализацию существительного обозначает суффикс -lar, в то время как в русском языке использование плюрализованной формы существительного зависит от контекста.

2. Отрицание:
    - Узбекский: Gulni olib keldingizmi? Yq, olib kelmadim. (Вы принесли цветы? Нет, не принес.)
    - Русский: Вы принесли цветы? Нет, не принес.

Интерференция: В узбекском языке для отрицания используется отрицательная частица "йўқ", которая примыкает к глаголу. В русском языке отрицание выражается словом "нет", после которого следует глагол.

3. Падежи:
    - Узбекский: kitobni olmoq (брать книгу)
    - Русский: брать книгу

Интерференция: В узбекском языке для выражения дополнения используется падежный суффикс "-ни", в то время как в русском языке падежи не используются в подобных случаях.

4. Прилагательные:
    - Узбекский: katta uy (большой дом)
    - Русский: большой дом

Интерференция: В узбекском языке прилагательные относятся к определенным классам, и их форма меняется в зависимости от существительного, к которому они относятся. В русском языке прилагательные не меняются в зависимости от существительного.

Интерференция возникает при переходе из одного языка в другой, когда говорящий не осознанно вносит элементы одного языка в другой. Например, в примере говорящий на узбекском языке мог бы сказать "kartani olmoq" (брать карты), по аналогии с узбекской грамматикой, но с использованием русских слов.

В языке существуют два основных аспекта: система языка и ее проявление в речи. Система языка включает в себя все языковые элементы, такие как звуки, приставки, слова, грамматические и лексические правила. Она позволяет нам говорить и понимать друг друга, так как все люди из речевого сообщества владеют этой системой. Речь, в свою очередь, состоит из высказываний и текстов. Она основана на системе языка, и именно благодаря этому лингвисты могут изучать систему языка. Речь можно рассматривать как последовательность высказываний, в то время как система языка относится к его структуре и правилам.

ЛИТЕРАТУРА

1. Крысин Л. П. Толковый словарь иноязычных слов : около 25000 слов и словосочетаний / Л. П. Крысин. – М. : Русский язык, 1998. – 848 с.
2. Helbig G. Zur Rolle des kontrastiven Sprachvergleichs für den Fremdsprachenunterricht (Möglichkeiten, Voraussetzungen, Grenzen) / G. Helbig // Deutsch als Fremdsprache. – 1976. – H. 1. – S. 9–16.
3. Rasulova, I. (2023). KONTRASTIV LINGVISTIKANING XUSUSIYATLARI VA UNING CHET TILI O ‘QITISHDA AMALIY QO ‘LLANISHI. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (7), 458-463.
4. Rasulova, I. (2023). CONTRASTIVE LINGUISTICS AND THE PHENOMENON OF INTERFERENCE. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА*, *4*(2).
5. Зеленецкий А. Л. Структура современной типологии и основные принципы сопоставительного описания языков / А. Л. Зеленецкий // Сопоставительные исследования семантического взаимодействия единиц разных уровней в системе немецкого и русского языков : межвузовский сборник научных трудов. – Тула, 1986. – С. 3–11.

6. Зеленецкий А. Л. Сравнительная типология основных европейских языков / А. Л. Зеленецкий. – М. : Академия, 2004. – 252 с.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA BIOLOGIYANI O‘QITISHDA LUG‘AVIY TER MINLARDAN FOYDALANISHNING O‘RNI

Navoiy davlat pedagogika instituti
Malikova Ayzada Raxmatovna

Annotatsiya Maqolada o‘zbek adabiy tili qurilishida terminologiyaning o‘rni, terminologiyaning til lug‘ati tarkibidagi roli, terminlar ta’rifi, biologiya fanlarining rivojlanishida ilmiy terminlarning ahamiyati, bugungi kunda biologiyadan terminologiya sohasida olib boriladigan sohasidagi ilmiy izlanishlar, ya’ni biologik terminlarni tartibli holatga keltirishning asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Terminologiya, ilmiy terminlar, tilning mustaqil funksional turi, terminlar ta’rifi, leksik birliklar, tabiiy fanlar nomenklaturasi, umumiste’mol terminologik qatlam.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish” va “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”dan kelib chiqqan holda o‘zbek terminologiyasi sohasining predmeti, maqsadi va vazifasini yoritish, fan doirasida o‘rganiladigan bosh masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, talabalarda terminologiyaning maxsus ilmiy-texnikaviy ma’nolarni ifodalovchi termin yoki so‘z birikmalari tizimi, uning muayyan adabiy til so‘z boyligida albatta mavjudligi, barcha fanlar asosida, jumladan biologiya sohasidagi terminlarni tartibga solish, muvofiqlashtirish, terminologik tadqiqotlar, terminologik lug‘atlar borasida ma’lumot berish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili qurilishida terminologiya alohida o‘rin turadi. Terminologiyaning til lug‘ati tarkibidagi roli haqida ikki dunyoqarash mavjud. Birinchi g‘oyaga ko‘ra, terminologiya adabiy til leksikasining mustaqil qatlam tarzida e’tirof etilsa, ikkinchi ta’limotga muvofiq u adabiy til so‘z boyligi tarkibidan ajratiladi, “alohida turuvchi” obekt tarzida baholanadi va nutqning turlari (sheva, jargon, jonli so‘zlashuv)ga tenglashtiriladi. V.P.Danilenkoning ta’kidlashicha, terminologiya deganda umumadabiy tilning mustaqil funksional turi, ya’ni an’anaviy fan tili (fan,ilm yoki texnika tili) nazarda tutiladi.

Fan tili umumadabiy tilning funksional sistemalaridan biri sifatida jonli so‘zlashuv tili va badiiy adabiyot tili tushunchalari bilan bir qatorda turadi. Fan tili millatning umumadabiy tili asosida shakllanadi va rivojlanadi. Shu bois fan, ilm tili poydevorini umumadabiy tilning leksikasi, so‘z yasalishi va grammatikasi tashkil qiladi.

X.Xyuellning qayd etishiga ko‘ra, terminologiya muayyan fanga oid terminlar yoki texnika sohasida qo‘llanadigan so‘zlar yig‘indisidir. Biz terminlar ma’nosini qayd etish orqali ular ifodalaydigan tushunchalarni ham qayd etamiz. Termin so‘zini turlicha tushunish mavjud. Chunonchi, mantiqshunos(logik)lar uchun termin-aniq obektga tegishli tavsif (yoki tavsiflar) yig‘indisini nazarda tutuvchi va unda tatbiq etiluvchi so‘z hisoblanadi. Har qanday tildagi istalgan so‘z termin bo‘lishi mumkin.

Biologiya fanlaridagi har qanday rivojlanish, taraqiyot ilmiy terminlarning yuzaga chiqishi yoki oydinlashishidan darak beradi. Termin ta’rifi xususida ilmiy adabiyotlarda ko‘pdan-ko‘p mulohazalar bildirilgan. Deyarli barcha ta’riflarda termin maxsus ilmiy texnikaviy tushunchani ifodalovchi so‘z yoki so‘z birikmasi tarzida tavsiflanadi.

A.S.Gerdning mulohazasiga ko‘ra termin ilm-fan taraqqiyotining muayyan bosqichida mavjud tushunchalarning asosiy xususiyatlarini aniq va to‘laligicha aks ettiruvchi maxsus terminologik ma’noga ega tabiiy va sun’iy til birligi, ya’ni so‘z yoki so‘z birikmasidir.

O.S.Axmanovaning ta’kidlashicha, terminologiya qaysidir fan o‘z taraqqiyotining oliy darajasiga erishgandagina yuzaga chiqadi, ya’ni termin muayyan tushuncha aniq ilmiy ifoda kasb

etgandan so‘ng tan olinadi. Terminni notermindan farqlashning muhim vositasi uni ilmiy asosda ta’riflashning mumkin emasligidadir.

V.G.Gak terminning ta’rifini berish qatori, uning mohiyatini ochadi va terminning biror bir til so‘z boyligidagi o‘rnini belgilaydi. U ilmiy ishlarda terminga lug‘aviy birliklarning alohida turi tarzida qaralishiga e’tiroz bildiradi hamda termin-funksiya, leksik birliklar qo‘llanishining bir ko‘rinishi, degan g‘oyani ilgari suradi [Gak 1998. –. 768 p.].

Nomenklatura terminologiyaga nisbatan yangi kategoriya hisoblanadi. Har qanday soha nomenklaturasi shu sohaga oid barcha tur nomlarini o‘zida mujassam etadi. Ularning miqdori haddan ortiq darajaga yetganda, maxsus strukturani taqozo etadi. Masalan, hozirgi kunda 200 mingdan ortiq o‘simlik turlarining har biriga alohida nom qo‘yishga urinish befoyda, buning imkoni ham yo‘q.

Insoniyatning tabiatni bilish, anglash bosqichlarini o‘zida aks ettiruvchi tabiiy fanlar nomenklaturasidan inson tomonidan kashf etiladigan, yaratiladigan (ishlab chiqarish nomenklaturasi) texnik nomenklatura, shuningdek, xaridorbop tovarlar bilan ta’minlash, ularni sotish maqsadida maxsus yuzaga chiqariladigan savdo-sotiq nomenklaturasini farqlash lozim bo‘ladi.

Garchi har uchala nomenklatura ham manfaatdor subyektlar tomonidan yaratilsa-da, biroq ular turli asos, turli maqsad va turli prinsiplar negizida voqelanadi.

Ilmiy bilish nomenlarining inson tomonidan yaratilgan ilmiy texnikaviy nomenlardan farqi shundaki, ilmiy nomenlar tabiatda mavjud bo‘lsa, ikkinchisi tabiatda mavjud emas. Kashfiyotchi tomonidan yaratilgan narsa-buyumlar uchun nom xalq tilidan olinmaydi (samolyot, vezdexod, samokat kabi birliklar bundan mustasno). Ushbu kategoriyalar, ya’ni nomenlarni ifodalovchi so‘zlar o‘z yoki chet tillardagi leksemalarga tayanilib, sun’iy ravishda yaratiladi, bunda harf va raqamlar indeksatsiyasi alohida ta’kidlanadi: “Moskvich-412”, “MAZ 15”, “Tu-144”, “Mig-29”, “Su-34”, “T-90” va h.k.

Terminologiya masalalariga qaratilgan ayrim ishlarda termin-atama istiloh so‘zlaridan sinonimik uya tarzida foydalaniladi. Sir emaski, o‘zbek tiliga davlat maqomi berilgandan keyin ba’zi subyektiv nuqtayi nazarlar natijasida termin o‘rnida atama derivatini qo‘llash faollashdi.

Terminga xos belgilardan biri uning izohi va ta’rifiga oydinlik kiritish, terminning ma’noviy qurshovida mavjud qo‘shimcha semalarni yuzaga chiqarish ilm-fan tilining rivojlanishida, biologiya sohasiga oid terminologik tizimlar tarkibida yaqqol seziladi. Bugungi o‘zbek terminologiyasining boyishida yuqorida zikr etilgan jihatlar hamon ustunlik qilmoqda. O‘z qatlamning salmoqli o‘rni qatori, o‘zlashmalarning ham sezilarli mavqei saqlanib qolmoqda. O‘zlashmalarning til terminologiyasi boyishidagi o‘rnini birgina internet terminlari misolida ko‘rish mumkin. Olib borilgan izlanishlar o‘zbek tili internet terminologiyasining 54% ini o‘zlashmalar, chunonchi, rus tilidan o‘zlashgan internet terminlari 31%, ingliz tilidan aynan o‘zlashgan baynalmilal internet terminlari 23% ni tashkil etishini ko‘rsatgan [Saidqodirova 2018 y].

O‘zbek tilining umumiste’mol terminologik qatlamida bo‘lgani kabi, uning sohaviy terminologiyasi tizimini o‘rganishda ham mavzu-mazmun asosida tadqiq qilish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqot obyekti bo‘lgan umumta’lim maktablarining biologiya darsliklari terminologiyasi tizimi ham bu soha kabi uzoq tarixiy taraqqiyotni bosib o‘tdi. Shu boisdan hozirda to‘plangan biologiya darsliklari terminlari katta miqdorni tashkil etadi. Bu miqdorning o‘zi ushbu soha terminologik tizimining keng qamrovliligi ko‘rsatadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, mazkur terminlarning taxminan 20-30 foizi izohli lug‘atda aks etmagan. Shu bilan qatorda hozirgi kungacha ushbu soha leksikasini o‘z ichiga qamrab olgan birorta terminologik lug‘at tuzilmagan. Bu esa xalqimizning shu sohaga mansub boy lisoniy merosi leksikograflarimiz zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklashini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilining umumiste’mol leksik qatlamida bo‘lgani kabi, uning sohaviy leksikasi tizimini o‘rganishda ham mavzu-mazmun asosida tadqiq qilish katta ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqot obyekti bo‘lgan umumta’lim maktablarining biologiya darsliklari terminologiyasi tizimi ham bu sohaning o‘zi kabi uzoq tarixiy taraqqiyotni bosib o‘tdi va shu boisdan to‘plangan umumta’lim maktablarining biologiya darsliklari sohasi terminlari katta miqdorni tashkil etadi. Bu

miqdorning o‘zi bu soha leksik tizimining keng qamrovliligi va o‘z-o‘zidan ko‘plab mikrotizimlarga egaligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda olib boriladigan terminologiya sohasidagi ilmiy izlanishlar, ya’ni biologik terminlarni tartibli holatga keltirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Maktab o‘quvchilarida biologik terminlar asosida bilim berish, ularning xulq-atvorida, atrof-muhitni anglashda va o‘quv faoliyatida katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Biologiyadan tayyorlangan terminlarning ilmiy nazariy jihatdan yuqori bo‘lishi fanni o‘qitish jarayonida katta ahamiyatga ega. Bu ishlarinng muvofaqqiyati esa ishlab chiqilgan terminalogiyaning o‘rinli va rejali tayyorlanishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Abdullayeva Sh. G‘aznachilik sohasida qo‘llaniladigan moliyaviy-iqtisodiy terminlarning chog‘ishtirma tadqiqi (ingliz, o‘zbek va rus tillari misolida). Filol. fan. bo‘yicha fals. dok. diss. avtoref.-Toshkent, 2018.

2.Abduraxmonov G‘., Shukutov Sh. O‘zbek tilining tarixiy gramatikasi.-Toshkent: O‘qituvchi, 1973.

3.Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. O‘quv qo‘llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

4. Dilfuzaxon Saidqodirova.· Internet terminologiyasining rivojlanishi va vazifalari: qisqartma va nominatsiya. Jurnal. 2018 y.

5. V. G. Gak. – M.: Yazyki russkoy kuL’tury, 1998. –. 768 p. [in Russian].

ЎЗБЕК ТИЛШУНОСЛИГИДА ЯСАМА СЎЗНИ ЎРГАНИШНИНГ МОРФОЛОГИК БОСҚИЧИ.

Асланова Озода Иброҳимовна,
катта ўқитувчи, НавДКТУ
o.aslanova83@gmail.com

Аннотация: Ушбу мақолада ясама сўз, ясовчи ва ясалмалик муносабати, ясама сўздаги шакл ва мазмун муносабати атрофлича ўрганилган. Ясама сўз таркибидаги маъно мустаҳкамловчи омил эканлиги олимларнинг тадқиқотларида белгилаб ўтилган.

Калит сўзлар: агглютинация, флексия, аффиксоид, синхрония, диахрония, грамматик шакл, синтетик шакл, аналитик шакл.

Abstract: This article explores the interconnectedness of morphology (word structure), syntax (sentence structure), and semantics (meaning) in language.In this article, the relationship between morphology, syntax, and semantic relationships in the structure and content of the word is carefully examined. The meaning in the structure of the word is a strengthening factor, as indicated by the research of scholars.

Key words: agglutination, inflection, affixoid, synchrony, diachrony, grammatical form, synthetic form, analytic form.

Аннотация: В данной статье подробно исследуются отношения между искусственными словами, создателями и искусственностью, а также отношения формы и содержания в искусственных словах. В исследованиях ученых указывается, что значение, закрепленное в составе искусственного слова, является укрепляющим фактором.

Ключевые слова: агглютинация, флексия, аффиксоид, синхрония, диахрония, грамматическая форма, синтетическая форма, аналитическая форма.

XX аср ўзбек тилшунослигида морфология соҳасининг тараққиётида йирик олим Саид Усмоновнинг хизмати алоҳида ўрин тутади. С.Усмонов 1953 йилда тилшунос Т.Иброҳимов раҳбарлигида “Ҳозирги замон ўзбек тилида ундовлар” мавзусидаги номзодлик диссертациясини ҳимоя қилган. Бу иш унинг морфологияга оид дастлабки

жиддий иши эди. Шундан сўнг олимнинг морфологияга оид қатор иши нашр қилинди. “Сўз ва унинг морфологик структураси ҳақида” алоҳида қўлланма (1957), “Бош келишик формасида такрорланган сўзнинг семантик ва грамматик хусусиятига доир” (1957), “Баъзи феъл формалари ҳақида” (1963), “Сўз ясовчи аффиксоид” “Ҳозирги ўзбек тилида сўз формаларининг қўлланиш хусусияти ва тил типологияси масаласи” (1964), “Сўзнинг морфологик ва функционал анализи ҳақида” (1965),“Тилларнинг морфологик классификацияси” (1966) ва туркий тилларда агглютинация” (1969), “Ўзбек тилида сўзнинг грамматик формалари” кабилар шулар жумласидан.

С.Усмоновнинг туркий тиллар, шу жумладан, ўзбек тили морфологияси тараққиётини белгилаб беришдаги барча қараши унинг “Морфологические особенности слова в современном узбекском языке” (“Ҳозирги ўзбек тилида сўзнинг морфологик хусусияти”) номли фундаментал тадқиқотида ўз ифодасини топди. Бу иш докторлик илмий даражасини олиш учун ёзилган тадқиқот эди. Ишнинг биринчи боби “Тилларнинг типологик классификацияси ва туркий тилларда агглютинация” деб номланган. С.Усмонов тилни морфологик жиҳатдан таснифлашга эътиборни қаратиб, ушбу масалани ўрганиш Европа тилшунослигида XVIII аср охирида бошланганлигини, шунингдек, ака-ука Шлегел, кейинроқ Штейнталь, ниҳоят, Я.Гримм, А.Шлейхер, А.И.Томсон қарашларида асосий ўрин эгаллаганлигини таъкидлайди. Тилни флектив ва агглютинатив тил тарзида икки гуруҳга ажратиш, флексия ҳамда агглютинациянинг ўзига хос жиҳати бўйича барча қарашларни таҳлил этган тилшунос С.Усмонов “агглютинация” терминини тилшуносликка биринчи марта Лассен олиб кирган бўлса-да, бироқ агглютинация назариясини Ф.Бопп яратганлигини қайд этади. С.Усмонов агглютинацияга ёндашишда алоҳида йўналиш шаклланганлигига алоҳида эътибор қаратади. Чунки, туркий тил морфологиясига оид тадқиқотни амалга оширишда бу масалага аниқлик киритилиши жуда муҳим эканлиги унга маълум эди. Олим агглютинациянинг муҳим хусусияти ҳақида Ф.Боппдан сўнг биринчи йўналиш вакили В. фон Ҳумбольдт ўз қарашини баён қилиб, бу ҳодисанинг 8 та асосий хусусиятини кўрсатиб берганлигини ҳам алоҳида қайд этади.

С.Усмонов иккинчи йўналиш вакили сифатида Фердинад де Соссюрни белгилайди. Фердинад де Соссюрнинг агглютинацияга хос уч хусусиятни кўрсатиб берганлигига урғу беради. У агглютинацияни ўзакка (ёки асосга) кетма-кет, бир занжирга боғланишнинг аъзоси, қисми тарзида қўшимчанинг қўшилиб келиши сифатида ва, шунга асосан, грамматик маънонинг ифодаланишини баҳолаган учинчи йўналиш вакилларига алоҳида эътибор қаратиб, А.Шлейхер, В.А.Богородский, В.В.Радлов каби олимларнинг қарашларига ўз муносабатини билдиради.

С.Усмонов сўзнинг грамматик шаклига алоҳида эътибор қаратди. Маълумки, морфология, аслида, грамматик шакл ҳақидаги таълимотдир. Сўз шакл, грамматик шакл, синтетик ва аналитик шакл ҳақида муҳим фикр айтган олим грамматик маъно ва функцияси бўйича сўз шакл кўринишини белгилайди.

Сўз шаклнинг ўзбек тилидаги қўлланиш хусусиятини чуқур ўрганган С.Усмонов унинг тил типологиясига алоқадор жиҳатини ҳам кенг ёритиб беради.

Хуллас, йирик туркийшунос, ўзбек тилшунослиги, айниқса, морфология соҳаси бўйича жиддий тадқиқот олиб борган С.Усмонов ўзининг кўплаб тадқиқоти билан тилшунослик, жумладан, ўзбек тили морфологиясининг ривожланишига катта ҳисса қўшди. XX аср иккинчи ярми ўзбек тилшунослигини, айниқса, морфология соҳаси тараққиётини Саид Усмонов қарашларисиз тасаввур қилиш қийин.

XX аср ўзбек тилшунослигининг морфология соҳасида В.В.Решетов, Е.Д.Поливанов, А.Н.Кононов, С.Н.Иванов, А.М.Шчербакнинг асарлари илмий-амалий ҳамда методик асос вазифасини ўтайди. Бу борада, албатта, В.В.Решетовнинг “Ўзбек тили фонетикаси ва грамматикаси асоси” (1960) китобининг ўрни алоҳида эканлигини таъкидлаш зарур.

Ўтган асрнинг 50-йилларида О.Қосимхўжаева, А.Мадвалиев, А.Хўжаев, З.Маърупов, С.Фердаус, С.Фузаилов, А.Сулаймонов каби олимлар ўзбек тилшунослигининг морфология соҳаси тараққиётига катта ҳисса қўшган бўлса, 60-йилларга келиб, А.Ғуломов,

А.Боровков билан ҳамкорлик қилган машҳур турколог А.Н.Кононов бу соҳада катта изланишлар олиб борди.

Туркийшунослик ва ўзбек тилшунослигида XX асрнинг 50-йилларидан бошлаб, сўз ясалишининг асосий масалалари бўйича муҳим тадқиқотлар орасида А.Ғ.Ғуломовнинг асарлари ўзининг теран фикрлари, янги илмий хулосаларга бойлиги билан ажралиб туради. Жаҳон тилшунослигида қўлга киритилган ютуқлардан фойдаланган ҳолда, бой илмий-тарихий манбаларимиз, бадиий асарлар, халқ оғзаки ижоди ва шева далилларини ўзига хос илмий услуб ва тафаккур, заковат билан тадқиқ этган олим умумтилшунослик ривожига улкан ҳисса қўшганлиги кейинги йиллардагина эътироф этилмоқда. Бу эътироф тилшуносликнинг бошқа соҳалари қатори, том маънода, сўз ясалиши соҳасига ҳам тааллуқлидир.

А.Ғ.Ғуломов сўз ясалишининг марказий тушунчаларидан бири – сўз ясалиши мотивацияси тушунчасига алоҳида эътибор қаратган. Маълумки, сўз ясалиши назарияси ўз тараққиётида морфологик, сўнг структур-семантик, XX асрнинг 70-йилларидан бошлаб, синтактик трансформацион, номинатив-ономасиологик, функционал каби босқичларни ўтади.[95]

Морфологик босқич доирасида сўз ясалиши масалалари морфемалар ўринлашиши, ўзаро боғланиши нуқтаи назаридан қаралиб, ўзак, негиз тушунчаларидан кенг фойдаланилган. Иккинчи босқич – структур-семантик босқич доирасида ясама сўзда шакл (ташқи томон) ҳамда мазмун (ички томон) муносабати кенг муҳокама қилинди, сўз ясалиши таҳлили, морфем таҳлил, кейинроқ морфологик таҳлил тамойиллари кўрсатилди (бу ўринда С.Усмонов, Ш.Раҳматуллаев, А.Ҳожиев каби етакчи олимларимизнинг хизматларини ҳам таъкидлаш жоиз деб биламиз). А.Ғуломовнинг илмий изланишларида сўз ясалиши тизим сифатида қаралиб, мотивация масалаларини изоҳлаш учун махсус “сўз ясалиш муносабати” тушунчаси ишлатилади.

Қиёсий-тарихий тилшунослик тизимида сўз ва шакл ясалишининг муҳим масалаларини ривожлантирган ва янги йўналишлар очган И.А.Бодуэн де Куртэне, Н.В.Крушевский, М.М.Покровский, А.А.Потебня каби олимларнинг ишларида ясовчи ва ясалмалик муносабати, ясама сўздаги шакл ва мазмун муносабати атрофлича ўрганилган. Ясама сўз таркибидаги маъно мустаҳкамловчи омил эканлиги бу олимларнинг тадқиқотларида белгилаб берилган. Айни ҳодисага нисбатан “аналогия” (И.А.Бодуэн де Куртэне), “соддаланиш”, “морфологик қайта бўлиниш” (А.А.Потебня) каби атамалар хосланган. А.Ғ.Ғуломов бу хил ҳолатларга нисбатан қуйидагича баҳо беради: “...сўзнинг маъноси унинг таркибидаги қисмларнинг семантик хусусияти билан боғлиқ” деган фикр ҳамма вақт ҳам шу қисмларнинг маъноси йиғилиб, ўша сўзнинг маъносини ҳосил қилади, шунга тенг бўлади, деган мазмунни англата бермайди”. Масалан, *сувоқ, сувоқчи, сувоқчилик* каби ҳолатларда ясалманинг маъноси қисмларининг маъносидан туғилса, *андаваламоқ* сўзининг “хаспўшламоқ” маъноси сўз қисмларидан англашилган маънодан бошқачароқ кўринишни олган.

Сўз ясалиши, олимнинг фикрича, “бир вақтлилик” (синхрония) муносабатига таянади, “ҳар вақтлилик” (диахрония) эса даврлар бўйича ўзгариш, тараққиётни тушунтиришда ишлатиладиган тамойиллар мажмуидан иборат: “Ҳар қандай ясалма (ҳосил қилинган – ясалиб чиққан элемент) дастлабки (бирламчи) эмас, балки кейинги (иккиламчи) ҳодисадир: у бошқа бир ҳодисага тобе (маъно ва бошқа жиҳатлардан), унинг семантик ва структурал хусусиятлари ўша дастлабки ҳодиса орқали аниқланади. Сўз ясалиши таҳлилида тарихий, яъни диахроник фактлар зарур бўлиб қолган ўринларидагина қиёс учун келтирилади, ҳисобга олинади, лекин асосга олинмайди. А.Ғ.Ғуломовнинг ишларида умумий тилшуносликдаги “тилнинг ички формаси” (В. фон Ҳумбольдт), “сўзнинг ички формаси” (А.А.Потебня) ҳодисаларига ҳам муносабат билдирилиб, ясама сўзнинг пайдо бўлиш сабаблари, унинг мотивация асослари қайд

[95] Ғуломов А. Ғ. Морфология (кириш). II томлик, I-том, Т.: 1975. –Б. 36-43.

этилади: “Янги сўз ҳаётнинг талаби билан туғилади. Бу талаб жамиятнинг шу билан алоқадор ҳолда онгнинг тараққиётига боғлиқ... у ҳамма янгиликларнинг, динамиканинг, ҳамма ўзгаришларнинг туғилиш манбаидир”.

Мотивланган сўз, ясалма ўз моҳиятига кўра, онгдаги тушунчалар олами билан борлиқ, ташқи олам ўртасида турлича боғланишлар мавжудлигини кўрсатиб турувчи муҳим номинатив-ономасиологик бирликдир. Жамият ва онг тараққиёти эҳтиёж туфайли янгидан-янги ясалмаларнинг пайдо бўлишига имкон яратади.

Бу сўз ясалишининг социолингвистик, прагматик томонини кўрсатадиган асосий белгилардан ҳисобланади. Ясама сўзлар онда-сонда, мантиқий-лисоний асосланган бўлиб, бу асосланиш маълум воситаларга таянади. Шу сабабдан А.Ғ.Ғуломов “сўз ясаш моделлари” тушунчасини қўллайди: сўз ясаш моделлари, умуман, ҳосил қилиш, яратиш схемаси-андозаси маъносидаги умумлашган, абстракт ҳодисадир. Бунинг айрим хусусиятлари: 1) ясалиш модели бир хил бўлмаган сўзлар структура ва маъно томонидан ўхшаш бўлади; 2) сўз ясаш моделларининг унумли ё унумсиз бўлиши структурадаги моделнинг янги ясалма ҳосил қилиш ё ҳосил қилмаслигидандир: сўзнинг ясалиш структурасини аниқлаш билан умумлаштириш натижасида сўз ясалиш моделлари белгиланади, бу моделлар тилнинг сўз ясалиш системасини ташкил қилади”.

Шунингдек, моделлар доирасида ясалмалар икки қисмдан тузилади, яъни бинар оппозиция тусида бўлади. Келтирилган фикрлардан кўриниб турибдики, А.Ғ.Ғуломов ясалмалардаги мотивация муносабатларини кенг доирада олиб қараб, муайян даврдаги синхрон сўз ясалишининг тадқиқи учун зарур бўлган тушунчалар тизимини яратган. Ушбу тушунчалар тизими ўзбек тили сўз ясалишининг ўзига хос шаклларини тадқиқ этишда муҳим аҳамиятга эга.

70-йилларнинг бошида ўзбек тилшунослигида ўзбек тили морфологиясини ўрганиш бўйича жуда катта тажриба тўпланди. Тарихий ва ҳозирги замон морфологиясини ўрганиш бўйича ҳам жиддий тадқиқот юзага келганлиги айтилди. Бундан ташқари, Европа ва жаҳон тилшунослигида йирик тадқиқотлар қилиниб, барча ютуқлари ўзбек тилшунослигига татбиқ этила бошлади.

Н.А.Баскаков, А.Н.Кононов, С.Н.Иванов каби таниқли туркийшунос олимларнинг ўзбек тилшунослари билан илмий алоқалари ва мулоқоти натижасида ҳам морфологиянинг жиддий тадқиқотчилари сафи Ф.Камолов, Т.Ибрагимов, С.Усмонов, А.Ғуломов сингари йирик олимлар билан кенгайди. Кейинчалик А.Ҳожиев, М.Содиқова, Р.Қўнғуров, И.Қўчқортоев, А.Ҳ.Сулаймонов, Ғ.Абдураҳмонов, Ж.Мухторов, Б.Ўринбоев, Т.Хўжаев, А.Абдуазизов, И.Расулов, Х.Комилова, А.Мадғозиев, К.Назаров каби йирик олимлар морфология соҳасининг жонкуярлари сафидан ўрин олган бўлса, айнан 70-йиллар бошидан М.Аъламова, М.Наримонова, М.Жўрабоева, Ё.Тожиев, А.Бердиалиев, Т.Мирзақулов, С.Махматқулов, С.Султонсаидова сингари кўплаб олимлар морфология соҳасидаги жиддий илмий изланишларни ва тадқиқотларни бошлаб юборишди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.С.Усмонов “Сўз ва унинг морфологик структураси ҳақида” қўлланма (1957)
2.С.Усмонов “Сўзнинг морфологик ва функционал анализи ҳақида” (1965).
3.Словообразовательные и словоизменительные аффиксы узбекского языка. ,,Узбекско – русский словар “. 1959, стр. 723.
4. Мирзаев М. , Усмонов С. , Расулов И. Ўзбек тили. Тошкент, 1970, 97-бет ; Современный татарский литературный язык. 1969, стр. 136.
5. Ғуломов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг морфем луғати. Тошкент , 1977, 433-бет;

IZOHLI LUG‘ATLARDA “KAMSITISH” SEMALI SO‘ZLAR UCHUN ILLYUSTRATIV MISOLLARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Qaxramonova Sevara Qaxramonovna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

E-mail: gahramonovasevara5@gmail.com tel: 97 385 64 01
Toshkent amaliy fanlar universiteti professori B.R.Mengliyev taqrizi asosida

Annotatsiya Har qanday tushuncha uning ziddini anglatuvchi tushuncha vositasida tushunilishi oson bo‘lganidek, madaniyatli nutqqa erishish uchun uning yuzaga kelishiga to‘sqinlik qiluvchi til birliklari ma’nosini chuqur bilishni taqozo qiladi. Shu tufayli izohli lug‘atlarda keltirilgan “kamsitish” semali so‘zlarni aniqlash, ularning leksikografik talqinini takomillashtirish kun tartibida turgan muhim masalalardandir. Mavjud izohli lug‘atlardagi illystrativ misollar so‘z izohini dalillashda muhim ahamiyatga ega. Illyustrativ misollar lug‘at maqolasini yakunlab beruvchi qism sanaladi. Shu ma’noda, “illyustratuv misol izohlanuvchi birlikning (jumladan, bosh so‘zning) aytilgan talablar asosida kiritilganligini, unga qo‘yilgan grammatik va uslubiy belgilarning to‘g‘riligini, izohlanuvchi birlik ma’nosi (ma’nolari)ning to‘g‘ri, aniq belgilanganligini, nihoyat, har bir ma’noga berilgan izohning to‘g‘riligini tasdiqlash uchun keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Kamsitish, leksikografik, izohli lug‘at, illystrativ misol, tushuncha, maqola, madaniyatli nutq.

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИЛЛЮСТРАТИВНЫХ ПРИМЕРОВ СЛОВ С СЕМАНТИЧЕСКОЙ “ДИСКРИМИНАЦИЕЙ” В ТОЛКОВЫХ СЛОВАРЯХ

Аннотация Подобно тому, как любое понятие легко понять с помощью понятия, означающего его противоречие, для достижения цивилизованного дискурса требуется глубокое знание значения языковых единиц, препятствующих его возникновению. В связи с этим выявление слов с “дискриминационной” семантикой, представленных в толковых словарях, совершенствование их лексикографического толкования является одним из важных вопросов, стоящих на повестке дня. Иллюстративные примеры из существующих толковых словарей важны для доказательства толкования слова. Иллюстративные примеры являются завершающей частью словарной статьи. В этом смысле " иллюстративный пример приводится для подтверждения того, что интерпретируемое единство (включая заглавное слово) введено на основании заявленных требований, правильности грамматических и стилистических признаков, которые в него вложены, правильности, точности определения значения (значений)интерпретируемого единства, наконец, правильности объяснения, данного каждому значению.

Ключевые слова: Дискриминация, лексикографический, толковый словарь, иллюстративный пример, понятие, статья, цивилизованная речь.

ISSUES OF IMPROVING ILLUSTRATIVE EXAMPLES OF WORDS WITH SEMANTIC “DISCRIMINATION” IN EXPLANATORY DICTIONARIES

Annotation Just as any concept is easy to understand with the help of a concept that means its contradiction, in order to achieve a civilized discourse, a deep knowledge of the meaning of the linguistic units that prevent its emergence is required. In this regard, the identification of words with “discriminatory” semantics presented in explanatory dictionaries and the improvement of their lexicographic interpretation is one of the important issues on the agenda. Illustrative examples from existing explanatory dictionaries are important for proving the interpretation of a word. Illustrative examples are the final part of the dictionary entry. In this sense, " an illustrative example is given to confirm that the interpreted unity (including the capital word) was introduced on the basis of the stated requirements, the correctness of the grammatical and stylistic features that are embedded in it, the correctness and accuracy of determining the meaning (values)the interpreted unity, finally, the correctness of the explanation given to each meaning.

Keywords: Discrimination, lexicographic, explanatory dictionary, illustrative example, concept, article, civilized speech.

Kirish. Izohli lug‘atlar tilshunoslar, tarjimonlar, jurnalistlar, o‘quvchi-talabalar, shuningdek, turli soha mutaxassislari singari keng jamoatchilik uchun mo‘ljallangan muhim leksikografik manba hisoblanadi. Shu tufayli izohli lug‘atlarning ijtimoiy hayotdagi har bir o‘zgarishni o‘zida aks ettirib borishi maqsadga muvofiqdir. Zero, yashayotgan davrimiz taraqqiyot sur’atining nihoyatda tezlashganligi, intellektual salohiyat, axborotlarni qayta ishlashdagi tezkorlik kabilar rivojlanishning asosiy omili sifatida qaralayotganligi bilan ajralib turadi. Bunday vaziyat tilshunoslardan zamon talabiga mos leksikografik ruserslar yaratishni talab qilmoqda. “Bugungi kunda dunyo tilshunosligi, jumladan, o‘zbek tilshunosligida tilni undan foydalanuvchining ruhiyati, ijtimoiy holati, jinsi, yoshi, nutq sharoiti va boshqa jihatlar bilan bog‘liq tarzda tadqiq qilish metodologiyasiga asoslangan antropotsentrik tilshunoslik va uning psixolingvistika, pragmalingvistika, lingvomamlakatshunoslik, lingvokognitologiya, lingvodidaktika, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya kabi yo‘nalishlarga e’tibor oshib bormoqda”[1:17]. Bu kabi vazifalarning bajarilishida mavjud izohli lug‘atlarni takomillashtirish ham muhim ahamiyatga ega, albatta. Chunki boshqa turdagi lug‘atlarning aksariyati izohli lug‘atlardagi ma’lumotlarga tayanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Har qanday rivojlanish tilda o‘z aksini topishi shubhasiz. Nutq madaniyati zamonaviy dunyoning yashab qolish shartlaridan biri darajasiga ko‘tarilishi chiroyli va o‘rinli nutq uchun zarur bo‘lgan til birliklarini o‘rganish, ularni tizimlashtirish ijtimoiy zarurat hisoblanadi. Har qanday tushuncha uning ziddini anglatuvchi tushuncha vositasida tushunilishi oson bo‘lganidek, madaniyatli nutqqa erishish uchun uning yuzaga kelishiga to‘sqinlik qiluvchi til birliklari ma’nosini chuqur bilishni taqozo qiladi. Shu tufayli izohli lug‘atlarda keltirilgan “kamsitish” semali so‘zlarni aniqlash, ularning leksikografik talqinini takomillashtirish kun tartibida turgan muhim masalalardandir. Shuningdek, bunday so‘zlarni o‘z nutqida qo‘llashning oldini olish uchun har bir shaxs ularning leksik-semantik xususiyatlarini bilishi talab etiladi. Ta’kidlash lozimki, nutqning (ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlar, yozishmalar, xabarnomalar) tobora ko‘proq sud materiallari sifatida qaralishi lingvistik ekspertiza, sud lingvistikasi kabi yo‘nalishlarning taraqqiy etishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa izohli lug‘atlarga kiritilgan “kamsitish” semali so‘zlar izohi uchun illyustrativ misollarning so‘z mohiyatini to‘liq qamrab olish-olmasligini tahlil qilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo qiladi. Qolaversa, “insonlar jamiyat bo‘lib yashar ekanlar, davlatchilik asosida jamiyat hayoti tartibga solinishi kerak ekan, bunda, albatta, huquqni anglash, unga rioya qilish, umuman, huquqiy bilimlarga bo‘lgan ehtiyoj, uning jamiyat hayotidagi o‘rni dolzarbligicha qoladi”[2:119]. Shuningdek, shaxsning jamiyatdagi o‘rni uning boshqa shaxslar bilan muloqoti, munosabatiga ko‘ra belgilanadi. Mavjud izohli lug‘atlar o‘zining mukammalligi, barcha soha mutaxassislari uchun foydali ekanligi bilan ajralib turadi. Mualliflar ta’kidlaganidek, izohli lug‘at “amaliy leksikografiya sohasida erishilgan muayyan muvaffaqiyatlar bilan bir qatorda lug‘atchilikning nazariy muammolariga – lug‘atshunoslikka ham e’tibor qaratildi va izohli hamda ikki tilli lug‘atlarning ma’lum leksikografik masalalarini hal etishda orttirilgan boy tajribani, shuningdek, bu sohadagi mavjud kamchiliklarni yoritishga bag‘ishlangan bir qator ilmiy ishlar”[3:8] natijalarini ham qamrab oldi. Shunday bo‘lsa-da, axborot texnologiyalarining taraqqiyoti, globallashuv jarayonining jadallashuvi leksikaning tez o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa, tilshunoslardan mavjud leksikografik manbalarni tahlil qilish, zamonga mos o‘zgarishlarni qayd qilib borish kabilarni talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mavjud izohli lug‘atlardagi illystrativ misollar so‘z izohini dalillashda muhim ahamiyatga ega. Illyustrativ misollar lug‘at maqolasini yakunlab beruvchi qism sanaladi. Shu ma’noda, “illyustratuv misol izohlanuvchi birlikning (jumladan, bosh so‘zning) aytilgan talablar asosida kiritilganligini, unga qo‘yilgan grammatik va uslubiy belgilarning to‘g‘riligini, izohlanuvchi birlik ma’nosi (ma’nolari)ning to‘g‘ri, aniq belgilanganligini, nihoyat, har bir ma’noga berilgan izohning to‘g‘riligini tasdiqlash uchun keltiriladi”[3:26]. Anglashiladiki, illyustrativ misollar lug‘at maqolasining muhim va zaruriy qismi hisoblanadi. Ta’kidlash lozimki, illyustrativ misollar izohli lug‘atlardagi barcha lug‘at maqolalari uchun ham berilavermaydi. Lug‘at maqolasining muhim komponenti sifatida mavjud izohli lug‘atlardagi illyustrativ misollar o‘zbek yozuvchilari asarlaridan hamda o‘zbek tilida nashr etilgan

turli sohalarga oid ilmiy-ommabop asarlar, matbuot nashrlari kabilardan olingan. Bu illyustrativ misollarning dalillovchi vosita sifatidagi ahamiyatini oshiradi. Huquqiy masalalarda tildan foydalanish masalasi dolzarblashayotgan hozirgi davrda “kamsitish” semali so‘zlarning izohini dalillash uchun keltirilgan illyustrativ misollarni ham takomillashtirish talab etiladi. Zero, bunday til birliklari munozarali vaziyatlarda shaxs obro‘yini pasaytirish, uni haqorat qilish vositasi sifatida ajratilishi mumkin. Shuningdek, izohli lug‘atlar auditoriyasining kengligi undan nutqiy madaniyatini ko‘tarish, savodxonlikni oshirishda ham foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, foydalanuvchilar izohli lug‘atlarda so‘z izohi uchun keltirilgan matn mazmunini dalillovchi illyustrativ misollarni mutlaqo me’yoriy holat sifatida qabul qiladilar. Keltirilgan fikrlar izohli lug‘atlardagi lug‘at maqolalarining eng muhim qismlaridan biri sifatida qaraladigan illyustrativ misollarni muntazam tilshunoslar tomonidan muntazam tahlil qilinishi va zarurat paydo bo‘lgan o‘rinlarda takomillashtirish zarur ekanligini dalillaydi. “Kamsitish” semali so‘zlar guruhini esa huquqiy munosabatlar va nutq madaniyatini o‘stirish nuqtayi nazaridan takomillashtirishga ehtiyoj mavjud ekanligini ko‘rsatadi.

Huquqshunoslikda shaxs qadr-qimmati va obro‘yini himoya qilishga doir ishlarning ko‘payganligi dunyo tilshunosligida invektiv leksikaga oid birliklarni faol o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojni oshirdi. Invektiv leksiksa atamasi “lotincha “invectio” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, kiritish, hujum, suiiste’mol kabi ma’nolarni bildiradi. Bu jumla o‘zbek tilida “verbal kamsitish, haqorat qilish” ma’nolarini bildiradi”[4]. Invektiv leksikani ajratish, ularning leksikografik talqini masalalari tilshunoslarni qiziqtirib kelayotgan masalalardan hisoblanadi. Chunki bunday guruh so‘zlarini lug‘atlarga qanday tartibda kiritish, qanday izohlardan foydalanish, qanday illyustrativ misollarni keltirish kabilar, darhaqiqat, tilshunosdan axloq va professionallik borasidagi muayyan chegaralarni aniqlab olishni talab qiladi. Masalan, ayrim vulgarizmlar o‘zbek tilidagi izohli lug‘atlarga kiritilmagan, shunday so‘zlar bilan bog‘liq lingvist-ekspertning qarorlari sohada amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida tayyorlangan maxsus lug‘atlar ma’lumotlariga tayanib chiqarilishi mumkin. Rus tilshunosi M.A.Vikulina ta’kidlaganidek, “Huquq sohasida faoliyat yurituvchilarda lingvistik ekspertiza jarayonida to‘g‘ri qaror qabul qilishlarida nafaqat muayyan ishda qo‘llangan so‘z, balki butun invektiv leksikaning tahliliga oid ma’lumotlar muhim o‘rin tutadi”[5:18].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Mavjud izohli lug‘atlarda haqorat, kamsitish bilan bog‘liq bo‘lgan aksariyat so‘zlar izohi, ta’kidlanganidek, *haq., kams., so‘k.* kabi uslubiy belgi ko‘rsatuvchi pometa bilan beriladi. Aytib o‘tish lozimki, kamsitish, haqorat qilish ma’nosi mavjud bo‘lgan so‘zlarning izohli lug‘atlarda berilishi bilan bog‘liq holatlarni quyidagicha tavsiflash mumkin:

1) bosh so‘z sifatida ajratilgan til birligida “kamsitish” semasi mavjud va lug‘at maqolasidagi maxsus pometa bilan berilgan. Shunday so‘zlar sirasiga *bachchag‘ar, valad, dabba, dajjol, do‘zaxi, jinnivachcha, zantaloq, juvonmarg, zang‘ar* kabi so‘zlarni kiritish mumkin bo‘ladi. Masalan, “zantaloq” so‘zining kamsitish, haqorat qilish ma’nosi uchun izohli lug‘atda quyidagi lug‘at maqolasi keltirilgan:

“**ZANTALOQ** [f. + a. taloq qilingan (bo‘lgan) xotin] **1** *ayn.* xotin taloq q. taloq.

2 *so‘k.* Qurib ketkur, qurgur; la’nati, savil. *Zantaloq nosni chekkaningdan keyin cho‘llatadi, bir narsa ichmasang, kishini abgor qiladi.* A.Qodiriy, Obid ketmon. *G‘ani ota kuldi: - Senga [qora yo‘rg‘a] nasib bo‘pti, ol, Abdurahmon zantaloqning merosxo‘ri.* H.G‘ulom, Mash’al”[3:26].

Keltirilgan misolda so‘zda kamsitish, haqorat ma’nosi mavjud ekanligi so‘zning etimologik ma’nosida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu so‘z izohida yanada aniqlashgan, deyishimiz mumkin. Ya’ni so‘z izohi boshqa so‘zga havola berish orqali ochib berilgan bo‘lsa, havola qilingan so‘zning izohida ham kamsitish ma’nosi mavjud ekanligini “xotin taloq” so‘zi izohi orqali ham dalillash mumkin. Ammo so‘z izohini dalillash uchun keltirilgan illyustrativ misollar, nazarimizda, “kamsitish” semasini bo‘rttirmaydi, ya’ni to‘liq ochib bermaydi. Tabiiyki, aynan “zantaloq” so‘zi vositasida shaxs qadr-qimmati yerga urilsa, verbal kamsitish holati yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan o‘rinlarda lingvist-ekspert so‘z izohi va maxsus uslubiy belgi ko‘rsatuvchi pometaga tayanib xulosa chiqarishi mumkin. Bunda “kamsitish” semali so‘zning shunday ma’noga ega ekanligi so‘z izohida

berilganligi, shuningdek, uslubiy belgi bildiruvchi maxsus pometaning mavjudligi yordam berishi shubhasiz;

2) bosh so‘z sifatida ajratilgan til birligida “kamsitish” semasi mavjud, ammo u maxsus pometa bilan berilmagan. Shunday bo‘lsa-da, leksik birlik izohida haqorat, kamsitish ma’nosi mavjud ekanligi qayd etilgan. Shunday so‘zlar sirasiga *ablah, ahmoq, badbaxt, badzot, bachchataloq, bepadar, gumroh, dayus, iblis, imonsiz, isqirt, itvachcha, kazzob, kuchuk* kabi so‘zlarni, shuningdek, ba’zi birikmalarni kiritish mumkin. Masalan, *ahmoq* so‘zi uchun izohli lug‘atlarning barcha nashrlarida quyidagi lug‘at maqolasi keltirilgan:

“**AHMOQ** [a. – esi past, tentak] **1** Aql bilan ish qilmaydigan, aqlga zid, bema’ni ishlar qiladigan, shunday ishlarga yo‘l qo‘yadigan. *Esing kirmadi sen ahmoqning. Boshimizni baloga qo‘yib, o‘zing bu yoqlarda tuproqqa qorishib yuribsan.* S.Ahmad, Ufq.

2 Haqorat ifodalaydi. – *Ablah odam ekansan! – dedi [imom]. – Siz ham ahmoq mulla ekansiz! – dedi Safar bo‘zchi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon”[3:26];

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ma’lum bo‘ladiki, “ahmoq” so‘zi shaxsga nisbatan qo‘llanganda uning obro‘yini yerga urish, uning qadr-qimmatini kamsitish, haqorat qilish ma’nosini ifodalaydi. Ammo so‘zda shunday ma’no mavjudligi haqida maxsus pometa qo‘llanmagan. Tabiiyki, aynan shu so‘z bilan bog‘liq munozarali vaziyatlarda izohli lug‘atlarda shu so‘z uchun berilgan izoh va illyustrativ misollarga tayanilishi maqsadga muvofiq. Shu bilan birga bu kabi so‘zlar uchun kiritilgan lug‘at maqolalarining tegishli qismiga maxsus pometa qo‘llash ham foydadan xoli bo‘lmaydi;

bosh sifatida ajratilgan til birligida “kamsitish” semasi mavjud, ammo uning izohida shunday ma’no borligi haqida ma’lumot berilmagan. Tabiiyki bunday so‘zlarda uslubiy belgi ko‘rsatuvchi maxsus pometa ham qo‘llanmagan. Aynan shu turdagi so‘zlar guruhining izoh qismida shaxs qadr-qimmatini kamsitish, uning obro‘yiga putur yetkazish bilan bog‘liq qismlar kiritilishi va shunga mos illyustrativ misollar tanlanishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Баҳриддинова Б. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол. фанл. д-ри (DSc) дисс. – Самарқанд, 2020. – 252 б.
2. Сабирова Э. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да ҳуқуқий терминларнинг берилиши: Филол. фанл. б. фалс. докт. (PhD) дисс. – Тошкент, 2022. – 147 б.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 6 jildlik, 1-jild, – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – 964 b.
4. https://ru.wikipedia.org/wiki/ Инвектива
5. Викулина М.А. К вопросу об инвективной лексике и лингвистической экспертизе // Вестник Московского госуниверситета. 2018. – С.18.

NOTIQLIK SAN’ATI MANBALARI ILMIY MUAMMO SIFATIDA

H. T.Ahmedova

Qo‘qonDPI

Annotatsiya. Maqola umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litsey o‘quvchilarining o ogʻzaki va yozma nutqini o‘stirish masalalariga bag‘ishlanadi. Bu jarayonda ona tilining imkoiiyatlarini juda katta ekanligini ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: ogʻzaki nutq, yozma nutq, nutqiy ko‘nikmalar, nutqiy nuqsonlar, adabiy til, adabiy til me’yorlari.

Аннотация. Статья будет посвящена вопросам развития устной и письменной речи учащихся общеобразовательных школ, академических лицеев. Отмечается, что возможности родного языка в этом процессе очень велики.

Ключевые слова: устная речь, письменная речь, речевые навыки, дефекты речи, литературный язык, нормы литературного языка.

Annotation. The article will be devoted to the development of oral and written speech of students of secondary schools, academic lyceums. It is noted that the possibilities of the native language in this process are very great.

Keywords: oral speech, written speech, speech skills, speech defects, literary language, norms of literary language.

Har qanday darsning muvaffaqiyati o‘quv predmetiga, uning mazmuniga, o‘quv-metodik jihatdan ta’minlanish darajasiga, dars olib borilayotgan sharoit, moddiy-texnik bazaga, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish holatiga, yangi axborot hamda pedagogik texnologiyalarning qo‘llanishiga va yana ko‘plab omillarga bog‘liq. Nazarimizda, bularning yonida yana bir omil ham borki, u boshqalardan ko‘ra ortiqroq mavqega ega bo‘lsa borki, ulardan aslo kam emas. Bu o‘qituvchining nutqidir.

Har qanday sohada ham o‘qituvchi nutqiga qo‘yiladigan talablar mutlaqo boshqachadir. O‘qituvchi nutqi pedagogik muloqotlar muhitida, ta’lim tarbiya jarayoniga qo‘yiladigan talablarni amalga oshirishning asosiy unsurlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Bu yerda o‘qituvchi nutqining mazmunigina emas, balki shakli ham alohida ahamiyat kasb etadi. Boshqacha aytiladigan bo‘lsa, o‘qituvchining nutqi shunday shaklga ega bo‘lishi kerakki, u pedagogik muloqotning muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirish uchun mazkur muloqotning mazmuni va maqsadlari, o‘z oldiga qo‘ygan vazifalari bilan eng munosib tarzda uyg‘unlashib ketishni ta’minlasin. Bu aytishda oson bo‘lsa ham, amalda ancha qiyin vazifadir. Zero, har bir pedagogik vaziyatning o‘zi kutilmagan qarorlarni qabul qilishga majbur qiladi. Bunda nutq janrlaridan qaysi birini tanlash, matn tuzishning eng oddiy qoidalaridan boshlab, shu janrga mos holda uning ifoda imkoniyatlarini ham nozik darajada his eta olish, ayni paytda muloqot jarayoni uchun xos bo‘lgan asosiy talab va qoidalar (to‘g‘rilik, aniqlik, maqsadga muvofiqlik, mantiqiylik, qisqalik, ifodaning ta’sirchanligi va boyligi...)ga to‘la moslashish shart.

Nutqning texnik jihatlari ham muhim. Hatto ovozning past-balandligi, tovush va so‘zlarni talaffuz qilishdagi o‘ziga xosliklar, nutq jarayonida nafas olish maromini boshqara bilish, hodisa mohiyatidan kelib chiqqan ifodadagi ta’sirchanlikni bera bilish ham tinglovchi ongi va shuuriga boshqacha ta’sir ko‘rsatadi.

Nutqdan ko‘p foydalanadigan kasblar sirasida huquqshunoslar, aktyorlar, suxandonlar, tabiiyki, o‘qituvchilar ham turadi. O‘qituvchining nutqi esa ulardan keskin ajralib turadi. Ularning barchasi o‘z nutqla-rining tinglovchiga ta’sir ko‘rsatishini bosh maqsad sifatida belgilaydi. Ammo ularning birortasi ham bu nutqning ta’sirida tinglovchida ham shunga o‘xshash nutq namunasini shakllantirishni maqsad qilib qo‘ymaydi. Bunday maqsad faqat o‘qituvchi nutqidagina mujassamlashadi.

Demak, o‘qituvchining nutqi andoza va o‘rnak namunasi hamdir. O‘quvchilarning asosiy qismi o‘z o‘qituvchisi nutqiga taqlid qilgan holda o‘zidagi shunday ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi, uni takomillashtirib boradi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, o‘qituvchining nutqi o‘z shogirdlari, o‘quvchilar nutqining to‘g‘ri shakllanishiga eng kuchli va faol ta’sir o‘tkazadigan bebaho omildir. SHunday ekan, bu yo‘nalishda bo‘lajak til va adabiyot fani o‘qituvchilari oldida qanday muammolar mavjud va ularning yechimini qanday tasavvur qilish mumkin? degan savol ustida bosh qotirish ham joiz.

Ma’lumki, «notiqlik san’ati» kursining asosiy vazifasi bo‘lajak mutaxassislarning nutqini kasbiy ehtiyojlardan hamda real nutqiy vaziyatlardan kelib chiqqan holda rivojlantirishdan iborat. Ularning orasida eng muhimlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. Talabalar nutqining asosi va eng muhim vositasi bo‘lgan umumiy madaniy saviya va tafakkur tarzini rivojlantirish kerak. Zero, insonning nutqi, tili va tafakkurining mavjudligi va rivoji o‘zaro zich aloqadordir. Inson nutqini uning tafakkurisiz, umumiy madaniyati rivojisiz tasavvur etish mumkin emas. Demak, o‘qituvchi o‘z faoliyatida bu uchlikning yaxlitli-gini har doim esda tutishi va unga qat’iy amal qilishi kerak bo‘ladi.

2. O‘qituvchilik kasbi talab etadigan nutq uchun qo‘yiladigan talablar haqidagi ma’lumotlar (nutqiy faoliyat haqidagi nazariy qarashlar bilan tanishish, notiqlik san’atining mohiyatini, uning qisqacha rivojlanish tarixini, hozirgi o‘zbek adabiy tili mezonlarini bilish, nutq madaniyati, uslubshunoslika oid asosiy tushunchalardan xabardor bo‘lish)ni o‘rganish.

3. Talabalar – bo‘lajak o‘qituvchilarda bevosita nutq amaliyotini boshqarishga oid ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish. Bunda ularning o‘z nutqlarini xatolarsiz amalga

oshirishlaridan tashqari, boshqalar nutqidagi kamchilik va nutqsonlarni sezish va ularni tuzatishga oid koʻnikma va malakalar ham nazarda tutiladi.

Hozirgi paytda pedagogika hamda xususiy fanlar metodikasi oldida qadimgi ogʻzaki ijod namunalarini, yozma manbalarni, butun insoniyat yaratgan ulkan madaniy merosni mustaqillik mafkurasi asosida oʻrganish, ularning bagʻrida mujassamlashgan koʻplab adabiy-estetik hodisalarni zamonaviy fan yutuqlariga tayangan holda jiddiy tadqiq etish, ayniqsa, milliy-maʼnaviy qadriyatlarni puxta tahlil qilish, shular asosida yoshlarimizning dunyoqarashini kengaytirish, ularning badiiy-estetik didlarini, ularning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan mehr-muhabbatlarini shakllantirish va rivojlantirish ham eng muhim vazifalar qatorida turibdi. Mazkur vazifalarni bajarishda, ularni reallikka aylantirishda buyuk bobokalonlarimiz yaratgan qadimiy va boy adabiyot namunalarining juda katta imkoniyatlari mavjud. Ular bizgacha ham ogʻzaki, ham yozma tarzda yetib kelgan. Zero, ularda milliy va umuminsoniy madaniyatning va maʼnaviyatning juda ulkan namunalari mujassamlashgan. Qolaversa, sўz sanʼatining jahonga mashhur boʻlgan yuksak namunalarining bevosita SHarq xalqlari maʼnaviy merosiga bogʻliq holda yuzaga kelganligini ham eʼtirof etish joiz.

Biz xalq ogʻzaki ijodida yaratilgan ulkan maʼnaviy meros imkonlaridan haligacha toʻla va unumli foydalana olayotganimiz yoʻq. Vaholanki, faqat nutq va notiqlik haqidagi xalqona qarashlar mohiyatini teran tadqiq etish, bu borada ham ulkan zahiralarimiz mavjudligini koʻrsatib turibdi. Shuning uchun ham bu ulkan merosda mujassamlashgan notiqlik tarixi, nutq madaniyati, notiqlik sanʼati haqidagi badiiy-estetik qarashlarni ўrganishni ilmiy muammosi sifatida belgilash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N. Oʻqituvchi nutqi madaniyati. Toshkent, 2007.
2. Rasulov R., Husanov N., Moʻydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik sanʼati. – T.: Iqtisod-moliya, 2006.
3. H.Ahmedova . Alisher Navoiy nutq madaniyati va notiqlik haqida. “Ilm-fan, taʼlim va sanʼat integratsiyasi: istiqbolli rejalar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. SHЫMKENT, 18.11.2023.
4. H.Ahmedova. A.Navoiyning “Mahbub-ul-qulub” asaridagi nutq madaniyatiga oid qarashlari. https://doi.org/10.5281/zenodo.10315527
5. H.Ahmedova. Analysis and Deseription of Ancient Sourees of Speech Culture . . Journal of Advanced Zoology, Volume 44 Issue 04 Y
https//jazindia.com [scops ear2023 Page
6. Hikmatxon Ahmedova. Ona tilini oʻqitish metodikasi. “ILM VA FAN” nashriyoti T.2023

TABRIK NUTQIY AKTINING FUNKSIONAL-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Faxriddinova Dilfuza Sayfiddin qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti doktoranti
faxritdinovadilfuza5@gmail.com

Anotatsiya: Mazkur maqolada tabrik nutqiy aktlarining funksional-pragmatik xususiyatlari badiiy-adabiy jihatdan yoritilgan. Badiiy matnda tabrik nutqiy aktining amalga oshishida nutqning taʼsirchanlik kuchini oshiruvchi lisoniy vositalar aniqlangan.

Annotation: In this article, the functional-pragmatic features of congratulatory speech acts are highlighted from an artistic-literary point of view. In the literary text, the linguistic tools that increase the effectiveness of the speech in the performance of the congratulatory speech act are identified.

Аннотация: В данной статье выделены функционально-прагматические особенности поздравительных речевых действий с художественно-литературной точки зрения. В художественном тексте выявлены лингвистические средства, повышающие эффективность речи при совершении поздравительного речевого акта.

Kalit soʻzlar: Tabrik, nutq, funksional, lisoniy, badiiy, pragmatik.

Keywords: Greeting, speech, functional, linguistic, artistic, pragmatic.

Ключевые слова: Приветствие, речевое, функциональное, лингвистическое, художественное, прагматическое.

Keyingi yillarda tilshunoslikda matn tahlili bilan bog‘liq yangidan-yangi yo‘nalishlar, sohalar shakllanmoqda. Bu holat, ayniqsa tilshunoslarning diqqat -e’tiborlarini matnga va uning lisoniy tabiatini o‘rganishga ko‘proq qaratayotganliklarida hamda olib borilayotgan tadqiqotlarning asosiy qismini badiiy matnlar tahlili tashqil etayotganligida ham seziladi. Chunki matnning lisoniy xususiyatlarini o‘rganish ma’lum bir tadqiq uchun tanlangan badiiy asar tili hamda ijodkorning individual uslubi to‘g‘risida ham muayyan xulosalar chiqarishga imkon beradi. Ana shundan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, matn va uning o‘ziga xos xususiyatlari tilshunoslik bilan u yoki bu darajada bog‘lanuvchi pragmatika, uslubiyat, psixolingvistika, etika, estetika kabi soha xodimlarining ham birday qiziqtirib kelishi tilshunoslikning alohida sohasi bo‘lgan matn tilshunosligining shakllanishiga zamin yaratdi. Keyingi yillarda tilshunoslikning boshqa sohalari qatori matn bo‘yicha olib borilayotgan izlanishlar ham rivojlanishning yangi pog‘onasiga qadam qo‘ydi. O‘tgan davr mobaynida o‘zbek tilshunosligida matn muammosi, vazifaviy uslublarga oid matnlarni turli nuqtayi nazardan o‘rganishga oid tadqiqotlar amalga oshirildi. Matn haqida gapirganda shuni alohida ta’kidlash lozimki, nafaqat o‘zbek tilshunosligida, balki turkologiya va rus tilshunosligida ham matn tushunchasining mohiyati hamda ta’rifi masalasida turli qarashlar mavjud.

Shu o‘rinda matn tushunchasining mazmun-mundarijasini belgilashga ehtiyoj tug‘iladi.

Matn nima? Tilshunos olim A.Hojiyev tomonidan yaratilgan “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da matn atamasiga “Yonma-yon harflar, yozuv orqali aks ettirilgan nutq, umuman, nutq parchasi; tekst” deb ta’rif berilgan. [4.61]

O‘zbekcha ilmiy matnlarning pragmatik va sintagmatik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha kuzatishlar olib borgan tilshunos olim M.Hakimov esa o‘z kuzatishlarida matn tushunchasining mohiyatini yanada kengroq yoritib berishga harakat qilgan. U o‘zining ilmiy tadqiqotida bunga shunday ta’rif beradi: “…Nutq – bu so‘zlovchining nutqiy jarayoni bilan aloqador bo‘lgan hodisa sifatida ifoda etilsa, matn (tekst) ham ana shu nutqiy hodisaning yozilgan (“bosma harf orqali aks etgan”) parchasidir… “Nutq” o‘zining yozma shaklida “matn” atamasiga teng keladi…Har qanday nutqning yozma shakli matn tushunchasi mohiyatini ifoda etadi…Tekst – og‘zaki nutq, kontekstga nisbatan stabillashgan, ma’lum qoida-qonuniyatlar va adabiy til me’yorlari asosida shakllangan yozma nutq…Matn bir vaqtning o‘zida emas, balki bir necha asr avvalgi va keyingi shaxslar o‘rtasidagi aloqa munosabatini yuzaga chiqaruvchi vositadir”. [3.17-21]

Tabiiyki, lingvopragmatika doirasida olib borilgan tadqiqotlar badiiy matn asosida olib boriladi. Badiiy matnni nutqning turli ko‘rinishlariga xos bo‘lgan boshqa matnlar bilan taqqoslaganda, uning badiiy-estetik hodisa sifatida o‘ziga xos xususiyatlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Sir emaski, badiiy matn badiiy-estetik butunlik sifatida benihoya murakkab, serqatlam hodisa. Badiiy matnda ifodalangan asosiy g‘oya – fikr - mazmunni tushunish, anglash shunchaki emas, balki ancha qiyin va murakkab ijodiy jarayondir. Badiiy asarda mutlaqo o‘ziga xos, goho ochiq, goho yashirin, turli ishoralar, tag ma’nolar, kosa tagidagi nim kosalar bilan shamoyil topgan mazmunning ma’nosini to‘g‘ri anglash ma’naviy-madaniy, aqliy-hissiy va lisoniy-estetik faoliyat natijasida mumkin bo‘ladi. Har qanday matnning mazmunini tushunish uchun til leksikasi va grammatikasini bilish zarur va yetarli bo‘lsa, badiiy matnning mazmunini idrok etish uchun bundan tashqari ayni paytda badiiy matnning o‘ziga xos lisoniy-poetik qonuniyatlarini ham bilish lozim bo‘ladi.” [1.27] Bu qonuniyatlarni aniqlash uchun badiiy matnlarni sinchiklab tahlil qilish lozim bo‘ladi.

Badiiy matnda tabrik nutqiy aktining amalga oshishida nutqning ta’sirchanlik kuchini oshiruvchi lisoniy vositalar ko‘p. Bunday matnlar *istak, maqsad, sabab* kabi qator ma’nolarni ifodalab, tabrik ifodalovchi gapning semantikasini hosil qiluvchi birliklar qatori *“istamoq”*, *“tilamoq”* tarzida ifodalanuvchi illokutiv fe’lli kesimlarga ega bo‘ladi. Tabrik nutqiy aktidagi perlokutiv harakat so‘zlovchining nutq qaratilgan shaxs bilan munosabatga kirishishga intilishini ifodalaydi. So‘zlovchining muloqotga kirishishdan ko‘zlangan asosiy maqsadi – tinglovchiga o‘z samimiy tilak va istaklarini yetkazishdan iborat. Mazkur holat sxemasi quyidagicha namoyon

bo‘ladi. So‘zlovchining nutq qaratilgan shaxsni tabriklash uchun o‘z fikrlarini bildirishi uning illokutiv harakati hisoblanadi. Bu harakatning natijasi esa tinglovchida ma’lum bir his-tuyg‘ularning uyg‘onishi, ya’ni illokutiv harakat natijasi bo‘lgan perlokutiv harakatning yuzaga chiqishi hisoblanadi. O‘tmishda bu kabi harakatlarning amalga oshishi madaniyat belgisi ham hisoblangan. “Madaniyat shakllanishida insonlar o‘rtasidagi muloqotdan tashqari, voqelikdagi obyektlar bilan bo‘lgan muloqotning roli ham muhimdir. Ma’lumki, inson va voqelik munosabatida lison o‘ziga xos bog‘lovchi, vositachilik rolini o‘ynaydi. Lison o‘zida voqelikni aks ettiradi, madaniyat esa ushbu voqelikning ajralmas qismidir. Voqelikning o‘zini ham milliy deb atash mumkin va bu milliylik lisonda dunyoni o‘ziga xos “ko‘rish”, uni idrok etish natijasida o‘z aksini topadi”. [2.55] Aynan o‘zbek mentalitetiga xos xususiyatlarni o‘zida ifodalab keluvchi matn tarkibidagi dialektizmlar ham alohida o‘ringa egadir. Buni quyidagi misollarda so‘zlovchining nima demoqchi ekanligini bilishimiz mumkin. *Go‘rdami, aylanay, Asqad bo‘lang men sho‘rlikni qon qaqshatib ketib qolgani rost.* “Yoshlik”. *Hanifa uning qo‘liga osildi: - Meni o‘ldir, o‘ldir, bo‘lajon!* “Yoshlik”. [6.1-5] Bunda matn tarkibida qo‘llanganda gender xususiyatga ega bo‘lgan muloqotdagi voqelikni anglash mumkin.

Barcha nutqiy akt turlarida bo‘lgani kabi tabrik nutqiy aktida ham so‘zlovchining muloqotga kirishishdan ilk maqsadi lokutiv maqsad ko‘rinishida bo‘ladi va bu nutqiy aktlarning barchasi uchun birday xarakterli ekanligi bilan umumiylik hosil qiladi. Bu maqsadning xususiyati – so‘zlovchi ongida tabrik nutqiy aktini amalga oshirish istagining qat’iy shakllanganligi, istakning muayyanligi va kuchi kabilar mazkur harakatning o‘ziga xos tarzda yuzaga chiqishini ta’minlaydi.

Shunga ko‘ra, tabrik nutqiy akti amalga oshishi jarayonida so‘zlovchining og‘zaki muloqotda ovoz ohangi, tovush balandligi va keskinlik darajasi, nutq qaratilgan shaxsni verbal yoki noverbal vositalar bilan o‘ziga jalb qilish xususiyatlari har xil tarzda bo‘rtib turadi. Nutqiy muloqot jarayonida so‘zlovchining kommunikativ maqsadi muhim o‘rin tutadi. Badiiy matnlarda tabrik nutqiy akti amalga oshishida nutq ishtirokchilarining bir-birlarini idrok qilishlari, saviyasi va mazkur jarayondagi kayfiyatlari o‘zaro bir-birlariga hamohangligiga alohida e’tibor beriladi. Chunki tabrik vaqtida bu kayfiyatlar ishtirokchilarga albatta so‘zsiz ta’sir qiladi. Shu sababli bunda so‘zlovchi tomonidan nutqning illokutiv kuchini ta’minlaydigan so‘z orqali amalga oshadigan va nolisoniy vositalarning roli sezilarli darajada ahamiyatli ekanligi bilan xarakterlanadi. Nutq ishtirokchilari orasida muomalaning qay tartibda tuzilishi tabrik nutqiy aktining natijasini belgilab beradi. Vaholanki, “Bugungi kunda zamonaviy fanda «muomala»ning yuzdan ortiq tushunchalari mavjud. Natijada insoniy muomala turlicha tushunila boshlandi va turli xil tavsiflanadi:

a) ijtimoiy munosabatlar sifatida;
b) aloqa va o‘zaro ta’sir sifatida;
v) ikki yoki undan ortiq individning ma’naviy aloqasi sifatida;
d) faoliyat sifatida.

Shu ma’noda ba’zi bir mulohazalarga ko‘ra quyidagini tavsiya etish mumkin:

“Muomala – bu insonlar o‘rtasidagi aloqalarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi hamda ularning hayot faoliyatidagi ehtiyojning murakkab jarayoni bo‘lib, o‘zga kishilar bilan ma’lumot almashish, ularni tushunish va idrok etishning hamkorlikdagi strategiyasidir”. Bu muammoning obyekti – ideal ruhiy voqelikdir. Bu yerda gap inson tafakkurining aqliy, hissiy va ixtiyoriy paydo bo‘lishi hamda uning ruhiyatini ongosti jarayonlarida yuzaga kelishi haqida ketayapti. Uning predmeti esa insonlarning muomalasi va faoliyatining ruhiy va axloqiy tarafi hamda turli hil vazifada faoliyat yurituvchi insonlar guruhining o‘ziga xos ruhiy jarayonlari hisoblanadi.” [5.9-10] Yuqorida qayd etilgan hamkorlikdagi strategiyaning amalga oshishi, ya’ni tabrik nutqiy aktining samarali yakun topishi so‘zlovchining til birliklarini tanlay olishi va nutq qaratilgan shaxsda ham ifodalanayotgan fikrlarga nisbatan ma’lum munosabatning yuzaga kelishiga bog‘liq bo‘ladi.

So‘zlovchining o‘z fikrlarini bir tizimga keltirishi, tabrik nutqiy aktining illokutiv kuchini ta’minlashda monologik diskursdagiga nisbatan faqat lisoniy vositalargagina suyanib qolmay, o‘rni bilan noverbal vositalardan ham foydalanadi. Bunda so‘zlovchi tabrik nutqiy aktini amalga oshirishda o‘z nutqini pragmatik sharoit va vaziyat bilan muvofiqlashib borishga intiladi. Bunda

so‘zlovchi fikrlarining tinglovchiga yetkazilishida so‘z tartibi, gap qurilishi nutqiy vaziyatga tez muvofiq holda yuzaga chiqadi.

Yuqoridagilarga tayangan holda quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

Tabrik nutqiy aktining o‘ziga xos xususiyatlari yozma matnlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Matn muammosi esa tilshunoslikning eng dolzarb masalalaridan biridir. To‘g‘ri, bu borada tilshunoslikda matn bo‘yicha olib borilayotgan izlanishlar ham ancha samarali natijalar bermoqda. Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligida matn muammosi, vazifaviy uslublarga oid matnlarni turli nuqtayi nazardan o‘rganishga oid salmoqli tadqiqotlar olib borilmoqda. Ammo shunday bo‘lsa-da, nafaqat o‘zbek tilshunosligida, balki turkologiya va rus tilshunosligida ham matn tushunchasining mohiyati hamda ta’rifi masalasida turli qarashlar-u talqinlar hanuzgacha davom etib kelmoqda.

Badiiy matnda tabrik nutqiy aktining berilishida ham ma’lum bir pragmatik maqsad ko‘zda tutiladi. Tabrik nutqiy akti badiiy uslub mezonlariga javob berishi, matn doirasida asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini aks ettirishi, personajlar ruhiyati, ichki kechinmalari, his-tuyg‘ularini ochib berish orqali kitobxonga ta’sir etishi, unda tasvirlangan voqea-hodisalarga nisbatan munosabat uyg‘otishi kerak. Nutqiy aktning amalga oshishida nutqning ta’sirchanlik kuchini oshiruvchi lisoniy vositalar ana shu maqsadlarga bo‘ysundiriladi. Bunday matnlar istak, maqsad, sabab kabi qator ma’nolarni ifodalab, tabrik ifodalovchi gapning semantikasini hosil qiluvchi birliklar qatori “istamoq”, “tilamoq” tarzida ifodalanuvchi illokutiv fe’lli kesimlardan foydalaniladi. Tabrik nutqiy aktidagi perlokutiv harakat so‘zlovchining nutq qaratilgan shaxs bilan munosabatga kirishishga intilishini ifodalaydi.

ADABIYOTLAR/ REFERENCES

1. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. –Т.: Фан, 2008. –Б.27.

2. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. Жиззах: Сангзор, Б. 55.

3. Ҳакимов М.Х. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. н-ди …дисс._-Тошкент ,1993. 17, 18, 21 – бетлар.

4. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент. 2002. Б. 61.

5. Ҳусанов Баҳодир Ғуломов Валижон., Муомала маданияти. Тошкент, 2007. Б. 9-10.

6. Bobotayev M.I. On the linguoculturological study of some dialecticisms in the “Annotated dictionary of the uzbek language” 2022. 5 bet. https://cyberleninka.ru/article/n/on-the-linguoculturological-study-of-some-dialecticisms-in-the-annotated-dictionary-of-the-uzbek-language

XIV-XV ASRLAR ESKI O‘ZBEK ADABIY TILIDA YARATILGAN MATNLARDAGI SINONIMLAR TALQINI (LUTFIY IJODI MISOLIDA)

Fayzullayeva Navruza Amridin qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

E-mail:navruzafayzullayeva2103@gmail.com

Annotatsiya Ushbu maqolada XIV-XV asrlar eski o‘zbek adabiy tilida yaratilgan matnlarda qo‘llanilgan sinonimlar Lutfiy ijodi misolida tadqiq qilinadi. Sinonimlarning turlari, o‘z yoki o‘zlashgan qatlamga oidligi, qo‘llanilgan davrlari, badiiy matndagi vazifalari va hozirgi o‘zbek adabiy tiliga bo‘lgan munosabati yoritiladi

Kalit so‘zlar: *eski o‘zbek adabiy tili, badiiy matn, sinonimlar.*

Аннотация *В данной статье на примере творчества Лютфия изучаются синонимы, используемые в текстах, созданных на староузбекском литературном языке XIV-XV веков. Выделены виды синонимов, их принадлежность к собственному или ассимилированному*

слою, периоды их употребления, их функции в художественных текстах, их отношение к современному узбекскому литературному языку.

Ключевые слова: *староузбекский литературный язык, художественный текст, синонимы.*

Abstract In this article, the synonyms used in the texts created in the old Uzbek literary language of the XIV-XV centuries are studied on the example of Lutfiy's work. The types of synonyms, their belonging to their own or assimilated layer, their periods of use, their functions in literary texts, and their relation to the current Uzbek literary language are highlighted.

Key words: *old Uzbek literary language, artistic text, synonyms.*

XIV-XV asr eski o‘zbek adabiy tili o‘zbek tili taraqqiyoti tarixida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu davrning o‘ziga xos xususiyati jonli o‘zbek umumxalq tili asosida eski o‘zbek adabiy tilining shakllanishi bo‘ldi. Ham fonetik, ham leksik, ham sintaktik sathda qator o‘zgarishlar yuz berdi. Bu borada tilning leksik sathi alohida tahliltalabdir. Chunki har qanday tilning qay darajada boyligi va jozibasi eng avval leksikasi bilan baholanadi. Leksik sath taraqqiyotida esa sinonimlar o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Ma’lumki, bir umumiy ma’noni ifodalovchi ikki va undan ortiq so‘zlar sinonimlarni hosil qiladi. Sinonimlar nozik ma’noviy farqlanishlarni keltirib chiqaradi, ta’sirchanlikni oshiradi, eng muhimi, nutqni o‘rinsiz takrorlardan qutqaradi: ***‘‘Muayyan matn ichida ikki va undan ortiq sinonimlarni badiiy tasvir vositasi tarzida ishlatish til birliklari takrori bois voqealanadigan ifoda qashshoqligining oldini oladi’’.*** [6, 49] Eski o‘zbek adabiy tilida qo‘llanilgan sinonimlarni yoritishda biz Lutfiy asarlari tiliga murojaat qildik.

Lutfiy asarlari tili eski o‘zbek adabiy tilining taraqqiyotiga o‘ziga xos tarzda hissa qo‘shdi: ***‘‘Lutfiy asarlarining tili XIV-XV asrlardagi o‘zbek tilini aks ettiradi, uning qo‘llanishi va xizmat doirasi kengayganligini, lug‘at tarkibi juda ko‘p yangi so‘z va iboralar bilan boyiganligini, ko‘rsatadi, o‘zbek adabiy tilining fonetik tizimi va grammatik qurilishi ma’lum me’yorga kelib qat’iylashganini aks ettiradi’’.*** [10, 109] Lutfiy asarlari tarkibida qo‘llanilgan sinonimlar baytlardagi mazmunni ta’kidlab ifodalashga, so‘z o‘ynoqiligini keltirib chiqarishga, takrorlanmas tasvirlar yaratishga, badiiy san’atlar, an’anaviy o‘xshatishlarni yuzaga keltirishga xizmat qiladi. Ularning ayrim xususiyatlarini ko‘rib o‘tamiz:

Teŋri, xudā, haq, og‘ān so‘zlari semantik sinonimik qatorni hosil qilgan. Lutfiy ijodida Alloh so‘zining 4 ta sinonimi uchraydi. Bulardan *teŋri* mo‘g‘ul tilidan, *xudā* fors tilidan, *haq* arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar bo‘lib, *og‘ān* turkiy tilga xos so‘zdir. Misollar:

Burqa’ni kotär, teŋri üčün, el seni korsun,
Bu husn-u mälähät yänä qaysï kun üčündur? [8, 36]

Oshiq ma’shuqadan tangri yo‘lida niqobini ko‘tarishni va uning husnini el ham ko‘rishini iltijo qilyapti. Axir bu husn-u malohatni yana qaysi kun ko‘rsatishi mumkin? Bu baytda ***teŋri*** leksemasi ma’noni ta’kidlab ifodalashga zamin yaratyapti.

Nečäkim zulfuŋda bär kufr-u zälälät zulmati,
Rävšän ul äydek yuzuŋda bärdur ul nuri ***xudā*** . [8, 15]

Ma’shuqaning zulfida qanchalik kufr-u zalolat zulmati aks etmasin, oydek ravshan yuzida shu qadar Alloh nuri aks etadi. Bunda sinonimik qatordagi ***xudā*** leksemasi ma’noni ta’sirchan ifodalash va o‘ziga xos zidlikni hosil qilishga xizmat qilyapti.

Haq *ul kunkim jämäliŋ bär etibtur,*
Jahän husnin bärin sizgä beribtur. [8, 58]

Haq yor jamolini yaratgan kunda jahondagi barcha husn-jamolni unga bergan. Bu misralarda ***haq*** leksemasi ma’shuqaning dunyodagi barcha go‘zalliklar sohibasi ekanligini ta’kidlash uchun qo‘llanilgan.

Yuzuŋizdä ***ogān*** *nuri ayändur,*
Kozuŋiz fitnai äxïr zämändur. [8, 84]

Yorning yuzlarida Olloh nuri ko‘rinib turadi. Bilamizki, tasavvuf adabiyotda oshiq uchun go‘zal yor Alloh jamolini aks ettiruvchi mazhar hisoblanadi. Demak, unda Alloh jamoli jilvalanadi. Ma’shuqaning ko‘zlari esa oshiq boshiga oxir zamon keltirguvchi g‘avg‘odir. Ushbu baytda ***ogān*** so‘zi yor go‘zalligini aks ettirishda qo‘llanilgan.

Gunäš, xuršed, kun, šäms, quyāš, āftāb so‘zlari semantik sinonimik qatorni hosil qilgan. Lutfiy ‘‘Devon’’ i tarkibiga kirgan g‘azallarda quyosh so‘zining 5 ta sinonimi keltirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bulardan ***gunäš*** o‘z qatlamga mansub so‘z bo‘lib***, xuršed*** va ***āftāb*** forschadan, ***šäms va kun*** arabchadan o‘zlashgan birliklardir.

Qanï bu šäkl-u šämāyil fäläkŋiŋ āyindä
Dag‘ï bu husn-u mälāhät ***gunäš*** *čirāyindä?* [8, 20]

Baytda yorning shakl-u shamoyili na falakning oyida, husn-u malohati na ***gunäš*** chiroyida borligi ta’kidlanyapti. ***Gunäš*** ruju san’atini ham yuzaga keltiryapti.

Xuršed *tug‘ar har kun ɵšül āy yāqasidin,*
Āy koŋlakiga haq ne bälā berdi säādät. [8, 28]

Bilamizki, oy nur sochmaydi. U quyoshdan kelgan nurni qaytarish evaziga Yerga yorug‘ bo‘lib ko‘rinadi. Lutfiy bu holatdan shoirona mahorat bilan foydalangan. Baytda tasvirlanishicha, Haq oyga shunday saodat berganki, quyosh har kun uning yoqasidan (oyning faqat bir tomoni, bir yoqasi quyosh nurini qaytaradi) paydo bo‘lib, uning ko‘ylagi yanglig‘ ko‘zga tashlanadi.

Dedilär äräziŋni āy ilä ***kun****,*
Teŋriniŋ nurinä nelär dedilär. [8, 34]

Baytda yorning go‘zalligini va bu chiroy nurini oy va quyoshga o‘xshatilayotgani, ammo bu nur tangri jilvasi ekanligi ifodalanmoqda.

Sunbul sāčiŋni yel ilä gulbargi tär qučär,
Dävlät kozuŋ bāšindäki ***šäms****-u qamar qučär.* [8, 38]

Mumtoz adabiyotda ***šäms*** so‘zi ko‘pincha ***qamar*** birligi bilan birgalikda qo‘llaniladi. Ushbu baytda ham shu holatni ko‘ramiz. Baytda bu ikki birlik ma’no ta’kidiga xizmat qilyapti.

Ul särvkim ***quyāš*** *turur bāri meväsi,*
Gar tog‘ri yursäŋ ušbu qadi mustäqïm erur. [8, 40]

Yuzuŋni bir däričä āčib kormuš ***āftāb****,*
Andin xujästä tālei färxundäfāl erur. [8, 55]

Misralarda yor jamolidan ozgina bahramand bo‘lgan oftobning shundan baxtiyor-u toleyi porloq ekanligi ta’kidlanilyapti. Ushbu baytda oftob tashxis va husni ta’lil san’atini yuzaga keltiryapti.

Näsim-säbā so‘zlari semantik sinonimik qatorni yuzaga keltirgan. Bu birliklar tong shamoli, yoqimli shabada ma’nolarida kelib, yorga murojaat qilishda, uning go‘zalligini ta’riflashda qo‘llanilgan. Ikkala birlik ham arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar hisoblanadi. Misollarga e’tibor qaratamiz:

Zulfuni tāŋ ***näsimi*** *tušurmiš qulāg‘ïnä,*
Bu sozni bār aytqali kimniŋ majāli bār. [8, 61]

Tong nasimi go‘zalning sochlarini qulog‘iga tushurgandan keyin bu so‘zni yorga takror aytgali hech kimda hol qolmabdi.

Qand läbiŋä gär ***säbā*** *teksä-yu otsä yer uzä,*
Bolg‘ay u kun bähādä ul bärčä näbāt-u näyšäkär. [8, 67]

Ma’shuqaning qand labiga sabo tegib, butun yer uzra esgan kun barcha narsalar novvot va shakarqamish singari shirin bo‘lar ekan. ***Säbā*** baytda mubolag‘a san’atini yuzaga keltirishda ham ishtirok etgan.

Āčun-dunyä so‘zlari semantik sinonimik qatorga birlashgan. Bu qatorda dunyä arab tilidan o‘zlashgan so‘zdir.

Gul čehralar ***āčunda*** *agar sad hazār erur,*
Sayd etguvči koŋlum qušin bir nigār erur. [8, 60]

Agar gul yuzlilar olamda yuz ming bo‘lsa ham, oshiqning ko‘ngil qushini asir (ovlagan) etgan ularning yolg‘iz bir nigor edi.

Sen ozga mälāhät bilä jānlarg‘a kirarsen,
Dunyädä *yoq ersa, ey begim, husn bäse bār.* [8, 62]

Kumuš-siym birliklari semantik sinonimik qatorda birlashgan. Bu qatorda ***siym*** forschadan o‘zlashgan so‘zdir. Ushbu birliklar oshiqning ishqdagi nochor holatini bayon etishda, taqinchoq va tanga pul ma’nolarida qo‘llangan. Baytlarda asosan sifatlash vazifasini bajargan.

Kumush *biläkläriŋizni yeŋ ičrä yāšurmäŋ,*
Kišiniŋ ilgi āčuq bəlsä, benazir bəlur. [8, 35]

Lirik qahramon yordan kumush kabi oq bilaklarini yeng ichida oshiqdan yashirmasligini so‘ramoqda. Va xalqona usulda fikrini dalillamoqda. Xalq orasida qo‘li ochiq, saxiy kishilarning yo‘li hamisha ochiq bo‘lishi, barchadan martabasi yuqori bo‘lishi haqida bir qancha naqllar bor. Ma’shuqaning bilaklarini yoriga ko‘rsatishi ham bir saxiylikdir.

Bu koŋul bülbül ***bikin*** *gultek yaŋāqïn ārzulär,*
Bəldi yuz āltin-u koz siymtek säqāqïn ārzulär. [8, 69]

Oshiqning ko‘ngli bulbul singari yorning qizil yanog‘ini orzu qiladi. Ko‘zlari esa siymdek iyaklarini. Bu holatda oshiqning yuzi kuchli hijron va firoqda go‘yo oltin singari sarg‘ayib ketgan.

Kibi, bikin, yaŋlïq o‘xshatish-qiyoslash ko‘makchilari semantik sinonimlar qatorini hosil qilgan. Bosh kelishikdagi, kishilik va ko‘rsatish olmoshlarining qaratqich kelishigidagi shakllari bilan faol qo‘llangan. *Kibi va yaŋlïq* ko‘makchilari XIII-XIV asrlarda, *bikin* ko‘makchisi esa XIV-XV asrlarda faol iste’molda bo‘lgan. Lutfiy ijodida bu uch birlik ham mavjud. Faqat kibi shaklidan shoir ko‘proq foydalanadi. *Kibi, bikin, yaŋlïq* mumtoz adabiyotda tashbeh san’atini ham yuzaga keltiradi. Misollarga qaraymiz:

Koŋulni ozgägä bergil, demäŋki muškildir,
Jähändä siz ***kibi*** *bir dilräbā keräk bolsä.* [8, 14]

Ma’shuqa sevgisiga mushtoq oshiq undan o‘zgaga ko‘ngil bergin demasligini o‘tinmoqda. Chunki mahbuba singari dilraboni jahond topish qiyin.

Yaqub ***bikin*** *kop yig‘ïdin qālmadi sensiz,*
Nuri bäsärim xāh inān, xāh inānmä. [8, 22]

Oshiq firoqda Yaqub kabi shu qadar yig‘ladiki, natijada ko‘zlari ko‘r bo‘lib qoldi.

Katān ***yaŋlïq*** *meni behāl qïlg‘ān,*
Qamartek taL’ati tābändäsidur. [8, 46]

Oshqining holini kanop kabi behol qilgan yorning oydek porloq yuzidir.

Birlä, bilä, ilä ko‘makchilari semantik sinonimiyani hosil qilgan. XIII-XIV asrlar eski o‘zbek adabiy tilida asosan birlä va bilä shakllari qo‘llangan. XV asrdan boshlab esa ilä ko‘makchisi faol iste’molda bo‘lgan. Lutfiy “ Devon”ida ularning har uchala turidan foydalanilgan. Bu sinonimik qator g‘azal baytlarida birgalik, vosita-qurol, zamon-payt kabi ma’nolarni ifodalashda ishtirok etib, so‘zlarni bog‘lagan.

Bir qāna korgali yuzun umr tilär koŋul, vale
Xizr hayāti ***birlä*** *ham qānmāg‘ iši māhāl erur.* [8, 83]

Lirik qahramonning ko‘ngli yor yuzini qonib ko‘rgani mushtoq, lekin agar oshiqqa Xizr umrichalik umr berilgan bo‘lsa-da, uning bu husnga to‘yishi qiyin bir ish.

Bāq koz učі ***bilä*** *sävāb aylämäk üčün,*
Aqlimni yana mäst-u xarāb aylämäk üčün. [8, 205]

Go‘zal yorning ko‘z uchida nazar solishi g‘arib oshig‘iga uning qilgan savob amali bo‘ladi. Ammo bu qarash oshiqni yanada ishq borasida mast, xarob qiladi.

Sen husn ***ilä*** *bāysen, senga čun färz durur haj*
Qïl teŋri üčün, kaba’i koŋlumni ziyārät. [8, 30]

Mumtoz adabiyotda ko‘ngil Alloh taoloning inson bag‘ridagi uyi yanglig‘ muqaddas bir makon sanaladi. Shu boisdan u Kabaga qiyoslanadi. Ma’shuqa husn mulkida boy. Unga haj farz amallardan biri hisoblanadi. Ana shu amalni ado etish uchun u oshig‘ining qalbini muhabbati bilan ziyorat etsa bas.

Tahlil qilingan sinonimlarning hozirgi o‘zbek tiliga munosabati

T/r	So‘zlar	Aynan qo‘llaniladi	Ayrim tovush	Eskirgan

			o‘zgarishlari bilan qo‘llaniladi	
1	teŋri		+	
2	xudā	+		
3	haq	+		
4	og‘ān			+
5	günäš			+
6	xuršed		+	
7	kun	+		
8	šäms	+		
9	quyāš	+		
10	āftāb	+		
11	säbā	+		
12	näsim	+		
13	dunyä		+	
14	āčun			+
15	siym	+		
16	kumuš	+		
17	yaŋlïq			+
18	bikin			+
19	kibi		+	
20	birlä	+		
21	bilä			+
22	ilä	+		

Xulosa qilib aytganda, Lutfiy ijodida qo‘llanilgan sinonimlar XIV-XV asrlar eski o‘zbek adabiy tilining barcha xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi. Ular asosan semantik sinonimlar qatoriga birlashgan bo‘lib, o‘z va o‘zlashgan qatlamga oiddir. Sinonimiy hodisasi ot so‘z turkumida nisbatan ko‘proq uchraydi. Bu sinonim birliklar matnni o‘rinsiz takrorlardan saqlash bilan bir qatorda ma’lum badiiy san’atlarni, so‘z o‘yinlarini ham hosil qiladi. Lutfiy ijodida qo‘llanilgan sinonimlar hozirgi o‘zbek adabiy tili bilan yaqin munosabatda. Ularning asosiy qismi hozirgi o‘zbek adabiy tilida aynan yoki ayrim tovush o‘zgarishlari bilan mavjud. Qolgan qismi hozirda iste’moldan chiqqan yoki faqat badiiy uslubdagina qo‘llanilishga xoslangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. - Т.:Фан, 1983. Т. 1.- 656 б.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. - Т.:Фан, 1983. Т. 2.- 644 б.
3. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. - Т.:Фан, 1983. Т. 3.- 624 б.
4. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. - Т.:Фан, 1985. Т. 4.- 636 б.
5. Абдураҳмонов Ғ., Шукуров Ш., Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2008 – 528 b.
6. Дадабоев Ҳ. “Қутадғу билиг” матнида бадиий актуаллашган лексик воситалар хусусида// Стилистика ва прагматика. Профессор С.Каримов таваллудининг 60 йиллигига бағишланган илмий-назарий конференция материаллари. –Самарқанд, 2010. 4-5 июнь.–В. 49.
7. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. -Т.: Зарқалам, 2006 – 128 б.
8. Лутфий. Сенсан севарим. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. -352 б.
9. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси.– Т.: Мумтоз сўз, 2010. – 288 б.
10. Мухторов А., Санақулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. - Т.: Ўқитувчи , 1995.-161 б.

YURIDIK DISKURS HAQIDA MULOHAZALAR

Xolida Ubaydullayeva Manopovna
NavDPI 1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada diskurs, tilshunoslik va yurispuridensiya kesishmasida shakllanayotgan yuridik tilshunoslik, yuridik diskurs, yuridik diskursda subyekt, subyektni tahlil qilish uchun materiallar, yuridik diskursning antropolingvistikadagi o‘rni va mohiyati haqida so‘z boradi.

Аннотация. В данной статье говорится о юридической лингвистике, юридическом дискурсе, субъекте в юридическом дискурсе, материалах для анализа предмета, места и сущности юридического дискурса в антрополингвистике, которая формируется на стыке дискурса, лингвистики и юриспруденции.

Annotatsion. This article talks about legal linguistics, legal discourse, subject in legal discourse, materials for analyzing the subject, place and essence of legal discourse in anthropolinguistics, which is formed at the intersection of discourse, linguistics and jurisprudence.

Kalit so‘zlar: diskurs,yuridik diskurs, lisoniy shaxs, matn, huquqiy nutq, muammo, antropolingvistika

Ключевые слова: дискурс, юридический дискурс, языковая сущность, текст, юридический дискурс, проблема, антрополингвистик

Key words: discourse, legal discourse, linguistic entity, text, legal discourse, problem, anthropolinguistics

KIRISH

Bugungi kunda huquqiy ongning yuksalishi, qonun va qarorlarning fuqarolar tomonidan mulohaza qilinishi tilshunoslar va huquqshunoslar oldiga o‘rganilishi zarur bo‘lgan muhim vazifalarni qo‘ydi. Tilshunoslikning yangi bosqichda o ‘rganilishi ko‘plab muammolarga yechim bo‘la oldi. Til va nutq farqlanib, lingvistikamizga “diskurs” tushunchasi kirib keldi. Ushbu atama ilk bor 1952-yil Z.Xarrisning “Diskurs tahlili” maqolasida qo‘llangan. “Diskurs” tushunchasi turli tilshunoslar tomonidan turlicha talqin qilgan va hozirgacha aniq bir qoidasi mavjud emas.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Zvegintsev diskursni “bulutlar orqasiga yashiringan lisoniy hudud”[Zvegintsev 1976:170]deb baholagan bo‘lsa, Arutyunova esa “Diskurs-nolisoniy omillar(pragmatic,ijtimoiy-madaniy, ruhiy) bilan birgalikdagi matn; voqea kechishi nuqtayi nazaridan qaralayotgan matn; maqsadli ijtimoiy harakat sifatida qaraladigan nutq”[Arutyunova 1990:136-137] deya ta’kidlaydi. Ushbu atamaning o‘rganilishi va qo‘llanilishi so‘nggi 20 yil ichida keng tus oldi.O‘zbek tilshunosligida “diskurs” bilan bog‘liq mulohazalar Sh.Safarov asarlarida ko‘proq uchraydi.Olim “Kommunikativ va informativ mazmunlar uyg‘unligi muloqot tizimi makrobirligining yaxlitligini ta’minlaydi. Hozirgi paytda bunday yaxlitlik xususiyatiga faqatgina diskurs ega ekanligi e’tirof etilmoqda”, deya fikr bildiradi.

Kubryakova esa “Tilshunoslik fanining hozirgi taraqqiyoti davrida, diskursning umumiy qabul qilingan biror bir ta’rifi mavjud emas” [Kubryakova 2000:6] degan xulosaga keladi.

Shunday bo‘lishiga qaramasdan, tilshunosligimizda diskursga oid ko‘plab ilmiy ishlar qilindi.Diskursning bir nechta turlari aniqlandi: badiiy diskurs, siyosiy diskurs, ritorik diskurs, media diskursi, gazeta diskursi, yuridik diskurs va boshqalar.

Til va yurispuridensiya sohasi kesishgan nuqtada bir nechta sohalar paydo bo‘ldi va bu ayni zarurat edi. Chunki huquqiy matnlarni o‘rganish,mushohada qilish va unga yechim topish yuridik tilshunoslikni yuzaga keltirdi.Huquqiy matnlarni semantik-stilistik tahlil qilish boshlandi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ijtimoiy muhitga yangi qadriyat yo‘l-yo‘riqlarining kiritilishi jamiyatning tubdan individuallashuviga, jamiyatning keskin farqlanishiga, shaxs tushunchasining o‘rnatilishi va rivojlanishiga olib keldi. Til asosiy aloqa vositasiga aylandi,yangi jamiyat voqeligiga munosabatni ifodalash vositasi, faoliyat yurituvchi munosabatlar muhiti diskursda shakllandi. Ma’lumki, qonun o‘z vazifalarini amalga oshirish uchun til va nutqdan unumli foydalanadi. So‘zga qo‘shimcha ravishda, matndagi semantik munosabatlar huquqshunoslarning e’tiborini tortdi. Yurispuridensiya

va lingvistika bir paytning o‘zida nutqning afzalligi, ma’nolarning ko‘lami, qonunlarda nima yozilganligi va uning tushunilishi bilan qiziqa boshladi.

Til va nutq faktlari o‘rganiladi, “huquqiy maydon” va meta-axborot darajasi inobatga olinadi. Matn asliyat sifatida qabul qilinadi. Shunday qilib huquqiy hujjatlar xususiy amalga oshiriladi yoki “qonun tili” orqali umumiy manfaatlar qaysi huquqiy nutqning tarkibiy qismi ekanligi kuzatiladi.

Innovatsiyalarning tilda sodir bo ‘lishi huquqiy nutqni o‘rganishni taqozo etdi.Huquqiy nutqning tahlil qilinishi esa yuridik diskursning antropolingvistika maydonida paydo bo ‘lishiga olib keldi.Yuridik diskursning o‘rganilishi “yuristlingvistika”,“lingvokriminalistika” kabi sohalarning rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadi.Yuridik diskursning bir nechta turlari mavjud bo‘lib,bular quyidagilardir:

1.Institutsional
2.Shaxsiy
3.Sudga oid
4.Qonunga oid va boshqalar.

Yuridik diskursda quyidagi vazifalar hal qilinadi:

__ “huquqiy nutq” tushunchasini tavsiflash va uning parametrlarini aniqlash;
__ qonuniy vostilarni ko‘rsatish huquqiy matnda amalga oshiriladi;
___ “huquqiy nutq”ning talqiniga ta’sir etuvchi lingvistik va ekstralingvistik omillarni aniqlash;
___tezaurusning metalingvistik mohiyatini tavsiflash;
___huquqiy nutqni semantik,pragmatik, lingvokulturologik o‘rganish;

Yuridik hujjatlar matni yuridik diskursning asosiy o‘rganish obyektidir.Axborot ta’sir ko‘rsatuvchi funksiya emas, matn muallifining ijtimoiy pragmatik pozitsiyasini ochib beradi. Davlatning siyosiy, huquqiy tuzulishining o‘zgarishi subyekt pozitsiyasining ham o‘zgarishiga olib keladi. Chiqarilgan qarorlar shaxslashtirilgan janr sifatida o‘rganiladi. Yuridik diskursni bayon etishda til vositalari va uning interperitatsiyasi juda muhim. Ushbu diskursda shaxsning o‘rnini aniqlashda da’vo arizalari, shikoyat arizalari, tushuntirish xatlari
(jabrlanuvchi va jinoyatchining), dalolatnoma, bayonnoma, javob xatlari kabi materiallarni nazariy, semiotik, lingvokulturologik, sotsiopragmatik jihatdan o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

O.A.Nesterovaning fikricha, lingvokriminalistika doirasida matn tadqiqotining asosiy jihatlari quyidagilardan iborat: 1. Matnni tahlil qilish hodisa va vaziyatlar haqidagi axborot tashuvchisi sifatida. 2. Shaxs yoki shaxslar guruhi yoki ularning harakatlarining baholash belgilarining tashuvchisi sifatida matnni tahlil qilish. Bu turkumga ekstremistik ishlar bo‘yicha, shuningdek, tuhmat va haqorat bilan bog‘liq ishlar bo‘yicha ashyoviy dalil bo‘lgan matnlar tahlili kiradi.3. Matnni nutq akti sifatida tahlil qilish. Ishning ushbu jihati suhbatdoshlarning roli va funktsiyalarini aniqlash, tahdid belgilari, rag‘batlantirish va harakatga chaqirish bilan bog‘liq savollardan iborat. [Нестерова, 2019, 261- 264]

Ijtimoiy fanlarning rivojlanishidan kelib chiqqan holda “yuridik diskursda subyekt” atamasi o‘zining o‘rganilishi va muhokama qilinishini talab etadigan mavzudir.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ingliz, rus, turk tilshunosligida huquqiy matnlarda shaxsning o‘rni o‘rganilgan va e’tirof etilgan, bu tushuncha o‘zbek tilida tadqiqot mavzusi sifatida hali o‘rganilmagan, matnlarni tahlil qilish orqali diskursda “ shaxs” tushunchasiga umumiy ta’rif beriladi, yuridik diskursda lisoniy shaxs maqomi antropolingvistika sohasining bir qismi sifatida o‘rganiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдуназарова Н. “Дискурс”ни изоҳлашга бўлган турлича ёндашувлар. Academic research in educational sciences. 2021, №4
2. .Арутюнова Н.Д. Дискурс. В кн.: Лингвистическая энциклопедия,-М., 1990.-С. 136-137.
3. Голев Н.Д. Юридический аспект языка в лингвистическом освещении // Юрислингвистика. - 1999. - №1. - С. 12-59.

4. Грачев М.А. Судебно-лингвистическая экспертиза. - М.: ФЛИНТА, 2016. - 360 с.
5. Кубрякова Е.С. О понятиях дискурса и дискурсивного анализа в современной лингвистике. В кн.: Дискурс, речь, речевая деятельность: функциональнме и структурнме аспектьг Сб. обзоров - М.: РАНИНИОН, 2000,- С. 7-25.
6. Нестерова О.А. Судебная лингвистическая экспертиза и ее возможности // Международные и национальные тенденции и перспективы развития судебной экспертизы. - 2019. - С. 261-264.
7. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Т.: 2008

TEZAURUS TIPIDAGI LUG‘ATLAR BUNDAY LUG‘ATLARNING O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI AHAMIYATI

Ilmiy rahbar:f.f.f.d Suyarova Nargiza
Navoiy davlat pedagogika instituti doktoranti
Bobozaripova Malohat

Annotatsiya: Maqolada asosan tezaurus tipidagi lug‘atlar haqida so‘z boradi. Lug‘atlarning turlari, turli xildagi lug‘atlarni yaratishning ahamiyati, idiografik lug‘atlar, tezaurus lug‘atlar bunday lug‘atlarning turlari kabi masalalar shuningdek, bu lug‘atlarning qanchalik keng imkoniyatlari borligini yoritishga harakat qilindi. Tezaurusli lug‘atlardagi so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishlari, bog‘lanish turlari tushuntirildi.

Kalit so‘zlar: Tezaurus lug‘at, idiografik tezaurus, anologik tezaurus, assotsiativ tezaurus, leksik-semantik bog‘lanish, semantik-gramatik bog‘lanish, sinonimlar, antonimlar, giponimlar, mavzuviy guruhlar.

So‘z-serqirra hodisa. So‘z-insonlarning fikri, tushunchasi, his-tuyg‘ularini ifodalabgina qolmay, odamlarga o‘z-o‘zini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

So‘z va iboralarning turli ma’nolarini jilolantirib turgan har xil turdagi lug‘atlar tuzish umummadaniy ahamiyatga molik hodisa sanaladi. Bunday lug‘atlardan biri, bu tezaurus tipidagi lug‘atlardir.

Leksik birliklarni ular orasidagi ma’noviy va sintaktik bog‘lanishlar asosida va guruhlarni ularning so‘z markazi shakllariga qarab joylashtirishni ta’minlaydigan lug‘at - tezaurusdir.

Tezaurus, ayniqsa, elektron formatdagi tezaurus har bir sohaga doir so‘zlarni to‘liq ochib beradigan lug‘atlardan biri sanaladi. Oddiy lug‘atlardan farqli o‘laroq tezaurus lug‘atlar, har bir so‘z mohiyatining to‘liq yoritib berilishini ta’minlaydi. Tezaurus lug‘atda bir qancha lug‘at belgilarining mujassamlangan holatini ko‘rish mumkin. Bu lug‘atning elektron formatdagi ko‘rinishi insonning vaqtini tejash, bir so‘z haqida to‘liq ma’lumot olish imkonini beradi.

Izohli lug‘atdan farqli ravishda tezaurus tushunchani izohlabgina qolmay, uning sun‘iy intellekt doirasida faol qo‘llanadigan boshqa tushunchalar va shu tushunchalar guruhiga munosabatini ham aks ettiradi. Shu bilan bir qatorda tezaurus informatsiya (axborot) nazariyasida subyekt egallagan barcha ma’lumotlarning majmuasi sifatida ham qo‘llanadi. Yevropada tezaurus lug‘atlarga qiziqish uyg‘otgan, “Ingliz so‘zlari va iboralari tezaurusi” bo‘lib uning muallifi L.M.Roje edi. U o‘z lug‘ati so‘z boshida shunday yozadi “Biz aytmoqchi bo‘lgan fikrimizni qanchalik aniq tasovvur qilmaylik, ba’zan biz shunday vaziyatlarga tushib qolamizki, bizga so‘z yetishmay qoladi. O‘z fikrimizni aniq ifodalash uchun bitta so‘z o‘rniga bir nechta ijobiy va salbiy, kuchli va kuchsiz, ba’zan esa keraksiz so‘zlarni ishlatib yuboramiz. Tezaurus lug‘atning eng muhim xususiyati shundaki, bir fikrning barcha qirralarini ochib beruvchi so‘z va iboralarning boy to‘dasini tortiq qiladi”[96]

Yana bir rus tadqiqotchi olimi A.S.Narinyani “Nima uchun Rossiyada birorta ham tezaurus yo‘q, uni qanday tuzish kerak, tezaurus nimaga va kimga kerak?” degan savollarga o‘z

[96] Yusupov S.N. Tezaurus i zakonodatelstvo (K sozdaniyu obshepravovogo tezaurusa) // Gosudarstvo i pravo. – 1978. – №5. S.115.

munosabatini bildiradi: “Chorak asr oldin AQSHdagi safarimda meni Rojening tezaurusini sotib olishga majbur qilishdi “Sotib ol keyin tushunasan va bizdan minnatdor bo‘lasan” deyishdi. Darhaqiqat hozirgacha ham lug‘at menga yordam beradi. U menga inglizcha matnni tarjima qilishga yordam berdi. Ba’zan notanish yoki uncha tanish bo‘lmagan so‘zning ottenkasini bilish lozim bo‘lsa. Shu lug‘atga murojaat qilaman. Ruscha matnni tahlil qilyapman bir so‘zning sinonimi kerak bo‘lib qoldi. Aksiga olib bu so‘z xotiramdan yashirinib qoldi, yana shu lug‘atga murojaat etaman.

Rojening tezaurusi ingliz madaniyatining muhim bir bo‘lagi. U matn tuzuvchi yoki tahrirlovchi har bir kishining-o‘quvchi, talaba, jurnalist, yozuvchi va keng ommaning yaqin yordamchisidir.

Afsuski Rojening lug‘atini almashtiruvchi birorta han Ruscha lug‘at yo‘q. Bu bizning madaniyatimizning, o‘rta va oliy ta’limimizning kemtik joyi”.[97]

Bu fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, biror bir tilda mukammal tuzilgan tezaurus lug‘at o‘sha tilning so‘z boyligini, so‘zlarning qo‘llanilish o‘rinlarini, tildagi so‘zlarning barcha imkoniyatlarini o‘zida aks ettira oladi. Shuning bilan birgalikda, shu tilda so‘zlashuvchi xalqning madaniyatini ham ko‘rsatadi.

Tezaurus lug‘atlar koorporativ kommunikatsiyaga ham yordam beradi. Koorporativ kommunikatsiya-kompyuter lingvistikasiga o‘xshash, soddaroq qilib aytganda, bitta kasb yoki bir xil tartib-intizom bilan bog‘liq insonlar o‘rtasidagi muloqotlarning, munosabatlarning asosi sanaladi.

Umuman olganda o‘zi tezaurusli lug‘atlar kompyuter lingvistikasi algoritmlarida saqlanayotgan ma’lumotdan foydalanish, jumladan, tarjima jarayonini maksimal darajada osonlashtirish maqsadida ham ishlab chiqiladi.

Tezaurus lug‘atlarni ishlab chiqish borasida chet davlatlarda juda yaxshi tadqiqotlar amalga oshirilgan. Masalan, ingliz tilida yaratilgan tezaurus lug‘ati, V.Dal rahbarligida ishlab chiqilgan izohli tezaurus lug‘ati, T.F.Yefremova tomonidan ishlab chiqilgan rus tildagi yangi so‘zlarning tezaurus lug‘ati, S.I.Ojegov, N.Y.Shvedovalar tomonidan ishlab chiqilgan rus tilining izohli tezaurusli lug‘ati, Fasmer Maks tomonidan yaratilgan rus tilining etimologik tezaurusli lug‘ati shuningdek, yuridik terminlarning tezauruli lug‘ati ishlab chiqilgan.

Ingliz tilida yaratigan WordNet toifali tezaurus lug‘at kompyuter leksikografiyasida erishilgan innovatsion yutuqlardan biridir. Chunki unga ilova etilgan so‘zlar mashina o‘qishi uchun mumkin bo‘lgan holatga moslashtirilgan.

Ingliz WordNet tezaurus lug‘atida so‘zlarning semantik aloqalarini chuqur o‘rganish sinonimiya hodisasi muhim deb qaraladi. Unda sinonimlar muayyan bloklarga ajratilib, semantik jihatdan tasniflangan. Sparck Jones o‘zining semantik tasnif nazariyasiga asos solgan tadqiqotchidir. U o‘zining bu boradagi izlanishlarida matndan olingan muayyan so‘z shakllari bilan birga bo‘lishi mumkin bo‘lgan barcha sinonimlar tizimini yaratadi[98].

Tezaurus tipidagi lug‘atlarda darajalanish eng muhim holatlardan biridir, tezauruslar bir qancha darajalarga bo‘linishi mumkin. Tezaurus lug‘atlardagi darajalash biz uchun yangilik emas, bu muammo bir qancha vaqtlar davomida mamlakatimizdagi va xorijning qator tilshunoslari (V.V.Morkovkin, L.P.Stupin, K.Marello va b.)ni e’tiborini tortib kelgan.

Darajalanish, ko‘pincha, ingliz tilida yaratilgan zamonaviy tezaurusli lug‘atlarning materiallariga asoslangan holda, bosma va elektron shakllarda ifodalanadigan qayta yuzaga kelgan leksikografik hosilalarni hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

Darajalashda I.Burxanov va O.M.Karpovalarning oldinroq ishlab chiqqan mezonlariga, bundan tashqari, inglizlar ishlab chiqqan 30 dan ortiq tezaurusli lug‘atlarning ko‘rinishidan olingan natijalarga asoslaniladi. Darajalashda ishlatiladigan atamalar V.V.Morkovkin, K.Marello, Y.N.Karaulov, I.Burxanovlar tomonidan leksikografiyaga kiritilgan. Shu kungacha mavjud bo‘lgan

[97] Lug‘atlar va ularda milliy madaniyat tushinchasuning aks etishi. Arxiv.uz.

[98] George A. Miller, Richard Beckwith, Christiane Fellbaum, Derek Gross, and Katherine Miller. Introduction to WordNet: An On-line Lexical Database (1993)

Jahon tilshunosligida til va madaniyat munosabatlari masalasi dastavval antik davr faylasufi Arastu, keyinchalik Vilgelm fon Gumboldt, E.Sepir, B. Uorf, L. Vaysgerber asarlarida, yaqin davrda esa A. E. Vejbitskaya, V.V.Vorobyov, E. V. Babayeva, L. E. Vilms, V.M.Shaklein, N. D. Arityunova, S. V. Ivanova, V.N.Teliya, V.A.Maslova, Z. K. Sabitova kabi olimlarning tadqiqot ishlarida yoritildi[99]. Til va madaniyatning bog‘liqligi, madaniyatning tilda aks etish muammosi bilan bog‘liq masalalarning metodologik asosi yaqin yillardangina boshlandi. Ularning asosi sifatida V.V.Vorobyov, V.M.Shaklein, V.N.Teliya, V.A.Maslovalarning ishlarini qayd etish mumkin.

O‘zbek tilshunoslik ilmida ham bu yo‘nalishda qator ishlar olib borilmoqda. Xususan, o‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi kabi qator masalalarga qaratilgan dastlabki ishlar sifatida A.Nurmonovning “O‘zbek tilida lingvokulturologik yo‘nalish”, N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab”, N.Sayidrahimovaning “Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar”, “Lingvokulturologiyaning

[99] Bu haqida qarang. Вежбицкая А. Е. Язык. Культура. Познание / Пер. с англ., отв. ред. М.А. Кронгауз, вступ. ст. Е.В.Падучевой.- М.: Русскине словари, 1996; Воробьев В.В. Теоритические и прикладные аспекты лингвокультурологии. Дисс. ...д-ра филол. наук. М., 1996. 112 с.; Бабаева Е.В. Культурно-языковые характеристики отношения к собственности (на материале немецкого и русского языков): Дисс. филол. наук. Волгоград, 1997. – 207 с.; Вильмс Л.Е. Лингвокультурологическая специфика понятия «любовь» (на материале немецкого и русского языков): Дисс. ... канд. филол. наук. - Волгоград. 1997. – С. 212; Барышев Н.В. Национальная специфика лексико-семантических полей «Средства передвижения» в русском и английском языках: Дисс. ...канд. филол. наук. Воронеж, 1999. -С. 156: Маслова В.А. Лингвокультурология. Учебник. М., 2001: AlefirenkoN.F. Linguocultural nature of mentality // Язык. Словесность. Культура. 1/2011; шу муаллиф. Лингвокультурология: ценностно-смысловое пространство языка: Учебное пособие. 3-е изд. М. Наука, 2013. -С. 288: Сабитова З.К. Лингвокультурология: Учебник. М.: Флинта, 2013.-С. 524: Мурзинова И.А. Эмблематичность образных характеристик лингвокультурного типажа «британская королева» в языковом сознании носителей британской лингвокультуры // Вестник ТГПУ (TSPU Bulletin). 2013. - №10. -С.

komponentlari” nomli maqolalarini, D.Xudoyberganovaning “Matnning antropotsentrik tadqiqi” mavzusidagi tadqiqotini belgilash mumkin[100]. Mazkur ishlarda lingvokulturologiya fanining mohiyati, predmeti va obyekti masalalari o‘rganilgan. So‘nggi yillarda esa Qalandarov Sh., Tosheva D., Rustamov D., Rustamova D.,Usmanov F. kabi tadqiqotchilar lingvokulturologik yo‘nalish rivojiga sezilarli hissa qo‘shishdi[101].

Tahlil va yechimlar

O‘zbek tilshunosligidagi so‘nggi yillar, ya’ni milliy qadriyatlarning tiklanish davri so‘zlovchidan tilni, ayniqsa, davlat tili maqomiga ega bo‘lgan o‘zbek adabiy tilini chuqur egallashni; fikrni ixcham, asosli, obrazli va ta’sirchan shaklda ifodalashni taqozo etadi. Shoir va yozuvchi, notiq va fasih, qari va yosh borki, aytilayotgan fikrini asoslamoqchi yoki mustahkamlamoqchi bo‘lsa, albatta maqolga murojaat qiladi. Maqol vositasida ifodalangan fikr, berilgan javobni tilning hech bir vositasi almashtira olmaydi yoki maqol darajasida asoslab berolmaydi. Pragmatik nuqtayi nazardan maqollar turli maqsadlarda, jumladan, kesatish, yupatish, o‘git berish, maslahat berish, saboq berish, ogohlantirish, tahdid qilish maqsadida qo‘llanilishi mumkin.

Biroq har qanday maqol va matal ham lingvokulturologik tadqiqotlarning predmeti bo‘lavermaydi. Bu o‘rinda faqat muayyan xalq yoki etnosning tarixi, madaniyati, turmushi, ma’naviyati va h.k. bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan maqol va matallar o‘rganilishi lozim bo‘ladi.

Tilshunoslikning ayrim o‘rinlarida maqol va idioma tushunchalari farqlanadi. Ma’nosi tarkibidagi lug‘aviy birliklarning asl ma’nosiga bog‘liq bo‘lmagan, yaxlit holda bir ko‘chma ma’no beruvchi so‘z yoki so‘zlar bog‘lanmasi idiomalardir[3,26]. Idioma tuzilishiga ko‘ra so‘zdan ham, so‘z birikmasidan ham, gapdan ham iborat bo‘lishi mumkin. Ma’nosi tarkibidagi lug‘aviy birliklarning asl ma’nosiga bog‘liq bo‘lmagan so‘zlar – so‘z idiomalardir: suyug‘oyoq *(“Boisi, elda Munavvar suyug‘oyoq ayol, demak gap oralab yurdi” [4,82]*. Tuzilishi jihatidan so‘z birikmasiga to‘g‘ri keluvchi idiomalar tarkibiga frazeologik birliklarning katta qismi mansub: boshini aylantirmoq *(“Hali o‘g‘lingizning boshini shunday aylantirayin-shunday aylantirayin…[4,73];* qo‘lini halollamoq*(“Shoymardon ferma mudir o‘g‘li qo‘lini halolladi. To‘shakda yotmish o‘g‘il ko‘nmadi. Yuzini goh o‘ng tarafga, goh chap tarafga burib yig‘ladi”[4, 128].*Ichki tuzilishi gapga teng bo‘lgan iboralar va barcha maqollar uchinchi turga – gap idioma guruhiga kiradi: uyidan ilon chiqmoq (*“ – Uyimizdan ilon chiqqanmi? – piching qildi otasi”[4,5]);* Ko‘za kunda sinmaydi, kunida sinadi (*“Shunda nima degan odam bo‘ladi? Ko‘za kunda sinmaydi, kunida sinadi”[4,48].* Mana shu uchinchi nuqtada ibora va maqol birlashadi, ammo ular orasida ko‘plab farqlar mavjud.

Individual holat haqida aytilgan gapning maqolga aylana borishi hodisasini “Oydinda yurgan odamlar” asarida qo‘llangan “***Qirqiga chidagan qirq biriga ham chidaydi”****[4,19]* maqolida ham ko‘rishimiz mumkin. Bu maqol asarda o‘zbek xalqining go‘zal urf-odatlaridan bo‘lmish nikoh o‘qish uchun kelindan rizolik so‘ralishi, kelin esa ibo qilib, sukut saqlashi, bundan vaqt cho‘zilib kuyov bolaning ko‘ngli g‘ashlanishi manzarasida Tog‘ay Murod tomonidan g‘oyat mahorat bilan o‘z o‘rnida qo‘llangan.

---

[100] Махмудов Н. Маърифат манзиллари. -Тошкент, 1999; шу муаллиф. Тилнинг мукаммал тадкики йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 2012. - № 5. - Б. 3-16.: Худайберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талкини: Филол. фанлари д-ри ... дисс. - Тошкент. 2015. -Б. 240; Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2015. – Б. 192: шу муаллиф. Lingvokulturologiya.-Toshkent. 2019.

[101] Qalandarov Sh. O‘zbek lingvomadaniy muhitida xalq maqollari evfemizatsiyasi, filologiya fanlari falsafa doktori dissertatsiyasi, - Qo‘qon, 2019. – 138 bet. Tosheva D. Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyati, filologiya fanlari falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2017. 51et. Rustamov D. Leksemalar milliy-madaniy xoslangan semasining lingvomadaniy aspekti, filologiya fanlari falsafa doktori dissertatsiyasi - Farg‘ona, 2018. – 128 bet. Rustamova D. A. Metaforik evfemizatsiyaning lingvokulturologik va sotsiopragmatik xususiyati (o‘zbek tili materiallari asosida), filologiya fanlari falsafa doktori dissertatsiyasi, - Farg‘ona, 2018, - 148 bet. Usmanov F. O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi, filologiya fanlari falsafa doktori dissertatsiyasi.- Toshkent, 2020. 173 bet.

Ushbu maqol rivoyatlar asosida shakllangan maqollar toifasiga kiradi. O‘tmishda podsholar, xon-u beklar gunohkor odamga ta’zir bermoqchi bo‘lganlarida shariat peshvolarining fatvosiga binoan, uni 40 darra urdirardilar. Xalq rivoyatlaridan birida aytilishicha: “Bir odamga bo‘hton qilib, bo‘yniga gunoh qo‘yib, 40 darra urishga mahkum etadilar. U “tishini tishiga qo‘yib”, g‘ing demay, dod-faryod qilmay, 40 darrani ichida sanab turadi. Ammo darrachi hisobdan yanglishib, unga bir darrani ortiq urib yuboradi. Shunda u odam “dod!” deb yuboradi. Jazolash jarayonini tomosha qilib turgan xon: “Nega dod deysan?! Nima, xon hukmiga qarshimisan?!” deb o‘shqiradi. “Qarshi emasman-u, taqsir, ammo darrachingiz bitta ortiq urib yubordi-da”, - deydi, shunda “gunohkor”. “Axir qirqiga chidaganingdan keyin, qirq biriga ham chida-da!” deydi xon…”[7, 491].

Bu gap dastlab matal bo‘lib, keyinchalik maqolga aylanib qolgan. Odatda, maqolni dastlab o‘tkir kuzatuvchanlik va o‘z fikrini bir necha so‘z bilanoq ravshan ifodalab berishga qobiliyatiga ega bo‘lgan bir kishi to‘qib chiqaradi. O‘rinli ifodalangan bu fikr, dastlab individual bo‘lgan bu xulosa keyinchalik jamoa tomonidan qabul qilinishi, qayta ishlanishi, sayqallanishi mumkin. Bu esa maqolning paydo bo‘lishiga olib keladi. Bunday maqol dastavval bir aniq voqeaga, yagona bir holatga bag‘ishlangan bo‘ladi. Bunday o‘rinli aytilgan gap omma orasida qanday ishlatilishiga, ya’ni jamoat tasdig‘iqa qarab, asta-sekin keng umumlashma ma’noga ega bo‘la boshlaydi.

Yuqoridagi matal ham shunday etimologik jarayonni boshidan o‘tkazgan bo‘lib, uni majozan qiyinchiliklarga chidamli, bardoshli, sabr-matonatli bo‘lishga da’vat etganda, bir nimadan qiynalib, iztirob chekayotgan odamni yupatib, unga dalda va tasalli berganda qo‘llaymiz. Tadqiq etilayotgan mazkur asarda ushbu maqolning “***Bir qishning bir yozi bo‘ladi, Qarg‘aning qag‘illagani qoladi”, “Oyning o‘n beshi qorong‘u bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘”*** kabi sinonimlari ham qo‘llangan[4, 112]. Bu maqollarning barchasi tushkunlikka, umidsizlikka tushib qolgan kishiga yo‘qlikda, muhtojlikda, xor-u zorlikda o‘tgan yomon kunlarning o‘tib ketishi, yaxshi kunlarning yetib kelishi haqida xushxabar, tasalli berish uchundir. Bunday vaqtda inson faqat sabr qilishi, chidamli, qanoatli bo‘lishi, sabrsizlikning yomon oqibatlarga olib kelishini unutmasligi, yaxshi kunlarga bo‘lgan umididan aslo voz kechmasligi kerak. Yozuvchi ham sabr-sinoatlar kaliti ekanini ta’kidlab, asarning bir o‘rnida sabr haqida ikki maqolni keltiradi: “ - Eshitdingmi, momosi, Vaxshivorda birov yetmishida farzand ko‘ribdi. Yana tag‘in, o‘g‘il emish! Ana ko‘rdingmi, erta-kechi bo‘lmaydi. ***Sabr qilsang g‘o‘radin halvo bitadi. Sabr tagi sariq oltin, momosi”****[4,170]*.

Ko‘rinadiki, maqollar va hikmatli so‘zlar xalqimiz asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba asosida to‘plagan ma’naviy meros hisoblanadi. Ularda ota-bobolarimiz bosib o‘tgan yo‘lni, kechirgan turmushlarini, shodliklarini va chekkan azob, uqubatlarini, teran mazmunli pand-nasihat va o‘gitlarini, ma’naviy boyligimiz hisoblangan rasm-rusum, urf-odat va an’analarini ko‘ramiz. Erkin Vohidov so‘zlari bilan aytganda, odamlar boshqalarni o‘ylab buloq ko‘zini ochadilar, daraxt ekadilar, boshqalar yiqilmasin deb, o‘zlari tushib ketgan chuqurni tekislab yo tayoq suyab qo‘yadilar. Mendan keyin kelgan avlod tashnalik azobini ko‘rmasinlar, ochlikdan, oftob tig‘idan qiynalmasinlar, men yiqilgan chuqurlarga ular ham yiqilmasinlar, deya shunday qiladilar. Bobolar hikmati ana o‘sha buloq, ana o‘sha daraxt, ana o‘sha tayoqdir. Hikmatli so‘zlar, maqollar biz uchun asrlarning sadosi, uzoq o‘tmish bilan hamnafaslik hissini uyg‘otuvchi mangu chaqiriq, zamonlararo ko‘prikdir[7, 5].

Darhaqiqat, maqol va matallarda xalqimizning asriy kechmishlari, qadriyatlarimiz durdonalari namoyon bo‘ladi. Ota-bobolarimiz azal-azaldan nikoh masalasiga jiddiy qaragan. Ikki yoshning oilasi, nasl-nasabi, salomatligi, odob-axloqi qurilajak oilaning poydevorini tashkil etadi. Darhaqiqat, Sohibqiron Amir Temur farzandlari va nevaralariga umr yo‘ldoshi tanlashda o‘ta e’tiborli bo‘lganligini ularning salomatligi va nasl-nasabini puxta tekshirganidan bilamiz. Xuddi shu an’ana ***Aslini bilmay so‘z demaslar, Naslini bilmay qiz bermaslar****[4,11]* matalida o‘z ifodasini topgan.

Insonning boshiga yozuvchi aytgan baxt qushi bir marta qo‘nadi. Dono xalqimiz yaxshi oiladan, nasl-nasabi pokiza, sog‘lom kishi boshqa xonadon farzandini so‘rasa, yaxshi ishni ishni orqaga surmaslikni, hatto tengi chiqsa, tekin berish kerakligini nazarda tutib, ***chiroyi borida, chinorini topish kerakligini*** [4,11] uqtiradi.

Ma’lumki, chinor – abadiylik va qudratli tayanch ramzi. Ushbu maqol vaqtni g‘animat bilishga, yoshlikda, husn-jamolga to‘lishgan paytda aql-hushni yig‘ishtirib olib, bir umr chinordek

tayanch bo‘lishga arziydigan umr yo‘ldoshni topishga chorlovchi nasihat bo‘lib, gender jihatdan xususiylikka ega. Xuddi shu nasihatni xalqimiz yigitlarga “***Bo‘laringda bo‘lib o‘t, Bo‘z yo‘rg‘aday yelib o‘t”****(“Umr o‘tyapti. Bo‘laringda bo‘lib o‘t, Bo‘z yo‘rg‘aday yelib o‘t”[4,47]* tarzida bayon qiladi. Bu maqol kuch-quvvatga to‘lgan, omadi kelib, ishi yurishgan paytda ezgu ishlarni qilib qolishga ulgurish, bunday vaqtni g‘animat bilib, behuda o‘tkazib yubormaslik kerakligini uqtiradi.

Umrning eng gullagan chog‘i, yoshlik xotiralarining eng ko‘rkami – bu yangi hayot bo‘sag‘asida bo‘lgan, balog‘at yoshiga yetib, kimgadir umrini baxshida qilmoqqa tayyor bo‘lgan palladir desak, mubolag‘a qilmaymiz. Ma’lumki, xalqimiz bu onlarni to‘y marosimi, go‘zal an’ana-yu, milliy urf-odatlar bilan yanada ko‘rkamlashtiradi. To‘y marosimidagi chiroyli odatlarimizdan biri nikoh o‘qilayotganda kelindan vakil so‘rash odatidir. Vakil bo‘lg‘usi kelindan tanmahramlikka roziligini so‘raganda qiz bola uyatdan, ibo qilganligidan roziligini oshkor qilolmaydi. Shunday holatda uning roziligi sukut saqlaganidan bilinadi: “Yanga bo‘lmish kenjasini Oymomoga berdi. – Bo‘ldi, ***sukut alomati - rizo,*** - dedi”[4,15].

Sovchilikka borishdan tortib nikoh oqshomiga qadar qilinajak betakror urf-odatlarimiz borki, xalqimiz ularni madaniyat darajasiga ko‘targan. Tog‘ay Murod shu udumlarimizdan ayrimlarini asarida bayon etadi. Masalan, non sindirish, qalin aytish, fotiha qilish, to‘ylik yuborish, To‘qqiz marosimi, Toboq keldi, Oyoq bosish, It irillar, Kampir o‘ldi, Soch siypatar, Qo‘l ushlatar, Oyna ko‘rsatar kabilar shunday rasm-rusumlarimizdandir. Yana bir go‘zal odatimiz borki, bu- to‘y bo‘layotgan xonadonga qarindoshlar va qo‘ni-qo‘shnilarning moliyaviy va ma’naviy yordam qilishlari. ***“To‘yniki to‘yda qaytsin”****[4,17]*, -deydi xalqimiz.

Darhaqiqat, to‘y har bir ota-onaning farzandi iqboli, baxti kabi orzusidir. Farzand tug‘ilibdiki, uning nikoh to‘ylariga hammamiz yetaylik, - deya duo qilinadi. Xayrli duolar ortidan bir kuni to‘y qilinar ekan, shu muborak kunda jami yaqinlar o‘zining topgan-tutganidan to‘ychilarga hadya tariqasida yordam ham qilishadi, kam-ko‘stlariga qarashadi. Bu xalqimizning betakror udumlaridan sanaladi. Hadyalar taqdim etilarkan, o‘zlari ham to‘y qilishlarini, qilgan yordamlari o‘sha kunda o‘zlariga qaytishini orzu qilib, Allohdan so‘rashadi.

Ayniqsa, to‘y yoki boshqa ma’rakalarda qo‘shnilarning bir-biriga qiladigan yordami madaniy qadriyatlarimiz ulug‘ligidan dalolat beradi: *“...Kelin o‘ng taraf hamsoyasi ot yetakladi.* ***Yon qo‘shnim – jon qo‘shnim bo‘ldi.*** *Ot ostonadan hatladi. Kelin uzatildi”[4,37].* Xalqimizda qo‘shnichilik ham o‘ziga xos qadriyat hisoblanadi. Qo‘shnilar yaxshi-yomon kunlarda bir-birlariga hamdam va hamdard bo‘ladilar. Shu sabab ham “Uzoqdagi qarindoshdan – yaqindagi qo‘shni yaxshi”, - deyishadi. Hadislarda ham qo‘shnichilik qadriyatlari e’zozlanadi, qo‘shnilarga mehr-muruvvat ko‘rsatishga chaqiriladi. Taomilga ko‘ra, qo‘shnilar vaqti-vaqti bilan , ayniqsa, tansiq taom qilingan kuni, bir-birlarinikiga osh-non olib chiqib, bir-birlarini siylashadi. Diniy e’tiqodimizga ko‘ra shakllangan “Qiyomat kun – qo‘shnidan” matali ham diqqatga sazovor. Rivoyatlarga ko‘ra, qiyomat kuni jannati qo‘shni do‘zaxi qo‘shniga shafoatchi bo‘lib, uni xudodan tilab olib, o‘zi bilan birga jannatga olib kirarkan. Demakki, bu hikmatlarning barchasi, qo‘shnichilik - do‘stlik, hamjihatlik, ittifoqlikni ulug‘laydi, kishilarni shunga da’vat etadi. Bobolarimiz bejizga “Hovli olma, Qo‘shni ol” deyishmagan!

Xulosa va tavsiyalar

Professor N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab…” nomli maqolasida lingvokulturologiya, umuman, antropotsentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berildi. Ushbu maqolani o‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiya haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholash mumkin.

Maqolada lingvokulturologik nazariyaning shakllanishi uchun xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida juda asosli mulohazalar aytilgan. Xususan, N.Mahmudov ayni sohaning eng asosiy tushunchalaridan bo‘lgan til va madaniyat haqida quyidagilarni yozadi: “Til va madaniyat deganda, ko‘pincha, “nutq madaniyati” deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o‘rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko‘rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to‘g‘risi ham shu) til orqali u yoki bu

madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o‘rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo‘lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma’nosi “aqliy-ma’naviy yoki xo‘jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (*nutq madaniyati*)” emas, balki “kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmui (*madaniyat tarixi, o‘zbek madaniyati*)” demakdir. Shunday bo‘lgach, nutq madaniyatining o‘rganish muammolari boshqa, lingvokulturologiyaning o‘rganish obyekti tamoman boshqadir”[1, 10].

Tildagi madaniy belgilarni o‘rganish tilshunoslikning shu bugunga qadar erishgan yutuqlari samarasidir. Lingvokulturologiyaga qiziqishning ortib borayotgani fanning kelajagini belgilaydi. Shu bilan birga fanning nazariy-metodologik asosi endigina shakllanmoqda. Frazeologizm va paremiyalar tilda madaniy belgilarni aks ettiruvchi asosiy birliklar sifatida tadqiq etilmoqda.

Shuningdek, tilshunos olima D.Xudoyberganova bu borada o‘zining “Matnning antroposentrik tadqiqi” monografiyasini yaratdi. U o‘zbek tilidagi matnlarning lingvokultutrologik xususiyatlarini ochib berdi. Unda pretsedent birliklar va lingvomadaniy birliklarning matn yaratilishidagi o‘rni, o‘xshatish mazmunli matnlar, metaforalarning matn yaratilishidagi o‘rni, jonlantirish asosida matnlarning lingvokulturologik xususiyatlariga alohida e’tibor berildi.

Frazeologizmlar dunyo, obyektiv borliq va jamiyat haqida madaniy informatsiya tashuvchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Shuning uchun ham frazeologik birliklar o‘zida xalq mentaliteti va madaniyatini saqlovchi “hikmatlar xazinasi” bo‘lib, ular avloddan avlodga meros qilib qoldiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab … // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. - № 5. – 10 bet.
2. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. T.: “Ma’naviyat”, 2013.
3. Rahmatullayev Sh. Frazeologik birliklarning asosiy ma’no turlari. – T.: Fan, 1955.
4. Tog‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. Qissa. –T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017.
5. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. –Тошкент: Фан, 2013.
6. Ziyouz.com
7. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati. –T.: O‘zbek Sovet Ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990.

“QUNDUZ BILAN YULDUZ” DOSTONI KASB-HUNAR LEKSIKASINING MAVZUIY GURUHLANISHI

Xolmirzayev Jurabek
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
E-mail: bobotoyev91@mail.ru

Annotatsiya Ergash Jumanbulbul o‘g‘li kuylagan «Qunduz bilan Yulduz» dostoni katta hajmdagi epik asar bo‘lib, 255 sahifani tashkil etadi. Ushbu maqolada doston matnida qo‘llanilgan leksik birliklarning qo‘llanish darajasi, tarixiy shakllarda qo‘llanganligi va etimologiyasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: leksika, professionalizm, terminologik leksik, mavzuiy guruh.

Абстракт Эпос «Кундуз билан Йулдуз» в исполнении сына Эргаша Джуманбулбула представляет собой масштабное эпическое произведение объемом 255 страниц. В данной статье анализируется уровень использования лексических единиц, использованных в тексте эпоса, их употребление в исторических формах, их этимология.

Ключевые слова: лексика, профессионализм, терминологическая лексика, тематическая группа.

Abstract The epic "Kunduz bilan Yulduz" sung by the son of Ergash Jumanbulbul is a large-scale epic work of 255 pages. This article analyzes the level of use of lexical units used in the text of the epic, their use in historical forms, and their etymology.

Key words: lexicon, professionalism, terminological lexicon, thematic group.

“Qunduz bilan Yulduz” dostoni leksikasi ijtimoiy hayotning turli sohalariga oid so‘zlarni o‘z ichiga olgan. Ushbu so‘zlar qo‘llanish darajasi, tarixiy shakllarda qo‘llanganligi va etimologiyasi jihatdan xarakterlidir. Ularning ma’lum qismini kasb-hunarga oid birliklar tashkil etadi. Kasb-hunar leksikasiga doir leksik birliklar doston matnida o‘ziga xos o‘ringa ega.

Ilmiy adabiyotlarda kasb-hunarga oid so‘zlar majmuyini turlicha nomlar bilan ataydilar. Masalan, «O‘zbek tili leksikologiyasi» kitobida *maxsus yoki professional-terminologik leksika,* «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» darsligida *professionalizm* deb nomlagan [7, 26]. Professionalizmlarning asosiy qismini har bir kasb-hunarga oid atamalar tashkil etadi. Masalan, dehqonchilik, chorvachilik, kosiblik sohalariga tegishli bo‘lgan atamalar. Bu so‘zlarning turli kasb-hunarga bog‘liqligi jihatdan quyidagi guruhlarini kuzatish mumkin:

1) dehqonchilik: bog‘dorchilik, polizchilik.

2) chorvachlik: qo‘ychilik, yilqichilik, parrandachilik.

3) kosiblik: kulolchilik, temirchilik, etikdo‘zlik va hokazo.

«O‘zbek tili leksikologiyasi» kitobida terminologiyani kasb-hunar leksikasidan farqlash zarurligi aytiladi. Terminlar fan va texnika, sanoat, qishloq xo‘jaligi kabi ma’lum sohaga doir rasmiy tushuncha nomidir. Kasb-hunar leksikasi esa ma’lum kasb-hunar kishilari orasidagina qo‘llaniladigan so‘zlardir. Terminlarni mutaxassislar va tegishli davlat tashkilotlari nazorat qilib turadi. Kasb-hunar leksikasi esa muayyan kasb-hunar kishilari tomonidan asrlar davomida yaratiladi. Masalan, hozirgi chorvachilikda ishlovchi chorvadorlar nutqidagi leksik boyliklarning katta bir qismi chorvachilik lekiskasida qadimdan davom etib va qo‘llanib kelayotgan so‘zlardir.

Kasb-hunar leksikasi ma’lum sohadagi kasb-hunarga oid so‘zlar bo‘lishi bilan terminlarga yaqin tursa, o‘zida dialektal farqni aks ettirishi bilan ma’lum darajada dialektal leksikaga o‘xshab ketadi.

Bu aytilganlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, qadimgi xalqimiz turmush tarzini aks ettirgan dostonlar tilidagi kasb-hunarga oid so‘zlar ularning ijtimoiy-maishiy hayotini ifoda etgan so‘zlardir. Ular bizgacha ana shu dostonlarning yozib olingan variantlari orqali yetib kelgan. Ularni o‘rganishimiz xalqimiz tarixini o‘rganish va o‘zligimizni anglashga yordam beradi.

Doston matnidagi mavzuviy guruhlardagi atamalar asosan ot va fe’l shaklida uchraydi. Shuning uchun ularni quyidagi leksik-semantik guruhlarga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

I. Ot turkumidagi so‘zlarning atamalashishi:

2.1.**Kishi faoliyati bilan bog‘liq nomlar**: *piyoda, o‘yinchi.*

- piyoda:

Qirg‘iy degan qushlar bo‘lar qiyada,
O‘limcha yomon ish bormi dunyoda,
Zangar elning ne bir katta beklari
Entikadi jilovida ***piyoda****.* [5, 384]

Chambilbelning eli, Taka-Yovmit mamlakatidan qancha ***o‘yinchi****, nag‘machi, sozchi, karnay-surnaychi, g‘ijjak balabonchi, dorvoz, katta shoirlar yig‘ila berdi*. [5, 457]

2.2.**Hayvonlar yoki ularning tana a’zolarining nomlari**: *ot, qanot*.

- qanot:

Cho‘ntoqni xarish deb ko‘zga ilmading,
Yashin ***qanotini*** *pisand qilmading,*
Quv-ha, quv-ha, o‘zbak qolding xush endi. [5, 247]

2.3.**Predmet nomlari**: *belbog‘ / kamar / tasma, darvoza, halqa.*

- belbog‘:

Endi ko‘ring G‘irko‘k hunar boshladi,
Uyg‘onmadi, ikki ko‘zin yoshladi,

*Bol Avazning **belbog‘idan** tishladi,*
Bir silkib ko‘tarib, otib tashladi. [5, 268]
Savdogar yuk ortar moyali, norli,
*Oldingda xizmatkor zarli **kamarli**,*
Bir olti oy sabr qilgin chirog‘im,
Urushmagin, bolam, yo‘ling xatarli. [5, 370]

2.4.**Joy nomlari**: *maydon, maydoncha.*

- maydon:

*Men Zangarga kelgandan beri yovni ko‘rmay, **maydonga** kirmay tang bo‘lib yuribman.* [5, 370]

2.5. **Jarayon nomlari**: *jang, urush.*

- urush:

Mening yorim Chambilbelning sheridir,
***Urushga** kirganda erning eridir,*
Bu odamlar teng bo‘lolmas yorimga,
To‘ramning enasi asil paridir. [5, 296]

2.6. **Mavhum nomlar**: *davra, qur, qo‘r, g‘alaba* singari.

- g‘alaba:

*Shunda tanholikdan uyqi **g‘alaba qilib**, yo‘l yurmak qattiq ko‘rinib, ba’zi vaqtlarda uyquli ko‘zi bilan yo‘llardan adashib, aqli shoshib, o‘z holi-ahvoliga munojot qilib boradi.* [5, 234]

2.7. **Atamalashgan fe’lning harakat nomi shaklidagi so‘zlar**: *uloqtirish, yengish, otish, sakrash, urish, uzatish, chopish, yugurish, yutish* kabi.

- uzatish:

Kam-kam o‘zin tuzatdi,
*Gardanini **uzatdi**,*
Suvlig‘in qatirlatdi,
Qulog‘in qaychilatdi. [5, 220]

II. **Fe’l shaklidagi leksemalarning atamalashishi**:

-uloqtirmoq:

*Chiqib otin **uloqtirgan**, Yigitlarning zo‘ri bo‘ldi. Shundan o‘zib chiqqan otlar, Bedovning tulpari bo‘ldi.* [5, 347]

-chopmoq:

*Ot **chopilar** baland tog‘ning pastidan,*
Banda ayrilmasin suygan do‘stidan [5, 221] kabi.

Doston matnida chorvachilik leksikasi ham kuzatiladi. Ularni ham mavzuviy guruhlarga bo‘lib, o‘rganish mumkin. Kasb-hunar leksikasining yuqorida sanab o‘tilgan mavzuviy guruhlari orasida chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik va harbiy leksika salmoqli o‘rin tutadi. Ammo ta’kidlash joizki, tog‘-cho‘l hududlarida yashagan qadimgi ajdodlarimizning asosiy kasbi chorvachilik va dehqonchilik bo‘lgan. «Qunduz bilan Yulduz» dostonining mavzusi tog‘-cho‘l hududlarida yashagan xalqlar turmush tarzini hikoya qilish bo‘lganligi sababidan asar kasb-hunar leksikasi tizimida chorvachilik leksikasi alohida o‘rin tutadi.

Chorvachilikning tarmoqlari ko‘p bo‘lgani uchun bu sohadagi atamalar yana *yilqichilik, tuyachilik, qoramolchilik, qo‘ychilik, chorvadorlarning turmush tarzi* kabi guruhlarga ajratiladi.

Biz ulardan chorvachilik leksikasining muhim qismini tashkil etadigan yilqichilik *leksikasi* haqida so‘z yuritamiz. Doston matnida yilqichilik leksikasi va uning mavzuviy guruhlanishi quyidagicha:

Ot nomi bilan bog‘liq leksemalarning faol ishlatilishi ularni ma’lum bir semantik guruhlarga ajratishga imkon beradi:

-**Otning zotlari**: *qorabayir, arabi, qozoqi.*

- arabi:

Hayf senga Chambilbelning jallodi,
Zoye bo‘ldi esiz, otning mehnati,

Yo ko‘rasan yo ko‘rmaysan, jon do‘stim,
Mendan burun ketdi ***arabning oti****. [5, 285]*
-**Otning sifatlari**: *yo‘rg‘a, uchqur, yuk tortuvchi.*
-yo‘rg‘a:
Hayvonning kami yo‘q ***yo‘rg‘a*** *yurishdan,*
Chu desa qutular qanotli qushdan.[5,4360]
-yo‘rg‘alamoq:
G‘irko‘kni ***yo‘rg‘alatdi****,*
Oy Yulduz deb yo‘l tortdi;
Har kunda ikki mahal
Otdan tushib o‘tlatdi. [5, 221]

Dostondagi ot – epik ot G‘irko‘k. Butun Go‘ro‘g‘li avlodiga xizmat qilgan ot. Shu sababdan u bu avlod orasida ham, ular haqida doston kuylagan baxshilar orasida ham alohida e’tiborga sazovor bo‘lgan jonivor, doston bosh qahramonining sodiq do‘sti. Mana uning ta’rifi:

Bir yoshingda chiltan bergan G‘irotim,
Bedavlatga davlat bo‘lgan bedovsan.
Seni minsam g‘azo bo‘lar niyatim,
Befarzandga farzand bo‘lgan bedovsan.
Dushman bo‘lsa yakson etgan bedovsan,
Arzimni eshitgin hayvon G‘irko‘k ot,
Meni Yulduz yorga yetkaz xonazod [5,216-218]

Baxshi ta’rifidan anglashiladiki, G‘irko‘k bedavlatga davlat bo‘lgan, befarzandga farzand bo‘lgan, Sumbul tog‘ini, Eram bog‘ini, Sanamning charbog‘ini ot, shoh Rayxonni yengib kelgan, arab Bektoshning dodini bergan, elatning orini olgan bedov, shamoliga oqqan daryo ham muzlagan, osmondan yashinday enib kelgan, yugurganda uchar qushdan qolmagan, chu deganda qushdan o‘tgan, chopganda shunqorga yetgan, dushman bo‘lsa yakson etgan tulpor.

Doston matnida shu turkumga kiradigan ayrim so‘zlar, masalan, *otxona, qashlag‘ich, o‘rtik* so‘zlari qo‘llanmagan. Ularning o‘rnida baxshi *jebaxona, qashov* so‘zlarini; otning bo‘ynini boshning yuqori qismi bilan yopadigan yopinchiq ma’nosini beradigan *tos yolpo‘sh* jumlasini ishlatgan.

Quyidagi til birliklari ham ma’lum ma’noda ot bilan bog‘liqdir:

-alqim (ot qo‘ltig‘idan chiqqan shamol).

Ot boradi arillab,
Otgan o‘qday sharillab,
Ot ***alqimi****, tong shamol*
Mis karnayda zarillab.[5,219]

-o‘qranmoq (hingillamoq, otda ishtaha bilan intilib turmoq. Ot odatda bu holatda hingillaydi): *Avazxonning ko‘kragidan boshini ko‘tarib,* ***o‘qranib****, guldirab kishnab, kokil tashlab, suvliqni tishlab, necha alvonda yurish qilib, og‘zini ochib, qo‘ltig‘idan parin sochib oldi [5, 418]*

-g‘angqitmoq – to‘dada otni to‘g‘ri kelgan qulay tomonga burmoq):

Ol og‘ayni, ola bering,
Halol qilib sola bering;
G‘angqitib *tulpar otingni,*
Otlardan qutula bering![5, 350]

Mana bu so‘zlar esa otning sifatini ko‘rsatadi:

-bosh ot (kelin uchun beriladigan qalinning bosh – yetakchi qismi bo‘lib, odatda naslli ot berilgan): *Bosh* ***otiga*** *G‘irotimni boyladim, qatorda norimni, xazinada zarimni, bisotimda borimni tog‘amga beringlar.[5, 206]*

-yobi (otning oddiy turi): *Anda Ernazarxon polvonning aytgan so‘zlari «yomon ot* ***yobi****» degani.[5, 280]*

-to‘qmor yolli (yoli tikroq bulib, ikki tomonga tushgan qorabayir ot): *Avazxonning **to‘qmor yolli** tulpar to‘riq oti bor edi, tabladan yetaklab chiqib, yakkamixga boylab, otni egar-yugan qilayotibdi. [5,435]*

-cho‘mmoq (yoli va dumi ozaygan va kalta bo‘lib qolgan ot): *Shunda boboning oti cho‘mmoq chovkar G‘irko‘kning dobiri bilan chikka-pukka bo‘la berdi, boboni ko‘tarib olib yura berdi. [5,236]*

Ushbu atamalar orasida otlarning sifati va xususiyatini ko‘rsatuvchi *bedov, tulpor* so‘zlarining qo‘llanishi e’tiborga molikdir. Bu otlar dostonda alohida obraz tarzida ishtirok etadi, jang maydonida o‘z egalarining qahramonligiga ko‘maklashadi, sherik bo‘ladi. Bu sifatlarga ega bo‘lgan otlar dostonlarda hech vaqt salbiy xususiyatlari bilan namoyon bo‘lmagan:

Suvsiz cho‘lda Bol Avaz,
Sherday bo‘lib arqirab.
*Qamchi tegsa, **bedovlar***
Suvsiz cho‘lda zirqirab [5,391]

Bundan tashqari Ergash shoir dostonlari matnida, xususan «Qunduz bilan Yulduz» dostonida ham chorvachilikka daxldor bo‘lgan yana boshqa bir qator nomlar uchraydi.

Ergash Jumanbulbul o‘g‘li kuylagan “Qunduz bilan Yulduz” dostoni katta hajmdagi epik asar bo‘lib, 255 sahifani tashkil etadi. Doston voqealari bevosita jang tafsilotlari bilan bog‘liq bo‘lgani va bu voqealarning hikoya qilinish ko‘lamini ham kengaytirgan. Shuning uchun uning matnida sohaviy leksikaning turli-tuman mavzuviy guruhlariga oid so‘z va jumlalarni uchratishimiz mumkin. Ammo ular orasida jangchining asosiy madadkori va himoyachisi ot bo‘lgani boisdan ushbu bobda faqat chorvachilik leksikasining xalq og‘zaki ijodida asosini tashkil etadigan yilqichilik sohasi leksikasini tahlil etishga to‘g‘ri keldi.

Doston kuylash jarayonida til birliklarining tanlanishi mavzuga bog‘liq bo‘ladi. Mavzuni yoritish jarayonida ana shu mavzuga oid leksik elementlar bir joyga jamlanishi masalaning bir tomoni bo‘lsa, ikkinchidan, ularning leksik-semantik qirralari ham ochilib boraveradi. Birgina jang qurollari yoki *maydon* leksemasi misolida bunga ishonch hosil qilindi. *Qilich* so‘zi xalq dostonlari tilidan boshqa joyda bunchalik ma’no taraqqiyotiga yoki boshqa so‘zlar bilan sintaktik birikuvlarga uchramasligi mumkin. Bu esa, dostonchilik an’analari xalqimiz orasida chuqur ildiz otgani, doston aytish ona tilimiz taraqqiyotida o‘ziga xos maktab bo‘lganligidan va xalq baxshilari ana shu maktabning munosib vakillari bo‘lganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли достонлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил). – Тошкент, 2012. - 288 б.

2.Жуманазарова Г.У. «Ширин билан Шакар» достонининг луғавий ва лингвоэтик хусусиятлари (Фозил Йўлдош ўғли варинти асосида):Филол. фан. номз. …дис. автореф. – Т., 2008. -26 б.

3.Маҳмадиев Ш. Ўзбек халқ достонлари тилида стилистик формулалар фонетикаси // Ўзбек тилшунослиги масалалари. Илмий мақолалар тўплами.– Самарқанд: СамДУ нашриёти. 2007 -Б. 80 - 86.

4.Маҳмудов Н. Ўзбек тили луғат бойлиги ривожида фаоллашган жараёнлар // «Ўзбек тили ва адабиёти» журнали. 2015, №5. –Б.3-16.

5.Қундуз билан Юлдуз. Айтувчи: Эргаш Жуманбулбул ўғли / Булбул тароналари, беш томлик, III том. – Т.: Фан, 1972. -Б.203-458.

6.Турсунов У. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Дарслик.- Тошкент: «Ўқитувчи», 1975, -Б.50.

7.Ўзбек тили лексикологяси. – Тошкент: «Фан», 1981. -Б.26.

TILNING LUG‘AT ZAXIRASI: O‘ZLASHMALAR VA MILLIYLIK

Shukurov Otabek Ulashevich
Qarshi davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori
e-mail: otabekshukurov1@mail.ru, +998914692672
Baymatova Barchinoy Gulmurodovna,
TATU Qarshi filiali mustaqil tadqiqotchisi,
TATU Qarshi filiali qoshidagi akademik litsey o‘qituvchisi.
e-mail: barchinoyxon1981@gmail.com, tel.: +998912116780

ANNOTATSIYA Maqola o‘zlashma so‘zlar va milliylik masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda mustaqillik davrida yaratilgan ergonimlar ham tahlil qilingan. Xususan, tashkilot, korxona, muassasa, kompaniya kabilarning nomi o‘rganilib, ularning manba til o‘zlashmalari motivida yaratilishiga munosabat bildirilgan va milliy nom tanlashning istiqbolli yo‘llari talqin etilgan.

ANNOTATION The article is devoted to the issue of borrowed words and nationality, and also analyzes ergonyms created during the years of independence.

In particular, the names of organizations, enterprises, institutions, companies were studied, the attitude to source borrowings was studied on the basis of language proficiency, promising ways of choosing a national name were interpreted.

АННОТАЦИЯ Статья посвящена вопросу заимствованных слов и национальности, а также анализируются эргонимы, созданные в годы независимости. В частности, изучались названия организаций, предприятий, учреждений, компаний, изучалось отношение к заимствованиям источника на основе владения языком, интерпретировались перспективные способы выбора национального имени.

Kalit so‘zlar: *neologizm, ergonim, o‘zlashma so‘z, leksika, ijtimoiy taraqqiyot, tilning boyishi*

Ключевые слова**:** *неологизм, эргоним, заимствованое слово, лексика, социальное развитие, обогащение языка*

Key words**:** *neologism, ergonym, loan word, lexis, social development, language enrichment*

Taraqqiyot fan va uning sohalari rivoji mezoniga ko‘ra belgilanadi. Insoniyat XX asrgacha bo‘lgan davrda sanoqli fanlar doirasidagina buyuk ixtirolar qildi. O‘zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo‘lladi. XX asrda fanlar chegarasi anchayin kengaydi, differensiatsiyalashdi. Ular asosida yangi kashfiyotlar yuzaga keldi. Fanlarning tutash nuqtalari belgilab olindi, o‘zaro aloqadorlik kuchaydi. Yangi fanlar yangi innovatsiyalarga asos bo‘ldi. XXI asr esa nanotexnologiyalar davri bilan boshlandi. O‘tgan yuz yillikdagi sohalararo differensiatsiyalashuv yangi integratsiyalashuvga yo‘l ochdi. Fanlar, yo‘nalishlar, tarmoqlar, ixtisosliklar va hokazolarning bo‘linishi olimlarni borgan sari o‘ziga jalb qila boshladi. Ularning o‘z chegaralari, maydonlari aniqlana boshlandi.

Albatta, fan va sohalar o‘sishi leksikada neologizmlarning paydo bo‘lishi, shuningdek, maxsus leksika qatlami chegarasining kengayishiga sabab bo‘lyapti. Hozirgi termin neologizmlarning aksariyati, asosan, obyektiv borliqda paydo bo‘layotgan yangi referentlar bilan bog‘liq, shakllanayotgan soha maydonini to‘ldirayotgan – kumulyativ vazifa bajarayotgan birliklar. Dunyoda mavjud yetti mingga yaqin til orasidan “ilmiy terminologiyaning rivojlanishi faqat 60 ta tilda kuzatiladi va uch yuzdan ortiq kasbiy fan sohalarini qamrab oladi[Abduraxmanova M., 2020. – B. 709].

Tilimizdagi o‘zlashma terminlarning ayrimlari tilimizning tabiatiga moslashadi. Ularni fonetik jihatdan moslashuvini quyidagilarda kuzatish mumkin: 1) fonemalarning qisqarishi: avinos (avianosets), raketanos (raketanosets), minanos (minonosets), farmatsevtik (farmatsevticheskiy), akustik (akusticheskiy); 2) fonemalardagi tovush almashinuvi: mayoq (mayak), o‘choq (ochag), plashch-palatka (plash-palatka) kabilar. Shuningdek, “O‘zbek tilida qurilishi jiddiy o‘zgarishlarga uchragan o‘zlashma terminlar kategoriyasiga qo‘mita (komitet), bombardimon (bombardirovka), qo‘mondon (komanduyushiy), pudrat (podryad) kabilarni kiritish o‘rinlidir”[Dadaboyev H., 2019. – B. 45].

So‘nggi paytlarda obyektlarni nomlashda unga bozor iqtisodiyotidagi kasbiy faoliyat turi sifatida yondashildi. Keyinchalik esa zamonaviy soha hisoblangan marketologiyaning yuridik maqomga ega obyekti sifatida shakllandi. “Raqamlar” tili keng tarqalyapti, jamiyatning turli qatlamlarini qamrab olyapti, chunki raqamlashtirish hayotning nozik jihatlariga qadar kirib bormoqda, bundan tashqari, bu til kvaziideologiya sifatida ham taqdim etilyapti [Конишевский Д.В. и д., 2019. – С. 6].

Ergonimlarning nominatsiyasi murakkab jarayon. Olima K.V.Ovsyannikova umumiy ovqatlanish korxonalari nomi xususiyatlarini Voronej va Moskva shahri misolida o‘rganadi. Uning qiyosiy-statistik tahlillariga ko‘ra Moskva shahridagi nomlar Voronejdagi nomlarga qaraganda ma’lumot bilan to‘yinish darajasi past. Moskvadagi umumiy ovqatlanish korxonalarining aksariyat nomlari “jozibadorlik” tamoyili bo‘yicha 60-65 foizdan ko‘p bo‘lmagan ijobiy bahoga ega. Voronejda esa bunday nominatsiyalar ko‘rsatkichi 80 foizdan oshadi[Овсянникова К. 2016. – С. 191].

Hozirgi paytda neym neologizmlarni ergonimlarning turi jihatidan bir necha guruhga ajratib o‘rganish mumkin. Zeroki, yangi nom asosida paydo bo‘layotgan, xususiy mulkchilikka asoslangan savdo markazi, yengil mashina, o‘quv markazi, mehmonxona, kasalxona, restoran va turli agentlik nomlari borki, ularning nominatsiyasi aynan shunday obrazlilik tamoyiliga asoslangan. Bozor va savdo majmualarining nomlanishi tarixiy va lisoniy jihatlari bilan alohida ahamiyatga ega. Bu nomlarda xalqning o‘tmishi, madaniyati, milliyligi aks etadi. Zeroki, bunday nomlar shu hududda yashovchi aholining geografik joylashuvi, tarixan boshqa jihatlari bilan ham uzviy bog‘langan. Masalan, *Chorsu, Bek to‘pi, Oloy, Parkent* nomlari tarixiy-etimologik mazmunga ega. Bundan tashqari, *Abu Saxiy, Bek Baraka* nomlarida esa xalqning tantiligi, saxovatpeshaligini aks ettiradigan apellyativ leksikaning tarixiy izlari gavdalanadi. Takidlanganidek, “leksika tilshunoslikning eng tez o‘zgaruvchan sathi bo‘lishi bilan birga, onomastik birliklar lisoniy reliktlarni boshqa sathlarga nisbatan yorqinroq saqlab qolgan bo‘lim deb hisoblanadi”[Jumayev T. 2021. −B. 15].

O‘zbek tilida savdo maskani nomlari ham alohida sistema sifatida shakllangan. Paradigmatik munosabatda bo‘lgan *lapka, laryok, kioska, do‘kon, butik, kitob do‘koni/book-shop, gastronom, magazin, minimarket, market, krepmarket, univermag, universam, supermarket, gipermarket, bozor* kabi maskan nomlarining bugungi kun so‘zlashuvchilari nutqida qo‘llanish doirasi bir xil emas. Aniqrog‘i, ulardan *lapka, laryok, kioska, magazin* kabilar eskirib, iste’mol doirasi cheklanayotgan birlik bo‘lsa, *butik, gipermarketlar* esa yangilik bo‘yog‘ini yo‘qotib, iste’mol doirasi kengayayotgan so‘zlar. Bundan tashqari, tilda *internet-magazin* kabi vizual savdo maskani nomlari ham paydo bo‘layotgani leksika uchun g‘ayritabiiy hol.

Albatta, yuqoridagi savdo maskanlarining statusi ularning maydoni, mahsulotlar qamrovi, mijozlarni qabul qila olish qobiliyati, zaxira fondining hajmi, o‘ziga xos shart-sharoitlariga ko‘ra ham farqlanadi. Ularning orasida faol qo‘llanayotgani, ayniqsa, *supermarket*, nom tanlashda *“Havas”, “Baraka market”* kabi sanoqlilarigina milliylik mezoniga amal qilgan. *“Baraka market*” kabi neymlarda atributlar juda muhim, “savdo markazi” tushunchasi “*market*” birligi orqali muayyanlashadi. Biroq *“Green apple market”*, *“Makro express”* kabilar o‘z manba tilida qanchalik jarangdor bo‘lmasin, tanlangan nom ham, uning belgi yoki holatini ifodalovchi birlik ham retsipiyent xalqning kognitiv tafakkuridan uzoqda. *“Ecobozor”, “Yashil Bozor”* neym neologizmlari jarangdorligi, obrazliligi, aytilish jihatdan qulayligi va innovatsion nomga egaligi bilan xaridorlarni o‘ziga jalb qila oladi.

Ingliz tilidan o‘zlashayotgan oshxona anjomlari nomi ham o‘zbek tili leksikasi fondidan salmoqli o‘rin egallayapti. Albatta, vazifasiga ko‘ra biri boshqasini takrorlovchi *mikser, blender, chopper; tefal, termopot* kabilarning analoglari ham ko‘plab uchraydiki, bu jarayon ularning fuksional jihatdan nomlashga xalal berishi tabiiydir.

O‘zlashayotgan so‘zlarga o‘zbekcha muqobil birliklarni tanlash muhim hisoblanadi. Biroq manba tildagi o‘zlashmalarni Internet va ijtimoiy tarmoq motivida aslicha qabul qilayotgan va ularni afzal ko‘ruvchilarning muqobil so‘zlarga ko‘niktirish murakkab kechishi tayin. Shunga qaramay bu masalaning oson yo‘li ta’lim jarayoni bo‘lib, bunday birliklarning puxta shakllantirilgan muqobillarini darsliklarda o‘quvchilarning yoshiga muvofiq, bosqichma-bosqich

singdirib borish kutilgan natijani berishi mumkin. Masalan, *fastfud – tezpishar taom; metsenat – homiy; imij – qiyofa; intriga – fitna; tyutor – murabbiy; grant – ko‘mak; multivarka – turfaqozon; master-klass – mahorat dars; vaksinatsiya – emlash; trening – mashg‘ulot* kabilarning muqobil birliklari tavsiyaviy xarakterga ega.

Atama neologizmlar o‘zlashishi o‘ziga xos jarayon, ular terminlarning umumiste’mol leksikaga aylanishi bilan ham, xalq turmushida yangi paydo bo‘layotgan xorijiy innovatsiyalarning nomi sifatida ham yuzaga keladi. Shuningdek, bu o‘zlashmalar sohalar kesimida o‘ziga xos shaklda farqlanar ekan, asosan, innovatsiya qabul qilayotgan sohalarning ustunligiga muvofiq darajalanish hosil qiladi. Bunga motivatsion omil esa Internet va unga aloqador ijtimoiy tarmoqlar, turli bloglardir. So‘z o‘zlashtirishda tilning tabiatini hisobga olib ish tutish uning sofligi va istiqboli uchun ham har doim manfaatli hisoblanadi.

Mustaqillikdan keyin dunyo hamjamiyati bilan ko‘plab sohalardagi hamkorlik aloqalari ta’sirida leksikaga baynalmilal xarakterdagi so‘zlar o‘zlashdi. Batahqiq, bunday so‘zlarning tilga kirib kelishi sohalardagi innovatsion texnologiyalar bilan bevosita aloqador. *Konsalting* so‘zi istiqlolga qadar yaratilgan lug‘atlarda uchramasa-da, uning analogi bo‘lgan *konsultatsiya* so‘zi orqali uning referentini qaysidir darajada tasvirlab beradi. Etimologiyaga asoslangan bu aloqani jamiyatning barcha qatlam vakillari ham bir xil idrok eta olmaydilar. Mazkur so‘zlarning o‘zbek tiliga genetik jihatdan o‘zlashish manbasi bir bo‘lishiga qaramay, manba til birligiga nisbatan so‘z o‘zlashtirilish yo‘li esa bevosita va bilvosita ahamiyat kasb etgan. Qolaversa, ularning semantik farqlari, sohalarga ixtisoslashuvi, nutqiy xususiyati kabilar yangi o‘zlashmaning muloqot jarayonidagi yaqinlik imkoniyatlarini to‘sib qo‘yadi.

Tahlil jarayoni uchun *konsultatsiya* so‘zi stimul so‘z sifatida belgilanar ekan, *konsultant, konsultativ* birliklari bilan bir-birini yodga solish – assotsiativ munosabatni tashkil etadi. *Konsultatsiya, konsultant, konsultativ, konsalting o‘zlashmalari konsul, konsullik* so‘zlari bilan etimologik jihatdan bir asosga ega, biroq guruhlar semantik taraqqiyot yo‘lini sezilarli darajada o‘zgartirgan. Aniqrog‘i, *konsultatsiya* so‘zi eslanganda oddiy muloqot egalari xotirasida *konsultatsiya – konsalting – konsul* assotsiatsiyasi paydo bo‘lmaydi. Biroq leksemalarning assotsiativ bog‘lanishini ularning semantik tuzilishi bilan chegaralash yaramaydi. Muayyan leksema boshqa leksema bilan bir vaqtda ham assotsiativ, ham semantik munosabatga kirisha oladi[Lutfullayeva D. 2017. –B. 29]. O‘tgan asrda neologizm sifatida shakllanib, faol iste’molda bo‘lgan, rus tili orqali o‘zlashgan konsultatsiya (lot. consultatio – maslahat) so‘zining iste’mol doirasi nisbatan cheklangani seziladi. Uning “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da uch ma’nosi mavjud, ular “1) mutaxassisning yoki bilimdon kishining biror masala bo‘yicha maslahati; 2) o‘qituvchilarning fanni o‘zlashtirish uchun o‘quvchilarga beradigan yordami va shunday yordam berish mashg‘uloti; 3) mutaxassislar maslahati orqali aholiga yordam ko‘rsatuvchi muassasa”[O‘zbek tilining izohli lug‘ati., 2020. – B. 435] lardan iborat. Ulardan bosh ma’no sifatida shakllangan genetik ma’no ko‘proq so‘zlashuv va publitsistik uslubda, ikkinchi va uchinchi hosila ma’nolar esa rasmiy uslub doirasida ishlatiladi.

Ingliz tili orqali o‘zlashgan ***konsalting*** (*consulting* – maslahat berish, maslahatlashish) so‘zining “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da berilgan maqolasida “maxsus kompaniyalarning biznesmenlar – ishlab chiqaruvchilar, sotuvchi va xaridorlarga tashkiliy, texnikaviy, moliyaviy, iqtisodiy masalalar bo‘yicha maslahatlar, tavsiyalar berishdan iborat faoliyati” izohi keltirilgan. Ana shu ma’no “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi *konsultatsiya* so‘zining uchinchi ma’nosini o‘zida qamrab olgan. Umuman olganda, *konsalting* so‘zi asl manba tildan ma’nosi toraygan holatda o‘zlashdi. Ingliz tili lug‘atlarida uning “muayyan mavzu bo‘yicha maslahat berish; muayyan mavzu bo‘yicha ekspertlar maslahati faoliyati yoki biznesi” izohidagi ikki ma’nosi berilgan. Bundan tashqari, manba tilda bu so‘zning predmet umumiy ma’nosidan tashqari, belgi denotatini anglatish xususiyati ham mavjud. Manba til so‘zi ma’nosining bunday murakkabliklari qabul qiluvchi til so‘zi semantik taraqqiyotining keyingi bosqichlariga ta’siri masalasida aniq xulosalarga kelish qiyin. O‘zlashmalarning bunday xossalari so‘z ma’no taraqqiyotining keyingi bosqichlarida qabul qiluvchi tilning tabiatidan kelib chiqib relevant ahamiyat kasb etishi mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, yangi o‘zlashmalarni leksikaga qabul qilishda, avvalo, ularning tilimizdagi muqobillarini izlab topish muhim vazifa sanaladi. Bundan tashqari, Globallashuv sharoitining leksikaga kuchli ta’siri va so‘z o‘zlashtirishning faollashuvi jarayonidan kelib chiqib kalkalash usuli so‘z o‘zlashtirishdagi ustuvor yo‘l hisoblanadi. Shuningdek, yevropa tillari o‘zlashmalarini qabul qilishda rus tilining vositachiligidan uzoqlashish ham alohida vazifa sifatida belgilanishi kerak. Leksikaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘z o‘zlashtirishda o‘zbek tilining imkoniyatlari vositachi tilga qaraganda kengroq. Bundan tashqari, o‘zlashayotgan so‘zlar o‘rniga tilning sheva imkoniyatlaridan foydalanish, yangi so‘z yasash usullariga tayanish, tilning zaxira boyligidagi birliklarga ma’no yuklash usuli ham istiqbolli yo‘l sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдурахманова М. Юнон-лотин тилига асосланган тиббий атамаларнинг лингвистик тадқиқи // Сўз санъати. 3-махсус сон. –Тошкент: 2020. –Б. 708-713.
2. Дадабоев Ҳ. Ўзбек терминологияси. – Тошкент: 2019. – 117 б.
3. Конишевский Д.В., Кушнарева Н.В., Ветров С.А. Неологизмы цифровой культуры (активный словарь миллениала). –Москва: Директ-Медиа, 2019. – 48 с.
4. Овсянникова К.В. Особенности номинации предприятий общественного питания (на примере коммерческих названий г. Воронежа и г. Москвы): дисс. … канд. филол. наук. Воронеж, 2016. – 217 с.
5. Жумаев Т. Ўзбек тили лисоний структурасининг реликтолингвистик аспекти (фонетик, лексик, морфологик сатҳ): Филол. фан. ... д-ри … (DSc) дисс. – Қарши: 2021. – 238 б.
6. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – 140 б.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдли. III жилд. – Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2020. – 688 б.

FE’L MARKAZLI GAPLARDA VALENTLIK IMKONIYATI

Sh.T.Akramov, dots.f.f.n.
N.E.Tursunova, talaba

Annotatsiya Ushbu maqola til tizimida keng qo‘llanuvchi fe’l shakllarining ayrim turlarida valentlik hodisasining so‘z ma’nosiga aloqadorligi va ba’zilarida so‘z va gap kengayish imkoniyatining tenglik hosil qilishi xususidagi qarashlarga bag‘ishlangan.

Tayanch so‘zlar. valentlik nazariyasi, so‘z valentligi, gap valentligi, gap markazi, periferiya, invariant,variant, differensial-semantik tahlil, obyekt valentligi, semantik graduonimiya va h.zo.

Аннотатция Данная статья посвящена взглядам на связь явления валентности со значением слова в некоторых видах глагольных форм, распространенных в языковой системе, а в ряде случаев возможность расширения слова и предложения создает равенство.

Основные слова. теория валентности, валентность слова, валентность предложения, центр предложения, периферия, инвариант, вариант, дифференциально-семантический анализ, валентность объекта, семантическая градуонимия и др.

Annotation This article is devoted to views on the relation of valency phenomenon to word meaning in some types of verb forms that are widespread in the language system, and in some cases, the possibility of word and sentence expansion creates equality.

Basic words. valence theory, word valence, sentence valence, sentence center, periphery, invariant, variant, differential-semantic analysis, object valence, semantic graduonymy, etc.

Gap qurilishi tizimida ishtirok etuvchi va uning tarkibiy qismlari(strukturasi, bo‘laklari) ni shakllanishi uchun asos vazifasini o‘tovchi inson tanga-sezgi fe’llari haqidagi nazariyalar tilshunoslikning morfologiya va sintaksisning valentlik nazariyasi asosidagi tadrijiy taraqqiyoti bosqichlarida turlicha ilmiy mezonlarga va nuqtai nazarlarga asoslanadi.

xususan, atamalarni avtomatik belgilash vositalarini yaratish zarurati bilan bog‘liq. Hozirgi vaqtda ilmiy-texnikaviy matnlar korpusini yaratishda asosiy muammo terminologik iboralarni avtomatik belgilash ekanligi asoslanadi.[1]. "Payvandlash" fanining terminologiya tizimining hozirgi holati tahlil qilingan“Payvandlash” fanidan ikki, uch, to‘rt va besh komponentli terminologik iboralarni tahlil qilish natijalari keltirilib, ularning strukturaviy modellari yaratilgan va misollar bilan ko‘rsatilgan. Terminologik birikmalarning barcha mumkin bo‘lgan strukturaviy modellarini hisoblash zarurati asoslangan. Terminologik iboraning tuzilishining murakkablashishi ko‘pincha postpozitiv ta’rifning tuzilishining murakkablashishi bilan bog‘liq bo‘lib, u ifodalagan o‘ziga xos xususiyatlarga bog‘liq. Tadqiqotning yangiligi ko‘p komponentli atamalar tuzilishi bo‘yicha korpusdan tashqari ma’lumotlar bazasi asosi sifatida terminologik iboralarning tizimli modellari ma’lumotlar bazasini shakllantirish uchun nazariy asos yaratishda ko‘rinadi. va texnik matnlar; Terminologik iboralarning tizimli modellari asosida ko‘p komponentli atamalarni avtomatik belgilashga yondashuv ham taklif etiladi. Natija, shuningdek, ilmiy va texnik matnlar korpusidan foydalangan holda korpus tadqiqotini o‘tkazishda nomzod atamalarini qayta ishlash uchun ham foydalidir.[1]

G.V.Kolshanskiy, A.A.Ufimseva., V.G.Gak tomonidan 1976-yilda “Semantik tadqiqot tamoyillari va usullari” mavzusida monografiya chop qilgan. Monografiya mavjud semantik nazariyalarni tizimlashtirish va tanqidiy tahlil qilish, semantika tadqiqotining usullari va tamoyillarini asoslashga bag‘ishlangan. Unda lingvistik ma’noning strukturaviy-lingvistik, psixolingvistik va mantiqiy jihatlardagi umumiy nazariy muammolari yoritilgan, shuningdek, generativ grammatikada semantikani o‘rganish usullari, komponentlar tahlili va ma’nolarni taqsimlash-statistik tahlil qilish usullari ko‘rsatilgan.

Zamonaviy tilshunoslik fanida nutq birliklarining muloqot jarayonida ishlash qonuniyatlarini asoslash zarurati tufayli semantika muammolari muhim ahamiyat kasb etdi. Formallashtirilgan usullar va modellashtirish usullaridan foydalangan holda tilshunoslikning turli sohalarida amalga oshirilgan tilni tasvirlashning sirt darajasida tasvirlash til tizimi va tuzilishidagi lingvistik elementlarning ichki o‘zaro ta’siri haqidagi bilimlarimizni kengaytirdi. Biroq tilni kommunikativ maqsad va semantik mazmun nuqtai nazaridan o‘rganish tilning yuzaki shakllaridan chiqib, til birliklarining informativ qiymatini belgilovchi darajaga chiqishni muqarrar ravishda taqozo etadi. [2]

M.A.Lobanova (2009) “Zamonaviy kompyuter terminologiyasini tuzilish-semantik xususiyatlari (ispan tili asosida)” mavzusida filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyaga avtoreferat chop qilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, u ispan tilidagi kompyuter terminologiyasini strukturaviy, semantik va funksional jihatlari bo‘yicha birinchi bo‘lib to‘liq o‘rgangan. Tadqiqotning yangiligi ispan tilining bir nechta milliy turlaridan zamonaviy lingvistik materiallardan foydalanishda hamdir. Asar birinchi marta bunday keng qamrovli terminologik materiallardan foydalangan holda ingliz-ispan yozishmalarini o‘rgangan. Ilovada birinchi marta Windows operatsion tizimi va Microsoft Word dasturi uchun kompyuter atamalarining ruscha-ispancha lug‘ati yaratilgan. [3]

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi lingvistik va ekstralingvistik omillar bilan bog‘liq. 21-asr boshlarida postindustrial sivilizatsiya elektronika va informatika davriga kirdi. Internet aloqa tizimlarini inqilob qildi. Shaxsiy kompyuter ish va dam olishning ajralmas qismiga aylandi. Kompyuter ko‘nikmalari zamonaviy va muvaffaqiyatli shaxsning atributlari sifatida ko‘rib chiqila boshlandi va ko‘pincha ishga kirishda majburiy talablar hisoblanadi. Ta’lim tizimida kompyuter savodxonligiga katta e’tibor qaratilmoqda: kompyuter sinflari jihozlanib, internet tarmog‘iga kirish imkoniyati ta’minlangan. Yangi bilim sohasining rivojlanishi maxsus terminologiyani ishlab chiqish va tizimlashtirishga olib keladi. Shu munosabat bilan kompyuter terminologiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini va xususan, "Windows va MSWord" terminologiya tizimlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega. Dunyoning aksariyat tillarida kompyuter terminologiyasi ingliz tilidagi kompyuter terminologiyasidan keyin ikkinchi o‘rinda turadi.

Nikolaeva N.S., Fufurina T.A. “Plazma fizikasi atamalarining strukturaviy va semantik xususiyatlari (cheklangan hajmli manbaga asoslangan - ingliz tilidagi ilmiy maqola)” chop qilgan.

Maqoladan maqsad cheklangan matndan (ilmiy maqola) ajratilgan "Plazma fizikasi" fan sohasidagi ingliz tilidagi atamalarning tarkibiy va semantik xususiyatlarini aniqlashdir. Ilmiy yangilik shundan iboratki, birinchi marta turli uzunlikdagi "Plazma fizikasi" atamalarining qiyosiy tarkibiy va semantik tahlili o‘tkazildi. Ilmiy jurnaldagi alohida maqola atamalarni tanlash va ular asosida strukturaviy-semantik tahlil uchun atamalar majmuasini shakllantirish uchun vakillik manbasi ekanligi haqidagi fikr asoslanadi. Natijada, massivda turli uzunlikdagi atamalarning modellari aniqlanadi va taqqoslanadi, ularning qisman nutqiy va semantik mazmuni boshqa fan sohalarida atamalarning rasmiy tuzilishini tahlil qilish natijasida olingan ma’lumotlar bilan bog‘lanadi. maxsus lug‘atlar materiallari.[4]

Yukong Duan “Semantik fizika: nazariya va ilovalar” mavzusida maqola chop qilgan. Ushbu maqolada semantik matematika va fizikani birlashtirgan yangi mavzu bo‘lgan semantik fizika chuqur muhokama qilinadi. Semantik fizika DIKWP modeli (ma’lumotlar, ma’lumotlar, bilim, donolik va maqsad) doirasida murakkab jismoniy muammolarni hal qilish va ilmiy innovatsiyalarni rag‘batlantirishga qaratilgan. Bu soha nafaqat fizikaning tadqiqot usullarini inqilob qiladi, balki moddiy dunyoni tushunishni ham chuqurlashtiradi. U ma’lumotlarning semantik ma’nosidan boshlanadi, ma’lumotlarni chuqur qayta ishlash, bilim mohiyatini tushunish, donolikni har tomonlama qo‘llash va maqsadni aniqlashtirish orqali to‘liq kognitiv jarayonni yaratadi. Semantik fizika kosmologiya, zarralar fizikasi, kvant mexanikasi va termodinamikani o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli ilovalarga ega bo‘lib, katta imkoniyatlarni ko‘rsatadi. Shu bilan birga, uning oldida turgan muammo mavhum semantik tushunchalarni aniq fizik hodisalar bilan to‘g‘ri bog‘lashdan iborat bo‘lib, uning kelajakdagi rivojlanishi aniqroq semantik matematika vositalarini ishlab chiqish va fanlararo tadqiqotlarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, semantik fizika ta’lim, ilmiy tadqiqotlar, muhandislik texnologiyalari va san'at va ko‘ngilochar sohalarda sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, bu fan va texnologiyaning rivojlanishiga va ijtimoiy madaniyatning o‘zgarishiga yordam beradi.[5]

Fizikadagi strukturani o‘rganishga misollardan biri simmetriya va saqlanish qonunlarini o‘rganishdir. Simmetriyalar jismoniy tizimlarning aylanish yoki tarjimalar kabi ma’lum o‘zgarishlarda qanday o‘zgarmasligini tavsiflovchi asosiy printsiplardir. Boshqa tomondan, saqlanish qonunlari energiya yoki impuls kabi ma’lum jismoniy miqdorlarning vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarmasligini tasvirlaydi. Simmetriyalar va saqlanish qonunlari o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish orqali olimlar jismoniy tizimlarning xatti-harakatlarini boshqaradigan asosiy tuzilmalarni ochishlari mumkin. Keyinchalik bu bilimlar koinotdagi materiya va energiya xatti-harakatlarini aniq tasvirlaydigan yangi nazariyalar va modellarni ishlab chiqish uchun ishlatilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, fizikaviy atamalarni strukturaviy o‘rganish fizikadagi ilmiy tadqiqotning muhim jihati hisoblanadi. Turli xil jismoniy tushunchalar, qonunlar va hodisalar o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish orqali olimlar jismoniy dunyoning xatti-harakatlarini boshqaradigan asosiy tuzilmalarni ochishlari mumkin. Keyinchalik bu bilimlar koinotdagi materiya va energiyaning xatti-harakatlarini aniq tasvirlaydigan yangi nazariyalar va modellarni ishlab chiqish uchun ishlatilishi mumkin, bu esa koinotni boshqaradigan asosiy tamoyillarni chuqurroq tushunishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] Y. I. Butenko, N. S. Nikolaeva , T. D. Margaryan. Ilmiy va texnik matnlar korpusini belgilash uchun terminologik iboralarning strukturaviy modellari.

[2] G.V.Kolshanskiy, A.A.Ufimseva., V.G.Gak.et al. Semantik tadqiqot tamoyillari va usullari. "Ilm" nashriyoti, Moskva, 1976.

[3] A.L.Marina. Zamonaviy kompyuter terminologiyasini tuzilish-semantik xususiyatlari (ispan tili asosida)

[4] N. S.Nikolaeva, T. A.Fufurina. Plazma fizikasi atamalarining strukturaviy va semantik xususiyatlari (cheklangan hajmli manbaga asoslangan - ingliz tilidagi ilmiy maqola)

[5] Duan, Yucong & Gong, Shiming. (2024). Semantic Physics: Theory and Applications. 10.13140/RG.2.2.11653.93927.

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA OZIQ-OVQAT O‘ZLASHMALARINING O‘RGANILISHI

Nabiyeva Rushana Jamol qizi
Qarshi davlat universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi tayanch doktoranti
Tel:90 617 12 20
e-mail: rushana.nabiyeva@internet.ru

Annotatsiya: Maqola yangi oziq-ovqat nomlarining o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi xususida bo‘lib, ilmiy dalillar asosida yoritib berilgan. Tahlil qilinayotgan yangi oziq-ovqat o‘zlashmalari nomlarining muayyan lug‘aviy-mavzuviy to‘da hosil qilib, o‘zbek tili leksik fondidan o‘rin olayotgani yig‘ilgan materiallar asosida izohlangan.

Kalit so‘zlar: o‘zlashma oziq-ovqat nomlari, pazandachilik leksikasi, snek (gazak) nomlari, tavsifiy oziq-ovqat nomlari, fast-fud taomi nomlari.

Аннотация: Статья посвящена изучению новых названий продуктов питания в узбекском языкознании и объяснена на основе научных данных. На основе собранного материала выяснено, что названия анализируемых новых продуктов питания образуют определенную лексико-тематическую группу и занимают место в лексическом фонде узбекского языка.

Ключевые слова: названия продуктов питания, кулинарная лексика, названия закусок, описательные названия продуктов питания, названия фаст-фудов.

Abstract: *The article is about the study of new food loanwords in uzbek linguistics and is explained on the basis of scientific evidence. It was explained that the new food loanwords analyzed on the basis of the collected materials form a specific lexical-thematic group and occupy a place in the vocabulary of the uzbek language.*

Keywords: loanword food names, culinary lexicon, snack names, descriptive food names, fast food names.

O‘zbek tilida o‘zlashmalarni tadqiq etish, ayniqsa, leksikadagi neologizmlar yoki yangi o‘zlashmalarni o‘rganishga nisbatan tilning milliy tabiatiga jonkuyar tilshunoslari orasida ham ijobiy bo‘lmagan yoki salbiy qarashlar mavjud. Sir emaski, bu ularning o‘zbek tilining milliy tabiatini katta miqdordagi o‘zlashmalar hisobiga buzilishi haqidagi tasavvurlari bilan bog‘liq. Albatta, bu fikr haqiqatdan xoli emas. Biroq leksikaga to‘xtovsiz o‘zlashayotgan bunday neologizm yoki o‘zlashmalarga befarq yoki e’tiborsiz bo‘lib turish, ularni statistik jihatdan o‘rganmaslik, milliy til tabiatiga mos muqobil birliklarini izlab topmaslik yoki hech bo‘lmaganda o‘z vaqtida fonetik, orfografik yoki orfoepik jihatdan tartibga olmaslik kabi holatlar ko‘plab yirik masalalarni keltirib chiqarish ehtimolini yuzaga chiqaradi.

Aniqroq aytganda, bugungi kun tilning zaxira fondiga xaos holatida jamlanayotgan o‘zlashmalar muammosidan qochish tilda shakllanayotgan global muammoning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Shunday ekan, o‘zlashmalar tilning milliy tabiatiga bevosita ta’sir etuvchi alohida kuch hisoblanib, ularni rang-rang jihatdan hamda muntazam ravishda tadqiq etib borish tilshunoslarning doimiy vazifasi hisoblanadi. [Shukurov O. 2023. 255 b.]

O‘zbek tilida shakllanayotgan shunday birliklarning alohida bir guruhi oziq-ovqat nomlari yangi o‘zlashmalari bo‘lib, ularni genetik, semantik va leksikografik tadqiqi muhim ahamiyatga ega. Zeroki, leksikadagi oziq-ovqat nomlari tadqiq etilar ekan, ularning jahon, turkiy hamda o‘zbek tilshunosligi doirasida ilmiy talqinda o‘rganilishi, hozirgi jonli tildagi oziq-ovqat nomlari yangi o‘zlashmalarining qo‘llanilish ko‘lami hamda oziq-ovqat nomlari yangi o‘zlashmalarining genetik tavsifi muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, leksikadagi oziq-ovqat nomlari yangi

oʻzlashmalarining semantik jihati hamda ularning leksikografik tavsifi ham, shubhasizki, oʻrganilayotgan muammoning kun tartibidagi dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Bu oʻrinda qoʻllanayotgan oziq-ovqat nomlari yangi oʻzlashmalari qatorida nafaqat oʻzlashma xarakterdagi taom nomlari, balki leksikada paydo boʻlgan yoki ogʻzaki nutqda faol isteʼmolda boʻlgan oziq-ovqat mahsuloti nomlari ham nazarda tutilyapti. Oʻzbek tili mavjud lugʻatlariga kiritilgan boʻlmasa-da, bunday birliklar nomining miqdori shunchalik koʻpki, xalq tilida faol isteʼmolda boʻlayotgan bunday unsurlarni leksikada nomsiz saqlab turishning ham imkoniyati yoʻq. Shunday ekan, ularni aniqlash, jamlash, tasniflash, ilmiy talqinda oʻrganish, tilning milliy tabiatiga moslash, oʻzbek tili tabiati mos muqobil variantlarini ishlab chiqish, tavsiyalar berish, leksikografik tavsiflash, natijada esa lugʻatlarda aks ettirish masalaning muhim jihati boʻlib turibdi.

Oʻzbek tilshunosligida oziq-ovqat nomlari bilan bogʻliq ilk lingvistik qarashlar M.Koshgʻariyning “Devoni lugʻatit turk” asariga borib taqaladi. Hozirda neologizm xarakteridagi *yogurt* oʻzlashmasi ham dastlab “Devoni lugʻatit turk” da *“suyuq jogurt”* deya tilga olingan. “Devon”dagi gastronimik birliklarni tahlil qilgan olima N. Rasulova lugʻatdagi oziq-ovqat nomlarining 7 xil tasnifga ajratib oʻrganish mumkinligini aytadi: *non mahsulotlari, xamirli taomlar, sut bilan bogʻliq mahsulotlar, guruch va don mahsulotlari bilan bogʻliq mahsulotlar, goʻshtli taomlar, suyuq taomlar, ichimliklar* kabi. [Rasulova N. 2020. 159-160-betlar.]

Alisher Navoiy asarlari leksikasida ham taom nomlariga oid oʻzlashmalar salmoqli oʻrin tutadi. Jumladan, forsiy oʻzlashmalar: *non, osh, shir* – sut, *falla* – yangi tuqqan hayvonning dastlabki suti, *ogʻiz* – foydalaniladigan sut, *gazak, kabob, jigar kabob, bat kabob* – oʻrdak goʻshtidan kabob, *pushti dunba* – qoʻy dumbasi, *nabot* – novvot, *poludayi dushob* – asl, toza shinni, uzumdan qilingan toza shinni, *maviz* – mayiz, *mavizob* – mayiz suvi, sharbat, *bodom* – bodom magʻzi, *shirayi bodom* – bodom shirasi, qiyomi, *shoʻrba* – shoʻrva, *harisa* – halim, koʻpchilikka goʻsht va bugʻdoydan pishirilgan ovqat; arabcha taom nomlari: *qurs* – kulcha, *qursi qiyr* – qora kulcha, *qursi gazak* – aylana shakldagi gazak, *asal, taranjabin* – yantoq shakari, *sikanjabin* – sirka murabbo kabi taom nomlarini uchratish mumkin.

Olima N.Ikromova tomonidan oʻtgan asrda oʻzbek tili pazandachilik leksikasi tadqiq qilingan boʻlib, Toshkent shahar shevasidagi taom nomlari tadqiqot obektlaridan biri boʻlgan. [Ikramova N. 1983. 168 b.] Bundan tashqari olima M. Xudayarovaning “Oʻzbek tilidagi taom nomlarining lingvistik tahlili (Qoraqalpogʻiston hududi materiallari asosida) nomli nomzodlik dissertatsiyasida Qoraqalpogʻiston oʻzbek shevalaridagi taom nomlarining leksik xususiyatlari ochib berilgan. Ishda, asosan, shevaga xos taom nomlari, shuningdek, shirinlik, qandolat nomlari lisoniy tadqiq etilgan. [Xudayarova M. 2008. 22 b.]

Olim M.Abdiyev uzoq tarixga ega oʻzbek pazandachilik leksikasi oʻzbek tili lugʻat tarkibining muhim tarkibiy qismlaridan biri ekanini aytib, u lugʻatning ikkita kichik tizimida alohida oʻrin tutishini taʼkidlaydi. Bular: 1) kundalik lugʻat quyi tizimida; 2) kasbiy-ishlab chiqarish lugʻatining quyi tizimida. Olim oʻz navbatida ular umumiy lugʻatda oʻzlarining zarur oʻrnini egallashini keltirib oʻtadi. [Abdiyev M. 2016. 68-73-betlar] Shuningdek, M.Abdiyev pazandachilik lugʻatining oʻziga xos xususiyati haqida ham toʻxtalib, pazandachilik lugʻati nafaqat tilshunoslar, balki turli soha mutaxassislari (etnograflar, tarixchilar, botaniklar, biologlar, diyetologlar va boshqa soha vakillari) uchun ham moʻljallanishi, shuningdek, *aralash izohli ensiklopedik* turda boʻlishi kerakligini aytib oʻtadi.

Oʻzbek xalqining ovqatlanish madaniyatida asosiy oʻrinda turuvchi *non va non mahsulotlari* nomlari olima A.Ibatova tomonidan oʻrganilgan. [Ibatova A. 2023. 49 b.] Ishda, asosan, non va novvoylik bilan bogʻliq terminlar, shevaga xos soʻzlar tahlil qilinib, non bilan aloqador etnofragizmlar lingvokulturologik jihatdan ochib berilgan. Olima *“Non konsepti va uning mohiyati xususida”* nomli maqolasida non tushunchasining oʻzbek tilida tutgan oʻrni haqida toʻxtaladi: *Oʻzbek madaniyati va oʻzbek tilining asosiy tushunchalaridan biri koʻp asrlar davomida “non” makrokonsepsiyasi hisoblanadi. Uning tuzilishi, etnik-madaniy va semantik rejalarining har tomonlama lingvistik va madaniy tavsifi, madaniy va lingvistik doimiy boʻlgan non tushunchasi oʻzbek tili konseptual sohasining markazida joylashgan degan xulosaga kelishimizga imkon beradi.* [Ibatova A. 2023. 75-77 betlar]

Bundan tashqari, e’lon qilingan bir qancha ilmiy maqolalarda ham oziq-ovqat mahsulotlari nomlarining turlicha talqinda tadqiq qilinganligini koʻrishimiz mumkin. Olima F.Nasimova *“Oʻzbek mumtoz adabiy asarlarida uchraydigan taom nomlarining leksik-semantik xususiyatlari”* nomli maqolasida oʻzbek mumtoz adabiy asarlarida uchraydigan taom nomlarining fonetik, variantlilik hodisalari, ayrim ma’no farqlarini Alisher Navoiy asarlarida keltirilgan misollar asosida izohlab bergan. [Nasimova F. 2023. 27-32-betlar] Shuningdek, oʻzbek tiliga boshqa tillardan kirib kelayotgan taom nomlariga oid ayrim ilmiy maqolalar ham uchrab turibdi. [Komilova M. 2023. 54-56-betlar]

Xullas, oʻzbek tili leksikasida faol qoʻllanayotgan yangi oziq-ovqat oʻzlashmalari tilshunoslarning tadqiqot obyektlarida ham tizimli ravishda oʻrganilgan va “pazandachilik” leksik-semantik maydonida lugʻaviy-mavzuviy toʻda hosil qilgan. Biroq oʻzbek tiliga kirib kelgan yangi oziq-ovqat oʻzlashmalari genetik, semantik va leksikografik nuqtayi nazaridan tahlil qilishga muhtoj va bu yangi tadqiqot obyektlaridan biri boʻlishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шукуров О. У. Ўзбек тили замонавий ўзлашмаларининг эволюцияси, трансформацияси ва лексикографик талқини масалалари (мустақиллик даври) //филол. фан. доктори (DcS) … дисс. автореф. –Қарши: 2023. –В. 255.
2. Rasulova N.N. M.Koshgʻariyning “Devoni lugʻatit turk” asarida keltirilgan ba’zi gastronomik birliklar haqida // “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal. 2020. –B. 159-160.
3. Navoiy asarlari lugʻati. -Toshkent: Gʻafur Gʻulom, 1972. –B. 568.
4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati. IV jildli. – Toshkent: Fan, 1985.
5. Икрамова Н. Узбекская кулинарная лексика: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент:1983. –С. 168.
6. Худаярова М. Ўзбек тилидаги таом номларининг лингвистик таҳлили: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент: 2008. –Б. 22.
7. Абдиев М.Б. О некоторых особенностях узбекского кулинарного словаря // Язык в сфере профессионального общения. Сборник материалов международной научно-практической конференции: Екатеринбург. 2016. –С. 68-73.
8. Ibatova A. Oʻzbek tilida non va non mahsulotlari bilan bogʻliq lugʻaviy birliklar tadqiqi: Filol. fan. boʻyicha falsafa doktori (PhD) … diss. avtoref. – Samarqand:2023. –B. 49.
9. Ibatova A. Non konsepti va uning mohiyati xususida // Til va adabiyot.uz. 2023. 5-son. –B. 75-77.
10. Nasimova F. Oʻzbek mumtoz adabiy asarlarida uchraydigan taom nomlarining leksik-semantik xususiyatlari // Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika. – 2023. Issue 1. № 5. –B. 27-32.
11. Komilova M. Oʻzbek tiliga xitoy tilidan oʻzlashgan oziq-ovqat nomlari tahlili // “Turfa madaniyatlar, millat, tillarni qiyosiy-tipologik tadqiqotlar orqali anglash ”. XV Xalqaro ilmiy anjuman. 2023. –B 54-56.

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI TARIXIDA SIFAT TURKUMINING O‘RGANILISHI

Egamova Chamangul Umirovna
Kitob tumani 50-umumta’lim maktabi o‘qituvchisi
E-mail: chamangulegamova@gmail.com tel: 91 4673114

Annotatsiya Hozirgi oʻzbek tilshunosligi oʻz tadqiqotchilaridan zamon bilan hamnafas mavzularda tadqiqotlarni kutayotganligini hisobga olsak, tildan amaliy foydalanish samaradorligini ta’minlovchi ishlarning ahamiyati yanada ortishi shubhasiz. Shaxs va narsalarning belgisini bildiruvchi, shuningdek, eng koʻp otlar bilan birikma hosil qiluvchi sifat soʻz turkumi, uning leksik-grammatik xususiyatlariga oid tadqiqotlar ham shular jumlasidandir. Tilshunoslik fan sifatida shakllangandan soʻng grammatikaning bir qismi boʻlgan morfologiya boʻlimida boshqa mustaqil soʻz turkumlari qatorida oʻrganila boshlandi. Ammo yozma manbalar paydo boʻlibdiki, xalqimiz

nutqida sifatlar belgi bildiruvchi, shaxs va narsalarning ma’nosini aniqlashtiruvchi so‘zlar sifatida keng qo‘llanib kelingan.

Kalit so‘zlar: sifat, aniqlovchi, leksik-grammatik xususiyat, belgi, o‘rganilish tarixi

STUDYING ADJECTIVES IN THE HISTORY OF UZBEK LINGUISTICS

Abstract Considering that modern Uzbek linguistics expects its researchers to conduct research on topical issues, the importance of works that ensure the effectiveness of the practical use of the language will undoubtedly increase. Among them is a group of adjectives denoting persons and objects, as well as forming combinations with most nouns, as well as a study of its lexical and grammatical features. After the formation of linguistics as a science, they began to study it in the department of morphology, which is part of grammar, along with other independent groups of words. However, there are written sources that testify that in the speech of our people adjectives are widely used as words denoting a sign and clarifying the meaning of persons and things.

Key words: adjective, definition, lexical and grammatical properties, sign, history of learning.

ИЗУЧЕНИЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ В ИСТОРИИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОЗНАНИЯ

Аннотация Учитывая, что современное узбекское языкознание ожидает от своих исследователей проведения исследований по актуальным темам, значение работ, обеспечивающих эффективность практического использования языка, несомненно, возрастет. Среди них группа прилагательных, обозначающих лица и предметы, а также образующих сочетания с большинством существительных, а также исследование ее лексико-грамматических особенностей. После становления языкознания как науки его стали изучать в отделе морфологии, входящей в состав грамматики, наряду с другими самостоятельными группами слов. Однако есть письменные источники, свидетельствующие о том, что в речи нашего народа прилагательные широко используются как слова, обозначающие признак и уточняющие значение лиц и вещей.

Ключевые слова: прилагательное, определиние, лексико-грамматический свойства, признак, история обучения.

Kirish. Har bir xalq, millatning tili uning tarixiy taraqqiyoti va ma’naviy yuksalish jarayonida erishgan eng noyob va bebaho boyligidir. Tilda xalqning taqdiri, yashash tarxi, madaniyati va ma’naviy olami mujassam bo‘ladi, o‘z aksini topadi. Til millat ruhining betakror va har doim bor haqiqatni aks ettiruvchi ko‘zgusidir. Har bir tilda shu til egasi bo‘lgan millatning saviyasi, ruhiyati namoyon bo‘ladi. Shu sababli har bir xalq o‘z milliy tilining sofligi, kamoloti va taraqqiyoti uchun qayg‘uradi. Shu ma’noda sifatlarning eng qadimgi yozma yodgorliklar, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg‘ariy, Alisher Navoiy, Abdurauf Fitrat asarlari va zamonaviy tilshunoslikka oid tadqiqot, qo‘llanma va darsliklarda qo‘llanishi, o‘rganilishini tekshirish maqsadga muvofiq.

O‘rxun-Enasoy bitiklari VI-VIII asrlarga oid qadimgi turkiy til va yozuvini aks ettiruvchi tarixiy yodgorlik sifatida qadrli. “Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarga run, uyg‘ur, moniy, brahma, sug‘d, suryoniy yozuvlarida bitilgan obidalar kiradi. Run va uyg‘ur yozuvlari turkiy xalqlarga xosdir” [1:3]. O‘rxun-Enasoy obidalari matnlarida sifatlarning aksariyati shaxsni anglatuvchi so‘zlarning aniqlovchisi, ular ifodalagan tushunchalarning semantikasini muayyanlashtirish uchun xizmat qilganligini aytib o‘tishimiz mumkin. Masalan:

“**Arïğ** so‘zi qadimgi turkiy tilda, ya’ni “Oltun yorug‘”, To‘nyuquq Turfon matnlari da “toza”, “olijanob”, “haqiqiy” ma’nolarini ifodalagan. *Biz arïğ dindar biz - biz haqiqiy dindormiz*” [1:40].

Keltirilgan misolda *arïğ* so‘zi shaxsning belgisini bildirib kelgan. Chunki *dindar* so‘zi otlashishi (o‘zi aniqlab kelgan otning tushirilishi) natijasida shaxs ma’nosini o‘zida mujassam etgan. Otlashish xususiyati, aslida, sifatlarning o‘ziga ham xos bo‘lgan lingvistik hodisa

hisoblanadi. Faqat otlashish natijasidagina bir sifat otlashgan va otning leksik-grammatik xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan boshqa bir sifatning ma’nosini aniqlashtirishi mumkin. Yuqorida keltirilgan misolda ham shu holatni kuzatishimiz mumkin: *haqiqiy* sifati otlashgan *dindor* sifatining ma’nosini muayyanlashtirgan. Umuman olganda, “O‘rxun-Enasoy obidalari”da sifatlarning salmoqli qismni egallashi turkiy tillarda ot turkumiga oid so‘zlarning ko‘pligi bilan izohlanadi. “Qadimgi turkiy tilda ot turkumiga kiruvchi so‘zlar ko‘p bo‘lishi semantik tomondan hozirgi turkiy tillardagi singari xususiyatlarga ega. Qadimgi turkiy tilda ot turkumiga mansub so‘zlar kishi nomlari – antroponim (Bilga qağan), zoonim – hayvon nomlari (qo‘y, bars, bo‘ri), jism nomlari (sub), qavm-qarindosh (qaŋ), astroponim (Ud, Ay)larni ifodalaydi” [2:50]. Tabiiyki, leksikaning salmoqli qismini egallaydigan otlar bilan eng ko‘p birikma hosil qiluvchi sifatlar ham o‘zbek tili matnlarida tegishlicha ko‘p qo‘llanadi. Turkiy tillarda sifatlar tarixan maxsus morfologik ko‘rsatkichga ega bo‘lmaganligi aytiladi. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra sifat so‘z turkumi, dastlab, mustaqil so‘z turkumi sifatida mavjud bo‘lmagan va ular keyinchalik otlardan ajralib chiqqan. Sharqshunos E.V.Sevortyanning fikriga ko‘ra sifatning otlardan differensiatsiyalanishi jarayoni VI-VIII asrlarda kuchaygan [3:58]. Turkiy tillar taraqqiyot bosqichining qadim davrlaridan boshlangan sifatning otdan ajralib chiqishi uzluksiz hodisa bo‘lib, bu jarayon hozir ham davom etmoqda, deyishimiz mumkin. Aytilgan fikrlardan sifat turkumiga mansub hamma so‘zlar ot turkumidan o‘tgan, degan xulosaga kelish maqsadga muvofiq emas. Chunki “sifat mustaqil kategoriya sifatida shakllangandan so‘ng bu turkum tarkibida yangidan qo‘shilgan belgi ifodalovchi bir qator tub va yasama so‘zlar, yasovchi affikslar mavjudki, ularning etimologiyasi hozircha aniqlangan emas” [1:58]. Keltirilgan fikrlardan sifatlarning otlarga zich bog‘liq ekanligini anglash mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Yuqorida toshbitiklarda qo‘llangan sifatlarning shaxs ma’nosini ifodalovchi otlarga birikishiga oid misol keltirilgan edi. Sifatlar “O‘rxun-Enasoy obidalari”da faqat shaxsni ifodalovchi otlarni emas, balki narsani ifodalovchi otlarning tobe qismi vazifasida kelishi ham mumkin. Masalan, *qïzïl qan* (qizil qon), *qara ter* (qora ter), *sarïğ altun* (sariq oltin), *aq kümüsh* (oq kumush), *qağïz yär* (qo‘ng‘ir yer) kabi birikmalarda sifatlar narsa bildiruvchi otlarga tobelangan. Anglashiladiki toshbitiklarda sifatlar qadimgi turkiy til leksikasida salmoqli o‘rin tutadigan otlarning ma’nosini nutqiy jarayonda ochib berish uchun xizmat qilgan. O‘sha davrda ham uchragan otlashish lingvistik hodisasi, shuningdek, sifatlash, metafora kabi san’atlar yordamida sifat turkumiga mansub so‘zlar shaxs yoki narsani ham ifodalashi mumkin bo‘lgan: “asarda oltinga “sariq”, kumushga “oq”, tuyaga “egri” singari epitetlar – sifatlashlar qo‘llangan” [4:45]. Iqtibosda keltirilgan fikrlar “To‘nyuquq bitiktoshi”ga taalluqli bo‘lsa-da, qadimgi turkiy tilda yaratilgan boshqa yodgorliklarda ham shu kabi holatlarni kuzatish mumkin.

Sifatlarning qo‘llanishi, leksik-semantik va grammatik xususiyatlari tahlil qilinadigan ikkinchi manba – M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridir. Qoraxoniylar davlatining tashkil topishida qarluq va chigillar, ayniqsa, qarluqlar katta rol o‘ynadi. Bu davrda madaniy rivojlanishda ham kichik “ellinizm”ni ko‘rish mumkin. “Qoraxoniylar davlatiga madaniy jihatdan rivojlangan ikki xalq – Sharqda uyg‘urlar va G‘arbda turk-eronlar birlashdi. Ular madaniyati birlashib, o‘sha davr tiliga ham kuchli ta’sir qildi. Natijada Sharqda qarluq-chigil-uyg‘ur dialekti asosida sharqiy adabiy til rivojlandi” [5:34]. Bu dialekt tarkibida qarluqlar ustuvor mavjud bo‘lgan. Mahmud Koshg‘ariy til dalillari asosida qabilalarning o‘zaro munosabati, lahjalarning bir-biriga ta’siri, ularga asos bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy omillar o‘rni va rolini keng va atroflicha ochib beradi [6:34]. “Devonu lug‘otit turk” asari turkiy tilshunoslikning bizga ma’lum bo‘lgan ilk yirik, shuning bilan birga, tengi yo‘q ulug‘ yodgorligidir. “O‘z zamonida asar arablarga, qolaversa, arab tili orqali Sharqu G‘arb xalqlariga qadimgi turklarning tili, madaniyati, tarixi to‘g‘risida to‘liq ma’lumot beruvchi qomusiy kitob sifatida yaratilgan”[7:3]. Asar turkiy tilshunoslikning tarixiy grammatikasi, shuningdek, qomusiy xarakterdagi yodgorligidir, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Asarda turkiy so‘zlar ilk bor arab tilshunosligi metodologiyasi doirasida bayon qilingan. Ta’kidlash lozimki, qomusiy olim turkiy so‘zlarning tuzilishi, tilning o‘ziga xosliklarini inobatga olgan holda lug‘at tuzishga o‘zgacha munosabatda bo‘ldi. Asarda turkiy

tillarning lug‘at boyligi etnolingvistik, lingvokulturologik, qiyosiy-tipologik yo‘nalishlarda tadqiq etilgan. Tabiiyki, shunday leksikografik manbadan sifat turkumi ham o‘z munosib o‘rniga ega bo‘ldi. Masalan:

“**essiz (essiz)** ***essiz kiŝi*** – yuzsiz, uyatsuz, yaxshilikni bilmaydigan kishi. Bu so‘zda sin harfining takrorlanishi mubolaga’a uchundir” [7:71].

Mazkur lug‘at maqolasida bosh so‘z sifat bilan ifodalangan. Uning izohi uchun esa hokim so‘z vazifasida ot turkumiga oid so‘z (kiŝi) qo‘llangan. Lug‘at maqolasidagi bosh so‘z sifat turkumiga oid bo‘lganligi uchun izoh qismidagi so‘zlar ham (yuzsiz, uyatsiz) shu turkum so‘zlaridir. Bunda lug‘at maqolasining izoh qismida bosh so‘z sifatida qo‘llangan sifatning ma’nodoshlaridan foydalaniladi. Shuningdek, bosh so‘z boshqa turkum bilan ifodalangan o‘rinlarda ham izoh qismida sifatlar qo‘llanishi mumkin. Boshqa turkum so‘zining izohida sifat turkumiga oid so‘zga ehtiyoj bo‘lgan o‘rinlar matnda qo‘llangan otning ma’nosini aniqlashtirish lozim bo‘lgan holatlardir. Masalan:

“**suĉuldï (suchuldi** – yechdi)” er tonïn suĉuldï – (erkak) kishi to‘nini yechdi. Qo‘y terisining shilinishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (suĉulur, suĉulmaq). (Shoir) shunday degan: ***Yağmur yağïp sačïldï, Türlüg čečäk sučuldï. Yünčü qapï ačïldï, Čïndan yïpar yuğrušur*”** [7:244]. Mazkur misolda bosh so‘z sifatida fe’l turkumiga mansub so‘z (suĉuldï) qo‘llangan. Bu so‘zning izohida sifat turkumiga mansub so‘zdan foydalanilmagan bo‘lsa-da, illyustrativ misol qismida keltirilgan badiiy parchada sifatga (türlüg) ehtiyoj tug‘ilgan va u *čečäk* otining aniqlovchisi vazifasini bajargan. Anglashiladiki, “Devoni lug‘otit turk”da sifatlar bosh so‘z vazifasida kelganda uning izohida ham, illyustrativ misollarda ham shu turkumga mansub so‘zlar qo‘llanishiga zarurat bo‘ladi va natijada, lug‘at maqolasining barcha qismida ularni uchratish mumkin bo‘ladi. Bosh so‘z boshqa turkum bilan ifodalnganda ham lug‘at maqolasining izoh yoki illyustrativ misol qismida qo‘llangan otlarning ma’nosini aniqlashtirish yoki otlashish hodisasiga zarurat bo‘lgan o‘rinlarda sifat turkumiga mansub so‘zlar qo‘llanadi. Albatta, lug‘atda sifatlar boshqa turkum so‘zlari qatorida (aslida, asarda so‘z turkumlari uchga ajratiladi: fe’llar, ismlar va bog‘lovchilar [8]), turkiy so‘zlarning arab tilidagi imkoniyatlarini ochib berish maqsadiga yo‘naltirilgan. Ammo asarda asosiy g‘oya, ilmiy maqsadni ochish uchun qo‘llangan so‘zlardan ham muayyan xulosalar chiqarish mumkin.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). “Qutadg‘u bilig” insonning ijtimoiy mohiyati, uning hayotdagi o‘rni, ijtimoiy vazifasi turli yo‘nalishlarda tahlil etilgan asar hisoblanadi. Mazkur asarning bolalarga mo‘ljallab yozilgan nashri lug‘atida *og‘in* (soqov), *saran* (xasis), *ol* (qizil), *buchuq* (puchuq, yarim, chala), *arquq* (o‘jar, qaysar, sarkash), *baz* (yot, begona, g‘arib), *ko‘ni* (to‘g‘ri, tik, adl, rost) kabi sifatlar ro‘yxati keltirilgan [9: 145]. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida inson kamoloti masalasi markaziy o‘rinda turadi. Mazkur asarda insonning jamiyat va hayotda tutgan o‘rni, burch va vazifalari haqidagi muammolar o‘ziga xos tarzda bayon etiladi. “Qutadg‘u bilig”ni ba’zi mutaxassislar “turkiy “Shohnoma”” deb nomlashi bejizga emas edi. “Asarni yaratar ekan, muallif o‘z oldiga qoraxoniylar davlati hokimiyatini mustahkamlash, Tavg‘achxon bilan Eloqxonlar o‘rtasidagi ixtiloflarni bartaraf etish, hukmron doiralarning turli ijtimoiy tabaqalarga munosabatini belgilash, ma’rifat va obodonchilik uchun kurash, yaxshi xulq-odobni targ‘ib qilish kabi maqsadlarni qo‘ygan” [10]. Bu maqsadlarning amalga oshishi, jumladan, haqiqiy bekning sifatlarini ta’riflashda shaxsning belgilarini ifodalovchi sifatlarga murojaat qilinishi tabiiy hol edi. Masalan: “Bu kun anda turmaq senda edgurak, Yana munda turmaq menga edgurak. Seningdin bu kun elka asg‘i o‘kush Buzulg‘a asir bo‘lga qarg‘ish, so‘kush” [11:87]. Mazkur misralarning zamonaviy tilga tadbili quyidagicha bo‘ladi: *Bu kun u yerda turmoqlik sen uchun afzalroq, Yana bu yerda turmoqlik men uchun afzalroq. Sendan bu kun el uchun manfaat ko‘pdir, (Bu) manfaat buzilsa, qarg‘ish, so‘kish bo‘ladi.*

Keltirilgan misoldan ko‘rishimiz mumkinki, XI asrda ham xalqimiz sifatlardan o‘z nutqini tuzishda keng foydalangan. Bu turkumning o‘sha davrdayoq o‘ziga xos morfologik shakllarga va leksik-semantik xususiyatlarga ega bo‘lganligini iqtibosdagi parchada qo‘llangan sifatlar ham dalillaydi. *Edgurak* (afzalroq) so‘zining qiyosiy darajada qo‘llanishi o‘sha davrda ham shaxs va narsalarning belgilari boshqa belgiga nisbatlab ifodalanishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘otayn” asarida o‘zbek tilining boyligini, qudratini, o‘sha zamonning adabiy tillari qatoridan o‘rin olishga qodir, haqli ekanligini tilshunos olim sifatida isbotladi. “Asarda o‘zbek (turkiy) va fors tillari unli tovushlar, leksika va morfologiya doirasida o‘zaro qiyoslandi. Dastlab har ikki tildagi unlilar qiyoslanganda, shoir fors tilida unlilar soni cheklanganligi, o‘zbek tilida esa unlilar bir qancha ma’no farqlovchi variantlarga ega ekanligi dalillar orqali ko‘rsatib bergan” [12]. Shoir o‘zbek va fors tillari leksikasini qiyoslash uchun uy-ro‘zg‘or buyumlari, hayvon va qushlarning turlari, tabiat manzaralari, ov jarayoni kabi ijtimoiy hayotning turli sohalariga oid turkiy so‘zlarni keltiradi va ularning forscha muqobili mavjud emasligi, ular shu tushunchalarni ifodalash uchun turkcha so‘zlardan foydalanishlariga e’tiborni qaratadi. Bularning hammasi o‘zbek tilining boy leksik-grammatik imkoniyatlari mavjud ekanligini namoyish qilish edi, aslida. Bu jarayonda sifat turkumiga oid so‘zlarning ham ahamiyati katta edi, albatta. “Muhokamat ul-lug‘otayn”da polisemantik va shakldosh so‘zlar sharhiga ham misollar keltirilgan. Masalan: “*tuz* lafziki necha ma’ni iroda qilsa bo‘lur. Biri *tuz*ki, o‘q yo nayzadek nimani derlar. Yana *tuz* – hamvor dashtni derlar, yana *tuz* – rost kishini derlar, yana *tuz* – sozni tuzmakka amr qilmoqni, yana *tuz* – ikki kishi arosida muvofaqat solmoqni va yana *tuz* – bir majlis asbobini ham sesa bo‘lur” [13:515]. Mazkur misolda eski o‘zbek tilidagi *tuz* so‘zi sharhlangan. Iqtibosdan ma’lum bo‘ladiki, sharhlanayotgan so‘zning “rost”, “tik” ma’nolari sifat turkumiga xosdir. Shu bilan birga ma’nolardan biri harakat anglatuvchi “tuzmak” shakliga ham ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Umuman, “Muhokamat ul-lug‘otayn” asarida, asosan, ot turkumiga mansub so‘zlar qiyoslangan bo‘lsa-da, keltirilgan iqtibos sifat turkumiga mansub so‘zlarga ham o‘rin berilganligini dalillaydi. Hatto asarda sifat turkumining grammatik xususiyatlariga ham to‘xtalib o‘tilgan. Bu zukko shoir o‘zbek (turkiy) tilining grammatikasiga oid chuqur bilimga ega ekanligini bildiradi: “Va yana bir rang yo bir sifatning humuli holig‘a mubolag‘a uchun aning avvalida, avval harfig‘a bir “p” yo “mim” izofa qilib, ul shay’g‘a zoid qilurlar: “p” misoli: op-oq, qop-qora, qip-qizil, sap-sarig‘, yup-yumaloq, yap-yassi, op-ochig‘, chup-chuqur, bu nav’ xili ham topilur; “mim” misoli: ko‘m-ko‘k, yam-yashil, bo‘m-bo‘z” [13:518].

Keltirilgan misoldan ma’lum bo‘ladiki, sifatning XV asrda qo‘llangan orttirma darajalari zamonaviy o‘zbek tili jonli nutqida ham qo‘llanadi. Masalan, *oppoq, qop-qora, qip-qizil, yap-yassi, ko‘m-ko‘k, yam-yashil* kabi sifatlar zamonaviy lug‘atlarda ham keltiriladi. *Sap-sarig‘, op-ochig‘* kabi sifatlarining zamonaviy muqobillarida esa tovush o‘zgarishlari kuzatilgan. Ammo *yap-yassi, chup-chuqur* kabi so‘zlar zamonaviy o‘zbek tili uchun me’yoriy emas. Anglashiladiki, “Muhokamat ul-lug‘otayn”da otlar va fe’llar bilan bir qatorda turkiy (o‘zbek) tilidagi sifatlar ham forscha so‘zlar bilan qiyoslangan.

Maxsus tayyorgarligi bo‘lmagan foydalanuvchi zamonaviy tabdillar, sharhlar va lug‘atlar ko‘magisiz mumtoz asarlarini bevosita qabul qilishi qiyin, albatta. Shu ma’noda Navoiy asarlarida qo‘llangan ba’zi sifatlarni maxsus lug‘atlar yordamidagina leksik-semantik xususiyatlarini anglash mumkin bo‘ladi. Jumladan, 2017-yilda nashr etilgan “Alisher Navoiy asarlari lug‘ati”da sifat turkumiga oid so‘zlar ham kiritilgan. Masalan: “Pargola – ya’ni laxta-laxta – laxta va pora-pora demakdur. Chunonchi, bu ma’nig‘a Amir keltirurlar, bayt:

Emas har bir sirishkim qonikim, ko‘z mardumi solur
Iting ollida bag‘rimni uzub pargola-pargola” [14:285].

Mazkur misolda keltirilgan pargola so‘zi zamonaviy o‘zbek tilidagi *yo‘l-yo‘l, katak-katak, chiziq-chiziq* kabi so‘zlarni takrorlash orqali hosil qilingan sifatlarga o‘xshash. Tahlillardan ko‘rinadiki, Alisher Navoiy o‘z asarlarida ohoriy sifatlarni ham faol va mahorat bilan qo‘llagan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Zamonaviy tilshunoslikda sifat turkumi A.Fitrat boshlab bergan bo‘lsa, keyinchalik bu turkum tadqiqi qator tilshunoslar tomonidan davom ettirildi [15-26]. Bu tadqiqotlar, darslik va qo‘llanmalarda sifat turkumiga mansub so‘zlarning leksik, morfologik, sintaktik va derivatsion xususiyatlari tekshirildi va o‘z lingvistik yechimini topdi. Masalan, tadqiqotchi Z.Pardayev sifat ma’noviy guruhlaridan biri bo‘lgan rang-tus bildiruvchi sifatlarni tadqiq qilgan bo‘lsa, G.Sulaymonova xususiyat bildiruvchi sifatlardan biri bo‘lgan “yaxshi” so‘zining polifunksionalligiga e’tiborni qaratgan. Shuningdek, ayrim sifatlarning muayyan ijodkor asarlarida qo‘llanishi (S.O‘tanova, 2010), sifat turkumining semantik-uslubiy

xususiyatlari (Z.Pardayev, 2004) ham monografik nuqtayi nazardan tadqiq qilindi. Sifatlar morfologiya, uslubiyat, sintaksis, leksikologiyaga oid umumiy tadqiqotlarning bir qismi sifatida ham tekshirildi (M.Olimov, 2003; O.Latipov, 2003; I.Madrahimov, 1994). Bu tadqiqotlarning natijalari nashr etilgan darslik va qo‘llanmalarni ilmiy-uslubiy nuqtayi nazardan boyitdi. Keyingi davrda yaratilgan darsliklarda sifatning umumiy grammatik ma’nosi “Asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildiruvchi mustaqil so‘z sifat deyiladi” [27:304] tarzida shakllantirilgan. Shuningdek, ba’zi darslik va qo‘llanmalarda sifat darajalari uchta emas to‘rtta degan qarashlar mavjud bo‘lsa-da, ularda qiyosiy darajani ikki qismga ajratish orqali bu natijaga kelinganligini aytib o‘tish o‘rinlidir.

Umuman olganda, sifat turkumiga oid so‘zlar o‘zbek tilshunosligida atroflicha tadqiq qilingan. Bu turkumning o‘zbek morfologiyasidagi o‘rni mustaqil so‘zlar orasida fe’l va otlardan keyin uchinchi bo‘lib o‘rganilishi bilan belgilansa, leksikadagi o‘rni o‘zbek tilida ularning salmog‘i ot turkumidan keyingi ikkinchi o‘rinda turishi bilan belgilanadi. Sifat turkumiga xos sintaktik xususiyatlari o‘zbek tilshunosligida chuqur o‘rganilgan bo‘lsa-da, bu turkum so‘zlarining xususiy birikuvchilari (va biriktiruvchilari)ga oid tadqiqotlar bajarilishi kun tartibidagi masala hisoblanadi. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar natijalari mashina tarjimasi, abtomatik kiritish kabilarning taraqqiyotiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdushukurov B.B., Qadimgi turkiy til, - Toshkent: Navoiy universiteti, 2019. – 127 b.
2. Mahkamov N., Ermatov I., Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati, – Toshkent: Fan. 2013. – 144 b.
3. Севортян Э.В., Из истории прилагательных в тюркских языках // Тюркологичсские исследования – Москва –Ленинград: 1963. – 187 с.
4. To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K., O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik-majmua. – Toshkent: O‘zME, 2017. – 184 b.
5. Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи: Педагогика институтларининг филология факультетлари студентлари учун қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – 178 б.
6. Кошғарий М. Девони луғотит турк. I том. – Тошкент: ЎзССР Фанлар академияси нашриёти, 1960. – Б. 34.
7. Маҳмуд Кошғарий., “Девону луғати-т-турк”, - Тошкент: Ғафур Ғулом. 2017. – 483 б.
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Devonu_lug‘otit_turk
9. Yusuf Xos Hojib., Qutadg‘u bilig. – Toshkent: Cho‘lpon. – 200 b.
10. https://uz.wikipedia.org/wiki/ Devonu_lug‘otit_turk
11. To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K., O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinf va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik-majmua, – Toshkent: O‘zME. 2018. – 200 b.
12. https://uz.wikipedia.org/wiki/Muhokamat_ul-lug‘atayn
13. Alisher Navoiy., To‘la asarlar to‘plami, 10 jildlik, 10-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom. 2013. – 684 b.
14. Muhammad Rizobek Xoksor, Alisher Navoiy asarlari lug‘ati, – Toshkent: Akademnashr. 2017. – 416 b.
15. Abdurauf Fitrat., Tanlangan asarlar, IV jild, – Toshkent: Ma’naviyat. 2006. – 336 b.
16. Олимов М., Рисолаи сарф ёки анъанавий морфология. Ўқув-методик қўлланма. – Тошкент: Фан, 2003. – 111 б.
17. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 339 б.
18. Латипов О., Зоонимлар семантикасига доир айрим мулоҳазалар. // Тил ва адабиѐт таълими. 2003, 3-сон, – Б.51-53.

19. Мамаражабова З. Кўриниш сифатларининг грамматик хусусиятлари. // Тил ва адабиёт таълими. 2002 2-сон. – Б.22-23.

20. Нурмонов А., Ўзбек тили назарий морфологиясининг асосий тамойиллари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1998. 2-сон. – Б.7-10.

21. Pardayev Z. Rang-tus bildiruvchi sifatlarni o‘rganish. // Til va adabiyot ta’limi, 2003. 3-son, – B.15-17.

22. Сулаймонова Г., “Яхши” сўзининг полифункционаллиги // Тил ва адабиёт таълими. 2005, 6-сон. – Б.24-25.

23. Ўтанова С. Алишер Навоий лирикасида сариқ ранг семантикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. 2010. 4-сон. – Б.32-35.

24. Мамаражабова З.Н., Ўзбек тилида сифатларнинг коннотатив маънолари. Филол.фанлари номз. ...дис. автореф. Тошкент: 2004. – 24 б.

25. Пардаев З.Н., Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари. Филол. фанлари номз. ... дис. автореф. Самарқанд: 2004. – 22 б.

26. Мадраҳимов И., Ўзбек тилида сўзнинг серқирралиги ва уни таснифлаш асослари. Филол.фанлари номз. ... дис. Тошкент: 1994. – 141 б.

27. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Raupova LR., Qurbonova M.M, Abuzalova M.Q., Yo‘ldosheva D.N., Hozirgi o‘zbek adabiy tili, Toshkent: Fan va texnologiyalar. 2019. – 549 b.

ANBAR OTIN MUXAMMASINING LEKSIK XUSUSIYATLARI (“EY SHOIRA, QIL QARINDOSHINGG‘A NASIHATINGNI” MUXAMMASI ASOSIDA)

Mansurova Zilola Bohodirovna,
Navoiy davlat pedagogika instituti akademik litseyi,
ona tili va adabiyot fani bosh o‘qituvchisi
(+998 98 778 08 08)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Anbar Otinning “Ey shoira, qil qarindoshingg‘a nasihatingni” muxammasining leksik xususiyatlari, ya’ni ko‘chma ma’noli so‘zlar va iboralardan o‘z o‘rnida ustalik bilan foydalanganligi, asarda ko‘chimlarning badiiy-estetik vazifasi haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: muxammas, ko‘chma ma’noli so‘zlar, metafora, metonimiya, sinekdoxa, ibora, antonim so‘zlar.

Аннотация: В данной статье рассмотрены лексические особенности стихотворения Анбар Отин "О поэтесса, дай совет своей родственнице", об умелом использовании фразеологизмов, словосочетаний в переносном значении, также даны сведения об художественно- эстетической функции метафор в произведении.

Ключевые слова: метафорические слова, образные слова, метафора, метонимия, синекдоха, фразеологизмы, антонимы.

Abstract: This article gives information about the lexical features,the masterly use of metaphorical words and phrases,the aesthetic function of the figurative words of Anbar Otin's poem "Oh poetess, advise your relative".

Key words: mukhamas, figurative words, metaphor, metonymy, sinecdoche, phrase, antonym words.

Adabiyot, so‘z san’ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo‘lib kelgan. Inson ruhiy olamini oziqlantirishda , ma’naviy dunyosini yuksaltirib, ezgu tushunchalarni qalbga singdirishda bu sohaning xizmati beqiyosdir. Sharq xalqlari azal-azaldan so‘zni qadrlab, uning qudratini o‘lmas asarlari orqali namoyon qilib keldilar. So‘zga nisbatan mehr-u muhabbat natijasi o‘laroq keyingi davr ijodkorlari tomonidan ham noyob asarlar yaratildi. Xususan, she’riyat sohasiga umrini, ijodini bag‘ishlab adabiyot olamida o‘zining jonli ovoziga ega bo‘lgan so‘z ustalarining safi yanada kengaydi.

Anbar Otin XIX asrning II yarmi XX asrning boshlarida Qo‘qonda yashab ijod etgan shoiralardan biridir. Shoira she’rlari xalqona ruhda yozilganligi, fikrning teranligi, badiiy san’atlardan o‘z o‘rnida mohirona foydalana olgani bilan ahamiyatlidir. Quyida shoira ijodida o‘ziga xos o‘rin tutgan, o‘zgacha mahorat bilan yaratilgan badiiy ko‘chimlar yuzasidan atroflicha fikr yurtish maqsad qilib olindi.

Anbar Otin badiiy ijodda o‘zbek va tojik tillarida birdek samarali ijod qilgan ijodkordir. Shoiraning she’riy devonida g‘azal asosiy o‘rin tutsa-da, unda muxammas, masnaviy, qit’a, mustazodning ham yaxshi namunasi mavjud. Hozirgi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan ta’lim va tarbiya masalasi shoira ijodida yangi ohanglarda kuylangan. Zero, Anbar Otin nafaqat shoira, balki maktabdorlik bilan ham shug‘ullangan. Shuning uchun ham Otin degan nom olgan. Shoiraning ta’lim-tarbiya va til masalalari yoritilgan quyidagi muxammasi tahlilga tortildi. Ushbu muxammasda badiiy ko‘chimlardan unumli foydalangan holda ijodkor o‘z fikrining ta’sirchanligini oshirgan:

Ey shoira, qil qarindoshingg‘a nasihatingni,

O‘lmasdan avval qilg‘il sirdoshingg‘a nasihatingni.

El-u urug‘ingg‘a qilg‘il vasiyatingni,

Bu xushro‘ Vataning uchun qoldirg‘il san’atingni

O‘rgat hamma farzandingg‘a bu mahoratingni. [102]

Shoira har bir kishi bu dunyoda yashar ekan o‘zidan yorqin iz-ma’rifat izini qoldirmog‘i lozimligini uqtirar ekan, buni , avvalo, Vataning uchun qilishing kerak ekanligini aytadi. Ta’lim berishni san’at deya ta’riflagan ijodkor uni keying avlodga o‘rgatish lozimligini ta’kidlaydi.

Avval el tilini bilsunki, qaysi tilda so‘zlar,

Bilsinki qayu yo‘l ila qayg‘a borishni **ko‘zlar,**

Oxir bu yo‘l ila borub ul kim ila **yuz yuzlar,**

Qaysisi qayon borub botur **yulduzlar.**

Ko‘zing ochug‘ida ko‘rsat yo‘l haqida xatingni .[103]

Ushbu parchada yoshlarning milliy g‘ururimiz va iftixorimiz bo‘lgan o‘zbek tilini o‘rganishi, unga hurmat bilan qarashi va bundan faxr tuyg‘usini tuyishi lozimligi uqtirilar ekan, shu bilan birga boshqa yurtlarning tillarini ham o‘rganishga xafsala qilishi lozimligini uqtiradi.

Bilsinki qayu yo‘l ila qayg‘a borishni **ko‘zlar** hamda

Qaysisi qayon borub botur **yulduzlar.**[104]

deganda shoira “ko‘zlar”, “yulduzlar” so‘zlari orqali farzandlar, o‘sib kelayotgan yosh avlodni nazarda tutadi hamda sinekdoxa, metafora usulidagi ma’no ko‘chishlariga murojaat qiladi.

Nutqning tasviriyligi, ifodaviyligi, ta’sirchanligini ta’minlashga ko‘maklashadigan vositalardan muhimi so‘zlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanishi hisoblanadi. So‘zlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanishi, ya’ni turli ma’no ko‘chimlari nutqqa yoqimlilik, go‘zallik, ulug‘vorlik baxsh etadi. So‘z ma’nolarining taraqqiyoti usullari tilshunoslikda metonimiya, metafora, sinekdoxa o‘laroq tafovutlanadi. Bu kabi usullar, shuningdek, ko‘chimlar yoki troplar nomi bilan umumiylashtiriladi. Sinekdoxa yunoncha synecdoche – birgalikda anglash so‘zidan olingan bo‘lib, bo‘lak orqali butunni

[102] Anbar Otin. She’rlar, risola., 1970. – S.62.
[103] Anbar Otin. She’rlar, risola., 1970. – S.62.
[104] Anbar Otin. She’rlar, risola., 1970. – S.62.

yoki butun orqali boʻlakni ifodalashni bildiradi. Maʼno koʻchishining bu turi ham nutqimizning taʼsirchanligini oshirishda, ifodali, jozibali boʻlishida katta ahamiyatga ega.

Oxir bu yoʻl ila borub ul kim ila **yuz yuzlar**,

Bu misrada “ yuz yuzlar” iborasi orqali koʻrishadi, uchrashadi maʼnosini anglash mumkin.

Koʻzing ochugʻida *koʻrsat yoʻl haqida xatingni* misrasida *koʻzingning ochigʻida* iborasi koʻzi ochiqligida, koʻzining ochiqligida, koʻzi ochigʻida kabi variantlarga, koʻzi tirik sinonimiga, joni bor kabi oʻxshashiga ega.[105] Muxammasda tirikligingda, yaʼni hayot ekaningda maʼnosida qoʻllangan. Bu iboraning omonimi yaxshini yomondan, foydani zarardan farqlashga qobiliyatli degan maʼnoni bildiradi. Shoira muxammasda qoʻllagan iboralar tasvir maqsadiga muvofiq tanlangan.

Maʼno yaxlitligiga ega boʻlgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq soʻzlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi koʻchma maʼnodagi barqaror birikmalarga frazeologizmlar, yaʼni iboralar deyiladi. Iboralarda uslubiy va hissiy maʼno mavjud boʻladi.

Degilki, bolam, bu soʻzalrim **oʻylogʻil taninggʻa**,

Xizmat qilakoʻr el uchun bu **dono Vataninggʻa**.

El **rohati-yu gʻamini qabul et taninggʻa**,

Bovar qilakoʻr kelgusida yoshnoq mardi zaninggʻa.

Farzand-u qarindosh qabul etsun ishoratingni. [106]

Navbatdagi sheʼr bandida *oʻylogʻil taninggʻa, qabul et taninggʻa* kabi iboralar qoʻllangan. *Oʻylogʻil taninggʻa* iborasi oʻylab, fikr yuritib koʻr, yaʼni ota-onaning farzandiga bergan oʻgitlarini doim yodingda tut maʼnosida qoʻllangan boʻlsa, *qabul et taninggʻa* iborasi qoʻlingdan kelguncha Vataningga xizmat qil hamda elning rohati va gʻamini oʻz qalbingda his et, u bilan doim birga boʻl maʼnosini anglatadi.

El **rohati-yu gʻamini qabul et taninggʻa**, misrasida rohat va gʻam soʻzlari oʻzaro zid maʼnoli, yaʼni antonim soʻz hisoblanadi. Antonim grekcha anti – “zid”, onoma – “nom” demakdir. Oʻzaro zid maʼnoli soʻz, ibora va qoʻshimcha antonim deyiladi. Antonimiyada zidlik ikki soʻzning orasida boʻladi. [107] Antonimlardan har qanday poetik matnda uslubiy vosita sifatida keng foydalaniladi. Maʼlumki, zid maʼnoli soʻzlarning qoʻllanishi badiiy nutqning ifodaliligi, boʻyoqdorligi, taʼsirchanligini taʼminlashda qulay vositalardan biri sanaladi. Ular satrda shoira aytmoqchi boʻlgan fikrlarni yorqin ifodalashga xizmat qiladi.

Xizmat qilakoʻr el uchun bu **dono Vataninggʻa** misrasida tugʻilib oʻsgan yurtini koʻpni koʻrgan, qanchadan qancha alam va shodlilarni boshidan oʻtkazgan donishmandga qiyoslash orqali metaforadan foydalanadi. Donolik faqat insonga xos fazilat, ijodkor esa bu donishmandlikni Vataniga nisbatan qoʻllagan hamda metafora yuzaga chiqqan. Metafora yunoncha metaphora – koʻchirish soʻzidan olingan boʻlib, bir predmet nomini boshqa predmet nomiga ular oʻrtasidagi maʼlum oʻxshashlik asosida koʻchishidir. Nutq jarayonida metaforalardan oʻrinli foydalanish nutqimizni taʼsirchan, jozibali qiladi. Soʻzlovchining badiiy-estetik qobiliyatini namoyon etadi.

Dilni tuzotib, andesha ila ushlab qalamni,

Tilni uzatub, ilm pesha qilib, oʻylab u gʻamni.

[105] Sh. Rahmatullayev. Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻati., 1978. - S. 141.
[106] Anbar Otin. Sheʼrlar, risola., 1970. – S.62.
[107] B.Mengliyev. Oʻzbek tilidan universal qOʻllanma. 2008. – S.76.

Yozsun u **qo‘lidan boy bermay** bir damni,

Yozsin olamg‘a **boshdin o‘tkan** barcha alamni.

Qoldirmay olib borsun izingdin davomatingni.[108]

Yuqoridagi bandda Anbar Otin dilni pok saqlagan holda, javobgarlikni his qilib qalamni ushlab, olgan ilmlarini ishga solib tilini sayqallashi va haqiqatni yozmog‘i kerakligini uqtiradi.

Dilni tuzotib, andesha ila ushlab qalamni,

Tilni uzatub, ilm pesha qilib, o‘ylab u g‘amni.

Bu o‘rinda shoira *dilni tuzotib, tilni uzotib* birliklarida metaforadan foydalangan. *Qo‘ldan boy bermoq* iborasi befoyda, behuda o‘tkazmoq, yo‘qotmoq ma’nosida qo‘llangan. [109] Shoira farzandlari va shogirdlariga mustabit tuzumda Chor Rossiyasining o‘zbek xalqiga yetkazgan jabr-jafolari, kamsitish va xo‘rliklari haqidagi haqiqatni vaqtni behuda o‘tkazmay yozishlari lozimligini ta’kidlaydi. Zero, kelajak avlod bundan boxabar bo‘lsin.

Yozsin olamg‘a **boshdin o‘tkan** barcha alamni misrasida *boshdin o‘tkan* iborasini qo‘llash orqali barcha ko‘rgan-kechirgan voqealar nazarda tutilgan.

Boshidan o‘tkan, boshidan kechgan iboralari o‘z hayotida ko‘rmoq, his qilmoq ma’nosini bildirib, boshdin kechirmoq, kechirmoq, boshidan o‘tmoq, boshidan o‘tkazmoq ma’nolarini ifodalaydi. [110]

Pokiza dil ila yo‘l olsin shoirlar ichra,

O‘tkur qalami birla kirib borsin mohirlar ichra. [111]

Berilgan parchada *pokiza dil* birikuvida metafora va *o‘tkir qalam* birikmasida metonimiya qo‘llagan. Shoira demoqchiki, ijodkorning qalbi pok bo‘lishi bilan birga o‘tkir, haqiqatni bayon etadigan qalam sohibi bo‘lmog‘i lozim.

Hozircha qog‘oz ustida meni **durlarim sochilg‘ay,**

Vaqti kelib ushbu maxfiy sirim **ochilg‘ay,**

Bu baxtsiz mani farzandlarim **chigali yechilg‘ay**. [112]

Parchada shoira hozircha qog‘ozga yozayotgan ijod namunalari – durlari sochilgani, ya’niki yozilayotganini , vaqt kelib kelajak avlod bundan xabardor bo‘lishini hamda baxtsizlilar tugab farovon, yaxshi kunlar kelishiga umid bog‘laydi.

Kel emdi, ey Anbar otincha, **damingni past qil**!

So‘zni uzaytiribon yozishni hozircha bas qil!

Yaxshisi shuki, ko‘ngulda yangilik havas qil,

Ko‘p oh urma, zamone osuda nafas qil.

Umr yetsa ko‘rarmiz, izhor etkon karomatingni. [113]

---

[108] Anbar Otin. She’rlar, risola., 1970. – S.62.
[109] Sh. Rahmatullayev. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug’ati., 1978. - S. 45.

[110] Sh. Rahmatullayev. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug’ati., 1978. - S. 47.
[111] Anbar Otin. She’rlar, risola., 1970. – S.63.
[112] Anbar Otin. She’rlar, risola., 1970. – S.63.
[113] Anbar Otin. She’rlar, risola., 1970. – S.63.

Muxammasning oxirgi bandida shoira o‘ziga o‘zi murojaat qilarkan, *damingni past qil* deydi, ya’ni haqiqatni, o‘tkir tig‘li so‘zlarni yozishdan to‘xtashini, undan ko‘ra kelajakka yaxshi umidlar bog‘lashini uqtiradi. Anbar Otin agar umri yetsa, Allohning unga bergan karomatiga guvoh bo‘lishini aytib o‘tadi.

Anbar Otin ijodining leksik xususiyatlarini tahlil qilar ekanmiz, bunda shoiraning ko‘chma ma’noli so‘zlar va iboralardan ustalik bilan foydalanganligi e’tiborimizni tortadi. Ijodkorning she’rlari adabiy jihatdan mazmundor bo‘libgina qolmay, balki uning asarlari til xususiyatlari jihatidan ham boy ekanligi, so‘z qo‘llash mahoratining o‘ziga xosligi va so‘zga boyligi ko‘zga tashlanadi.

BUXORO JANUBIY TUMAN TOPONIMLARIDA MIQDOR BILDIRUVCHI SO‘Z ASOSLI TOPONIMLAR

Axmatova Intizora Hasan qizi
(intizoraaxmatova@gmail.com)

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro janubiy tuman toponimlari tarkibida qo‘llanilgan miqdor ifodalovchi so‘zlar, ularning ma’nolari haqidagi qarashlar bayon etilgan. Toponim tarkibidagi miqdor ifodalovchi so‘zlar semantik jihatdan tahlil qilingan va etimologik asoslari ham izohlab berilgan.

Kalit so‘zlar. miqdor, qo‘sh, belgi, nom, etnonim, etnotoponim, nekronim, oykonim, geografik obyekt.

Абстрактный. В данной статье изложены взгляды на количественные слова, используемые в топонимах южного района Бухары, и их значения. Количественные слова в составе топонима были проанализированы семантически и объяснена их этимологическая основа.

Ключевые слова. количество, двойник, символ, название, этноним, этнотопоним, некроним, географический объект.

Abstract. In this article, the views of the quantitative words used in the toponyms of the southern district of Bukhara and their meanings are described. Quantitative words in the toponym have been analyzed semantically and their etymological basis has been explained.

Key words. quantity, double, sign, name, ethnonym, ethnotoponym, necronym, icononym, geographical object.

Kirish. Miqdor, hajm-o‘lchov, belgi, rang-tus ma’nolarini ifodalovchi elementlar toponimlar shakllanishida ishtirok etuvchi leksik birliklar orasida yetakchi o‘rinni egallaydi. Buxoro janubiy tuman toponimlari yasalishida ot va sifat so‘z turkumlariga oid birliklar faol qo‘llaniladi. Buxoro janubiy tumanlari hududida miqdor bildiruvchi, asosan, “qo‘sh”, “yakka”, “haft” qismlaridan tarkib topgan toponimlar ko‘p uchraydi. Ular tarkibidagi bu so‘zlar miqdorni ifodalaydimi yoki boshqa xususiyatni ifodalashini tuman toponimlarini tahlil qilish jarayonida ko‘rib o‘tamiz.

Asosiy qism. Buxoro janubiy tuman toponimlarining tarkibida son, miqdor ma’nosini ifodalovchi so‘zlar ishtirokida hosil bo‘lgan nomlar ham mavjud. Bular tarkibidada alohida toponimik birlik tarzida uchraydigan nomlar mavjud emas. Bu tizimda faqat raqam ko‘rinishidagi nomlar uchramaydi. Raqamlardan ikki sonini ifodalashga xizmat qiladigan qo‘sh so‘zini kuzatish mumkin: Qo‘shrabot, Qo‘shrabot, Qo‘shtol, Qo‘shtut. Ikki so‘ziga ma’nodosh sifatida qaraladigan qo‘sh elementi toponimik atamalar orasida yolg‘iz qo‘llanmaydi. Sababi qo‘sh so‘zi omonimlik xususiyatiga ega bo‘lib, u ikki soni bilan aloqador ma’nolarni hamda “safar, sayohat va sh.k.da

vaqtincha qo‘nish joyi; vaqtinchalik qarorgoh”[114] ma’nosiga ega. Buxoro janubiy tuman toponimlarining tarkibida “qo‘sh”, “haft”, “yakka”, “qirq” tarkibli nomlar mavjud. Tadqiqotimiz davomida toponimlar tarkibidagi ushbu komponentlar qanday ma’no anglatishi xususida ko‘rib o‘tamiz.

Metodlar. Maqolada miqdor bildiruvchi toponimlarning til tizimidagi ahamiyatini aniqlash uchun tarixiy, qiyosiy-chog‘ishtirma, tavsiflash, differensial-semantik, kuzatish usullaridan foydalaniladi.

Muhokama va natijalar. QirqqaL’a – toponim qirq urug‘i nomidan kelib chiqqan deyish mumkin. 15-16-asrlarda qirq urug‘i vakillari Dashti Qipchoqdan ko‘chib kelib, O‘zbekistonning turli hududlariga joylashgan. Qirqlar yashaydigan qaL’a ma’nosida tilimizda paydo bo‘lgan. Tarixchi Halim To‘rayev fikriga ko‘ra toponim qirq qaL’adan iborat hudud yoki qirda joylashgan qaL’a ma’nosini ifodalaydi.[115] Tarkibi: qirq+qaL’a

Nimpoykol – tarkibi: nim+paykal. Paykal (turkiycha. pay — qism, ulush va fors-toj. kol — xandaq) — marza, ariq, yo‘l va boshqa bilan ajratilgan katta ekin maydoni, sug‘oriladigan dalaning bir qismi. Manbalarda keltirilishicha qishloq hududi juda kichkina bo‘lgan va unda 20 ta xonadon istiqomat qilgan. Suv taqsimoti vaqtida miroblar tomonidan har bir qishloqqa bir kunda bir poykoldan suv taqsimlangan. Mazkur qishloq yerlari kam bo‘lgani bois yarim poykol, ya’ni nimpoykol suv ajratilgan.

Yakka A’lam – Qorako‘l tumani Ziyorat MFY dagi qishloq. Buxoro amirligida 14 ta muftiga rahbarlik qilgan, shariat qonun qoidalarini yaxshi bilgan kishi A’lam vazifasini bajargan. A’lam so‘znining bilimdon, bilag‘on kabi ma’nolari ham mavjud. Qishloqdan shu vazifani bajaruvchi shaxs yetishib chiqqanligi uchun Yakka A’lam nomi berilgan bo‘lishi mimkin. Toponim 2 asosdan tashkil topgan.

Mingchinor – chinorli mavzening tabiiy ko‘rinishini aks ettiruvchi toponim. Uning nomi bu joyda chinorlarning behad ko‘pligi bilan belgilangan.

Hazorman - hazor, ya’ni ming so‘zidan olingan, man – tarixiy og‘irlik o‘lchovi birligi. “Ming man” ma’nosida.

Har bir geografik nomning o‘z tarixi mavjud. Qaysidir nom xalq nomidan kelib chiqqan bo‘lsa, boshqa biri hududning tuzilishi, ijtimoiy vaziyatdan, ya’ni aholining kasb-kori, kelib chiqishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Turkiston o‘lkasiga arablar bosqini joy nomlariga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Arabcha nomlar orasida avloyolar, payg‘ambarlar va har xil diniy e’tiqodlar bilan bog‘liq bo‘lgan nomlar alohida o‘rin tutadi. Rabotlar arablar zamonidan qolgan eng ko‘p sonli toponimlardir. Arablar o‘zlari bosib olgan joylarda ko‘pdan-ko‘p harbiy punklar - rabotlar qurishgan. Aynan Zarafshon vodiysining Buxoro qismida Balandrabot, Beshrabot, Yettirabot, Jarrabot, Deganrabot, Kaltarabot, Oltirabot, Oqrabot, Toshrabot, Changrabot, Chorrabot, Chuqurrabot, Qo‘tirrabot, Qo‘shrabot, Rabot, Rabotio‘zbek, Rabotimulla, Raboti Yusuf, Navrabot, Yangirabot, Rabotliq, Rabotiqara, Qizilrabot kabi 160 dan ortiq qishloq 1899-yilda Rossiyalil harbiy olim olim N.F.Sitnyakovskiyning “Ro‘yxat”ida aks etgan. Bu son bugungi kunda Buxoro hududida 361 tani tashkil atadi. “O‘zbek tiling izohli lug‘ati”da rabot so‘ziga quyidagicha izoh beriladi: a) mustahkamlangan qo‘rg‘onlarda soqchilar turadigan joy yoki bir-biridan ma’lum masofada joylashgan istehkom, qo‘rg‘on; b) shahardan chetroqdagi turar joy; d) karvonsaroy, savdo yo‘llaridagi mustahkamlangan manzil. Olimlarimiz ham bu termin haqida o‘zlarining fikrlarini turli tadqiqotlarda berib o‘tganlar.

[114] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2 tomli. 2-tom. – M.: Rus tili, 1981. – B.642.

[115] To‘rayev H. Buxoro toponimikasi. Darslik.

Hafrabot – Jondor tumanidagi aholi punkti. Haf+rabot tarkibiy qismlardan iborat. Toponim forsiy “haft” ya’ni “yetti” va “rabot” so‘zlarining birikishidan hosil qilingan. Arablar bosqini va undan keying davrlarda ham ko‘plab rabotlar paydo bo‘la boshlagan. Har bir rabot nomlanishining o‘ziga xos tarixi mavjud bo‘lib, “yettinchi rabot” mazmunini anglatuvchi Hafrabot toponimidan undan oldin oltinchi, beshinchi rabotlar ham bo‘lganligi anglashiladi. 1899-yilgi rus harbiy olim N.F.Sityakovskiyning ma’lumotlarida ham “Chorrabot, Beshrabot, Yettirabot” toponimlari uchraydi.[116] Rabotlar O‘zbekistonning turli hududlari bo‘ylab tarqalgan bo‘lib, “Uchrabot” Qashqadaryo, Samarqand, “Chorrabot” Buxoro, Navoiy, “Beshrabot” Buxoro, Sirdaryo, Navoiy viloyatlarida uchraydi. Qo‘shrabot – Jondor tumanidagi qishloq. Toponim ikki tarkibiy qismdan iborat: qo‘sh+rabot. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “qo‘sh” so‘zi “ikkita, bir juft”, “sayohat, safar va shu kabilarda vaqtincha qo‘nish joyi, vaqtinchalik qarorgoh” tarzida izohlangan. Demak, qo‘shrabot “ikki rabotdan iborat yoki vaqtinchalik qo‘nimgoh vazifasini bajargan qishloq” ma’nosini anglatadi.

QirqqaL’a – qirq qaL’adan iborat mavze. Toponimni qirqaL’a so‘zining buzilgan talaffuzdagi ifodasi deb taxmin qilsak, “qirdagi qaL’a” ma’nosini bildiradi. Shuningdek, qirq urug‘i vakillari yashagn qaL’a ma’nosi ham anglashiladi.

Xulosa. Shunday qilib, sonlar ishtirok etgan toponimlar ikki va undan ortiq komponentdan iborat bo‘lib, ular tarkibida obyektning mohiyatini anglatuvchi so‘z, topoindikator yoki topomorfant ishtirok etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmatova I.H. “Aniq va tabiiy fanlarni masofaviy o‘qitishning dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. Nukus 2023-yil 12-13-aprel. “Buxoro janubiy tumanlarida Arabxona toponimining leksik xususiyati” 420-424-betlar
2. Axmatova I.H. Philology and sociology ilmiy jurnal. “Qorako‘l tuman toponimlarining fonetik va tarkibiy tuzilishi” 10-16-betlar
3. Axmatova I.H. “Buxoro janubiy tumanlarida “Rabot” asosli toponimlarning semantik xususiyatlari” “Ilm-fan va ta’lim” ilmiy jurnali 8-son 30.06.2023. 100-105 betlar
4. Axmatova I.H. “O‘rta Osiyodan Ando‘lagacha: Turkiy xakqlar tili, tarixi, madaniyati va etnografiyasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. 2023-yil 19-oktabr. Olot tumani tarkibidagi etnonim asosli toponimlar tahlili. 145-147
5. Axmatova I.H. “Globallashuv davrida turli tizimli tillar munosabati” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Navoiy-2023. Qorako‘l tumani ayrim nekronimlarining semantik xususiyatlari. 389-392
6. Axmatova I.H. “Ilm-fan va ta’lim” ilmiy jurnali 14-soni. 2023-yil 25-dekabr. “Qorako‘l tuman toponimlari tarkibidagi rang bildiruvchi so‘zlar tahlili” 26-28-betlar
7. Axmatova I.H. International scientific and practical conference: youth, science, education: topical issues, achievements and innovations nomli xalqaro Chexiya konferensiyasi. Analysis of color defining words in the names of Karakol district. 4 bet
8. Абулғозий. Шажарайи турк.Т.:Чўлпон. 1992й.
9. To‘rayev H. Buxoro toponimikasi. Darslik.
10. Qorayev S. Toponimika. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. T:-2006
11. Ғайбуллаев С. Қоракўл воҳаси тарихий топонимлари атласи. Тошкент, Lesson Press нашриёти, 2021 йил 190 бет
12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Т.: Ўзбек миллий энциклопедияси, 2008. – 606 б

[116] Qorayev S. Toponimika. – T. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – B.23

O‘ZBEK TILIDA “SUV” LEKSEMASI ASOSIDA SHAKLLANGAN MAQOLLARNING ETNOLINGVISTIK TADQIQI

Hayitova Mahliyo Ilhom qizi
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti,
+ 998 93 342 25 28 Email:mahliyohayitova96@gmail.com

Annotatsiya Ajdodlarning dono-yu donishmandligini avlodlarga yetkazib beruvchi, asrlar davomida olingan hayotiy saboqlarni keyingi avlodga o‘rgatuvchi janr xalq maqollaridir. Donishmand xalqimiz boshidan o‘tkazmagan va xulosa chiqarmagan biror gapini maqolga solmagan. “Shuning uchun ham olimlar bu janrni, xalq og‘zaki ijodining juda sekin yaraladigan, lekin nihoyatda uzoq davrlar yashab qoladigan turi, deb hisoblashadi” [Олимов С., 2009. – Б.6.].

Kalit so‘zlar: maqol, hikmatli so‘z, lingvomadaniyat, etnolingvistik tahlil, ko‘chma ma’no, diniy tushuncha va boshqalar.

Annotation Folk proverbs are a genre that conveys the wisdom and wisdom of ancestors to generations, and teaches life lessons learned over the centuries to the next generation. Our wise people did not put into proverbs anything that they had not experienced and drawn conclusions from. "That's why scientists believe that this genre is a type of folk art that is created very slowly, but survives for a very long time."

Key words: proverb, wise saying, linguistic culture, ethnolinguistic analysis, figurative meaning, religious concept, etc.

Аннотация Народные пословицы – это жанр, который передает поколениям мудрость и мудрость предков, а следующему поколению преподает жизненные уроки, усвоенные веками. Наш мудрый народ не вложил в пословицы ничего такого, чего не испытал и из чего не сделал выводов. «Поэтому ученые считают, что этот жанр — вид народного творчества, который создается очень медленно, но сохраняется очень долго».

Ключевые слова: пословица, мудрое изречение, лингвокультура, этнолингвистический анализ, переносное значение, религиозная концепция и др.

Bebaho ne’mat hisoblanmish suv faqat kundalik hayotimizda emas, balki lisoniy boyligimizda ham muhim o‘rin tutadi. Chunki tilimizda “suv” leksemasi asosida shakllangan iboralar, maqol-matallar, topishmoqlar , tasviriy ifodalar, nutqiy odat undovlari ko‘pchilikni tashkil etadi. Ularning mazmuniy ifodasida “suv”ning bebaholigi, uni e’zozlash, asrab-avaylash kerakligi g‘oyalari bilan birga, asrlar mobaynida shakllangan suvga xos lingvokulturologik, etnografik va etnolingvistik xususiyatlar ham aks ettirilgan. Aynan bu leksema ishtirok etgan til birliklarini lisoniy tadqiq etish orqali “suv” leksemasining etimologiyasi, davrlar osha ishlatilishidagi tafovutlar, uslubiy-stilistik xususiyatlari, etnografik jihatlari, shuningdek, butun bir millatning suvga bo‘lgan munosabatini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari “suv” leksemasi asosida shakllangan til birliklarini qiyosiy-tipologik o‘rganish orqali ularning qardosh va qardosh bo‘lmagan tillardagi muqobillari hamda ular o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar aniqlanadi. Kimki biror-bir xalqning asr-asrlik tafakkur tarzini bilmoqchi bo‘lsa, eng avvalo, uning maqollari bilan tanishsin [Олимов С., 2009. – Б.6.].

Tilimizda “suv” leksemasi asosida shakllangan maqollar ko‘p sonlidir. “Suv-oltindan aziz”, “Oy suluvi-nur, soy suluvi-suv”, “Suv taralar tuproqqa, Oro berar yaproqqa”, “Tomchi suvda tol ko‘karar”, “Suvsiz yer-jonsiz jasad”, “Suvsiz yer- yetim, Molsiz er- yetim”, “Suv onasi-buloq, so‘z onasi-quloq”, “Suvning qatrasi-oftob zarrasi”, “Suvni qum tagidan qidir”, “Tashnaning tushiga suv kirar” kabi maqollar suvning hayot manbayi ekanligini isbot etib turibdi [Олимов С., 2009. – Б.6.].

Ularning barchasi, albatta, o‘zining etimologik asosiga va izohiga ega. Ularning yuzaga kelishida ma’lum bir tarixiylik, xalq tasavvuri, tajribasi, dunyoqarashi, mifologiya omillari muhim o‘rin tutgan. “O‘zbek maqollari izohli lug‘ati”da “suv” leksemasi asosida shakllangan 70 ga yaqin

maqollar berilgan bo‘lib, ulardan 13 tasi alohida izohlangan. Quyida ularning ayrimlarining izohini keltirish bilan birga etnolingvistik hamda lingvomadaniy jihatdan tahlil qilishga harakat qilamiz..

“Suv keltirgan – xor-zor, ko‘za sindirgan – aziz”. Klassik shoirlarimiz asarlarida foydalanilganligi bu maqolning qo‘llanilish davri ancha uzoq zamonlarga borib taqalishini ko‘rsatadi:

Raqibi sindurub ko‘nglin-u men yig‘lab anga, lekin,
Suv kelturmak hamonu ko‘za sindurmak hamon ermish. (Navoiy)
Kimga dod aylay borib, shum toleyimni dastidin,
Ko‘za sindirgan aziz-u, suv keltirgan xor-zor. (Muqimiy) Bu maqolni “hammaga yaxshilik qilib, o‘zgalarga foyda keltirishga urinadigan kishilarning behudaga ta’na-malomatlarga qolib, faqat o‘z foydasi uchun ish qiladiganlarning hurmat-izzatda bo‘lishi” deb izohlash mumkin. Avvalo, maqol tarkibida kelayotgan lingvomadaniy birlik – ko‘zaga diqqatimizni qaratsak. Ko‘za – kulollar tomonidan loydan tayyorlanib, xumlarda pishiriladigan, suv va shunga o‘xshash suyuqliklarni solish uchun mo‘ljallangan sopol idish. Bu leksema maqol tarkibida xalqimizning azaldan kulochilik bilan faol shug‘ullanib kelganligini va bu hunar xalq turmush tarzida mustahkam o‘rin egallaganligiga ishora qilmoqda.

“Suv tilasang, Sulaymondan tila”. Xorazm vohasining xo‘jalik hayotida katta rol o‘ynaydigan barcha asosiy kanallar u yoki bu avliyoning nomi bilan bog‘langan. Bunda avliyo goho kanalning homiysi sifatida qadrlansa, goho Amudaryodan mo‘jizaviy ravishda suv chiqarib, kanalning bevosita asoschisi bo‘lgan kishi sifatida qadrlangan. Avliyo Sulaymonni Xonqaning janub tomonidagi kanallar tarmog‘ining homiysi deb hisoblaganlar. Shu kanallarda suv kamayib qolsa uning mozoriga sig‘inganlar. Xalqimiz o‘rtasida Sulaymon payg‘ambar nomi bilan bog‘liq ko‘plab afsona-yu rivoyatlar, qo‘shiqlar va iboralar paydo bo‘lgan. Bu diniy tushuncha lingvomadaniy birlik sifatida qadimiy diniy qarashlarga ishora qilmoqda.

“Suvni ko‘rmay, etik yechma. Bu maqol qadimiy maqollardan biri hisoblanib, uni XI asrning yirik olimi Mahmud Koshg‘ariy shunday izohlagan: “Bu maqol ishlarda mulohazali bo‘lishga undalgan kishilarga nisbatan qo‘llanadi” [Кошғарий М., 1960-67]. Hozir ham bu maqol: “Har bir ishni aniq-ravshan bilmay turib, unga urinma, qadam qo‘yma, bir sohada mulohaza bilan puxta o‘ylangan holda ish tut”, - degan ma’noda qo‘llaniladi.

“Suv-tilsiz yov”. Bu maqol tilimizda o‘zining bir qancha variantlariga ega. Masalan, “O‘t bilan suv – tilsiz yov”, “Suvning ishi – o‘pirmoq, O‘tning ishi kuydirmoq”, “Suv buzadi ham, tuzadi ham”, “Suvning ko‘rinishi muloyim, bag‘ri-tosh”, “Suvning ozi ham bir balo, ko‘pi ham bir balo”, “Daroyi ola bo‘ldi, daryo bir balo bo‘ldi”. Bu maqollarning barchasida suv qanchalar aziz ne’mat bo‘lmasin, kishilarga ofat keltirishi mumkinligi, shu bois, o‘tdan ham, suvdan ham ehtiyot bo‘lish kerakligi uqtiriladi.

“Suv yo‘g‘ida – tayammum”. Islom dinining shartiga ko‘ra, namoz o‘qishdan oldin tahorat qilmoq lozim. Suv yo‘q joyda ikki kaftni tuproqqa urib, betlarga surtadilar. “Tayammum” deb atalmish bu tadbir go‘yo suv bilan qilingan tahoratning o‘rniga o‘tar emish. Mazkur maqolning to‘g‘ri ma’nosi shu mazmunni ifoda etsa-da, ota-bobolarimiz uni va uning majoziy ma’nosiga mos keladigan quyidagi bir qator maqollarni kishiga turmush kechirish yuzasida nasihat qilganda: “Yaxshiroq narsa topilguncha yomonroq narsaning qadriga yetish, undan foydalanib turish zarur degan ma’noda qo‘llaganlar: “Qori bo‘lmasa, yomg‘iri”, “Suvi bo‘lmasa shudringi”, “Chelak teshik bo‘lsa ham, suv sepishga yaraydi” kabi maqollar ham yuqoridagi maqolning mazmuniy variantlari bo‘lib, bir xil ma’noni ifodalaydi.

“Sigir suv ichguncha, buzoq muz yalaydi”. Bu maqolning kelib chiqishi ham uzoq tarixga borib taqaladi. Odatda, qish kunlarida sigirga suvni bir idishda ichiradilar. Sigir suv ichib bo‘lguncha buzoq intilaversa, uni tinchitmoq uchun chelak yuzidagi muzni tashlaydilar. Buzoq shu muzni yalab ovunib turadi. Sigir suv ichib bo‘lgach buzoqqa ham suv olib kelib ichiradilar. Bu maqolni o‘z ma’nosida tushunsak, shunday mazmun anglashiladi. Ko‘chma ma’noda tushunadigan bo‘lsak: “Jamiyatda bo‘ladigan har qanday ijobiy o‘zgarish, dastavval, yuqori martaba vakilllari manfaatiga xizmat qiladi. Oddiy aholi esa ulardan eng oxirda bahramand bo‘ladilar”, - degan mazmun kelib chiqadi. Xalq maqollari tarkibida chorvachilikka oid terminlarning keng qo‘llanilishi

ajdodlarimizning qadimiy mashg‘ulotlariga borib taqaladi. Ular yuqoridagi maqol tarkibida ham xalqimizning uzoq davrni bosib o‘tgan o‘tmishiga ishora qilmoqda.

“Suv o‘pirib ketgan to‘g‘onni do‘ppi bilan bekitib bo‘lmas”. Tilimizda keng qo‘llanadigan maqol tarkibidagi “to‘g‘on” va “do‘ppi” so‘zlariga diqqatimizni qarataylik. Nima uchun xalqimiz bu maqolda “to‘g‘on” so‘zini qo‘llayapti? Daryo, ko‘l yoki soy nomini keltirib o‘tmayapti? Chunki yurtimiz okeanlardan ancha uzoqda joylashgan. Shuning uchun ham ko‘p miqdordagi suvlarni to‘plash uchun to‘g‘onlar barpo etilgan. Qadim zamonlarda esa katta-katta to‘g‘onlar ham faqat inson qo‘l mehnati bilan bunyod etilgan. Uning barpo bo‘lishi qanchalik mashaqqatli bo‘lsa, barbod bo‘lishi shunchalik oson bo‘lgan. Agarda uni suv o‘pirib ketsa, hech narsa bilan to‘xtatishning iloji bo‘lmagan. Demak, uni do‘ppi bilan to‘xtatishga urinishning o‘zi aqlga sig‘maydi. “Do‘ppi” milliy bosh kiyim, allaqachonlar milliy madaniyatimizning bir bo‘lagiga aylanib ulgurgan. Bu so‘zning maqol tarkibida qo‘llanishining o‘zi ham xalqimizga, milliy-madaniy an’analarimizga ishora qiladi.

Er ko‘p bo‘lsa, o‘tin yo‘q, Xotin ko‘p bo‘lsa — suv. Bir o‘qishdayoq kishining yuzida tabassum uyg‘otadigan bu hikmatli so‘z ham o‘zining tarixiy asoslariga ega. Qadim zamonlarda, patriarxat davri hukm surib, erkaklar ov qilib oilani boqqan, ayollar esa faqat uy yumushlari bilan shug‘ullangan paytlarida o‘tin qilish erkaklarning, suv tashish esa ayollarning zimmasida bo‘lgan. Zamonaviy suv havzalari bo‘lmaganligini e’tiborga oladigan bo‘lsak, ayollar suv olib kelish uchun uzoqroq joylarga – soy, daryo bo‘ylariga yoki buloqlarga borishlariga to‘g‘ri kelgan. Ana shunday paytda, tabiiyki, ular suvga yolg‘iz borishmagan, bir necha ayollar o‘zaro suhbatlashib, birgalikda borishgan. Ular shunchalik gapga tushib ketishganki, oqibatda qosh qoraysa ham, uyga qaytishmagan. O‘z-o‘zidan oila a’zolarining chanqog‘i qonmagan – ichish uchun uyda suv yo‘q bo‘lgan. Bu tasvir orqali til egalari bo‘lgan ayollarga nisbatan “sergap, hamma bilan kirishimli, hech kimni va hech narsani e’tibordan chetda qoldirmaydigan” degan madaniy xulosalarni berish mumkin.

Egachili qizga to‘y qayda, Echkili qo‘yga suv qayda. Bu maqolni o‘zida lingvokulturologik xarakter-xususiyatni ifoda etgan hikmatlardan biri deyish mumkin. Chunki uning tarkibida bir nechta lingvomadaniy belgilar bor. Maqolning birinchi komponenti orqali xalqimiz orasida uzoq zamonlardan beri amalda bo‘lib kelayotgan, qat‘iy rioya qilingan bir tarixiy rasm-rusumga ishora mavjud. Ya’niki, turkiy, xususan, o‘zbek xalqida qiz bolani opasidan avval turmushga berish milliy mentalitetga xos bo‘lmagan. Singilning egachisi – opasidan avval turmushga uzatilishi, demak, unda qandaydir nuqson borligidan dalolat sifatida qabul qilingan. Shuning uchun ham opaning va bu orqali butun oilaning sha’niga yomon gaplar aytilmasligi uchun singil opadan avval turmushga uzatilmagan. Ikkinchi komponent tarkibidagi “echkili qo‘yga suv qayda” leksik birligi echkisi bo‘lgan qo‘y undan oldin suv ham ichmaydi, hatto hayvon ham bu borada “o‘zidan kattaga hurmat ko‘rsatadi”, – degan yashirin ma’no mujassam. Shuningdek, chorvachilik atamalarining maqol tarkibida kelishi bu mashg‘ulot xalq turmush tarzida muhim o‘rin tutishini ham ko‘rsatmoqda.

Avvalgi baxtim — gul baxtim, Keyingi baxtim — suvga oqdim. Bu maqolni tahlil qilish jarayonida o‘zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan azaliy bir qadriyat oila masalasi ko‘zga tashlanadi. Xalqimizda oila eng muqaddas qo‘rg‘on, daxlsiz maskan hisoblanadi. Uning mustahkamligida, gullab-yashnashida ayol kishining o‘rni beqiyos. Shuning uchun ham ayollarimiz o‘z oilasiga va juftiga sadoqati bilan hurmat qozongan. Ammo ba’zan oilaviy mojarolar oilaning darz ketishiga sabab bo‘lgan. Shuning uchun ham ayol-u erkakka pand-nasihat ruhida “birinchi baxt misli ochilgan gul, keying baxt esa sarob, o‘tkinchi” degan fikrlar ifoda etilgan maqollar vujudga kelgan.

Daryo to‘la suv bo‘lsa ham, It tun bilan suv ichar. Bu maqolni “Ko‘rmaganning ko‘rgani qursin” maqoli bilan ekvivalent sifatida qo‘llash mumkin. Xalqimiz orasida itga o‘zgacha munosabat shakllangan. U odamning do‘sti, hamrohi, uzoq yo‘llarda yo‘ldoshi, xonadonning va xonumonning qo‘riqchisi sifatida ijobiy obraz ko‘rinishida madaniy tafakkurimizda muxrlangan. Ammo yuqoridagi maqolda endi itga nisbatan ijobiy munosabat saqlangan deya olmaymiz. Demak,

etalonning asoslari ham o‘zgarib turishi mumkin ekan. Ajdodlarimiz itga xos bo‘lgan ayrim sifatlarni vosita qilib olgan holda shu maqolni yaratgan desak bo‘ladi.

Sholining orqasidan kurmak ham suv ichadi. Bu maqol tilimizda o‘zining bir qancha variantlariga ham ega. Masalan: “Gul tufayli tikan suv ichar”, “Ko‘lning orqasidan ko‘lmak ham suv ichadi” kabi variantlari ham bor.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, suv so‘zining qo‘llanish darajasi juda keng. Uni til jihatidan tadqiq etish tarix, geografiya, etnografiya kabi fanlar uchun ham nazariy va amaliy jihatdan keng ahamiyatga ega [Жабборов Х., 1996. – Б.25]. Shu bois, “suv” leksemasi ishtirok etgan til birliklarini alohida olib o‘rganish va tahlil qilish ularning mazmunini kengroq tushunishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Олимов С. Сув илоҳий неьмат. – Тошкент: Академнашр, 2009.
2. Шомаҳмудов Ш., Шораҳмедов Ш. «Нега шундай деймиз». – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.
3. Шомаҳмудов Ш, Шораҳмедов Ш Ҳикматнома. – Тошкент: Ўзбек энциклопедияси Бош редакцияси, 1990.
4. Кошғарий М. «Девону луғотит турк». I, II, III, томлар. – Тошкент: Фан, 1960-67.
5. Жабборов Х. Сув ҳақида сўз // Фан ва турмуш. –Тошкент, 1996. – №6. – Б.25.

BADIIY OBRAZDA METAFORIKLIK XUSUSIYATI

Suvonqulova Laylo Mahmud qizi.
NavDPI, doktorant
+998(91) 085-02-01

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy obraz tushunchasi va metafora asosida qurilgan badiiy obrazlar tahlil qilinadi. Ularning tasviriy vositalar bilan bog‘liqligi misollar orqali ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: badiiy obraz, badiiylik, metaforiklik, istiora, jadid adabiyoti, ichki o‘xshashlik.

Badiiy obraz tushunchasi har bir asarning maqsad va mohiyatini ochib berishdagi asosiy vosita hisoblanadi. Shu jihatdan ham bu tushunchaga har bir millatning adabiyotshunosligida o‘zgacha yondashilgan. Xususan, o‘zbek adabiyotshunosligida ham badiiy obraz masalasi keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. B.Sarimsoqov “…badiiylikning mohiyatini voqelikni obrazlar vositasida in’ikos ettirish tashkil etadi. Shu bois ham badiiylik- obraz, obrazlilik demakdir”, [Sarimsoqov B., 2022. – S.7.] – deya, asar badiiyligini oshiruvchi, uning ta’sir kuchini namoyon ettiruvchi xususiyat bu obraz ekanligini ta’kidlaydi.

Har bir tushunchaning mazmuni va mohiyatini o‘rganishda, uning ichki va tashqi strukturasini tushunishda, avvalo, u atamaning mazmunini anglash lozim. Xo‘sh, obraz atamasining asl ma’nosi nima? “Obraz” atamasi “raz” (chiziq) so‘zidan olingan bo‘lib, “raz” so‘zidan “razit” (“chizmoq, yonmoq, o‘ymoq”) va undan “obrazit” (“cho‘zib, o‘yib, yo‘nib shakl yasamoq”) so‘zi yasalgan. “Obrazit”dan “obraz” (“umuman olingan tasvir”) vujudga kelgan. Aslida “obraz” slavyan tillariga xos so‘z bo‘lib, u voqea-hodisalarning hayolda namoyon bo‘ladigan manzarasini bildiradi. Slavyanlar “obraz” deganda, avvalo, odamzotni azob-uqubatlardan saqlab qolish uchun Alloh tomonidan yuborilgan Iisus Xristos (Iso payg‘ambar)ning rassomlar, haykaltaroshlar tasvirlangan qiyofasini tushunishgan [Umurov H., – S.42.]. Badiiy obraz tushunchasi nafaqat adabiyotda, balki san’atning boshqa turlarida ham o‘z vazifasini bajaradi. Hayotda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni aks ettiradi, ya’ni hayotning yozuvchi asaridagi suratidir. Badiiy obrazning tuzilishi, tasvirlanishi, mazmuni jihatidan adabiyotshunoslar tomonidan bir qancha xususiyatlari tasniflangan. Jumladan, D.Quronov obrazning a) individuallashtirilgan umumlashma; b) konkretlilik; d) ratsional va emotsional birlik sifatida; e) metaforiklik; f) assotsiativlik; g) tugallanmaganlik; h) ko‘p ma’nolilik singari xususiyatlarini ochib bergan. Bular orasida metaforiklik badiiy obrazning asosiy

mohiyatini tashkil etadi. Metaforalar asosida aniq obyektning yoki mavhum tushunchalarning badiiy tasvirlari shakllantiriladi. Metaforik badiiy obraz yaratishda bir-biriga semantik va leksik nuqtai nazardan mos kelmaydigan so‘zlardan foydalanish mumkin. Ya’ni yozuvchi tasvirlamoqchi bo‘lgan voqelikni unga aloqador bo‘lmagan tushuncha orqali o‘quvchi ongiga ta’sir qiladigan darajada yetkazib berishni maqsad qiladi. D.Quronovga ko‘ra, “metaforiklik” badiiy obrazning bir narsa mohiyatini boshqa bir narsa orqali ochishga intilish, san’atga xos fikrlash yo‘sinidir [Quronov D., 2004. – S.66.]. Metaforik obraz yaratish uchun aynan bir-biriga mos va yaqin ma’noli so‘zlar qo‘llanilmaydi. Aksincha, shu obraz ma’nosi anglashilishi uchun uning mazmunidan yiroq, faqatgina qaysi bir tarafi bilan o‘xshashlik kasb etuvchi tasvirlar yuzaga keltiriladi. Masalan, yozuvchi bir inson obrazini, uning xarakteri, nuqsonlari, fazilatlarini ifodalashda metaforik obraz sifatida hayvonlar, o‘simliklar, jonsiz narsalar suratini keltirishi ham mumkin. “…yozuvchi voqelikdagi narsa-hodisaning hammaga ma’lum tashqi o‘xshashligiga emas, balki odamlar nazaridan yashirin ichki o‘xshashligiga tayangan holda fikrlaydi. Masalan, Cho‘lpon go‘zal obrazi va inson erki – ozodligi, A.Qahhor xalqni aldayotgan Amin, mansabdor shaxs obrazlari bilan o‘g‘rilar, A.Oripov tilla baliqcha bilan o‘z qobig‘iga o‘ralib yashayotgan odamlar, S.Ahmad ongsiz yirtqich hayvon bo‘ri bilan o‘z yurtidan, iymon-e’tiqodidan mosuvo bo‘lgan Bo‘rivoy obrazi o‘rtasida o‘xshashliklar topadi. O‘z navbatida Xurshid Do‘stmuhammad ham “Jajman” hikoyasida bozorga kirib, hamma ozuqani yeb bitirayotgan to‘rtoyoqli maxluq bilan insonning bitmas-tuganmas nafsi, “Qichqiriq”dagi anhorning kuchli oqimi va hayotning beshafqat sinovlari o‘rtasidagi o‘xshashlikni topishi- metaforik fikrlash natijasidir” [Raxmonova X., 2021. – S.14.].

Metaforalar adabiyotda turli xildagi janrlarda qo‘llanilsa-da, lirik asarlarni metaforalarsiz tasavvur etish qiyin. Ayniqsa, XX asr oxiri va yangi asr boshlarida shoirlar metafora asosida go‘zal badiiy asarlar yaratdilar. “Bilamizki, XX asr boshlarida ham shunga o‘xshaganroq holat kuchaygan. Fitrat, Cho‘lpon, Botu, Elbek kabi shoirlar xazon, qarg‘a, boyqush, yulduz kabi o‘nlab istioralarni faol qo‘llagan edilar” [G‘aniyev I., 1998.]. Bu davrda, xususan, jadid adabiyotida qo‘llanilgan metaforik obrazlar shoir fikrlarini pardalash, o‘z fikrini ochiqdan-ochiq bayon eta olmaslik natijasida yuzaga kelgan. Bunda ijodkorlar asarlarining g‘oyasini obrazlar, o‘xshatishlar orqasiga berkitishga harakat qilganlar.

Men “o‘zlik”dan ko‘pdan beri uzilib,

“Ko‘plik” ichra botib ketgan tanamen.

U “ko‘plik”ning qayg‘usida cho‘zilib,

Quloch otib, suzib yurgan – yana men [A.Cho‘lpon., 2021. –S.27.].

Yuqoridagi satrlarda Cho‘lpon “o‘zlik” deb o‘zini, “ko‘plik” deb esa o‘z xalqini nazarda tutmoqda. Ya’ni, “O‘zimdan voz kechib, xalqning qayg‘usini hal qilmoq uchun oqimga qarshi suzayotgan menman,” degan fikrni istioraviy o‘xshatishlar orqali tasvirlamoqda. Bunday metaforik obraz aniq bir shaklda o‘quvchi ongiga yetib bora oladi. Chunki bu yerda tashqi o‘xshashlik ham mavjud bo‘lib, xalq ko‘pchilikni, ommani tashkil etadi.

Cho‘lponning yana bir she’rida esa tabiat hodisalari orqali metaforiklik xususiyati vujudga kelgan.

Ko‘m-ko‘k ekan, sarg‘aydilar yaproqlar –

Og‘riq, mag‘lub, tutqun Sharqning yuzidek.

Yuqoridagi parchada shoir Sharqning mag‘lubiyati sababli tutqunga aylangan xalqni sarg‘aygan yaproqqa qiyoslaydi. Sarg‘aygan yaproq va o‘z millatining orasida so‘lish, xazon bo‘lish, orzu-umidlarning poymol bo‘lishi, xazon oyoq ostida toptalgani kabi xalq ham rus millati tomonidan kamsitilayotganligi o‘rtasida uyg‘unlik ko‘radi.

Bo‘ronlarning ko‘zlari, kim o‘ynoqlar,

G‘olib G‘arbning qonga to‘lgan ko‘zidek [Cho‘lpon A., 2021. – S.30.].

Cho‘lpon tomonidan “bo‘ronlarning ko‘zlari” tarzida qo‘llagan metafora G‘arbning, Chor Rossiyasining ko‘zlariga qiyoslanmoqda. Bunda shoir faqatgina ko‘zning tashqi o‘xshashligini nazarda tutmagan. Asosiy ma’no bo‘ronning shiddati, g‘azabi, hech bir narsaga rahm-shafqat qilmasligidadir. Bu ichki ma’noni – G‘arb hukumatining qay darajada qonxo‘r ekanligini o‘quvchiga yetkazish uchun yozuvchi tabiat manzarasini jonlatirishga va o‘zaro parallellikni vujudga keltirishga harakat qilgan. Aslini olganda, she’rning sarlavhasidayoq metaforik obraz tasvirlanayotganini bilishimiz mumkin. She’rning “Kuz” tarzida nomlanishi – kuz manzarasini tasvirlash, uni madh etish emas, aksincha, shoir poetik maqsadining fasl tasviri orqali o‘quvchiga yetkazilishidir.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, metaforik obraz tushunchasi har bir ijodkor asarlarining asosiy tasvir vositasi bo‘lgan. Faqatgina har bir davrda metaforik tasvirning maqsadlari turlicha ko‘rinish kasb etgan. XX asr boshlarida millat erki uchun ilgari surilgan fikr isyonkorligi, xalqni uyg‘otish orzusini yashirin ifodalagan bo‘lsa, mustaqillik davri adabiyotida tasvirni yanada go‘zallashtirish, poetik jozibadorlikni oshirish maqsadida metaforik obrazdan unumli foydalanilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T.: BOOKMANY PRINT, 2022.
2. Umurov H. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: Abdullo Qodiriy, 2004.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: Abdullo Qodiriy, 2004.
4. Raxmonova X. Xurshid Do‘stmuhammad hikoya va qissalari badiiyati. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtorefarati. – T., 2021.
5. G‘aniyev I. Fitrat dramalari poetikasi. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 1998.
6. Cho‘lpon A. Binafsha. – T.: Adabiyot, 2021.

USMON AZIM SHE’RLARIDA QO‘LLANGAN METAFORALARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Davronbek QURBONOV,
Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: O‘zbek adabiyotshunosligi va tilshunosligida Usmon Azim ijodining turli qirralarini ochib berishga qaratilgan ishlar amalga oshirilgan. Biroq hali shoir ijodining o‘rganilmagan qirralari, ochilmagan sir-asrorlari juda ko‘p. Shoirning poetikasi zamonaviy o‘zbek she’riyatida katta bir xazinani tashkil etadi. Shoir she’riyati poetik obrazlar jihatidan rang-barang.

Аннотация: В узбекской литературе и лингвистике проведена работа, направленная на раскрытие разных сторон творчества Усмана Азима. Однако в творчестве поэта еще много неисследованных сторон и тайн. Поэтика поэта – большое сокровище современной узбекской поэзии. Поэзия поэта разнообразна по поэтическим образам.

Annotation: In Uzbek literature and linguistics, work aimed at revealing different aspects of Usman Azim's work has been carried out. However, there are still many unexplored aspects and secrets of the poet's work. The poetics of the poet is a great treasure in modern Uzbek poetry. The poet's poetry is diverse in terms of poetic images.

Kalit so‘zlar: metafora, lingvokulturologiya, antroposentrik tilshunoslik, simvolik she’riyat, metaforik obraz.

Ключевые слова: метафора, лингвокультурология, антропоцентрическая лингвистика, символическая поэзия, метафорический образ.

Key words: metaphor, linguoculturology, anthropocentric linguistics, symbolic poetry, metaphorical image.

Xalqimiz o‘tmishini, milliy qadriyat, urf-odatlarini asrlar osha avlodlarga yetkazib berishda folklor durdonalarining o‘rni beqiyosdir. Yozma adabiyot bilan folklor o‘rtasidagi ijodiy aloqalar o‘ziga xos badiiy an’ana bo‘lib, muayyan estetik qonuniyatlar doirasida kechadigan jarayondir. Bu ijodiy aloqalar natijasida xalq og‘zaki ijodiyotida yuzaga kelgan ko‘plab syujet, motiv va obrazlar, mavzu va badiiy detallar yozma adabiyotga ko‘chib, ijodkor badiiy niyati va poetik iqtidoriga bog‘liq holda o‘ziga xos tarzda talqin qilina boshlaydi[117]. Usmon Azim ijodining asosini xalq og‘zaki ijodisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shoir ijodining dastlabki yillaridayoq xalq og‘zaki ijodining go‘zal namunalari bo‘lgan doston va ertaklardagi folklor motivlariga murojaat qildi. Shoir she’riyatining manbalaridan biri Ona tabiat bo‘lsa, ikkinchisi xalq og‘zaki ijodidir. Shoirning “Baxshiyona” turkumi – xalq dostonlari, “Chapani yoxud jaydari she’rlar” – xalq qo‘shiqlari, “Alpomishning qaytishi” (drama) – “Alpomish” dostoni, “Tosh pari”, “Balladalar”i (“Saylanma” 1995-yilda nashr etilgan kitobiga kiritilgan 15 ta ballada)ga ertak motivlari asos qilib olingan.

Shoir she’rlarida tug‘ilgan shahri Boysunning betakror va go‘zal tabiat manzaralari, unda kechirgan bolalik va o‘smirlik damlarining xotiralari hamda bu yurt dovrug‘ini dunyoga tanitgan “Alpomish” dostoni, mard va oliyjanob baxshilar obrazini aks etadi. ... “Baxshiyona” degan so‘zning o‘ziyoq, o‘quvchi xayolini uzun tunlar dostonlar kuylaydigan, termalar to‘qiydigan baxshilarning ijodi tomonga yo‘naltiradi[118]. Tili haqgo‘y va jo‘n, qalbi iymonli va g‘ururli, fe’lida shijoat va qaysarlik ustuvor Elbek baxshi obrazi shoir ijodining yuksak cho‘qqisidir. Xalqning chinakam jonkuyari bo‘lgan Elbek baxshining maslagi – Haq deb kuylash! Zero, shoir Haq va adolat g‘oyalarini ayni shu obraz orqali istifoda etadi. Xalq dardini, Vatan taqdirini yonib kuylagan shoir, uning tilidan o‘quvchiga Vatanni tanitishni, uni ilk bor his etishni va jondan sevishni o‘rgatadi. Baxshiyona uslub va doston motivlarining yangicha talqini Usmon Azim she’riyatida favqulodda kutilmagan yangi sifat o‘zgarishlari va originallikni vujudga keltirgan bo‘lsa, afsonaviy ulug‘ yurt – Boysun “shoir she’rlarining bir leytmotivi”[119]ga aylandi.

Uning nasriy va dramatik asarlari kabi she’rlarida ham doston ruhi, Alpomish va Barchin obrazlari chuqur singib ketgan. Ta’kidlash joizki, shoir she’rlaridagi metaforik obrazlarning ko‘lami va omili sifatida birinchi o‘rinda “Alpomish” dostonini aytish mumkin.

Anhorning rangi – siniq,
Osmon balandu tiniq.
Go‘dak kuz bog‘da xomush.
Avgust bilmaymi-bilib,
Yozgi sharobga to‘yib,
Chohga tushgan Alpomish.
Zar tortadi ilk barglar,
To‘lib boradi dardlar,
Yuragim – yarador g‘oz,
Qaydasan? – Bu sho‘r jarchi
Ehtimol Barchin?
Barchin!
Yo‘qotmoq kuzakka xos[120].

---

117 Jo‘raev M., Narzullaeva M. Mif, folklor va adabiyot. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2006. – B. 6.

118 Pardaev Z. Istiqlol davri she’riyatida xalqona pafosning yangilanishi. Filol. fan. …fals. dok. (PhD)diss. – Toshkent, 2017. – B. 33.

119 Usmon Azim.. Tanlangan asarlar. // K.Mullaxo‘jaeva. Yuraknining a’moli. – Toshkent, G‘afur G‘ulomnomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2016. J. 1. – B. 15.

120 Usmon Azim. Yurak. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2003. – B. 28.

She’rning dastlabki bandida doston bosh qahramoni Alpomish, ikkinchi bandda Boysun-qo‘ng‘irotni xatardan qutqarib, xatni yetkazgan g‘oz va Barchin timsoli metaforik obraz yaratishga xizmat qilgan. Kuz manzarasi tasvirlangan ushbu she’rda shoir o‘ziga xos orginallikka erishish uchun doston qahramonlari orqali tabiat va inson hayotini muqoyasa qiladi. Vaqt o‘tishi asnosida inson umr poyonini sezmay qolishi – “Chohga tushgan Alpomish”, yashab o‘tilgan bu umrning afsusu o‘kinchlari – “yurakdagi dard” dostondagi “yarador g‘oz” va “Barchin” holatiga qiyos. Alpomish va Barchin obrazlari o`zbek xalqi tafakkurida alp, bahodir, vafodor yigit va qiz ma’nosini bildiruvchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi.

XX asr jahon she’riyati, xususan, rus lingvomadaniyati namoyandalari ijodida qish faslining turli ramz-metaforik tasvirlari uchraydi. Jumladan, birinchi marta A.Voznesenskiy “Birinchi qor”i bilan bu turkumni boshlab berdi. Yu.Tyutchevda qish – “tush”, “boqiy hayot ramzi”, Nekrasovda “Mangu uyqu”, “Rohat farog‘at”, S.Yeseninda esa qish manzaralari orqali xalqning turmush manzaralari tasvirlari uchraydi. Masalan: “qorli bo‘ron – yurak iztirobi”; “yengil qor uyumlari” – vaqt, tez o‘tib ketadigan yoshlik, baxt va shodlik; “daladagi kumush shabboda” – tetiklik, hayot g‘alaba darakchisi bo‘lsa, qorning ham bir qator metaforik ifodalari bor. Simvolik she’riyatining iste’dodli namoyandasi A.Blok ijodida “niqob” sifatida tasvirlanadi.

O‘zbek she’riyatida bunday poetik usulning dastlabki namunalari Cho‘lpon va Fitrat ijodida kuzatiladi. Cho‘lpon “Qor” she’rida qorga “kafan kabi kerilgan”, Fitrat esa “Kuchsiz titrok, achchiq, tomchi” sifatlashlarini keltiradi. Oybek she’rlarida qorni “Oq gul” epiteti bilan qo‘llaydi: “Og‘ochlarning kosov qo‘li oq gul taqdi”[121].

Usmon Azim “Qish” va “Qishki bog‘lar” she’riy turkumida inson ruhiyati kechinmalari, ko‘ngilning og‘riqli, quvonch-u iztirobli holatlari va kayfiyatning lahzalik evrilishi fursatlari qish va qor obrazida mujassamlashtiradi. Shoir ustozlaridan farqli “qish” va “qor” timsolining o‘ziga xos metaforik tasvirini yaratadi. Uning she’rlarida qish va qor bilan bog‘liq yangi metaforalar yaratilgan: qor – “oqtan farishta”, “oq uchqun”; qish – “musaffo keng oqlik”, “kumush darsxona”.

Ey, qish! Anglaganga sen ham bir maktab!

Kumush darsxonangga boqdim – suyundim.

Shoir ko‘p o‘rinlarda qorning uchqun (Lablaringga noxos qo‘yar lab, Muz falakdan ko‘chgan bu uchqun), oq uchqun (Oq uchqun tanimni o‘tdi oralab) va billurtan farishta (– Boqqa qo‘nmish – bir tekis – Qor – billurtan farishta) kabi metaforik tasvirlarini yaratadi. Boshqa bir o‘rinda esa mavjudlikning belgisi sifatida lirik qahramoni tilidan o‘zini “qorning bitta uchquni”ga o‘xshatadi.

Men ham qorning bitta uchquni,

Itarmagin dunyo ko‘ksimdan[122].

Usmon Azim ijodida Kuz obrazi alohida ahamiyatga ega. Shoir bu haqida yozadi: “...Kuz joni jahonimni alohida o‘rtaydi. Har lahzada she’r yozgim kelaveradi. Yana bilmadimu, ammo Kuz haqida biror bir shoir menchalik ko‘p yozmagan bo‘lsa kerag-ov”[123]. Darhaqiqat, u Kuz haqida “ko‘p va xo‘p” she’rlar yaratdi. Jumladan, “Kuzgi bog‘ I”, “Kuzgi Bog‘ II”, “Kuzgi bog‘ III” va “Kuzgi bog‘lardan kelgan she’rlar” turkumi. Mumtoz she’riyatimizda mazkur faslda ayriliq azobi, oshiqlar fojiasi tasvirlangan. Alisher Navoiy qasidasida xazon fasli rassomlar mo‘yqalamida chizilgandek taassurot uyg‘otadi. Hazrat yozadi:

Hama zardi nago‘ k-az ro‘zi bozori nishoti day,

Xazon orasta achnosi rangorang do‘konro.

Agarchi nest on mavsim, ki az gulho shavad gulshan, Chi suratxonai Moniy zuhuri sun’i Yazdonro.

---

121 Yo‘ldoshev N. Cho‘lpon she’riyatida peyzaj. – Toshkent: NDA, 1994. – B. 35.

122 Usmon Azim. Kuz. –Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2001. – B. 135

123 Usmon Azim. So‘ngso‘zlar. – Toshkent: Ilm-ziyo zakovat, 2020. – B. 507.

“Barcha sariqliklarni may oyining xurram bozor kuni sharofatidan dema, kuz o‘z do‘konlarini ajoyib, rango-rang matolar bilan bezatgan. Garchi gullarning qiyg‘os ochilishi mavsumi bo‘lmasada, Alloh qudratining jilvasi oldida Moniy suratxonasi nima bo‘libdi”[124]. Ulug‘ shoir nazdida birinchi baytda kuz “attor”lik do‘koniga o‘xshatilgan va uning fasl, vaqt ma’nosidaligi anglashiladi. Ikkinchi baytda esa uning ma’nosi kengayib, istioralashgani kuzatiladi: Moniy ijodxonasi ne bo‘libdi Kuz oldida. Kuz Alloh qudratini namoyish etuvchi cheksiz rang va jilvalarida tovlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Devoni Foniy. MAT. 20 tomlik. – Toshkent, Fan. 2003. – B. 348.
2. Jo‘raev M., Narzullaeva M. Mif, folklor va adabiyot. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2006. – B. 6.
3. Pardaev Z. Istiqlol davri she’riyatida xalqona pafosning yangilanishi. Filol. fan. fals. dok. (PhD)diss. – Toshkent, 2017. – B. 33.
4. Usmon Azim. Kuz. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2001. – B. 135
O‘tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi” asarida o‘qish tajribasini kuchaytirish uchun fonetik sath tushunchasidan foydalanadi. Fonetik sath deganda so‘zlarning ritmini, urg‘usini va tovushlarini hisobga olgan holda ovoz chiqarib aytilganda so‘z va tilning qanday tovush chiqarishi tushuniladi. Fonetik sathga e’tibor qaratish orqali o‘quvchilar muallif niyati va matnning umumiy kayfiyatini chuqurroq anglab olishlari mumkin. Fonetik sathning ahamiyati uning atmosferani yaratish va yozma shaklda yo‘qolishi mumkin bo‘lgan his-tuyg‘ularni etkazish qobiliyatidadir. Hoshimov o‘z asarlarida o‘ziga xos his-tuyg‘ularni uyg‘otish yoki o‘z personajlari va ularning o‘zaro ta’sirining ayrim tomonlarini ajratib ko‘rsatish uchun fonetik elementlardan mohirona foydalanadi. “Ikki eshik orasi”da Hoshimovning fonetikadan mohirlik bilan foydalanishi o‘zgacha bir boyilik qo‘shadi. Hoshimov so‘z tanlashi, gap tuzilishi va dialogi orqali so‘zlashuv tilining nozik jihatlarini qamrab oladi, o‘quvchini o‘zi yaratgan dunyoga singdiradi. Muallifning fonetik detallarga e’tibor qaratishi personajlarni jonlantirishga yordam beradi, chunki ularning o‘zini tutishi va nutqi yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Do‘stlar o‘rtasidagi o‘yin-kulgimi yoki samimiy e’tirofning shiddatliligimi, “Ikki eshik orasi”dagi fonetik sath hissiy ta’sirni kuchaytirib, o‘quvchilarning hikoyaga to‘liq kirishish imkonini beradi.[2]

O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshiq orasi” asarida baholovchi til hal qiluvchi o‘rin tutadi. Romandagi qahramonlar ko‘pincha voqealar, vaziyatlar va boshqa personajlar haqida o‘z fikr va mulohazalarini bildiradilar. Bu baholovchi til hikoyaga chuqurlik qo‘shib, qahramonlarning dunyoqarashi va hayotga bo‘lgan qarashlarini tushunish imkonini beradi. Hoshimov baholovchi tildan foydalanib, o‘quvchilarga uning qahramonlari motivlari va his-tuyg‘ularining murakkabligini

yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Bu baholashlar ularning ichki fikrlariga oyna bo‘lib xizmat qiladi, ularning harakatlari va qarorlarini yanada yaxlitroq tushunish imkonini beradi.

Kitobda ba’zi tovushlar o‘zgacha paydo bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin. Barglarning mayin shitirlashidan tortib poyezdning momaqaldiroq gumburlashigacha bu tovush naqshlari til simfoniyasini yaratadi. Biz bu takrorlanadigan motivlar ortidagi go‘zallikni va ular hikoyaning umumiy ohangi va atmosferasiga qanday hissa qo‘shishini ochib beramiz. Ha, fonetik munosabatlar ramziy ma’noga ham ega bo‘lishi mumkin! Biz muallif tomonidan qilingan fonetik tanlovlar ortidagi yashirin xabarlarni hal qilamiz. Ehtimol, yumshoq pichirlash maxfiylikni anglatadi yoki o‘tkir undosh xavfni anglatadi. “Ikki eshik orasi”ga chuqurlik va intriga qo‘shadigan til kodlarini ochishda bizga qo‘shiling.[1]

Til his-tuyg‘ularni chayqash va hikoya uchun ohangni o‘rnatish qudratiga ega. Ushbu bo‘limda biz "Ikki eshik orasi"da qo‘llanilgan til vositalarining umumiy uslub va ohangga qanday ta’sir qilishini ko‘rib chiqamiz. Injiq so‘z o‘yinlaridan tortib qo‘zg‘atuvchi metaforalargacha, biz ushbu qurilmalarning o‘quvchi tajribasiga ta’sirini tahlil qilamiz. Bu bo‘limda biz “Ikki eshik orasi”da tovush olamiga sayohat qilamiz. Muallif o‘quvchiga estetik taassurot qoldirish uchun ovozli tasvirlardan ustalik bilan foydalangan. Ovozning hissiy va hissiy ta’sirini o‘rganishga tayyor bo‘ling. Ovoz kuchli his-tuyg‘ularni uyg‘otishi va yorqin hissiy tajribalarni yaratishi mumkin. Biz muallifning o‘quvchining hikoyaga hissiy aloqasini kuchaytirish uchun tovushdan qanday foydalanishini ko‘rib chiqamiz. Sovuqni his qilishga tayyorlaning, la eshitingughter va "Ikki eshik orası" olamiga sho‘ng‘ing.[4]

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asari muallifning fonetik sathdan chuqur ma’nolarni yetkazish va o‘quvchi tajribasini oshirishdagi mahoratini namoyon etadi. Tahlillarimiz orqali biz romandagi baholarning ahamiyati, fonetik munosabatlarning ifodalanishi va til vositalarining o‘rni haqida tushunchaga ega bo‘ldik. Qolaversa, tovushning badiiy ifodasi hikoyaga boylik va estetik joziba bag‘ishlaydi. Hoshimov ijodi fonetikaning adabiyotdagi qudratidan dalolat beradi. Kitobxonlar nafaqat hikoyani, balki uning ma’nosini shakllantiradigan murakkab tovushlar tarmog‘iga ham e’tibor qaratib uni tag ma’nolarini anglab tushunishga undaydi.

Foydalanilggan adabiyotlar.

1. B.To‘xliyev, B.Karimov,K.Usmonova, Adabiyot. 10-sinf uchun darslik,-Toshkent,2017.

2. O‘.Hoshimov,Ikki eshik orasi.-Toshkent:"Sharq",2012.

3. Ikki eshik orasi O‘tkir Hoshimov, "Sharq nashriyoti" 2018.

4. Mahmudov N. - Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...// O‘zbek tili va adabiyoti.-Toshkent, 2012.-№5.-B. 3-16.

5. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.

6. Gulamovna U. S(2022) O‘tkir Hoshimov asarlarida insoniy fazilatlarning ifodalanishi. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali.

BADIIY MATNDA PRESUPPOZITSIYA
(O.Yoqubovning “Ko‘hna dunyo” asari misolida)

Islomova E’zoza Yorqin qizi
Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Presuppozitsiya gapning vaziyat, kontekst hamda so‘zlovchi va tinglovchilarning oldindan ma’lum bo‘lgan umumiy bilimlari kabi elementlarni o‘z ichiga oluvchi hodisadir. Presuppozitsiya hodisasi muloqot qatnashchilarining nutqiy tejamlilikka ehtiyoji, til birliklarining nutqiy vaziyatda sintaktik strukturaga qo‘shimcha, ikkilamchi ma’lumot berish

imkoniyatiga egaligi, suhbat qatnashchilarining bo‘lib o‘tgan yoki bo‘lajak jarayon haqidagi oldindan ma’lum bilimlari kabi omillar ta’sirida nutqiy maydonga chiqadi. Presuppozitsiyaning til sathidagi ahamiyati tilning mohiyatini belgilaydigan qisqalik, tejamlilik tamoyillari bilan izohlanadi.

Tayanch so‘zlar: presuppozitsiya, leksik presuppozitsiya, mantiqiy presuppozitsiya, prezumpsiya, tagbilim, ichki ma’no, monema, pragmatik ma’no, sigmatik ma’no, tagma’no , kontekst, vaziyat.

Hozirgi davrda, ya’ni tilshunoslik nazariy bilish bosqichiga ko‘tarilgan paytda hodisalarni til va nutq bosqichida o‘zaro aloqadorlikda, qolip hamda uning nutqda namoyon bo‘lishi tartibida tahlil etish kuchaydi. Ayniqsa, til birliklari o‘rtasidagi munosabatlarga asosiy e’tibor qaratildi. Zamonaviy tilshunoslikda bir hodisaning turlicha nomlanishi yoki ikki hodisaning umumiy ko‘rinishlari, xossalari, mohiyatining o‘xshashligi tufayli ularni o‘zaro qorishtirish holatlari ham ko‘zga tashlanmoqda. Xususan, atamalarning sinonimik, omonimik, polisemantik xususiyatlarini yoritishda har xillik yuzaga kelmoqda. XX asrning ikkinchi yarmidan o‘rganila boshlangan presuppozitsiya hodisasi tadqiqida ham ana shunday har xillik mavjud.

Presuppozitsiya hodisasi tilshunoslikning barcha bo‘limlarida ham o‘rganilgan emas. O‘zbek tilshunosligida o‘tgan asrning 80- yillaridan boshlab til birliklarining pragmatik xususiyatlarini o‘rganishga qiziqish kuchaydi. Ayniqsa, gap tadqiqi yuzasidan olib borilgan ishlarda presuppozitsiya hodisasiga e’tibor qaratildi. O‘zbek tilshunosligi sohasida D.Lutfullayeva, U.Rahimov, H.Mahmudov kabi soha vakillari o‘zlarining ilmiy maqola va tadqiqot ishlarida presuppozitsiya hodisasini tilning ma’lum sathlari doirasida tahlil etganlar. Shu bois, presuppozitsiya masalasi o‘zining dolzarblik darajasini yo‘qotgani yo‘q, balki o‘z yechimini kutayotgan masalalardan biridir.[129]

"Presuppozitsiya " tushunchasi kontekst (ushbu til birligining lingvistik qurshovi) va vaziyat (ushbu jumlaning ekstralingvistik, substrati yuzaga chiqish shart - sharoiti) tushunchalarini o‘z ichiga oladi[iii].

Bugunga qadar tilshunoslikda bu hodisaga nisbatan presuppozitsiya, prezumpsiya, tagbilim, ichki ma’no, monema, pragmatik ma’no, sigmatik ma’no, tagma’no terminlari qo‘llandi.

Tilshunoslikda presuppozitsiyaning mantiqiy va lingvistik turlari faqrlanadi. Presuppozitsiyaning mantiqiy yoki lingvistik ekanligi uni yuzaga keltiruvchi vositalarga bog‘liq. Presuppozitsiya lingvistik ishoralar orqali anglashilsa, lingvistik presuppozitsiya deyiladi. Agar mantiqiy ishora vositalari orqali anglashilsa, mantiqiy presuppozitsiya deb ataladi. Xususan, Odil Yoqubovning “Ko‘hna dunyo” asarida mantiqiy va lingvistik presuppozitsiyalarni uchratish mumkin.

Bir gapdan mantiqiy xulosa asosida boshqa bir hukm anglashilsa, mantiqiy presuppozitsiya sanaladi. Masalan, “Faqir kulbamizga nechun qadam ranjida qilmay qo‘ydilar desak, eski qadrdonni tark etib, yangisini topibdilar-da, mavlonayi zamon!” gapida “oldin kulbasiga qadam ranjida qilgan, eski qadrdonining uyiga borgan” degan mantiqiy presuppozitsiya anglashiladi. Shu bilan birga ritorik so‘roq gaplar, sof so‘roq gaplar, atov gaplar, so‘z gaplar, to‘liqsiz gaplarning tabiatidan , o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan presuppozitsiyalar ham mantiqiy presuppozitsiya hisoblanadi.

“Xo‘sh, shunda nima yutardi? Boshi osmonga yetarmidi? U bu noraso dunyoning ustuni bo‘larmidi?” gapida mantiqiy presuppozitsiya ritorik so‘roq gap orqali ifodalangan. Mazkur gapdan

[129] N. Mahmudov. Presuppozitsiya va gap. Toshkent: O‘zbek tili va adabiyoti, 1986

“hech narsa yutmaydi, boshi osmonga yetmaydi, dunyoning ustuni bo‘la olmaydi” degan ma’no anglashiladi.

“Ajalimdan besh kun burun menga kafan bichib, ig‘vo yo‘liga o‘tdingmi, battol?

– Valine’mat!

– O‘tmagan bo‘lsang... qayga gumdon bo‘lding? “ Mazkur parchadagi har uchala gapda ham mantiqiy presuppozitsiya ifodalangan. Birinchi gapda “ shohning tobi yo‘q, qo‘l ostidagi odami anchadan beri uning yonida emas, shoh yomon gumonda” kabi ma’nolar yuzaga kelgan. Ikkinchi gapda “valine’mat” so‘zining qat’iy tarzda aytilishi birinchi gapning noto‘g‘ri ekanligi, “ u ig‘vo yo‘liga o‘tmagan” ligi haqidagi xulosaga olib keladi. Keyingi gapda esa “ u shohga sodiq qolgan, anchadan beri daraksiz yo‘q bo‘lib ketgan” kabi mantiqiy mulohaza yuzaga chiqadi.

Tilshunoslikda presuppozitsiya termini ostida muayyan jumla tarkibida bevosita ifodalanmagan, yashirin holda aks etgan ma’no tushuniladi. Presuppozitsiya hodisasi kontekst va vaziyat bilan bog‘liq. Masalan, “Dono poshsho donolarga loyiqdur! Nodonlarga nodon poshsho yarashur!” Asarda qo‘llangan mazkur gap nutq va kontekst bilan bog‘liq bo‘lib, ”senday nodonlarga zolim shohlar yarashadi” presuppozitsiyasiga ega. Vaziyat hamda kontekstdan tashqarida ushbu gap presuppozitsiyaga ega bo‘lmaydi.

Lingvistik presuppozitsiya har doim o‘z lisoniy vositalariga ega bo‘ladi. Lisoniy presuppozitsiya moddiy vositasiga, tashqi signallariga egaligi bilan mantiqiy presuppozitsiyadan farq qiladi. Barcha tillarda presuppozitsiya hodisasi bo‘lganidek, unga ishora qiluvchi vositalar ham o‘ziga xos. O‘zbek tilida presuppozitsiyaga ishora qiluvchi vositalar turli miqdorda ko‘rsatiladi.

Ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama, modal so‘zlar kabi leksik ma’no anglatmaydigan til birliklarining ma’nolarini presuppozitsiya tadqiqi orqali aniqlashtirish mumkin.

“Rasadxonaga... Hazrat Ibn Sino tashrif buyurdilar! Soxta *emas*, chin Ibn Sino, ustod! Yonlarida shogirdlari *ham* bor!” Mazkur gaplarda emas va ham yuklamasi lingvistik presuppozitsiya hosil qilgan. Ikkinchi gapda “ haqiqiy ibn Sino tashrif buyurgan” , “ bundan oldin o‘zini ibn Sino deya tanishtirgan soxta kimsalar ham tashrif buyurgan” degan ma’no ifodalangan hamda emas yuklamasi inkor ma’nosini anglatgan. Ushbu gapda presuppozitsiya emas yuklamasi va sifatlovchi aniqlovchining zidlanishi orqali yuzaga kelgan. Keyingi gap esa “ yolg‘iz o‘zi kelmagan, yonida shogirdi bilan kelgan” xulosasiga ega bo‘lib, ham yuklamasi birgalik ma’nosini ifodalagan.

Faqat yuklamasi o‘zi aloqador bo‘lgan so‘z bilan birgalikda gapning semantik strukturasini murakkablashtiradi: “Kamina o‘z asarimda *faqat* haqiqatni yozdim! O‘lim haq! Vaqtiki kelib faqir *ham* bu olamni tark eturmen”. Birinchi gapda presuppozitsiya *faqat* yuklamasi , ikkinchi gapda *ham* yuklamasi orqali ifodalangan. Birinchi gapda “ haqiqatdan boshqa hech narsa yozmadim, haqiqatni yozdim” degan ma’no anglashiladi. Bunda *faqat* yuklamasi o‘ziga bog‘liq tushunchani ta’kidlab ko‘rsatishga xizmat qilgan. Ikkinchi gapda esa ham yuklamasi “ boshqalar kabi men ham dunyoni tark etaman” ma’nosi orqali takroriylikni ifodalagan.

Faqat yuklamasi barcha gap bo‘laklarini ajratib, ta’kidlab kelish xususiyatiga ega bo‘lib, ba’zi holatlardagina kesimni ajratib keladi: “Murodim – *faqat* yaxshilik qilmoq, endilikda, *faqat* yaxshilik!” Ko‘rinib turibdiki, har qanday gap bo‘lagini ajratib kelganda ham semantik tuzilish murakkablashmoqda va *faqat yaxshilik qilish kerakligi, boshqa ish-harakatni esa inkor etish ma’nosi* ifodalanmoqda.

Ma’lumki, tilshunoslikda presuppozitsiyaga nisbatan tagma’no atamasi ham ishlatiladi. Ammo tagma’no va presuppozitsiyani farqlash lozim. Tagma’no so‘zlashuvchilarning ichki maqsadini yashirin tarzda ifodalash uchun xizmat qiladi. Tagma’no hamma matnda ham

bo‘lavermaydi. Presuppozitsiya esa istalgan matn semantik tuzilishining mantiqiy tahlili yordamida aniqlashishi mumkin.

“Qayga bormay hamma joyda *“odil shohlarga”* duch keldim, ustod. Shundaykim oxir pirovardida ulardan yashirinishga joy topolmay qoldim. Jurjonda Qobus ibn Vushmagirning “*adolatidan”* zo‘rg‘a qochib qutuldim”. Ushbu gapdagi “odil shohlar” aslida zolim, zulumkor, adolatsiz shohlar, “adolat” so‘zi esa haqsizlik ma’nosida qo‘llangan. Matndagi bunday yashirin ma’noning ifoda ko‘rinishi tagma’no deb yuritiladi.

Xulosa qilib aytganda, presuppozitsiya hodisasi so‘zlovchi va tinglovchining umumiy bilish fondi asosida yuzaga keluvchi murakkab hodisalardan biridir. Presuppozitsiya til birligining nutqiy vaziyat hamda nutq egalarining til ko‘nikmalari bilan bog‘liq tarzda yuzaga chiquvchi pragmatik xususiyati bo‘lib, mohiyatan gap qurilishi asosida yotuvchi yashirin hukmning tashqi ishoraga asoslanuvchi ko‘rinishini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. Mahmudov. Presuppozitsiya va gap. Toshkent: O‘zbek tili va adabiyoti, 1986.
2. M.Mirtojiyev. O‘zbek tili semasiologiyasi. Toshkent, 2010.
3. A. Nurmonov, N. Mahmudov va boshqalar. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi.Toshkent,1992.
4. R. Rasulov. O‘zbek tilida yordamchi so‘zlarning semantik-grammatik xususiyatlari. Toshkent, 1983.
5. Sh. Rahmatullayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 1975.
6. O. Yoqubov. Ko‘hna dunyo. Toshkent, 2015.

SHE’RIYATDA XUSUSIYAT BILDIRUVCHI SIFAT LEKSEMALAR USLUBIYATI

Marjona Mansurova,
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi
Ilmiy rahbar: dots. R.Sharopova

Annotatsiya: Uvaysiy she’riyati leksik boyligining uslubiy xususiyatlarini tadqiq qilish uning klassik o‘zbek tili leksikasining boy imkoniyatlaridan she’riyat mavzusi va mazmuniga mos ravishda foydalanganidan dalolat beradi. Uvaysiy she’rlarida xususiyat sifatlari asosan tashqi ta’sirni emas, ruhiy ta’sir, shaxslararo munosabatni reallashtirish maqsadida qo‘llangan. Shoira inson xususiyatini ifodalovchi ijobiy yoki salbiy ma’no ottenkaga ega sifatlarning uslubiy imkoniyatlaridan, ma’nodoshlik, zid ma’nolilik hodisasi asosida antitezadan uslubiy vosita sifatida foydalangan.

Tayanch so‘zlar: she’riyat, xususiyat sifatlari, ma’nodoshlik, zid ma’nolilik, antiteza, ijobiy yoki salbiy ma’no ottenka

Sifatlar ichida xususiyat bildiruvchi sifatlar ’xususiyat’ semasi bilan katta bir guruh bo‘lib ajralib turadi. Bu guruh sifatlarning ma’no turlari tasnif qilingan barcha adabiyotlarda tilga olingan. Sifatlarning ma’no guruhlari haqida mufassal fikr yuritgan Maqsuda Sodiqova xususiyat bildiruvchi sifatlarni ’xarakter-xususiyat, xossa va qimmat bildiruvchi sifatlar’ ichida kichik guruhlarga bo‘lgan holda tasnif qilib beradi [Sodiqova M., 1974. – B.49-51]. Xususiyat bildiruvchi sifatlar ayni shu ’xususiyat’ semasi bilan bir arxisema ostida umumlashadi. Bu guruhdagi sifatlar ’odamga nisbatan’, ’jonivorlarga xos’, ’kechim’ semalari bilan kichik guruhchalarni tarkib toptiradi. Mana shu kichik guruhchalarni ajratib turuvchi yuqorida aytilgan semalar integral semalar hisoblanadi [Tojimatov, 2007. – B.110].

Xususiyat bildiruvchi sifatlar, ayniqsa inson xarakter-xususiyatini ifodalab kelgan so‘zlar tilda juda ko‘p qo‘llanadi: yaxshi, badjahl, yoqimtoy, muloyim, ziyrak kabi. Bulardan bir turkumi inson, predmet va hayvonlarning xarakter-xususiyatini ifodalashda umumiy qo‘llanadi, bir turkumi esa faqat inson

xarakteri yoki predmet xossasini ifodalashga xos bo‘lib qolgan. She’riyat asosan inson ruhiyati, kechinmalari tasviridan iborat adabiy janr hisoblangani bois Uvaysiy she’riyatida asosan, inson xarakterini ifodalaydigan xususiyat sifatlarining qo‘llanilganligini kuzatamiz.

Inson xarakter-xususiyati ijobiy yoki salbiy ekanligini bilamiz. Shunga ko‘ra xususiyat sifatlari ham ijobiy va salbiy mazmunga ega. Har ikki mazmunga kirmaydigan, ijobiy ham, salbiy ham bo‘lmagan sifatlar ham bor.

Uvaysiy she’riyatida insonning xususiyatiga xos ijobiy xarakter ifodalovchi quyidagi sifatlarning qo‘llanilgani kuzatildi: *kamtar, vafodor, mehribon, mehnatkash, shakarlab, g‘aribparvar, oqil, dilkash, yaxshi, g‘amxo‘r, karambaxsh, sarv qomat, mo‘min* kabi. Masalan,

G‘aribparvar*dursan begim, bekafsh qoldi bul poyim,*

Quloq solg‘il, Qozoqoyim, kafshim yo‘qoldi, sandamu? (Uvaysiy she’riyatidan).

Shoira she’rlarida salbiy xususiyat bo‘rtib turuvchi *vahshiy, rahmsiz, g‘addor, badmehr, nodon, sitamgar, makkor, maL’un, zulmdor, nomard, vafosiz, sangdil, dilafkor, badxo‘, jabrkor, bebok, dilozor, nokas, johil* kabi sifatlardan unumli foydalangan. Masalan, g‘addor sifati aldamchi, xiyonatchi, berahm, zolim ma’nolarini bildirishiga ko‘ra salbiy konnotativ ma’noga ega:

*Do‘st deb tuttum etokin ul falak **g‘addor**ni,*

Shatta urdi ketti mag‘rib, topti ozor oftob (U.sh.).

Yoki **makkor** sifati ham *“makr qiluvchi, hiylagar”* salbiy ma’no ifodalashga xizmat qiladi:

Zulm ko‘rgancha ani mehri ziyod o‘lg‘ay ajab,

*Turfa **badmeh**ri o‘zi **makkor**a oshiq bo‘lmisham (U.sh.*).

Kishi xarakter-xususiyatiga oid yana bir turkum sifatlar borki, ular oraliq vaziyatda bo‘lib, ma’nosida ijobiy yoki salbiylik xususiyati kontekst, nutq vaziyati orqali ma’lum bo‘ladi. Uvaysiy she’rlarida ham bunday xususiyat bildiruvchi sifatlar tez-tez qo‘llangan. Masalan, *sho‘x, shaddod, ayyor, beparvo, berahm* sifatlarida o‘rni bilan ijobiy, o‘rni bilan esa salbiy ma’no bo‘yog‘i mavjudligi kuzatiladi.

H.Tojimatov ’xususiyat’ arxisemali sifatlarning ’odamga nisbatan’ integral semali guruhlarini bir necha differensial semali sifatlarga ajratib tahlil etgan. Bu differensial semalar ’kuch qo‘llovchi’, ’manfaatdor’, ’munosabatli’, ’ruhiy holatli’, ’ta’minotli’, ’ustaligi’ kabilardan iborat [Tojimatov, 2007. – B.11]. Bunday differensial semaga ega sifatlarning har biri bir-biri bilan nozik tomoni — potensial semasi bilan farqlanadi. Masalan, ’xususiyat’ arxisemali sifatlarning ’odamga nisbatan’ integral semali guruhiga ’kuch qo‘llovchi’ differensial semaga ega bo‘lganlari kirib, ular bir necha sifatlardan iborat. Unga *zo‘ravon, zolim, kasofat, badjahl, ablah* kabi sifatlarni kiritish mumkin. Ular kuch qo‘llashda ma’lum tomonlari bilan bir-biridan farq qiladi. *Zo‘ravon* sifatidagi ’kuch qo‘llash’ semasi pragmatik semasiz bo‘lsa, z*olim* sifatidagi ’kuch qo‘llash’ differensial semasi ’jismoniy ziyon yetkazish’ integral semasi bilan undan ajralib turadi. *Kasofat* sifatida ifodalangan ’kuch qo‘llash’ semasi kishi tabiatiga tobeligi bilan o‘ziga xosdir. *Badjahl* sifatida ’kuch qo‘llash’ differensial semasi ’ta’qiby pragmatik semasi bilan ko‘zga tashlanadi. *Ablah* sifatining ’kuch qo‘llovchi’ differensial semasi uni asoslash pragmatik semasi bilan yuqoridagi sifatlardan farq qiladi.

Uvaysiy she’riyatida qo‘llangan xususiyat sifatlarini ham semalariga ko‘ra tahlil etish mumkin. Shoira she’rlarida qo‘llangan ’xususiyat’ arxisemali sifatlarning ’odamga nisbatan’ integral semali guruhi tashkil etadi.

’Xususiyat’ arxisemali sifatlarning ’odamga nisbatan’ integral semali guruhiga, ’kuch qo‘llovchi’ differensial semaga ega bo‘lgan sifatlarga *rahmsiz, berahm, vahshiy, zulmdor, jabrkor* sifatlarini kiritish mumkin. Masalan,

Ko‘rdi Mansur shah yuzin, berdi analhaqdin xabar,

*Bu majozi shohlarni **zulmdor**i bir nafas.*

’kuch qo‘llovchi’ differensial semaga ega bo‘lgan sifatlarda kuchini namoyon etish, ko‘rsatib turish ottenkasi bu turkumni boshqalaridan ajratadi:

*Shikva qilmay netayin **vaxshiy**i tarsobachadin,*

Xoki rahi bo‘ldi tanim bo‘lmadi hech rom menga (U.sh.).

Shu guruhga faqat insonga xos xususiyat bildiruvchi sifatlarnigina emas, narsa-predmet xususiyatlarini ham kiritish mumkin. Masalan, **jallod** asli “kallakesar, shafqatsiz” ma’nosidagi inson belgisi. Uvaysiy kabi so‘z san’atkorlari tomonidan bu so‘zni ko‘zga yoki boshqa narsaga nisbatan metaforik ko‘chirib o‘sha narsaning (masalan, ko‘zning) xususiyati tarzida ifodalangan holatlar ham mavjud. Masalan, *Bu **jallod** ko‘zlaring abru qilich bo‘ynimg‘a solg‘ondur.*

Bu sifatlarni ′kuch qo‘llovchi′ differensial semasi asosida ajratish shartli. Chunki bunday sifatlar ruhiy holatga nisbatan bo‘ladigan ta’sir nuqtai nazaridan bo‘lib, ko‘chma ma’nosi asosida qo‘llaniladi. Masalan,

Ey dilo, sen shikva kimdin aylading, kimdin gila

*Boshda ul **qattig‘ ko‘ngul** berahm dilbardur sazo (U.sh.*).

She’riyat, xususan Uvaysiy she’riyati xususiyatidan kelib chiqib, bu sifatlarni boshqa turga kiritishni to‘g‘ri deb bilamiz. Ya’ni, yuqorida keltirilgan ′kuch qo‘llovchi′ differensial semaga ega bo‘lgan sifatlarni ′munosabatli′ differensial semasiga ega deb hisoblaymiz. Chunki bu sifatlar tashqi ta’sirni emas, ruhiy ta’sir, shaxslararo munosabatni reallashtirish maqsadida qo‘llangan.

Yana shu guruhga *mehribon, g‘aribparvar, g‘amxo‘r, karambaxsh, g‘addor, badmehr, sitamgar, sitamkor, makkor, zulmdor, nomard, vafosiz, sangdil, dilafkor, badxo‘, sho‘x, ayyor, beparvo* kabilarni kiritamiz.

Uvaysiy ijodida qo‘llangan sho‘x, shaddod, badxo‘, vafosiz, ayyor sifatlarini ′munosabatli′ differensial semaga ega turiga kiritar ekanmiz, bu sifatlar shoira she’riyati kontekstida murojaat birligi sifatida qo‘llangan hamda bunda shaxsga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabat yaqqol namoyon bo‘lmagan. Bu sifatlar quyidagi ma’nolarni ifodalagan:

Sho‘x sifatida “o‘z qiliqlari, ishvasi, noz-karashmasi bilan o‘ziga maftun qiladigan” ma’nosi ifodalangan. Umuman mumtoz adabiyotda sho‘x so‘zi go‘zal ma’shuqaga nisbatan qo‘llangan:

Aydimki sitamkora, mendin o‘z erur ag‘yor,

*Aydi, bu zamon ul **sho‘x** mahrammu ekin oyo.*

′Xususiyat′ arxisemali sifatlarning ′odamga nisbatan′ integral semali guruhiga ′ruhiy holat′ differensial semali sifatlar mansub ekanligini yuqorida aytgan edik. Shunday differensial semali *nodon*, osiy, telba sifatlari shoira asarlarida mavjudligi aniqlandi. *Telba* sifatining differensial semasi ′ortiqcha berilish′ruhiy holatni ifodalashi, nodon sifatining differensial semasi ′farosat jihatdan norasolik′, *osiy* leksemasi sememasining differensial semasi ′ishonchsiz ruhiy holat′ ifodasiga ko‘ra o‘ziga xosdir.

Sifatlarda ko‘chma ma’no ifodalash, ya’ni bir ma’nodan boshqa bir ma’no ifodalashga o‘tish, ko‘chish xususiyati mavjud. Bunday holatga Uvaysiy she’rlarida ham guvoh bo‘lamiz. Masalan, pok sifati “kir, chang kabilardan xoli” ma’nosiga ega. Uvaysiy she’riyatida insonga xos xususiyat bildirib, “halol”, “to‘g‘ri” ma’nosiga ega bo‘lgan:

Ilkimni bu olam elidin yuvmagim uldur,

Ul **pok** zamirimni ki domoni muhabbat.

Noyob sifati predmetga, ba’zan insonga nisbatan ham qo‘llanadi. Bu o‘rinda she’rning xususiyatiga nisbatan qo‘llangan:

Munqati’dur obi nayson qulzumi mazmundin,

*She’r aro bo‘ldi mamot ul gavhari **noyob**lar (U.sh.).*

Rasvo aslida kishining xarakterini ifodalovchi sifatga kiritilgan. Bu sifat holat sifatiga ko‘chishi mumkinligini she’riy asarda kuzatamiz:

***Rasvo** bo‘lur gar o‘lsa kimi mubtalo senga,*

Begonadur taalluqidin oshino senga.

Uvaysiy she’rlarida xususiyat bildiruvchi sifatlarni sinonimik tarzda qo‘llagan. Quyidagi misrada **ko‘ngli qattiq** va **bag‘ri tosh** sifat iboralari ma’nodosh bo‘lib, ma’no kuchaytirishga xizmat qilgan:

Bo‘ldum duchor **ko‘ngli qattig‘**, **bag‘ri tosh**qa,

Ey ahli dil, ko‘ngulni beringkim sinoshqa *(U.sh.*85)

Kishilarga xos salbiy xarakter-xususiyatlarni bildiruvchi sifatlar ko‘pincha ijobiy xarakter-xususiyatlarni bildiruvchi sifatlarga antonim sifatida qo‘llaniladi. Sifatlarning bu xususiyatidan shoira o‘z she’rlarida uslubiy vosita sifatida foydalangan. Masalan,

Bu **nodonl**ar aro **oqil** eli bo‘lg‘uncha majnun beh,

Junun xaylini manzilgohig‘a tog‘ ila homun beh.

She’r misralarida qo‘llangan **nodon** va **oqil** antonimlari uslubiy vosita vazifasini bajarib, fikr ta’sirchanligini oshirgan.

Xullas, Uvaysiy insonga xos xususiyatlarni ifodalovchi sifatlarning uslubiy imkoniyatlaridan to‘la darajada foydalanish mahoratini namoyon etgan. Bunda u xususiyat guruhiga kiruvchi sifatlarning ma’nodoshlaridan foydalangan, ularni qarama-qarshi ma’no ifodalovchi paradigmalaridan foydalanib, antiteza kabi uslubiy vositalarni yuzaga keltirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Sodiqova M. Hozirgi o‘zbek tilida sifat. – T.: Fan, 1974.

Tojimatov H. Sifat sememasining reallashuvida kontekst: Filol. fanlari nomzodi ... diss.avtoref. – Toshkent, 2007

Uvaysiy she’riyatidan. Tuzuvchi M.Qodirova. Toshkent, 1980.

CONSEPT OF THE ALLITERATION IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Rakhmonova Madina Amon kizi a student at NSPI
madinaraxmonova012@gmail.com
Scientific adviser:PhD, Saydullayeva Surayyo Sirojiddinovna
+99894 060 97 99

Abstract: Alliteration in English is a poetic device where consecutive words in a sentence or phrase start with the same sound or letter. It is a common technique used in literature, advertising, and even in daily speech to create rhythm, emphasis, and impact. In Uzbek language, alliteration is also known as "*harf birikmasi*" and plays a similar role as in English. It is used to enhance the aesthetic appeal of the language, create a musical quality in poetry, and aid in memorization. Alliteration adds a sense of cohesion and pattern to the text, making it more enjoyable to read or listen to.

Keywords: *Alliteration, literary device, constant sounds, significant role, theoretical foundational, poetic device, ewoke emotions.*

Kalit so‘zlar: *Alliteratsiya, adabiy vosita, undosh tovushlar, muhim rol, nazariy asos, she’riy vosita, his-tuyg‘ularni uyg‘otuvchi.*

Ключевые слова: *аллитерация, литературный инструмент, согласные, важная роль, теоретические основы, поэтический инструмент, вызывающий воспоминания*

Introduction

Alliteration, a literary device involving the repetition of initial consonant sounds in words within close proximity, plays a significant role in enhancing the auditory appeal and aesthetic quality of language. This course paper explores the concept of alliteration in English and Uzbek languages, delving into the theoretical foundations, practical applications, and cultural implications of this poetic device. By comparing the use of alliteration in these two distinct linguistic contexts, we aim to shed light on the similarities and differences in how this literary technique is utilized and perceived. The comparative study of alliteration in English and Uzbek languages has revealed the intricate interplay between sound, meaning, and cultural context in literary expression. In English, it enhances the rhythmic quality, emphasizes key ideas for memorability, and allows for creative exploration. In Uzbek, it holds cultural significance, conveys deeper meanings, and offers poetic versatility. Alliteration plays a crucial role in preserving cultural heritage, enhancing semantic depth, and crafting evocative imagery in both languages, enriching the literary experience for readers and listeners alike. While both languages employ alliteration to enhance the aesthetic appeal and communicative power of prose, the specific techniques and conventions vary, reflecting the distinct linguistic traditions and creative sensibilities of each. Additionally, alliteration in English and Uzbek languages serves unique cultural, linguistic, and stylistic functions. English leans towards aesthetic and rhythmic enhancement, while Uzbek focuses on cultural heritage and

semantic depth. Both languages use alliteration in poetry for artistic expression, but English emphasizes stylistic variation, while Uzbek highlights cultural traditions. Alliteration reflects and enriches the literary traditions and cultural identities of both languages, each bringing its own richness and depth to the poetic and prose narratives. In English literary books, alliterative structures capture attention, aid memory, evoke emotions, and may increase cognitive load. This enhances engagement with the text through rhythmic patterns and phonetic appeals. In Uzbek literary books, alliteration is culturally familiar, carries deep meanings, invites artistic appreciation, and enhances cognitive fluency. Both languages show unique cognitive processing of alliterative structures, emphasizing either aesthetic effects in English or cultural nuances in Uzbek literature. By examining alliteration through a cross-cultural lens, this course paper contributes to a deeper appreciation of the artistry and versatility of language in shaping our literary experiences.

Literture review

Alliteration,a powerful linguistic device that has captured the attention of readers and listeners for centuries. It's the repetition of initial sounds in a series of words, creating a captivating rhythm and enhancing the overall impact of a piece of writing. Alliteration (uh-lit-uh-RAY-shun) is the deliberate repetition of a sound at the beginning of two or more words, stressed syllables, or both. The word derives from the Medieval Latin word alliteratio. The English word alliteration was first used in the 17th century.

Because it joins words together in a similar way to rhyme, alliteration is sometimes referred to as head rhyme or initial rhyme.[130]

Alliteration in the Uzbek Language

The Uzbek language boasts a rich tradition of alliterative poetry, strengthening the cultural heritage through its mesmerizing verses. Alliteration plays a significant role in Uzbek literature, adding beauty, rhythm, and emotional depth to the works. In Uzbek poetry, alliteration is often used to create a musical quality, enhance the impact of the words, and convey the emotions of the poet.

Uzbek folk songs, known as "*makoms*," also make extensive use of alliteration. These songs, often accompanied by traditional musical instruments, tell stories of love, nature, and daily life. Alliteration is employed to create a captivating rhythm, making the songs more engaging and memorable. The repeated sounds not only add musicality but also help convey the emotions and meaning of the lyrics. Alliteration, the repetition of initial consonant sounds, has been observed across various languages and cultures. It plays a significant role in language processing, as it captures attention, enhances memorability, and adds a pleasing aesthetic quality to speech and writing. Understanding how our minds process alliteration can shed light on the cognitive mechanisms behind language comprehension.

Research suggests that when encountering alliterative structures, our brains automatically activate a network of neural connections associated with phonetic and semantic processing. This activation facilitates the encoding and retrieval of information, making alliteration an effective mnemonic device. The cognitive processing of alliteration involves both bottom-up processes, such as phonological analysis, and top-down processes, such as semantic interpretation.

Literary examples of alliteration in English literature.

Example 1**: "*She sells seashells by the seashore*"** - This famous tongue twister showcases the playful and rhythmic qualities of alliteration. The repeated "*s*" sound creates a melodic flow, making the sentence memorable and engaging. Example 2**: "*Peter Piper picked a peck of pickled peppers"* -** Another well-known example, this sentence demonstrates how alliteration can create a musicality and rhythm in writing. The repeated "p" sound adds a playful and catchy quality to the sentence.

Example 3: **"*The fair breeze blew, the white foam flew*" (Samuel Taylor Coleridge) -** This line from Coleridge's poem "The Rime of the Ancient Mariner" showcases the atmospheric and descriptive power of alliteration. The repeated "f" sound evokes the sensation of a strong wind and

[130] https://supersummary-production.netlify.app/alliteration/

crashing bwaves.[131] Alliteration, the repetition of initial consonant sounds in close proximity, is a literary device used in both English and Uzbek prose to enhance the aesthetics, rhythm, and emphasis of the text. While the basic concept of alliteration remains consistent across languages, there are notable differences in how it is utilized and perceived in English and Uzbek literary traditions.

In English prose, alliteration is widely employed to create vivid imagery and enhance the descriptive quality of the writing. It can be found in various forms, including poetry, novels, and even advertisements. The strategic use of alliteration in English prose adds a lyrical quality to the text and helps in creating a strong connection between words and ideas.

One example of alliteration in English prose is found in the famous opening line of Charles Dickens' novel, "*A Tale of Two Cities*": "*It was the best of times, it was the worst of times*." Here, the repetition of the "*w*" sound in "*was*," "*worst*," and "*times*" creates a musicality that captures the reader's attention and sets the tone for the contrasting themes explored throughout the story.

Another notable example can be seen in William Shakespeare's play, "Macbeth": *"Fair is foul, and foul is fair." The repeated "f" sound in "fair," "foul," and "foul"* creates a sense of intrigue and foreshadows the moral ambiguity that permeates the play.

Alliteration in English prose is not limited to literature alone but can also be found in everyday language. Advertisers often utilize alliteration to make their slogans or catchphrases more memorable. For instance, the famous fast-food chain McDonald's uses alliteration in their slogan, "*I'm lovin' it*," which adds a catchy and rhythmic quality to their marketing message.

Ex: "*It is a truth universally acknowledged, that a single man in possession of a good fortune, must be in want of a wife.*"[132]

The repeated "*u*" and "*f*" sounds in "*universally*," "*acknowledged*," "*fortune*," and "*of*" contribute to the sophisticated tone of the narrative and emphasize the societal expectations surrounding marriage.

Alliteration holds a significant place in Uzbek literature, with writers using it to infuse their prose with cultural richness and linguistic beauty. Uzbek prose encompasses a wide range of genres, including folk tales, historical narratives, and modern novels. Alliteration in Uzbek prose is often employed to create a sense of rhythm and to highlight the aesthetic qualities of the language.

In the epic poem "*Alpomysh*," a masterpiece of Uzbek literature, alliteration plays a crucial role in conveying the heroic and mythical elements of the story. The repeated use of consonant sounds adds a melodic quality to the verses, enhancing the oral tradition from which the poem emerged. The alliteration in "*Alpomysh*" not only contributes to the rhythmic flow of the narrative but also serves as a mnemonic device, aiding in the memorization and transmission of the epic through generations.[133]

Conclusion.

Alliteration is a literary technique that involves the repetition of initial sounds in a sequence of words or phrases. It adds a musical and rhythmic quality to language, enhancing its poetic and rhetorical effects. Alliteration can be found in various forms of literature, including poetry, prose, and even advertising slogans. It is an artful way of emphasizing certain words or ideas, creating a memorable impact on the reader or listener. In English, alliteration can be seen in famous phrases such as "*Peter Piper picked a peck of pickled peppers*" or "*She sells seashells by the seashore.*" These examples demonstrate how the repetition of sounds adds a playful and melodic quality to the language. Similarly, Uzbek literature also embraces alliteration as a powerful tool for expression and creativity.

Alliteration serves multiple purposes in writing. It can create a sense of rhythm and musicality, making the text more engaging and memorable. It can also add emphasis to certain

[131] Garcia, F. (2018). Alliteration in English and its Cognitive Effects on Reader Comprehension. Cognitive Linguistics Journal, 25(1), 112-125.
[132] Johnson, A. (2018). Alliteration in English Poetry: A Comprehensive Analysis. Journal of Literary Studies, 45(2), 88-101.
[133] Aliyev, N. (2018). Alliteration in Modern Uzbek Poetry: Trends and Techniques. Journal of Uzbek Language Studies, 54(4), 332-345.

words or phrases, highlighting their importance and making them stand out. Additionally, alliteration can evoke emotions and enhance the overall tone and mood of a piece of writing. Furthermore, alliteration is a powerful stylistic device that adds a musical and memorable quality to language. In English and Uzbek literature, alliteration has been employed for centuries to enhance the beauty and impact of the written and spoken word. From ancient poetic traditions to modern advertising slogans, alliteration continues to captivate and engage audiences.

References.

1. Ahmed, Z. (2019). The Role of Alliteration in Uzbek Oral Traditions. Journal of Folklore Studies,
2. Aliyev, N. (2018). Alliteration in Modern Uzbek Poetry: Trends and Techniques. Journal of Uzbek Language Studies,
3. Brown, C. D. (2017). Alliteration as a Stylistic Device in English Prose. Language and Literature,
4. Cooper, D. W. (2018). The Sound of Silence: Non-Alliterative Language in Uzbek Prose. Journal of Language Studies,
5. Garcia, F. (2018). Alliteration in English and its Cognitive Effects on Reader Comprehension. Cognitive Linguistics Journal,
6. Johnson, A. (2018). Alliteration in English Poetry: A Comprehensive Analysis. Journal of Literary Studies,
7. Karimov, A. (2021). Cultural Significance of Alliteration in Uzbek Folktales. International Journal of Cultural Studies,
8. Khan, S. A. (2017). The Evolution of Alliteration in English Verse. Historical Linguistics Review,

LIRIK ASARLARDA OKKAZIONAL MA’NOLARNING IFODALANISHI

Temirova Maftuna
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti
3-kurs talabasi

Annotatsiya: O‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikda “okkazionalizm” termini keng qo‘llanila boshlandi. Okkazionalizm – umumiste’molga muvofiq, tog‘ri kelmaydigan, individual tarzdagi ma’noga ega bo‘lgan til birligi. Okkazional ma’noga ega so‘zni hosil qiishda ijodkor turli xil so‘z yasash usullari va so‘z yasash qoliplaridan samarali foydalanadi. Ushbu maqolada lirik asarlarda okkazional so‘z va ma’nolarning qo‘llanilishi bilan bog‘liq masalalar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: okkazionalizm, okkazional so‘z, okkazional ma’no, aloqadorlik, o‘xshatish, individual, sun’iy ma’no, nutqiy birlik.

Okkazional ma’no (nutqiy ma’no) leksemaning tlldagi ma’nosiga (yoki ma’nolariga) xos bo‘lmagan, ayrim shaxslarning (mualliflarning) nutqiy vaziyatdan kelib chiqib, shu leksema mazmuniga yangicha “tus’ berish maqsadida yuzaga keltirgan sun’iy ma’nosidir. U individual xarakterda bo‘ladi va faqat kontekstda (nutqda) anglashiladi[134].

O‘zbek tilshunosligida okkazional so‘zlarning nazariy jihatlari vujudga kelishi, ularning badiiy-estetik xususiyatlari birmuncha tadqiq etilgan. Bu borada O.To‘xtasinovaning tadqiqotida quyidagicha ta’rifni kuzatish mumkin: “Okkazional so‘zlar o‘zida sinxron-diaxron qorishiqlik, anomallik, nutq uslubi yoki muloqotning ayni shu daqiqasida yuz beradigan, so‘z yasalish xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan ekspressiv nutqiy birlikdir”.

Okkazionallik ma’nolari quyidagi usullar bilan hosil bo‘ladi:

1. Aloqadorlik asosida ma’no ko‘chirish, ya’ni elliptik ma’nolar okkazional ma’no sanaladi. Masalan, Oloyga bordik (Toshkent viloyatidagi Oloy bozori nazarda tutilyapti).

[134] H.Jamolxonov. Hozirgi O‘zbek adabiy tili. T-2013.261-b.

2. Sifatlovchi birikmalarni ixchamlashtirish orqali okkazionallik ma’nosini hosil qilish. Masalan, Har qancha urinmasin,bu qora niyat maqsadiga yeta olmaydi. “Qora niyat” sifatlovchisi odamga nisbatan ishlatilgan, odam so‘ziyoki kishi nomi tushirib qoldirilgan. Sifatlovchi aniqlovchilar orqali okkazional uzual ma’no hosil bo‘lgan.

3.O‘xshatish tipidagi qurilmalar ixchamlashtirilganda okkazional ma’no hosil bo‘ladi. Masalan, Burgut changaliga dosh berolmas yov. “burgut changali’-mard, kuchli, jasur, qo‘rqmas, dadil, pahlavon yigit ma’nosida ishlatilmoqda.

Xususan, Zulfiya ijodida ham o‘ziga xos okkazional so‘zlarni uchratish mumkin:

Oldda bekatlarning tuyib yo‘qligin,
Notugal mashqlarim sochayotirman.

Shoira “Iqrorga vaqt yetdi” deb nomlangan ushbu she’rida *notugal* so‘zini qo‘llagan bo‘lib, bu so‘z “chala”, “oxiriga yetmagan” va ayni paytda ijodkorning o‘zi yozgan she’rdan “ko‘ngli to‘lmaganlik” ma’nolarini ifodalagan.

Shoiraning “Izlayman” she’rida no- affiksi bilan bog‘liq *noshodlik* (*Kunlar qancha shodlik, Qancha noshodlik*) yasalmasiga ham shoira ijodiga xos so‘z sifatida qarash lozim.

O‘zbek tilida qiyos ma’nosini ifodalovchi –simon sifat yasovchi affiksi otlarga qo‘shilib, qisman o‘xshatish tushunchasini ifoda etadi. Forsiy tilning affiksi bo‘lgan bu qo‘shimcha shoira ijodida o‘ziga xos yasalish tizimini shakllantirganligini ko‘rishimiz mumkin. Shoiraning quyidagi “Yulduz” she’rida bu qo‘shimcha vositasida kishilik olmoshidan *sensimon* ko‘rinishidagi individual yasama so‘z hosil qilgan. Masalan,

Yashnadi bir yulduz xuddi sensimon.

Yana ba’zi o‘rinlarda -simon qo‘shimchasi sifatdoshdan so‘ng qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, “Tuhfa” she’rida yoritgansimon tarzida (*Quyosh oyning yuzin yoritgansimon, Sendan bahra olib, sir qolgan ko‘ngil*.), “Tong” she’rida *tug‘ilgansimon* tarzida (*Tabiat naq shu kun tug‘ilgansimon Har gal hamma yokda yangi jaranglar...*), “Shoshma, hali” she’rida *turtgansimon* (*Yarim tunda, birov turtgansimon, Bir cho‘chiyman,*), chaqqansimon, ichgansimon tarzida (*Men o‘zimni his qilaman qaynoq jangda. So‘ngra-so‘ngra xuddi ilon chaqqansimon, So‘ngra, xuddi bir xum aqrab ichgansimon Men o‘zimni o‘ngarolmay to‘lg‘onaman*.) qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin. Shoira –simon qo‘shimchasi yordamida sifatdoshlardan ham yangi leksemalar hosil qilgan.[135]

Shoirlarning asarlari matni yuzasidan olib borilgan kuzatishlar ularda bir qator xarakterli okkazional so‘zlar mavjudligini ko‘rsatadi. Undagi okkazionalizmlarni hosil bo‘lish usuliga ko‘ra ikkiga ajratish mumkin:

1) semantik okkazionalizmlar;

2) affiksatsiya usulida hosil qilingan okkazionalizmlar.

Semantik okkazionalizmlar tilda mavjud ba’zi so‘zlarni yangicha ma’noda qo‘llash natijasida yuzaga keladi. Masalan, Sirojiddin Sayyid “Toshkent oqshomi” she’rida quyidagi semantik okkazionalizmni qo‘llagan:

Bunda har bir nihol kelinchak bo‘lgay,
***Oftobtaxtim** mening, **oytaxtim** mening.*
Ko‘priklar evrilib kelajak bo‘lgay,
Olamga ostonam – poytaxtim mening.

Keltirilgan she’riy parchada narsani boshqa narsaga nisbatlash, o‘xshatish yo‘li bilan, ya’ni fors-tojikcha “oftob” so‘ziga fors tilidan olingan “taxt” so‘zini qo‘shish [so‘z+so‘z] qolipi asosidagi yangi qo‘shma so‘z hosil qilingan. Ijodkor she’r ta’sirchanligini oshirish hamda ona yurt tavsifini yanada kengroq ifodalash maqsadida shu misraning o‘zida bir xil qolipdagi okkazional birlikni keltiradi. Turkiy *oy* so‘ziga *taxt* so‘zini qo‘shish orqali yangicha o‘xshatishlarni qo‘llagan.

[135] H.Umarova. Zulfiya ijodida okkazional sO‘zlar va kontekstual sinonimlar. Maqola

Shuningdek, shoir ijodida affiksatsiya usuli bilan yasalgan okkazionalizmlar ham qo‘llangan. Bu esa shoir she’rlarining ta’sirchanligini oshirib, she’rning o‘qishli, ohangdor bo‘lishini ta’minlagan. Bu jihatlarni shoirning “ Haq so‘z ” she’rida ko‘rish mumkin:

“Chorak asr hamnafas” emas,
Chorak asr dildosh, ***og‘riqdosh***
Bo‘lib yashagansiz Kibriyo opa.
Yosh shoirlar o‘qir – ko‘zlarida yosh.

Aniq va qulay bo‘lishi uchun okkazionalizmlarni ikkiga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Okkazional so‘zlar va okkazional ma’noga ega so‘zlar. Bunga bir okkazional so‘zlar va okkazional ma’noni o‘zaro bir-biridan farqlashimiz kerak bo‘ladi. Okkazional so‘z tilning lug‘at sathida mavjud bo‘lmagan, bir ijodkor tomonidan qo‘llangan, g‘ayriodatiy yasalish tizimiga ega bo‘lgan so‘zlar hisoblanadi:

Adashib boraman bu tinch shaharga,
Meni qarshilaydi teraklar, tollar.
Ko‘chani uyg‘otib sokin saharda
Qaygadir boradi ***saharxez*** *chollar.*
(U.Azim)

Keltirilgan misollardan ham bu so‘zlarning g‘ayriodatiy, yasalish tizimi ham tasodifiy ekanligini, lug‘at tarkibida uchramasligini ko‘rishimiz mumkin.
Okkazional ma’no okkazional so‘zga nisbatan kengroq, qamrov doirasi ham kattaroq hisoblanadi. Okkazional ma’noga ega so‘zlar semantik okkazionalizm bo‘lganligi uchun ham bu hodisalar badiiy matndagina okkazional ma’no hosil qilishi kerak. Masalan:

Elparast kaptarlar *yurak qabrida*
Armon ko‘zlaridan to‘kdi *olov* yosh.

Xulosa qilib aytganda, lirik asarlarda o‘ziga xos qolipdagi okkazionalizmlar yaratilgan bo‘lib, ular ham nominativ, ham uslubiy ma’no berish uchun xizmat qilgan. Mazkur nutqiy hosilalar til me’yorlari asosida shakllangan, bu esa lug‘at qatlamimizning boyishiga olib keladi. Shoirlar ijodidan keltirilgan okkazionalizmlar she’rxonga estetik zavq berish bilan bir qatorda ijodkorning badiiy niyatini ifodalashga yordam beradi. Shuni ham ta’kidlash joizki, o‘zbek tilshunosligida okkazional ma’no va uning yuzaga chiqish omillarini o‘rganish, ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borish bugungi zamon tilshunosligining muhim vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T-2013.
2. Rahmatullayev Sh. Hoirgi adabiy o‘zbek tili. T –2006.
3. M. Mirtojiyev. O‘zbek tili semasiologiyasi.T – 2010.
4. Zulfiya. Asarlar, 3jildlik. T – 1985.
5. Sirojiddin Sayyid. So‘z yo‘li, 2jild. T – 2008.

BADIIY MATNDA ANTONIMLARNING LINGVOPOETIK TAHLILI

Ilimjonova Muhlisaxon Baxodirjon qizi
Qo‘qon davlat pedagogika instituti 4-kurs talabasi
Maslahatchi rahbar, dotsent Sh. Akramov

Annotatsiya So‘nggi yillarda matn va uning lingvistik tahlili masalasida ayrim ishlar qilinganini ta’kidlash lozim va ushbu maqolada lingvopoetika bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar orqali tilshunoslik va adabiyotshunoslikning uyg‘unllashuvi hamda tilidagi antiteza usuli yordamida ifodalangan zid ma’noli leksik birliklarni yonma-yon qo‘llashdagi ayrim xususiyatlari oydinlashtirilgan .

Annotation Abstract In recent years, it should be noted that some work has been done on the issue of text and its linguistic analysis, and in this article, through the work on linguopoetics, some features of juxtaposition of lexical units with opposite meanings expressed using the method of antithesis in the language have been clarified.

Keyingi yillarda badiiy asar tilini lingvopoetik o‘rganish ko‘pgina ilmiy tadqiqotlar markazida bo‘lib kelmoqda. Negaki, til va adabiyot hamisha bir-birini to‘ldirib, uyg‘unlikda taraqqiy etib kelgan. Shu bois bunday tadqiqotlar asosida tilshunoslarimiz tomonidan badiiy matnni til va adabiyot nuqtayi nazaridan tadqiq etishda qo‘llaniladigan usullar ishlab chiqilmoqda. Xususan, badiiy matn lingvistik tadqiqida so‘zning estetik ta’siri, ma’no va mazmun uyg‘unligi, lingvopoetik tahlil olib borishda muallifning individual uslubi, badiiy matnning mohiyati va estetik vazifasi, badiiy matn estetik ta’sirini oshiruvchi badiiy aktuallashgan leksik vositalarning tahlili kabi masalalarga alohida to‘xtalish lozim. Shu sababli ham “lingvopoetika” deb ataluvchi matn lingvistikasining mustaqil sohasi tadqiqotchilar e’tiborini ko‘proq tortmoqda. Rus tilshunos olimi V.V.Vinogradovning fikricha, lingvopoetikaning vazifasi badiiy asarda til birliklarining estetik vazifasini tadqiq etishdan iborat. Shunday qilib, tilshunoslik va adabiyotshunoslikning kesishgan nuqtasida filologiyaning yangi yo‘nalishi, lingvopetika, ya’ni yozuvchi yoki shoir badiiy to‘qimalarining estetik ta’sirini til vositalari yordamida ifodalash imkoniyatlarini ochib beruvchi tilshunoslik va adabiyotshunoslikning uyg‘unlikdagi yo‘nalishi paydo bo‘ldi, deb hisoblaydi olim.

Badiiy asarning ta’sirchanligi va ifodaliligini ko‘rsatishda zid ma’noli so‘zlar muhim lingvopoetik vazifa bajaradi. Sharq adabiyotida qadim zamonlardan buyon tildagi bu ifoda imkoniyatidan keng foydalanib kelingan. Tilshunos A.Rustamov bu haqida shunday yozadi: “ Shoir uchun juda zarur bo‘lgan san’atlardan biri tazoddir. Tazod san’atida badi’shunoslarning aytishicha, zid ma’noli so‘zlardan foydalaniladi”. [136] Bu san’at Yevropa filologik an’anasida “antiteza” deb yuritilishi tilshunoslikka doir adabiyotlarda alohida ta’kidlanadi.[137] Antiteza – (grek. Antithesis-qarama-qarshi qo‘yish) qiyoslanuvchi fikr, tushuncha obrazlarni qarama-qarshi qo‘yishdan iborat stilistik figura.[138] S.Karimov bu usulni shunday ta’riflaydi: “ Badiiy adabiyot tilidagi antiteza usuli bir-biriga nisbatan qarama-qarshi ma’nolarni beradigan so‘zlarni, iboralarni bayonda yonma-yon qo‘llash orqali obrazlilikni keltirib chiqarishga asoslangandir.[139]

Kuzatishlarimizda zid ma’nolilik hodisasi badiiy matnlarda nafaqat leksik ko‘rinishda, balki tilning boshqa sathlarida ham uchrashi aniqlandi. Bular:

1.**Morfologik antonimiya.** Erkin A’zam asarlarida qo‘shimchalar o‘rtasidagi o‘zaro qarama-qarshi ma’nolilik xususiyatidan ko‘p o‘rinlarda foydalangan. Masalan, quyidagi misolda samar asosli so‘zga -be va –ba antonim qo‘shimchalarini qo‘shish orqali yangi soz **besamar** va **basamar** so‘zlari yasalgan va u asarda qarama-qarshi ma’nolarni ifodalab kelgan: *Tashqarida gurkiragan hayot, ichkarida yosh-yosh, tepakal, bir yuz nechanchi moddanimi, bir ming nechanchi yulduznimi, xudo bergan beda’vo dardga shifomi topish ilinjida umrini goh **besamar,** goh **basamar** o‘tkazayotgan aksar fidoyilar, aksari unvonparastu chalamullalar davrasi...* (“ Otoyining tug‘ilgan yili”) Besamar so‘zida “natijasiz, oqibatsiz”, basamar so‘zi orqali esa “natijali, oqibatli” kabi semalar anglashiladi. Quyidagi misolda ham qo‘shimchalar zid ma’noliligini ko‘rishimiz mumkin: *Tabiatning eng **adolatli** va eng **adolatsiz** qonuni ham shu.*(“Javob”) Ushbu gapda esa adolat asosli so‘zga o‘zaro zid ma’noli -li va -siz qo‘shimchalari qo‘shilib kelib, kontrastlikni hosil qilgan.

2.**Leksik antonimiya**. Leksik antonimiya asosida antonimik munosabatga kirishgan so‘zlarning leksik ma’nosi yotadi. *U ketdi-yu, xayolimda ham **shirin**, ham **achchiq,** ham **quvnoq**, ham **alamli** uzuq-yuluq xotiralar qoldi...*(“Xayollarga bo‘laman tutqun”)

O‘tkir Hoshimov bir nutq vaziyatida bir nechta antonimlardan ustalik bilan foydalanish orqali fikrning emotsional-ekspressiv bo‘yog‘ini oshirib, qahramon hislari ifodasini ko‘zlangan

[136] Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1979, B.64
[137] Axmanova O.S. Словарь лингвистических терминов. –M: Советская енсиклопедия, 1969. C.49
[138] Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug’ati. – Toshkent, 1985, -B.17
[139] Karimov S. Ozbek tilining badiiy uslubi: Filol.fan. d-ri…diss. – Samarqand, 1993. –B.219-220.

darajaga olib chiqmoqda. *Oyning o‘n beshi* ***qorong‘u*** *bo‘lsa, o‘n beshi* ***yorug‘*** *bo‘ladi, uka. Mana* ***ko‘pi*** *ketib,* ***ozi*** *qoldi.* (“Usta ko‘rgan shogird”.)

“Aytish lozimki, lisoniy zid ma’nolilik badiiy nutqda muayyan ta’sirchanlik, ifodalilikning yuzaga kelishiga ko‘maklashadi, ammo bunday juftliklar tilda avvaldan bor bo‘lganligi uchun kitobxon nazdida kutilmagan emas, kutilgan vositalardir. Demak, yozuvchi o‘z badiiy niyatiga uyg‘un holda asar matnida lisoniy zid ma’nolilik yaratadi, lisoniy zid ma’nolilik kontekstual zid ma’nolikka qaraganda ohorli bo‘lmaydi, ta’sirchanligi, ekspressivligi ham shunga yarasha bo‘ladi.”[140]

3.Kontekstual antonimiya. Ma’lumki, ba’zan qarama-qarshi ma’noga ega bo‘lmagan so‘zlar ijodkor niyatiga mos ravishda muayyan kontekstda bir-biriga qarama-qarshi qo‘yiladi. "Asli antonimik munosabatda bo‘lmagan bunday so‘zlarning qarama-qarshi qo‘yilishida kontekst alohida rol o‘ynaydi, shuning uchun ular shartli ravishda kontekstual antonimlar deb yuritiladi.”[141] Badiiy asarlarning ekspressivligi, ifodaligi hamda bo‘yoqdorligini ta’minlashda kontekstual antonimlarning o‘rni katta. "Tilimizdagi ko‘pgina so‘zlar to‘g‘ri ma’nosi bilan ham, ko‘chma ma’nosi bilan ham antonim bo‘la olmaganlari holda, ular nutqda bir-birlari bilan mazmunan zid tushunchalarni anglatib kelishi, qarama-qarshi ma’nolarda qo‘llanishi mumkin. Bunda yozuvchi va shoirlarimiz antiteza usulidan foydalanib, nutqning ifodali, ixcham va o‘tkirligiga erishadilar.”[142]

Ko‘pincha badiiy asarda kontekstual antonimlardan tasvirning ta’sirchanligini oshirish maqsadida qo‘llaydilar. Chunki unda lingvistik jihatdan noodatiylik kuchli bo‘lib, ta’sir kuchi ularda odatdagilarga nisbatan kuchliroq bo‘ladi. Masalan, O‘tkir Hoshimov hikoyasidagi quyidagi jumlalarni ko‘raylik:

“O‘rtoqlar” *degan so‘zdan tortib,* ***“E’tiboringiz uchun rahmat”****, deganigacha qog‘ozdan o‘qib berilarkan. (“Qizil qarg‘a”).*

Qahramon nutqining boshlanish va tugash nuqtasi bo‘lgan bu ikki jumla ustalik bilan zid qo‘yilgan-ki, gapni o‘qigandayoq kontekstdan anglashilayotgan qarama-qarshilikni ilg‘ab olish qiyin emas. Ushbu leksik birliklar o‘rnida “ipidan ignasigacha” yoki shunga yondosh frazemani qo‘llasa ham bo‘lar edi, lekin bundan yozuvchining maqsadi to‘laligicha ifoda etilmay qoladigandek, go‘yo. Ya’ni bu ikki zid jumlaning qo‘llanilishi qahramon nutqdagi tasvirning aniqlik, ochiqlik, bo‘rtirilganlik darajasini ta’minlamoqda, nazarimizda. Shuningdek, quvonch va g‘am semalari asosida antonimlik hosil qilayotgan quyidagi birliklarga e’tibor qaratamiz:

To‘y *maslahat bilan bo‘ladi.* ***O‘lim*** *bexosdan keladi (“O‘ldi-aziz bo‘ldi”).*

To‘y va o‘lim leksik birliklari mohiyati jihatdan, voqelik jihatidan ikki xil tushuncha. Chunonchi, to‘y – o‘yin-kulgi, o‘lim – abadiy yo‘qotish. Xalq tilimizning shunday imkoniyatlarini kashf qiladiki, boshqa sayyoradan bo‘lgan ikki so‘zni ham bir-biriga antonim qila oladi, ham sinonim.

4.Frazeologik antonimiya. Zid ma’noli so‘zlarning ushbu turida frazologik birlklar,ya’ni iboralar o‘zaro bir-biriga zidlanadi. Bunda yozuychining badiiy- estetik niyati aynan poetik ta’kid olgan frazeologik antonimlarga qaratiladi:

O‘jarlikka kelganda… bu qaltis xislat. Ba’zan shu fe’li tufayli birov ***osmonga chiqib ketadi****, ba’zan shuning kasridan osmon barobar yerga kelib urilib changi chiqadi,* ***xor bo‘ladi*** (E.A’zam “Javob”). Parchada tanlangan ibora - osmonga chiqib ketmoq, ko‘kka ko‘tarilmoq iborasining sinonimik o‘zgartirilgan shakli bo‘lib, “ortiq darajada maqtanmoq” ma’nosini ifodalaydi. Yozuvchi qo‘llagan iborada fikr nisbatan kuchliroq ifodalangan, ta’sirchanlik kuchaytirilgan, shu bilan birga ”xor bo‘lmoq” birikmasi bilan o‘zaro ma’noviy zidlik hosil qilgan.

Badiiy asarlarda antonim so‘zlar "hodisa va holatning ichki ziddiyatini ochishda, xarakterlarni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yib tasvirlashda yozuvchiga qo‘1 keladi"[143] Xullas,

[140] Yo‘ldoshev M. Ko‘rsatilgan dissertatsiya. – B.45.
[141] Abdurahmonov X., Mahmudov N. SO‘z estetikasi. – Toshkent: Fan, 1981. –B.15
[142] Shukurov R. O‘zbek tilida antonimlar. – Toshkent, Fan, 1977, -B. 54-55
[143] Homidiy H va boshq. Adabiyotshunoslik terminlari lug’ati. –Toshkent, O‘qituvchi, 1970, -B. 30-31

antonimlar bir-biriga zid tushunchalar birligini ifoda etish bilan tilda stilistik vosita sifatida qo‘llaniladi va badiiy ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi, badiiy nutq uslubining ravonligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So‘z estetikasi. – Toshkent: Fan, 1981
2. E. A’zam asarlari.
3. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. –Toshkent: 1985
4. Homidiy H va boshq. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. –Toshkent: O‘qituvchi, 1970
5. Shukurov R. O‘zbek tilida antonimlar. – Toshkent: Fan, 1977
6. O‘. Hoshimov hikoyalari.

MAQOLLARDAGI LINGVOKULTUROLOGIK JIHATLAR

To‘xtasinova Navro‘zaxon Ergashboy qizi,
Navoiy stipendiyasi sohibi.
Ilmiy maslahatchi: dotsent Sh.Akramov.

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek xalq maqollarida qo‘llangan leksemalar lingvokulturologik jihatdan tahlil qilingan. Xalq maqollaridagi milliy-madaniy xususiyatlar yoritilgan. Lingvokulturemalarning ekzotik leksika hamda muqobilsiz leksikaga munosabati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya, muqobilsiz leksika, leksema, adresat, lisoniy, nolisoniy, sema, semema, semiotik tizim.

Аннотатция В данной статье с лингвокультурологической точки зрения анализируются некоторые лексемы, используемые в узбекских народных пословицах. Выделены национально-культурные особенности народных пословиц. Анализируется отношение Лингвокультуремы к экзотической лексике и безальтернативной лексике.

Ключевые слова: лингвокультурализм, безальтернативная лексика, лексема, адресат, языковая, неязыковая, сема, семема, семиотическая система.

Annotation Article, some lexemes used in Uzbek folk proverbs are analyzed from a linguistic and cultural point of view. National-cultural features of folk proverbs are highlighted. The attitude of Lingvokulturema to exotic lexicon and non-alternative lexicon is analyzed.

Key words: linguo-culturalism, non-alternative lexicon, lexeme, addressee, linguistic, non-linguistic, seme, sememe, semiotic system.

V.V. Vorobevning yozishicha, “Linvokulturologiya madaniyat va tilning o‘zaro aloqasi va o‘zaro ta’sirini va bu jarayonni lisoniy va nolisoniy (madaniy) birliklarning bir butun strukturasi sifatida aks ettiradigan kompleks fandir. Lingvokulturologiya fanining predmeti hisoblangan lingvokulturologik birlik bir paytning o‘zida bir qancha semiotik tizimlarga tegishli bo‘lishi mumkin. Lingvokulturologik birliklardan ba’zilari muqobilsiz leksika va lakunalar hisoblanadi. “Har qanday til yoki dialektda boshqa tilga bir so‘z bilan tarjima qilib bo‘lmaydigan so‘zlar mavjud bo‘ladi. bunday so‘zlarga muqobilsiz leksika deyiladi. U ko‘pincha mahalliy xalqqa xos pul, masofa-uzunlik birliklari, ro‘zg‘or ashyolari va h.k. tushunchalarni anglatadigan so‘zlardan tarkib topadi”. [1;28]

L.S.Barxudarovning yozishicha:”Muqobilsiz leksika bir tildagi Ieksik birliklarning boshqa tilda to‘liq yoki qisman muqobilga ega bo‘lmasligidir". Bunday leksemalarni ko‘plab o‘zbek xalq maqollarida ko‘rish mumkin.

Yomon qizni boqquncha,

Do‘ppingni qoq. [2;138]

Uyurni shamol uchirsa,

Do‘ppingni osmonda ko‘r. [2;200]

Berilgan maqollarda ishtirok etgan “do‘ppi” leksemasi avra-astarli, ko‘pincha qavima, pilta urilgan, tepa, kizak va jiyakdan tarkib topadigan guldor yoki gulsiz, to‘garak yoki to‘rtburchak shakldagi bosh kiyimi semalaridan takrib topgan. [3;859] Ushbu ma’no qirralari bilan “do‘ppi” leksemasi madaniy semadir. “Madaniy sema – so‘zga nisbatan kichikroq va universalroq bo‘lgan semantik birliklar, semantik belgilar” [1;41] O‘zbek xalqining milliy bosh kiyimi bo‘lgani boisidan “do‘ppi” leksemasi muqobilsiz leksika namunasi hisoblanadi. Maqolda bu leksemaning qo‘llanishi mazmunning ta’sir kuchini oshirgan. Ma’lumki, do‘ppi qoqish jarayoni qandaydir holat yoki voqelikdan afsuslangan, attang qilingan o‘rinlarda yuz beradi. Do‘ppisini osmonga otmoq ya’ni juda xursand bo‘lmoq, quvonmoq [4;77] birikmasiga zid ravishda do‘ppi qoqmoq salbiy holatni aks ettiradi. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, har bir o‘zbek oilasida farzand tarbiyasiga alohida ahamiyat beriladi, ayniqsa, qiz bolaning sha’ni, qadr-qimmati, iffati muhim hisoblanadi. Biz o‘zbeklarda qadimdan qiz bola biror noma’qul ishga qo‘l ursa, uning nomiga dog‘ tushgan, gard yuqqan bo‘ladi va bu garddan xalos bo‘lish imkonsiz deya qaraladi. Biroq do‘ppiga tekkan gard va changni yo‘q qilish uchun uni qoqish kifoya. Shuning uchun yomon qizni boqquncha do‘ppini qoqish afzalroq. Keyingi maqolni qo‘llash bilan bir falokat har kimga turlicha ta’sir o‘tkazishi aytilmoqda. Uyur – orasida bir ayg‘iri bo‘lgan biyalar to‘dasi. [ ] Do‘ppi esa yengil bosh kiyimi. Shamol har ikkisiga turlicha ta’sir qilishi tabiiy, albatta bu tabiat qonunlariga ko‘ra ham to‘g‘ri hodisa. Nasriy asarlar ustasi G‘afur G‘ulom o‘zining “Shum bola” qissasida ushbu maqolning boshqa bir variantini qo‘llagan ya’ni “Tuyani shamol uchirsa, Echkini osmonda ko‘r.” [2;200] Ikkinchi Jahon urushi insonlar hayotiga har xil ta’sir qilganini aynan ushbu maqol orqali izohlab bergan. O‘zbeklar istiqomat qiladigan hududlarda tuya deyarli bo‘lmagani uchun maqolning “Uyurni shamol uchirsa, *Do‘ppingni* osmonda ko‘r.” [2;200] shakli ko‘p qo‘llanadi.

Dushman o‘lar, do‘st qolar,
O‘sma ketar, qosh qolar. [2;47]

Maqolda qo‘llangan “o‘sma” leksemasining uzun cho‘zinchoq to‘q yashil bargli, krestgullilar oilasiga mansub ikki yillik o‘simlik semalari bor. [3;195] U o‘zbek qiz va ayollarining qoshlarini bezab turuvchi, milliy pardoz vositasi hisoblanadi. Qadimdan o‘sma qo‘yish urf bo‘lgan hamda qizlarning qoshiga qo‘yilgan o‘sma qanchalik qora uchishi o‘sha qizning otasi qizini qanchalar yaxshi ko‘rishini bildirgan. O‘sma o‘zbek xalqining hayot tarziga shu darajada kirib borganki, hatto uni yuvib tashlab bo‘lgach o‘sha zahoti qaytadan qo‘ygan qiz ikki marta turmush qiladi deyilgan. Milliyligimizni aks ettiruvchi vositalardan biri bo‘lgan o‘sma faqat o‘zbek qiz-yu ayollari uchun ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. Ushbu maqolda aynan “o‘sma” leksemasini qo‘llanishiga sabab uni qoshda ko‘p vaqt turmasligidir. Qizlar qoshiga qo‘yilgan o‘sma tez fursatda o‘chib ketib, qoshning o‘zi qolishi, dushman o‘lib, do‘st qolishiga qiyoslangan.

Temirchi taqaga yolchimas,

Bo‘zchi — *belboqqa.* [2;100]

Bo‘zchi *belboqqa* yolchimas,

Kulol — mo‘ndiga. [2;182]

Berilgan maqoldan o‘rin olgan “ belbog‘ “ leksemasi belga bog‘lanadigan to‘rtburchak ro‘mol shaklidagi gulli yoki gulsiz, chetlari tikilgan mato parchasi; qiyiq, qiyiqcha semalaridan tashkil topgan. [3;279] O‘zbekning mard yigitlari uchun mo‘ljallangan milliy kiyim turlaridan biri. Milliylikni aks ettirish xususiyatiga egaligi uchun ham ushbu leksema muqobilsiz leksika namunasidir. Maqolda kishining o‘zida bor buyum yoki mahsulotga o‘zi yolchimasligiga doir ma’no aks etgan. Ya’ni temirchi, bo‘zchi va kulollar shu hunar orqali kun kechirishi sabab ham bunday mahsulotlarni o‘z oilasiga orttira olmaydi. Aynan shu holat ko‘plab hunar egalarida uchrab turadi.

Arafa kuni yolg‘on gapirganning

Namoz kuni yuzi qora. [2;106]

Muqobilsiz leksika boshqa tilga o‘zlashtirilganda ularga ekzotik leksika (ekzotizmlar) deyiladi. Ekzotizmlar va etnografizmlar o‘zga madaniyatning ramzlari sanaladi. [1;28] Ushbu maqolda “arafa” hamda “namoz” leksemalari ekzotizm hodisasiga misol bo‘la oladi. Chunki “arafa” leksemasi arab tilidan kirib kelgan. So‘zning ma’nosi arabcha – bilmoq, tanimoq, ma’rifat hosil qilmoq. Hijriy-qamariy yil hisobi bo‘yicha 12-oy (Zilhijja) 9-kunining nomi. Hayitdan oldingi kun ham Arafa deb nomlanadi. Shundan kelib chiqib xalqlar orasida tantanali voqealar va bayramlardan oldingi kun va muddatni ham Arafa deb nomlash odatga aylangan. O‘zbek tili leksikasiga ham bu so‘z o‘zgarishsiz o‘z holicha qabul qilingan. “Namoz” so‘zi fors tilidan kirib kelgan bo‘lib, musulmonlardan kuniga besh mahal qilinadigan ibodatlar majmuyi va ularning har birini anglatuvchi leksik birlik. Bu so‘z ham o‘zbek tiliga hech qanday tarjimasiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tgan. Maqol orqali yolg‘on gapning umri qisqa bo‘lishi va tez orada fosh bo‘lishi uqtirilgan. Malumki, arafa kunining ertasiga Hayit namoziga boriladi. Arafa va Hayit namozi orasidagi muddat qisqa. Yolg‘on gapirgan insonning yuzi aynan qora rangga qiyoslanishi ham olamning lisoniy manzarasini o‘zbek xalqi qanday qabul qilishini ko‘rsatadi. Qadimdan xalqimizda qora rang motam, ko‘ngilsizlik kabi salbiy voqeliklar yomon, yovuz shaxslarga tegishli illarlarni izohlash uchun qo‘llangan. Shuning uchun ham yolg‘on gapirgan insonning yuzi qora bo‘lib, xalq orasida izza bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, lingvokulturologiya bo‘limi tarkibida o‘rganiladigan birliklar har bir xalq madaniyati hamda yashash tarzidan darak beruvchi tushunchalar hisoblanadi. Bunday leksemalar ortidagi ma’no qirralarni anglash orqali xalqlar hayotidan muhim o‘rin egallagan voqeliklardan ham xabardor bo‘lish mumkin. Buni bilish orqali bizga ma’lum yoki noma’lum bo‘lgan tushunchalar haqida bilimga ega bo‘lishimiz, biz kundalik hayotda qo‘llaydigan o‘xshatish hamda qiyoslashlar o‘zga xalqlarda qanday holatda namoyon bo‘lishidan xabardor bo‘lamiz. **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh. Usmanova Lingvokulturologiya T.: 2019
2. O‘zbek xalq maqollari T.: “Sharq” 2005
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati T.: “O‘zbek milliy entiklopediyasi” 2006
4. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati T.: “O‘qituvchi” 1978
5. D. Xudoyberganova Matnning antroposentrik tadqiqi T.: “Fan” 2013
6. N.Mahmudov Olamning lisoniy manzarasi va so‘z o‘zlashtirish T.: 2015

NUROTA TUMANI AYRIM GIDRONIMLARINING TARIXIY MANBALARI, LISONIY XUSUSIYATLARI

Shermatova Sabina
NavDPI O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 3-kurs talabasi.
Ilmiy rahbar: Nuriddinova Ra’no Sevdiyevna
NavDPI O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada toponimika bòlimi tarkibiga kiruvchi gidronimlarning Navoiy viloyati Nurota tumani hududidagi nomlarining kelib chiqish sababi va tarixi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Toponimika, gidronim, koriz, chashma.

Dunyo tilshunosligida toponimlarning oykonim, gidronim, oronim, nekronim, agroonim kabi tarkibiy qismlarini lingvistik paradigmalar asosida o'rganish xalqning ijtimoiy hayotini, milliy, etnik, madaniy tarixini, shu xalq tilining tarixiy taraqqiyotini yoritishda ahamiyatlidir. Toponimlar muayyan tilda xalq tomonidan yaratiladi va o'sha davrning ijtimoiy hayoti haqida axborot beradi. Chunki toponimlar xalqning o'tmishi, urf-odatlari, boshidan kechirgan turli xil ijtimoiy-siyosiy, etnomadaniy jarayonlarni, tilning tarixiy-lisoniy boyligini o'zida saqlovchi lingvomadaniy birliklar hisoblanadi.

Toponimlarning bir turi – gidronimlar xalq tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lib, milliy tilning, xalq ijtimoiy hayoti, madaniyati va ma'naviyatining o'ziga xos qirralarini ifoda etuvchi lisoniy qatlam hamda xazinadir. Joy nomlari, jumladan, gidronimlar ham ajdodlarimizdan hozirga qadar yetib kelgan ulkan madaniy-ma'naviy meros, milliy qadriyatlarning bebaho namunasidir. O'zbekiston hududida daryo, soy, ariq, kanal, jilg'a va irmoq kabi suv obyektlari juda ko'p. H.Hasanov suv obyektlarining nomlari haqida fikr yuritib, «...gidronimiya – daryo va ko'llarning nomi mutlaqo qo'l tegmagan masaladir», – deb gidronimlarni o'rganish muhim ahamiyatga egaligini ta'kidlagan edi.[144] Navoiy viloyati Nurota tumani ham Turlington tumani koriz, chashma, ariq, buloq va shu kabi suv inshootlariga boy.

Koriz- bir-birlari bilan yer ostida birlashtiriladigan quduqlar, yer osti kanali.[145] Nurotada quyidagi turdagi korizlar mavjud.

Tog' etagidagi korizlar: Toshloq, Toshquduq, Savrobod, Janjalobod, Chinqoq, Ko'chot, Tama, Boymat, Qizilkanda, Yamonturkman, Kaltakoriz, Sattorobod, Nurobod, Sarkoriz, Oqmon, Zulmkoriz, Latka, Dangalobod, Qoraxoni kabi.

Iskandariy korizlari: Tovboy, Mo'mincha, Qaynar, Sulton, Boshkoriz, Maston, Mazor, Mastak, Quvandiq, Komboy, Ko'nchi, Zulfiqor, Alpuxori, Totli, Satilg'on, Adizobod, Miri kabi.

G'ozg'ondagi korizlar

1.Amonboy	6.Korizi kalon
2.Saxti	7.Pashshot
3.Sherobod	8.Karizak
4.Go'robod	9.Tumor
5.Kulol	10.Navkoriz

Nur chashmasi. Ushbu chashmaning qachon va qay tarzda paydo bo'lgani noma'lum. Shaharning nomi hisoblangan Nur atamasi ham chashmaga aloqadordir. Bu nom arab va fors-tojik tillarida "nur" , "ro'shnolik" kabi ma'nolarni anglatadi. Nur chashmasi suvi ikki ariqqa bo'linadi. Shimolga- cholesterol tomonga oqqani "Obi rosta"- to'g'ri suv, shimolga sharqdagi tog' tomondan oqqani esa "Obi chappa"- teskari suv deb ataladi.

Yana shunga o'xshash soy va quduq nomlarining qo'yilish sabablariga to'xtalamiz.

Zangiota- soy nomi. Oqtovning shimoliy etaklaridagi quruq soy nomi. Bu nom qo'yilishiga sabab cho'ponlarning poring hisoblangan Zangiotaning nomi shu soydan chiqishga joylashgan deyiladi.

Yangiqozg'on- asrimiz o'rtalarida qazilgan quduq hisoblanib, mahalliy bir inson tomonidan qazilgan. Asl ma'nosi -yangi qazilgan va qishloq nomiga ham asos bo'lgan.

Hazorgasht- soy nomi.Bitovga o'tadigan hazor(ming) gasht(burilish), ya'ni burilishlari ko'p bo'lgan soy.

Jing'ilsoy- soy nomi. Yulg'un butalari zich o'sgan soy nomi. Rivoyatlarga qaraganda, eramizdan oldingi asrlarda xitoyliklar Jing'ilsoydan oltin qazib ketishgan.[146]

[144] . Hasanov H. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. – Toshkent: Fan, 1965. – B. 18.
[145] S.Qorayev. Toponimika. T.:2006.63-b.
[146] Nurota-nurli diyor. T.: O'zbekiston.2016.95-b

Anbarona-soy nomi. Sulaymon Boqirg‘oniyning ayollari nomiga qo‘yilgan quduq nomi. Rivoyatlarga qaraganda, bu ayol uzlatga chekinib, umrining oxirini shu yerda o‘tkazgan.

Quduqcha-quduq nomi. Zangiota dashtidagi uncha chuqur bo‘lmagan quduq.

Soykechar- soy va qishloq nomi. Kechib o‘tgan bo‘ladigan , ya’ni yoyilib oqqan soy hisoblanadi.

Konsoy- soy nomi. Kon - tojikcha ma’dan qazib olinadigan joy. Qadimdan bu soyda oltin qazib olingan.

Sumbuloq. Sentobdagi buloq nomi. Suvi "sim-sim" chiqadigan buloqqa o‘xshatilgan.

Ko‘kbuloq. Suvi tip-tiniq, musaffo. "Ko‘k" sifati buloq ichidagi havorang toshlar suvga tiniq ko‘k (osmon) rang berib jilolanadi.

Zulfiqor-koriz nomi. Diniy aqidalarga bog‘liq holda xalifa Ali ibn Abu Tolibning qilishi nomidan olingan.

Avazsoy- soy nomi. Avaz ismli inson ushbu soni qazigani sababli qo‘yilgan.

Qizilbuloq- buloq va qishloq nomi. Buloqning tuprog‘gi qizil tusda bo‘lganligi sababli suvi qizil ko‘ringan va shunday atalgan. Keyinchalik qishloq ham shunday atalgan.

Xulosa qilib aytganda, gidronimlarni o‘rganish biz uchun kerak. Gidronimlar orqali afsona va rivoyatlar, ushbu suv inshootini qazigan yoki qurgan insonlar haqida ma’lumot olishimiz mumkin. Ularni o‘rganish orqali hududidagi tarixini o‘rganishimiz mumkin.

Gidronimlarni to‘plash va ularni lisoniy jihatdan tadqiq etish ular mansub bo‘lgan hudud tarixi, geografiyasi, tabiati, gidrologiyasi, aholisining etnik tarkibi, etnografiyasi, dialektini o‘rganishda ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.S.Qorayev.Toponimika.T.2006.
2.Nurota -nurli diyor. T. 2016.
3. Hasanov H. O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan. – Toshkent: Fan, 1965.
4. Saidov A. Tog‘ soylari – sug‘orish manbai. – Toshkent: Fan, 1974.
5. Begaliyev N. Samarqand viloyati gidronimlari (lisoniy tahlil): Filol. fan. nom. ... diss. avtoref. – Samarqand, 1994.

NAZAR ESHONQULNING BA’ZI HIKOYALARIDA QO‘LLANILGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Fayzullayeva E’zoza Abdulla qizi
Navoiy davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi
fayzullayevaezoza169@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada Nazar Eshonqul qalamiga mansub hikoyalarda qo‘llanilgan frazeologik birliklar va ularning asardagi o‘rni, frazeologik sinonimlar, frazeologik omonimlar, frazeologik antonimlar va frazeologik paronimlar haqida fikr yuritilgan.

Abstract: this article gives information about the phraseological themes which are used in the stories written by Nazar Eshankul and their titles in the his creative works,phraseological synonyms, phraseological homonyms, phraseological antonyms and phraseological paronyms.

Аннотация: в данной статъе рассматриваются фразеологизмы, исполъзованные в рассказах Назара Эшангула, и их место в произведении, фразеологические синонимы, фразеологические омонимы, фразеологические антонимы и фразеологические паронимы.

Kalit so‘z: barqaror birikmalar, frazeologik birliklar, frazeologik sinonimlar, frazeologik omonimlar, frazeologik antonimlar, frazeologik paronimlar, lingvopoetik xususiyatlar.

Key word: stable compounds, phraseological themes, phraseological synonyms, phraseological homonyms, phraseological antonyms, phraseological paronyms, linguopoetic features.

Ключевые слова: устойчивые соединения, фразеологические единство, фразеологические синонимы, фразеологические омонимы, фразеологические антонимы, фразеологические паронимы, лынгвопоэтические особенности.

Ikki va undan ortiq so‘zlarning o‘zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi,til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo‘lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi.Iboralar,maqol,matal va hikmatli so‘zlar barqaror birikmalar hisoblanadi.Biz shulardan biri-iboralar haqida fikr yuritmoqchimiz.Voqelikni obrazli tasvirlashda,uni kitobxon ko‘zi o‘nggida aniq va to‘la gavdalantirishda frazeologik birlik ya’ni iboraning o‘rni va ahamiyati beqiyos.Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish,jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakatlarni baholash,turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o‘ziga xos obrazli ifodasidir.Yozuvchilar,odatda, tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qo‘llash bilangina kifoyalanib qolmaydilar.Balki,qahramonlar tabiati,ruhiy holati,hayot tarziga moslab o‘zgartiradi va qayta ishlaydilar.Shu tarzda xalq iboralari sayqallanib,yangi ma’no nozikliklari bilan to‘yinib boradi.Frazeologik iboralar ustida ishlagan o‘zbek tilshunos olimi-Shavkat Rahmatullayev bo‘lib,u birinchi “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”ni tuzishga muvaffaq bo‘lgan.Bu lug‘atda frazeologik birliklar haqida nazariy ma’lumotlar va alifbo tartibida iboralar, ularning izohi,sinonimlik,omonimlik,antonimlik va paronimlik xususiyatlari ochib berilgan.Ana shu xususiyatlariga ko‘ra iboralar 4ta ma’noviy guruhlarga bo‘linadi.

Bir-biriga ma’no jihatidan teng iboralarga sinonim iboralar(frazeologik sinonimlar) deyiladi.Masalan:*jonini hovuchlab va yuragini hovuchlab* iboralari *qo‘rqmoq* ma’nosida ma’nodoshlikni hosil qilgan.

Bir-biriga ma’nosi zid bo‘lgan iboralar antonim iboralar (frazeologik antonimlar) deyiladi: *ko‘ngliga joyiga tushdi - xotirjam bo‘ldi* va *yuragiga g‘ulg‘ula tushdi - xavotirlandi.*

Shaklan bir xil bo‘lib,ma’nosi jihatidan farqlanadigan iboralarga omonim iboralar(frazeologik omonimlar) deyiladi.Bu holat asosan ikki ibora orasida sodir bo‘ladi.Masalan:*qo‘l ko‘tarmoq I va qo‘l ko‘tarmoq II.*Ular *qo‘l ko‘tarmoq I(qo‘lini yuqoriga ko‘tarmoq)* va *qo‘l ko‘tarmoq II(urmoq)* ma’nolarida omonimlikni hosil qilgan.

Iboralar orasida shaklan teng kelishdan tashqari,shakliy yaqinlik ham bor.Bu hodisa frazeologik paronimiya deyiladi.Masalan:*yetti uxlab tushiga kirmaslik* va *yetti uxlab tushida ko‘rmaslik.*Bu ikki iboraning tarkibidagi birgina so‘z orqali paronimiya hodisasi yuz bergan.

Biz yuqorida iboralarning ma’no xususiyatiga ko‘ra turlarini ko‘rib chiqdik.Ammo ularning bu xususiyatidan tashqari lingvopoetik xususiyatlari ham bor.Ya’ni matnda insonlarning ichki kechinmalarini,yuz ifodalarini tushuntirishda,oddiy so‘z orqali ifodalab bo‘lmaydigan holatlarni ta’sirchan qilib tasvirlashda bizga iboralar yordamga keladi.Nazar Eshonqul o‘zining hikoyalarida ana shunday xususiyatlarga ega bo‘lgan iboralardan yetarlicha qo‘llay olgan.Biz esa ulardan ba’zilarini tahlilga tortishga qaror qildik.

Bunday hodisa faranglarda ham bir paytlar bo‘lgan,-dedi guruh rahbari qilib jo‘natilgan professor shahar boshlig‘ining tushuntirishidan ensasi qotgandek,-*hamma balo tibbiyotimizni savodsiz va qobiliyatsiz odamlar bosib ketganida.*(“Tobut” hikoyasi 180-bet)

Bu yerda qo‘llangan *“ensasi qotmoq”* iborasi *“ranjib noxush bo‘lmoq”* ma’nosida hikoyadagi qahramonlardan biri-professorning o‘sha paytda gapdan qoniqmay ranjiganlik holatini ochib berishda,bu holatdan keyin uning yuz ifodasi qanday o‘zgarganligini ko‘rsatib berishda foydalanilgan.

Biz darvozadan to ma’muriy binoga borguncha havosi so‘rib olingan lahmni kezib chiqqanday o‘pkamiz shishib,*holdan toyib qoldik.*(“Tobut” hikoyasi 183-bet)

Bilamizki, o‘pka inson uchun nafas olish a’zosi.O‘pka bilan bog‘liq iboralar ham ana shu ma’noni tashishda ishlatiladi. Bu yerda qo‘llanilgan *“o‘pkasi shishmoq”* iborasi oddiygina *“charchadi”* degan so‘zdan ko‘ra emotsionalligi yuqoriligi uchun foydalanilgan.

O‘latning bu uylarga hech bir aloqasi yo‘qligini tushungach, hafsalam pir bolib, *izimga qaytdim.*(“Tobut” hikoyasi 184- bet)

Bu iborani kundalik hayotda juda ko‘p ishtamiz.Hammaga tanish bu iboradan yozuvchi *“ish u o‘ylagandek bo‘lib chiqmaganligi va bu ishdan uning ishtiyoqi yo‘qolganligi”* ma’nosini kuchli bo‘yoqda ifodalagani uchun foydalangan.

Uni uch-to‘rt marta aylanib,ko‘zlarim o‘zim kezib chiqqan ko‘chalarning belgilariga tushgach,hayrat va dahshatdan nafasim ichimga tushib ketdi.(“Tobut” hikoyasi 192-bet)

Bu yerda hikoya qahramonining kuchli hayrat va qo‘rquv natijasidagi holatini kitobxon ko‘zi o‘nggida haqiqiy qilib chizib bera olish va jonlantirish uchun *“nafasi ichiga tushib ketmoq”* iborasidan muallif mahorat bilan foydalana olgan.

Biroq oxir-oqibatda hammasiga qo‘l siltab, *loqayd va beparvo bo‘lib qolardi:erini endi ko‘ngli istamay,ming marta o‘qilgan kitobday bezillab,o‘qiganlaridan besh battar* yuragi sovib,*ketishidan qo‘rqib,*yurak hovuchlab,*ming istihola,ming xayol va ming ilinj bilan o‘qirdi*.(“Ochilmagan eshik” hikoyasi 163-bet)

Nazar Eshonqul asarlarida boshqa ijodkorlarda bo‘lmagan o‘zgachalik,yangicha yondashuv sezilib turadi.Yuqoridagi jumlada ham bu fikr o‘z tasdig‘ini topgan.Nega deganda,bu gapda yozuvchi naq 3ta iboradan:*”qo‘l siltamoq”,”yuragi sovimoq” va “yuragini hovuchlamoq”* dan mohirona foydalangan.Ya’ni birgina hikoya qahramonining xarakter xususiyatini,o‘sha asardagi emotsiyani kitobxonga o‘zgacha yondashuv asosida ko‘rsatib bera olgan.*”Yurak”* bilan bog‘liq 2ta iboradan qo‘rquv hissini qanchalik yuqori darajada ekanligini anglatishda foydalangan.

Uning ko‘ngli xijil edi, *ayni paytda u bu yerlardagi biron narsani ko‘zdan qochirmoqchi emasdek har bir daraxtni diqqat bilan ko‘zdan kechirar edi*.(“Momoqo‘shiq” hikoyasi 91-bet)

Bu yerdagi *“ko‘ngli xijil bo‘lmoq”* iborasining ma’nosi *“ko‘ngli g‘ash bo‘lmoq”* iboraning ma’nosiga teng,ya’ni *“tashvishlanmoq”* degan ma’noni ifodalab kelgan.Bu ibora hikoya qahramonining nimadandir qattiq tashvishda ekanligini ko‘rsatib berishda yozuvchiga yordamga kelgan.

Agar rozi bo‘lmasamchi?-dedi Otaqul to‘satdan to‘nini teskari kiyib olib *Shamsi Salohning jig‘iga tegmoqchi bo‘ldi*.(“Momoqo‘shiq” hikoyasi 115-bet)

Bu yerda qo‘llanilgan *“to‘nini teskari kiymoq”* iborasi asar qahramoni Otaqulning qasdma-qasdiga Shamsi Salohning jig‘iga tegmoqchilik holatini oddiygina so‘z bilan emas,ana shu ibora orqali ko‘rsatib berishda foydalanilgan.

Biroq birdan daming ichingga tushib,*to‘xtab qolding,ish joyingda maosh berayotganda keksa,injiq kassir yuz martalab sinchiklab tekshiradigan “Yashash joyi” degan varoqda 2ta uzun chiziqdan boshqa hech qanday belgi yo‘q edi*.(“Ozod qushlar” hikoyasi 42-bet)

Bu gapdagi *“dami ichiga tushib ketmoq”* iborasi asar qahramoniga nisbatan *“qo‘rquv aralash hech narsa deya olmay,lol bo‘lib qolmoq”* ma’nosida o‘sha vaziyatdagi kuchli his-hayajon holatiga,qo‘rquviga nisbatan ishlatilgan.

Muallif yuqorida tahlilga tortgan iboralarimizni tayyor holda olgan bo‘lsa ham,ularni o‘z asarlarida joyida qo‘llash orqali o‘z yozuvchilik mahoratini ko‘rsata bera olgan.Nazar Eshonqul qo‘llagan iboralarning barchasi obrazlilik va ekspressivlikning yorqin ifodasidir.Har qanday iborani qo‘llashdan maqsad oddiy bir so‘zni ham obrazli,badiiy,ekspressiv ruhda tinglovchiga yetkazishdan iborat.Bu bilan yozuvchi bir xil so‘zni ishlatishdan qochib,uni yanada boshqa qirralari bilan birgalikda yetkazadi.**Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki,**Nazar Eshonqulning hikoyalarida qo‘llanilgan xalqchil iboralar ijodkor mahorati orqali o‘z ma’no xususiyatini yana bir karra boyitgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Rahmatullayev.O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati.-”O‘qituvchi” nashriyoti, Toshkent 1978.
2. Nazar Eshonqul. Saylanma I. ”Akademnashr”, Toshkent 2022.

BADIIY MATNDA IBORALARNING QO‘LLANILISHI

N.Boqijonova, Qo‘qon DPI talabasi.
Ilmiy rahbar: M.Rahimova, PhD, dotsent, Qo‘qon DPI

Annotatsiya*: Ushbu maqola uslubiy xoslangan frazemalar haqida hamda badiiy uslubga xos frazemalar to‘g‘risida, badiiy adabiyotda frazemalarning o‘rni haqida ma’lumot beradi. Qolaversa, badiiy uslubga xos bo‘lgan ba’zi iboralar ma’nosi va ularning variantlari badiiy asarlardan keltirilgan parchalar orqali izohlanadi.*

Kalit so‘zlar*: Frazemalar, umumuslub frazemalar, uslubiy xoslangan frazemalar, adabiy nutq uchun xoslangan frazemalar, so‘zlashuv nutqi uchun xoslangan frazemalar, badiiy uslubga xos frazemalar, individual nutq frazemasi.*

Abstract: *This article provides information about stylistic idioms and artistic style idioms, the role of idioms in fiction. In addition, the meaning of some expressions characteristic of the artistic style and their variants are explained through excerpts from the works of art.*

Keywords*: idioms, general idioms, stylistic idioms, idioms for literary speech, idioms for colloquial speech, idioms for artistic style, idioms for individual speech.*

Bizga ma’lumki, frazemalar tilshunoslikning mustaqil bo‘limlaridan biri bo‘lgan frezologiyaning sohaviy birligi hisoblanadi va nutqda tayyor material sifatida qo‘llaniladi. Masalan:terisiga sig‘may ketmoq, arpasini hom o‘rmoq kabi.

Ma’lum bir uslub uchun xoslangan yoki uslubiy betaraf so‘zlar mavjud bo‘lganidek frazemalarni ham nutqning vazifaviy uslublariga ko‘ra umumuslub frazemalar va uslubiy xoslangan frazemalarga ajratib o‘rganamiz. Umumuslub frazemalar nutqning barcha vazifaviy uslublarida qo‘llanila oladi (gapiga uchmoq, ko‘ngli to‘q, yo‘ldan urmoq, vhkz). Uslubiy xoslangan frazemalar esa faqat ma’lum bir uslub doirasidagina qo‘llanilib, dastlab ikki ko‘rinishga ega:

1)Adabiy nutq uchun xoslangan frazemalar(sur'atni tezlashtirmoq, nurafshon bo‘lmoq, vhkz..)

2)So‘zlashuv nutqi uchun xoslangan frazemalar(gapida tutrig‘i yo‘q, qo‘sh uchirmoq, vhkz..)

Adabiy nutq uchun xoslangan frazemalar o‘z ichiga ommabop rasmiy uslubga xos (g‘oliblikni qo‘lga kiritmoq, ko‘z yummaslik...) va badiiy uslubga xos (gul-gul yashnamoq, ranggiga rang qo‘shilmoq...) iboralarni qamrab oladi.

Badiiy uslubga xos frazemalar badiiy asarlar tilida keng qo‘llaniluvchi iboralardir. Masalan: bahra olmoq, do‘ppisini osmonga otmoq, arpasini xom o‘rmoq kabi. Badiiy asarda eng muhim o‘rin tutuvchi va uning qiymatini yana ham oshiruvchi bu, albatta, ko‘chma ma’noli iboralardir. Chunki badiiy asarlarda ta’sirchanlik, bo‘yoqdorlik muhim hisoblanadi. Badiiy uslubning yana bir o‘ziga xos jihati shundaki, u nutqning barcha vazifaviy uslublarini o‘zida mujassamlashtiroladi. Demak, So‘zlashuv uslubidagi, publitsistik uslubdagi hatto rasmiy va ilmiy uslubga xos iboralarni ham badiiy asarlarda uchratishimiz mumkin.

Quyida badiiy uslubda keng qo‘llaniluvchi iboralar bilan misollar orqali tanishib chiqamiz.

Dumi xurjunda frazemasi o‘lda-jo‘lda tutmoq, chatoq degan manolarda qo‘llaniladi. Jabirdiydaning ham, guvohlarning ham Dumi xurjunda gaplari..... shunday savollar berishni davom etardi. (Mirzakarim Ismoil iy, "Farg‘ona tong o‘tguncha"). Dumi xurjunda ish qilib kelibsanda, ukam. (P. Tursun, "o‘qituvchi")

Anqoning tuxumi - topilishi qiyin, kamyob. Varianti - Anqoning urug‘i.

Ammo Ahmad Husayn bu shaharda uning yuzlarcha chaqirim tevaragida har qanday qora ish anqoning tuxumi ekanini yaxshi bilardi. (Oybek, "Nur qidirib")

"Bir og‘iz shirin so‘z Anqoning urug‘imi?" - deb o‘pkalandi. (A. Muhiddin, "Yuzga aytganning zahri yo‘q")

Qo‘lini yuvib qo‘ltiqqa urmoq iborasi ixlosi qaytib ishonmay qo‘ymoq, diqqat e’tiboridan soqit qilmoq manolarda qo‘llaniladi. Variantllari - qo‘lini yuvib qo‘ltig‘iga artmoq, qo‘lini qo‘ltig‘iga urmoq.

Po‘latjon i tuppa tuzuk yigit deb ixlosi qo‘yib yurgan edim hafsalam pir bo‘lib, qo‘limni qo‘ltig‘imga urib qo‘yganman. (Said Ahmad, "Qadrdon dalalar")

Yorug dunyodan qo‘limni yuvib qo‘ltiqqa urgan vaqtlarim bo‘lgan edi. (Asqad Muxtor, "Opa-singillar")

Do‘ppisini yarimta qilmoq - g‘am yemasdan, shod-xurram bo‘lib.

"Sessiya-sessiya deb qo‘rqitishda. Sessiyasi hech gap emas ekan-ku" - deb, do‘ppisini yarimta qilib yurishibdi. (Pirimqul Qodirov, "Uch ildiz")

Otimni boshqa qo‘yaman - biror ishni bajarishga qasd qilganlikni bildirish. (ma’lum darajada qasam ichish bilan teng)

Variantlari - nomimni boshqa qo‘yaman, otimni boshqa qo‘ying.

Boshlagan ishimni oxiriga olib borolmasam otimni boshqa qo‘yiaman. (Oydin, "Sadog‘ang bo‘lay, komandir")
Qizilqum kiyimlarini qiyratmasam, nomimni boshqa qo‘yganim bo‘lsin. (Shrof Rashidov, "Bo‘rondan kuchli")

Demak, frazemalar nutqqa tayyor holda olib kirilib ma’lum bir fikrni ifodalash uchun qo‘llanila ekan. Ammo frazemalar bir qarashda o‘zgarmasdek ko‘ringani bilan badiiy uslub bu chegarani ma’lum darajada kesib o‘toladi. Chunki yozuvchi hamda shoirlar nazmiy yoki nasriy asarlarda o‘z ifodalamoqchi bo‘lgan fikrlarini o‘quvchi ga to‘la yetkazib berish, asarning mazmun ko‘lamini kengaytirish maqsadida nutqdagi frazemalarga struktural yoki semantik o‘zgarishlar kiritadi, yoki umuman yangi ko‘chma ma’noli iboralar ijod qilishadi. Masalan:***gapni aylantirmoq, gapni burmoq*** frazemasi i Abdulla Qahhor quyidagicha ifodalaydi:
Saida aytmadi, gapni chalg‘itdi.

Yozuvchi Shuxratning "Oltin zanglamas" asarida "Atlas ko‘ylakli, kulgini yoqimli o‘sha qiz Qodir uchun oltin ***uzukning suvga tushib ketgan oltin ko‘zi bo‘ld***i " jumlasi berilgan. Bu jumla tarkibidagi" Oltin uzukning suvga tushib ketgan zumrad ko‘zi "frazemadir. Ammo bu frazema umumtilda uchramaydi. Ma’no jihatdan yo‘qolgan pichoqning sopi oltin iborasi ga teng keladi. Bunday frazemalar ham nutqning badiiy uslubiga xos va ular **individual nutq frazemasi** deb ataladi. Individual nutq frazemalari qo‘llangan asarlarning salmoqdorligi ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A. Berdialiev, R. Xidirov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Xo‘jand, 2013
2. I. Yo‘ldoshev, O‘. Sharipova. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: "Iqtisod-moliya",2007.
3. H. Jamolxonov . Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - Toshkent:"Talqin", 2005.
4. Sh. Rahmatullayev. O‘zbek izohli frezologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi.

O‘ZBEK TILIDA GAP SINONIMIYASI

B.Barataliyev, Qo‘qon DPI talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilida sinonimiya turlari, jumladan gap sinonimiyasi haqida fikrlar berilgan. Gap va uni belgilash mezonlari, gap sinonimiyasining o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar. Sinonim, gap, gap sinonimiyasi, mezon.

Abstract. This article gives ideas about the types of synonymy in the Uzbek language, including sentence synonymy. Information is provided on the sentence and its definition criteria, the specific features of the synonymy of the sentence.

Key words. Synonym, sentence, sentence synonym, criterion.

Sinonimiya — bir ma’nodagi so‘z, ibora, gaplarni turlicha shaklda ifodalash usuli bo‘lib, uslubiyatning bir turidir. Sinonimiyaning quyidagi turlari mavjud:

1. Leksik sinonimiya.
2. Morfologik sinonimiya.
3. Sintaktik sinonimiya.

Til bo‘limlari ichida uslubiy vositalarga, turli xil bo‘yoqlarni ifodalashga boy bo‘lgan soha — sintaksisdir.Sinonimik qatorlarda notiqlik, hissiyot va ta’siriy ma’nolargacha qo‘shimcha ma’nolar ifodalanadi [1: 180]..

Odatda, ayni bir fikrni ikki va undan ortiq sodda gap orqali, sodda va qo‘shma gap orqali, bir bosh bo‘lakli va ikki bosh bo‘lakli, darak va so‘roq gap vositasida, oddiy gap va murakkab gap orqali, to‘liq va to‘liqsiz gap yordamida, tasdiq va inkor gap vositasida berish mumkin.

Gap ma’lum bir fikrni o‘zida mujassamlashtirgan sintaktik butunlik hisoblanadi. Uning voqealanishida ohang katta ahamiyatga ega. Gap orqali ko‘zlangan fikrni tinglovchiga yetkaziladi. Ushbu ma’lumotlarni yetkazishda so‘zlovchi ma’lum fikrni turli ko‘rinishlarda ifoda etishi mumkin. Bu gaplar orasida ham ma’nodoshlik ya’ni sinonimik munosabat borligidan darak beradi. Ko‘rinadiki bu holat sintaktik sinonimiyani yuzaga keltiradi. O‘zbek adabiy tilining faktik

materiallariga tayanib, sintaktik sinonimiya haqidagi olimlar fikrini hisobga olgan holda, o‘zbek tilida sinonim gaplarning asosiy mezonlari sifatida quyidagilar belgilangan:

1. Leksik materialning bir-biriga yaqin va har ikki konstruksiya uchun umumiy bo‘lishi.
2. Sintaktik vazifasi jihatidan o‘zaro yaqin bo‘lishi.
3. Sintaktik strukturasi jihatidan farqlanishi.
4. Semantikasi jihatidan umumiy bir maqsadni ifoda etishi.
5. Stilistik funksiyasi jihatidan farqlanishi.

Sinonim gaplar oddiy tushunchadagi leksik sinonimlardan quyidagicha farqlanadi:

1. Leksik sinonimlar til birligi hisoblansa, sinonim gaplar nutq birligi hisoblanadi.

2. Leksik sinonimiya ko‘pincha, bir necha leksik birliklar o‘rtasida kuzatilsa, gap sinonimiyasi, asosan, ikki sintaktik butunlik o‘rtasida yuzaga chiqadi [2:64]. Bundan kelib chiqadiki, gaplar orasidagi sinonimik munosabatda ikki konstruksiya o‘rtasidagi mazmuniy yaqinlikka alohida e’tibor qaratiladi. Leksik sinonimiya hodisa bilganimizdek til birligi bo‘lganligi uchun tayyor holda tafakkur doiramizda yashaydi. Gap sinonimiyasini esa nutqiy vaziyatda, kontekstual jarayonda yuzaga keltirar ekanmiz.

Sinonim gaplarga quyidagi umumiy ta’rifni berish mumkin: tashqi tomoni — sintaktik qurilishi jihatidan har xil shakllangan, ichki tomoni — semantik xususiyati tomonidan bir-biriga yaqin bo‘lgan , ayrim qo‘shimcha ottenkalari bilan o‘zaro farqlanuvchi , lekin umumiy bir maqsadni ifodalash uchun xizmat qiladigan sintaktik konstruksiyalar sinonim gaplar deyiladi[2:64]. Sinonim gaplarga berilgan ta’rif shuni anglatib turibdiki, ushbu hodisa yuzaga kelishi uchun, albatta, mazmun jihatdan bir-biriga yondosh bo‘lgan ikki yoki undan ortiq gap kerak bo‘ladi. Har qanday gaplar ham bir-biriga sinonim sifatida qaralavermaydi. Yuqorida qayd etilgan qoliplarga mos bo‘lgan gaplargina gap sinonimiyasini hosil qiladi.

Gaplar bilamizki, tuzilishi jihatidan sodda va qo‘shma gaplarga ajratiladi. Gapning asosiy yadrosini ya’ni markazini tashkil qiluvchi kesim gaplarni ushbu turlarga ajratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqqan holda quyida sodda va qo‘shma gaplar orasidagi sinonimik munosabatlarga to‘xtalib o‘tamiz. Ma’lumki, bir xil strukturaga ega bo‘lgan gaplarning qayta-qayta qo‘llanishi tinglovchini o‘zidan zeriktiradi. Turli xil ko‘rinishdagi gap tuzilishlaridan foydalanishi bo‘lsa o‘quvchida qiziqishni kuchaytiradi, ma’lum qilinayotgan voqea-hodisa to‘g‘risidagi fikrning ta’sirchanligini oshiradi. Nutqdagi qaytariqlar bu, albatta, shu nutq tuzuvchisidagi salohiyatning kamligidan dalolat beradi. Gap tuzishdagi turli xillik esa nutqni bir xil qaytariqlardan holi qilishga yordam beradi.

Bir fikrni tuzilish jihatidan turli bo‘lgan gaplar orqali ifoda etish bilan ham sintaktik sinonimiya hodisasini yuzaga chiqarish mumkin. Bunday sinonimiya sodda va qo‘shma gaplar o‘rtasida kuzatiladi.

Sodda gapda harakat-holat yoki belgi-xususiyat murakkab tushuncha sifatida qayd etiladi, qo‘shma gapda esa ana shu tushuncha hukmga aylanadi, natijada tinglovchining diqqatini bir nuqtaga tortish imkoniyati tug‘iladi. Bunday imkoniyat faqat qo‘shma gapdagina mavjud:

Sodda gap :*Harakatsiz natija bo‘lmaydi.*

Qo‘shma gap: *Harakat bo‘lmasa, natija bo‘lmaydi*.

Sodda gap: *Men yosh to‘kish bekorligini bilaman.*

Qo‘shma gap: *Men bilaman: yosh to‘kish bekor.(Uyg‘un)*

Sodda gaplardan voqea-hodisalar yoki belgi-xususiyatlarning mavjudligini konstatatsiya qilish uchun foydalaniladi. Ba’zan ana shu voqea-hodisalar, belgi-xusiyatlar orasidagi mantiqiy bog‘lanishlar, ularga muallifning turli shaxsiy munosabatini ifodalash zarur bo‘lib qoladi. Ana shunday vaqtlarda qo‘shma gaplardan foydalanishga to‘g‘ri keladi.O‘zbek tilida izohlash munosabatiniifoda etuvchi qo‘shma gapning turi sodda gaplar bilan sinonimik qator hosil qiladi. Bunda qo‘shma gaplarni umumiy leksik tarkibini,asosan, saqlagan holda, sodda gapga aylantirish mumkin bo‘ladi. Izohlash munosabatini ifodalovchi qo‘shma gaplarning bir komponenti umumlashgan xarakterga ega bo‘ladi va u aytilishi bilan, qandaydir belgi-xususiyatga ega bo‘lgan narsa borligi idrok qilina boshlaydi. Bunday qo‘shma gap sodda gapga aylantirilganda, izoh talab qilmaydigan sintaktik konstruksiya hosil bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov. G‘, Xo‘jayeva D. Hozirgi o‘zbek adabiy tili — Toshkent. O‘qituvchi, 2003, 180-b
2. MamajonovA., Roziqova G. Gaplarning shakliy-mazmuniy tuzilishiga ko‘ra turlari.– Farg‘ona. 2004, 64-b

“SHAJARAI TAROKIMA” ASARIDA KELTIRILGAN AYRIM ONOMASTIK BIRLIKLAR TAHLILI

Fotima Muxammadiyeva Mansurovna
NavDPI O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti
3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Nuritdinova R. S.
NavDPI O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarai tarokima” asarida keltirilgan hayvon nomlari, qush nomlari va ayrim o‘simlik nomlarining mahalliy tilda nomlanishi to‘g‘risidagi misollarga to‘xtalamiz.

Kalit so‘zlar: “Shajarai tarokima”, “Devoni lug‘otit turk”, zoonimlar, fitonimlar, og‘uz qabilalari , turk, turkman qabilalarik.

XVI asrda yashagan Xiva xoni Abulg‘oziy Bahodirxonning ilk asari “Shajarai tarokima” nihoyatda qimmatli manba hisoblanadi. Unda og‘uz qabilalarining, turk, turkman qabilalarining kelib chiqishi, tarixini yoritishga qaratilgan. Biz esa asardagi onomastik nomlarga e’tiborimizni qaratdik.

O‘zbek tilshunosligida o‘zining tadqiqot predmeti, maqsadi va vazifalariga ega sohalaridan biri o‘zbek nomshunosligi – onomastikasidir. Tilimizning lug‘at tarkibida atoqli otlar ma’lum bir o‘rinni egallaydi. Kishilarning ismlari, familiyalari, otasining ismi, taxalluslari, shuningdek, geografik nomlar, ya’ni shahar, tuman, qishloq, tog‘, suv obyektlarining nomlari, hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlar atoqli otlar jumlasiga kiradi. Bular bir butun holda o‘zbek tilining onomastik birliklar tizimini tashkil qiladi. O‘rta Osiyo onomastikasi muammolari bilan shug‘ullanish ham qadimdan mavjud bo‘lgan. Bu sohaga oid ma’lumotlarni yoritishda Beruniyning asarlarida, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk”, Rashididdinning “Mo‘g‘ullar tarixi”, Narshaxiyning “Tarixi Buxoro”, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Alisher Navoiy asarlari, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Mirzo Muhammad Haydar Ayoziyning “Tarixiy Rashidiy”, Abdurahmon Samarqandiy, Hofiz Tanish Buxoriy, Abu Tohirxoja kabi ulug‘ ajdodlarimizning ilmiy merosidan, Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk”, “Shajarayi tarokima” kabi maxsus manbalardan, O‘rta Osiyo va uning xalqlari tarixi, ilm-fani va madaniyati, etnografiyasi va arxeologiyasiga oid ma’lumotlar keltirilgan.

Ma’lumki, hayvonlarga xos nomlar “zoonimlar” termini ostida yuritiladi. Zoonimlar atamasi ilk bor grek tilida paydo bo‘lgan va zoonimlarga doir ilk tadqiqot N.K.Dmitriev tomonidan olib borilgan. Turkiy xalqlarda zoonimlarning tadqiq etilish tarixi “Devoni lug‘otit turk” asariga borib taqaladi. Mahmud Qoshg‘ariyning bu asaridagi matnlar tarkibida 200ga yaqin hayvon nomlari, 100 ga yaqin qush nomlari uchraydi. “Shajarai tarokima” asaridagi hayvon nomlarining ko‘pchiligi bugungi kunda ham shunday ishlatilinadi. Asarda keltirilgan qush nomlarining asosiy qismi O‘g‘uzxon nabiralarining tamg‘asi ramzi sifatida keltirilgan bo‘lib, jami 25 tani tashkil etadi: shunqor, kuyka-nak, uki, ko‘bak sari, turumtoy, qarg‘u, qizil qarchig‘ay, ko‘chkin, qora lochin, saricha, bahri, xumoy, burgut, lochin, olato‘g‘anak, bug‘daynaq, xumoy, anchari, yo‘g‘albay, bayqu, qarchig‘ay, italg‘u, tuyg‘un, charaqarchig‘ay. Bundan tashqari asar ichida qirg‘avul, qarg‘a, tovuq nomlari ham berilgan. Asardagi hayvon nomlarining ko‘p qismi ovlanadigan, ulov sifatida foydalaniladigan, boqiladigan va ba’zi yovvoyi hayvon nomlaridan iboratdir.

Ot, teva, qo‘y, sig‘ir, it uyda boqiladigan, ulov sifatida foydalaniladigan hayvonlar sifatida keltirilgan. Misol: Otlarimiz va tevalarimiz barchasi o‘ldi. (22-bet). Shuningdek, asarda otning

turlaridan arg‘umoq ot ,to‘ruq ot, bo‘z ot, ko‘k ot, qora ot, chipor ot, do‘nan kabilarini keltiradi. Qo‘y turidan ,,sari serka’’ nomini ham uchratamiz.

Baliq, qunduz, kish, savsar, os, tin, baliq, kiyik kabi hayvonlar ovlanadigan hayvonlar sifatida keltirilgan. Misollar: Kish, savsar, os, tin, qunduz va suvda baliq, qirda kiyik,...ovlarlar. (35-bet).

Yovvoyi hayvonlardan bo‘ri, yo‘lbars, bars, shag‘al, qoplang, sher, fil, yilon, qabon (urg‘ochisi megajin) nomlari keltirilgan. Misollar:To‘rt oyoqli jon borki,etdin o‘zga nimarsa yemagay. Masalan, bo‘ri, yo‘lbars,qoplang.(46-bet) Xonim, megajinning eri qabon bo‘lur.(147-bet) Yig‘och bilan shag‘alni urdum ersa, qirg‘ovulni tashlab qochti.(23-bet)

Yana bir onomastik birlik fitonimlar (grekcha fito-o‘simlik +onoma -nom) ham e’tiborimizdan chetda qolmadi. Asarda fitonimlar ko‘p keltirilmagan, asosan, umumiy tarzda ,,ekinlar’’ deb aytib o‘tilgan. Yulg‘un,piyoz,qamish, bug‘doy, arpa,yuzum kabi o‘simlik nomlarini uchratdim,xolos . Misollar: Mo‘g‘ul yulg‘unni suqay der.(41-bet). Eshikning oldinda qamishli ulug‘ ko‘l bor erdi.(119-bet) Ekinlik va yuzum bog‘i va daraxtiston erdi.(126-bet) Quyg‘un tegan yergacha bug‘doy ekilur erdi.(161-bet) Mir arpa keltirdi-da,xalqg‘a jar qildi.

Xulosa qilib aytganda, “Shajarai tarokima” asari ko‘p jihatdan durdona asar. Asardagi turk qabilalari tarixi, xalq tilining xususiyatlari, onomastik birliklar har qanday soha vakilini jalb eta oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. .Tursunov U., O‘rinboyev B., Aliyev A. O‘zbek adabiy tili tarixi. – .O‘qituvchi. 1995.
2. Dadaboyev H., Hamidov Z., Xolmanova Z. O‘zbek adabiy tili leksikasi tarixi (XIV asr ikkinchi yarmi XX asr boshi). – T. Fan. 2007.
3. XIII-XIV asrlar turkiy adabiy yodgorliklar tili. Morfologiya. – T. 1986.
4. XV-XIX asrlar o‘zbek tili morfologiyasi. T. 1990.
5. “ Shajarai turk” Toshkent Cho‘lpon nashriyoti -1992

TARIXIY MANBALARDA DABUSQAL’A TOPONIMINING O‘RGANILISHI MASALASI

Durdona Qurbonova Adxamovna
NavDPI O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti
3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Nuritdinova R. S.
NavDPI O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

Annotasiya: Ushbu maqolada Samarqand viloyati Paxtachi tumanida joylashgan DabusqaL’a ziyoratgohi haqida tarixiy asarlardagi ma’lumot keltirilgan

Kalit so‘zlar: Dabus qaL’a, ziyoratgoh, tarixiy asarlar, Narshaxiy, Samarqand, Dabusiya

Har bir geografik joy borki, o‘zining joylashish o‘rni, nomi va uning kelib chiqish tarixiga ega. Xalq joyni nomlaydi. Joy shu nom bilan atalaveradi va vaqt o‘tishi bilan nega shunday nomlanganligi unutiladi. Keyin bu hududning nomlanishi haqida turli xil rivoyatlar, taxmin va farazlar kelib chiqadi. Kelajak avlod esa o‘zi yashab turgan hududning nima uchun bunday nomlanganligini bilishni xohlaydi.

O‘zbek tilshunosligida o‘zining tadqiqot predmeti, maqsadi va vazifalariga ega sohalaridan biri o‘zbek nomshunosligi – onomastikasidir. Tilimizning lug‘at tarkibida atoqli otlar ma’lum bir o‘rinni egallaydi. Kishilarning ismlari, familiyalari, otasining ismi, taxalluslari, shuningdek, geografik nomlar, ya’ni shahar, tuman, qishloq, tog‘, suv obyektlarining nomlari, hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlar atoqli otlar jumlasiga kiradi. Bular bir butun holda o‘zbek tilining onomastik birliklar tizimini tashkil qiladi.

Onomastika (yunoncha *ovonamaotixn – onomastikos* bo‘lib, “nom berish san’ati” degan ma’noni anglatadi) – tilshunoslik fanining tildagi har qanday atoqli otlarni o‘rganuvchi sohasi nomshunoslikdir.[147]

Onomastikaning tarkibiy qismi bo‘lgan toponimlar atoqli otlar doirasiga kiruvchi nomlar orasida salmoqli o‘rinni egallaydi. Toponim (yunoncha, *topos* – joy, o‘rin + *onoma* – atoqli ot so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, “joy nomi” degan ma’noni bildiradi.) – yer yuzasining quruqlik qismida joylashgan tabiiy-jug‘rofiy va sun’iy obyektlarning atoqli otidir.[148]

Dabus qaL’asi buyuk Turon tarixida o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Zarafshon daryosining sohilida, Paxtachi tumani hududida joylashgan bu qaL’aning tarixi uch ming yilga borib taqaladi.

Dobusiya haqidagi dastlabki tarixiy ma’lumotlar bizga arab tarixchisi Yaqubiy hamda vatandoshimiz Muhammad ibn Jafar Narshaxiylarning asarlaridan yetib kelgan. Bu haqida arxeolog Amriddin Berdimurodov internet nashrlaridagi maqolalarida xabar bergan. Maqolada Yaqubiy Sug‘d haqida gapirib, „Bu tarixiy o‘lka Samarqand, Dobusiya, Qushoniya, Kesh va Nasaflardan iborat“ligi haqidagi ma’lumotlarni keltirib o‘tganligi ta’kidlanadi. Narshaxiy esa o‘zining „Buxoro tarixi“ nomli asarida „Buxoroning podshosi yashagan ulkan qishloq Poykend deb atalgan, Dobusiya qaL’asini esa shahar deya atardilar“, — deb yozganligi keltiriladi. Tarixiy ma’lumotlarga tayanadigan bo‘lsak, demak, Dobusiyaning shakllanish tarixi Buxoro va Poykend shaharlari paydo bo‘lmasidan ilgari davrlarga borib taqaladi.

Dabusiya qaL’asi haqida yoritilgan rivoyatlar ham mavjud bo‘lib, ulardan biri shahar suv tizimi bilan bog‘liq. Shahar qamalga olinib, suv kirishi to‘xtatilgan paytda ham yashirin suv yo‘li bo‘lganligi va shahar suvsiz qolmaganligi qiziq ma’lumotlar sirasiga kiradi.

Buyuk arab tarixchisi va geografi Abulfaraj Qudama va Ibn Xurdodbehning ma’lumotiga ko‘ra, shahar eramizdan oldingi 329-323 yillar orasida qaytadan bunyod etilgan.

X asrda yashab ijod etgan Abdulfaraj ibn Jafar Qudama al-Basriy al-Bag‘dodiyning bundan ming yil oldin yozilgan "Kitob ul-xiroj va san'at al-kitobiya" asarida Dabusiya nomi bilan ataladigan qadimiy shahar Iskandar tomonidan qurilganligi to‘g‘risida rivoyat keltirilgan.

Bundan tashqari X asrda yashab o‘tgan ulug‘ tarixchi Abubakr Muhammad ibni Jafar ibn Zakariyo ibn Xattob ibn Sharik hamusiy shahri to‘g‘risida qimmatbaho ma’lumot qoldirgan.

XVII asrda yashagan ulug‘ olim Muhammad G‘iyosning ilmiy qarashidan xulosa chiqarish mumkinki, shahar temirday mustahkam qilib qurilgani uchun ham shu nom bilan atalgan. Shuningdek, "Farhangi zaboni tojiki" da ham Dabus-zo‘r, to‘qmoq, ustun ma’nolarini ifodalaydi va shahar har jihatdan mustahkam qilib bunyod etilganini bildiradi.

Ibn Xurdodbek turli mavzularda ko‘plab asarlar yaratgan yirik olim. Ibn Xurdodbek 846-yilda yozib tamomlagan "Kitob al masolik va-l mamolik" asarida Dabusiy shahri to‘g‘risida ma’lumot keltirgan.

Al Yaqubiy o‘zining 891- yilda yozilgan "Kitob al-buldon" asarida Dabusiya haqida shunday ta’rif bergan: "Buxorodan Sug‘diyona poytaxtigacha 7 manzil. Sug‘diyona shaharlari bepoyon: dushman tig‘i o‘tmaydigan, mustahkam va mashhur shaharlar hisoblangan Dabusiy, Kushoniya, Kiss, Nasaf va Naxshab unga tegishlidir"

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Dabus qaL’a katta tarixga ega shahar ekanligi tarixiy asarlardan ma’lumdir. Bugungi kunda shahar qoldiqlari saqlanib qolgan bo‘lib, ular bizga uzoq o‘tmishni, xususan, Iskandar besh panjasi deb ataluvchi tosh yuzasidagi iz keltirilgan ma’lumotlar rost ekanligiga ishora qiladi.

1. Bugungi kunga kelib kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi natijasida muayyan til birligi hisoblangan toponimlarni saqlab qolish, uning o‘rganilish doirasini kengaytirish, uni milliy til korpusining bir qismi sifatida tadqiq etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Korpus – tilni tadqiq etish, til o‘rganish, lug‘at tuzishda eng zamonaviy, keng imkoniyatli dasturlashtirilgan tizimdir. Bu tizimda toponimlarni yig‘ish, ularning qo‘llanilish doirasini ko‘rsatish va, albatta, ularning

[147] Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006, 60-б.
[148] Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006, 76-b.

lingvistik xususiyatlarini tahlili qilish orqali lug‘atlar tuzish mumkin. Yaratilgan toponimlar korpusida nomlarning qo‘llanish ko‘lami va ularning chastotasi, to‘g‘ri yozilishi, grammatik tuzilishi va struktural modellari, yasalishida ishtirok etgan topoasos, toposhakl hamda toponimik aniqlagichlarning ifodalanish holati, ma’noviy-etimologik xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, til korpusida mavjud toponimlarning tarixiy taraqqiyotini, ijtimoiy-madaniy, geografik, etnografik xususiyatlarini, statistikasini ham ko‘rsatib, undan foydalanuvchilarga bu kabi ma’lumotlarga ega bilish imkoniyatini yaratish ham mumkin. Yana shuni alohida ta’kidlab o‘tishimiz kerakki, toponimlar orqali hududning tarixini, u bilan bog‘liq bo‘lgan turli davrlarda yuz bergan voqea-hodisalarni, tarixiy shaxslar va u yerda yashagan xalqlarning etnik xususiyatlarini, tabiiy-geografik shart-sharoitini, joylashish o‘rnini, xaritasini, aholining joylashish holatini, ijtimoiy ahvolini, milliy qadriyatlarini hamda huhud nomining o‘zgarishga uchrab boshqa nomlar bilan atalish jarayonlarini ham bilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Fan, 1960. – 512 b.
2. Yo‘ldoshev B. O‘zbek onomastikasi masalalari / Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand. 2012. – 112 b.
3. Karimov S.A., Bo‘riyev S.N. O‘zbek toponimikasi taraqqiyot bosqichida. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2006. – 131 b.
4. Enazarov T. Toponimlarni etimologik tadqiq qilishning ilmiy-nazariy va amaliy-uslubiy asoslari. I kitob (Turkiy toponimlar misolida). – Toshkent, 2001. – 128-b.
5. Enazarov T. Nomshunoslik masalalari. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Universitet, 2010. – 112 b.
6. Sanayev. Ziyovuddin tarixi "Sharq" nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati T. 1995. B. 232-235
7. "Dabusiya" O‘zME. Birinchi jild. Toshkent. 2000-yil

“ALISHER NAVOIY” ROMANI LEKSIKASINING SEMANTIK-STILISTIK XUSUSIYATLARI

Abdullayeva Yulduz Izzatullayevna
Tel:+998932923585
E-mail: yulduza359@gmail.com
Ilmiy rahbar: dots. F.I.Nurmanov
E-mail: nurmonov.f@gmail.com
Tel: (+99897) 366-45-22

Annotatsiya: ushbu maqolada Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanidagi ijtimoiy-siyosiy hayotning turli sohalariga doir tushunchalarni aks ettiruvchi leksik birliklarning semantik-stilistik xususiyatlari tahlil etilgan.

Аннотация: в данной статье анализируются семантико-стилистические особенности лексических единиц, отражающих понятия различных сфер общественно-политической жизни в романе Исаджона Султана «Алишер Навои».

Abstract: this article analyzes the semantic-stylistic features of lexical units that reflect the concepts of various spheres of social and political life in Isajon Sultan's novel "Alisher Navoiy".

Kalit so‘zlar: badiiy matn, badiiy so‘z, linvopoetika, semantik-stilistik xususiyat, ma’nodoshlik, shakldoshlik, toponim, etnonim, antroponim.

Ключевые слова: художественный текст, художественное слово, линвопоэтика, семантико-стилистическая особенность, смысловое сходство, форменное сходство, топоним, этноним, антропоним.

Key words: artistic text, artistic word, linvopoetics, semantic-stylistic feature, semantic similarity, form similarity, toponym, ethnonym, anthroponym.

Poetika atamasi yunoncha roetika, ya'ni poetik so'zidan olingan bo'lib, bu eng qadimiy atamalardan biridir. Lingvopoetika atamasi ham badiiy adabiyot, xususan, she'riy asarlarning til xususiyatlarini o'rganish, so'z va gaplar, iboralarning asar go'zalligini, poetik san'atlarini yuzaga chiqarish, ta'sirchanligini ta'minlashni o'rganuvchi fan sifatida qaraladi [1;– Б. 5.]

Badiiy matn mazmuni uning strukturasidagi so'zlarning semantik-stilistik xususiyatlari bilan oydinlashadi. Demak, badiiy matnning lingvopoetik tahlilida so'z alohida o'rin tutar ekan, uni qo'llashning san'at darajasida yoki san'atdarajasida emasligini baholash uchun, eng avvalo, so'z, uning ma'nosi va bu ma'noning tuzilishini aniq tasavvur qilish lozim. Albatta, so'zning qo'llanishi bilan bog'liq holda yuzaga chiqadigan qo'shimcha ma'no nozikliklari, mazmun o'zgachaliklari turli tasvir usullari va vositalari orqali reallashadi. Ammo bunday qo'shimcha ma'no nozikliklari aksar hollarda, avvalo, so'z ma'no qurilishining o'zida imkoniyat sifatida mavjud bo'ladi, ular so'zning ma'no qurilishi tarkibida ilgaridan qayd etilgan bo'ladi, umuman, badiiy ma'nolar ular asosida yuzaga keladi.

Badiiy matn va uning linvopoetikasiga oid tadqiqotlarda keltirilishicha, "tilshunoslik fani badiiy adabiyot bilan uzviy aloqadadir. Chunki til aloqa vositasi sifatida muayyan axborot tashuvchi oddiy belgilar sistemasigina bo'lib qolmay, balki tinglovchiga ta'sir qiluvchi qudratli vosita hamdir. Tilning birinchi funksiyasi an'anaviy va sistem-struktur tilshunoslikning o'rganish obyekti bo'lsa, ikkinchi funksiyasi lingvopoetikaning o'rganish obyektidir". [2; – Б. 151–152.].

Matn muallifining tildan foydalanish mahorati badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilish jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Bunda emotsional-ekspressiv ifoda semalari reallashgan leksik birliklarni aniqlash va ular adibning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilganiga e'tiborni qaratish kerak. Chunki badiiy matnda so'zdagi konnotativ ma'no muhim, bu konnotativ ma'noni harakatga keltirish, unga asoslangan holda yaxlit badiiy mazmunga xizmat qiladigan original badiiy ma'nolarni yuzaga keltirish yozuvchining mahoratiga bog'liq.

Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romani leksikasi ko'lami, qo'llangan leksik birliklarning qamrovi nuqtai nazardan quyidagi semantik guruhlarni o'z ichiga oladi[149][3; -B.4]:

1) antroponimlar: Siz go'zalligiga qaraybering, men ta'miga qaray,- dedi *Muhammad Ali tag'oyi*.[4-b]

2) toponimlar: *Hiriydan* chiqib, yo'l yursangiz ham mo'l yurib *Maymana*, *Andxo'y* o'tgach, Jayhunga rost kelgaysiz., [5-b]

3) etnonimlar: iqtidorda ulardan sira kamchiligi yo'q, ortiq bo'lsa ortiq *turkiy* saltanat butun shonshavkati ila ko'rklansa-da, unday xazinasi yo'qtur, maqtanolmas, o'ksik qolmoqdadir.[33-b]

4) zoonimlar: falakni sarkash *ot* sag'risiga aylantiradi, uning hilolidan o't sachrovchi taqalar yaratadi.[40-b]

5) gidronimlar: Ha-a, shunday gaplar ham borki, aytganing zahoti tiling kuyib ketadi, boshing *ariqqa* yumalaydi! [179-b]

6) teonimlar: Ulardan har birining *ruhi* jannat bog'ida. [289-b]

7) astronimlar: durlari *yulduzlar* gavharlaridan porloqroq, va bir gulshan yo'liqdi, gullari yuksak *yulduz*dan dur sochuvchiroq. [416-b]

8) ijtimoiy-siyosiy terminlar: bir necha *vazir* bilan Alisher Navoiy *sulton* Husayn yonida edilar. [187-b]

9) harbiy terminlar: Husayn Mirzo *qilich*ini tutamlab qattiq hayqirdi.)[190-b]

10) qavm-qarindoshlik terminlari: har kim o'z uyiga, *ota-onasi*, ahli ayoli, farzandlari qoshiga borsin![162-b]

11) inson tana a'zolari nomlari: Alishoh kulgisini soqol silash bahona *barmoq*lari bilan yashirib, javob qildi…[182-b]

[149] Keyingi o'rinlarda asar sahifasi ko'rsatiladi.

12) moliya-soliq terminlari: siz nima uchun omonat hayotga munchalik koʻngil qoʻyib, kelajak olti oylik *maosh*ni talab qilasiz) [250-b]

13) adabiyot bilan bogʻliq istilohlar: maktub, odobga koʻra *bayt* ila boshlangan edi… [412-b]

14) ichimlik va ichkilik nomlari: barchasi tuzli *suv*ga botirib toblangan boʻlib, maʼlumki, bunday oʻq sovutni oson teshadi) [85-b]

15) vaqt tushunchasini ifodalovchi soʻzlar: El boshiga Abusaid *zamon*idan ham battarroq kunlar kelsin.[217-b]

16) tabiat hodisalarini bildiruvchi soʻzlar: Boʻm-boʻsh in esa hamal *shamol*larida xasday sochildi. [256-b]

17) rang-tus bildiruvchi soʻzlar: Kulfat tikanlaridan *qizil* gular. [273-b]

18) hisob soʻzlari: …ellik *botmon* bugʻdoy hosil oldi… [146-b]

19) oʻrin-joy nomlari: Koʻcha-koʻyda, davralarda, bazmlarda-yu *bozor*larda kishilar shuni gapirishardi. [158-b]

Nutqda soʻzlarning asosiy koʻpchiligi polisemantik hisoblanadi. Odatda, har bir soʻz maʼlum bir predmet, belgi kabilarning atamasi sifatida paydo boʻladi.Keyinchalik u boshqa turdagi predmet, belgilarga tatbiq qilinadi, natijada soʻzl eksik maʼnosida siljish sodir boʻladi. Ana shunday taraqqiyotning oqibatlaridan biri sifatida monosemantik soʻz polisemantik soʻzga aylanadi.

Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romaninida koʻp maʼnolilikning turli koʻrinishlari, aniqrogʻi,koʻchimning turli bosqichlari uchraydi. A.Navoiyning oʻz davrida xalqning jonli tiliga yaqin uslubda ijod qilganini ushbu roman matnida yaqqol koʻrish mumkin: Maysalar bir-biri bilan *tomirlari* orqali *soʻzlashishadi*. Yer ostida oʻzaro *chatishgan* minglab oqish *tomirchalar* oʻt-oʻlanu giyohlarning *soʻzlashuv tolalaridir*. Tuproq aro shunchalar koʻp *neʼmat* toʻplanganki, *tomirlar* u *quvvat*ni *soʻrib olib, novda*lari kuchga toʻlayotganida, oʻzi tun oʻtib sal oʻsib qolganida masrurlikdan *shodlanadi.* Bu *oʻsish-ulgʻayish* yana bir ulugʻ hodisaga tayyorgarlik ekani uni *mast qiladi*.. [3;-B. 2]

Keltirilgan parchada koʻp maʼnoli soʻzlar ayrimlari oʻz maʼnosida (*tomir,chatishmoq, neʼmat, quvvat, novda,*), ayrimlari koʻchma maʼnoda (*soʻzlashish, soʻzlashuv tolalari, shodlanmoq, oʻsish-ulgʻayish,shodlanmoq, mast qilmoq*) kelgan. Asosan metoforik usul asosida soʻz maʼnosining koʻchishi oʻquvchi emotsional tasavvuriga kuchli taʼsir etib, matn mazmunini aniq anglashga hamda taʼsirchanligini kuchaytirishga xizmat qilgan.

Koʻp maʼnoli soʻzlar nutqning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishga koʻmaklashuvchi lisoniy vositadir. Badiiy matnda yozuvchining mahorati bilan bir soʻzning birdan ortiq maʼnosi harakatga keltiriladi va ayni soʻz obrazlilikni taʼminlashda ishtirok etadi.

Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani matnida uchraydigan leksik birliklarning asosiy qismi koʻp maʼnoli, yaʼni polisemantik soʻzlardir. Ularning ayrimlarini koʻzdan kechiramiz.

Tomir. OʻTILda oʻz manosida odam va hayvonlar tanasida qon yoki limfa oqadigan naysimon aʼzo. Romanda bu soʻz maʼnosida semantik-stilistik oʻzgarishlar yuz bergan holda qoʻllanilgan. Masalan, quyidagi maʼnolarda:

- Ildiz maʼnosida: Maysalar bir-biri bilan tomirlari orqali soʻzlashishadi.[3;-B.2]
- Limfa qon tomir maʼnosida: Husayn Mirzo vujudlarni kuydiruvchi may kabi sarxush qilib, tomirlarda qonni joʻshtiradigan jang shavqidan mast, ot ustida vaziyatni kuzatardi. [3;-B.187]

Demak, Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani soʻz boyligi lingvostatistikasi juda keng. Asarda turkiy leksemalardan tashqari arabcha, fors-tojikcha, moʻgʻulcha kabisoʻlar koplab uchraydi. Roman leksikasining mavzuviy guruhlari turli-tuman boʻlib, ularda ijtimoiy hayotning turli sohalariga doir tushunchalarni aks ettiruvchi leksik birliklar qamrab olingan: ijtimoiy-siyosiy, maishiy, antroponimlar, toponimlar, etnonimlar, qavm-qarindoshni bildiruvchi soʻzlar, taʼlim-tarbiyani ifodalovchi istilohlar kabi. Asar tilida eng salmoqli oʻrin tutgan guruh ijtimoiy-sièsiy

leksika bo‘lib, buni voqealar rivoji, davri, siyosiy jarayonlar, madaniy-maishiy hayotdagi o‘zgarishlar natijasi sifatida baholash lozim.

ADABIYOTLAR

1. Shukurov A., Rayimov Q. She’riy matnning lingvopoetik tahlili. – Termiz, 2016. – B. 5.
2. Nurmonov A., Iskandarova Sh. Tilshunoslik nazariyasi. O‘quv qo‘llanmasi (magistrlar uchun). – Toshkent, 2008. – B. 151–152.].
3. Isajon Sulton “Alisher Navoiy” romani. Toshkent: “Adabiyot” nashriyoti,2021

ALISHER NAVOIY ASARLARINING AYRIM LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Ibodullayeva Marjona
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti
206-guruh talabasi
Telefon:+99894-378-52-62
E-mail: marjonaibodullayeva@icloud.com
Nurmanov Furqat Ismoilovich
Navoiy davlat pedagogika instituti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti
E-mail: nurmonov.f@gmail.com
Tel: (+99897) 366-45-22

Annotatsiya: ushbu maqolada turkiy adabiy til asoschisi Alisher Navoiy asarining ayrim fonetik, leksik, morfologok xususiyatlari yuzasidan tadqiqiotlardagi ilmiy-amaliy xulosalar tahlil etilgan.

Аннотация: в данной статье анализируются научные и практические выводы исследования некоторых фонетических, лексических, морфологических особенностей творчества Алишера Навои, основоположника турецкого литературного языка.

Annotation: in this article, the scientific and practical conclusions of research on some phonetic, lexical, morphological features of Alisher Navoi's work, the founder of the Turkish literary language, are analyzed.

Kalit so‘zlar: nutq tovushlari, grammatik qurilish, so‘z yasalishi, eskirgan so‘zlar, til va nutq birliklari.

Ключевые слова: звуки речи, грамматическая конструкция, словообразование, устаревшие слова, язык и речевые единицы.

Key words: speech sounds, grammatical construction, word formation, obsolete words, language and speech units.

Alisher Navoiy hayoti, shaxsiy fazilatlari, faoliyati, ko‘p qirrali merosini bilish va anglashga intilish moziydan hozirgi kunga qadar davom etib kelmoqda. Chunki ulug‘ o‘zbek shoiri, nosiri, mutafakkiri, davlat arbobi, ma’rifatparvari, ijod ahlining murabbiysi, fuqaro g‘amxo‘ri, mamlakat yaxlitligi, tinchligi va osoyishtaligining tolmas kurashchisi Nizomiddin Amir Alisher Navoiy o‘zining ko‘p qirrali faoliyati bilan mamlakat va xalq taqdiri, ilm-ma’rifat, she’riyat va ma’naviyat tarixida alohida mavqega ega bo‘lgan benazir siymodir.

Allomaning teran tafakkuri va bepoyon badiiy taxayyuli mahsuli bo‘lmish benazir so‘z durdonalari tilimizning butun salohiyatini namoyon etuvchi ulkan qomusdir.

Fransuz olimi M.Bellin 1861-yildayoq: “Alisher Navoiy o‘z milliy tilining afzalliklarrini inkor etib bo‘lmaydigan dalillar bilan isbot etganligi – o‘z xalqi orasida vatanparvarlikni boshlab berganligidan dalolatdir, [1;-Б.26]”– deb uqtirgan edi.

«O‘zbek adabiy tili tarixi” – til tarixi fanlarining muhim bo‘limlaridan birini tashkil etadi. Bu fan hozirgi o‘zbek adabiy tilining ichki imkoniyatlarini ochib berishda, “Qadimgi turkiy til”, “O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi”, “Turkiy filologiyaga kirish” fanlari bilan birgalikda, muhim o‘rin tutadi. Alisher Navoiy asarlarinin til xususiyatlarini o‘rganish esa “O‘zbek adabiy tili tarixi” fanining zarur bo‘g‘inlaridan biri sanaladi.

Alisher Navoiy ijodini, uning asarlari tilini o‘rganish xorijiy mamlakatlarda, turkiyshunoslikda va o‘zbek tilshunosligida ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi [2].

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning adabiy tilning ravnaqi uchun olib borgan kurashi madaniyatimiz tarixida muhim o‘rin tutadi. U chinakam vatanparvar shoir va olim sifatida xalq tilining bitmas-tuganmas manbalaridan foydalanish, uning boyligi va nafisligini namoyish etish bilan nafaqat o‘z zamondoshlariga, balki undan keyingi butun avlodga o‘rnak ko‘rsatdi.

O‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropada latin tili, sharqiy va janubiy slavyanlarda cherkov-slavyan tili xalqaro til hisoblanganidek, musulmon olamining sharqida arab tili xalqaro til sifatida qo‘llandi. O‘rta Osiyoning dunyoga mashhur olimlari – Abu Ali ibn Muso al-Xorazmiy, Abunasr Farobiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Ali ibn Sino, Aburayhon Beruniy va boshqalar ilm-fanning turli sohalarini qamrab oluvchi asarlarini arab tilida yozdilar. Turkiy til, uning ravnaqi uchun umri davomida kurashgan Alisher Navoiy ham asarlari nomi va asarlari matnida arab, fors-tojik tillari elementlari ko‘plab uchraydi.

Navoiy “nutq tovushi”ni *ün* deb ataydi. Tovushga nisbatan “ingichka” (*inčkä ün*), “kuchli” (*biyik ün*) sifatlarini qo‘llaydi. Jumladan, *inčkirmäk* so‘zining talaffuziga to‘xtalib: “ingichka un bilan yig‘lamoqdir” (*inčkä ün bilä yïğlamaqdur*), - deya ta’kidlaydi. *Ökürmäk* so‘ziga esa: “...kuchli un bilan, tengsiz un bilan yig‘lagaylar” (*biyik ün biläki, etidälsiz äšüb bilä yïğlağaylar*), - deya ta’rif beradi.[3;-Б.17]

Alloma “Муҳокамату-л-луғатайн” asarida garammatik qurilishi har xil ikki tilni (eski o‘zbek tili va fors-tojik tili) o‘zaro qiyoslaydi. Asarda XV asr o‘zbek tilining keng lisoniy imkoniyatlari, kommunikativ doirasi muhim ashyoviy dalillar bilan bayon qilingan. Asarning 2017-yilda Q.Sodiqov tahlili,tadbili, talqinida keltilishicha, “Muhokamatu-l-lug‘atayn” – tilshunoslik asari. Muallif ushbu risolasi bilan turkiy tilshunoslik tarixiga o‘zining katta ulushini qo‘shdi. Navoiyning ushbu asarni yozishdan niyati turli oilaga tegishli ikki buyuk til – turkiy va fors tilini (*fārsî, fārsî til, sart tili, sart lafzï* deb ataydi uni) shunchaki chog‘ishtirib chiqish emas. Uning maqsadi turkiyning fonetik, lug‘aviy, morfologik va uslubiy imkoniyatlari cheksiz ekanligi, uning badiiy adabiyotda ham, davlat ishlari, diplomatik munosabatlarda, fan sohasida ham to‘la javob bera olishini ilmiy jihatdan asoslab berish edi. Shuning uchun ham u til faktlarini ilmiy nuqtai nazardan tahlil etadi.

O‘zbek tilshunosligida so‘z yasalishi mustaqil va alohida soha sifatida XX asrning ikkinchi yarimlarida shakllangan bo‘lsa-da, “Muhokamatu-l-lug‘atayn”da Navoiy tilshunoslikning bu sohasi haqidagi dastlabki ilmiy sharhi beriladi. Masalan, u -*chi* yasovchi vositasining imkoniyati kengligi, asos qismga qo‘shilib, bu qismning ma’nosi bilan bog‘liq turli shaxs otlarini hosil qilishini aytib o‘tadi va quyidagi misollar bilan fikrini dalillaydi: *qo‘ruqchi, tamg‘achi, jibachi, yo‘rg‘achi, kemachi, qo‘ychi, turnachi, kiyikchi, tovushqonchi* va boshqalar.

Tadqiqotlarda Alisher Navoiyning “Majolisun-nafois” asarida fors-tojikcha so‘zlarning ko‘lami turkiy so‘zlarnikiga qaraganda bir muncha ko‘pdir. Buning sababi uzoq tarixda eroniy tilli xalqlar bilan turk ulusining aloqalari ildizi juda qadimiy ekanligidadir.

Alisher Navoiyning “Majolisun-nafois” asari leksikada *abr, avbosh, agar, agarchi,amakizoda, andoz, afsona, afsun, ashk, ashkbor, ba, bag‘oyat, bag‘ir, bad, badbaxt, bajo, bazmgoh, bayram, baland, balki//balkim* kabi sof forsiy so‘zlar; *bemor, bebadal, bebahra,*

amaldor, badfe‘l,bahramand, beadad, beaql, bevafo, bevosita, benazir, benasib, betakalluf, betob kabi arabcha-forcha so‘zlar ko‘plab uchraydi.

Alisher Navoiy asarlarida bir qancha leksik arxaizmlar ham uchraydi: Masalan, qamuq (hamma). Bu so‘z Urxun-Enasoy yodgorliklarida, “Qutadg‘u bilig”da Mahmud Ko‘shg‘ariy lugatida “Qisasi Rabg‘uziy”da va “Muhabbatnoma”da ham uchraydi.

Arig‘ (toza). Bu so‘z Mahmud Koshg‘ariyda arig‘, “Xisrav va Shirin” va “Muhabbatnoma”da arig‘ va ari shaklida ishlatilgan.

Ug‘an (xudo), ukush (ko‘p), öksuk (kam), qayu (qaysi), bitpig (xat). Bu so‘zlar ham yuqoridagi asarlar tilida va Navoiy asarlari tilida uchraydi.

Umuman, Navoiy eski o‘zbek adabiy tilining leksik va grammatik xususiyatlarini meyorlashtirar ekan, u bu tilning badiiy asarlar yaratish uchun keng imkoniyatlarga ega ekanini isbot qilish, o‘zbek yozuvchilarini o‘z ona tilida ijod etishga da‘vat etadi.

Navoiy asarlari tilida ishlatilgan ba’zi grammatik shakllar hozirgi ayrim o‘zbek shevalarida ham uchraydi. Masalan, o‘tgan zamon fe‘lining –mish/-mish qo‘shimchali shakli: olmisham (bo‘ldim), tapmisham (topdim), qilmamish (qilmadi), bag‘lamishmen (bog‘ladim), tapmamishlar (topmadilar) kabi.

Ul mayni ichib yolingda bast o‘lmishmen,

Hay-hay ne dedim, magarki mast bo‘lmishmen.

(Favoyidul-kibar).

Hozirgi-kelasi zamon feli I shaxs birligining qisqargan shakllari baruram (boraman), o‘param (o‘paman), qilman (qilmayman) kabi.

Ataliq haqi uchun bordur aroda,

Ijozat istaram bu mojaroda.

(Navodirush-shabob).

Turub ma‘ruzda so‘z qaddimni bilman,

Javab ayturg‘a o‘z haddimni bilman.

(Navodirush-shabob.)

Umuman, Alisher Navoiy arab, fors-tojik tiliga oid leksemalar va shu tillarning leksik va grammatik normalaridan samarali foydalanadi. Hatto, hamma asarlariga arabcha nom beradi. O‘z asarlarida ko‘plab arabcha so‘zlarni qo‘llaydi, grammatik shakl va ko‘rsatkichlardan unumli foydalanadi. Shuningdek, turkey til va bu tilning o‘ziga xos fonetik, leksik, grammatik jihatlari tahliliga mukammal to‘xtalib, olim sifatida o‘zbek adabiy tilini boyitdi. U nasriy asarlarini dabdabali uslubdan ko‘ra ko‘prok xalq tiliga xos uslubda yaratdi.

ADABIYOTLAR

1. Қодиров П. Тил ва эл. –Тошкент: Маънавият, 2010.
2. Бафоев Б. Алишер Навоий лексикаси, Тошкент: Фан, 1983; Дониёров Х. Алишер Навоий тилининг диалектал асосларини ўрганиш масаласига доир (унлилар системаси ҳақида)// Навоий ва адабий таъсир масалалари. -Тошкент, 1968; Абдуллаев Ф. XV аср ўзбек адабий тилининг диалектал асослари масаласи // Навоий ва адабий таъсир масалалари. — Т.: 1968; Аширбоев С. Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг таркибий ва маъно хусусиятлари: Филол.фанлари д-ри... дис. -

Тошкент, 1990; Азимов И. Алишер Навоийнинг насрий асарларида кесим марказли бир бош булакли гапларнинг шаклий ва мазмуний хусусиятлари: Филол.фанлари номзоди...дис. -Тошкент: 2000.
3. Alisher Navoiy “Muhokamatu-l-lug‘atayn” (Qosimjon Sodiqov tahlili, tabdili va talqini ostida). Toshkent, “Akademnashr”. 2017.

KESIMLIK KATEGORIYASI - FIKRNI SHAKLLANTIRUVCHI ENG MUHIM LISONIY VOSITA

Karimova Inobat
karimovainobat60@gmail.com
+998949864686
Ilmiy rahbar: dots. F.I.Nurmanov
E-mail: nurmonov.f@gmail.com
Tel: (+99897) 366-45-22

Annotatsiya: maqolada matn tarkibi va uni tashkil etuvchi qismlar, ularning grammatik shakllanishi hamda gap kengaytiruvchisi yuzasidan ilmiy-nazariy adabiyotlardagi amaliy xulosalar tahlil etilgan.

Аннотация: в статье анализируются практические выводы научно-теоретической литературы о структуре текста и его составных частей, их грамматическом образовании и расширителе предложения.

Annotation: the article analyzes practical conclusions in scientific and theoretical literature on the structure of the text and its constituent parts, their grammatical formation and sentence expander.

Kalit so‘zlar: gap bo‘laklari, matn, kesim, ikkinchi darajali bo‘laklar, sintaksis, gap kengaytiruvchisi.

Ключевые слова: предложения, текст, предложение, второстепенные предложения, синтаксис, расширитель предложения.

Key words: clauses, text, clause, secondary clauses, syntax, sentence expander.

Matn tarkibini tashkil etuvchi bo‘laklar, ularning grammatik shakllanishi va o‘zaro munosabatini tadqiq etish o‘zbek tilshunosligidagi eng tadqiqqottalab masalalalrdan biri sanaladi.

O‘zbek tilshunosligi fanining sintaksis bo‘limi ilk bor Fitrat tomonidan “Nahv” atamasi ostida mustaqil bo‘lim sifatida o‘rganildi. Shundan so‘ng o‘zbek tilshunosligi tarixida ilk marta “Sintaksis” nomi ostidagi maktab grammatikasi O.Usmonov va B.Avizovlar tomonidan nashr etildi (1939). Ta’kidlash kerakki, mazkur darsliklar o‘zbek tilining sintaktik qurilishi yuzasidan izchil ma’lumot beruvchi ilk asarlar sifatida qadrlidir. Lekin ular o‘rta maktab ta’limi uchun mo‘ljallanganligi sababli, amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, sintaksis hodisalarini chuqur ilmiy tahlil qilishni maqsad qilib qo‘ymagan edi.

O‘zbek tili sintaktik birliklarini ilmiy asosda atroflicha o‘rganish XX asrning 40-yillaridan boshlandi. Sintaktik sath birliklarini ilmiy asosda chuqur o‘rganish ham A.G‘ulomov nomi bilan bog‘liq. Olim 1942 -yilda “O‘zbek tilida aniqlovchilar”, 1947-yilda “O‘zbek tilida so‘z tartibi”, 1948-yilda “Sodda gap” singari risolalari bilan o‘zbek ilmiy sintaksisining poydevorini yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasi FA Til va adabiyot instituti ilmiy jamoasi tomonidan 1966 -yilda yaratilgan 2 jildli “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” va 1975-yilda nashr erttirilgan 2 jildli “O‘zbek tili grammatikasi” asarlari o‘zbek sintaktik ta’limotini yanada boyitdi. Mustaqillik yillarida o‘zbek tili sintaksisi yangi g‘oyalar bilan boyidi. Mualliflar guruhi tomonidan yozilgan “O‘zbek tilining

mazmuniy sintaksisi”(1992), “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis” (1995), “O‘zbek tilining struktural sintaksisi” (2003),N.Mahmudov va R.Sayfullayevalarning ergash gapli qo‘shma gaplar va umuman qo‘shma gaplarga doir yangicha qarashlari o‘zbek tili sintaksisi bo‘limini yangi pog‘onaga olib chiqdi.

80-yillardan boshlab o‘zbek tilshunosligi oldida o‘rganilayotgan obyektni tavsifiy bosqichdan tadqiqot bosqichiga ko‘tarish o‘zbek tilining barcha sath birliklarini sistem-struktur o‘rganish metodikasi nuqtai nazaridan tadqiq qilish vazifasi[1;-Б.2] ko‘ndalang qilib qo‘yildi. Suu yillardan boshlab gapga sistema sifatida yondashuv gapning eng muhim struktur markazi sifatida kesim e’tirof etila boshlandi va gapning boshqa bo‘laklari kesimning kengaytiruvchilari sifatida izohlana boshlandi. Bunday g‘oya A.Nurmonov, N.Mahmudov, H.Ne’matovlar tomonidan olg‘a tashlangan bo‘lsa, keyinchalik R.Sayfullayeva, M.Qurbonova, M.Boshmonov, L.Raupova va boshqalar tomonidan rivojlantirildi. Xususan, N.Mahmudov, A.Nurmonovlar tomonidan yozilgan “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi”da kesimga quyidagicha baho beriladi: “O‘zida predikativlikni aks ettiradigan, gapni uyushtiruvchi va shakllantiruvchi markaziy bo‘lak kesimdir. Kesim gapning markaziy bo‘lagi bo‘lganligidan gapning butun tavsifi-grammatik kategoriyalari: tasdiq-inkorlik, shaxs (personallik), zamon (temporallik), kommunikativ maqsad va hokazolar kesimga qarab belgilanadi. Kesim gap qurilishida uyushtiruvchilik rolini o‘ynaydi”.[2;-Б.66]

Yuqoridagi tadqiqotlardan shu ma’lum bo‘ladiki, gap bo‘laklari talqini masalasi fanda munozarali bo‘lgan. Bu bosh bo‘laklar masalasida ham kuzatiladi. Jumladan, bosh bo‘laklarni belgilashda ega va kesimni gapning mazmuniy va grammatik markazlari sifatida har ikkisini bosh bo‘lak tarkibiga kirituvchi ikki cho‘qqili an’anaviy qarash va L.Tenyer asos solgan faqat kesimni mazmuniy va grammatik markaz sifatida qarovchi yangi yo‘nalish maydonga keldi. Ikki cho‘qqili nazariyada ega bilan kesim har qanday gapning predikativ markazi, mazmuniy va grammatik tayanch nuqtasi, boshqa bo‘laklar esa shu ikki bo‘lakka grammatik va mazmunan bog‘lanib, ularga nisbatan tobe vaziyatda turuvchi bo‘laklar sanaladi. Shuning uchun ular ikkinchi darajali bo‘laklar hisoblanadi.

Gap kesimini shakllantiruvchi vosita kesimlik kategoriyasi bo‘lganligi sababli o‘zbek nutqidagi gapning tarkibiy qismini shu gap tarkibiga kiruvchi so‘zning va kesimlik kategoriyasi shaklining valentligi belgilaydi.[3;-Б.58.] Demak, nutqiy gaplardagi ikki hodisani farqlash lozim:

1) gap markazini tashkil etuvchi so‘zdagi kesimlik kategoriyasi **shakllariga** bog‘lanuvchi so‘z;

2) gapda ishtirok etayotgan ma’lum bir so‘zning ma’noviy valentligini to‘ldirayotgan so‘z.

Bulardan birinchisi gap kengaytiruvchisi bo‘lsa, ikkinchisi – so‘z kengaytiruvchisi.

Gap kengaytiruvchisi gap tarkibida ma’lum bir bo‘lak vazifasida kelayotgan so‘zlarning lug‘aviy ma’nosiga emas, balki gapning kesimini shakllantirgan morfologik vositaga bog‘lanadi. Masalan: *Biz bu kitobni kecha o‘qidik* gapini olaylik. Bu gapda ega (*biz*), aniqlovchi (*bu*), hol (*kecha*) va kesim (*o‘qidik*) ishtirok etgan. Gap markazi (*o‘qidik*) ni lug‘aviy ma’noni anglatuvchi (**W**) va kesimlik qo‘shimchalari ($\mathbf{P_m}$) ga ajratamiz: *o‘qi* (**W**) - *dik* ($\mathbf{P_m}$). Gapdagi *biz* (ega) kesimlik kategoriyasi shaklining (-*k*) qismiga, *kecha* (hol) esa (-*di*) qismiga bog‘langan. *Kitobni* so‘zi (to‘ldiruvchi) kesimning lug‘aviy ma’no anglatuvchi qismiga, *bu* (aniqlovchi) esa *kitobni* so‘ziga bog‘lanmoqda.

Demak, gapning kesimi tarkibidagi kesimlik qo‘shimchalariga tobelangan *kecha* (hol) va *biz* (ega) so‘zlari – gap kengaytiruvchilari. Biroq *o‘qidik* kesimining lug‘aviy ma’no anglatuvchi qismi bo‘lgan *o‘qi* so‘zi istalgan boshqa fe’l (*yoz, chiz, ol, ber*) bilan almashtirilib, [-*dik*] qismi saqlab qolinsa, *biz* so‘zi ega, *kecha* so‘zi hol vazifasida qolaveradi.

Gap tarkibidagi mustaqil so‘zlik mavqeini saqlagan barcha so‘zlarning ma’noviy qobiliyati asosida kengaya olishini va shu qobiliyatni namoyon qilishini ta’minlovchi lug‘aviy birlik *so‘z*

kengaytiruvchisi deyiladi. So‘z kengaytiruvchisi gapning qurilishiga bevosita aloqador hodisa bo‘lmay, ma’lum bir so‘zning ma’nosini muayyanlashtirish, uni ochib berishga aloqador bo‘lgan hodisa. So‘z kengaytiruvchisi mustaqil, alohida bir gap bo‘lagi – gap qurilishining zaruriy tarkibiy qismi emas. U gapning ma’lum bir bo‘lagiga ergashib, tobelanib keladi, gap markazi – kesim tarkibidagi kesimlik qo‘shimchasi bilan bog‘lanmaydi. Aniqlovchi ana shunday bo‘lakning tipik ko‘rinishi. Masalan, *Bu kitobni kecha o‘qidik* gapidagi *bu* aniqlovchisi to‘ldiruvchi (*kitobni*) ga tobelangan va gap tarkibida to‘ldiruvchi bilan bir butun holda kesimga bog‘lanadi.

Demak, to‘ldiruvchi ham aniqlovchi kabi so‘z kengaytiruvchisi bo‘lib, gapning qurilishida mustaqil o‘rin egallamaydi, balki gap tarkibiga o‘zi bog‘lanayotgan o‘timli fe’l bilan birga kiradi. O‘timli fe’l gapda qanday mavqeda kelmasin, vositasiz to‘ldiruvchi u bilan bir butunlikni tashkil etib, shu butunlikka nisbatan bo‘lak maqomida bo‘ladi. Boshqacha aytganda, mazkur gapda to‘ldiruvchi gapning bo‘lagi emas, balki kesimning bo‘lagi – bo‘lak ichidagi bo‘lak.

Gap bo‘laklari (**P_m**) ma’nosi bilan uzviy bog‘liq. Shu boisdan gap bo‘laklarini ko‘rib o‘tish uchun bevosita gapning “jon”ini, markazini shakllantiruvchi vosita – kesimlik kategoriyasining tarkibi, ma’nolari va ifodalanish usullariga qisqacha sharh berishi zarur. Zero gap kengaytiruvchilari tushunchasi, ularni belgilash, shu asosda gapning struktur zaruriy va ixtiyoriy tarkibiy qismlarini ajratish gapning “yuragi”, gapning gap ekanligini ta’minlovchi kesimlik kategoriyasi va uning ko‘rsatkichi, ifodalanish xususiyati bilan uzviy bog‘liq. Shu sababli, gapning gapligini, ya’ni bir nisbiy tugal fikrni boshqalarga yetkazish, ular tomonidan to‘g‘ri anglanishining eng muhim omili – bu nutq bosqichida nutq sharoiti, lisoniy bosqichda esa kesimlik kategoriyasi.

Demak, kesimlik kategoriyasi fikrni shakllantiruvchi, uni tinglovchiga yetkazishning eng muhim lisoniy vositasi asosi.

ADABIYOTLAR

1. Нурмонов А. Талаб, эҳтиёж, имконият. Олий ва ўрта мактабда ўзбек тилини ўқитишни қайта қуришнинг йўналишлари // “Ўқитувчи” газетаси. – 5-март 1988 й.
2. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. – Т.: Ўқитувчи, 1995.
3. Mualliflar jamoasi Zamonaviy o‘zbek tili. II jild. Sintaksis. Toshkent, “Mumtoz so‘z”.2011.

MAHMUD KOSHG‘ARIYNING “DEVON-U LUG‘OT-IT TURK” ASARIDA ZOONIM KOMPONENTLI MAQOLLAR TASNIFI

MUSTAFOYEVA MOHICHEHRA MANSUR QIZI
Navoiy davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: dots. O‘.A. Oripov

ASOSLOV. Ushbu maqolada dunyodagi lug‘atlar bilan bellasha oladigan Mahmud Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘ot-it turk” asarida qo‘llangan zoonim komponentli maqollarni semantik jihatdan tasnifladik va guruhlarga ajratdik.

KALIT SO‘ZLAR: maqol, onomastika, zoonim, zoonim komponent, “Devon-u lug‘ot-it turk”

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning: “Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga quloq tutsin”, – degan fikrlari bejiz emas. [Mirziyoyev Sh., 2019]

“Maqol” atamasi arabcha qavlun – gapirmoq, aytmoq so‘zidan olingan bo‘lib, maqollar xalq tajribasidan o‘tgan, voqea-hodisalarning so‘zdagi o‘zgarmas ifodasidir. [Suvonqulova X., 2014. – S. 15.] Maqollarda hayvon timsolidan ko‘pincha ma’lum bir sifat, xususiyat yoki holatlarni

ifodalash uchun foydalanilgan. Hayvonlar orqali ularning timsolida xalqning o‘tmish tarixi, madaniyati, dunyoqarashi, yashash tarzi, hayoti, insoniylik sifatlari va shunga o‘xshash sifatlar yoritilib kelingan. Maqol janrining o‘rganilish tarixi Mahmud Koshg‘ariyga borib taqaladi. Uning “Devon-u lug‘ot-it turk” asarida 260 dan ortiq maqollar o‘rin olgan. Mahmud Koshg‘ariy to‘plagan maqollar juda qadimdan turkiy tilli urug‘ va qabilalarda mavjud bo‘lgan. Shundan 80 dan ortiq maqollar tarkibida zoonimlar uchraydi. Devondagi maqollar tarkibida eng faol qo‘llanuvchi zoonimlar sirasiga arslon, bo‘ri, eshak, ho‘kiz, it, ilon, ot, qush, qo‘y, tuya, tulki va boshqa jonivorlarni kiritish mumkin.

Ushbu maqolamizda esa zoonim komponentli maqollarni semantik jihatdan tasnifladik. Quyidagi semantik guruhlarga ajratishni joiz deb topdik:

1. Vatanparvarlik mavzusidagi maqollar. “Tulku o‘z iniga ursa, ujuz bo‘lur” (Tulki o‘z uyasiga qarab ulisa, qo‘tir bo‘ladi). Bu maqol o‘z elini, urug‘ini va mamlakatini yomonlovchilarga qarata aytiladi. [Mahmud Koshg‘ariy, 1-tom. 1963. –S. 88]
2. Mehnat va mehnatsevarlik mavzusida 2 ta maqol tarkibida zoonimlar keltirilgan bo‘lib, “Tuya silkinsa eshakka juk chiqar” (Tuya silkinsa, undan bir eshakning yuki chiqadi). Ushbu maqol kichik ishni tashlab, katta ishga kirishishga undab aytiladi. [Mahmud Koshg‘ariy, 2-tom. 1963. –S. 286]
3. Do‘stlik – hamjihatlik mavzusida 10 ta maqol tarkibida zoonimlar keltirilgan bo‘lib, “Bir qarg‘a birla qish kelmas”. Bu maqol ishga yordam berishi mo‘ljallangan do‘stining kelishini kutishda hovliqmaslik, sabr qilib ishlashga undab so‘zlanadi. [Mahmud Koshg‘ariy, 2-tom. 1963. –S. 33]
4. Mardlik va qo‘rqoqlik mavzusida 2 ta maqol tarkibida zoonimlar uchraydi. “Qorqmish kishiga qoj bashi qosh ko‘runur” (Qo‘rqqan odamga har qo‘yning boshi juft ko‘runur). Bu maqolni har narsadan qo‘rqqan, hatto, u narsani xayol qilganda ham, har vaqt qo‘rqadigan kishiga nisbatan qo‘llash mumkin. [Mahmud Koshg‘ariy, 3-tom. 1963. –S. 139]
5. Ehtiyotkorlik va tadbirkorlik mavzusidagi maqollar. Ushbu mavzuda 16 ta maqol mavjud. “Awchi necha al bilsa, azig‘ ancha al bilir” (Ovchi qancha ov hiylalarini bilsa ayiq ham shuncha qochish yo‘llarini biladi). Bu maqol ikki tajribali kishi tortishib qolganda qo‘llanadi. [Mahmud Koshg‘ariy, 1-tom. 1963. –S. 91]
6. Vafodorlik va xiyonatkorlik mavzusida “Qul jag‘i it bo‘ri” (Qul – dushman, it bo‘ri) maqoli berilgan bo‘lib, qul qo‘lidan kelsa, egasining molidan olib, fursat topib qochishning payiga tushadi. It ham xonadon uchun bo‘ridir. Chunki u yeydigan narsa topsa, undan o‘zini tiya olmaydi. Bu maqol qulning xo‘jayniga kam vafo qilishini bildirish uchun qo‘llanadi. [Mahmud Koshg‘ariy, 1-tom. 1963. –S. 342]
7. Odob va tarbiya mavzusida 9 ta maqolda hayvon nomlari uchraydi. “Mush og‘li mujav tug‘ar” (Mushukning bolasi onasiga o‘xshab miyovlaydi). Bu maqol xulqi ota-onasiga o‘xshagan bolaga nisbatan qo‘llanadi. [Mahmud Koshg‘ariy, 2-tom. 1963. –S. 22]
8. Qadr va qimmat mavzusida 4 ta maqol tarkibida zoonimlar uchraydi. “O‘kuz azaqi bolg‘incha, buzag‘u bashi bolsa jik” (Ho‘kizning oyog‘i bo‘lguncha, buzoqning boshi bo‘lgan yaxshiroq). Bu maqol “mustaqillik, kimgadir bo‘ysunib yashashdan yaxshiroq” degan ma’noda qo‘llanadi. [Mahmud Koshg‘ariy, 1-tom. 1963. –S. 91]
9. Yaxshilik va yomonlik mavzusida 5 ta maqol tarkibida zoonimlar qo‘llangan bo‘lib, “Jilan kendu egrisin bilmas, teshaj bojnin egri der” (Ilon o‘zining egriligini bilmaydi-da, tuyaning bo‘ynini egri deydi). Bu maqol birovning aybini so‘zlovchi g‘iybatchilarga nisbatan qo‘llanadi. [Mahmud Koshg‘ariy, 1-tom. 1963. –S. 147]
10. To‘g‘rilik, rostgo‘ylik va munofiqlik mavzusida 2 maqol tarbida zoonimlar uchraydi. “Kishi alasi ichtin, jilqi alasi tashtin deydilar” (kishining olasi ichida, yilqiniki tashida). Bu maqol dilidagi xiyonatni yashirib, yoqimli muomala qiluvchilarga nisbatan qo‘llanadi. [Mahmud Koshg‘ariy, 1-tom. 1963. –S. 117]
11. Qanoat, sabr-chidam va sabrsizlik mavzusida 3 ta maqolda zoonimlar berilgan. “Jazidaqi sushlin ezargali, eshdag‘i taqag‘u ichg‘inma” (Qirg‘ovul oviga chiqsang, uydagi

tovuqni unutma). Bu maqol yo‘q narsalarga ishonib, qo‘lidagilardan ayrilib, quruq qoluvchilarga nisbatan aytiladi. [Mahmud Koshg‘ariy, 1-tom. 1963. –S. 418]

12. Maqtanchoqlik va kamtarlik mavzusida 5 ta maqol tarkibida zoonimlar uuchraydi. “Sandilach ishi ermas o‘rtugun tepmak” (Xirmon yanchmoq sa’vaning ishi emas). Bu maqol kuchsiz bo‘la turib, katta ishga intiluvchi, lekin bajara olmaydiganlarga nisbatan qo‘llanadi. [Mahmud Koshg‘ariy, 1-tom. 1963. –S. 479]
13. Insof va adolat, zulm va adolatsizlik mavzusida 8 maqolda zoonimlar keltirilgan. “Ikki bug‘ra igashur otra ko‘kagun janchilur” (Ikki er hayvon olishadi, orada ko‘kagun (pashsha) yanchiladi). Bu maqol ikki amir uushib, orada kuchsizlar, xalq azob chekishiga nisbatan qo‘llanadi. [Mahmud Koshg‘ariy, 1-tom. 1963. –S. 196]

Hayvon nomlari asosida shakllangan maqollarni quyidagi uch katta guruhga bo‘lish mumkin:

